

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“MADANIYATSHUNOSLIK”
KAFEDRASI**

**“BIBLIOGRAFIYASHUNOSLIK”
fanidan**

O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

Ta'lif sohasi: 320 000 - Jurnalistika va axborot

Ta'lif yo'nalishi: 60320400 - Kutubxona-axborot faoliyat
(faoliyat turlari bo'yicha)

Namangan – 2021

O`quv-uslubiy majmua O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 202__ yil __ _____dagi ____-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

O.Topildiyev – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi:

Z.Xaydarov – tarix fanlari nomzodi, dotsent

O`quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashining 2021 yil_____dagi____-son yig`ilishida ko`ribchiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Ma'ruza matni
Seminar mashg'ulotlar topshiriqlar.....
Mustaqil ta`lim mashg`ulotlari.....
Glossariy.....
Ilovalar:
Fan dasturi
Ishchi fan dasturi
Tarqatma materiallar
Testlar.....
Nazorat uchun savollar (J.N., O.N., Ya.N.).....
Baholash mezonlari

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“MADANIYATSHUNOSLIK”
KAFEDRASI**

**“BIBLIOGRAFIYASHUNOSLIK”
fanidan**

MA`RUZALAR MATNI

NAMANGAN -2021

Ushbu ma`ruzalar matni Namangan davlat universiteti «Madaniyatshunoslik» kafedrasining 2021 yil _____dagi №____-sonli bayonnomasi bilan muhokama qilingan va Namangan davlat universiteti Musiqa ta`limi va madaniyat fakul'teti kengashining 2021 yil _____dagi №____-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Namangan davlat universiteti Kengashining 2021yil _____dagi №____-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlanib, foydalanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi:

O.Topildiyev – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi:

Z.Xaydarov – tarix fanlari nomzodi, dotsent

1-mavzu: “Bibliografiyashunoslik”fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. “Bibliografiyashunoslik” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va tamoyillari.
2. Bibliografiyaning tayanch belgilari. Bibliografiyaning asosiy turlari.
3. Bibliografiyani tashkil etish maqsadi.
4. Bibliografik mahsulotlar haqida tushuncha va ularning ahamiyati.
5. Bibliografiyaning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati.

Tayanch iboralar

“Bibliografiyashunoslik” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Bibliografiyaning tayanch belgilari. Bibliografiyaning asosiy turlari. Bibliografiyani tashkil etish maqsadi. Bibliografik mahsulotlar haqida tushuncha va ularning ahamiyati. Bibliografiyaning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng jamiyat taraqqiyotining barcha bo‘g‘inlarida — siyosatda, iqtisodda, shuningdek, ma’naviyatda va madaniyatda ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. Mustaqillik yillarda to‘plangan tajribalar, dunyo jamoatchiligi tomonidan o‘zbek modeli deb tan olingen o‘zimizga xos va o‘zimizga mos bo‘lgan taraqqiyot yo‘li — kelajagi buyuk davlatni barpo etish yo‘lidagi amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o‘zgarish va yangilanishlar yurtdoshlarimizning qalbi va ongiga hamda shuuriga ulkan ta’sir ko‘rsatmoqda. Ma’naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o‘zligimizni chuqurroq anglash, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimiz ongiga singdirish asosiy vazifalarimizdandir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilab berilgan vazifalarimizni izchil davom ettirish, ta’lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida takomillashtirib borish davlatimiz qudrati va mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan bilimli, dono va ma’naviy barkamol kadrlarga bog‘liq. Bu har bir kishidan ana shunday ulkan axborot olamiga kirib borishda, undan o‘ziga zarur va eng qimmatli axborotni ola bilish ko‘nikmasini, mahoratini, san’atini egallashni talab etmoqda. Internet tizimi ham juda kengaydi. Endi kitobxon dunyo miqyosida o‘zi istagan davlatning kutubxonasi fondidagi adabiyotlar haqida ham, dunyo ma’naviyatidagi o‘zgarishlar haqida ham bemalol o‘z kutubxonasida o‘tirib ma’lumot olish imkoniga ega. Bu esa axborot manbalari bilan axborot iste’molchilar o‘rtasida qarama-qarshiliklarga sabab bo‘lmoqda. Endi iste’molchi tobora axborot qidirishda, uni tanlashda, undan unumli foydalanishda, uni qayta ishlab chiqishda yordamga muhtojlik sezmoqda. 2006- yil 20- iyunda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minalash to‘g‘risidagi qarori“da aholiga axborot-kutubxonachilik xizmati ko‘rsatishni yaxshilash, axborot-resurs markazlari sifatida kutubxonalarni qayta tashkil etish, buning uchun chora-tadbirlar belgilash, ularda o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini o‘stirishga e’tiborni qaratish, aholining olamshumul axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalarining ham imkoniyatlaridan foydalanish vazifasi qo‘yildi. 2011-yil 23-fevralda qabul qilingan bu qaror „2011—2015- yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborotkutubxona va axborot-resurs xizmatini yanada sifatli takomillashtirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida“ deb nomlandi va 2015-yilga qadar mamlakatimiz kutubxonalari qoshida 1815 ta elektron kutubxona va ular uchun 400 mingdan oshiq elektron shakldagi axborot-kutubxona resurslarini yaratish vazifasi belgilab berildi. Ana shu vazifalarni amalga oshirishda bibliografiya yordamga keladi.

Bibliografiyashunoslik fanini o‘qitish bilan zamon talablariga javob berish, hozirgi bosqichda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari oldida turgan vazifalarni talabaga etkaza olish, bibliografiya fanining shakllanish va rivojlanish, amaliyatga tatbiq etish yo‘llarini ochib berish bilan talabada: bibliografik faoliyatning ilg‘or tajribasini tez ilg‘ay olish va targ‘ib qilish; fikrlash qobiliyatini faollashtirish, mustaqil rivojlantirib borish; bibliografik bilimlarni va ko‘nikmalarni kengroq, ongli va mustahkam egallash; maxsus bibliografik atamalar,

tushunchalar, qoidalar bilan tanishib borish; mustaqil bajarilgan ishlarini - sharhlar, esdaliklar, o'qish rejalar, ro'yhatlar, kartotekalar, elektron bibliografik qo'llanmalarni darsda namoyish qilish. Barcha soha bo'limlaridagi xujjatlarni, bibliografiyaning nazariy va tashkiliy asoslarini o'rganish; axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarida bibliografik ishlarini uslubi va tashkil qilinishini bilish; sohada axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha amaliy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish, barcha bilim sohalariga oid bibliografiyaning tur va xillarini bilish ko'nikmasini tarbiyalashdan iborat.

Bibliografiya va bibliografiyashunoslik maxsus predmetlardan bo'lib, kutubxonachi kadrlar tayyorlovchi fakultetlarda, madaniyat, san'at va pedagogika kollejlarning kutubxonachilik bo'limlarida o'tiladi. Bibliografiya kursini o'rganish nazariy masalalar, amaliy mashg'ulotlar, tajriba darslari, mustaqil ishlar yordamida olib boriladi. Kutubxonalarda olib boriladigan ishlab chiqarish amaliyotlari davomida ma'ruza matnlarida berilayotgan nazariy masalalar amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish orqali mustahkamlanib boriladi. **Talaba** o'zini o'zi muntazam tekshirib borish, nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi. Mazkur o'quv qo'llanma birmuncha murakkab, ammo juda qiziqarli bo'lib, kutubxona ish faoliyatida foydali bo'lgan bibliografik va axborot jarayonlarini o'rganishda sizga yordam beradi. Chunki barcha mutaxassislikka oid fanlar bu fan bilan bog'liq holda o'r ganiladi, kutubxona ish jarayonlarining barcha sohalarida ana shu fan yordamida olingan bilim zarur bo'ladi, kitobxonlarga o'ziga mos axborotni topish va yetkazib berish, o'z vaqtida axborot berish ham shu fan yordamida o'rganiladi. Bibliografiya predmeti o'quvchilarni kitobni bilish, uning sirlarini anglash, axborot tanlash, uni kitobxonga yetkazib berish ilmi bilan qurollantiradi. Bibliografiya milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini targ'ib etishda, adabiyotlarning turli xil ro'yxatlarini tuzishni, ko'rsatkich va bibliografik qo'llanmalarni tuzish metodikasini, kerakli ma'lumotlarni qayerdan, qaysi 5 yo'l bilan, qaysi vositalar yordamida olish kerakligini, kutubxonada kartotekalar tuzish, kitobni targ'ib qilish metodikasini o'rgatadi.

Bibliografiya fani 3 yil davomida o'qitilib, 2 ta asosiy qismga bo'linadi:

1. Umumiy bibliografiya.
2. Soha bibliografiyasi.

Bibliografiyaning umumiy qismida bibliografiya nazariyasi va tashkil qilinishi, uning ijtimoiy roli, turlari, bibliografiyaning obyektlari, bibliografik faoliyat turlari, uning asosiy jarayonlari, axborot-bibliografik resurslar, bibliografiyalash metodikasi, O'rta Osiyoda bibliografiya tarixi, O'zbekistonda retrospektiv, tavsiya va ilmiy-yordamchi bibliografik qo'llanmalar va boshqa masalalar o'rganiladi.

Bibliografiya fanini o'rganish ta'lim jarayonida o'r ganiladigan barcha mutaxassislik fanlari „Kutubxonashunoslik“, „Hujjatlar fondi va elektron katalog“, „Kutubxona menejmenti“, „Axborot-kutubxona texnologiyasi“, „Internet tizimidan foydalanish“, „Kutubxona ishini avtomathashtirish“, „Elektron kutubxona“, „Axborot-kutubxona dizayni“, umumta'lim fanlari nutq madaniyati, pedagogika, psixologiya fanlarida o'r ganiladigan bilimlar juda kerak bo'ladi. Bibliografiya ishi bilimli, sabr-toqatli, sinchkov va ziyrak kishining ishi ekanligini unutmang. "Bibliografiya" atamasidan foydalanish ko'plikning aniq xususiyatlarini sotib olgan. Eng muhim va barqaror qadriyatlarni ajratish mumkin:

- 1) "Bibliografiya" alohida bibliografik ish, bibliografik ma'lumotli ko'rsatgich sifatida;
- 2) "bibliografiya" davriy matbuotning har qanday belgisi yoki bibliografiyasi tomonidan ajratilgan bibliografik asarlar to'plami sifatida;
- 3) "bibliografiya" fan, mavzu va vazifalar, ularning turli vaqtlarida va turli mualliflar turlicha shakllantirildi;
- 4) "bibliografiya" sifatida amaliy (yoki ilmiy va amaliy) faoliyat sohasi va axborot iste'molchilarining bibliografik xizmatlarini tayyorlash bo'yicha amaliy faoliyat sohasi sifatida;
- 5) "Bibliografiya" sifatida yuqorida barcha va boshqa bibliografiy hodisalarini o'z ichiga olgan eng keng jamoaviy tushuncha sifatida.

Nazorat savollari.

1. "Bibliografiyashunoslik" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va tamoyillari xaqida

- nimalarni bilasiz?
2. Bibliografiyaning tayanch belgilari xaqida nimalarni bilasiz?
 3. Bibliografiyaning asosiy turlari xaqida nimalarni bilasiz?
 4. Bibliografiyani tashkil etish maqsadi xaqida nimalarni bilasiz?
 5. Bibliografik mahsulotlar haqida tushuncha va ularning ahamiyati xaqida nimalarni bilasiz?
 6. Bibliografiyaning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati xaqida nimalarni bilasiz?

2-mavzu: Bibliografiyaning tarixi: bibliografiya tushunchasi, kelib chiqishi, zamonaviy talqini.

Reja:

1. Bibliografiya tushunchasi, uning kelib chiqishi va shakllanish tarixi, hozirgi davrdagi mazmuni va ahamiyati.
2. Bibliografiyashunoslik tushunchasi, ilmiy konsepsiysi va tushunchalar tizimi.
3. Bibliografiyaning ahamiyati, hozirgi kundagi ijtimoiy mohiyati.

Tayanch iboralar

Bibliografiya, bibliografiyashunoslik, qog'oz, bibliografiya nazariyasi, bibliografiya texnologiyasi, bibliografiya uslubiyati, bibliografiyani tashkil etish.

„Bibliografiya“ so'zi birinchi marta Qadimgi Gretsiyada qo'llanilgan. So'zma-so'z tarjima qilinganda biblion- „kitob“, grapho - „yozaman“ degan ma'noni anglatadi. Kitob nashr etish ishi boshlangunga qadar bu tushuncha kitobni yozish, ko'chirib yozish ma'nosida qo'llanilgan. U vaqtarda kitobni yozish va ko'chirib yozish qo'l mehnati bilan amalga oshirilgan. Bu ishni bajarganlarni bibliograflar deb atashgan. O'sha paytda bibliograflardan alohida mukammal bilim talab etilmasdan, faqat yozishni va o'qishni bilish talab qilingan bo'lsa-da, bu ish juda yuqori malakali va istiqbolli ish hisoblangan. Qog'oz kashf bo'lgunga qadar O'rtayer dengizi mamlakatlarida papirus, Mesopotamiyada loy plastinkalardan, Xitoyda ipakdan, Hindistonda palma daraxti barglaridan foydalangan holda axborotning qo'lyozma shakllarini tarqatishgan. Ikkinci darajali axborotning qadimgi shakllari yozma madaniyat tarixi bilan bog'liq bo'lib, Vizantiyaning bibliografik yodgorliklari, Shumerning bibliografik matnlari, amerikalik tadqiqotchi S. N. Kramerning va boshqa Assuriya madaniyati namoyandalarining asarlarida tasdiqlangan. Eramizdan oldingi uchinchi ming yillikda yer yuzidagi birinchi kutubxonalar Qadimgi Shumerda paydo bo'lgan. Shumer xonligidagi kutubxona xodimlari loytablichkalardagi klin yozuvlarini katta yopiq qutilarda va savatlarda saqlaganlar. Nishopur saroyida Lagash arxeologlari tomonidan minglab (20000 dan ko'p) ana shunday loy-tablichkalar topilgan. Ana shunday katta fondga ega bo'lgan kutubxonalar jamg'armasidan o'ziga kerakli tablichkani 7 topishning o'zi bo'limgan. Qadimgi Shumer kutubxonachilari bunday holatdan chiqa bilganlar. Ular har bir qutini yoki savatni alohida o'ziga xos va undagi materiallar mazmuniga muvofiq nomlar bilan ataganlar. Bunday tartibga solish kutubxonachilik ishidagi birinchi kataloglardir. Bu foydalanuvchiga kutubxonada mavjud hujjatni qidirishga va oson topishga yordam bergen. Shunday qilib, kutubxona xodimi birinchi bo'lib kutubxona katalogi ko'rinishida o'z kutubxonasida maxsus tablichka-ko'rsatkichlarni qo'llash bilan katalog shaklidagi bibliografik axborotni kashf etdi. Keyinchalik kataloglar bibliografik axborotning manbasi sifatida anchagina qadimgi yirik kitob saqlash muassasalariga bo'ysungan. O'sha vaqtida Jenevada mavjud bo'lgan kutubxona katalogi haqidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. U Assuriya shohi Ashshurbanipalga qarashli bo'lgan. Bu eramizdan oldingi VI asrga oid juda katta bir qancha o'n ming dona loy-tablichkalaridan iborat kutubxona bo'lib, adabiyotlar, asosan, o'sha davrga xos grammatika, she'riyat, tarix, huquq, tabiat haqidagi fan, geografiya, matematika va dinga oid edi. Kutubxonaning sistemali katalogi unda ishlaydigan juda katta olimlar va yozuvchilar (xattotlar) guruhi tomonidan yaratilgan. Qadimgi Misrdagi Edfu shahrida „Papirus uyi“ nomli kutubxona bo'lgan. Uning binosi hozirgacha saqlanib qolgan va qo'lyozmalarning birortasi ham yo'qolmagan. Bizgacha yetib kelgan katalog yordamida

kutubxona fondi haqida to‘la ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin. Katalog 2 qismdan iborat: har ikkala qismda turli masalaga oid adabiyotlar ro‘yxati berilgan. 1- qism 12 ta quti, 2- qism 22 ta qutidagi adabiyotlar mazmuni haqida ma’lumot beradi. Miloddan avvalgi III asrda Ellistik Misrda Aleksandriya kutubxonasi turli tildagi milliondan ortiq hujjatlar to‘plangan zamonasining gullab-yashnagan kutubxonasi edi. Uning kutubxonachisi olim va shoir Kallimax hajmiga ko‘ra tarixiy-adabiy va bibliografik ish deb tan olingan va mashhur bo‘lgan, ammo bizgacha saqlanmagan „Bilimning hamma sohasida sharaf topganlarning jadvali“ni tuzgan edi. U haqda materiallar yetib kelgan. Unga ko‘ra, bu bir tomondan Aleksandriya kutubxonasining 8 dan 1 qismini aks ettirgan, ikkinchidan, Kallimaxga ma’lum bo‘lgan o‘sha vaqtgacha birinchi manbasining qayerda saqlanishidan qat‘i nazar grek adabiy asarlari va mualliflar 8 haqidagi biografik ma’lumotlarni bergen. Kallimax jadvali o‘zida bibliografik axborot rivojining 2 ta asosiy yo‘nalishini aks ettirgan: 1. Tarixan birinchi va bibliografik axborotning aniq kutubxona fondi bilan bog‘liq katalogi. 2. Tasvirlangan hujjatlarning aniq saqlanish joyiga bog‘liq bo‘lmagan hujjatlar haqida (bu yo‘nalish shu vaqtgacha alohida izohli ma’noga ega emas edi). Tadqiqotchilarining e’tiroficha, dastlabki bibliografik qo‘llanma sifatida bu jadval bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, shu ish bilan bibliografiya tuzish boshlangan. Xuddi shunga o‘xshagan bibliografik ko‘rsatkich kechroq, eramizdan oldingi I asrda Xitoyda „Si lyue“ („Yetti rezyume“) nomi bilan paydo bo‘ldi. Bu ishlar bizga qadar nazariy va amaliy ahamiyatini saqlab qolgan. Qadimgi dunyoda va o‘rtalarda Yevropada kitob bosish ishi ixtiro qilingunga qadar bibliografiya tarixi haqida to‘g‘ri ma’lumotlarni Rossiya davlat kutubxonasining bibliografiya bo‘yicha ilmiy tadqiqot bo‘limining bosh ilmiy xodimi, mashhur bibliograf va vizantiyashunos B. A. Semyonovning tadqiqotlaridan olish mumkin. Uning 1979 — 1982-yillarda o‘tkazgan tadqiqotiga ko‘ra: 1. Vizantiyada aniqlangan barcha yodgorliklarni to‘la yoki qisman bibliografik apparatga ega bo‘lgan qo‘llanma deb hisoblash mumkin. 2. O‘rtalarda grek bibliografiyasini mutnazam rivojlangan bo‘lib, o‘sha davrdagi bibliografiya qadimgi grek va ellistik bibliografiyaning yangi tarixiy jarayondagi davomi edi. 3. O‘sha davr bibliografiyasini uchun keyinchalik kitob bosish ishi paydo bo‘lgandan keyin ham rivojlangan unifikatsiya xarakterli bo‘lib qoldi. 4. Bibliografik matnlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bibliografik yo‘llanmalar (ssilkalar) mualliflarni ko‘rsatishda va aniq bir asarga taalluqli masalalarni ko‘rsatishda qo‘llanilgan. 5. Birinchi rus bibliografik yodgorligi 1073- yil yaratilgan yolg‘on va haqiqiy kitoblarining 3 ta ro‘yxati edi. Antik madaniyat o‘lishi bilan bibliografiya tushunchasi ham yo‘qolib ketdi va keyin yana qaytadan boshqacha sharoitda, boshqacha ma’noda, ya’ni kitob boyliklarini tavsiflash ma’nosida qo‘llanila boshlandi. Bibliografiyaning keyingi taraqqiyoti Yevropada kitob bosishning boshlanishi va axborot madaniyatining poligrafik davri bilan bog‘liq. Bu vaqtli matbuot nashrlari, bibliografik materiallar, maxsus gazeta va jurnallar, davlat biblio-9 grafiyasi manbasi bo‘lmish majburiy nusxalar va to‘plamlar, nashriyot va kitob savdosi tashkilotlarining bosma kataloglari va boshqa bibliografik mahsulotlarning paydo bo‘lishida ko‘rinadi. Bibliografiya fani hayot taqozo etayotgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan amaliy ehtiyojlar tufayli vujudga keldi va rivojlandi. Bibliografik nazariya va amaliyot uzviy bog‘liq, bir-birini boyitadi va nisbatan o‘z mustaqilligini himoya qiladi. Rus bibliografiyasining paydo bo‘lish davri XI — XVII asrda xrestomatiya tipidagi to‘plamlarning paydo bo‘lishiga bog‘liq. XVIII asrda o‘sha davrda har bir davlatda kitob omborlari hisoblangan cherkov kutubxonalari fondini tavsif etish boshlandi. Bu bizgacha yetib kelgan qimmatli XV asrga oid „Kirill-Belozer cherkovi qo‘lyozmalari tavsifi“dir. XVII asrning ikkinchi yarmida „Oglavleniye knig kto ix slojil“ nomli rus kitoblari bilan tanishtirish maqsadida tuzilgan bibliografik ish haqida ma’lumotlar bor. Rus bibliografiyasini tarixi haqiqiy taniqli tashabbuskor bibliograflar — „Rus bibliografiyasining otasi“ deb tan olingan V.S. Sopikov, undan oldin N.I. Novikov nomi bilan bog‘liq. N.I. Novikov 1772- yili o‘z ahamiyatiga ko‘ra birinchi biobibliografik lug‘at va birinchi rus qomusnomasi — „Rossiya yozuvchilari haqida tarixiy lug‘at tuzish tajribasidan“ nomli ishni yaratgan. V. S. Sopikovning buyuk xizmati shundaki, u „Bosmaxona tashkil etilgandan 1813- yilgacha slavyan va rus tillarida bosilgan asarlar va tarjimalarning to‘liq lug‘ati“ni tuzadi, bundan tashqari, u bu asarini 1813 — 1821- yillari

„Rossiya bibliografiyasining tajribasi“ nomi bilan nashr ettiradi. Unda Rossiyada birinchi marta va biz uchun ham eng muhim prinsipial nazariy masalalar — kutubxonachi va bibliografning vazifalari, kitobxonga tavsiya etilayotgan kitobning ahamiyati, muallif fikri va uslubi bilan kitobxonni tanishtirish uchun tuzuvchi tomonidan bibliografik qo'llanmalarining yangi janri — bibliografik ocherklar va antologiyalarni tuzish uchun qo'llaniladigan turli xil vositalar ochib beriladi. XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida „bibliografiya“ so'zi kitobshunoslik (kitob haqidagi fan), kitob tarixi, adabiyot tarixi, adabiy va ilmiy tanqid kabi fanlarni aks ettirdi. Aynan mana shu keng tushuncha V.S. Sopikovning „Bibliografiya insoniyatning eng qadimgi hamma bilimini tushuntiruvchi fandir“ deb xulosa qilishiga sabab bo'ldi. Uning fikricha, bibliografiyaning ahamiyati, umuman, kitobni bilishda, fanlarning holati va bosqichma- 10 bosqich rivojlanib borishini ko'rsatuvchi fan ekanligida ko'rindi. Rus bibliografiyasi tarixida V.G. Anastasevich, N.M. Lisovskiy, N. Gennadi, V.I. Mejov, S.A. Vengerov, A.V. Mezer, N.A. Rubakin, N. Tropovskiy o'zlarining nazariy va amaliy ishlari bilan iz qoldirgan hamda milliy bibliografiyalarning rivojiga ta'sir ko'rsatgan. XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida bibliografiya tushunchasi matbuot asarlari haqida ma'lumotlar toplash ma'nosida qo'llanilib, bibliografiyaning vazifasini ancha qisqartirdi. Shu bilan bog'liq holda bibliografiyaning ijtimoiy vazifasi haqida turlicha fikrlar paydo bo'ldi. Ancha vaqt amaliy faoliyat sohasi, ilmiy fan, alohida bibliografik ko'rsatkichlar, bibliografik qo'llanmalarining yig'indisi sifatida qo'llanib kelindi. Sobiq ittifoq davrida ham bunday yondashish bibliografiya fanining rivojlanishiga, bibliografik faoliyatning takomillashuviga salbiy ta'sir etdi. 1950 — 1960- yillarda bibliograf olimlar, o'qituvchilar, amaliyotchilar bibliografiya tushunchasi, „bibliografiya — faoliyat“, „bibliografiya — bibliografik qo'llanma yoki ularning yig'indisi“, „bibliografiya — bibliografik fan“ kabi nazariy masalalarni ishlab chiqdilar. Natijada birinchi marta „1648-70. Tushuncha va izohlar“ nomli davlat standarti qabul qilindi.

Keyinchalik 1978- yildan kuchga kirgan „GOST 7.0-77 Bibliografiya. Tushunchalar va izohlar“ izohli lug'ati qabul qilindi. Unda bibliografiyaning ilmiy-amaliy faoliyati iste'molchiga bibliografik ma'lumotni tayyorlab, yetkazib beruvchi faoliyat ekanligi, bibliografiyaning tarixi, metodikasi, tashkil etish nazariyasini o'rganuvchi ilmiy fan sifatidagi xususiyatlari ochib berildi. Bibliografiyaning ijtimoiy vazifalari va ahamiyati ham yoritildi, bibliografiyaning maqsadi jamiyatda matbuot asaridan foydalanishga ta'sir etish deb tushuntirildi.

1986-yili „Bibliografik faoliyat. Asosiy tushuncha va izohlar“ nomi bilan GOST 7.0-84 qabul qilindi. Bunda bibliografiya tushunchasi umuman tushib qolgan, bibliografik faoliyat esa bibliografik axborotga bo'lgan talabni bajaruvchi axborot faoliyati sifatida keltiriladi.

2000- yil 1- iyuldan Rossiyada „Axborot-kutubxonachilik faoliyati, bibliografiya“ nomi bilan GOST 7.0-99 kuchga kirdi. Unda bibliografiyaga quyidagicha ta'rif beriladi: **Bibliografiya — bibliografik axborot tayyorlashni, uni tarqatishni va undan foydalanishni ta'minlovchi axborot infratuzilmasidir.** Buni anglash uchun boshqa turdag'i axborot infratuzilmalari va bibliografik axborotni tushunib olish zarur. Davlat standartida axborot infratuzilmasi axborot 11 resurslariga iste'molchilarning kirib borishini ta'minlovchi axborot markazlari, ma'lumotlar banki va bilimlarning, aloqalar tizimining yig'indisi deb ta'rif beriladi. Axborot markazi — axborotni yig'ish, tahliliy qayta ishslash va tarqatish vazifasini bajaruvchi tashkilot. Axborot resurslari umumiyligi ma'noda ishonchli axborotni olish uchun tashkil etilgan ma'lumotlar yig'indisi bo'lib, u matbuot asari va elektron hujjat ko'rinishida bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, bibliografiya — matbuot asarlari, elektron hujjatlar haqida axborot tayyorlab, berish hamda ularni ma'lum ijtimoiy maqsadlarda targ'ib qilish bilan shug'ullanuvchi ilmiy va amaliy faoliyat. Bibliografiya mahsulotlari, nazariyasi, uslubiyati bilan shug'ullanadigan fan bibliografiya fanidir. Bibliografiyashunoslik — bibliografiya nazariyasi, tarixi, metodologiyasi, texnologiyasi, metodikasi va tashkil etishni o'rganuvchi va ishlab chiqaruvchi ilmiy fan. Bir vaqtning o'zida bibliografik faoliyatning jarayonlarini, ayrim turlarini va qirralarini nazariy, tarixiy, metodik va tashkiliy nuqtayi nazardan u yoki bu bilim sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganish va tadqiq qilish talab etiladi. Bu bilan xususiy bibliografiyashunoslik shug'ullanadi. Bibliografiyashunoslik termini XVIII asrda G'arbiy

Yevropada paydo bo‘ldi. XX asrning 70- yillarida aniq ilmiy izohga ega bo‘ldi. Buning 4 ta tarkibiy bo‘limi: nazariyasi, tarixi, metodi, tashkiliy bo‘limi mavjud. Bibliografiya nazariyasi — bibliografiyaning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini o‘rganadi, ilmiy konsepsiyasini va tushunchalar tizimini ishlab chiqadi, hozirgi zamон bibliografik amaliyotni ilmiy tahlil qilishning metodologik negizini ishlab chiqadi, bibliografiyaning va bibliografik fanlarning axborot faoliyatni va informatika, kutubxonachilik ishi va kutubxonashunoslik, kitob ishi va kitobshunoslik bilan o‘zaro aloqasini tahlil qiladi. Rus bibliografiyasining, jumladan, hamdo‘stlik mamlakatlari bibliografiyasining rivojlanishida munosib hissa qo‘sghan A.I. Barsuk, M.G. Voxrisheva, N.E. Dobrinina, Y.S. Zubov, O.P. Korshunov, A.V. Mamontov, I.G. Morgenshtern, I.I. Reshetinskiy, N. A. Slyadneva, A.V. Sokolov, S.A. Trubnikov, Y.M. Tugov, V.A. Fokeyevlar faoliyatini o‘rganadi. Bibliografiya tarixi — uning qonuniyatları va rivojlanish tendensiylarini o‘rganadi. Bunda bibliografiya tarixi jamiyatlar tarixi, siyosat tarixi, jamiyatning iqtisodiy, madaniy-ma’naviy 12 hayoti bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Rus bibliografiyasi tarixi masalalarini mashhur bibliograflar N.V. Zdobnov, M.V. Mashkova, L.M. Ravich, S.A. Reyser, B.A. Semyonovker, K.R. Simonlar o‘rganganlar. O‘zbekiston bibliografiyasi, umuman, O‘rta Osiyo bibliografiyasi tarixini o‘zbek bibliograf olimlaridan M.M. Turopov, Sh.M. Shamsiyev, E.O. Oxunjonov, H.Mamatraimova, turkmanistonlik olim A.Yazberdiyevlar tadqiq qilib o‘rganganlar. Bibliografiya texnologiyasi — axborot resurslarini, bibliografik mahsulotlarni qayta ishlab chiqish mahorati. U axborotni yig‘ish, tashkil etish, saqlash, to‘plash, qayta ishlov berish, qidirish, xulosa qilish, nusxa ko‘paytirish, uni uzatish va tarqatishni ta’minlovchi texnologik komplekslarni takomillashtirishda ishtirot etadi. Bibliografiyaning metodikasi — bibliografiyaning nazariyasi, tarixi, texnologiyasi, amaliyoti bilan uzviy bog‘liq. U bibliografik axborot tayyorlash va iste’molchilarga yetkazishning maqsadga yo‘naltirilgan usullari va uslublari yig‘indisidir. Bibliografiyaning metodikasini ishlab chiqishda bibliograflardan M. A. Briskman, M. P. Bronshteyn, M.P.Gastfer, M.A. Sakdova, S.P. Bavin, S.V. Bushuyev, G.E. Mironov, A.M. Gorbunov, O.A. Gurbolikova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi M. Y. Nosirova, M.Turopov, Sh.M. Shamsiyev, H. Mamatraimovalar faoliyat ko‘rsatadilar. Bibliografiyani tashkil etish — mamlakatda kutubxonachilik va axborot markazlarini tashkil etish, bibliografiya xizmati tizimini yaratish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, jamiyatning axborotga bo‘lgan talabini to‘la qondirish imkonini yaratish uchun xizmat qiladi. Bibliografiyaning ahamiyati Har bir davrda jamiyat taraqqiyoti madaniyatsiz, ma’naviyatsiz amalga oshmaydi, doimo insoniyat ma’naviy bilimga, dunyoni bilinga, ilm olishga, o‘zligini anglash uchun hayotni tushunishga ehtiyoj sezadi. Tevarak-atrof, voqeа va hodisalar, ularning mohiyati, mazmuni, maqsadi, ijtimoiy-siyosiy voqealar, ularning asl mazmuni, maqsadi, foyda va zarari haqida bilim beruvchi, kishilarni ezungulikka, yaxshilikka chaqiruvchi, ruhiy ozuqa beruvchi adabiyotlar haqida tezkorlik bilan, maqsadga mos holda ma’ lumot beruvchi ikkinchi darajali hujjatlar — bibliografik mahsulotlardir.

Turli xil yo‘nalishda tuzilgan bibliografiyalarning ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Bibliografiya undan oldingi davrda yaratilgan madaniy boyliklarimiz, kitobbatchilik, nashriyotchilik ishi tarixi haqida, rivoji haqida ma’lumot beradi.
2. Adabiyotlarning mazmuni, maqsadi, undagi asosiy masalalar, muammolar bilan tanishtiradi.
3. Kitobxon uchun yangi ma’lumot beradi.
4. Kitobxonga o‘qish uchun eng zarur adabiyotlarni tavsiya qiladi.
5. Kitobxonga adabiyot tanlashda yordam beradi.
6. Adabiyot tavsiya etadi.
7. Jamiyat hayotida faol ishtirot etishga, biror-bir sohada muvaffaqiyatlarga erishishda turtki bo‘ladi.
8. Shaxsiy hayotida o‘zgarishlar bo‘lishi uchun zamin yaratadi.
9. Kitobxonda o‘qish madaniyatini, axborot bilan ishslash madaniyatini tarbiyalaydi.
10. Ilmiy-tadqiqot ishlari, tarixni o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib qoladi.

Nazorat savollari.

1. „Bibliografiya“ so‘zining ma’nosi nima?
2. Qog‘oz va uning paydo bo‘lishi, ahamiyati haqida to‘xtaling.
3. Axborot infratuzilmasi nima?
4. Bibliografiya nazariyasi nimani o‘rganadi?
5. Bibliografik axborot nima?
6. Bibliografiyaning texnologiyasi nima?
7. Bibliografiyaning metodikasi nimadan iborat?
8. Bibliografiya tarixi nimani o‘rgatadi?
9. Bibliografiyani tashkil etishdan maqsad nima?
10. Bibliografiyaning ahamiyati haqida gapiring.

3-mavzu: Bibliografiya nazariyasi.

Reja:

1. Bibliografik lug‘atlar, o‘rta asrlar bibliografiyasining rivojlanishii.
2. Bibliografiyaning boshqa turlarini paydo bo‘lishi.
3. Kitob savdosi va bibliografiyaning paydo bo‘lishi.
4. Bibliografik faoliyat.

Tayanch iboralar.

Bibliografik lug‘atlar, o‘rta asrlar bibliografiyasining rivojlanishii. Bibliografiyaning boshqa turlarini paydo bo‘lishi. Kitob savdosi va bibliografiyaning paydo bo‘lishi. Bibliografik faoliyat.

Bibliograflar tarkibidagi birinchi yo‘nalish bo‘yicha to‘rtta ilmiy fanlar, bibliografiya tarixi, bibliografiya tarixi, bibliografik faoliyatni tashkil etish, bibliografik ishlarning umumiy metodologiyasi va texnologiyasini tashkil etish. Ba‘zi bir jihatlardagi bibliografiyani hisobga olgan holda, umumiy bibliograflarga kiritilgan. Umumiy bibliograflarda markaziy o‘rin bibliografiya nazariyasi va tarixining mazmuni va qadriyatlarini egallaydi. Ikkita boshqa fanning doirasida, bibliografik tadbirlarga doir amaliy va uslubiy muammolar ishlab chiqilgan.

Ikkinci ("mavzusi") bibliograflarni farqlash yo‘nalishi individuografik fanlar bo‘yicha taqqoslash, natijalar nazariy, tarixiy va tashkiliy va uslubiy va uslubiy qo‘llanmadan iborat bo‘lgan bibliografik tadbirlar jarayonlari bilan bog‘liq Ko‘rish nuqtalari. Shu asosda xususiy bibliograflarning fanlari va individual muammolari shakllanadi (masalan, bibliografik manbalar, bibliografiya yoki bibliografik xizmat va boshqalar) shakllantiriladi.

Bibliografiyashunoslik — bibliografiya nazariyasi, tarixi, metodologiyasi, texnologiyasi, metodikasi va tashkil etishni o‘rganuvchi va ishlab chiqaruvchi ilmiy fan. Bir vaqtning o‘zida bibliografik faoliyatning jarayonlarini, ayrim turlarini va qirralarini nazariy, tarixiy, metodik va tashkiliy nuqtayi nazardan u yoki bu bilim sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rganish va tadqiq qilish talab etiladi. Bu bilan xususiy bibliografiyashunoslik shug‘ullanadi. Bibliografiyashunoslik termini XVIII asrda G‘arbiy Yevropada paydo bo‘ldi. XX asrning 70- yillarda aniq ilmiy izohga ega bo‘ldi. Buning 4 ta tarkibiy bo‘limi: nazariyasi, tarixi, metodi, tashkiliy bo‘limi mavjud. Bibliografiya nazariyasi — bibliografiyaning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini o‘rganadi, ilmiy konsepsiyasini va tushunchalar tizimini ishlab chiqadi, hozirgi zamon bibliografik amaliyotni ilmiy tahlil qilishning metodologik negizini ishlab chiqadi, bibliografiyaning va bibliografik fanlarning axborot faoliyatini va informatika, kutubxonachilik ishi va kutubxonashunoslik, kitob ishi va kitobshunoslik bilan o‘zaro aloqasini tahlil qiladi. Rus bibliografiyasining, jumladan, hamdo‘stlik mamlakatlari bibliografiyasining rivojlanishida munosib hissa qo‘shtgan A. I. Barsuk, M. G. Voxrisheva, N. E. Dobrinina, Y. S. Zubov, O. P. Korshunov, A. V. Mamontov, I. G. Morgenshtern, I. I. Reshetinskiy, N. A. Slyadneva, A. V. Sokolov, S. A. Trubnikov, Y. M. Tugov, V. A. Fokeyevlar faoliyatini o‘rganadi. Bibliografiya tarixi — uning qonuniyatlar va rivojlanish tendensiylarini o‘rganadi. Bunda bibliografiya tarixi jamiyatlar tarixi, siyosat tarixi, jamiyatning iqtisodiy, madaniy-

ma’naviy 12 hayoti bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Rus bibliografiyasi tarixi masalalarini mashhur bibliograflar N. V. Zdobnov, M. V. Mashkova, L. M. Ravich, S. A. Reyser, B. A. Semyonovker, K. R. Simonlar o‘rganganlar. O‘zbekiston bibliografiyasi, umuman, O‘rta Osiyo bibliografiyasi tarixini o‘zbek bibliograf olimlaridan M. M. Turopov, Sh. M. Shamsiyev, E. O. Oxunjonov, H. Mamatraimova, turkmanistonlik olim A. Yazberdiyevlar tadqiq qilib o‘rganganlar. Bibliografiya texnologiyasi — axborot resurslarini, bibliografik mahsulotlarni qayta ishlab chiqish mahorati. U axborotni yig‘ish, tashkil etish, saqlash, to‘plash, qayta ishlov berish, qidirish, xulosa qilish, nusxa ko‘paytirish, uni uzatish va tarqatishni ta‘minlovchi texnologik komplekslarni takomillashtirishda ishtirot etadi. Bibliografiyaning metodikasi — bibliografiyaning nazariyasi, tarixi, texnologiyasi, amaliyoti bilan uzviy bog‘liq. U bibliografik axborot tayyorlash va iste’molchilarga yetkazishning maqsadga yo‘naltirilgan usullari va uslublari yig‘indisidir. Bibliografiyaning metodikasini ishlab chiqishda bibliograflardan M. A. Briskman, M. P. Bronshteyn, M. P. Gastfer, M. A. Sakdova, S. P. Bavin, S. V. Bushuyev, G. E. Mironov, A. M. Gorbunov, O. A. Gurbolikova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi M. Y. Nosirova, M. Turopov, Sh. M. Shamsiyev, H. Mamatraimovalar faoliyat ko‘rsatadilar. Bibliografiyani tashkil etish — mamlakatda kutubxonachilik va axborot markazlarini tashkil etish, bibliografiya xizmati tizimini yaratish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, jamiyatning axborotga bo‘lgan talabini to‘la qondirish imkonini yaratish uchun xizmat qiladi. Bibliografiyaning ahamiyati Har bir davrda jamiyat taraqqiyoti madaniyatsiz, ma’naviyatsiz amalga oshmaydi, doimo insoniyat ma’naviy bilimga, dunyoni bilishga, ilm olishga, o‘zligini anglash uchun hayotni tushunishga ehtiyoj sezadi. Tevarak-atrof, voqealar, ularning asl mazmuni, maqsadi, foyda va zarari haqida bilim beruvchi, kishilarni ezgulikka, yaxshilikka chaqiruvchi, ruhiy ozuqa beruvchi adabiyotlar haqida tezkorlik bilan, maqsadga mos holda ma’- lumot beruvchi ikkinchi darajali hujjatlar — bibliografik mah-13 sulotlardir. Turli xil yo‘nalishda tuzilgan bibliografiyalarning ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi: 1. Bibliografiya undan oldingi davrda yaratilgan madaniy boyliklarimiz, kitobatchilik, nashriyotchilik ishi tarixi haqida, rivoji haqida ma’lumot beradi. 2. Adabiyotlarning mazmuni, maqsadi, undagi asosiy masalalar, muammolar bilan tanishtiradi. 3. Kitobxon uchun yangi ma’lumot beradi. 4. Kitobxonga o‘qish uchun eng zarur adabiyotlarni tavsiya qiladi. 5. Kitobxonga adabiyot tanlashda yordam beradi. 6. Adabiyot tavsiya etadi. 7. Jamiyat hayotida faol ishtirot etishga, biror-bir sohada muvaffaqiyatlarga erishishda turtki bo‘ladi. 8. Shaxsiy hayotida o‘zgarishlar bo‘lishi uchun zamin yaratadi. 9. Kitobxonda o‘qish madaniyatini, axborot bilan ishslash madaniyatini tarbiyalaydi. 10. Ilmiy-tadqiqot ishlari, tarixni o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib qoladi

Bibliografik faoliyat (BF) - bu kutubxonalar, ilmiy- texnika axboroti (ITA) organlari, nashriyotlar va hujjatlar aloqa yo`llari tizimidagi boshqa jamoat institutlari tomonidan ilmiy - yordamchi, ishlab chiqarish, **tarbiyaviy**, targ`ibotchilik va boshqa maqsadlarda bibliografik axborotga bo`lgan ehtiyojni har tomonlama qondirishga xizmat qiluvchi hujjatli axborot faoliyati sohasidir.Bu unga maxsus adabiyotda berilgan tarifdir.Qissaroq qilib ta'riflasak, “bibliografik faoliyat - bu bibliografik axborotga bo`lgan ehtiyojni qondirish bo‘yicha axborot faoliyati” deb aytish mumkin. BF idoraviy bo`ysunishidan, kitobxonlar tarkibi, fondining hajmi va ish ixtisosligidan qat’iy nazar barcha tipdagи kutubxonalarda olib boriladi. BF ni kutubxonanining barcha xodimlari bajaradigan vazifasi deb atash mumkin, bibliografiya bo`limi mayjud holda BF kutubxona ishining barcha sohalarida olib boriladi. Ayniqsa, keyingi yillarda bu vazifa kuchaydi, bunga sabab kutubxona ishi jarayonlarida kompyuter texnologiyasining qo`llanilishidir. Bu vatan, shuningdek jahon axborot resurslaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini ochdi. Aynan bibliografik jarayonlar olimlar va mutaxassislarining, shuningdek aholining boshqa barcha guruhlarini tinmay o’sib borayotgan axborot ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha kutubxonachilik va ilmiy-axborot faoliyatini yaqinlashtiradi. Hozirda kutubxonalarning BF ma’lum darajada uning axborot, madaniy va ta’lim muassasa sifatida yuzini ko‘rsatadi. AKM, ARM, boshqa barcha tipdagи kutubxonalar BF ga, ayniqsa yirik ilmiy kutubxonalarga hujjatlar aloqa yo`llari

tizimidagi yuz berayotgan son va sifat o`zgarishlari munosabati bilan talablar doimo o`sib bormoqda. Masalan, kutubxonalardagi bibliografiya ishining mazmuni va hajmiga bosma mahsulotlar sonining o`sishi bilan bir vaqtida ma'lumotlar bazasi va banki soni va iste'molchilar sonining, ularning axborot ehtiyojlarining murakkablashuvi, **axborotning tarqoqligi**, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uni demokratlashtirish va axborotlashtirish masalalarini hal qilishda axborot bilan ta'minlash sonining oshishi kabi o`z xususiyatiga ko`ra ob'yektiv omillar ta'sir qiladi. Kutubxona bibliografiya ishlarini sifati va samaradorligini oshirish, har tomonlama jadallashtirish uni tashkil etishni takomillashtirishni talab qiladi. Kutubxona ishining sifati va samaradaorligi ko`pincha BF ni to`g`ri yo`lga qo`yishdan va uning jamiyatni axborotlashtirish jarayoniga qo`shgan xissasiga bog`liq. Qamrab olishiga ko`ra BF ni tashkil etishni quyidagi darajalarda qarash mumkin:

- mamlakat miqyosida, alohida mintaqaga doirasida;
- alohida olingan kutubxona doirasida;
- bibliografiya bo`limi doirasida;
- alohida bibliografning ishi doirasida.

Kutubxona BF ni tashkil etish ko`pgina ichki va tashqi omillarga bog`liq. Ichki omillar: kutubxona bo`limmalarining soni, ularning hududiy joylashishi, shtatdagi xodimlari soni, ularning kasbiy tayyorlarligi, avtomatlashtirish vositalarining foydalanilish darajasi kabilar.

Tashqi omillar: kutubxonaning tipi **va uning asosiy vazifalari**, idoraviy bo`ysunishi, yakka va jamoaviy (guruhi) abonentlari (foydalanuvchilari) tarkibi, fondining tarkibi va hajmi kabilar. Kutubxonalar bibliografik faoliyatining a s o s i y o` n a l i sh l a r i quyidagilardan iborat:

- kutubxona spravka - bibliografik apparati (SBA) ni tashkil etish va yuritib borish;
- turli mazmundagi, maqsaddagi, turli guruh kitobxonlariga mo`ljallangan bibliografik qo`llanmalar tuzish;
- bibliografik axborot bilan ta'minlash;
- spravka-bibliografiya xizmati ko`rsatish;
- tavsiya bibliografik faoliyati;
- maslahatli va metodik ishi;
- bibliografik bilimlarni targ`ib qilish;
- ilmiy tadqiqot ishi.

Har qanday kutubxona BF ni tashkil etishi asosida quyidagi tamoyillar yotadi:

- kutubxona oldida turgan vazifalarini ushbu sharoitda bajarishda maqsadlilik;
- kutubxona bibliografiya ishini tashkil etishda markazlashtirish va ishni ixtisosli taqsimlashni birga oqilona olib borish;
- barcha foydalanuvchilar guruhiining bibliografik xizmatdan foydalana olishiga erishish. Bibliografiya ishini tashkil etish deganda - kutubxonaning o`z oldida turgan vazifalarini butun mavjud bibliografik vositalardan foydalangan holda bajarishga qaratilgan tadbirlar kompleksi tushuniladi. "Tashkil etish" atamasi barcha ijtimoiy tizimlar, jumladan kutubxonachilik va bibliografik tizimlarga nisbatan 2 ma'noda qo`llaniladi. Birinchidan, tashkil etish butun biron narsani tavsiflash, alomati (ob'yeqtning, jarayonning). **Ikkinchidan**, ob'yeqt yoki jarayonni tartibga solish, yaxshilashga olib keluvchi faoliyat tushuniladi. Ana shu tartib bo`lishi uchun avvalo uni yaratish, qo`llash kerak. Bu esa - jarayon, faoliyatning ma'lum bir turidir. BF ni tashkil etish mazmun-ma'no nuqtai nazaridan (harakatning o`sib borishi va hisobliligidan) ko`riladi, u bu tizimni yaratish, qo`llash va takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy faoliyat va tashkiliy faoliyatning birligini bildiradi. Umuman bibliografiya ishini tashkil qilish barcha jarayonlarni va ishlarni rejalashtirish, bibliografik xizmatni mustaqil tashkil etish yoki bo`limlar o`rtasida bibliografik xizmatni taqsimlash, bibliograflar o`rtasida lavozim vazifalarini taqsimlash, bibliografik ishni hisobga olish, hisoboti, **tahlil qilish**, muvofiqlashtirish va ishni ixtisoslikka oid taqsimlash, zamonaviy axborot texnologiyalarini tadbiq qilish va yangi texnika vositalaridan foydalanishni o`zi chiga oladi. Bularning hammasini alohida ko`rib chiqamiz. Ana shu sanalgan ishlar va jarayonlar kutubxonada deyarli hamma bo`limlar tomonidan bajarilar ekan. Bibliografiya ishi mazmuni nuqtai-nazaridan qaraladigan "tashkil etish" va "boshqarish" tushunchalarining munosabati masalasi ham e'tiborni tortadi. Tashkil etish tashkiliy ish boshqaruv organi yoki boshqaruvchi kadrlar (menejerlar) tomonidan olib borilishini anglatadi, bu bilan uning mustaqilligini, boshqaruv faoliyatiga nisbatan uning o`ziga xos xususiyatini inkor etmaydi. Bular faoliyatning ikki nisbatan mustaqil turidir. Tashkil etish boshqarilishi mumkin, boshqaruv ham o`z navbatida

tashkillashtiriladi. Bibliografiya mehnatining tashkil qilinishi va uni boshqarish bibliografik axborotni ishlab chiqarish va tarqatishni ta'minlovchi ikki tomonidir. Faqat o'zining harakat doirasidan tashqari ular bir-biriga o'tishning umumiy sohasiga ham ega. Aynan mehnatni tashkil etish va boshqarish tutashgan joyda ularga aralash sohalar vujudga keladi, mehnatni tashkil etishni boshqarish va boshqaruva mehnatini tashkil etish. Shu ikki tushuncha orqali avvalo tashkil qilish va boshqarishning dialektik aloqasi namoyon bo`ladi. Tashkiliy faoliyatning murakkablashuvida avvalo rejorashtirish, tashkiliy ishlarni tartibga solish, tashkil etishning o`ta ma'qul shakllarini o`rganish va tanlash, tashkiliy ishlar metodlari va usullari ma'nosida mehnatni tashkil etish jarayonlarini boshqaruv mumkin va zarur bo`lib qoladi.

Natijada mehnatni tashkil etishni boshqarish bibliografiya xizmatining tashkiliy tizimini qo'llab-quvvatlash [va takomillashtirishga](#), tashkiliy faoliyatni amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlashga yo`naltirilishi zarur. Bu ikki tushunchaning o`zaro munosabatidagi ikkinchi tomoni boshqaruvning "tartibliligi" dadir. Faoliyatning boshqa har qanday turi kabi boshqaruv tashkil qilinadi. Boshqaruvni tashkil etish - avvalo boshqaruv organlarining tuzilishi va ixtisosligini, ularning funksiyasi va ular va boshqaruv ob'yekti o`rtasidagi o`zaro bog`liqlikni belgilash demakdir. Boshqaruvning tartibliligi avvalo boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi (boshqarish tizimi komponentlari tarkibi, ularning ichki shakllari, o`zaro va tashqi muhit bilan aloqalari va o`zaro aloqasi usullari) ning mavjudligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, mehnatni tashkil qilishni boshqarishni bibliografiya ishining tashkiliy ta'minlanishiga va uni takomillashtirishga yordam berish sifatida qarash mumkin, boshqaruvni tashkil etish maqsadi esa birinchi navbatda uning tashkiliy tuzilishini (uni boshqarishni) yaratish va takomillashtirishdadir. Mehnatni tashkil qilishda uning texnologiya, mehnatni ta'minlanish darajasi bilan bog`liqligi muammoni keltirib chiqaradi. Yangi axborot texnologiyasining joriy qilinishi mehnatni tashkil qilishga ta'sir etmay qo`ymaydi. Kutubxonachilik bibliografiya jarayonlarini avtomatlashirish BF ning barcha sohalarida tashkiliy o`zgarishlarga olib keladi. Tashkiliy nuqtai-nazardan avtomatlashirish bibliografiya jarayonlarida kutubxona turli bo`linmalarining ishtiropi darajasi va shaklini, boshqa kutubxonalar va markazlar bilan muvofiqlashtirish va kooperatsiyani aniqlashga boshqacha yondashishni talab qiladi. Ishni tashkil qilishning yanada rivojlangan shakllarini ishlab chiqish va joriy etish tashkiliy tadbirlar bilangina emas, yana texnik va texnologik rivojlanishning zarur darajasi bilan ham ta'minlanadi. Bunda texnologiyaning ishni tashkil qilishga nisbatan faol roli, uning shakl va metodlarining bibliografik jarayonlarda texnika vositalarining qo'llanilishi darajasida namoyon bo`ladi. Shunday qilib, yirik kutubxonalar bibliografiya xizmatining tuzilishini uch komponent: tashkiliy, [texnologik](#), boshqaruv komponentlarini o`z ichiga oluvchi murakkab kompleks tushucha sifatida qaralishi mumkin. Unga tashkiliy tuzilish (bo`limlar, sektorlar, guruhlar), texnologik tuzilish (barcha texnologik sikllar), boshqaruv tuzilish (boshqaruv iyerarxiysi, barcha darajadagi aniq rahbarlar) muvofiq bo`ladi. Bu uch tuzilish o`zaro shartli, o`zaro bog`langan va kutubxonaning yagona tashkiliy-funksional bibliografik xizmatini tashkil qiladi.

Bunday chegaralash bibliograik faoliyatni tashkiliy ta'minlashning kutubxonaga tadbigan o`z ichiga olgan:

- uning barcha yo`nalishlarini ilmiy asoslangan rejorashtirish;
- kutubxonaning bibliografiya ishlarini olib boruvchi bo`limlari o`rtasida vazifalarni to`g`ri taqsimlash;
- bo`linma ichida kadrlarni to`g`ri joylashtirish;
- boshqa kutubxonalar va axborot xizmatlari bilan bibliografiya ishini muvofiqlashtirish va kooperatsiyalash;
- mehnatni ilmiy asosda tashktl qilishni, ya'ni taraqqiy etgan texnologiya va metodlarni, ishning ilg`or tajribalari, bibliografiya jarayonlarida ilmiy asoslangan me'yorlardan [foydalanish](#);
- avtomatlashirish vositalarini qo'llash;
- bibliografik faoliyat bilan shug`ullanuvchi xodimlarning malakasini oshirishning Muhimligini to`g`ri baholash imkonini beradi .

Nazorat savollari.

1. Tashkil etish va boshqarishning farqini izohlang.
2. bibliografik faoliyatni tashkil etish xususiyatlarini tushuntiring.
3. bibliografik faoliyatni tashkil etish tamoyillari qaysilar?
4. turli tipdagи axborot-kutubxona muassasalarida bibliografik faoliyatni tashkil etishning o‘ziga xosligi nimada?

4-mavzu:Eng qadimgi sivilizatsiya davlatlarida bibliografiyashunoslilik va kutubxonalar faoliyati

Reja:

1. Eng qadimgi sivilizatsiya davlatlarida bibliografiyashunoslilik.
2. Misr va Mesopotamiyada bibliograf va kaligraflar faoliyati.
3. Shumer bibliografik matnlarini o‘rganish. Eramizdan oldingi III-ming yilligida Shumerlar sopol taxtachalarda yozuvni ixtiro qilinishi, yozuvdan Akkad, Ossuriya, Finikiya, Urartu mamlakatlarida foydalanilishi.
4. Shumerlar davridagi Lagash, Larsa, Ur, Umma, Shuruppak, Nippur shahar xarobalaridan topilgan boy arxivlar.
5. Bibliografiya asoschisi Kallimax tomonidan Iskandariya kutubxonasi (miloddan avvalgi 250 y.) fondlari asosida yaratilgan: Ossuriya qiroli Ashurbanipal kutubxonasi ro'yxati (miloddan avvalgi VII asr).

Tayanch iboralar

Eramizdan oldingi III-ming yilligida Shumerlar sopol taxtachalarda yozuvni ixtiro qilinishi. Yozuvdan o’sha davrdagi Akkad, Ossuriya, Finikiya, Urartu mamlakatlarida foydalanilishi. Eramizdan oldingi XXIV asrda Shumer davlati kuchli markazlashgan monarxiya davlatiga aylangan bo’lib bizgacha sopol taxtachalarga bitilgan yozuvlar yetib kelgan. Shumerlar davridagi Lagash, Larsa, Ura, Umma, Shuruppak, Nippur shahar xarobalaridan boy arxivlar. Mesopotamiya, piktografiya, mixxat, Ashurbanipal kutubxonasi, poema, arxivlar, «Bobil teodisiyasi», Anu, Nergal, Enlil, Ennana, Ea, Nannar, Marduk, Nabu, Borsippa, Sippar, freska, Nineviya, Kuden, Naburion, zikkurat, Gilgamesh poemasi, mixxat, oromiy yozuvi.

Shumer- Janubiy Mesopotamiya (hozirgi Iraqning janubiy qismi)dagi viloyat. Mil. av. 3-ming yillik oxirigacha Shumerda shumerlar va qisman sharqiy somiyalar- akkadlar yashagan. Taxminan mil. av. 3-ming yillikda u yerda sinfiy jamiyat va davlat vujudga kelgan. Ilk sulolalardavri (mil. av. 2700-2300)da Shumer shahrida mixxat paydo bo`lgan. Shumer shahridagi quldorlik shahar davlatlari (Uruk, Kish, Ur, Lagash, Akkad va boshqalar) o`rtasida gegemonlik uchun kurash avj olgan. Mil. av. 24-asrda Akkad hukmdori Sargon butun Mesopotamiyani o`z qo`l ostida birlashtirgan. Keyinchalik Shumer Bobi Idavlati tarkibiga qo`shib olingan. Eramizdan oldingi III-ming yilligida Shumerlar sopol taxtachalarda yozuvni ixtiro qilishadi, mazkur yozuvdan o’sha davrdagi Akkad, Ossuriya, Finikiya, Urartu mamlakatlarida foydalanilgan. Eramizdan oldingi XXIV asrda Shumer davlati kuchli markazlashgan monarxiya davlatiga aylangan bo’lib bizgacha sopol taxtachalarga bitilgan yozuvlar yetib kelgan. Shumerlar davridagi Lagash, Larsa, Ura, Umma, Shuruppak, Nippur shahar xarobalaridan boy arxivlar topilgan. Bir necha ming sopol taxtachalar Nippurdan, arxeologlar Lagashdan 20 ming sopol taxtachalarni topishgan, mazkur taxtachalar mazmun jihatidan tizimlashtirilgan.

Er.avv. IV-III ming yilliklarda shumer yozuvi paydo bo’ldi. Taxminlarga ko’ra bu yozuv shumerlar Mesopotamiyaga kelganga qadar noma’lum xalq tomonidan kashf qilingan. Shumerlar bu yozuvni sivilizasiya xizmatiga qo’ydilar. Dastlab shumer yozuvi piktografik shaklda alohida buyumlar, tasvirlar tarzida ifodalangan.

Shunday yozuvdan eramizdan avvalgi III ming yillikdan boshlab foydalanilgan. Piktografiya juda sodda bo'lib, haqiqiy yozuv emas edi, u so'zlarni ifodalamas edi. Sekin-asta u mixxatga aylandi. Mixxatga 600 belgi bor edi. Er. avv. XXIV asrda ilk bat afsil yozilgan shumer matnlari paydo bo'ldi. Akkad tili janubiy Mesopotamiyada er. avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Shumer va akkad tillari bir-iridan ko'pgina so'zlarni o'zlashtirib oldi. Er. avv. III ming yillikning oxirida qadimgi Shumer-akkad lug'atlari tuzilgan. Shumer yozuvi keyinchalik shumer-akkad yozuvini butun Old Osiyo xalqlari o'zlashtirib oldilar. Akkad tili Old Osiyo xalqaro diplomatiya tiliga aylandi. Qadimgi Meosopotamiyada loy mo'l-ko'l edi. Loy taxtacha yozuv uchun asosiy manba bo'lib, xizmat qildi. Taxtacha loydan yasalib tuzlardan kuydirish yo'li bilan tozalangan. Mesopotamiyada o'rmon bo'lmanligi sababli, faqat eng muhim matnlar yozilgan loy taxtachalar (podsho yozuvlari, kutubxonada saqlanishi lozim bo'lgan asarlar) kuydirilgan. Qolgan taxtachalar oftobda quirtilgan. Odatda, taxtachalar yetti-to'qqiz sm. uzunlikda bo'lgan. Yozuvlar ba'zida tosh va metall taxtachaga ham yozilgan.

Er. avv. I ming yillikda bobillik va osuriyaliklar yozuv uchun teri va chetdan keltirilgan papirusni ishlata boshlaganlar. Shu vaqt ni o'zida Mesopotamiyada yog`ochdan qilingan uzun taxtachaga mum surtib mixxat belgilarini tushirganlar. Er. avv. VII asrdan boshlab oromiy tili va yozuvi kirib kelgan paytda mixxat yozuvlari o'limga yuz tutdi. Bobil va Osuriya madaniyatining eng muhim yutuqlaridan biri kutubxonalar edi. Er. avv. II ming yillikdan boshlab Ur, Nippur shaharlarida adabiy va ilmiy matnlardan iborat ilk kutubxonalar paydo bo'ladi. Qadimgi Sharqning eng mashhur kutubxonasi Ashshurbanipalning (er. avv. 669-635 yillar hukmronlik qilgan) Nineviya shahrida to'plangan 30.000 taxtachadaniborat kutubxonasi bo'lgan. Loy taxtachalarga podsho annallari, muhim tarixiy voqealar xronikasi, qonunlar to'plami, adabiy asarlar va ilmiy matnlar yozilgan. Ashshurbanipal kutubxonasing alohida ilmiy qimmati shundaki, bu kutubxonada dunyoda birinchi marta kitoblar tizimli to'plangan va ma'lum tartibda joylashtirilgan. Ko'pgina kitoblar bir necha nusxada mavjud. Katta matnlar bir xil hajmdagi loy taxtachalarda bayon qilingan. Shunday matnlar qirqdan yuztagacha taxtachaga yozilgan. Har bir taxtachada undan foydalangandan so'ng o'z o'rnida qaytarish imkonini bergen tartib raqamlari qo'yilgan. Qadimgi Mesopotamiya arxivlar makoni bo'lgan. Engqadimgiarxivlar er. avv. III ming yillikning birinchichoragiga tegishli. Bu davrda arxiv ma'lumotlari yozilgantxtachalar namlikdan saqlash uchun mumlangan savatlarda saqlangan. Er. avv. XIX asrga oid Ur shahri arxivi maxsus xonada yog`och tokchalarida saqlangan. Er. avv. XVIII asrga oid boy arxiv Mari podshosi saroyidan, Uruk shahridan er. avv. VIII-VI asrlarga oid 2500 xo'jalik hujjatlari arxivi topilgan. Qadimgi Shumer va keyingi Bobil maktablarida asosan davlat va ibodatxonalar uchun kotiblar tayyorlangan. Maktablar ta'lim va madaniyat o`chog'i bo'lgan. Maktabda asosan shumer tili va adabiyoti o'qitilgan. Yuqori sinf o'quvchilar kelajakda tor mutaxassislashuvga qarab grammatika astronomiya va matematikadan bilim olganlar. O'zini fanga bag`ishlamoqchi bo'lgan o'quvchi bo'lsa huquq, astronomiya, tibbiyot va matematikani o'rgangan. Maktabda jismoniy jazo keng qo'llanilgan. Mesopotamiya maktablari o'quvchilarining sinf xonasida fanlarni o'rganish uchun loy taxtachalarda yozgan mashq matnlari bizgacha yetib kelgan. Shumer adabiyotiga oid epik asarlar, afsonalar, madhiya, doston, ertak va maqollar to'plami bizgacha yetib kelgan. Shumer shahrini qo'shni qabilalar hujumlari natijasida halokati to'g'risida ma'lumot beradigan asarlar alohida o'rin tutadi. «Ur shahri aholisining falokati motam yig`isi» (er. avv. XX asr oxiri) asarida ayollar, qariyalar va bolalarning ochlikdan qiyinalishi, yong`indan qolgan uylarda halok bo'lgnlarni tafsilotlari bat afsil tavsiyagan. Shumer adabiyotining eng mashhur-namunasi afsonaviy qahramon Gilgamesh to'g'risidagi epik afsonalar to'plamidir. Bu asar akkad tilida qayta ishlangan nusxada to'laroq ko'rinishda Ashshurbanipal kutubxonasidatopilgan. Er. avv. II ming yillik oxirida Bobilda akkad tilida yozilgan falsafiy mavzudagi «ha men donolik ilohini sharaflayman» asari saqlanib qolgan. U aybsiz, mashaqqat chekkan kishining shafqatsiz taqdiri to'g'risida hikoya qiladi. Shu mavzuga yaqin «Bobil teodisiyasi: (so'zma-so'z tarjimas, «xudoni oqlash») poemasi er. avv. IX asrda

paydo bo'lgan. Uning muallifi podsho saroyida koxin bo'lib xizmat qilgan, Esagil kuni-Ubbib nomli kishi bo'lgan. Asarda bobilliklarning qiziqtirgan diniy-falsafiy g'oyalar o'z aksini topgan. Er.avv X asrga oid «Qul menga bo'ysun» asari hayotga umidsizlik ruhida yozilgan. U xo`jayinning o'z qo'li bilan dialogi tarzida yozilgan. Katta badiiy qiyomatga ega bo'lgan Osuriya annallari osur jangchilar bo'lgan begona davlatlar tabiatini to'g'risida ritmik tilda yozilgan. Eng mashhur Osuri asari bu Osuriya podsholarining dono kotibi va maslahatchisi Axikarto'grisidagiqissadir. Kissat to`liqroq holda suriya tilida saqlanib qolgan. Qadimgi Mesopotamiya mafkuraviy hayotida din hukmon o'rinezgallagan. Er.avv. IV-III ming yilliklar chegarasida Shumerda batafsil ishlab chiqilgan, keyinchalik Bobilda o'zlashtirilib, rivojlantirilgan teologik tizim yuzaga keladi. Har bir shumer shahrio'z xudohomiysiga ega bo'lgan. Bundan tashqari, umumshumers haharlari sig`ingan xudolar bo'lgan. Bu osmon xudosi Anu, yer xudosi Enlil, suv xudosi Enki yoki Ea kabi ilohlar tabiat stixiyasi kuchlarini aks ettirganlar. Ko'pincha ular koinot jismiga o`xhatilgan. Har bir xudoga alohida vazifa yuklatilgan. Enlil taqdir xudosi, shaharlar asoschisi hamda motiga va omoch kashfiyotchisi, quyosh xudosi Utu (Akkad mifologiyasida Shamash), Oy xudosi Ninnar, Enlilning o'g'li sevgi va hosildorlik xudosi Innana (Bobil va Osuriya panteonida Ishtar) abadiy hayot, tabiat xudosi Dumuzi (Bobilda-Tammuz) keng tarqalgan. Urush xudosi kasallik va o'lim xudosi Nergal (Marsen) sayyorasiga o`xhatilgan. Bobilda bosh xudosi Marduk – Yupiterbilan Nabu (Mardukning o'g'li) donolik, yozuv va hisob xudosi Merkuriy sayyorasiga o`xhatilgan. Xudolardan tashqari, ko'p sonli ezgulik devlariga sig`inilgan. Turli xil kasalliklar sababchisi bo'lgan yovuz devlarni rahmdil qilishga harakatqilganlar. Devlar yarim odam, yarim hayvon tarzida tasvirlanganlar. Odamlar o'zlarini odam boshli, qanotli ho`kiz sifatida ifodalaganlar. Qanotli ulkan haykallar Osuriya podsholari saroylari kirishini qo`riqlaganlar. Shumer va akkadlar u dunyoga ishonganlar. Ularning tasavvurida u dunyo soyalar podsholigi qaysiki, o'liklar ochlik va chanqoqlikdan qiynaladilar. Loy, chang bilan ovqatlanadilar. Shuning uchun marhumlarning bolalari ularga qurbanlik keltirishga majburdirlar. Qadimgi Mesopotamiyada dunyoning ilmiy bilishdama'lumiyutuqlarga erishildi. Bobilda ayniqsa, matematika fanlari amaliy maqsadlar uchun yuzaga kelib, yuqori darajada rivojlanadi. Qadimdayoq, bobilliklar zikkuratlarning yuqori qavatlaridan turib osmon jismlarini muntazam kuzatganlar. Ana shu ko'p asrlik kuzatishlari natijasida matematik-astronomiya vujudga keldi. Astronomlar yulduzlar o'rtasidagi masofani astronomik hisob-kitob qilganlar. Bobilda ko'p sonli astronomik jadvallar vujudga kelgan. Shu davrda Bobilda mashhur astronomlar Naburian va Kiden yashaganlar. Naburian oy fazalarini aniqlash tizimini ishlab chiqdi. Kiden quyosh yilini 365 kun, 5 soat 41 minut va 41,6 sekund xisobladi. U yil hisobi davomiyligida bor yo`g`i 7 minut, 17 sekundga xato qilgan. Astronomiya astrologiya bilan bog`langan edi. Bizgacha juda ko'p Bobilda tibbiyot matnlari yetib kelgan. Mesopotamiya vrachlari chiqqan va singan suyak bo`g`inlarini davolay olganlar, lekin odamning ichki kasalliklarni davolay olmaganlar. Er. avv. III ming yillikdayoq mesopotamiyaliklar Hindistonga boradigan yo`lni, er. avv. I ming yillikda Efiopiya va Ispaniyaga boradigan yo`lni bilganlar. Bizgacha yetib kelgan xaritalar bobilliklarning o'z geografik bilimlarini tizimga solishga harakat qilganliklarini ko'rsatadi. Qadimgi Mesopotamiyaning san'atini shakllanishi va keyingi taraqqiyotiga shumerlarning badiiy an'analari hal qiluvchi rol o`ynaydi. Tosh o`ymakorlik er.avv. III ming yillik boshlarida shakllandi. Toshga naqshlar o'yish (gliptika) er.avv. I asrigacha yuksak darajada rivojlandi. Er.avv. XXIV-XXIII asrlarda Mesopotamiya yagona davlat bo`lib, birlashgan paytda podsholarning ideallashtirilgan portret-tasvirlari paydo bo'ladi. Er.avv. II ming yillik boshlaridan qurbanlik keltirish, saroy hayoti manzaralari tasvirlangan freska san'ati rivojlanadi. Mesopotamiya san'ati er.avv. VIII-VII asrlarda Osuriya davlatining gullab-yashnagan davrida o'zining yuqori cho`qqisiga chiqadi. Bu asosan relief san'atida o'z aksini topgan. Bu davrda ulug`vor saroy va ibodatxonalar barpo qilina boshlandi. Er.avv. I ming yillikda Mesopotamiyada yirik savdohunarmandchilikmadaniyat markazlari bo'lgan katta shaharlar paydo bo'ladi. Mesopotamiyadagi osuk podshosi Sinaxxreb tomonidan er. avv. 705-681-yillarda

qurilgan, maydoni bo'yicha Old Osiyoda eng katta shahar Osuriya poytaxti Nineviyaedi. Shahar 729,7 ga yerni egallab, shaharda 170 ming aholi yashagan. Mesopotamiyada shisha ishlab chiqarish juda erta er.avv. XVII asrda boshlanadi, temirdan foydalanish esa, kechroq er.avv. XI asrga boshlanadi. Mesopotamiyaning ilmiy bilimlari, san'ati, me'morchiligi, dini, yozuvi va adabiyoti, qadimda ko'pgina sharq xalqlari madaniyati ravnaqining o'lchov mezoni bo'lib xizmat qildi.

Ashurbanipal kutubxonasi Dunyodagi eng qadimgi mashhur kutubxona miloddan avvalgi VII asrda tashkil etilgan. e. Ossuriya hukmdori Ashurbanipalning "shohona mulohazalari" uchun. Ninevada (hozirgi Iroq) joylashgan bo'lib, unda mavzular bo'yicha tuzilgan 30 mingga yaqin mixxat taxtasi bor edi. Ushbu planshetlarning aksariyati arxiv hujjatlari, diniy fitna va ilmiy matnlar edi, ammo bu erda bir nechta adabiy asarlar, shu jumladan, 4000 yillik Gilgamish dostoni ham joylashtirilgan. Kitob ixlosmandlari Ashurbanipal o'z kutubxonasining katta qismini Bobil va u bosib olgan boshqa hududlardan asarlarni olib, yaratdi. Arxeologlar ushbu kutubxonaning xarobalari bilan 19-asr o'rtalarida qoqilib ketishdi va uning ko'p qismi hozirda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Shunisi qiziqki, Ashurbanipal talonchilik orqali ko'plab mixxat tabletkalarini olgan bo'lsa ham, u o'g'riliklardan ayniqsa xavotirda bo'lgan ko'rindi. Agar kimdir planshetlarni o'g'irlashga qaror qilsa, xudolar uni «tortib olishadi» va «uning nomini, er yuzidagi urug'inii o'chirib tashlashadi».

Ashurbanipal davrida kutubxona Nineviyadagi ikkita turli binolarning ikkinchi qavatida joylashgan edi: janubi-g'arbiy saroy va shimoliy saroy. Ishton va Nabu ibodatxonalarida boshqa mixxat plitalari topilgan, ammo ular kutubxonaning tegishli qismi hisoblanmaydi. Kutubxonada deyarli 30 mingdan ortiq jild, shu jumladan o'tdan yasalgan mixxat taxtalari, tosh prizmalar va silindrli muhrlar va diptych deb nomlangan yog'ochdan yasalgan yozuv taxtalari bor edi. To'g'ri, pergament ham bor edi; Nineviyadagi janubi-g'arbiy saroy devorlarida va Nimruddagi markaziy saroy devorlaridagi haykallar hayvonlar yoki papirus pergamentlarida aramey tilida yozgan yozuvchilarni namoyish etadi. Agar ular kutubxonaga kiritilgan bo'lsa, Nineviya ishdan bo'shatilganida, ular yo'qolib qolishgan. 612 yilda Nineviya zabit etildi va kutubxonalar talontaroj qilindi, binolar vayron qilindi. Binolar vayron bo'lganida, kutubxona shiftlar bilan qulab tushdi va arxeologlar Nineviyaga XX asr boshlarida kelishganda, ular qasrlarning tagida bir oyoq tagigacha singan va to'liq taxtali va mumsimon taxta yozuv taxtalarini topdilar. Eng katta buzilmagan planshetlar tekis va o'lchami 9x6 dyuym (23x15 santimetr), eng kichiklari biroz konveks va uzunligi 1 dyuym (2 sm) dan oshmagan. Kitoblar Bobil va Ossuriyadan kelgan matnlarning o'z ichiga turli xil ma'muriy (shartnomalar kabi huquqiy hujjatlari) va adabiy, shu jumladan mashhur Gilgamish afsonasi kiradi.

Tibbiy: kasalliklarni davolash uchun maxsus kasalliklar yoki tananing qismlari, o'simliklar va toshlar Leksik: bo'g'inlar va arxaik so'zlar ro'yxati, grammatik matnlar Dasturlar: Gilgamish, Anzu afsonasi, "Yaratilish dostoni", Ashurbanipal haqidagi adabiy afsonalar Diniy: liturgiyalar, ibodatlar, diniy qo'shiqlar va madhiyalar, ikkitomonlama va ikki tilli, ekzoristlar va marsiyalardan olingan darsliklar Tarixiy: shartnomalar, Ashurbanipal va Esarxaddon haqidagi davlat targ'iboti, qirol yoki qirolning xizmatidagi mansabdor shaxslarga yozilgan xatlar Divine: munajjimlar bashorati, dabdabali xabarlar - Neo-Assiriyaliklar kelajakda qo'ylarning ichaklarini tekshirish orqali aytib berishdi Astronomiya: sayyoralar, yulduzlar va ularning yulduz turkumlari harakati, asosan astrolojik (divinatory) maqsadlar uchun

Nazorat savollari.

1. Akkad, Ossuriya mamlakatlarida kitoblarni to'plash va saqlash xaqida nimalarni bilasiz?
2. Finikiya, Urartu mamlakatlarida kitoblarni to'plash va saqlash xaqida nimalarni bilasiz?
3. Ashurbanipal kutubxonasi xaqida nimalarni bilasiz?

5-mavzu: Antik davrda bibliografiyashunoslik.

Reja:

1. Antik davr madaniyat – bu jahon sivilizatsiyasi tarixdagi noyob hodisa. Krit oroli

- sivilizatsiyasi.
2. Yunoniston Yevropa madaniyatining beshigi.
 3. Yunonistonda bibliografiyashunoslikning paydo bo'lishi.
 4. Antik davr Rim madaniyati kutubxonalari haqidagi ma'lumotlar.
 5. Qadimgi Rimda bibliografiyashunoslikning paydo bo'lishi.

Tayanch iboralar

Antik davr madaniyat – bu jahon tsivilizatsiyasi tarixdagi noyob hodisa. Krit oroli sivilizatsiyasi va Gretsiya Yevropa madaniyatining beshigi. Ilk bor Gretsiyada kutubxona so'zining o'zi paydo bo'lishi. Antik davr kutubxonalarini haqidagi ma'lumotlar. Gretsiya kutubxonalarida eramidan oldingi VI-IV asrlarda saqlanib qolgan sopol taxtachalardagi yozuvlar haqidagi ma'lumotlar.

Antik davr madaniyat – bu jahon sivilizatsiyasi tarixdagi noyob hodisa. Krit oroli tsivilizatsiyasi va Gretsiyani, olimlar yevropa madaniyatining beshigi deb hisoblanadi. Ilk bor Gretsiyada kutubxona so'zining o'zi paydo bo'ldi. Antik davr kutubxonalarini haqidagi ma'lumotlar eramizdan oldingi 2-ming yillikning birinchi yarmida qayd etilgan. Krit orolidagi saroylarda sopol taxtachalardagi yozuvlar saqlangan. Tarixiy jarayolardan ma'lumki sopol taxtachalardagi yozuvlar haqidagi ma'lumotlar Gretsiya kutubxonalarida eramidan oldingi VI-IV asrlarda saqlangan.

Yunoniston geografik jihatdan 3 qismga bo'linadi: Fessaliya va Epir, shimolda Moli va Pagasey ko'rfaflari, janubdan Korinf va Saronika bilan cheklangan, markaziy qismi Peloponnes yarim orolidan iborat janubga bo'linadi. Shimoliy qismida Fessaliyani Epirdan Pind tog'lari zanjiri ajratib turadi. Qadimga bu ikki viloyat yunon madaniyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunkibu yerda ilk bor shimoldan janubga tomon yunon qabilalari siljib kelgan. Fessaliyada qadimgi yunon afsonalari paydo bo'ldi. Uning janubidagi Sperxa daryosi vodiysidagi axey Ftiotidasi axil va mirmidonlar vatani. Fessaliyadan afsonaviy Yason uzoq Kolxidaga oltin mo'yna uchun jo'nab ketgan. Dodonda Sella kohinlari muqaddas dub daraxtining barglarini shitirlashiga qarab fol ochganlar. Epir yunon madaniyatiga aloqasi bo'limgan yovvoyi o'lka bo'lib, uni markaziy Yunoniston bilan faqat xaon, tesprot, moloss va oresta kabi epir qabilalari joylashgan Axeloy daryosi bog'lab turgan. Fessaliya barcha tomondan tog'lar bilan o'ralgan bo'lib, bu yerda ikki tekislikni Fessaliyalik bosqinchilar ishg'ol qilganlar. Ular mahalliy aholini qaram penestlarga aylantirganlar. Qisman ularni vodiyyidan tog'larga siqib chiqarganlar. Fessaliya g'arbiy qismida g'alla va chorvachilik rivojlangan. U yerda qulay qirg'oq va qo'lqliqlar yo'q. Shimoliy Yunonistonni markaziy Yunonistondan dengiz va Oyta tog'lari orasida yotgan Fermopil daryosi ajratib turadi. Markaziy Yunonistonda kam sonli tog'lik qabilalar joylashgan. Egey dengizi qirg'og'ida Evbey oroli qarshisida Opunt lokrlari joylashgan. Er. avv. V asrda afinaliklar uchun lokrlar qoloqlikning namunasi bo'lgan. Parnas (2450 m) va Kifris tog'larida joylashgan vakiy qabilalari yanada qoloq bo'lgan. Markaziy Yunoniston yo'lidagi eng muhim joy bu Elateya shahri bo'lgan. Delfa qadimgi Elladaning diniy markazi vazifasini o'tagan. Parnasdan shimolda Yunonistonning eng kichik viloyati – Dorida (185 kv.km) bo'lgan, aftidan doriylar shu yerdan kelib chiqqanlar. Fokidan g'arbga Agra, evitan nomidagi illiriya qabilalari yashagan tog'li va ozroq unumdar vodiya ega bo'lgan Etoliya viloyati joylashgan. Shimolda Epir bilan tutashgan Abrakiy qo'ltig'igacha bo'lgan hudud Akarnaniyada illiriya qabilalari yashagan. Janubda 3000 kv. km. hududni egallagan Beotiya viloyati birdaniga 3 dengiz bilan tutashgan. Poytaxti Fivabo'lgan Beotiyada g'allachilik, chorvachilik va baliqchilik kuchli rivojlangan. Beotiyani janubdan Kiferon va Parnas tog'lari o'rabi turadi. Yunonistonnig markazida tuprog'i dehqonchilikka noqulay bo'lgan Attika viloyati joylashgan. Qadimgi Attikada suv tanqis bo'lsa-da, ammo marmar, loy, kumush va zaytun daraxtlariga boy bo'lgan. Afinaning dengiz yo'lini Salamin oroli to'sib turadi. Salamin uchun Afina Megara va Egina bilan uzoq urusholib borgan, faqat Eginanining bo'ysundirilishi Afinaning dengiz savdosiga yo'lli

ochdi. Korinf va Saronik qo'ltilqlari orasidagi tog'lik hududda Megara shahri joylashgan. Korinf qo'lting'idan so'ng Peleponnes yarim oroliga o'tish mumkin. Uning markazida Arkadiya balandligi turadi.Lakoniya va Messeniya viloyatlari yarimorol g'arbida joylashgan. Bu viloyatlarda g'alla ekilgan.Messeniyanoshimolda Elida viloyati joylashgan bo'lib, Alfey va Kladey daryolari qo'shilish joyida har 4 yilda bir marta Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan olimpiada joylashgan. Ellidadan shimolda Axeya viloyati turadi. Yunonistonning iqlimi yumshoq, harorati 16 c ni tashkil etadi. Landshafti qadimda hozirgidan farq qilgan. Qalin o'rmonlar ko'p bo'lib, tuproq hozirgidek toshloq bo'lgan. Faqat ozgina yer unumdar bo'lgan. Er. avv. VI asrgacha faqat bug'doy va tariq ekilgan. Keyin esa uzum va zaytun bu ekinlarni siqib chiqargan. Qadimgi Yunoniston tarixiga oid manbalar ko'pligi va yaxshi saqlanib qolganligi bilan boshqa hududlar tarixidan farq qiladi. Yunoniston tarixi manbashunosligida qadimgi tarixchilarning asarlari muhim o'r'in tutadi. Er. avv. VI-V asrlarda tarix fani gullab yashnagan davridir. Bu davr tarixchiligin g'arb olimlari "Aholidar polislar tarixi" deb atashadi. Bu davrdagi ko'zga ko'ringan tarixchilardan: Gerodot, Fukidid va Ksenofontni olish mumkin. Makedoniyalik Aleksandrning sharqqa yurishlaridan so'ng Yunoniston tarixida yangi tarix maktabi – Arastu maktabi shakllandi. Bu davrning eng ko'zga ko'ringan asari Arastuning "Politiya" asaridir. Bu asar Arastu va uning shogirdlari tomonidan yozilgan bo'lib, yunon polislari, O'rta Yer dengizi qirg'oqlaridagi yunon koloniyalari haqida muhim ma'lumot beradi. Asar juda ko'p bo'limlardan iborat bo'lsa-da, uning faqat bizgacha "Afina politsiyasi" qismi yetib kelgan.Ellin davriga kelib yunon jamiyatidagi keskin o'zgarishlar, katta davlatlarning vujudga kelishi bilan umumiylar tarixga asos solindi. Bu davrning eng ko'zga ko'ringan tarixchilardan biri Timey bo'lib, u o'zining asarida Bolqon Yunonistoni, g'arbiy yunon mustamlakalari haqida muhim ma'lumotlar beradi.Qadimgi yunon tarixi bo'yicha eng muhim manbalardan biri arxeologik topilmalar hisoblanadi. Arxeologlar Bolqon Yunonistoni va Egey dengizi orollaridagi qadimgi ibodatxonalar, saroylar, mudofaa inshootlarini qazib ochdilar. Ayniqsa, Krit orolida ingliz arxeologi E. Evans 40 yildan ko'proq vaqt Knoss saroyini qazib ochdi. Kichik Osiyoda nemis arxeologi G.Slimanning Troya xarobalarini qazib ochishi qimmatli ma'lumotlarni berdi.

ME'MUAR ASARLAR. Polislarning yemirilishigacha yunonlar tarix va adabiyotga oid asarlarni me'muarshaklda yozishgan. Er. avv. IV asrdagi eng yirik me'muar asar Ksenofontga tegishli. U asosan harbiy sohaga oidma'lumotlarni beradi. Ellinizm davrida me'muar va avtobiografik asarlar yozish odat tusiga kirdi. Ellin davri siyosatchilaridan Pirra va Arata eng yirik tarixiy asarlar mualliflari hisoblanadilar. Ular "Axey ittifoqi" haqida keng ma'lumotlarni yozib goldirishgan.

XATLAR. Antik jamiyatda xatlar muhim o'r'in tutgan. Ular ikki xil shaklda ochiq va yopiq shaklda yozilgan. Platon, Isokrat va Sallyustiyalar yozgan ochiq xatlarida falsafiy muammolar haqida fikr yuritgan.Yopiq xatlar davlat ahamiyatiga molik xatlar bo'lib, maxsus kishilar nomidan yozilgan. Ularda asosan siyosiy va mahfiy ma'lumotlar yozilgan.

SHOIRLAR VA ULARNING ASARLARI. Yunon she'riy adabiyotining shakllanishi er. avv. IX–VIII asarlarga tegishli bo'lib, bu davrni "Gomer davri she'riyati" deyishadi.Gomer, Gesiod va dramaturglar Esxil, Sofoklning asarları juda yaxshi saqlangan. Gesiod o'zining "Mehnat va kunlar" asarida yunon jamiyatidagi ijtimoiy ziddiyatlar haqida yozadi.

YOZUVLAR. Yunon tarixini o'rganishda yozuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Asosan XIX asrning 70-yillaridan papirus topilmalarni o'rganish natijasida yangi "papirologiya" faniga asos solindi. Yunon jamiyatiga papirusning kirib kelishi Misr tarixi bilan uzviy bog'liqidir. Qadimgi mashhur yunon – lirik shoirlari Alkey, Sapfo, Korin, Pindara, Vakximida va mashhur fojeanavislар Sofokl va Evripid hamda mashhur hajviy asarlar muallifi Menandrlar o'z asarlarini papiruslargayozishgan. Papirusgako'chirilgan eng yirik asar Arastuning "Afina polityasi" asaridir. Keyinchalik qog'ozning kashf etilishi bilan papiruslar o'z ahamiyatini yo'qotgan, ularni faqat hukmdor saroyidagi arxivlardan topish mumkin. Ilk yunon falsafasi vakillari miletlik Fales, Anaksimandr, Kichik Osiyolik Anaksimon tabiatni, borliqni mohiyatini tushunishga harakat qildilar. Pifagor maktabining vakillari shuningdek Geraklit, Empedokl kabi "fiziklar"

(fyuzis-tabiat demakdir) tabiatni o'rgandilar. Ular dunyoning asosini qidirdilar, tabiat mohiyatini turlicha izohladilar. Fales dunyoning asosi suv, Aniksimandr apeyron (boslang'ich ibtido), Geraklit esa olov deb qaradilar. Demokrit (taxminan er. avv. 470-yilda tug'ilgan) borliq to'g'risida gapirib, borliq cheksiz bo'linma atomdan iborat degan fikri aytdi. U dunyoning sababiy bog'lanishi haqida fikr yurutdi. Platon (er. avv. 427-347-yillar) borliq, abadiy, o'zgarmas, bo'linmas, uni aql bilan bilish mumkin deb hisoblardi. Platon akademiyasida 20 yil ta'lim olgan Arrestotel "g'oyalar dunyosi to'g'risida"gi ustozini fikrini tanqid qildi. Borliq Arrestotel fikricha jins va tur shaklida mavjut bo'ladi. Suqrot (tax. er. avv. 470-399 yillar) falsafada inson muammosiga jiddiy e'tibor berdi. U insonning o'zini, o'zligini anglashga jiddiy e'tibor beradi. U insonning falsafasining o'rganish ob'ektini tashkil etadi deb ta'kidladi. Yunon madaniyati uch avlod muhim o'r'in tutadi. Ularning birinchisi er. avv. VI asr oxirida kirib keldi va Afina madaniyatini gullab-yashnashi uchun poydevor qo'ydi.

Er. avv. V asrda jamiyat taraqqiyotiga bag'ishlangan alohida ilmiy bilimlar sohasi tarix fani paydo bo'ldi. Uzoq vaqt turli o'lkalarda bo'lган Gerodot (er. avv. 485-425-yillar atrofida kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida tug'ilgan) ilk bor ko'rgan va eshitgan voqealarini ma'lum bir tizimga solib hikoya qilishga kirishdi. U o'zining 9 jildli odatda "Tarix" (yunoncha Istorya- "Tasvir" ma'nosini bildiradi.) yoki "Muzalar" deb ataladigan tarixiy asarini asosan yunon-fors urushlariga bag'ishladi, lekin bayon qilish davomida muallif Misr, Eron, skiflar tarixiga ham murojaat qiladi. "Tarix otasi" ning mushohadasi to'la an'anaviy bo'lib, tarixda ezgulikni taqdirlovchi, yovuzlikni jazolovchi ilohiy adolatni qurdi. Gerodot insonlar faoliyatida xudolarning ishtirokiga shubha qilmadi. Agar Gerodot "Tarix otasi" deb hisoblansa uning kichik zamondoshi afinalik Fukidid haqiqiy tarixshunoslik fanini asoschisidir. Uning "Peloponnes urushlari tarixi" asari afsonaviy va haqiqiy voqealarni quruq bayon qilishdek Gerodotga xos bo'lган bayon qilishni aksi bo'lган haqiqiy tarixiy tadqiqot edi. Fukidid tarixchilar ichida birinchi bo'lib, tarixiy voqealarni, ularni harakatga keltiruvchi kuchlari, taraqqiyot yo'llari bilan o'zaro aloqada ko'rishga harakat qildi. Voqealarning sabablarini o'rganish uchun siyosiy voqelikni ilmiy tahlil qilish usullarini qo'lladi. Fukidid xudolarni tarix doirasidan chiqardi. U tarixni xudolar emas, balki kishilar o'z faoliyatları bilan yaratadilar deb hisoblar edi. Kishilarning "tabiat" hamma vaqt qonun va shartnomalardan kuchliroq bo'ladi. Kishilarning qiyofasi va uning ko'rinishlari Fukidid uchun shu davr jamiyatini voqeligini tushinish uchun yetarli edi. Gerodot va Fukidid yunon polislarining fuqarolarini o'z ozodligini himoya qilishi, vatanparvarlik va o'zini qurbon qilishdek qahramonlik kurashiga murojaat qildilar. Tarixshunoslikda Fukidid an'analarini tarixchi Ksenofont(er. avv. IV asr) davom ettirdi. Uning "Anabasis", "Lakedemon politiyasi", "Kiropediya", "Agesilay", "Daromadlar to'g'risida" asarlarida o'sha davr yunon dunyosining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti aks etadi. Er. avv. V asrda yunon dunyosida yuz bergen kuchli siyosiy jarayonlarni tahlil qilgan, shu davrning siyosiy arboblari Femistokl va Perikl kabi afinalik demokratiya yo'lboshchilarini ayovsiz tanqid ostiga olgan siyosiy adabiyotlar yuzaga keldi. Shunday adabiyotlardan biri er. avv. 430-yillar atrofida "Afinani**boshqaruvi** to'g'risida" risolasi paydo bo'ladi. Kritiyning "Lakedemeonpolitiyasi"da Sparta jamiyat qurilishi ko'klarga ko'tarildi, Afina demokratiyasiga salbiy nazar bilan qaraldi.

Qadimgi Italiya (yunoncha "buzoqlar mamlakati") deb dastlab o'zining sero't yaylov o'tloqlari bilan ma'lum bo'lган Apennin yarim oroli janubi aytigan. Apennin yarim oroli o'rta yer dengizi dunyosining eng markazida joylashgan bo'lib, qadimdaqulay geografik va iqlim shart-sharoitlariga ega edi. Italiyanı sharqdan, janub va g'arbdan Ligur, Tirren, Ioniya va Adriatika dengizlari o'rabi, uni O'rta yer dengizining barcha mamlakatlari bilan bog'lagan edi. Er. avv. I ming yillikda Italiyaning shimoliy hududlari mo'tadil iqlim zonasida bo'lib, Apennin yarim orolning qolgan hududlari iqlimi iliq va yumshoq edi. Shimoldauning tabiiy chegaralari Alp tog'lari, janubda Messin qo'lting'I uniSitsiliyadanajratib turar edi. Italiyaning g'arbiy qirg'og'i qulay buxtalarga boy bo'lkib, dengizchilik va savdoni rivojlanishiga turki berdi. Italiyaning ko'pgina qismini tog'lar egallaydi, faqatgina 20% hududi tekisliklardan iborat.

Etruriya, Kampaniya va Apulianing unumdor yerlari Latsiya tekisligi va Po vodiysi dehqonchilik uchun qulay bo'lganligi uchun bu yerda tariq, bug'doy, polba ekilgan, bog'dorchilik zaytun daraxtlari va uzumchilik bilan shug'ullanganlar. Qadimgi Italiya suv va o'rmonlarga boy edi. Qadimda foydaliqazilmalar ko'p emas edi: temir, mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, qurilish toshi, marmar, loy, tuz. Qadimgi Italiyani 3 qismga bo'lish qabul qilingan: Shimoliy (Liguriya, Alp orti galliyasi va Venetsiya), o'rta (Etruriya, Latsiya. Kampaniya, Umbriya, Pitsen va Samniy) va janubiy (Apuliya, Kalabriya, Lukaniya va Bruttiya). Apennin tog'lari janubiy sharqqa cho'zilib borib Arelin tumanida Adriatik dengizigacha yetib boradi, yarim orolning shimoliy qismi markaziy va janubiy qismidan ajratib turadi. Uning shimoliy iqlimi o'rta Evropa iqlimiga yaqinroq. Yarim orolning bu qismi juda hosildor bo'lib keyinchalik Italiya deb atala boshlandi. Dastlab bu nom yunonlar Italiya deb atagan aholi yashagan Kalabriyaning janubiy tumanlariga nisbatan aytilgan. Er. avv. V asrda Po vodiysiga gallar ko'chib kelib, u erdan etrusklarni siqib chiqardilar. Shu sababli bu o'lka Rimda "Tsizlal" p galliyasi" deb nom oldi. U sispadan Galliyasi Poning o'ng qirg'og'i va tarnspadan Galliyasi (daryodan shimol tomondag'i viloyat) ni o'z ichiga oladi. Italiyani o'zi Apennin janubidan boshlanadi. Markaziy Italiyani G'arbiy qismi madaniyat tarixida o'z er tuzilishiga ko'ra muxim rol' o'ynadi. Bu erda etrusk (hozirgi Florentsiya), latin markazi Rim, Kampaniya (Kapuya va Neapol bilan) kabi uch tekislik etadi. Bu erdan kemachilik uchun qirg'oqlari qulay tabiiy portlari bo'lgan Tibr daryosi oqib o'tadi. Latin tekisligining markazida Tibr daryosi va shimoliy sharqdan sabin, sharqdan Alban, janubdan Vol'sk tog'lari bilan o'rak turishi yarim orol tarixida latin xalqlarini yuksalishiga sabab bo'ladi. Italiyani sharqiy qismi tog'lik bo'lib, janubga tomon mars, piligin, marrusen, vistenlar vatani yovvoyi sabin tog'lari cho'zilib ketadi. Undan so'ng Samnit tepaliklari etadi. Qadimgi Rim tarixini an'anaviy xronologik chegarasi Rim shahrini barpo qilinishi 754 – 753 yillardan boshlanib, G'arbiy Rim imperiyasining qulashi 476 yil bilan tugallanadi. Rim tarixini o'rganishda turli xil manbalar: Rim va Yunon tarixchilarining asarlari, tabiiy, ilmiy va badiiy adabiyot, huquqiy yodgorliklar, arxeologiya, epigrafika, numizmatika va papirologiya ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Qadimgi Rim tarixi bo'yicha moddiy manbalar xilma-xil bo'lib, Italiyaning paleolit va neolit davridan dalolat beradigan tosh qurollar, sopol idishlar, qoyatosh tasvirlari mavjud. Shimoliy va o'rta Italiyada etrusk madaniyatiga tegishli bo'lgan sog'onalar, uy-joy ibodatxona qoldiqlari topilgan. Rim shahrining o'zida palatin, eskvilin va boshqa tepaliklarda hamda forumda ko'p sonli qabrlar, ibodatxonapoydevorlari, ona bo'rining jez haykali, Serviy tulliy davridagi shahar devori qoldiqlari qazib ochilgan. Italiyaning boshqa shaharlarida ko'p sonli arxeologik yodgorliklar mavjud. Jumladan eramizning 79-yilida vulqon otishni natijasida kul ostiga qolib ketgan Pompeya va Gerkulanum shaharları arxeologlar tomonidan to'la qazib ochilgan. Bu shaharlardagi ko'chalar, uylar, ibodatxonalar to'laligicha saqlanib qolgan va eramizdan avvalgi birinchi ming yillikdan eramizning II asrigacha mavjud bo'lgan shahar me'morchiligi to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. Moddiymadaniyat yodgorliklari ba'zida yozuvlar ko'p bo'lgan. Qazib ochilgan inshootlardan etrusk, latin, yunon yozuvlari topilgan. Bu yozuvlar bino devorlari, sopol idishlarda va toshlarga bitilgan. Rim tarixi bo'yicha eng qimmatli manbalardan biri bu yozma adabiyotdir. Er. avv. III asrdan boshlanib Rim xalqaro siyosatda yetakchi rol o'ynashi bilan uning tarixi to'g'risida boy ma'lumotlar to'plana boshlandi. Er. avv. II asrda Polibiy kabi yunon yozuvchilarining asarlari Rim tarixini o'rganishda kata ahamiyatga ega bo'ldi. Rimdagi fuqarolar urushi davri Gay Sallyustiy Krispning tarixiy monografiyalarida aks etdi. Rim respublikasini so'ngi davridagi yirik siyosiy arboblar Tsitseron va Tsezarning asarlari, ilk imperiya davrida Tit Liviyning Rim tarixi, eramizning I asrida Velley Patirkulning ham shu nomdag'i asarlari yaratildi. Liviy tarixida Rimning ichki va tashqi siyosati, diniy [hayoti](#) to'g'risida boy ma'lumotlar berilgan. Velley Patirkulning ikki jildli asarida Rim butun dunyo tarixi markazi sifatida tasvirlangan. Er. avv. I asr so'ngida Rimda yashagan yunon galikarnaslik Dionisiyning "Rim qadimiylatlari" nomli 20 kitobida Rimning ilk etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixi batafsil tasvirlanadi. Bu kitoblardan

9 tasi to'la saqlanib qolgan bo'lib, er. avv. 442-yilgacha bo'lган voqealar bayon qilinadi. Rim tarixshunosligining eng yirik vakili Tatsit (eramizning I asrining 2-yarmi, I asrning boshlari) asarlarida eramizning I asridagi voqealar va Rim tarixiga oid german qabilalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. II-III asrlar tarixiga oid asarlar to'la saqlanmagan. Ularni ichida IV asrda tuzilgan "Avgustlar tarixi yozuvchilar", "imperatorlar tarjimai hollari" kabi to'plamlarni ko'rsatish mumkin. So'nggi imperianingyirik tarixchisi Ammian Martsellin asarlarida tarixiy voqealar eramizning 378 yilgacha bayon qilingan. Qadimgi Rim tarixi bo'yicha muhim ma'lumotlar yunon mualliflari: Plutarx, Appian(II asr), Dion Cassiy (III asr) asarlarida mavjud. Bundan tashqari tarixiy voqealarni borishini tiklash uchun Askoniy Pidian (eramizning I asri), Lutsiy Anney Flor (II asr) Evtropiy (IV asr) kabi imperiya davri yozuvchilarining yirik asarlari, har xil kompendiyalar, yozuvchilarning yirik asarlari, xronografiyalar va obzorlarni ko'rsatish mumkin. Rim shahrining arxeologik yodgorliklari alohida ahamiyatga ega. Bu yerdan topilgan qabrlar, uy – joylar, jamoat binolari, mudofaa devorlari, Rim forumi, suv quvurlari muhim arxeologik manba bo'lib xizmat qildi. Italiyalik arxeologlar hozirgi kungacha bu yodgorliklarni tarixiy-madaniy jihatdan to'la tadqiq qilib, Rim tarixini qayta tiklashda ilmiy jihatdan qimmatli bo'lган 100 ga yaqin tadqiqotlarni e'lon qildilar. Rimning etrusklar davri, respublika imperiya davrlari, diniy hayoti bo'yicha qimmatli ma'lumotlar qadimgi kohinlar kollegiya jadvallari, qabrtosh yozuvlari, nasroniy dini kitoblari, nasroniy tarixchilarning asarlari orqali bilish olish mumkin. Rim davlatiga oid davlat aktlari, senat qarorlari, va sud hujjatlari Rim kalendarini kabi tarixiy hujjatlar mavjud. Rim mifologiyasi, falsafa, adabiyot, komediya kabi yozma yodgorliklari bizgacha juda katta miqyosda yetib kelgan. Shu bilan birga Rim imperiyasi qaramog'ida bo'lган Italiyadan tashqari Yevropaning boshqa hududlarida, Osiyo, Afrikada ko'p miqdorda memoriy inshootlar: saroy-ibodatxonalar, mudofaa inshootlari qoldiqlari, ko'priklar, portlar saqlanib qolgan. Rim adabiyotini shakllanishi va taraqqiyotida xalq og'zaki ijodi va yunon adabiy an'analari muhim o'rinn egalladi. Rim adabiyoti tarixi er. avv. III asr o'rtalarida yunon janrlarida taqlid qilish bilan boshlandi. Tarentlik ozod qo'yilgan qul yunon Liviay Adronik (er. avv. 280-204-yillar) birinchi latin muallifi edi. U Gomerning "Odisseya"sinı latin tiliga tarjima qildi, yunon dramalarini erkin tarjima qilish va badiiy qayta ishlash bilan shug'ullandi. Liviy Andronikdan Rim badiiy adabiyoti boshlanadi. Uning zamondoshlari shoirlar Neviy va Enniylar edi. Giney Neviy (er. avv. 201-yilda vafot qilgan) Rim syujetlariga asoslangan birinchi tradegiyalarni yaratdi, yunon mualliflari syujetlaridan o'zlashtirib dramalar yozdi. Neviy I puni urushi to'g'risida 7 jidda epik poema yozdi. Kvint Enniy (er. avv. 239-169-yillar) Rim tarixiga bag'ishlangan "Annalar" epik poemasini 18 jidda yozdi, bu shoirdan 1100 dan ortiq she'rlar meros qoldi. Tit Maktsisy Plavt (er. avv. 250-184-yillar) birinchi Rim komediografi bo'lib, uning 130 komediyasidan 21 tasi saqlanib qolgan. Ikkinci buyuk rim komediografi Publiy Terensiy Afrikalik (er. avv. 185-159-yillar) bo'lib, uning pyesalaridan 6 tasi bizgacha yetib kelgan. Rimda tradegiya keng tarqalmadi. Rim tragiklari Mark Pakui (er. avv. 220-130-yillar) va Lutsiy Aksiy (er. avv. 170-90-yillar) o'z tradegiyalarini yaratish uchun buyuk yunon dramaturgalarining asarlaridan foydalandilar. Rimda keng tarqalgan adabiy janr satira (she'r, masal, latifa va dialoglar aralashmasi) edi. Vaqt o'tishi bilan u bizga yaxshi tanish bo'lган satiraga aylandi. Birinchi Rim satiriki Gay Lutsiliy (er. avv. 180-102-yillar) 30 kitobdan iborat satiralar to'plamini bunyod qildi. Latin prozasining eng ilk namunalaridan biri Mark Portsiy Katon Kattanining (er. avv. 234-249-yillar) "Dehqonchilik to'g'risida" nomli asari edi. Uning 7 jiddli Rimning qadimgi davrlaridan II puni urushigacha bo'lган tarixan yoritilgan kitobi, tibbiyat bo'yicha traktatlari, notiqlik san'atiga bag'ishlangan asarlari, 150 nutqlari saqlanib qolmagan. So'ngi respublika davrining latin poeziyasi Tit Lukretsiy Kar (er. avv. 95-51-yillar) va Gay Valeriy Katull (er. avv. 87-54-yillar) kabi taniqli vakillari bilan mashhur. Lukretsiyga "Narsalarni tabiatini to'g'risida" nomli 6 jiddli falsafiy poema tegishli. Katull mashhur Rim liriki bo'lib, 116 she'rlaridan iborat to'plam qoldirgan. Latin madaniyatining mashhur vakillalari Mark Terentsiy Varron "er. avv. 116-27-yillar) va Mark Tulliy Sitseron (er. avv. 106-43-yillar) adabiyot sohasida muhim iz qoldirdilar. Varron 620

jıldda 74 asar muallifi bo'lgan ensiklopedist yozuvchi edi. Uning asosiy asarlari "Qadiniyatlar" (41 jild) va latin tili to'g'risida (25 jild)gi kitobda edi. Sitseron qadimda notiqlik san'atining nazariyotchisi vaamaliyotchisi, davlat arbobi, huqushunos va advokat, faylasuf va fiolog tarjimon, adabiytanqidchi, san'atshunos edi. Uning 58 siyosiy va sud sohasidagi nutqlari, 12 ta falsafiy to'plami, notiqlik san'ati bo'yicha 7 traktati, 800 xatlari, ko'pgina nutqlari va poetic asarlari mavjud bo'lgan. Avgust davri latin poeziyasini "oltin asri" hisoblanadi. Bu davrda buyuk shoirlar Pubiy Vergiliy Maron (er. avv. 79-19-yillar), Kvint Goratsiy Flakk (er. avv. 65-8-yillar) Publiy Ovidiy Nazon (er. avv. 49-eramizning 18-yillari) yashab ijod qildilar. Vergiliy dehqonlar mehnatiga bag'ishlab 14 jildli didaktik poema, 12 jildli "Eneyda" poemasini, "Bukolika"she'riy to'plamini yaratdi. Goratsiy ijodini satira va munozara janrida boshladi (Epodlar, 2 jıldda satiralar). Keyin esa 4 jildli "Odalar"ni, "Maktablar" kitobini, 5 jildli elegiyalarni parodiya didaktik janrida "Sevgi fani", "Sevgi da'vosi" asarlarini 15 jildli "G'amginelegiyalar", 4 jildli "Pontdan maktublar" asarlarini yozdi. Qobiliyatli lirik shoirlar Tibull (er. avv. 50-eramizning 19-yillari) va Sekst Propertsiy (er. avv. 49-15-yillar). Tibul o'zidan elegiyalarni ikki to'plamini, Propertsiya bir to'plamini qoldirdi. Oktavian Avgustni o'zi proza va she'riyatda ko'p asarlar yozdi. Satirik janrda kichik Seneka (er. avv. 4-eramizning 65-yillari) va Petroniy Arbitr mashhur edilar.. Petroniyning mashhur romani "Satirikon" bo'lib, 20 bobidan 3 bobi qolgan. Persiy Flakk (34-62-yillar), Mark Valeri Martsial (40-102-yillar), Detsey Yuney Yuvenal (60-127-yillar) hamda 120-190-yillarda yashagan Lukian satira janrida ajoyib asarlar yaratdilar. Bizgacha bu davrning qimmatliyodgorliklarimashhur notiqlar Dion Xrizotomning 78 nutqi, Eliy Aristidning 55 nutqi yetib kelgan. IV asr ritorika-notiqlikning yangidan gullab yashnagan davri bo'ldi. Antik O'rtayer dengizining notiqlik maktablarida bo'lg'usi oliy amaldorlar va xristian targ'ibotchilari tarbiyalandi. Bu davrda Afinada Gimeriy, Konstantinopolda Femistiy kabi mashhur ritorlar dars berdilar. Eng kuchli notiq va notiqlik san'ati o'qituvchisi Libaniy edi. U Antioxiyada imperatorlar, lashkarboshilar, oliy amaldorlarga qarata u bu ijtimoiy dolzarb muammolar yuzasidan erkin nutqlar bilan murojaat qilar edi. Libaniy "Kichik Demosfen" taxallusini oldi. U imperator Yulianning ashaddiy muxlisi edi. Ko'pgina taniqli xristian targ'ibotchilari jumladan Nazianlik Grigoriy va Ioann Zlatous uning mакtabidan chiqqan edilar. O'sha davrdagi Rim notiqlaridan IV asr oxirlarida oliy davlat mansablarini egallagan Kvint avremiy Simmaxni aytish mumkin. Sarguzasht romani janriga Apuliyning "Otlin eshak", "Afnis va Xloya", Geliodorning "Efiopika" asarları mansubdir. Bu davrda dramatik janr to'la tushkunlikka uchradi. Undan faqat pantomima, atellan va mim shakllari qoldi. Bizgacha yunon klassik obrazlariga taqlid qilib yozilgan Senekani 10 tragediyasi yetib kelgan. IV-V asrlarda poeziyada klassik namunada asarlar yaratish an'anaga aylandi. Bu davrning eng mashxur mifologik eposiga Panapolis ellinlashgan misrlik Nonning Dionis to'g'risidagi dostonini aytish mumkin. Bu asar boy fantaziya, ifodali obrazlarga ega bo'lib, epik tarzda yozilgan. IV-V asrlarda latin shoirlari mifologiyadan tashqari tabiatni tasvirlashga jiddiy e'tibor berdilar. Ana shunday latin shoirlaridan biri Detsim Magin Avzoniy edi. U tajribali ritorik, yunon, lotin tillari va adabiyotining bilag'oni, salohiyatli shoir edi. So'ng ikki mashhur Rim shoirlari Iskandariyalik Klavdiy Klavdian, kelib chiqishi Galliyadan Klavdiy Rutimi Namatsian o'z she'rlarida Rimga murojaat qilib, uning buyuk o'tmishi va g'alabalarini kuyladilar. Klavdian imperator Gonoriy saroyida yashab, hukmdorning yaqinlaridan biri Stilixongabag'shab, "Stilixongamaqtov" va "Gotlar bilan urush to'g'risida" poemasida Rimga buyuk kelajakni bashorat qildi. Ilk imperiya davrida tarixiy asarlar va biografik janr keng rivojlandi, er. avv. eramizning 17-yillari Pataviya shahrida yashagan notiq Tit Liviy latin tilida "shaharga asos solinganidan" nomida Rim tarixini 142 jıldda yaratdi. Tit Liviy voqealar bayonini er. avv. 9-yiligacha olib bordi. Yangi era boshlarida Pompey Trog "Jahon tarixi"ni 44 jıldda latin tilida yozdi. Yana bir "Jahon tarixi" yunon tilida Yahudiya podshosi Irod I ning maslahatchisi damashqlik Nikolay tomonidan 144 jıldda yozildi, asarda voqealar er. avv. IV asrgacha yoritilgan. Er. avv. I asrda Korneliy Nepot "Mashhur kishilar to'g'risida" biografik asarini yozdi. Er. avv. I asroxirida Galikarnaslik Dionisiy

“Rim qadriyatlari” nomli tarixiy asarini yozdi, bizgacha bu asardan faqat 9 tasi yetib kelgan. Italiya va uning provinsiyalari tarixi va geografiyasi to’g’risida qimmatli ma’lumotlar Strabonning “Geografiya” asarida (17 kitob) beriladi. Strabonning yana bir asari “Tarixiy yozishmalar” bizgacha yetib kelmagan. Eramizning I asrida Velle Paterkulning “Jahon tarixi” nomli 2 jildli kitobi, notiq Valeriy Maksimning “Mashhur ishlar va so’zlar” nomli 9 kitobda tarixiy atifalaru, Kvint Kursiy Rufning “Makedoniyalik Iskandar tarixi” 10 jildli kitobi yozildi. Imperatorlar Vespasian va Titning klienti yahudiy Iosif Flaviyning 7 jildli “Yahudiya urushi tarixi”, 20 jildli “Yahudiya qadimiyatları” asarları sharqiy provinsiyalar to’g’risida boy ma’lumotlar beradi. Davlat arbobi, tarixchi, yozuvchi Gay Pliniy Sekund (24-79-yillar) san’at, madaniyat va fan sohalaridan noyob ma’lumotlar to’plami “Tabiiy tarix” nomli 37 jildli entsiklopedik asarını yozdi. Bu ulkan asarda 500 muallif, 2 ming kitobdan olingen ma’lumotlar umumlashtirilgan. Eramizning 58-120-yillarda yashagan senator, tarixchi Kvimdetsimbir Publiy, Korneliy Totsit 16 jildli “Annalar”, 14 jildli “Tarix” asarlarını yozdi. Bu asarlar Yuliy Klavdiylar va Flaviylarni 14-96-yillardagi tarixini qamragan davrni aks ettiradi, Tatsitning “Germaniya” asari german qabilalarini ijtimoiy tuzumi, dini va turmushi to’g’risidagi tarixiy-geografik ocherk hisoblanadi. Tatsitning kichik zamondoshi imperator Adrianning kotibi Gay Svetoniy Trankvill (70-140-yillar) “12 Tsezar hayoti tasviri” Tsezardan Domitsiangacha rim imperatorlarining biografiyasi to’plamini yaratdi. Tatsitni zamondoshi 46-126-yillarda yashagan yunon yozuvchisi Plutarx 210 har xil asarlar yozgan, bizgacha ulardan 150 tasi yetib kelgan, Plutarx mashhur yunon-rim arboblarini biografiyasini, bir makedon-Iskandarni bir fors Artakresks Ini biografiyasini yozadi.

Makedoniyalik Appian 160-165-yillarda 24 jildli “Rim tarixi” asarini, 155-235-yillarda yashagan Rim senatori Dion Kassiy Koksian yunon tilida 80 jildli “Rim tarixi”ni yozdi, Dion Kassiyning bu kitobidan 25 jildi va ko’p sonli parchalar bizgacha yetib kelgan. Dion Kassiyning kichik zamondoshi Gerodian “Markdan keyin imperator hokimiyati”, (Mark Avreliyning o’limidan keyin Gordian III hukmronligigacha 180-238-yillar) 8 jildli tarix kitobini yunon tilida yozdi. Mashhur davlat arbobi Gay Yuliy Tsezar (er. avv. 100-44-yillar) yirik yozuvchi edi. Uning asarlaridan bizgacha faqat 2 tasi “Gall urushlari to’g’risidagi yozuvlar” (7 kitob), “Fuqarolik urushi to’g’risidagi yozuvlar” (3 kitob) yetib kelgan. Tarixiy monografiya janrining asoschisi Gay Sallyustiy Krisp (er. avv. 86-35-yillar) keksalik paytida “Katilina fitnasi to’g’risida”, “Yugurta urushi to’g’risida” hamda er. avv. 78-67-yillar voqealarini qamrab olgan “Tarix” asarini yozgan. III-IV asrlarning ikkinchi yarmida Rim tarixshunosligi tushkunlikka yuz tutdi. IV asrda “Imperatorlar tarixi yozuvchiları” nomi bilan II-III asrlar imperatorlari biografiyalari to’plami paydo bo’ldi. Bu to’plam materiallarida Antoniylar boshqaruv davridan imperiyaning yemirilish davriga o’tishi yaqqol ko’rsatiladi. So’ngi mashhur Rim tarixchisi Ammian Martsellin (330-400-yillar) edi. Uning kelib chiqishi yunon bo’lib, latin tilida “faoliyat” nomli 31 jildli tarixiy asarini yozdi. Bu asar Tatsit “tarix”ni davom ettirib 96-378-yillardagi voqealarni o’z ichiga oladi. IV asrda so’ngi imperiya davrining siyosati va mafkurasi tarixi bo’yicha imperatorlarga maqtovlar, notiq Libaniyning nutq va xatlari paydo bo’ldi. IV asrda xristian tarixshunosligini shakllanishi boshlandi. Xristian cherkovi tarixi bo’yicha “Cherkov tarixlari” latin va yunon tilida paydo bo’ldi. Ularning orasida kesariyalik Yevseviyning taniqli tarixchi va ilohiyotshunos, buyuk Konstantinningbiografiyasininmuallifining “Cherkov tarixi” asari alohida o’rin tutadi. Rimning tushkunlik sabablarini xristian tarixchilari ham o’z nuqtai nazarlaridan yoritdilar. Episkop Avgustin o’zining “Xudoning shahari to’g’risida” nomli asarida ispan diakoni Oroziy, marsellik presviter Sal’vian o’z asarlarida Rimning xalokatini uning o’tmishi, o’zaro urushlar, hukmdorlarning adolatsizligi, birinchi xristianlarni ta’qib qilinishidan keltirib chiqardilar.

Aleksandriya (Iskandariya) kutubxonasi - ellinizm davrida bunyodga kelgan mashhur kutubxonalardan biri. Aleksandriya (iskandariya) kutubxonasiga mil. av. 3-asrda ptolemeylar sulolasi davrida yashagan atoqli olim va adiblar (Zenodot, Aristark Samosskiy, Kallimax va b.) asos solgan. Bu yerda yunon fani va adabiyotiga doir

ko`plab qo`lyozma asarlari to`plangan. Bundan tashqari, Sharqtillaridagikitoblar ham bo`lgan. Kutubxonona qoshida kitob ko`chiruvchilar guruhi ishlagan, kutubxona katalogi tuzilib, u vaqt-vaqt bilan to`ldirib turilgan. Kutubxonada 700 ming jildga yaqin kitob saqlangan. Aleksandriya (iskandariya) kutubxonasi (I.)k. uch asr davomida rivojlanib bordi. Mil. av. 48-47 y. lar Aleksandriya urushi davrida kutubxona asosiy to`plamining bir qismi yonginda kuyib ketdi. Misrni Rim imperiyasi bosib olgach, Aleksandriya (iskandariya) kutubxonasi (I.) k. o`z mavqeini yo`qota bordi, qolgan qismi 7-8 – a. larda tamomila tugatildi.

Nazorat savollari

1. Aleksandriya (Iskandariya) kutubxonasi xaqida nimalarni bilasiz?
2. Antik davr kutubxonalarini xaqida nimalarni bilasiz?
3. Gretsya kutubxonalarini xaqida nimalarni bilasiz?

6-mavzu: Sharq davlatlarida bibliografiyashunoslik.

Reja:

1. Xitoyda feodalizmning shakllanishi buddizmning tarqalishi, budda cherkovlari va monostrlarida kutubxonalaridan keng foydalanilishi.
2. Monastr kutubxonalarining asosini budda diniga oid adabiyotlarni tashkil etilishi va bibliografiya faoliyati.
3. Xitoy qadimiy manbalarini yig'ishda Suy va Tan imperatorlarining o`rni.
4. Hindistonda bibliografiya, kitob va kutubxonalar faoliyati.
5. Hindistonda bibliografiyashunoslikni rivojlanishi. Bibliograflar faoliyati.
6. Hind adabiyotining 3 ming yildan ko`proq an`anasi vedalar – sanskrit tilidagi diniy gimnlar. Miloddan avvalgi 10-4-asrlarda xalq og`zaki ijodida yirik epik dostonlar – "Mahabharata" va "Ramayana".

Tayanch iboralar.

Xitoyda feodalizmning shakllanishi buddizmning tarqalishi, budda cherkovlari va monostrlarida kutubxonalaridan keng foydalanilishi. Monastr kutubxonalarining asosini budda diniga oid adabiyotlarni tashkil etilishi va bibliografiya faoliyati. Xitoy qadimiy manbalarini yig'ishda Suy va Tan imperatorlarining o`rni. Hindistonda bibliografiya, kitob va kutubxonalar faoliyati. Hindistonda bibliografiyashunoslikni rivojlanishi. Bibliograflar faoliyati. Hind adabiyotining 3 ming yildan ko`proq an`anasi vedalar – sanskrit tilidagi diniy gimnlar. Miloddan avvalgi 10-4-asrlarda xalq og`zaki ijodida yirik epik dostonlar – "Mahabharata" va "Ramayana".

Xitoya bibliografiyaning paydo bo'lishi Konfutsiy bilan bog'liq. Qadimgi Xitoy yozuvi asta -sekin yaratildi: ierogliflarning yozma belgilari paydo bo'ldi, keyin adabiy asarlar paydo bo'ldi. Kitob fondlarini birlamchi qayta ishslash keng miqyosda boshlandi.

Konfutsiy davridan oldin va keyin ko`plab fikrlash maktablari paydo bo`lgan. Ularning vakillari mualliflarning asarlarining umumiy ma'nosini taqdim etish usullarini ishlab chiqdilar. Miloddan avvalgi 213 yilda Xitoy kitoblariga katta zarar etkazilgan. NS. "Konfutsiy kitoblarini yoqish va konfutsiyliklarni tiriklayin ko'mish" buyrug'ini bergen imperator Qin Shi Xuang. Miloddan avvalgi 32 yilda. Imperator Cheng-di konsalting xodimiga pul yig'ish, tartibga solish va buyurtma qilishni o'z zimmasiga oldi. Liu Xiang - iqtisodchi, yozuvchi va bibliograf, u ko'p yillar davomida tahrir qilib, Konfutsiy tomonidan ishlab chiqilgan bibliografik ish tajribasi va metodologiyasidan yaxshi foydalangan. Miloddan avvalgi 7 yilda. NS. Lyu Syan vafot etdi. Uning ishini 26 yoshli o'g'li Liu Sin davom ettirdi. Bir yil o'tgach, Xitoyda 7 bo'lim va 38 bo'limdan iborat birinchi tizimli izohli ish tuzildi - "Chilue", unda 13219 ta kitob va 609 ta muallif bor. Barcha bo'limlar va bo'limlar muktabga bo'lingan. Adabiy asarlar adabiy tendentsiyalarga ko'ra bo'lindi. Shunday qilib, tasnif ilm -fan olamidagi o'sha paytdagi yutuqlarni to'liq aks ettirdi. Chilue - tipografiyadan oldin qadimgi Xitoy bibliografiyasining eng yaxshi namunasi. Bu ishni tuzishda birinchi marta kitoblarni bibliografik tavsiflash usullari ishlatilgan

bo'lib, ular uchun tavsifning elementlari va shakllari, o'zaro havola, tahliliy tavsif va eslatmalar ishlab chiqilgan.

Xitoy adabiyoti jahonda eng qadimgi adabiyotlardan biri bo'lib, uch ming yillik an'analarga ega. Qadimgi Xitoy adabiyotining birinchi yirik she'riy asari "Shitszin" ("Qo'shikdar kitobi", mil. av. 11-6-asrlar) xalq qo'shiqlari va diniy marosim madhiyalari majmuasidan iborat. Mil. av. 1-ming yillikka mansub badiiy nasr falsafa, tarix, geogr. va boshqalarga doyr asarlar bilan uzviy bog'liq ("Shan shu" - "Tarixiy rivoyatlar kitobi" va boshqalar). Sima Syanning (mil. av. 1-asr) "Shi szi" ("Tarixiy xotiralar") kitobi Xan davri (mil. av. 206 - mil. 220-yillar) nasrinining yirik yodgorligi hisoblanadi. She'riyatning muhim qismini tashkil etgan lirik va satirik xalq qo'shiqlari (yuefu)da xalq hayoti o'z ifodasini topgan. 4-asr oxiri - 5-asr boshlarida yashagan yirik novator shoir Tao Yuanmin (365-427) she'riyati hayot haqidagi falsafiy mushohadalardan iborat bo'ldi. Mamlakatni Tan sulolasi (618-907) birlashtirgach, adabiyot rivoji uchun qulay sharoit yaratildi. Xuddi o'sha davrda ven yan-xitoy adabiy tili uzilkesil shakllandı.

Kashf qilingan qadimiylar xitoycha matnlarning uchdan ikki qismi yog'och taxtalarga, uchdan bir qismi bambuk taxtalarga yozilgan. Yangtsi havzasining shtatlari va mintaqalarida bambuk asosan, Sariq daryo havzasida va chekkasida (masalan, Dunxuangda) yog'och ishlatilgan. Shunga ko'ra, blyashkalar mahalliy materiallardan, Dunxuangda tamarisk, terak va qarag'aydan qilingan. Materialning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bambukdan yasalgan chiziqlar tor edi, ularga faqat bitta qator belgilarni olib yurishi mumkin edi. Uzoq matnlarni yozish uchun planshetlar bir-biriga o'rالgan holda o'rالgan bo'lib, ular ikki yoki uch joyga (ikkala uchida yoki hatto o'rtasiga) bog'langan; har bir taxtaga ip yoki tasma o'rالgan, buning uchun maxsus oluklar kesilgan.

Plitalar va taxtalarni ularga matn qo'llanilishidan oldin ham, keyin ham varaqlarga birlashtirish mumkin edi. Iplar tezda eskirgan va chirigan, shuning uchun topilgan hujjatlarning aksariyati aralash taxtalardan iborat [9]. Xuddi shu narsa qadimgi Xitoy adabiyotida ham aytilgan. Unda tegishli terminologiya ishlab chiqilgan: belgilangan muddatlarning eng qadimgi tse - "bir guruh bambuk taxtalar" (Ch. 册). Zamonaviy tilda bu ieroglif o'z ma'nosini o'zgartirib, ko'p jildli asarlar va nashrlardagi jildning belgisiga aylandi. Dian (xitoycha 典) tse atamasi bilan bog'liq bo'lib, hujjatni rasmiy omborda ro'yxatdan o'tkazish aktini bildiradi. Zamonaviy tilda - bu ma'lum bir printsip bo'yicha tanlangan materiallar to'plami (qonunlar to'plami, lug'at, ensiklopediya).

Taoist matnli Mavandu ipak varagi'i. Miloddan avvalgi 168 yil NS. Hunan muzeyi Matnni qo'llash uchun cho'tkalar va siyoh ishlatilgan, ularning namunalari Zhanguo davriga mansub dafnlardan topilgan. Cho'tkasi quchoq va bo'rining sochidan iborat bo'lib, uzunligi 20-30 sm, diametri 0,4 dan 1,5 sm gacha bo'lgan bambukdan yasalgan tutqichga o'tkazilgan edi. Tutqichdan chiqayotganda dastani ingichka shnur bilan ushlangan. Quvvat uchun ular yuqorida ham, pastdan ham suyak jantlar kiyishlari mumkin edi (Shayxudiydan namuna). Cho'tkalarni namunalari saqlanib qolgan bambuk qalam qutilarida saqlash mumkin edi. Yozish uchun ular kuygan grafitdan jelatin bilan aralashtirilgan siyohdan foydalanishgan.

Konfutsiy ([xitoycha](#) 孔子, mil. avv. 551-479 yil) — Xitoy faylasufi, [konfutsiychilik](#) asoschisi va siyosiy arbobi bo'lgan. Uning saboqlari va faylasufligi [Xitoy](#), Koreya, [Yaponiya](#) va [Vietnam](#) xalqlarining o'y-fikri va hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

像教行子孔師先



Konfutsiy

Konfutsiy kambag‘allashib qolgan zodagon va harbiylar oиласида tug‘ilgan. 22 yoshida ta’lim berish bilan shug‘ullanib, Xitoyning eng mashhur o‘qituvchisi sifatida shuhrat qozongan. Konfutsiy o‘zi ochgan maktabida **4 ta fan: axloq, til, siyosat va adabiyot o‘qitilgan**.

50 yoshida Konfutsiy siyosiy faoliyatini boshlab, Lu davlatida yuqori amaldori bo‘lib xizmat qiladi. Fitnalar natijasida xizmatidan ketadi, 13 yil mobaynida Xitoyning turli o‘lkalariga boradi, biroq u joylarda o‘z g‘oyalarini qo‘llay olmagach, miloddan avvalgi 484-yilda Luga qaytib keladi.

Ta’lim berishdan tashqari **qadimiy Xitoyning 5 ta mumtoz asari** — „Shudzin“, „Shidzin“, „Idzin“, „Yuedzin“ va „Lidzi“ni to‘plash, tahrir qilish, tarqatish bilan shug‘ullanadi. **Konfutsiy ta’limoti uning „Lun yuy“** („Suhbatlar va mulohazalar“) kitobida bayon etilgan. Bu kitob aslida Konfutsiyning fikrlari va suhbatlari asosida shogirdlari va izdoshlari tomonidan yaratilgan. Konfutsiy o‘zi uchun, avlodlari, yaqin shogirdlari uchun alohida ajratilgan qabristonga dafn etilgan; uning uyi **Konfutsiy ibodatxonasiqa** aylantirilgan, bu joy ziyoratgoh bo‘lib qolgan.

Xitoydag‘i ilm-fan taraqqiyotida Konfutsiy va uning maktabi alohida ahamiyatga ega. Uning Xitoy falsafasi tarixida tutgan o‘rnini Suqrotning yunon falsafasi tarixidagi o‘rnigagina qiyoslash mumkin. Uning butun dunyoda mashhur bo‘lgan nomi „kun“ va „futszi“ so‘zlari asosida yasalgan „Kun“ hozirgi vaqtida familiyani anglatuvchi so‘z bo‘lsa, „fu“ faylasuf, „szi“ o‘qituvchi ma‘nolarini ifodalovchi so‘zlardir. Ya’ni Konfutsiy „falsafa o‘qituvchisi“ degan so‘zlarining familiya maqomini olgan shaklidir. Konfutsiy yashagan davrdan „To‘rt asos“ va „Besh asos“ degan ulkan yozma yodgorliklar saqlanib qolgan. „Besh asos“ Konfutsiyiga qadar yaratilgan „Qo‘sishlar kitobi“, „Taomillar kitobi“ („Marosimlar kitobi“), „Rivoyatlar kitobi“ va „Folbinlik kitobi“ („o‘zgarishlar kitobi“) singari qismlardan iborat bo‘lgan. Lekin bu kitoblarining konfutsiylik ta’limoti asosida qayta ishlangan va Konfutsiy ta’limotining mohiyatini ochishga xizmat qilib kelgan. „To‘rt asos“ esa Konfutsiy „Hikmatlar“idan tashqari, „Menzi“ („Menmuallim“), „Buyuk ta’limot“ va „Oraliq haqidagi ta’limot“ sin-gari Konfutsiy shogirdlarining hikmatli so‘zlaridan tashkil topgan. Konfutsiy ta’limoti markazida „muruvvatli zot“ turadi. U hukmron tabaqaning ideal vakili bo‘lib, Konfutsiy ta’limoti yordamida o‘zida jamiyat farovonligini ta’minlaydigan va ma’naviy asoslarini ifodalay oladigan oliyanob fazilatlarni shakllantirgan. Konfutsiy „Hikmatlar“i „muruvvatli zot“ning shunday yuksak insoniy fazilatlarini aks ettiradi. Aniqroq aytsak, bu zot oliy hukmdorga nisbatan chuqur ehtiromli, xalqqa esa muruwatli bo‘luvchi, butun kuch va qobiliyatini jamiyat oldidagi burchini oqlashga, milliy urf-odat va an’analarning to‘la-to‘kis bajarilishini ta’minlashga sarf etuvchi kishidir. Shuning uchun ham uning o‘gitlari, pand-u nasihatlari Xitoyda hanuzga qadar e’zozlanib va

qadrlanib keladi.

HINDISTON

Hind adabiyotining 3 ming yildan ko‘proq an’anasi vedalar – sanskrit tilidagi diniy gimnlardan boshlanadi. Miloddan avvalgi 10–4-asrlarda xalq og‘zaki ijodida yirik epik dostonlar – "Mahabharata" va "Ramaya-na" shakllandi. Qadimgi hind adabiyoti yodgorliklari – puranlar muqaddas matnlari bu dostonlar matnlariga yaqin. Qadimgi hind ertaklari to‘plamlaridan "Panchatantra", "Xitopadesha", "Vetalapanchavinshati", "Shuksaptati" mashhur. Mualliflik adabiyoti milodiy 1-asr boshlarida paydo bo‘ldi. Sanskrit adabiyotining buyuk shoiri va dramaturgi Kalidasatr. Bxasa (3–4-asr) va Shudraka (5–6-asr) ham mashhur dramaturg bo‘lishgan. Sanskrit adabiyotida Bxo-vabxugi (8-asr) ham sezilarli iz qoldirdi. Dandin (7-asr)ning "O’n shahzoda sar-guzashti" romani sanskrit badiiy nasrinining cho‘qqisi hisoblanadi. Mil.ning dastlabki asrlaridan dravid tillari (qarang [Dravidlar](#))da, jumladan, tamil tshshtgi adabiyot (qarang [Tamil adabiyoti](#)) rivojlandi. taxminan 7-asrdan o‘rta asrlar adabiyotining tarixi boshlanadi. Sanskrit va tamil tilidagi adabiyot bilan bir qatorda boshqa tillarda ham adabiyot vujudga keldi. Yangi hind adabiyoti dravid va yangi hind-oriya tillarida 1-ming yillik oxiridan rivojvana boshladi. Keyinroq esa kashmir va sindh adabiyoti, shuningdek pushtu tilidagi adabiyot shakllana boshladi. Musulmon davlatlarining paydo bo‘lishi va islom dinining keng tarqalishi natijasida Hindistonning fors tilidagi adabiyoti yuzaga keldi (Xusrav Dehlaviy, Mirzo Bedil va boshqalar).

Vedalar (sanskritcha veda-bilim) Hindiston yozma adabiyotining qad. yodgorligi. Mil. av. 2-ming yillikning oxiri — 1-ming yillikning boshida yaratilib, V. to‘plamlari deb nomlanadi. Bu madaniy yodgorlikdan bizgacha 4 ta qism (samhita):

"Rigveda" (qasida, madhiya, duolar to‘plami),

"Samaveda" (qo‘shiqlar to‘plami),

Ayurveda yoki Yajurveda (qurbanlik qilish yo‘llari),

Atharvaveda (sehrli duolar to‘plami) yetib kelgan. Veda adabiyoti bir necha ming yillar davomida shakllanib, qad. hindlar tarixidagi turli jamiyatlarning diniy-falsafiy, estetik taraqqiyot darajalarini ifodalaydi. V. ichida eng qad.si "Rigveda" hisoblanadi. U 10 kitob (mandala) dan iborat. Bunda tabiatdagi narsa va hodisalar (osmon o‘zgarishi, quyosh, yulduzlar, momaqaldiroq, shamol, yomg‘ir, tog‘lar, daryolar) ilohiy kuchlar sifatida gavdalantirilib, ular sharafiga qo‘shiqlar, madhiyalar to‘qilgan, ularga qurbanliklar keltirilgan. Insoniyat hayoti, uning baxtsaodati ana shu kuchlarga bog‘liq holda tasavvur qilingan, "Rigveda"ga ko‘ra, Indra — momaqaldiroq ilohi, Mitra — Quyosh tangrisi, Varuna — Osmon ma’budi, Agni — Olov ma’budi, Yama — ajal, o‘lim keltiruvchi, Sama — Oy ma’budasi, Rita — Koinot tartibini anglatadi. "Rigveda" qo‘shiqlarini to‘plovchilar rishi (ilohiy qo‘shiqlarni to‘quvchi donishmand)lar deb atalgan. Beruniy "Hindiston" asarida yozishicha, inson bo‘la turib, ilmlari sababli farishtalardan afzal va ortiq bo‘lgan hikmatshunoslar rishilar, deb atalganlar. Shuning uchun farishtalar rishilardan foydalandilar, chunki rishilar bilim egasidirlar. Rishilardan yuksakda faqat Barohim turadi. "Rigveda" kitobida qad. dunyo falsafiy tafakkurining o‘ziga xos badiiy ifodasi ko‘rinadi. Unda qad. hindlar olam sirlari haqida fikr yuritadi. Mac, hech narsaga tayanmagan va yopishtirilmagan Quyosh nega qulab tushmaydi? Kechasi Quyosh qayoqqa ketadi, u qayerda? Shamol qayerda tug‘ilib, qayerga boradi? Olamning asosini nima (yoki nimalar) tashkil etadi? V.da bu va b. ko‘plab bunday muammollar ko‘tarilgan. Sharq faylasuflari to‘rt unsur — suv, olov, havo, tuproqni barcha mavjudotlarning asosi deb bilganlar. Bu jihatdan Veda falsafasi Arastu zamonidagi, keyinroq Forobiy zamonidagi falsafiy tafakkurga ta’sir etgan. V. adabiyoti V.dan tashqari brahmanlar, aranyakalar va upanishadlardan iborat. Qad. Hindistonda varna (kasta)chilik jamiyatni vujudga kelganida brahmanlar adabiyoti rivojlangan. Brahmanlarda samhitalardagi kohinlarning diniy marosimlari sharhlab beriladi.

"Aranyakalar" (aynan "O‘rmon kitobi") jamiyatdagi jabr-zulmdan, g‘arazli, tuban, mol-dunyoga o‘ch odamlardan o‘rmonlarga qochib, yolg‘izlikda yashaganlarga bag‘ishlangan.

Upanishad (maxfiy ta'limot)lar asosan falsafiy-diniy risolalardir. Upanishadlarda falsafiy masalalar ancha keng yoritilgan bo'lib, hindlar tangrisi Brahma (Beruniyda — Barohim) borliqning ibtidosi va intihosi, barcha mavjudotlarning asosi, deb ulug'lanadi. Upanishadlarga ko'ra, moddiy olam, shu jumladan, inson ham Atma-Brahmadan paydo bo'lgan va o'shang aqytadi. Bu fikr islomdag'i — sufilar (Ibn Arabiy, Mansur Halloj va b.)ning butun borliq Allohning tajalliyisi, jamoli, yaxshi, pok insonlar haq visoliga yetishib, u bilan qo'shilib ketadi, degan fikrlariga uyg'undir. Upanishadlarda aytilishicha, inson bunga erishish uchun muayyan axloqiy mezonlarga, karma va dharma ta'limotiga rioya qilishi kerak. Upanishadlarga ko'ra, har bir inson o'zidagi ilohiy dharmalarga muvofiq yashaydi. Agar inson bu dunyodagi hayotida pokiza, ezgu niyatlar bilan yashasa, qaytadan dunyoga kelishda yana inson bo'lib keladi. Aksincha bo'lsa, odam tuban, hayvoniy ishlar qilsa, keyingi kelishida joni hayvonga ko'chadi. Beruniy "Hindiston" asarida yozishicha: shu tabaqalar (brahmanlar, kshatriy-harbiylar, vayshya dehqonlar, chorvadorlar, shudra quyi tabaqa vakillari)dan kimning xalos bo'lishga tayyor va loyiq ekani haqida hindlarning fikri turlichadir. Ba'zi vedashunoslar brahmanlar va kshatriydan boshqalar qutulish (najot)ga qobil emas, chunki V.ni o'rganishga faqat ular haqli xolos, deydilar.

Nazorat savollari:

1. Xitoy qadimiy manbalarini yig'ishda Suy va Tan imperatorlarining o'rni xaqida nimalarni bilasiz?
2. Hindistonda bibliografiya, kitob va kutubxonalar faoliyati xaqida nimalarni bilasiz?
3. Hindistonda bibliografiyashunoslikni rivojlanishi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Bibliograflar faoliyati xaqida nimalarni bilasiz?
5. Vedalar xaqida nimalarni bilasiz?

7-mavzu: O'rta Osiyoda bibliografiyaning paydo bo'lishi

Reja:

1. O'rta Osiyo bibliografiyasi o'rta asrlar davrida paydo bo'ldi. Beruniy va bibliografiya.
2. O'rta asr Sharqida arab xalifaligiga birlashgan xalqlar madaniyati va fani rivojida bibliografiyaning o'rni.
3. Qo'lyozma kitoblar uzoq va mashaqqatli mehnat mahsuli.
4. Arab yozuvidagi adabiyotlarni yig'ish va uning takomillashib borishi bevosita yozuvning taraqqiyoti va ayrim asarlar nuxxalarining ko'payishi.
5. Xorazm, Buxoro, Samarqanddagi saroylar, masjid va madrasalarda juda boy kutubxonalar faoliyati, bibliografik faoliyat rivoji.

Tayanch iboralar.

O'rta Osiyo bibliografiyasi o'rta asrlar davrida paydo bo'ldi. Beruniy va bibliografiya. O'rta asr Sharqida arab xalifaligiga birlashgan xalqlar madaniyati va fani rivojida bibliografiyaning o'rni. Qo'lyozma kitoblar uzoq va mashaqqatli mehnat mahsuli. Arab yozuvidagi adabiyotlarni yig'ish va uning takomillashib borishi bevosita yozuvning taraqqiyoti va ayrim asarlar nuxxalarining ko'payishi. Xorazm, Buxoro, Samarqanddagi saroylar, masjid va madrasalarda juda boy kutubxonalar faoliyati, bibliografik faoliyat rivoji.

O'rta Osiyoda bibliografiyaning paydo bo'lishi O'rta Osiyoda ma'naviyat va madaniyat, ilm-fan uzoq tarixga ega. O'rta Osiyo bibliografiyasi o'rta asrlar davrida paydo bo'ldi. O'rta asr Sharqida arab xalifaligiga birlashgan xalqlar madaniyati va fani rivojlandi. Ko'pmillatlilik xarakteriga ega arab madaniyati dunyoning deyarli katta qismini egallab oldi. 996- yilda vafot etgan, tug'ilgan yili noma'lum xalifa Al-Azizning 200 ming kitob fondiga ega o'z kutubxonasi bo'lgan. O'sha paytda Yevropa kutubxonalari fondi bundan anchagina kam edi. IX asrdagi Konstansa kutubxonasi esa 356 jild kitob fondiga ega bo'lgan. Yevropada qog'oz yo'qligi sababligina kutubxona o'z davrining 60 yirik kutubxonasi hisoblangan, chunki papirus ishlab chiqarish imkoniyati yo'q, pergament esa juda qimmat material edi. VII — IX asrga kelib mumtoz arab kitobi madaniyati shakllandi. X asrda ustozdan shogirdga og'zaki nutq orqali bilim

berish shakli pasaya boshlandi. Kitobning mustaqil bilim olish vositasi sifatidagi roli oshdi. O‘rtalik Osiyo arab adabiyoti, asosan, qo‘lyozma kitoblardan iborat bo‘lib, kitob an’analarini saqlab qolishning birdan bir yo‘li kitobni ko‘chirib yozishdan iborat bo‘lib qoldi. Qo‘lyozma kitoblar uzoq va mashaqqatli mehnat mahsuli bo‘lib, u maxsus bilimni talab qilar, chevar qo‘llar ostida u san‘at asari darajasiga yetar edi. Samarqandda Sharqda mashhur bo‘lgan qog‘oz ishlab chiqarila boshlandi. Bu qog‘oz tekis, yumshoq, yaltiroq ko‘rinishda va fil suyagi rangida bo‘lgan. Uning bahosi uyg‘onish davri Yevropasida mashhur va qimmat bo‘lgan. Kitobni ko‘chirib yozish yakunida badiiy bezash ishlari bajarilgan. XI asrdan boshlab kitob illustratsiyasi paydo bo‘ldi. Kitoblar, asosan, shogirdlar tomonidan havaskorlik yo‘lida va malakali ko‘chirilgan. Ular ta‘lim olish davomida savod chiqarish bilan birga, matnni o‘qish, izohlash, yod olish bilan mashg‘ul bo‘lganlar, o‘quv adabiyotlarni majburan ko‘chirganlar. Bu esa musulmon dunyosida kitoblarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Arab yozuvidagi adabiyotlarni yig‘ish va uning takomillashib borishi bevosita yozuvning taraqqiyoti va ayrim asarlar nusxalarining ko‘payishi bilan bog‘liq. O‘rtalik asrlarda kutubxonalar rivojlandi va ilm-fan hamda san‘at bilan shug‘ullanishga imkoniyat kengaydi. Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar rivojlanib, madaniyat darajasi o‘sdi. Ayniqsa, Somoniylar va Temuriylar davrida kutubxonachilik ishi taraqqiy topdi. Saroy kutubxonalari fan uchun xazina bo‘lgan, ularda diniy kitoblar, matematika, astronomiya, tarix, huquq, geografiyaga oid adabiyotlar bo‘lgan. Somoniylar davlatida buyuk olimlar va shoirlar ijod etdi. Bu davrda Ibn Sino o‘z yoshlik yillarini o‘tkazdi, Rudakiy va Daqiqiy, Firdavsiy va Narshaxiylar ijod qildilar. Narshaxiy yagona „Buxoro tarixi“ asarini yozdi. Bu asar O‘rtalik Osiyoning iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lgan bir shaharning tarixi haqidagi ensiklopediya edi. Ibn Sino Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur saroyidagi kutubxonadan foydalandi. Olim bu haqda shunday deb yozadi: „Men bir necha xonalardan iborat kutubxonaga kirdim, har bir xonada kitoblarga to‘ldirilgan sandiqlar bor edi. Bir xonada arab kitoblari va she’riy asarlar, 61 boshqasida qonunchilikka oid va har bir xonadagi kitoblar bilimning biror-bir sohasiga oid alohida joylashtirilgan edi. Men adabiyotlar ro‘yxatini ko‘rib chiqdim va o‘zimga zarur kitoblarni so‘rab oldim“. Shuning o‘zi o‘rtalik asrlardagi kutubxonalarda kitoblarni joylashtirish tartibi haqida, bibliografik faoliyat elementlari, ayniqsa, aniq bir kitob saqlash xonasidagi kataloglashtirish haqida ma’lumot beradi. Har bir xonanening markazida chiroqli quticha bo‘lib, unda fonddan foydalanishga imkon yaratuvchi va ularni hisobga olib boruvchi ro‘yxatlar mavjud bo‘lgan. Kitoblar bilim sohalari bo‘yicha tartibga solingen va ehtiyyotkorlik bilan saqlangan. Kutubxonalar har bir davrda ish mazmuni va xarakteriga ko‘ra, X asrgacha „Bayt ul-hikmat“ („Hikmatlar uyi“), X asrda „Dar ul-ilm“ („Fanlar uyi“), XI asrdan maktablar, madrasalar, machitlar, mavzoleyalar, observatoriylar bilan birgalikda qo‘shilib, birlashgan kutubxonalar deb nomlandi. O‘rtalik Osiyoning ko‘pgina shaharlarida bir yo‘la bir necha kutubxona faoliyat ko‘rsatdi. O‘rtalik Sharqidagi yirik kutubxonalarda mavjud adabiyotlarni bibliografik ro‘yxatga va hisobga olib borish ehtiyoji paydo bo‘lgan. Shu maqsadda hozirgi kataloglar ko‘rinishiga yaqin bilim sohalari bo‘yicha kitoblar ro‘yxati tuzilgan. Musulmon dunyosidagi adabiyotlarni sistemalashtirish va joylashtirishda, ularning katalogini tuzishda va birinchi bibliografik ishlarda tarixiy-iyerarxik prinsip qo‘llanilgan. Bu fanlarning tarixan tarmoqlanishi tartibiga va o‘rtalik asr jamiyatida qanday baholanishiga qarab belgilangan. Masalan, bizgacha birinchi manba sifatida yetib kelgan Sobur binni Arshid katalogida mavzuli rubrikalar quyidagi tartibda berilgan: Qur‘on turlarining ro‘yxati, Qur‘on sharhlari va uni o‘qishning turli uslublari, sig‘inish, namoz o‘qish, merosning bo‘linishi, qonunchilik maktablari, xudojo‘ylik, munozara-bahslar, payg‘ambarlar avlodlarining kitoblari va ular haqidagi kitoblar, genealogiya, filologiya, maqollar, grammatica, etimologiya, afsonalar, she’-riy to‘plamlar, latifalar, tarix, xatlar, tibbiyot, astronomiya, falsafa, geometriya va boshqalar. Xorazm, Buxoro, Samarqanddagidagi saroylar, masjid va madrasalarda juda boy kutubxonalar mavjud bo‘lganligi sababli kitob savdosi ham rivojlangan. Kitob bozorlari olimlar, adabiyotchilarning uchrashuv joylariga, muloqot maskaniga aylangan, bu vaqtida qiziqarli bahslar, adabiy va ilmiy munozaralar olib 62 borilgan. Ammo hali kitob savdosi bibliografiyasining paydo bo‘lishi, kitob reklamasi uchun imkoniyat kam edi, sotuvchilarning o‘zi reklama bilan shug‘ullanardi. Ibn Sino „Tarjimayi hol“ asarida

yozishicha, Buxoro kitob bozorida bo‘lganida o‘ziga kerakli adabiyotni qidirishda, kitob so tutvchingin baland tovushda o‘zining mahsulotini (ya’ni kitoblarni) maqtayotganini eshitganini yozadi. Kitob bozorining an’ analaridan biri kitob qatorlarida adabiy, diniy va kitobsevarlik sohasidagi turli xil masalalar yuzasidan muhokamalar, bahslar o‘tkazish edi. Ibn Sino 997- yilda Buxoro xonligining kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Ibn Sino foydalangan ro‘yxat O‘rta Osiyoda eng qadimgi bibliografik manba — Somoniylar sulolasiga kutubxonasining katalogi bo‘lgan. O‘rta asr kitob savdosi an’ analari mamlakatimizda bir necha yuz yillar davom etdi. Kitob savdosi bibliografiyasi tushunchasining zamонавиу ko‘rinishi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xorijda paydo bo‘lgan. 1897- yili taniqli samarqandlik arxeolog va sharqshunos olim V. L. Vyatkin birinchi marta „TópéâñTâíñêå ââäññTè“ gazetasida Buxoro kitob bozori haqida xabar beradi. O‘sha paytda nashr etilayotgan kitoblarning muqovasida kitob do‘konlarida mavjud kitoblar va nashrga tayyorlanayotgan kitoblar haqida axborotlar ham berila boshlangan. Bibliografik qo‘llanmalarning boshqa turi fixrist nomi bilan tarqalgan, bu tavsiflar hisobga olinishi kerak bo‘lgan mulk sifatida vaqf kutubxonalariga topshirish paytida tuzilgan. X — XI asrlarda arab, fors, turk tillaridagi fan va adabiyot ma’lum bir yuksaklikka erishdi. Bu davrda ilmiy va badiiy adabiyotning mumtoz janrlari rivoj topdi, qo‘lyozma kitoblarning yangi tiplari shakllandi, ular Sharq ma’rifatchilarining va olimlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish va intellektual faoliyatni rivojlantirishga yordam berar edi. Bular orasida turli xil universal xarakterdagi ensiklopediyalar, biobibliografik lug‘atlar, adabiy antilogiyalar, tarixiy-ilmiy ishlar ham mavjud edi. Ularda, albatta, u yoki bu darajada bibliografik axborot bo‘lgan. O‘sha davrdayoq arabtillik va erontillik olimlar, faylasuflar, tarixchilar, filologlar, geograflar, shifokorlar haqida avtobiografik ma’lumotlar to‘plangan. Ularda mualliflar va ishlarining ro‘yxati berilgan. Hammadan ko‘ra mashhur sayohatchi Ibn Yoqutning „Irshad al-arib“ asarida 1040 ta olimlar haqida ma’lumot berilgan. O‘sha davrning mashhur biobibliografik asari Ibn an-Nadimning „Kitob al-fixrist“ asaridir. 63 Unda X asrgacha arab tili va adabiyoti haqida ma’lumot beriladi. Bu asar arab yozuvining I — III asrdagi minglab asarlar haqida, saqlanmagan qo‘lyozmalar haqida axborot berishi bilan qimmatlidir. Hozirgi kun talabiga ko‘ra to‘la axborot beruvchi bunday ishlar tarixiy asarlarni o‘z ichiga olgan, tarixiy manbalar bilan to‘ldirilgan, tabiiy-ilmiy xarakterga ega bo‘lib, ular tazkira yoki biobibliografik lug‘atlar deb atalgan. Beruniy va bibliografiya O‘rta asr Sharqi olimlaridan biri, bibliografik faoliyati ilmiyamaliy ahamiyatga ega bo‘lgan mashhur qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy mashhur asarlarida o‘zining turlituman qiziqishga, chuqur bilimga ega ekanligini, astronomiya, geologiya, matematika, falsafa, botanika, tibbiyot kabi sohalarda ham betakror ekanligini ko‘rsatdi. Salkam 80 yillik umri davomida 150 dan oshiq asar yozdi, ulardan 30 tasi bizgacha yetib kelgan. Beruniy bir umr kitobga katta hurmat va mehr bilan munosabatda bo‘lgan, unga bilimlar manbayi, kishining ma’naviy kuchi sifatida qaragan. Beruniy buni „Fixrist“ nomli bibliografik asarining so‘zboshisida yozadi va kitobxonlarga quyidagicha murojaat qiladi: „Sen mening yoshlik davrimda va keyingi paytlarda ham yozgan asarlarimni bilishing shart. Ularni xor qilma va ularga bepisand bo‘lma. Ular hammasi mening farzandlarim, zero hamma o‘z farzandi va ijodi bilan faxrlanadi“. „Hind falsafasi“da ko‘rsatilgan boblar o‘ziga xos bibliografik sharh bo‘lib, Hindistonning falsafasi va dinshunosligi, astronomik va tilshunoslik masalalariga bag‘ishlangan. Beruniyning bibliografik faoliyati ancha mashhur bo‘lib, hayotining so‘ngi 10 yilda unga yaxshigina muvaffaqiyatlar keltirdi. Uning „Geodeziya“, „Hindiston“, „Mas’ud qonuni“ va boshqa ko‘pgina ishlari va 1036- yilda tugatgan „Biobibliografiya“ (arabcha „Fixrist“) bizgacha yetib kelgan. Beruniy bibliografik ro‘yxatni tuzishda Abu Bakr Muhammad Ibn Zakariyo ArRoziy asarlariga to‘xtaldi. Ar-Roziy ni o‘zining buyuk o‘tmishdoshi, yirik Eron filosofi, ximik, vrach va tabiiy sinovchi, o‘rta asr Sharqi va G‘arbining mashhur olimi sifatida tan olardi. Beruniy Ar-Roziyning asarlarini eng ishonchli va obro‘li manba sifatida bilar va undan faoliyatida va asarlarida foydalanar edi va bu Ar-Roziy asarlarining ko‘rsatkichini tuzishga turki bo‘ldi. Bu ishni Beruniy ko‘rsatkichni tuzishdan ancha oldin boshlagan edi. U Eronning uzoq bir qishlog‘ida yashab turgan vaqtida Ar- 64 Roziy haqidagi materiallarini yig‘a boshlagan va keyinchalik uni to‘ldirib borgan. Vaqt kelib uni to‘la bibliografik ishga aylantirdi. Bu

bibliografik ko'rsatkichda avval Ar-Roziyning tarjimayi holi, undan so'ng esa uning 184 ta asari haqida ma'lumot beradi. Unga ko'ra Ar-Roziy 865- yili 28- avgustda Rey shahrida tug'ilgan. Uning otasi savdogar bo'lган, Roziy yoshligida falsafa, matematika, astronomiya, kimyo fanlarini katta qiziqish bilan o'r ganadi, 30 yoshlarida tibbiyot fanini chuqur o'r ganadi va keyinchalik tibbiyot uning asosiy kasbiga aylanadi. Ar-Roziy Rey va Bag'dod shahar kasalxonalarini boshqargan. Ar-Roziy 925- yili 60 yoshida vafot etadi. Uning IX asr oxiri X asr boshlarida Yaqin Sharqdagagi ilm-fan taraqqiyotida xizmati shu qadar katta bo'lganki, Beruniy bu davrni „Roziy asri“ deb atadi. Beruniy Ar-Roziy asarlarini bilim sohalari bo'yicha tartibga keltiradi. Ko'rsatkich anchagina to'la bo'lib, Ar-Roziyning ilmiy faoliyati haqida ma'lumot beruvchi ko'rsatkich sifatida o'sha davr va hozirgi davr uchun ham muhim ilmiy qimmatga ega. „Fixrist“ asarining 2- qismi Beruniyning 1036- yilgacha yozgan asarlari haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib, Beruniyning ilmiy faoliyati haqida dastlabki manba sifatida ahamiyatga ega. Unda 113 nomdagi asari mavzular bo'yicha guruhlashtirilgan, tartibda ayrim xatoliklar uchraydi. 113 ta asardan 70 tasining hajmi ham ko'rsatilgan. 27 tasini zamondoshlari Abu Sa'lam Mosihiy, Abu Ali Hasan kabilar bilan yozganligini ko'rsatadi. Ko'rsatkichga 1036-yildan keyingi davrda yozgan 30 dan ortiq asari kirmagan. 1- guruh 18 ta asardan iborat bo'lib, astronomiyaning umumiyligi masalalariga oid. 2- guruh geodeziyaga oid 15 ta asardan tashkil topadi. 3- guruh matematikaga oid 8 ta asardan iborat. 4- va 5- guruhlar kichik bo'lib, astronomiyaning u yoki bu masalasiga oid. Keyingi 2 ta guruh 5 ta kometalar va vaqt aniqligi masalasiga oid adabiyotlardan iborat. 8-guruh 12 ta geometriyaga, meteorologiyaga, astronomiyaga oid turli xil adabiyotlar haqida ma'lumot beradi. 9- guruh 7 ta nomdagi astrologiyaga oid asarlar haqidagi sharhdan iborat. 10- guruh, asosan, 13 ta nomdagi tarjima qilingan asarlarni, 11- guruh esa denga va diniy masalalarga oid 6 ta asarni o'z ichiga oladi, oxirgi guruhda qo'shimcha ish va to'ldirishni talab etadigan asarlar ro'yxati berilgan. Guruhlar ichida adabiyotlar tartibi na alifbo, na xronologik xususiyatga ega, bu esa o'rtalarda hali bibliografiyaning u darajada rivojlanmaganini ko'rsatadi. Beruniy ko'pgina asarlariga o'ziga xos annotatsiya beradi, 65 unda asarning yozilish sabablari, kimga bag'ishlangani, nima uchun yozilgani ko'rsatiladi. Bu ko'rsatkich XVIII asrning o'rtalariga qadar 200 yillar atrofida Ar-Roziy ilmiy merosi haqida ma'lumot beruvchi yagona manba sifatida qadrlanadi. XVIII asr o'rtalarida tarixchi olim Ibn Abu Usotba Ar-Roziyning 236 ta asarlari ro'yxatini tuzadi. O'rtal Osiyoda qadimiy asar matnlari va kitob ichidagi bibliografiyaning paydo bo'lishi ham Beruniy nomi bilan bog'liq. Sharqda birinchi bo'lib foydalilanilgan adabiyotlar haqida ma'lumotlarni shaklga solishga, ya'ni manbalar haqida aniq ma'lumot berishga katta e'tibor bergen. Beruniyning bibliografik faoliyati haqida rus arxeolog va etnograf olimi S. P. Tolstov shunday yozadi: „Beruniy manbalarni tanqidiy analitik usul bilan o'rgandi. To'g'ri, manbalarga tanqidiy yondashish Beruniygacha ham bo'lgan, lekin Beruniy ishlariда manbalarga tanqidiy yondashish — izlanishning asosiy sharti qilib olingan“. Beruniyning 998 — 1004- yillar o'rtasida yozgan „Yilnom“ (xronologiya) nomi bilan mashhur asarida berilgan manbalar ro'yxati bunga misol bo'ladi. Bunday ro'yxat Beruniygacha bo'lman va birorta olimning asarida keltirilmagan. Beruniy bu asarida antik va o'rtalarda yashagan grek, Vizantiya, Hindiston va O'rtal Osiyo mualliflarining asarlaridan foydalanganligini ko'rsatadi. Kitob ichi bibliografiyasining muhim namunasi sifatida Beruniyning 1030- yilda yaratgan „Hindiston“ asarini ko'rsatish mumkin. Bu yirik ilmiy asar kirish qismi va 80 bobdan iborat bo'lib, uni yaratishda Beruniy 10 yil davomida turli bilim sohalariga oid 207 ta qo'lyozma asarlarni o'qib o'rgangan. Bu asarning 12 — 14-boblarini alohida bibliografik manba deb hisoblash mumkin. Beruniy har bir fan tarmog'iga oid bo'limlar ichida, avvalo, eng muhim ilmiy asarlarga batafsil to'xtagan, keyin boshqa manbalar haqida ma'lumot bergen. Asar mazmunini ochib berish maqsadida boblarni sanab o'tgan, agar u yoki bu kitobni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lman bo'lsa, bu haqda eslatib o'tadi. Beruniydan bizga meros bo'lib qolgan bibliografik ishlar o'zining ko'lami, hajmi, manbalarning xronologiyasi va hududiy chegarasi, tilining xilma-xilligi bilan kishini hayratga soladi. Manbalar Hindiston, Yaqin Sharq va Gretsiyagacha antik davrdan to XI asrgacha bo'lgan davrda yaratilgan arab, fors, grek 66 va boshqa tillardagi adabiyotlardan iborat. Bu bilan Beruniy bizga ming yillar

davomida, hatto bizgacha yetib kelmagan ko‘plab mualliflarning asarlari, hayoti va ijodi haqida ma’lumot beradi. Uning bibliografik ishlari O‘rta Osiyoda yaratilgan dastlabki bibliografik ishlardir, o‘zi esa O‘rta Osiyoning birinchi bibliografi deb tan olinishga loyiq. O‘rta asrlarda yaratilgan yana bir yirik bibliografik manba — XVIII asrlarda yashab va ijod etgan arab yozuvchisi va sayohatchisi Ibn Abdulloh Yoqutning „Ismlar lug‘ati va fanlar mazmuni“ nomli ko‘rsatkichidir. U ko‘plab shaharlar qatori Xorazm, Samarqand, Buxoroda ham bo‘lgan. Hozirgi Turkmanistonning Mari shahrida 2 yil yashagan va muhim tarixiy manba hisoblanuvchi „Lug‘at“i uchun boy material yig‘adi. Yoqut o‘zining bibliografiyasi uchun ma’lumotlarni tarix, adabiyotshunoslikka oid asarlardan, ayniqsa, As-Somoniyning „Ismlar genealogiyasi kitobi“dan oladi. 1907- yilda ingliz olimi R. Morgalius bu asarni nashr qildiradi.

Nazorat savollari:

1. O‘rta Osiyo bibliografiyasi o‘rta asrlar davrida paydo bo‘ldi xaqida nimalarni bilasiz?
2. Beruniy va bibliografiya xaqida nimalarni bilasiz?
3. O‘rta asr Sharqida arab xalifaligiga birlashgan xalqlar madaniyati va fani rivojida bibliografiyaning o‘rnini xaqida nimalarni bilasiz?
4. Qo‘lyozma kitoblar uzoq va mashaqqatli mehnat mahsuli xaqida nimalarni bilasiz?
5. Arab yozuvidagi adabiyotlarni yig‘ish va uning takomillashib borishi bevosita yozuvning taraqqiyoti va ayrim asarlar nuxsalarining ko‘payishi xaqida nimalarni bilasiz?
6. Xorazm, Buxoro, Samarqanddagi saroylar, masjid va madrasalarda juda boy kutubxonalar faoliyati, bibliografik faoliyat rivoji xaqida nimalarni bilasiz?

8-mavzu: Amir Temur va Temuriylar davrida bibliografiyashunoslik.

Reja:

1. Amir Temur va temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda bibliografiya va qo‘lyozmalar saqlanadigon kutubxonalarning ko‘p asrlik tarixi.
2. Ko‘p miqdorda qo‘lyozma fondlarining shakllanishi bilimning turli tarmoqlariga doir asarlari mavjud bo‘lgan yangi kutubxonalar tashkil etilishi.
3. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshlarida Movarounnahrda bibliogarfiyaning keng rivojlanishi.
4. Temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda bibliografiya rivoji.

Tayanch iboralar

Amir Temur va temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda bibliografiya va qo‘lyozmalar saqlanadigon kutubxonalarning ko‘p asrlik tarixi. Ko‘p miqdorda qo‘lyozma fondlarining shakllanishi bilimning turli tarmoqlariga doir asarlari mavjud bo‘lgan yangi kutubxonalar tashkil etilishi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshlarida Movarounnahrda bibliogarfiyaning keng rivojlanishi. Temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda bibliografiya rivoji.

Temuriylar davrida iqtisod va madaniyat tez rivojlandi. Hirotda tarixchi olimlar, yozuvchilar, madaniyat arboblari yashab ijod etdi. Saroy kutubxonalari, madrasa va masjidlar, xususiy va jamoat kutubxonalari tashkil etildi. Hirotning madaniy hayoti bevosita Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq. Navoiy qalamiga mansub 60 ming misradan iborat ulkan madaniy meros, adabiy asarlar besh asrdan beri insoniyatga, jahon jamoatchiligiga xizmat qilib kelmoqda. Ularning ko‘pchiligidan u yoki bu yo‘nalishda, insoniyat faoliyatining hamma sohalariga oid bibliografik axborot olish mumkin. Navoiy o‘zining „Fors davlatlari tarixi“ asarida qadimgi falsafa fanining namoyandalari va ularning ijodi haqida juda boy ma’lumotlar bergen. 1498- yilda yaratgan „Majolis un-nafois“ asari ham O‘rta Osiyo adabiyoti va madaniyati tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega va hozirga qadar o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Navoiy shu asari bilan turkiy tilda tazkira yaratish an’anasini boshlab berdi. Bu asarda Turkiston va Xuroson hududlarida yashab ijod qilgan 459 shoir haqida ma’lumot berilgan. Navoiy tazkiräsining boshqa tazkiralardan farqi

shundaki, boshqa tazkiralarda faqat XV asrda yashab ijod etgan adabiyot namoyandalari — zamondoshlari 67 haqida ma'lumot berilgan bo'lsa, Navoiy tazkirasida an'anaga aylanib qolgan shoir va adiblar haqida ma'lumot berishdan tashqari, o'sha davrdagi Hirot va Samarqandning adabiy hayoti, adabiy kecha va majlislar, buyuk shoir davrida yaratilgan adabiyotshunoslik va tarixga oid asarlar, o'tmishe shoirlarning tarqoq merosini toplash, ularni ko'chirish, nuxsalarini ko'paytirish borasida olib borilgan ishlar haqida turli xil zarur ma'lumotlarni beradi. Unda avval har bir shoirning hayoti va ijodi haqida biografik ma'lumotlar, hikoya va namunalar berilgan. Shu jihatlariga ko'ra tazkira shu kungacha o'rta asr adabiy hayotini, madaniyatini, tarixini, kitobatchilik san'atini o'rganishda muhim qo'llanma sifatida qadrlanadi. Navoiy o'zidan avval yaratilgan tazkiralarni tahliliy va tanqidiy o'rganib chiqadi, bibliografik tipdagi asarlarni ham o'rganadi va „Majolis un-nafois“ asari bilan O'rta Osiyoda yangi tipdagi tazkirachilik san'atiga asos soladi. Bu tazkiralarda zamonaviylik prinsipi asosiy o'rinda turadi. Ya'ni muallif o'ziga zamondosh bo'lgan adiblar haqidagina ma'lumot beradi, zamonaviy hayot, adabiyot, hayot tarzi va adabiy jarayon haqidagi ma'lumotlarni birlashtiradi. Navoiyning qo'lyozma kitoblarni mukammal bilishi, adabiy mahorati va o'zining shaxsiy mavqeyi yirik kitobshunos, bibliograf bo'lib tanilishiga sabab bo'ldi. Uning tashabbusi bilan qurilgan kutubxona 10 mingdan oshiq qo'lyozmani saqlagan va turli kitobxonlarga xizmat qilgan. Uning fondidan ko'plab olimlar, kitobsevarlar, adabiyot muxlislari foydalangan. XVII asrda taniqli turk olimi va bibliografi Hoji Xalifa o'rta osiyolik olimlar, yozuvchi va shoirlarning asarlarini hisobga oluvchi „Kitob va fandagi shubhaning bartaraf etilishi“ nomli ko'rsatkichini tuzadi. Ko'rsatkich XIX asrda lotin tilida G. Fluger tomonidan nashr qilinadi. Ko'rsatkichda olimlar, yozuvchi, shoir va din namoyandalarining 15007 asarlari fan tarmoqlari bo'yicha ro'yxat shaklida tartibga solingan. Asarlar haqidagi ma'lumotdan avval asar muallifining nasl-nasabi, kasbi, egallagan mansabi haqida, tug'ilgan va vafot etgan yillari, ijtimoiy kelib chiqishi haqida ma'lumot, asarlarining to'liq ro'yxati berilgan. Ular orasida Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, shoirlardan Sa'diy, U. Xayyom va boshqalar haqida ma'lumotlar bor. Hoji Xalifaning bu ko'rsatkichi ko'p jildlik bo'lib, 400 68 yildan oshiq davrdan beri Sharq madaniyatining ajoyib namunasi sifatida o'zining ilmiy qiyamatini yo'qotgan emas. O'rta Osiyo tarixi, fan va madaniyati, kitobatchilik ishi haqida ma'lumot beruvchi yana bir ish XVII asrda tuzilgan AsSomoniyning „Ismlar genealogiyasi kitobi“ nomli lug'atidir. Uning muallifi Muhammad Ibn Mansur As-Somoniy aslida Marv shahrida tavallud topgan, O'rta Osiyoning ko'plab shaharlarida bilim olish maqsadida yashagan, 1144- yili Marv shahriga qaytib, Al-Ahmad madrasasida dars bera boshlaydi va bir vaqtning o'zida ilmiy ish bilan shug'ullanadi. Uning asarlari 40 dan ortiq bo'lib, ular orasida „Geografik lug'at“, ustozlariga bag'ishlab tuzilgan „Shayxlar lug'ati“, ayniqsa, O'rta Osiyo tarixini o'rganishda yordam beruvchi „Ismlar genealogiyasi kitobi“ 4000 ta diniy asarlar haqida ma'lumot berilgan. XVI asrda Amin Ahmad Roziy tomonidan tuzilgan „Yetti iqlim“ nomli lug'at ham geografik, ham ensiklopedik asar hisoblanadi. Unda Sharqning musulmon mamlakatlari va shaharlari, ulardagi yirik arboblar, mashhur kishilarning hayoti, faoliyati, ularning asarlari haqida ma'lumotlar berilgan. O'zFAning Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida bibliografik mazmundagi bir qancha asarlar saqlanadi. Ulardan biri „Shayx urrais asarlari ro'yxati“, ya'ni Ibn Sino kitoblari bibliografik ko'rsatkichidir. Bunda Ibn Sinoning 142 ta asari ro'yxati berilgan bo'lib, 1664- yili noma'lum muallif tomonidan tuzilgan. Tazkirachilik O'rta Osiyo xalqlari adabiyotida va kitobatchilik ishi tarixida tazkira janri alohida o'rinn kasb etadi. Bu bibliografiya rivojiga ham ta'sir ko'rsatgan. Tazkiralarda mashhur shaxslar, asosan, shoirlar, kitob san'ati ustalari, diniy arboblar va boshqa ijodkorlar haqida biografik va bibliografik ma'lumotlar berilgan bo'lib, alohida bir to'plamni tashkil etgan. Bu manbalarda ma'lum bir shaxsning qalamiga mansub asarlari, devonlari haqida, ularidan namunalar va uning qo'li bilan ko'chirilgan kitoblar haqida ma'lumot ilova qilingan. Tazkirachi shaxsning xattotlikdagi, kitob san'ati bilan bog'liq faoliyatidagi yutuqlariga alohida e'tibor bergan, uning ayrim asarlariga adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan baho beradi. O'sha paytda tazkiralarning uch xili — sof adabiy tazkiralalar, shayx va avliyolarga bag'ishlangan tazkiralalar, xattotlar va kitob 69 ishi bilan bog'liq shaxslar haqidagi tazkiralalar mavjud bo'lgan. Oxirgi tazkira „Tazkirayi

xattotiy“ deb nomlangan bo‘lib, uning maqsadi o‘tmish va zamondosh kitob san’ati namoyandalarining hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlarni bir joyga to‘plashdan iborat. Bu turdagи manbalar orasida XVI asrda yashab ijod etgan xattot qozi Ahmad Qumiyning „Xattotlar va musavvirlar haqida risola“ nomi bilan mashhur asari muhimdir. Tazkiralalar hozirgi zamon va Yevropa adabiyotidagi mavjud adabiy antologiyalar va bibliografik lug‘atlarga yaqin turadi. Unda shaxsning hayoti va faoliyati, so‘ngra uning asarlari, u haqda zamondoshlarining fikrlari beriladi. Bunday tuzilish uslubi va ma’lumotlar „Bibliografik lug‘atlar“da ham qo‘llaniladi. Yirik shoир, adabiyotshunos M. Shayxzoda tazkira janriga quyidagicha tavsif bergan: „Sharq xalqlarining adabiyot tarixini asl manbalar orqali tekshirilgan, degan tadqiqotchining asosiy suyanadigan manbasi turli zamonlarda, turli shaxslar tomonidan, turli sabablar bilan yozilgan tazkiralardir“. „Tazkira“ arabcha so‘z bo‘lib, maqsadni unutmaslik uchun uni yozuvda bayon etish degan ma’noni anglatadi. Ularda tazkira yaratilgan davrdagi va mamlakatdagi mashhur kishilar, yozuvchi va shoirlar, olimlar haqida ma’lumot beriladi. Bu mazmuniga ko‘ra hozirgi davrdagi biobibliografik ma’lumotnomalarga o‘xshab ketadi. Bunday tazkiralalar Sharq mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqalgan va mashhur bo‘lgan. Sharq adabiyotida birinchi marta yaratilgan va bizgacha yetib kelgan tazkira 1017- yilda Mansur as-Salibiyning arab tilida yozilgan „Yatimat udduhr“ kitobi bo‘lib, uning bitta bobi maxsus turkistonlik va xurosonlik 124 shoirning hayoti va ijodi hamda asarlariga bag‘ishlangan. Muallif o‘sha davrdagi Buxoro hamda Xorazmdagi adabiy jarayon, uning ahvoli, zamondosh xattotlar, ular ko‘- chirgan qo‘lyozma asarlar, mualliflari, asar nomi, ko‘chirilgan joyi va yili haqida qisqa ma’lumot bergan. Forsiy tilda yozilgan dastlabki tazkira Muhammad Avfiyning 1221 — 1222- yillarda yaratgan „Lubob ul-albob“ nomli asaridir. U marvlik bo‘lib, Buxoroda tahsil olgan, tarbiya topgan. Avfiy o‘z asarida O‘rta Osiyoda fors-tojik tilida XI — XII asrlarda yashab ijod etgan shoirlar haqida ma’lumotlar beradi. Fors-tojik tilida yaratilgan mashhur tazkiralalar qatoriga A. Jomiyning „Bahoriston“ asaridagi badiiy ijod namoyandalariga bag‘ishlangan VII bobini kiritish mumkin. Bunda X — XV asrlarda yashab ijod etgan 30 dan oshiq 70 o‘rta osiyolik shoirlarning hayoti va ijodi hamda ular tuzgan devonlar haqida ma’lumot beriladi. XV asrda yashab va fors-tojik tilida ijod etgan shoir va adiblarga bag‘ishlangan yana bir tazkira Davlatshoh Samarqandiyning „Tazkirat ush-shuarо“ asari bo‘lib, 1488- yilda yozib tugatilgan va unda 150 ta shoir haqida ma’lumot berilgan. Samarqandiy Temuriylar davrida harbiy xizmatchi bo‘lgani holda badiiy asarlar ham yaratgan, ularda shoirlar haqida ma’lumotlar, ularning asarlariga sharhlar bergan. Navoiydan keyingi davrlarda yashagan adiblar uning tazkirachilik an’alarini davom ettirdilar. Ana shulardan biri 1566- yilda yaratilgan „Muzakkiri ahbob“ tazkirasining muallifi buxorolik Hasan Xoja Nisoriy edi. Bu tazkira XVI asrda yaratilgan yagona tazkira bo‘lib, u o‘sha asrning birinchi yarmidagi O‘rta Osiyoning adabiy hayoti, Turkiston adabiy muhitiga oid va o‘sha davrda yashab o‘tgan 250 dan oshiq adiblar haqida to‘la ma’lumot beradi. XVII — XIX asrlarda O‘rta Osiyoda yana 10 dan oshiq tazkiralalar tuzilgan bo‘lib, ular o‘z zamonasining adabiy muhiti, ijod ahli, kitobatchilik ishi va kitob ustalari haqida ma’lumot beradi. Shulardan biri Muhammad Malix Samarqandiyning „Muzakkir ul-as’hab“ va Mutribning „Tazkirat ush-shuarо“ tazkiralalaridir. Birinchi tazkirada 161 ta muallif haqida, ikkinchisida XVI va XVII asrda yashab ijod etgan 323 ta shoir, xattot va kitob ustalari haqida ma’lumot beradi. 1759- yil Muhammad Amin bin Nurmuhammad Nasafiyning „Mazhar ul-musannifin“ tazkirasi XVIII asrning birinchi yarmida yashagan ijodkorlar haqidagi o‘sha davrda yaratilgan va bizgacha yetib kelgan yagona antologiyadir. XVI asrda Beruniy asos solgan ustozlar asarlarining bibliografik ro‘yxatini tuzish an’anasi keyingi asrlarda ham davom etdi. Navoiy o‘z do‘sti, maslakdoshi, ustoz A. Jomiy vafotidan so‘ng unga bag‘ishlab 1492- yili „Xamsat ul-mutaxayyirin“ asarini yozadi. Uning kirish qismida Navoiy risolaning yozilish sabablari va tuzilish uslubi haqida qisqacha ma’lumot beradi va qo‘llanma muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat ekanligini yozadi. Muqaddima qismida A. Jomiyning hayoti, nasl-nasabi, Jomiy bilan birinchi marta tanishgan onlari haqida, 1- maqolatda ikki buyuk shaxs hayoti davomida yuz bergan do‘stlik, ijodiy hamkorlik jabhalari haqida ma’lumot beruvchi manbalar haqida sharh beriladi. 2- maqolat ularning bir-birlariga yozgan qator maktublari va bu maktublarning yozilish sabablari, 3-

maqolat Jomiy yaratgan 30-71 ta asar, ularning yozilish sabablari, tarixi haqida ma'lumot beriladi va ro'yxati keltiriladi. Bir-biri bilan maslahatlashib yozgan asarlari, ularning manbalari haqida ham ma'lumot beriladi. Navoiyning zamondoshi, shogirdi, tarixchi olim Xondamir yaratgan „Makorim ul-axloq“ asari Navoiy hayoti va ijodini o'rganish uchun muhim bibliografik manba sifatida shu kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu asar Navoiyning vafot etgan yili yozilgan va kirish, 1 ta bob va so'ngi so'zdan iborat bo'lib, birinchi marta buyuk shoirning ijodiga badiiy-estetik baho beriladi. Uning „Xamsa“ va „Chor devon“ asaridan tashqari, 20 dan ortiq turk va fors tillarida yozilgan asarlari, 30 dan ortiq Navoiy ijodiga bag'ishlangan boshqa shoir va yozuvchilar, olimlarning asarlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Xondamir o'zi guvoh bo'lgan yoki o'qib chiqqan asarlarni ro'yxatga kiritgan. Shuning uchun u asarning ro'yxatini beribgina qolmay, har bir asarning mazmuni haqida o'zining va boshqalarning fikrlarini, bahosini yozib boradi. Xondamir birinchi Navoiyshunos olim sifatida Navoiy shaxsi va ijodiga oid barcha ma'lumotlarni to'g'ri va to'la bergenligiga shubha yo'q. Navoiy asarlarining yozilishi tarixi, uning yaratilishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy shart-sharoitlar, omillar haqida batafsil to'xtaladi. Xondamirning bunday ma'lumot berish tartibi hozirgi zamonda bibliografiyadagi annotatsiya tuzish yoki bibliografik sharhni eslatadi. Xondamir „Xamsa“ning turkiy tilda yozilganligini, 27 ming baytdan iborat ekanligini, „Chor devon“ esa 25 ming baytdan iborat turkiy tilda yozilgan g'azallardan jamlangan to'plam ekanligini, to'rtala devon Navoiy hayotining turli fasllarida yaratilgan g'azallarni jamlab turuvchi nomlar bilan atalganligi haqida ma'lumot bergan. Tarixchi bu asarida Navoiy haqidagi manbalar ro'yxatini ham beradi. Ular kitobning turli bo'limlarida Navoiy hayoti va faoliyatining qirralariga ko'ra joylashtirilgan. Masalan, „Ilm fazilati va olimlar martabasi haqida“ bo'limida Toftazoniy, Nasimiyy, Koshifiy, Imam Navaviy kabi zamondosh olimlarning Navoiyga bag'ishlangan 21 ta asari haqida ma'lumot beradi. „She'r fazilati va shoirlarning ulug' darajalari haqida“gi bo'limida A. Jomiy, Kirmoniy, Gulistoniy, Kamoliddin Mir Husaynning Navoiyning ulug' nomi bilan tugallangan asarlarining ro'yxati berilgan. Manbalarning bunday tartibda joylashtirilishi bibliografik qo'llanmalardagi adabiyotlarni mavzuli joylashtirish uslubiga o'xshab ketadi. Ko'rinish turibdiki, Xondamirning bu asarida 72 bibliografiyaning juda ko'p elementlari uchraydi. Asar ham tarixiy, ham o'zbek mumtoz adabiyotining tarixini o'rganuvchi, Navoiy hayoti va ijodi haqida ilk bor to'la ma'lumot beruvchi muhim bibliografik qo'llanma, o'zbek milliy bibliografiyasining tarixini o'rganishda muhim manba sifatida ahamiyatga ega. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida ham tazkirachilik san'ati davom etdi. O'rta Osiyoning ayrim hududlarida yashab ijod etgan shoir va yozuvchilar, kitob san'ati ustalari haqida, o'sha davr adabiy hayoti haqida alohida ma'lumotlar to'pladi. Qo'qonda Fazliy rahbarligidagi bir guruh shoirlar 1821- yili „Majmual shoiron“ va boshqa tazkiralarni yaratishdi. Buxoroda bu davrda 6 ta tazkira yaratilgan, ulardan Abdumutallib Fahmiyning „Tazkir al-Fahmiy“, Hoji Abdulazim Shar'iyning „Tazkirat ushshuar“ va boshqalarni esga olish mumkin. Xorazmda mashhur shoir va tarixchi Ahmad Tabibiy tazkiralari yaratgan. O'rta Osiyoda kitob bosish ishi (litografiya) boshlangunga qadar tazkira janri keng tarqaldi. XIX asr oxiri xivalik shoir Yusuf Tunkrat „18 shoir to'plami“ tazkirasini yaratdi. Buxoroda amir saroyining ma'rifatli kishilaridan biri Sharifjon Mahdum tazkira janrida faol ijod qildi. U „She'rlar to'plami“, „Qadimgi shoirlar, zamonaviy davlatmandlar va diyonatli kishilar antologiyasi“ni tuzdi, bayoz janrida asarlar yaratdi, turli tarixiy davrlarda yashab ijod etgan mualliflarning she'rlar to'plamlarini tuzdi. Sh. Mahdum Turkistonda o'z davrining yirik kitob shinavandasini edi. Boy va qimmatli qo'lyozmalar bilan boshqa kutubxonalardan ajralib turuvchi shaxsiy kutubxonasi haqida ma'lumot yozib qoldiradi. Kutubxona fondidagi adabiyotlar katalogini tuzadi, uning kirish qismida kutubxonada mayjud muhim qo'lyozmalar, ularning ahamiyati haqida ma'lumot beradi. Katalogda adabiyotlarni tartibga solishda ma'lum bir xronologik yoki mavzuli joylashtirish prinsipi amal qilmaydi. U o'zicha qo'lyozmalarini tavsiflash qoidasiga rioya etadi: asar nomi, muallif yoki xattotning ism-sharifi, qog'ozning sifati va uning ishlab chiqarilgan joyi, zamonaviy mualliflar, uning qarindoshlari haqida ma'lumot beradi. Undan tashqari, qo'lyozmaning asl narxini va uni sotib olingan narxini ham keltiradi. Mashhur mualliflar asarini tavsiflashda muallifning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotni

keltiradi, uning asarlariga baho beradi. Shunday qilib, bu katalog 300 dan oshiq adabiyot haqida keng axborot beradi. Sh. Mahdumning katalogi qimmatli kitob shina- 73 vandasining ishi bo‘lib, ko‘pgina elementlarni berishi bilan hozirgi zamon bibliografik qo‘llanmalariga yaqin keladi. Tarixiy manbalardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, qadimdan O‘rta Osiyo kutubxonalarida olimlar, o‘z davrining mutafakkirlari, matematiklar, tilshunos va adabiyotshunoslar, tabiatshunoslar xizmat qilgan, shu yerda xattotlik va kitob miniatura san’ati shakllangan va takomillashib borgan.

Bugun Amir Temur va Temuriylar sulolasining dunyo sivilizatsiyasi rivojiga, insoniyatning ilmiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-g‘oyaviy, madaniy va tafakkur darajasi keskin ko‘tarilishiga qo‘shgan hissasi beqiyosligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Jahon hamjamiyati Temuriylar davrini ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot taraqqiyoti hamda ulug‘ kashfiyot va ixtirolarda o‘z aksini topgan davr, xalqimizni esa shu paytgacha ikki marotaba Renessansga asos solgan el sifatida e’tirof etadi. Ya’ni xalqimiz haqli ravishda Renessans yarata olgan kam sonli xalqlar sirasiga kiritiladi.

Shu ma’noda, bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizda keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi sa’y-harakatlari kutilgan natijalar berishiga to‘la asos bor, deb baholanmoqda. Uning xalqimiz oldidagi eng buyuk xizmatlardan biri ham aynan o‘z yurtiga egalikdan mosuvo bo‘lgan, farovon va yaxshi yashashdan umidini uzgan, kelajakka ishonmay qo‘ygan elimizning qaddi va sindirilgan milliy g‘ururi tiklanishi, yangi va erkin O‘zbekistonga xos ongi shakllanishi, so‘ngan ruhining ko‘tarilishi, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan hurmat-e’tibor qaytarilishi, deb qaralmoqda.

Bu sa’y-harakatlar chingiziyarning 150 yillik istibdodi davrida toptalgan g‘ururimizni qayta ko‘targan Amir Temur bobomiz faoliyatiga mengzaladi.

O‘zbekistonda taraqqiyotning yangi bosqichida davlat va jamiyatning har bir sohasida tubdan yangilanish va yuksalishlar bilan bir qatorda milliy davlatchilikni mustahkamlash, mamlakatimiz siyosiy-huquqiy va iqtisodiy-ijtimoiy hayotini barqaror izga tushirish va rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, tarixshunoslikda ham ajdodlarimiz o‘tmishini o‘rganish, unga to‘g‘ri va xolis ilmiy baho berish, shu asosda milliy qadriyatlarimizni tiklash uchun keng yo‘l ochildi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Bizning havas qilsa arziydigan ulug‘ tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor”.

O‘tgan qisqa davr mobaynida ob’ektiv tariximizni yaratish yo‘lida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar qilindi. Qator muhim tarixiy qo‘lyozma manbalar nashr etildi. Natijada tarixchilar uchun yirik tadqiqotlar yaratish imkoniyatlari vujudga keldi. Xususan, ajdodlarimiz tarixining noma’lum qirralari va o‘qilmagan sahifalari hamda insoniyat o‘tmishida o‘ziga xos o‘rin egallagan tarixiy shaxslar faoliyatini o‘rganish uchun zarur manbaviy asoslar yaratildi.

Hozirga qadar O‘zbekistonda temurshunoslik mavzusiga oid bir necha bibliografik nashrlar amalga oshirilgan. Chunonchi:

Amir Temur va temuriylar haqida Misr kutubxonasida saqlanayotgan manba va qo‘llanmalar fihristi yaratildi;

“Amir Temur dunyo fani ko‘zgusida” nomli bibliografik nashr xorijiy tillarda chop etildi; jahon tarixshunoslida mustaqil temurshunoslik ilmiy yo‘nalishi shakllanganiga asoslanib, “Amir Temur jahon tarixida” nomli asar yaratildi;

“Amir Temur bibliografiyasi” hamda “Amir Temur sultanati tarixnavisligi” nomli bibliografik ko‘rsatkichda O‘zbekistonda mustaqillik yillarda amal ga oshirilgan adabiyotlar jamlandi;

“Temuriylar davri Renessansi”, “Temuriylar davri yozma yodgorliklarining O‘zbekistonda va xorijda o‘rganilishi”, “O‘zbekiston tarixiga oid madaniy-ma’naviy merosning xorijga tarqalishi va ularning vatanimiz tarixida tutgan o‘rnii”, “Shohruhiya qal’a shahri — Amir Temur va Temuriylar davrining noyob yodgorligi”, “Chet ellarda saqlanayotgan Temuriylar davri ashyolari katalogi”, “O‘rta Osiyoda kitobat san’ati tarixidan (Temuriylar davrida yaratilgan asarlarning

qo‘lyozma va toshbosma nusxalari)”, “Amir Temur va Temuriylar davridagi harbiy san’at” kabi mavzularda turkum asarlar chop etildi.

Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi bo‘yicha O‘zbekistonda qator salmoqli ishlar qilingan. Aksariyat tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, boshqa tarixiy davrni o‘rganishda adabiyotlar taqchilligi qiyNASA, bu davr tadqiqotchisiga adabiyotlarning ko‘pligi va turlicha munosabat qiyinchilik tug‘diradi. Aynan shu jihat ham bibliografik tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Keyingi yillarda Amir Temur shaxsi va davriga oid birmuncha manbalar tarjimasi, ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy adabiyotlar yaratildiki, ularni aniqlash, to‘plash va tizimlashtirish zaruriyati paydo bo‘ldi. Shu maqsadda yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi tomonidan O‘zbekiston va jahon miqyosida Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab nashr qilingan adabiyotlar jamlanib, izohlar bilan yangi “Amir Temur. Bibliografiya” to‘plamining birinchi kitobi chop etildi.

Ushbu bibliografik ko‘rsatkichda:

birinchidan, yurtimizda Amir Temur xotirasini abadiylashtirishga bag‘ishlangan rasmiy (qonun, farmon, qaror va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar) ma’lumotlar umumlashtirildi;

ikkinchidan, mavzuni yorituvchi monografiyalar, risolalar, dissertatsiyalar, yubileylargalarga bag‘ishlangan albomlar, konferensiya materiallari, o‘quv qo‘llanmalar, respublika va xorijiy nashrlarda chop etilgan maqolalar jamlandi;

uchinchidan, xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, muzeylar va fondlardan o‘rin olgan adabiyotlardan ham imkon qadar foydalanildi.

Jumladan, turli tillarda nashr etilgan kitob va maqolalar imkon qadar jamlanib, muayyan tartibga solindi. Unga, xususan, o‘zbek tilidagi 2 248 ta, rus tilidagi 2 085 ta, ingliz tilidagi 655 ta, fransuz tilidagi 221 ta, arab tilidagi 29 ta, fors-tojik tilidagi 76 ta va turk tilidagi 296 ta nashr to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin oldi.

Ta’kidlash joizki, kitob nihoyatda yuqori poligrafik darajada tayyorlangan.

Mazkur kitob mavzui davomlidir, ya’ni yildan-yilga yangi adabiyotlar, tadqiqotlar qo‘shilib boraveradi. Bu hol o‘z-o‘zidan kelgusida bu bibliografiyaning davomli nashrlari yaratilishiga zamin bo‘ladi. Ushbu bibliografik ko‘rsatkich zamонави тарих фани учун долзарб hisoblanib, Amir Temurning ibratli hayoti va davlatdorlik faoliyatini o‘rganishda qulaylik va imkoniyat yaratib, kelgusi tadqiqotlarni yo‘naltirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Kitob mualliflariga keyingi ishlarn

Turli tillarda nashr etilgan kitob va maqolalar imkon qadar jamlanib, muayyan tartibga solindi. Undan, xususan, o‘zbek tilidagi 2 ming 248 ta, rus tilidagi 2 ming 85 ta, ingliz tilidagi 655 ta, fransuz tilidagi 221 ta, arab tilidagi 29 ta, fors-tojik tilidagi 76 ta va turk tilidagi 296 ta nashr to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin oldi.

Nazorat savollari:

1. O‘rta Osiyoda bibliografiya paydo bo‘lishining dastlabki ko‘rinishlari haqida gapirib bering.
2. Ibn an-Nodimning „Kitob al-fixrist“ asari haqida qanday ma’lumot bering?
3. Beruniyning bibliografik faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Navoiyning birinchi bibliografi kim bo‘lgan?
5. Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asari haqida to‘xtaling.
6. Tazkirachilik nima, tazkiralardan qaysilarini bilasiz?

9-mavzu: XVI-XIX asrlarda Buxoro xonligi (amirligi), Xiva, Qo‘qon xonliklarida madaniy hayot va bibliografiyashunoslilik.

Reja:

1. XVI-XIX asrlarda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida madaniy hayot
2. Buxoroda amir kutubxonasi
3. XVIII asrda O‘rta Osijo xonliklarida shaxsiy kutubxonalar, madrasa va masjidlar oldidagi kutubxonalar faoliyati

4. Xiva xonligi kutubxonasi, Abulg'ozixon hukmronligi davrida boshqa o'lkalardan qo'lyozma va bosma kitoblar
5. Qo`qon xoni kutubxonasi, Umarxon, Murodxon va Xudoyorxon hukumronligi davrida kutubxona

Tayanch iboralar

XVIII asrga kelib Buxoro, Xiva va Qo`qon xonliklarida madaniy hayot, Buxoroda amir kutubxonasi, XVIII asrda O'rta Osiyoning yirik davlatlarida shaxsiy kutubxonalar, madrasa va masjidlar oldida kutubxonalar, Xiva xonligi kutubxonasi, Abulg'ozixon hukmronligi davrida boshqa o'lkalardan qo'lyozma va bosma kitoblar, Qo`qon xoni kutubxonasi, Umarxon, Murodxon va Xudoyorxon hukumronligi davrida kutubxona

XVIII asrga kelib Buxoro, Xiva va Qo`qon xonliklarida madaniy hayotda deyarli o'zgarish bo'lmadi, lekin shu davrga kelib qo'lyozma kitoblar ancha ko'paydi. Bu davrda ushbu davlatlarda saroy kutubxonalarini va boshqa kutubxonalarning qo'lyozma fondlari saqlanib qolgan edi. Ammo ba'zi saroy kutubxonalarida qo'lyozma kitoblar yaxshi saqlanmagan, ba'zilari eskirib qolgan, ba'zi kitoblar kitob bozorlarida arzon narxda sotib yuborilgan.

XVIII asrda Buxoro amirligida, Xiva va Qo`qon xonliklarida tarbiya va ta'lilda dinta'sirining kuchayganligi bilan ajralib turar, qo'lyozma kitoblar, dunyoviy bilim beradigan kitoblar chiqarish sezilarli ravishda kamayib ketgan edi. Shunga qaramasdan bu davlatlarda ancha-muncha qo'lyozma fondlariga ega bo'lgan saroy kutubxonalarini va xususiy kutubxonalar saqlanib qoldi. Ular avvalgidek har xil mavzulardagi kitoblar va qo'lyozmalarga unchilik boy bo'lmasa ham, ular torroq doirada foydalanishga mo'ljallangan edi. Ayni vaqtida kutubxonalarda hikmatli va nodir qo'lyozmalar ham topilardi. Xonliklardagi ayrim amaldorlar ilm-fan va kitoblarga befarq qarar, shu sababli kitoblar va qo'lyozmalarni saqlashga kam e'tibor berilar, ba'zi hollarda kitoblar shikastlanar, o'g'irlab ketilar, ayrim kitoblar kitob bozorlarida arzimagan pulga sotib yuborilardi. Buxoro amirligida amirlarning kutubxonalariga ko'proq e'tibor berilardi. Jo'rabe va Qushbegi Ostonaqulning ma'lumot berishlaricha, kutubxonalarda qo'lyozma asarlar ko'p miqdorda saqlanardi. Amir kutubxonasida xitoy, uyg'ur, pushtun, fors, arab va boshqa tillardagi kitoblar ham bor edi. Kutubxona boshqa xazinalardan alohida saqlanardi. Bu kitob boyligiga maxsus saroy amaldori bo'lgan «kitobdar» boshchilik qilgan. Bu yerda kufiyicha yozuvda chiroysi xat bilan bitilgan qadimgi qo'lyozmalar (ularning orasida rasmlar ham ishlangan edi), ayrim urug'larning shajaralarini to'liq aks ettiruvchi, hatto kelib chiqishi Iskandar Zulqarnaynga borib taqaladigan urug'larning tarixiga oid adabiyotlar ham bor edi.

Buxoro amiri Muzaffar hukmronlik qilgan yillarda (1860-1868) bu yerdagi kutubxona tanazzulga uchradi. Biz kutubxonaning qanday ahvolga kelib qolganligi haqida rus sayohatchilarining, xususan, Buxoroga Rossiya protektorati o'rnatilgan dastlabki yillarda tashrif buyurgan N.P. StremolIXovning ma'lumotlaridan bilamiz. Uning yozishicha, kutubxona kichkina zax yerto'la binosida joylashtirilgan bo'lib, qo'lyozmalar va boshqa kitoblar namlikdan turli zararkunandalar va kemiruvchilar tomonidan ancha - muncha shikast topgan. Buxoroliklarning fikricha, bu kutubxonadagi kitoblarning ma'lum qismi Temur kutubxonasiga mansub bo'lib, bir vaqtlar Samarqanddan Buxoroga keltirilgan.

Amir Muzaffar o'z kutubxonasidagi kitoblar bozorda arzon narxlarda sotilayotganini bilar, ayni paytda o'zi ham qimmatli qo'lyozmalarni o'z amaldorlariga sovg'a qilib yuborar edi. Feodalizm tarafdoi bo'lgan amir Muzaffar, taniqli kutubxonashunos I.Odilovning, olim, mashhur sharqshunos A. E. Shmidtning fikriga asoslanib aytishicha, ayrim buxorolik olimlarning erkin fikr bildirishidan xavotirlanib, ular bunday zararli g'oyalarni, ya'ni davlat negiziga putur yetkazishi mumkin bo'lgan g'oyalarni qo'lyozma to'plamlardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanadilar, deb hisoblardi. Shu sababli amir Muzaffar qozikalon Sadriddingga ayrim madrasa kutubxonalaridan va xususiy to'plamlardan, masalan, Muhammad Porsoning to'plamlaridan zararli qo'lyozmalar va kitoblarni tortib olish hamda yo'q qilishni buyurgan. Biroq qozikalon o'qimishli, bilimdon, qo'lyozmalarning ahamiyatini tushungan kishi bo'lgani sababli tortib

olingen kitoblar va qo'lyozmalarni yo'q qilib yubormay, o'z uyida to'playdi. Keyinchalik uning kutubxonasi va bu qo'lyozmalar uning o'g'li, qozikalon Burhoniddinga o'tadi va uning qo'lida 1920 yilgacha saqlanadi. Ular bu yerda uzoq muddat qolib ketganligi bois qo'lyozmalarning bir qismi o'g'irlanadi, bir qismi yo'qoladi va chetga sotib yuboriladi. Shayx Muhammad Porso to'plamlaridagi qo'lyozmalar sobiq sho'ro kutubxonalaridan va ayrim chet mamlakatlar kitob omborlaridan topilishiga sabab ham ana shunda bo'lsa kerak.

Amir kutubxonasiga taniqli o'lkashunos va sharqshunos olim V.L. Vyatkin katta qiziqish bilan qaradi. Uning e'lon qilinmagan va V.V. Bertoldga yo'llagan maktubidan ma'lum bo'lishicha, kitob ombori qarovsiz qoldirilgan, kitoblar butunlay tartibsiz, pala-partish saqlangan, qo'lyozmalar ustaxonada joylashtirilgan. Kutubxonada kitoblar va eski qo'lyozmalarni muqovalash ishlari amalga oshirilmagan. Bir mucha keyinroq, XX asrning boshlarida amirlar va o'sha vaqt dagi amaldorlar saroy kutubxonasiga befarq va napisandlik bilan munosabatda bo'lganliklari haqida bizga qadimgi kitoblar va qo'lyozmalarni qadrlovchi shaxs bo'lgan Muhammad Kamol Muzaffarov ma'lum qilgan. Uning yozishicha, minglab qo'lyozmalar va boshqa kitoblar amir saroylarida mutlaqo qarovsiz ahvolda yotgan. Aynivaqtida Muzaffarov shahardagi barcha kitoblarni to'plash va Buxoro shahrida katta kutubxona tashkil etish fikrini ilgari surgan. Muallif bu kutubxonada turk, qirg'iz, boshqird, rus va g'arbiy Yevropa kitoblari va qo'lyozmalarini bir joyga to'plash zarurligini qayd qilgan. Lekin u tez orada mahalliy jamiyatning «nodonligi va ilmsizligi» bunday foydali ishni amalga oshirishga g'oyat jiddiy to'siq bo'lyapti, degan xulosaga kelgan. Kutubxonalarning ana shunday nochor ahvolda bo'lganligi va umuman madaniyatning bu vaqtida tushkun holatda ekanligining sabablaridan biri Chor Rossiyasi tomonidan Markaziy Osiyo yerlarining bosib olinishi bilan vujudga kelgan siyosiy vaziyatdir, deb hisoblaymiz. Buxoro amirligining qulashi arafasida kutubxona Arkda joylashgan edi, unda ajoyib asarlar, qo'lyozmalardan iborat to'plamlar, shu jumladan, amir Muzaffarning qo'lyozmalarini ham bor edi. Manbalarning tasdiqlashicha, amir kutubxonasida 500 ga yaqin qo'lyozma va bosma kitoblar, qimmatli qo'lyozma asarlar ham bo'lgan. Kutubxonalar ishi bilan qiziqqan A.A. Semyonov Buxoro amirlari kutubxonasiga katta e'tibor bilan qaragan. U kutubxonadagi qo'lyozma fondlarining ahvolini sinchiklab kuzatgan va 1915-yilda kitob fondlarini bir mucha tartibga keltirishga va ro'yxatlar tuzishga muvaffaq bo'lgan. Olim amirlar kutubxonasi «manuskriptlar va miniatyuralar bilan boy» ekanligini aniqlagan.

O'sha davrdagi Xiva xonlarining saroyidagi kutubxonalar ham diqqatga sazovordir. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, xon Abulg'ozi Bahodirxon (1643-1663) taxtga o'tirmasdan ancha oldin begona o'lkalar bo'ylab kezib yurar ekan, ma'lum miqdordagi tarixiy asarlar qo'lyozmalarini qo'lga kiritadi, ularni o'qib o'rghanadi. Keyinchalik uning o'zi ham ko'pgina asarlar, shu jumladan, turkiy xalqlar tarixi va madaniyati haqida hikoya qiluvchi «Shajarai turk» va «Shajarai Tarokima» nomli muhim asarlarni yozib qoldiradi. Hozirgi vaqtida bu asarlar xalqimiz tarixini, adabiyot va til tarixini o'rghanuvchilar uchun qimmatbaho manba hisoblanadi. Juda tushunarli va sodda tilda yozilgan mazkur asarlar mustaqillik davrida keng foydalanuvchilar ommasining mulkiga aylanlirilib, nashr etildi.

Xiva xonlaridan Muhammad Rahimxon II (1865-1910) hukmronlik qilgan davrda uning kutubxonasi kitob va qo'lyozmalarga nihoyatda boy bo'lgan. Xonning o'zi adabiyotni juda sevar va o'z kutubxonasini uchun ko'plab kitoblar va qo'lyozmalar to'plagan edi. Uning o'zi «Feruz» taxallusi bilan she'rlar yozgan, saroyida ko'pgina shoirlarni to'plagan, ko'pgina she'riy to'plamlar yaratgan. Feruz rahnamolik qilgan vaqtida 30 shoirning asarlari to'planib, katta hajmli she'riy antologiya dunyoga kelishiga muvaffaq bo'lingan. Markaziy Osiyo hududida birinchi marta XIX asrning 70 yillari boshlarida Xivada litografiya (tosh bosma) korxonasi tashkil etilgan, bu bosmaxonada Feruzning she'riy asarlari va boshqa shoirlarning to'plamlari ko'p nusxada chop etilgan. Ular tezda tarqalib, qo'lyozma kitoblar kabi nodir nashrlarga aylangan.

Xivada o'sha yillarda tarixga doir turli asarlarni boshqa tillardan turkiy (o'zbek) tiliga tarjima qilish borasida bir mucha ishlari amalga oshirildi. Bir qancha she'riy kitoblar ham tarjima qilinib, nashr etilgan.

Bu yerda kitoblarga qanchalik yuksak hurmat bilan qaralganidan shu narsa ham guvohlik

beradiki, ko‘pincha Xivaga kelgan yuksak martabali mehmonlarga, sayohatchilarga qo‘lyozma kitoblar, tosh bosmada chop etilgan kitoblarni hadya etishgan. Masalan, Xivaga fransuz A. Mozer tashrif buyurganda unga boshqa qimmatbaho sovg‘alar bilan birga turkman shoiri Maxtumqulining she’riy kitobi sovg‘a qilingan. Bu kitob A. Vamberining fikricha, Yevropada birdan -bir nusxadagi qo‘lyozma bo‘lgan. Shuni aytish mumkinki, xon saroyidagi kutubxona asosini Abulg‘izi Bahodirxonning o‘zi yozgan asarlari va boshqa manbalar tashkil etgan. Xiva xonlarining saroy kutubxonasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1873 yil Xivaga yurishdan keyin yanada to‘ldirildi, o‘sha yili 29 may kuni rus otryadi xonlik poytaxtini egalladi. 12 avgustda esa Xiva xoni sulh shartnomasiga imzo chekib, o‘zining rus hukumatiga buysunishini e’tirof etdi. Rus qo‘sinchalarining Markaziy Osiyo hududiga bostirib kirishi bilan madaniy boyliklar, shu jumladan, qo‘lyozmalar ham ularga to‘plab berildi. Rus geografiya jamiyatining tashabbusi bilan Xiva xonligini geografik, etnografik va madaniy jihatdan tadqiq qilish sohasida ko‘p tomonlama dastur ishlab chiqildi.

Xonlikda katta miqdordagi kitob boyligiga ega bo‘lgan kutubxona borligi dasturda qayd qilindi. Kitob bozorlarida faqat diniy ruhdagi kitoblar emas, shu bilan birga dunyoviy mazmundagi nasriy va she’riy asarlar bilan ham savdo qilinardi. Shuningdek, dasturda qozilar va ulamolar qo‘lida qo‘lyozma kitoblar borligi ham ayтиb o‘tildi. Buyuk o‘zbek shoirlari, olimlari va mutafakkirlari Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy va boshqalarning asarlarini qidirish zarurligi alohida qayd etildi. Ularning asarları «nihoyatda kamyob asarlar bo‘lib, ularni qidirib topish katta baxt hisoblanadi», deyilgan edi dasturda. Xivaga yurish vaqtida sharq qo‘lyozmalarini to‘plash va saqlashda oriyentalist Aleksandr Lyudvigovich Kun ayniqsa faollik ko‘rsatdi. Saroy taslim bo‘lgan kunning ertasiga u kitob va qo‘lyozmalar saqlanadigan ombordan 300 ta kitobni tortib olgan bo‘lib, ular turli mazmundagi kitoblar edi. Bu kitoblarning ko‘plari fors tilidan Xorazm Qo‘ng‘irot sulolası xonlari davrida turkiy tilga ag‘darilgan kitoblar edi. Bu kitoblar orasida 140 jilddan iborat tarixiy asarlar, sharq shoirlaridan 20 ta muallifning muhim asarları mavjud edi. Bundan tashqari, huquqiy-ilohiy mavzudagi 40 nomli 50 jildlik asarlar, 18 nusxa Qur‘on kitobi va 50 ta turli darsliklar bor edi. Tarjima qilingan asarlardan tashqari asarlarning asl nusxalari ham mavjud edi, ayniqsa Yunus Mirobning «Xiva xonlari tarixi» nomli asari e’tiborni o‘ziga jalb qilardi, u Eltuzarxon davridan boshlab Xiva davlatiga asos solinishigacha bo‘lgan rasmiy solnoma xususiyatidagi asar edi va ruslarning bostirib kelishiga qadar bo‘lgan xonlikdagi barcha. A. L. Kunning fikricha, bu tarix kitobi Xiva xonlarining tarixi bilan bog‘liq ko‘pgina masalalarni hal qilishda katta yordam ko‘rsatishi mumkin edi. Kutubxonada Mirxonning «Eron tarixi», S. Sharifning «Muhammadning sarguzashlari» nomli asari va Xiva shevasida yozilgan bir nechta original qissa, romanlar saqlanardi. Bu qo‘lyozmalarning bir qismi Osiyo muzeyiga kelib tushganligini B. A. Dom tasvirlab bergen.

Xiva xonligi omborida saqlanayotgan qo‘lyozmalar orasida sharq qo‘lyozmalarining taqdiri ayanchli edi. 1874 yilda ularni Toshkentdan Sankt -Peterburgga tashib ketish vaqtida (general K.P.Kaufmanning xalq kutubxonasi in’omi) kitoblar solingen yashik ehtiyoitsizlik oqibatida Amudaryoga tushib ketgan va natijada ularning ko‘plari shikastlangan edi. Bu ma’lumotlar N.P. Ostroumovning yozuvlari bilan ham uyg‘unlashib ketadi. 1891 yilda Ostroumovga Xiva xonining kotibi Polvon Mirzaboshi ma’lum qilishicha, «Kun Xivadan bir yarim mingga yaqin turli hujjalalar va qo‘lyozmalarni olib ketgan, lekin ularni qayiqda tashilayotgan vaqtida qo‘lyozmalarning muayyan qismi ho‘l bo‘lib qoldi. ularni quritish uchun madrasadan 150 mulla kerak bo‘ldi». Shuningdek, Polvon Mirza ma’lum qilganidek, mullalar qo‘lyozmalarning bir qismini yashiradilar, Mirza ularni Buxoroga borganda ko‘rib biladi. Xiva xoni saroyidagi kutubxonanining kitoblari 1873 yilgi Xivaga yurish vaqtida olib qo‘yilganligini Xiva saroy tarixchisi Bayoni ham eslatib o‘tadi. U «Xorazm tarixi» asarida qayd qilishicha, «ruslar tomonidan 300 nusxa kitob musodara qilingan». Xiva xoni saroyidagi kutubxona to‘g‘risida A.L. Kunning mashhur rus san’atshunosi va osori -atiqalarni qadrlovchi V. V. Stasovga yozgan xatida eslatib o‘tilgan. Stasov Kun tomonidan topilgan Xiva xoni taxti bilan qiziqqan edi. «Xiva xonining taxti, - deb javob qilgan edi A. L. Kun, saroyning qabulxona zalida joylashgan. Men saroyning ana shu qismini ko‘zdan kechirayotib qabulxona zalida ushbu taxtga

va ayvon tomondan ochilgan kichikroq eshikni ko'rib qoldim, bu eshikcha bor yo'g'i kichkina bir xonadan iborat Xiva kitob omboriga olib borardi. Men bu ko'rgan narsalarimning barchasi haqida K.P.Fon Kaufmanga ma'lum qilganim zahoti undan taxt va barcha kitoblar, qo'lyozma qog'ozlarni olib kelish to'g'risida ruxsatnomasi oldim». Xiva saroy kutubxonasi to'g'risidagi ayrim ma'lumotlarni Amerikada chiqadigan «Nyu Gerald» gazetasining muxbirni Artur Mak - Gaxan ma'lum qilgan edi. U Xivaga general K. P. Kaufman boshchilik qilgan otrat bilan birga borishga muvaffaq bo'lgan. Mak - Gaxanning tasvirlashicha, kutubxona binosi bitta xonadan iborat bo'lib, qo'lyozma kitoblar san'atkorona dastxat bilan yozilgan va ularga charm muqovalar qoplangan.

Birmuncha kechroq biz Xiva saroyidagi kutubxona kitoblari, ularning mualliflari va binosi haqidagi ma'lumotlarni mashhur turkshunos, Sankt- Peterburg universitetining privat-dosenti A. N. Samoylovich (1880-1938) ning asarlaridan bilib olamiz U Markaziy Osiyoga mahalliy madaniyatni o'rghanish maqsadida bir necha marta kelgan. 1908 yilda A. N. Samoylovich saroy shoiri va tabibi Ahmad tabib hamrohligida Xiva xonlari kutubxonasi va toshbosma bosmaxonasida bo'lishga muvaffaq bo'lgan, bu bosmaxonada birinchi bosma kitob «Munis devoni» bositgan edi. 1910 yilda A. N. Samoylovich Xivadagi tosh bosmada chop etilgan Feruz tevaragidagi o'ttiz saroy shoirlarning she'riy kulliyotini tasvirlab bergan edi. Xiva xonligidagi kitob omborxonasi qo'lyozmalar saqlanadigan ikkita kutubxonadan tashkil topgan bo'lib, ulardan bittasi Arkdagi va ikkinchisi Muhammad Rahimxonning yozgi qarorgohi bo'lgan Tozabog'dagi kutubxonadir. Ular A. N. Samoylovichning fikricha, «doimiy ravishda yangi tomlar va ko'chiruvchilarining alohida shtati tomonidan ko'chiriladigan nusxalar bilan to'ldirib borilardi». Bu yerda olim kutubxonaning kitob boyliklari bilan batafsil tanishib chiqishga muvaffaq bo'ldi. Tozabog'dagi kutubxonada 200 dan ortiq qo'lyozma bo'lib, ular ham o'tgan asrlardagi, ham XIX asr boshlaridagi shoirlarning qo'lyozmalaridir. Sharq qo'lyozmalari bilan birgalikda rus tilidagi jurnallar ham bo'lib, ularni tilni yaxshi bilgan kishilar mutolaa qilardi. Toshbosmada bositgan asarlar hindcha, forscha, yunoncha, qozoqcha, turkcha nashrlar bo'lib, ular ko'prog'i fors tilidagi she'riy kitoblar edi. Kitoblarga kartondan muqova qilingan, ayrimlariga charm muqova ham ishlangan. Har bir kitobning sirtida yorliq, unda asarning nomi, qo'lyozma yoki boshqa shaklda ekanligi ko'rsatilgan. Yangi olingan kitoblarning alohida ro'yxati ham qo'yilgan. Arkdagi kutubxonada 500 ta nomdagi qo'lyozma va bosma kitoblar «katalogi» ham tuzilgan edi. Bu yerda she'riy asarlar tarix, tibbiyotga doir asarlar fondining yarmidan ko'prog'ini tashkil etardi. Kutubxona boyligining yarmi qo'lyozma kitoblardan iborat edi, desak xato bo'lmaydi. Samoylovich qal'adagi (Arkdagi) kutubxona qo'lyozmalarini shoshilinch ko'zdan kechirar ekan, o'z diqqatini juda chiroylar qilib ziynatlangan fors tilidagi «Shayboniynoma» qo'lyozmasiga qaratadi, bu qo'lyozma xonning zamondoshi bo'lgan tarixchi va shoir Binoiy tomonidan tuzilgan solnoma edi.

Mazkur kutubxonadagi fors, arab, chig'atoy tillarida bitilgan tarixiy kitoblar orasida ko'pgina monografik asarlar, masalan, «Olloqulixon tarixi», «RahimqulIXon tarixi», «Muhammad Aminxon tarixi», shuningdek, Muhammad Rahimxon va uning otasi tarixi bor edi. She'riy asarlardan Komil asarlarini, zamonaviy shoirlarning kulliyotlarini, qasidalar, ruboiyalar, g'azallar va shu kabi asarlarni topish mumkin edi. Xiva xonlari saroyidagi kutubxona kitoblari va qo'lyozmalarining mohirlik bilan muqovalanishi kutubxona qoshida maxsus muqovalash ustaxonasi mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Bu yerda ajoyib hattotlar, muhr tayyorlovchilar ishlashgan. Kutubxonaning eng yaxshi hattotlaridan biri Xudoybergan Devonov edi. Tadqiqotchi A.A.Semyonov o'z asarida xivalik mashhur hattotlardan Muhammad Yoqubxoja va Xudoybergan Devonovning nomlarini alohida tilga olib o'tadi. Ular Sayid Muhammad Rahimxon II ning buyurtmasi bo'yicha alohida ro'yxatlarga kirgan asarlarni ko'chirar edilar. Xivada feodal tuzum inqirozi arafasida Xiva xonlari kutubxonasi kitoblar soni anchagina edi. Xiva vaqf boshqarmasining bergen ma'lumotlariga ko'ra, kutubxonada 1200 jildga yaqin muhim asarlar bo'lib, ularning aksariyati qo'lyozma asarlar edi.

XVIII asrda vujudga kelgan Qo'qon xonligi saroyida ham maxsus kutubxona bo'lgan. Eng keyingi xonlardan Umarxon, Murodxon va Xudoyorxonlar saroyida ancha qimmatli

kitoblarga ega kattagina kutubxona bo‘lib, unda sharq qo‘lyozmalari, ko‘pincha tarix, jo‘g‘rofiyaga doir, tibbiyat, tilshunoslik, grammatika, fikhga, ilohiyot va boshqa fanlarga doir kitoblar, qo‘lyozma asarlari saqlangan. Ular orasida faqat mahalliy mualliflarning asarlari emas, hind, afg‘on, eron va boshqa sharq xalqlari shoir va adiblarining asarlari ham uchrardi. Qo‘qon xonligining ayrim hukmdorlari qo‘lyozma kitoblarga, umuman kutubxonalarga katta qiziqish bilan qarar, shoir va adiblarga homiyiik qilardi. Chunonchi, Muhammad Umarxonning o‘zi she’r va adabiyotni nihoyatda qadrlar, she’rlarini Amiri taxallusi bilan bitardi. Uning hukmronlik davrida (1809-1822) Farg‘onada bir guruh iste’dodli shoirlar davrsasi vujudga keldi, ular orasida xonning xotini Nodirabegim ham bor edi. Taxminan 1822 yilda Yusuf Tun qator va hattot Yusuf Muhammad tomonidan 18 shoir asarlari to‘plami tuzib chiqiladi. Bu to‘plam Qo‘qondagi shoirlar asarlari antologiyasi bo‘lib, keyinchalik ozroq nusxada toshbosmada chop etiladi.

Xonlikning so‘nggi hukmdori Xudoyorxon davrida saroy kutubxonasiga xususiy shaxslardan xarid qilingan ko‘pgina qo‘lyozma kitoblar qo‘sildi. Ayniqsa, Shahrисabz mullasi Muhammad Rahimdan tarix bo‘yicha ko‘pgina sharq qo‘lyozmalari olindi. Muhammad Rahimning o‘zi eski qo‘lyozma kitoblarni to‘plashga ishqiboz bo‘lib, yigirma yetti yil mobaynida Hindiston, Mo‘g‘uliston va boshqa mamlakatlar bo‘ylab sayohat qilar ekan, u yerlarda asosan qimmatli qo‘lyozmalarni topish va qo‘lga kiritish g‘amida bo‘ldi. Saroy kutubxonalaridagi kitoblardan asosan saroy mulozimlari va xizmatchilar foydalanishgan. Masalan, tarixchi Mirza Aziz qo‘lyozmalardan tez -tez foydalanib turardi. U «Qo‘qon xonligi tarixi» nomli katta hajmdagi kitobini tuzgan, unda Markaziy Osiyo davlatlari va mo‘g‘ul davlati tarixiga oid ma’lumotlar ham qamrab olingan edi. Bu asarlarda Farg‘ona va Marg‘ilon shaharlari tarixiga doir materiallar yoritilgan. Marg‘ilon rus uezdi boshlig‘i huzurida yig‘ilgan ma’lumotlar hamda boshqa shaxslarning tarjimayi hollari ham keltirilgan.

Qo‘qon xonlari saroyidagi kutubxona qo‘lyozmalari to‘g‘risidagi ayrim ma’lumotlarni biz 1875 yilda Qo‘qonga qilingan yurish qatnashchilarining bergan ko‘rsatmalaridan bilib olamiz. Bu yurishda A. L. Kunga qo‘lyozmalar va boshqa madaniy boyliklarni to‘plash vazifasi topshirilganligi to‘g‘risidagi hujjatlarning xabar berishicha, unga iloji boricha mahalliy tillarda yozilgan kitoblar, qo‘lyozmalar va hujjatlarni to‘plash vazifasi yuklatilgan. Qo‘qon xoni saroyidagi kutubxonadan 103 ta qo‘lyozma olingen bo‘lib, ular asosan arab tilidagi diniy kitoblar (Qur‘on nusxalari, payg‘ambarlar, avliyolarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan kitoblar, musulmonlar rivoyatlari, to‘plamlari va shu kabilar) edi. Kitoblar orasida falsafa, mantiq, grammatika va notiqlik san‘atiga, tibbiyotga doir qo‘lyozmalar (masalan, «Bahr al-javohir» yoki Otabib Xorzaning «Marvarid dengizi»), 15 nomdan ortiq fors tilidagi asarlar, musulmon qonunchiligi, tarixiy mazmundagi «Tuhfat ul -xoniy» (Muhammad Rahimxon hukmronligi tarixi), Jigan Lodining «Tarixi Jahongiri», Shohruh davridan tortib Xudoyorxon davrigacha bo‘lgan Farg‘ona hamda Qo‘qon tarixi va boshqalarga doir kitoblar bo‘lgan. Qo‘qon xonlari saroyi kutubxonasiagi arab va fors tillaridagi, turk-chig‘atoy lahjasida bitilgan qo‘lyozmalarning bir qismi Sankt-Peterburgdagi imperator xalq kutubxonasiga olib ketilgan. Buxoro amirligida saroy kutubxonalaridan tashqaribeklarning kutubxonalarini ham bo‘lgan. Masalan, Shahrисabz bekligining asosiy shahri bo‘lgan Kitobdagagi kutubxona ancha mashhur edi. 1871 yilda Iskandarko‘l ekspedisiyasi vaqtida podsho qo‘sinchilari shaharni egallayotgan paytda bekning saroyida A. L. Kun tomonidan 97 ta sharq qo‘lyozmalar, tibbiy, tarixiy, she’riy mavzudagi asarlar qo‘lga kiritilgan, ular asosan fors, arab va chig‘atoy tillarida yozilgan. Tarixiy asarlar orasida «Temur Husayn Mirzo tarixi», Hofiz Tanishning «Sharafnomayi shohi» yoki «Abdullahoma», Shayboniyalar tarixi, Vosifiyning «Badoyi ul-vaqoye» (Eng ajoyib voqealar), «Muqimxon tarixi», Xondamirning «Xulosat ul -axbor» va boshqa asarlar o‘rin olgan edi.

Kutubxonada she’riy qo‘lyozmalar ko‘p miqdorni tashkil etardi. Bu yerda Navoiy, Bedil va boshqa mashhur Markaziy Osiyolik mualliflarning to‘plamlari, shuningdek, arab va fors tillaridagi har xil asarlar o‘rin olgan.

Bu qo‘lyozma to‘plamarining barchasi general-gubernator K.L. Kaufman tomonidan Sankt - Peterburgdagi imperator xalq kutubxonasiga sovg‘a qilingan va P.L. Lerx tomonidan tasvirlangan. Sharq qo‘lyozmalarini saqlanadigan kutubxona Andijon begi Nasriddin

(Xudoyorxonning o‘g‘li) saroyida ham bor edi. 1875 yilgi Qo‘qon yurishining ishtirokchisi A.L. Kun ko‘proq kitoblar, qo‘lyozmalar va hujjatlar to‘plash maqsadida Andijonga keladi. Chunki Namangan, Marg‘ilon beklari va boshqa beklarning ham sharq qo‘lyozmalari va kitoblaridan iborat kutubxonalar bo‘lgan. Qo‘qon xonlari saroyidagi kutubxona XX asrning boshlariga kelib tanazzulga uchraydi, qo‘lyozmalari va kitoblari o‘g‘irlab ketilib, bozorlarda sotiladi. 1902 yilda Qo‘qonga qo‘lyozma asarlarni aniqlash va o‘rganish maqsadida kelgan V.V. Bartold xonning saroy kutubxonasini ko‘zdan kechirish chog‘ida afsus bilan bunday deb yozgan edi: «Hozirgi vaqtida hech qanday qo‘lyozmalar to‘plami yo‘q, hatto Xudoyorxonning oz miqdordagi kitoblari qoldiqlari xam yo‘qolgan, ularni 1897 yilda K. G. Zaleman bu kutubxonaning sobiq saqlovchisi Sarimsoq hojinikida ko‘rgan edi».

Biz yuqorida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida madrasalar qoshida ko‘plab kutubxonalar bo‘lganligini, shuningdek, xususiy qo‘lyozmalar to‘plamlari saqlanganligai tilga olib o‘tgan edik. Madrasalar faqat xonlar sulolalari tomonidan emas, balki ayrim katta yer egalari bo‘lgan boylar va hatto savdogarlar tomonidan barpo etilgan. Barcha yirik madrasalar huzurida sharq qo‘lyozmalari jamlangan kutubxonalar bo‘lgan. Bunday kutubxonalarning kitoblari asosan diniy mazmunda bo‘lib, muallimlar (mudarrislar) va shogirdlar uchun zarur edi.

Ba’zan bu yerda tarixiy, huquqiy, falsafiy va dunyoviy mazmundagi qo‘lyozmalarni ham uchratish mumkin edi. Bu xildagi kutubxonalarning boyligi madrasaning ahvoliga bog‘liq, ular asosan xonlarning in’omlari, dindorlar va yuqori tabaqa vakillarining xayriyalari hisobiga to‘ldirib borilgan. Madrasa kutubxonalari fondi ancha cheklangan. Agar o‘tmishda Markaziy Osiyo madrasalari savodxonlik va ma’rifat tarqatishda muayyan rol o‘ynagan bo‘lsa, endilikda ular diniy mazmundagi bilimlarni berishardi.

Buxoro amirligidagi madrasalar huzurida katta kutubxonalarning bo‘lganligi ma’lum. XIX asrning o‘rtalarida faqat Buxoroning o‘zida 15 dan ortiq yirik kutubxona bo‘lgan. Ayniqsa, yirik feodallarning nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan kutubxonalar juda shuhrat qozongan. Lekin XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro madrasasi huzuridagi kutubxonaning taqdiri ancha ayanchli kechdi. O‘scha vaqtida Buxoro madrasalari huzuridagi vaqf kutubxonalarini xazinaga o‘tkazish amir Muzaffarning tashabbusi bilan emas, balki qozikalon Sadreddinining tashabbusi bilan amalga oshdi. Qozikalon olimlik unvoniga ega bo‘limgani holda el orasida obro‘sii ham yo‘q edi. Vaholanki, qozikalon o‘zining yuqori mavqeい bilan ajralib turishi lozim edi. Diniy mavzularda bahslar o‘tkazilgan vaqtida u ko‘pincha mudarrislar va a’lamlardan mag‘lub bo‘lib qolardi. Qozikalon mudarrislar, a’lamlar, muftiyarning bilimlari bois kutubxonalardan «o‘ch olish»ga qasd qildi. U amirning ruxsatni bilan ruhoniylarning beparvoligi tufayli madrasa kutubxonalaridagi barcha qo‘lyozmalar va bosma nashrlarni qozixona idorasida saqlashga muvaffaq bo‘ldi. Bu kitoblarning bir qismi keyingi yillarda amir kutubxonasiga o‘tib ketdi, qozikalonnning qo‘lida saqlanayotgan qo‘lyozmalarning ko‘pchiligi qarovsiz qolganligi tufayli o‘g‘irlab ketildi va yo‘qotildi. Hisor shahar madrasasi kutubxonasida ancha-muncha adabiyotlar to‘plangan edi. Zamondoshlarning ma’lumot berishicha, Buxoro amirining tog‘asi Sodiq to‘ra madrasa kutubxonasini to‘ldirish bilan doimiy ravishda shug‘ullangan. U Buxoroda ko‘pgina qimmatli nodir qo‘lyozmalarni sotib olib, bunga 75 ming tanga sarflagan. Bu kutubxona fondi inqilobdan keyingi yillarda Markaziy Buxoro kutubxonasiga kelib tushgan.

Shahrisabzdagi Malika Ajar madrasasi huzuridagi mulla Muhammad Rajab, Kamol bazzoz va Abrorxo‘ja xatibning kutubxonalar shuhrat qozongan. Bu kutubxonalarda diniy mazmundagi qo‘lyozma kitoblar bilan bir qatorda fors shoirlarining va boshqa mualliflarning she’riy to‘plamlari, tarixiy mavzudagi qo‘lyozmalar mayjud edi. XIX asrda Xiva xonligi hududida anchagina madrasalar, masjidlar bo‘lganligi ma’lum. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, XIX asrning 40 -yillarida Xivada 22 ta madrasa bo‘lgan. Eng yirik va boy madrasalar xonlik markazi Xivada edi. Masalan, OllohqulIXon hayot bo‘lgan vaqtida madrasa qad ko‘targan bo‘lib, uning huzurida katta kutubxona tashkil etilgandi, 1835 yilda kutubxona xonning shaxsiy kutubxonasiagi qimmatli adabiyotlar bilan to‘ldirildi. Qo‘qon xonligining katta shaharlaridagi madrasalar qoshida ham, garchi unchalik qo‘lyozmalarga boy bo‘lmasada, kutubxonalar bor edi. Toshkentda, XIX asrning ikkinchi yarmida 20 dan ortiq madrasa bo‘lgan (Xo‘ja Ahror,

Baroqxon, Ko‘kaldosh va boshqalar), A. A. Semyonovning tasvirlashicha, madrasalarning kutubxonalarida o‘quv va amaliy-huquqiy mazmundagi arabcha qo‘lyozmalar saqlangan.

Qo‘qon xonligiga qarashli boshqa shaharlarning madrasalari ham bulardan qolishmagan. Andijonda 42 ta, Qo‘qonda 36 ta madrasa bo‘lgan. Qo‘qondagi Ko‘rxona masjidida saqlanayotgan qo‘lyozmalar ancha qiziqarli, ularda Jo‘ji ulusining ichki tuzilishi to‘g‘risida, Buxoro xonligidagi qabilalar haqida yozilgan tarixiy asarlar mavjud edi. Diniy mazmundagi adabiyotlar, xususan, Naqshbandiya tariqatining eng buyuk vakillari biografiyasi, Xo‘ja Ahrorning qarindosh-urug‘lari, nabiralari, vorislari biografiyalari keltirilgan kitoblar mashhur edi. «Bu yerda taqdim etilgan Muhammad Hoshimning asari,- deb yozadi A.Z. Validov,-o‘ninchi asrning boshlaridan to o‘n birinchi asrning ikkinchi choragigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va o‘sha davrdagi faqat so‘fizmnigina o‘rganish uchun emas, shu bilan birga Shayboniyalar va dastlabki Ashtarkoniylar hukmronlik qilgan davrdagi Mavarounnahrning siyosiy tarixini o‘rganish uchun ham manba bo‘lib xizmat qiladi». XIX asr oxiri XX asrning boshlarida bir qancha qimmatli va qiziqarli qo‘lyozma asarlar Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Turkiston o‘lkasi hududidagi madrasalar qoshidagi kutubxonalarda saqlanayotganligini aytib o‘tish kerak. Bu kutubxonalarga musulmon ruhoniylari, xonliklar ma’muriyati va podsho amaldorlari tomonidan alohida e’tibor bilan qaralgan, chunki hukmron sinflar madrasalar orqali o‘z mafkuralari targ‘ibotchilarini, o‘z sinflari manfaatini himoya qiluvchilarni tarbiyalar edilar. Shuning uchun ham aynan shu madrasalar huzuridagi kutubxonalarda qimmatli qo‘lyozmalar saglanib qolganligi bejiz emas. V.V.Bartold 1902 yilda Qo‘qonda bo‘lgan vaqtida bunday deb yozgan edi: «Shaharda men topishim mumkin bo‘lgan ma’lum darajada nodir kitoblar va qo‘lyozmalar Ma‘dalIXOn madrasasida to‘plangan edi». U mazkur kutubxona qo‘lyozmalarini diqqat bilan ko‘zdan kechirar ekan, Osiyo muzeyi uchun iloji boricha ko‘proq qo‘lyozmalarni xarid qilishga harakat qildi, lekin narxi yuqori bo‘lganligi uchun bunda muvaffaq bo‘la olmadi. Madrasalar huzuridagi sharq qo‘lyozmalarini saqlanayotgan kutubxonalarning ahvoli haqida o‘sha vaqtda, ya’ni 1913 yilda Buxoroga va O‘rtal Osiyoning boshqa shaharlariga tashrif buyurgan hindistonlik olim va sayohatchi Abdurauf hikoya qilgan. Uning ma’lumot berishicha, Buxoroda 200 ga yaqin madrasa bo‘lib, ular uch toifaga bo‘linadi: oliv, o‘rtal va quiyi madrasalar. Deyarli barcha madrasalar o‘z kutubxonasi ega, ulardagi qo‘lyozma boyligi vaqf va boshga daromadlarning ahvoliga bog‘liq. U vaqf daromadlari bilan yaxshi ta‘min etilgan 11 ta katta kutubxonani ko‘rsatib o‘tadi. Bu kutubxonalarda o‘sha vaqtda mavjud bo‘lgan barcha kitoblar to‘plangan edi, kutubxonalar yangi chiqayotgan kitoblar va qo‘lyozmalarni sotib olish uchun 40000 tanga miqdoridagi muayyan vaqf mablag‘ini olganlar. Abdurauf ayrim kutubxonalarning tanazzulga uchraganligini, ularning kitoblari xizmatchilar va boshqa kishilar tomonidan talon - taroj qilinganini qayd qilib o‘tgan.

Kutubxonalarda o‘sha yillarda qimmatli sharq qo‘lyozmalarini bor bo‘lganligini rus olimlari ularni jon deb sotib olganligi ham dalolat berib turibdi. Masalan, sharqshunos V. A. Ivanov 1915 yilda O‘rtal Osiyoga kelgan bo‘lib, Buxoro madrasalarining vaqflarga qarashli kutubxonalaridan arab, fors, turkiy tillardagi ko‘pgina sharq qo‘lyozmalarini sotib olgan. Bu sotib olingan narsalar 1057 ta qo‘lyozmadan iborat Buxoro kolleksiyasini tashkil etgan. O‘zbekistonhududidaXIXasraingikkinchiyarmiXXasrningboshlarida, ayniqsa, Buxoro, Farg‘ona, Toshkentdaxsususiyqo‘lyozmakolleksiyalariva fondlariko‘pbo‘lgan. Xususiy qo‘lyozma fondlari va kolleksiyalari uchun xos bo‘lgan narsa shu ediki, ulardan dunyoviy mazmundagi adabiyotlar ko‘pchilikni tashkil etardi. Tarix, fikh, falsafaga doir qo‘lyozma asarlar, turli she’riy to‘plamlar asosiy qismni tashkil etgan. Qo‘lyozmalar kolleksiyasini tashkil etuvchi har bir kishi uni o‘z shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqib to‘ldirgan, kitoblar va qo‘lyozmalarni tanlashda nuqul subyektiv omil birinchi o‘rinda turgan. Xususiyqo‘lyozmakolleksiyasiningeng ko‘pqismiBuxoroamirlighududigato‘g‘rikeladi. Bunga sabab, amirlikda ma’rifatli kishilar ko‘pchilikni tashkil etgan, ko‘pgina kutubxonalar ancha ilgarigi vaqtida tashkil etilgan, avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Odatda beklar, qozilar, mullalar va saroydagil amaldorlar bu yerga yaqin turuvchi shaxslar va ruhoniylar eng yaxshi qo‘lyozma kolleksiyalariga ega bo‘lishgan. Hisor shahridai stiqomat qiluvchi kutubxonashunos, nodir qo‘lyozmalar ishqibozi Qushbegi Ostanaquli

sharq qo‘lyozmalarining ancha qiziqarli kolleksiyalariga ega bo‘lganligi ma’lum. U Hisor tarixi va sharqiy Buxoro tarixiga doir ko‘plab qo‘lyozma asarlarni to‘plagan. Uning qo‘lyozma kolleksiyalarida hatto papirus qog‘oziga yozilgan qo‘lyozmalar ham bo‘lgan. Ostanaqulining vafotidan keyin bu qimmatbaho kolleksiya amirning kutubxonasiga topshirilgan. Qarshi shahridagi mulla Najmuddin kutubxonasida ancha qimmatli sharq qo‘lyozmalari bo‘lgan. Buyerdagi deyarli barcha asarlar Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning zamondoshi mulla Husayn Koshifiyga qarashli edi. Eski arab qo‘lyozmalari, she’riy to‘plamlar, chig‘atoy shoiri Lutfiyning she’riy to‘plamlari, mashhur shoiri Sayyodning «Eron shohlari tarixi» asari, Alisher Navoiyning asarlari mavjud edi. Astronomiya, fikh, ilohiyot bo‘yicha fors tilidagi qo‘lyozmalar soni anchagina bo‘lib, ularning ko‘pchiligi juda sifatli qog‘ozlarga atoqli hattotlar tomonidan ko‘chirilgan edi.

Buxoroda yashagan shayx Yahyo xoja Sadurga qarashli sharq qo‘lyozmalari kolleksiyasi diqqatga sazovordir. Bu yerda Abdullaxon Shayboniy davridan buyon Jo‘ybor shayxlari tarixi bo‘yicha qo‘lyozmalar, Muhammad Islomxo‘ja Jo‘yboriyning Abdullaxon, uning qarindoshlari va Ashtarkoniylar sulolasininig dastlabki vakillari bo‘lgan boshqa shaxslar bilan olib borgan yozishmalari va tarjimayi holi taqdim etilgan edi, Yozishma Jo‘yboriy shayxlari xonlarga qanday ta’sir ko‘rsatganligi va ular hokimiyatning ashtarkoniylar qo‘liga o‘tishida qanday rol o‘ynaganligini aniqlash uchun qimmatli manba hisoblanadi. KolleksiyadalbnSinoning «Tib qonunlari» asarivaboshqa qo‘lyozmalarbor edi. Qadimshunos va sharqshunos V.L. Vyatkin mazkur kolleksiyadagi qo‘lyozma asarlarning qimmatini ma’lum qilgan edi. «Agar pul to‘plasam-deb yozgan edi u,-bahorda Buxoroga bormoqchiman va u yerda Jo‘yborlarni qidirib topaman, ularning kitobparvarligini ilgari ham eshitgan edim».

Buxoroning qozikaloni Burhoniddinning kutubxonasi ancha qiziqarli. Ayniqsa, unda tarixiy asarlar ko‘p bo‘lib, ular orasida Chingizzon va uning avlodlari tarixi, Boburning Ubaydullaxon bilan kurashi tarixiga doir va boshqa asarlar mavjud bo‘lgan..

Sobiq Qo‘qon xonligi hududida Yunusxon dodho Muhammedovning kitoblar kolleksiyasi qimmatli asarlari bilan ajralib turgan. Unda chig‘atoy, fors, arab, turkiy va boshqa tillardagi nasriy va nazmiy asarlardan iborat qadimgi qo‘lyozmalar to‘plangan. Bu yerda Qo‘qon xonligi tarixi, Badaxshondagi 1657-1809 yillarda bo‘lib o‘tgan voqealar va shaxslar tarixiga, 1703 yilgacha bo‘lgan Qashg‘ar xojalarining tarixiga doir asarlar qo‘yilgan edi. Ayrim qo‘lyozmalar qo‘qonlik xonlar, shayxlarning hayoti va faoliyatini yoritib beradi. Kolleksiya farg‘onalik shoiri Sa’diy, Chig‘atoy shoiri Lutfiy va boshqalarning turli she’riy to‘plamlariga boy edi. Lug‘atlar ham topilardi, xususan chig‘atoy - fors lug‘ati qiziqarli bo‘lib, u mulla Yoqub Changiy tomonidan Hindistonda Avrangzeb (1659-1707) davrida tuzilgan, undagi anchagina qo‘lyozmalar diniy va tasavvufiy mazmundagi asarlardan iborat edi. Qo‘qonda V. V. Bartoldning shogirdi, sharqshunos va etnograf M. V. Gavrilov kichikroq bo‘lsa ham, ancha qiziqarli qo‘lyozmalar majmuiga ega bo‘lgan. U Qo‘qonlik Xudoyorxon podsholigi (1845-1858) davri tarixi bo‘yicha Abdulg‘affor tomonidan yozilgan she’riy asar, Amin Ahmad Roziyoning «Yetti iqlim», Mirxondning «Tozalik bog‘i» va boshqa asarlarini to‘plagan. Marg‘ilonda Ibrohimxo‘ja Muhammadxo‘jayevning kitob to‘plamlari orasida Xondamirning asarları, Mirza Muhammad Qosim al -Husaynning qalamiga mansub asarlar, Ubaydullaxon saroyidagi shoirlar va xonning o‘zi ijod qilgan she’riy to‘plamlar uchraydi.

Farg‘ona viloyati boshqarmasining tarjimonи bo‘lib ishlagan Y. K. Kazbekov ham bir qancha qo‘lyozmalariga sohiblik qilgan. Unda 1886 yilda yozilgan «Qo‘qon xonligi tarixi», shu nomdagagi yana bir asardan parchalar, Xo‘ja Ahrorning Abu Said va Abdurahmon Jomiy she’rlariga sharhlari. Jamol Qarshiy va boshqalarning asarları jamlangan edi. Uning kitoblari orasida Xudoyorxon davriga taalluqli anchagina rasmiy hujjatlari ham topilgan.

Andijonda boshqa xususiy qo‘lyozmalar orasida mingtepalik eshon Muhammad Ali Sobirovning qo‘lyozma fondi diqqatni tortadi, bu kishi Dukchi eshon nomi bilan mashhur bo‘lgan. Professor V. A. Jukovskiyning fikriga ko‘ra, bu to‘plamlar «so‘fizm tarixi va musulmon sektalari tarixiga qiziqish uyg‘otadi». Andijonda 1898 yilda bo‘lgan qo‘zg‘olon bostirilgandan keyin eshonning kutubxonasi musodara qilingan va uning bir qismi N. P. Ostroumovning iltimosi bilan Turkiston

arxeologiya ishqibozlari to‘garagiga berilgan, keyinchalik 194 ta qo‘lyozma Turkiston xalq kutubxonasiga keltirilgan va bu bilan YE. F. Kal hali hayotligi vaqtidayoq sharq qo‘lyozmalari fondi yaxshigina to‘ldirilgan. Bu yerda Farididdin Attor asarlari, kosonlik shayx Mahmud Azimiyning (1542 yilda vafot etgan) tarjimayi holi, O‘tamish hojining «Chingiznama», G‘iyosiddin Alining asarlari bor edi, ular bilan 1902- yilda V.V. Bertoldham qiziqqan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, xususiy qo‘lyozma fondlari Samarqand, Toshkent, O‘sh, Namangan va boshqa shaharlarda ham mavjud bo‘lib, bu joylar sobiq Qo‘qon xonligiga qarardi.

Qadimshunos va tarixchi V. L. Vyatkin sharq qo‘lyozmalaridan iborat qiziqarli kolleksiyaga ega edi. U Markaziy Osiyoda ishlagan davrida 190 jilddan iborat durustgina qo‘lyozmalarni (asosan inqilobdan oldingi davrga taalluqli) to‘plashga muvaffaq bo‘lgan. Tarixiy- geografik, tarixiy-diniy mazmundagi qo‘lyozmalar uning kolleksiyasidan ancha keng o‘rin olgan. Ulardadarveshlik harakatibatafsilyoritilgan, darveshliknazariyasirahbarlarining qarashlariaksetgan. Qo‘lyozmalarning yozilish vaqtiga kelsak, ular shayboniylar davriga to‘g‘ri keladi va shu davrni ancha to‘liq aks ettiradi. Qo‘lyozmalar orasida XIV asrning mashhur tarixchilari qalamiga mansub asarlar, xususan, Mahmud G‘ijduvoniyning shayx Kamoliddin Xorazmiy hayotining tasviriga bag‘ishlangan «Mitfax ut-talibin» (Intiluvchilar uchun kalit) asarining ko‘chirilgan nusxasi, balxlik Abdulloning «Zubdat ul-asar» (Hikoya qilish qaymog‘i) nomli qo‘lyozmasi bo‘lgan. Bu o‘sha vaqtida umumiy tarixga doir o‘zbek tilida bitilgan dastlabki asarlardan biri edi. Qo‘lyozmada Muhammad Shayboniyxon va uning vorislardan Suyun Hoji voqealari bilan bog‘liq manbalar o‘z ifodasini topgan. V.L.Vyatkinningkolleksiyasiga V.V. Bartold hamkatta qiziqishbilan qaragan. 1902 yilda Samarqandda bo‘lgan vaqtida qo‘lyozmalar bilan tanishib chiqadi, ular ajoyib miniatyurlar bilan bezatib ko‘chirilgan edi. Boshqa qo‘lyozmalar orasida tarixchi at Tabariyning asarlarini, Sa‘diyning she’riy to‘plami va boshqalarini ko‘rish mumkin. 1902 yilda «Turkestanskiye Vedomosti» gazetasi Muhiddinxo‘janing butun qo‘lyozmalarini Turkiston xalq kutubxonasiga sotib olishga da‘vat qilib chiqdi, lekin birorta ham qo‘lyozma sotib olinmadidi.

Toshkentlik Boqijon boyning to‘plagan qo‘lyozmalarini orasida tarixga doir asarlar ancha qiziqarli edi. U XVIII asrdagi chig‘atoylig Ismoilxon (1670-1682) ning ko‘rsatmasi bilan Mirza Shomahmud Churas tomonidan tuzilgan Qoshqariyaning tarixiga doir nusxaga ega edi. Ko‘pgina tarixiy qo‘lyozmalar rasmlar bilan bezatilgandi, masalan, Amir Temurning harbiy yurishlari to‘g‘risidagi qo‘lyozma 12 ta ajoyib miniatyura bilan ziynatlangan. Ularda 1374-1382 va 1387 yillarda Eronga qilingan yurishlar, Turkiya, Misrda olib borilgan urushlar, Temurning o‘g‘li Jahongirning nikoh to‘yi aks ettirilgandi. Bukolleksiya qo‘lyozmalaribilan 1916 yilda V. V. Bartold ham qiziqqan.

Sobiq Shahrisabz hukmdori, general mayor Jo‘rabekning Toshkentda sharq qo‘lyozmalarini kolleksiyasi bo‘lgan. XIX asrning oxirlarida unda, A.A. Semyonovning fikricha, bilimlarning turli sohalariga doir 60 dan ortiq qo‘lyozma bor edi. 1906 yilda Jo‘rabek o‘ldirilgandan keyin qo‘lyozmalar uzoq vaqt qarovsiz yotgan, ishdan chiqqan va o‘g‘irlab ketilgan. Mahmudbek Valining «Sirlar dengizi» asarida dastlabki uch qismining birdan-bir mashhur nusxasi ham yo‘qotilgan. 1912 yilda qo‘lyozmaning yarim-yortisi saqlanib qolgan bo‘lib, V.V. Bartoldning tashabbusi va A.A. Semyonovning ishtirokida ular Jo‘rabekning Qorasuvdagagi (Toshkent) uyidan olib ketilgan. Bu qo‘lyozmalarning shundan keyingi taqdiri bunday bo‘lgan: Oktabr to‘ntarishidan keyin bu kolleksiya Toshkent Sharqshunoslik instituti tomonidan sotib olinib, so‘ngra SAGU (hozirgi O‘zMU Sharq fakulteti kutubxonasiga keltirilgan, keyinchalik universitetning asosiy kutubxonasi fondiga qo‘silib ketgan. 1935 yilda 35 ta qo‘lyozma A.A. Semyonov tomonidan tuzilgan tavsifga kiritilgan va e’lon qilingan. Sharq tillarining, xususan, fors-tojik tilining bilimdoni bo‘lgan A.A. Semyonov (1873-1957) ham ancha boy qo‘lyozmalarini kolleksiyasiga ega edi. Xizmat taqozosini bilan Turkiston o‘lkasida turgan olim 1900 yildan boshlab tez-tez o‘lkaning turli joylariga borar, u yerlarda moddiy madaniyat yodgorliklarini tadqiq qilar, ayni vaqtida turli qo‘lyozma asarlarni to‘plar va o‘rganar edi. U asosan 1915-1916 yillarda to‘plagan Ismoil qo‘lyozmalarini hisobiga kolleksiya tuzgan.

Qo‘lyozmalarning ko‘philigi diniy mazmunda bo‘lib, nasriy va she’riy asarlardan tashkil

topgan. Bu yerda Nosir Xusravning «Barcha diniy kitoblarning onasi», A. Muhammadning «Ishonch qiyofasi», «Haqiqatlar guli», yana Nosir Xusravning «Sayohat kitobi» kabi asarlar bor edi. A.A. Semyonovshundankeyingiyillardasharq qo‘lyozmalarinito‘plashnidavomettirdi. Uning hayotining oxirgi yillarida ham shaxsiy kutubxonasida 150 dan ortiq o‘zbek, tojik (fors) va arab tillaridagi g‘oyat qiziqarli qo‘lyozmalar mavjud bo‘lib, uni olim o‘zining O‘rta Osiyodagi o‘z ilmiy faoliyati mobaynida o‘nlarcha yillar davomida to‘plagan edi. A.A. Semyonov vafot etgandan keyin uning kutubxonasi va sharq qo‘lyozmalari kolleksiyasi Tojikiston Fanlar akademiyasi Tarix institutiga topshirilgan. Sharqshunos va etnograf N. S. Likoshin, mashhur oriyentalist N.F. Petrovskiy, samarqandlik advokat S.A. Lapin, toshkentlik sharqshunos D.Granenskiy va boshqa ko‘plab olimlarning ham shaxsiy kutubxonalarida ancha-muncha sharq qo‘lyozmalari bo‘lgan

Nazorat savollari.

1. XVI–XVIII asrlarda Buxoroda ikkita yirik saroy kutubxonalari xaqida nimalarni bilasiz?
2. Shayboniylar saroyi kutubxonasi xaqida nimalarni bilasiz?
3. Hasan Nisoriyning «Muzakkiri al–AXBOB» nomli tazkirasi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Shayboniylar davrida Movarounnahrda she’riyat va adabiyot, ilm-fan va san’at rivoji xaqida nimalarni bilasiz?

10-mavzu: O‘rta asrlarda Yevropada bibliografiyashunoslikning rivojlanishshi. Germaniyada bibliografik faoliyat.

Reja:

1. G‘arbiy Evropada bibliografiya
2. XV asrda boshlangan gumanistik harakatlar Germaniyada katolik cherkovi tomonidan olib borilgan g‘oyaviy feudal yondashuv.
3. Martin Lyuter islohotlari.

Tayanch iboralar

G‘arbiy Yevropada bibliografiya. XV asrda boshlangan gumanistik harakatlar Germaniyada katolik cherkovi tomonidan olib borilgan g‘oyaviy feudal yondashuv. Martin Lyuter islohotlari.

tartiblashtirishdan iborat. Predmetlashtirish — predmet rubrikalari tili yordamida predmetli indekslash. Bibliografik guruhlashtirish — bibliografik yozuvni hujjatlarning xususiyatlariga ko‘ra ajratish. Maqsad — samarali axborot berish uchun bibliografik yozuvni tartibga solish, bir tizimda yetkazib berish. Bibliografik faoliyatda bibliografik tavsifni tuzish muhim va mas’uliyatli jarayon hisoblanadi. Bibliografik tavsifni tuzishga oid bir qator standartlar qabul qilingan. Lekin hali shu kunga qadar O‘zbekiston kutubxonalari uchun alohida GOST qabul qilinmagan, barcha respublikalar kabi bizda ham GOST 7.1.-84, GOST 7.12-93, GOST 7.1-2003, GOST 7.40-82, GOST 7.70- 2003 lardan foydalaniladi. Bibliografik tavsif bir qancha elementlardan iborat. Tavsif elementlari majburiy va fakultativ elementlardan tashkil topadi va quyidagi tavsif sohalarini aks ettiradi: Tavsif boshi. Sarlavhalar va javobgarlik haqidagi soha. — Nashr sohasi. — Chiqish ma’lumotlari sohasi. — Sonli xarakteristika sohasi. — Seriyalar sohasi. — Eslatmalar sohasi.- Xalqaro standart kitob raqami, bahosi va adadi sohasi. Har bir soha boshqasidan nuqta va chiziqcha bilan ajratiladi. Har bir element ma’lum bir ma’noga ega bo‘lgan bibliografik belgi bilan ajratiladi va ular matnni tushunishga, bibliografik 21 axborotni tayyorlashni avtomatlashgan holda olib borishga yordam beradi. Sohalar va elementlar uchun quyidagi belgilar qo‘llaniladi: (.-) nuqta va chiziqcha; (.) nuqta; (,) vergul; (:) ikki nuqta; (;) nuqtali vergul; (/) qiyshiq chiziq; (//) ikkita qiyshiq chiziq; (()) dumaloq qavs; ([]) kvadrat qavs; (+) qo‘shuv; (=) barobar. Bibliografik ma’lumotlar nashrda qanday berilgan bo‘lsa, shundayligicha olinadi. Qo‘shimcha ma’lumotlar kutubxona kataloglaridan, ma’lumotnomalar nashrlardan, bibliografik ko‘rsatkichlardan olinadi. Bibliografik ma’lumotlar uchun muqova, sarvaraq, avantitul, titul varag‘i orqasi, asar matni xizmat qiladi. Monografik bibliografik tavsif namunasi quyidagicha (majburiy elementlar qora rangda berilgan). Tavsif boshi. Sarlavhalar va javobgarlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar sohasi: Asosiy sarlavha; (=) parallel sarlavha; (:) sarlavhaga taalluqli ma’lumot; Javobgarlik haqidagi ma’lumotlar; (/) dastlabki ma’lumotlar; (;) keyingi boshqa ma’lumotlar. Nashr sohasi: Nashr haqidagi ma’lumot; Shu nashrga taalluqli javobgarlik haqidagi ma’lumotlar; (/) dastlabki ma’lumot; (;) keyingi ma’lumot; (,) nashr haqidagi qo‘shimcha ma’lumot. Chiqish ma’lumotlari sohasi: Nashr joyi; Birinchi nashr joyi; (;) keyingi nashr joyi; (:) nashriyot yoki nashr etuvchi tashkilot; (,) nashr yili; (() nashr joyi; Birinchi nashr joyi; (,) keyingi nashr joyi; (:) bosmaxona; (,) nashr yili. Sonli xarakteristika sohasi: Hajmi; (:) illustratsiyasi; (;) o‘lchovi; (+) ilovali hujjat. Seriyalar sohasi: (() serianing asosiy sarlavhasi; (=) serianing parallel sarlavhasi; (:) seriya sarlavhasiga taalluqli ma’lumot; Seriyaga taalluqli javobgarlik haqidagi ma’lumotlar; (/) dastlabki ma’lumotlar; (;) keyingi ma’lumotlar; Serianing xalqaro standart raqami, ISSN; 22 (;) serianing chiqish nomeri; (.) seriya osti asosiy sarlavhasi; (=) seriya osti parallel sarlavhasi; Seriya osti sarlavhasiga taalluqli ma’lumotlar; Seriya osti seriyasiga taalluqli javobgarlik haqidagi ma’lumotlar; (/) dastlabki ma’lumotlar; Keyingi ma’lumotlar; (,) seriya osti ISSN i; (;) seriya osti chiqish nomeri; Eslatmalar sohasi: Xalqaro standart kitob nomeri ISBN, bahosi, adadi. ISBN (:) bahosi; (,) adadi. Monografik bibliografik tavsif uchun namuna: Begmatov X. Devona Mashrab: Roman.—T.: „Sharq“ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2005. — 272 b. Analitik tavsifni tuzish Analitik bibliografik tavsif tuzishda belgilangan tavsif qoidasiga va tegishli belgilarga amal qilinadi: nashr manbasidan avval ikkita qiyshiq chiziq, eslatmalar sohasidan avval nuqta va chiziq qo‘yiladi. Analitik bibliografik tavsif uchun qism yoki bobga berilgan titul varag‘idagi ma’lumotlar, mundarija, matnning so‘ngi sarvarag‘ida berilgan mualliflar, javobgar shaxslar, tashkilot va muassasalar, chiqish ma’lumotlari haqidagi ma’lumotlar olinadi. Eslatmalar sohasida mustaqil sarlavhaga ega bo‘lmagan bob, qism haqidagi, hujjatning muallifi, sarlavhasi, bibliografiyasi haqidagi ma’lumotlar beriladi. Analitik bibliografik tavsif ko‘rinishi: Hujjat qismi haqida // Manba haqidagi ma’lumot. — Eslatmalar. Analitik bibliografik tavsif uchun namunalar: 1. Hasanova Sh. Qiz bola hayosi bilan go‘zal // Oila va jamiyat.—2006. 6—12- iyul. ¹ 27.- 5-b. 2. Vohidov E. O‘zbegin: (qasida) // Vohidov E. O‘zbegin: She’rlar.—Toshkent, 2005. 41—44-b. O‘smirlar kutubxonasi. Gazetadan olingan hujjatga analitik tavsif berishda nashr manbasi, nashr yili, sanasi ko‘rsatiladi, jurnaldan yoki davomli nashr dan olingan hujjat uchun tavsifda nashr manbasi, nashr yili, chiqish tartib raqami va qaysi sahifalarda

bosilgani aks 23 ettiriladi. Ularning hammasi nuqta va chiziq bilan ajratiladi. Agar hujjat bir qancha sonlarda e'lon qilingan bo'lsa, manbaning nashr yili va tartib raqami nuqta va vergul (;) bilan ajratiladi. To'la asarlar to'plamlari yoki tanlangan asarlardan olingen hujjatlarni tavsiflashda muallif bitta bo'lsa, ikkinchi qismda manbadan oldin muallif ko'rsatilmaydi. Aks holda ko'rsatiladi. Taqrizlar va referatlar berilgan hujjatlarni tavsiflashda asosiy nashr haqidagi ma'lumotdan keyin yangi qatordan „Taqriz“ yoki „Ref.“ deb ko'rsatiladi va unga analitik tavsif beriladi. Agar taqriz yoki referat sarlavhasiz bo'lsa, uning sarlavhasi bibliograf tomonidan qo'yiladi va kvadrat qavsga olinadi. Annotatsiyalash. Annotatsiyadagi elementlar to'plami bibliografik tavsifning to'laligiga, bibliografik axborotning qay darajada tayyorlanganligiga va annotatsiyaning turiga bog'liq. Ma'lumotnomma annotatsiyasida tavsifdan tushib qolgan sarlavhani aniqlovchi elementlar, faktik yoki qo'shimcha, hujjatning ahamiyati va mazmuni, shakli va janri, tuzilishi va boshqa xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Tavsiya annotatsiyasida elementlarning har biriga vazifasiga ko'ra tushuntirish beriladi. Muallif haqidagi ma'lumotda hayoti va ijodining asosiy sanalari, u yashagan davrga qisqa ta'rif, kasbi, mashhur asarlari, yozilish tarixi, joyi, sabablari, uning nashr etilishi, manbalari haqida ma'lumot beriladi. Asarning ilmiy va badiiy qimmatiga ta'rif berayotganda uning ijtimoiy ahamiyati, unga bag'ishlangan taqriz va referatlarga yo'llanma, fan va madaniyat arboblarining unga bergen bahosi eslatiladi. Annotatsiyaning asosiy elementi uning mazmuni haqidagi ma'lumotdir. Annotatsiyada muallif e'tiboridagi sarlavha, mavzu, asosiy masalalar yoritiladi, aks ettirilgan asosiy voqe va masalalarga o'rinn beriladi, asarning asosiy ahamiyatli xususiyatlari, shu mavzudagi boshqa asarlardan farqi haqida aytildi. O'quv, ma'lumotnomma, ilmiy-ommabop nashrlar annotatsiyasida bo'limlar mazmunini to'la bermasdan, shunchaki nomlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Materialni berishda uning qay darajada izohlanganini, qisqa yoki to'la, ommabop yoki ilmiy tilda, jonli, qiziqarli yoki, aksincha, quruq berilganini ko'rsatish lozim, shuningdek, badiiy uslubi ham ko'rsatiladi. Kitobxonlik guruhiга ko'ra maqsadini ko'rsatishda asarning ilmiy, o'quv, ishlab-chiqarish faoliyatidagi va mustaqil bilim olishdagi o'rni ko'rsatiladi. Badiiy-poligrafik va tahriri-nashriy bezatilishi 24 haqidagi ma'lumot illustratsiyalar soni, ularning mazmuni, ahamiyati, chizmalar, badiiy bezaklardan iborat. Bundan tashqari, annotatsiyada ma'lumot-qidiruv apparati, kitob ichi bibliografiyalari haqida ham axborot berish lozim. Annotatsiyalash mas'uliyatli jarayon bo'lib, quyidagicha bosqichma-bosqich olib boriladi: 1. Asar matnini tahlil qilish; 2. Qo'shimcha manbalarni o'rganish; 3. Asar mohiyatini ta'riflovchi ma'lumotlarni to'plash; 4. Annotatsiyani badiiy tahrir qilish va rasmiylashtirish. Asar matnini tahlil qilish. Asar turi (alohida, to'plam, ko'p jildli nashrning bir qismi, ruknli nashrning qismi) aniqlanadi. qaysi masala, muammo, mavzu yoki bilim sohasiga bag'ishlanganligi ko'rsatiladi. Nashr tuzilishi va materialning guruhlanishiga e'tibor qaratiladi. Materialning qay usulda berilishini yoki izohlanishini aniqlash kitobxonlar guruhini aniqlashga yordam beradi. Tahlilda so'zboshi, kirish so'zi, eslatmalardan, qo'shimcha tanqidiy materiallardan foydalilanadi. Qo'shimcha manbalarni o'rganish. Mavzuga oid asarlar, taqrizlar, tanqidiy maqolalar, biografik materiallar, fan va madaniyat tarixiga oid asarlar tegishli ma'lumotnomma-nashrlar va bibliografik qo'llanmalar yordamida topiladi va o'rganiladi. Ma'lumotlarni to'plash. Asarlarga annotatsiya berishda muallif haqida avtobiografik ma'lumotlar, asarning hozirgi davr uchun ilmiy va badiiy qimmati haqida ma'lumot beriladi. Zamonaviy asarlarga annotatsiya berishda, unga haqqoni y va obyektiv baho beriladi, muallifining shaxsiy tasavvuri yoki taassurotiga suyanib qolish kerak emas. Ba'zida muallif fikri, ba'zi annotatsiyalarda tanqidchi fikri, voqeа yoki hodisa ishtiroychisi, mualliflar xotirasi keltiriladi. Adabiy tahrir yoki annotatsiyani rasmiylashtirishda eng asosiy ma'lumotni ajratib olish zarur. Kitobxon e'tiborini jalb etish uchun, tavsiya annotatsiyasida eng qiziq faktlar haqida axborot berish kerak. „Kitob juda qiziq...“ yoki „Kitob qiziqarli hikoya qiladi...“ kabi fikrlardan qochish, bibliografik tavsifdagi ma'lumotlarni takrorlashdan tiyilish lozim. Referatlash birinchi darajali hujjatdagi axborotni analitiksintetik tahlil qilishdir. Hujjatdagi eng zarur faktlarni —asosiy holat, faktik ma'lumotlar, natija va xulosalarni ajratib olish kerak bo'ladi. Referat matni o'zining aniqligi, to'g'riliги, mantiqiyligi bilan ajralib turadi, unda ikkinchi darajali axborot — tanqid, isbot, dalil, misollar bo'lishi

mumkin emas. 25 Referatning tuzilishi. Unda quyidagilarga e'tibor qaratiladi: 1. Agar sarlavha aniq berilmagan bo'lsa, mavzusi, ishning maqsadi ko'rsatiladi. 2. Ishni o'tkazishning usuli va metodologiyasi. 3. Ishning natijasi (aniq va axborotlashgan ma'lumot beriladi, yangi natijalar, uning ahamiyati, muhim kashfiyotlar va ixtiolar beriladi). 4. Natijalardan foydalanish sohasi. 5. Xulosalar. 6. Qo'shimcha axborot (tashkilot nomi, birinchi darajali hujjat muallifi, muallif haqida ma'lumotlar, avval nashr qilingan asarlariga yo'llanma) beriladi. Referatlash quyidagi bosqichlardan iborat: 1. Tanishish uchun o'qib chiqish, hujjatning dastlabki tahlili. 2. Diqqat bilan o'qish, chuqur tahlil. 3. Referat turini aniqlash. 4. Referat tuzilishini aniqlash. 5. Axborotni sintez qilish. 6. Referatni belgilangan qoidaga ko'ra rasmiylashtirish. Referatlash metodikasi o'ziga xos, unda markerlar — hujjat mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi so'zlar, so'z birikmalari, indikatorlar — hujjatda muallif fikrining rivojlanishini, ketmakeetligini ko'rsatuvchi keng qo'llaniladigan so'z birikmalari, hujjatni bosqichma-bosqich tahlil qilishning reja-maketi, har qanday bilim sohasiga oid adabiyotlarni referatlash uchun zarur universal va hujjatning ixtisoslashgan xususiyatiga asoslangan referatlash va hujjat mazmunini sharhlashning o'ziga xos usulidan foydalaniadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir axborot-kutubxona resursi haqida iste'molchilarga, talabgorlarga axborot berish vazifasini bajarayotgan bibliograf har bir bibliografik elementlarni mukammal bilishi, uni o'z o'rniда ishlata olishi zarur.

Nazorat savollari.

1. Bibliografik axborot tarkibi nimalardan tashkil topgan?
2. Bibliografik kirish nima?
3. Axborot nimani anglatadi?
4. Bibliografik xabar nima?
5. Bibliografik yozuv va uning vazifasini tushuntirib bering.

16-mavzu:Bibliografiyaning ijtimoiy munosabatlardagi o'rnnini belgilash masalalari.

Reja:

1. Bibliografiyaning ijtimoiy munosabatlardagi o'rni.
2. Bibliografik axborot tushunchasi va mazmuni.
3. Bibliografik axborot – hujjatlar va foydalanuvchilar o'rtasida vosita sifatida.
4. Bibliografik axborotga ehtiyojlar, ularning shakllanishi.

Tayanch iboralar

Bibliografiyaning ijtimoiy munosabatlardagi o'rni. Bibliografik axborot tushunchasi va mazmuni. Bibliografik axborot – hujjatlar va foydalanuvchilar o'rtasida vosita sifatida. Bibliografik axborotga ehtiyojlar, ularning shakllanishi. Bibliografik axborotning zamonaviy tushunchasi

Ikki yarim ming yil mobaynida qadimgi hujjatli manbalarni o'rganish bibliografik axborotni tashkil etuvchi matnlarni aniqlashga imkon berdi. Bular quyidagilardan iborat: bibliografik kirish, matn ichi ro'yxatlari, mashhur mualliflar asarlarining ro'yxati, kutubxona kataloglari, bibliografik ro'yxatlar.

Bibliografik kirish — matn boshidagi muallif ism-sharifi, sarlavha, kitobxon guruhi, maqsadi va boshqalar; asar boshida avtobiografik xarakterda muallif haqidagi, matndagi va matndan tashqaridagi asar sarlavhasi; matn so'ngidagi yozuvlar haqida ma'lumot. Hozirgi paytda bibliografik kirish deganda matn bilan tanishishdan avval asar haqidagi eng zarur, qisqa ma'lumotlarni aks ettiruvchi titul (sarvaraq) sahifasi tushuniladi. Qadimgi antik adabiyotda bunday ma'lumotlar „Bilim beruvchi“ didaktik, hikoya va qo'shiq janridagi asarlarda qo'llanilgan. 22 ta adabiy yodgorliklarda ana shunday ma'lumotlar borligi aniqlangan. Bibliografik kirish tuzilishi o'sha davr uchun xos bo'lgan shaklda, ma'lum bir tartibda berilgan — asar muallifi yoki shaxs haqida ma'lumot, ba'zan qo'shimcha titul varag'ida muallifning kasbi, shajarasi, agar otasi yoki ustozи mashhur shaxs bo'lsa, ular haqidagi ma'lumot, asar

sarlavhasi, uning yaratilishi sabablari, muallifning o‘z asariga bergen bahosi keltirilgan. Avtobiografik xarakterdagи bibliografik kirishda faqat muallif haqida ma’lumot berilgan.

Bibliografik axborot — asar haqidagi ma’lumotdir. Axborotning boshqa turlaridan farqi shundaki, bibliografik axborot murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, uni tuzish, yoshi, kasbi, mutaxassisligi, qiziqishi, maqsadi, tayyorgarlik darajasiga ko‘ra, turli xil iste’molchilarga uzatishda mutaxassis-bibliograflar ishtirok etadi. Asosiysi, bibliografik axborot — tushunish va foydalanish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar haqidagi axborot yoki ikkinchi darajali axborotdir. Bibliografik axborotning asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatning yoki alohida iste’molchilarning turli xil axborotga bo‘lgan talablarini qondirishdan iborat.

Axborot — lotincha informatio so‘zidan olingan bo‘lib, tushuntirish ma’nosini anglatadi va biror narsa haqida ma’lumot yoki xabar beradi.

Hozirgi paytda bibliografik axborotni qaror toptirish va uni uzatish shakllari turlichadir: eng sodda axborot xabarlaridan to tuzilishi va qamrab olish darajasiga ko‘ra murakkab an’anaviy bosma shakldagi bibliografik qo‘llanmalar va, [shuningdek](#), elektron shakldagi ma’lumotlar bazasigacha.

Bibliografik xabar — bibliografik axborot elementi va ma’lum bir tartibda keltirilgan hujjat qismi yoki hujjatlar guruhi haqidagi asosiy ma’lumot bo‘lib, u og‘zaki yoki yozma shaklda beriladi. Kutubxonalar har qanday voqeа, hodisa, siyosiy yangilik, ishlab chiqarish muammolari va ularni hal etish yo‘llari, ilg‘or tajribalar, ixtiolar, kashfiyotlar hamda asarlar haqidagi ma’lumotlarni ana shu shaklda tezkorlik bilan bajaradi. Ayniqsa, tezkor axborotga muhtoj, ammo imkoniyatga ega bo‘lmagan tashkilot va muassasalar maqsadiga xizmat qiluvchi bibliografik xabarlarni o‘z vaqtida yetkazib berish, birinchidan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirsa, ikkinchidan, o‘zaro hamkorlikni ta’minlaydi, uchinchidan, kutubxonalar faoliyatiga yordam beruvchi homiyarni jalb etadi.

Bibliografik yozuv — bibliografik axborot elementi va bibliografik qidirish maqsadida hujjatning tarkibi va mazmuni haqidagi rasmiy ma’lumot bo‘lib, odatda, o‘ziga xos ahamiyatga, funksiyaga, aniq axborot berishga mo‘ljallangan bir qancha elementlardan tashkil topadi. Bibliografik yozuv turli xil bibliografik qo‘llanmalarni tuzish, kutubxona kataloglarini tashkil etish va boshqa maqsadlarda qo‘llaniladi. Shuning o‘zi uning turlitumanligini va xususiyatini ko‘rsatadi. Xususan, an’anaviy va elektron kataloglarda qo‘llaniladigan bibliografik yozuvlarda, albatta, nashrni fondda saqlash shifri ko‘rsatiladi. Umumlashma bibliografik yozuvda qayta nashr haqidagi, bir nashrning yoki hujjatning bir necha xil tarjimalari va unga berilgan taqrizlar haqidagi ma’lumotlar to‘planadi. Masalan, taqrizlar haqidagi bibliografik yozuv ikkita yozuvni birlashtiradi: hujjatning bibliografik yozuvi va taqrizning bibliografik yozuvi. Bibliografik yozuvlar unga kiritilgan elementlarning tarkibiga ko‘ra ham ajratiladi. Bular: tafsiv boshi, bibliografik tavsif, annotatsiya yoki referat, indekslash tushunchalari, hujjatni saqlash shifri, yo‘naltirish, xizmatga oid ma’lumotlar. Har bir element hujjat xarakterini u yoki bu darajada ochib beradi. Bibliografik axborotning murakkab shakli bibliografik qo‘llanmalardir.

Bibliografik qo‘llanmalar — minglab bibliografik yozuvlarning ma’lum bir tartibda bir joyga to‘plangan shakli, fikrlarning umumiyligi, kitobxonlik maqsadi aks etayotgan hujjatlarning mazmuniga ko‘ra turli xil usulda amalga oshiriladi. Hozirgi paytda an’anaviy bibliografik qo‘llanmalardan tashqari elektron ko‘rinishdagi bibliografik qo‘llanmalar ham yaratilmoqda.

Tafsiv boshi — bibliografik yozuv elementi bo‘lib, bibliografik tavsif boshida joylashadi va bibliografik qidirishning asosini tashkil etadi. Qo‘llaniladigan tavsif boshi hujjat yoki uning qismi haqidagi ma’lumot xarakteriga ko‘ra har xil bo‘ladi:

Shaxs nomini ko‘rsatuvchi;

Tashkilot nomini ko‘rsatuvchi;

Qisqartirilgan sarlavhani ko‘rsatuvchi;

Hujjat turini anglatuvchi; 5. Geografik nomini anglatuvchi.

Yakka muallif haqidagi tavsif boshi alohida muallif yoki hammuallif nomini aks ettiradi. Mualliflar jamoasi haqidagi tavsif boshida doimiy yoki vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lgan nashr uchun mas’ul tashkilot nomi beriladi. Tavsif boshida mamlakat nomi, alohida qayd etish

lozim bo‘lgan hujjat turi, (masalan, rasmiy nashrlar — hukumat qarorlari, [buyruqlari](#), farmonlari) ko‘rsatiladi.

Bibliografik tavsif — belgilangan ma’lum bir qoidaga ko‘ra nashr haqidagi umumiy va xususiy ma’lumotlarni aks ettirish maqsadida, ma’lum bir ketma-ketlikda bir qancha bibliografik elementlardan tashkil topgan tavsif sohalari yig‘indisi. Bu tavsifdan muallif, sarlavha, unga taalluqli ma’lumotlar, mazmuni, ahamiyati va maqsadi, nashr turi, hajmi va boshqa xususiyatlari haqida ma’lumot olish mumkin. Kutubxonachilik-bibliografik amaliyotida elementlar tarkibi, to‘laligi va tavsif obyektiga ko‘ra turli xil bibliografik tavsif qo‘llaniladi.

Monografik tavsif — bir asar tafsivi bo‘lib, u vazifasi yoki mazmuniga ko‘ra bir xillikni tashkil etuvchi bir yoki bir necha elementdan iborat tuzilma (masalan, chiqish ma’lumotlari sohasida nashr joyi, nashriyot yoki bosmaxona nomi, nashr yili) beriladi. Elementlar majburiy yoki fakultativ (yordamchi)ga ajratiladi. To‘liq tavsif o‘zida hamma majburiy va fakultativ elementlarni aks ettirsa, qisqa tavsif faqat majburiy elementlarni aks ettiradi. Majburiy elementlar hujjat haqidagi asosiy ma’lumotlarni, fakultativ esa hujjat haqidagi qo‘srimcha axborotni beradi (masalan, kitobxon guruhi, illustratsiyasi, chizma, kartalar haqida).

Analitik bibliografik tavsif 2 qismidan iborat bo‘lib, hujjatning bir qismi, bob, bo‘limi yoki alohida bir maqola haqida ma’lumot beradi. 1- qismida matn muallifi, sarlavha, unga taalluqli ma’lumot berilsa, 2- qismida uning manbasi haqida axborot beriladi.

Indekslash tushunchalari kutubxona-bibliografik klassifikatsiya indekslaridan va predmet rubrikasidan iborat bo‘ladi. Klassifikatsiya indeksi hujjatning mazmuniga ko‘ra qaysi bilim sohasiga taalluqli ekanligini ko‘rsatuvchi shartli belgidan iborat. Bu belgi raqamli, harfli va aralash shaklda bo‘ladi va maxsus jadval yordamida axborot qidiruv tilini (AQT) tashkil etadi.

Predmet rubrikasi—AQT elementi bo‘lib, hujjatning asosiy mazmunini aks ettiruvchi predmet yoki masalaning qisqa shaklini anglatadi.

Bibliografik yozuvda annotatsiya va referat ham beriladi. Annotatsiya qoidaga ko‘ra, hujjat mazmuni, mohiyati, shakli va boshqa xususiyatlari qisqacha ta’rif beradi va bibliografik tavsifni to‘ldiradi, aniqlaydi. U ijtimoiy ahamiyatiga va vazifasiga ko‘ra ma’lumot va tavsiyaviy xarakterda bo‘ladi.

Ma’lumot annotatsiyasi sarlavhadagi noaniqlikni ochib beradi, muallif haqida, bibliografik tavsifda aks etmagan asar mazmuni, janri va boshqa xususiyatlari haqida ma’lumot beradi. [Bunday annotatsiyalar rasmiy](#), ilmiy, ishlab chiqarish, ma’lumotnomalar nashrlariga berilib, bir necha so‘zdan bir, ikki qator jumlagacha bo‘ladi.

Tavsiya annotatsiyalari hujjat haqida, uning ahamiyati va xususiyatlari, mazmuni va ahamiyatiga ko‘ra unga yaqin bo‘lgan adabiyotlar orasida tutgan o‘rnini haqida axborot berish, kitobxonni qiziqtirish maqsadida qo‘llaniladi. Annotatsiya tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan tavsiya va maslahatdan iborat bo‘ladi va hajmiga ko‘ra ma’lumot annotatsiyasidan katta bo‘ladi. Ular, asosan, ilmiy-ommabop, badiiy, bolalar adabiyoti, ommaviy-siyosiy nashrlar mazmunini ochishda qo‘llaniladi.

Birinchi darajali hujjatlar tavsifining usuliga ko‘ra umumiy va analitik annotatsiya bo‘ladi. Umumiy annotatsiya hujjat mazmunini yoritadi, analitik yoki xususiy annotatsiya hujjatning qaysidir bir qismi haqida ma’lumot beradi (masalan, bob, paragraf, alohida maqola).

Annotatsiya ma’lumot berilayotgan hujjatlar soniga ko‘ra monografik yoki guruhli bo‘ladi. Monografik annotatsiya bir hujjatning mazmuni va xususiyatlarini ochib beradi, guruhli (yig‘ma) esa mazmuniga ko‘ra bir-biriga yaqin bir necha hujjat

2 — Bibliografiya

haqida axborot beradi. Ba’zan bir muallifning bir necha asari, bir janrdagi bir necha asar, bir turdagisi asar, u yoki bu darajada annotatsiyalanayotgan asarga bog‘liq boshqa asarlar haqida ham bo‘lishi mumkin. Axborotning hajmi va izchilligiga ko‘ra tushuntiruvchi, tasviriy, referativ annotatsiyalar ham mavjud. Tushuntiruvchi annotatsiya hujjat sarlavhasini aniqlovchi bir necha so‘zdan yoki jumladan iborat bo‘ladi. Tasviriy esa hujjatdagi asosiy masalalarni yoki muammolarni ochib beradi va „Hujjatda nima haqda so‘z boradi?“ degan savolga javob beradi. Referativ annotatsiya „Hujjatda nima haqda qanday axborot beriladi?“ degan savolga javob

beradi.

Annotatsiyalar kim tomonidan bajarilganiga ko‘ra mualliflik, muharrirlik, bibliograf annotatsiyasiga ajratiladi. Muallif va muharrir tomonidan beriladigan annotatsiya nashrning titul varag‘i orqasida beriladi. Bibliograf tomonidan beriladigan annotatsiya kartochkalarda yoki bibliografik qo‘llanmalarda, ko‘rsatkichlarda qo‘llaniladi. Kartochkadagi bunday qisqa annotatsiya yoki tushuntirish kvadrat qavs ichida beriladi va bu bibliograf tomonidan tuzilganligini anglatadi. Annotatsiyalar tayyorlash usuliga ko‘ra an’anaviy, qo‘lda yozilgan va avtomatlashtirilgan usulda bajariladi.

Referat —bu muallif (tuzuvchi)ning tanqidiy fikrlaridan xoli, qo‘sishmcha mulohazalarsiz, hujjatning asosiy faktik ma’lumotlarini va mazmunini yorituvchi ma’lumot. Boshqacha aytganda, referat „Birinchi darajali hujjatda nima haqda ma’lumot beriladi?“ degan savolga javob berib, axborotlilik (hujjatning mazmuni haqida qisqa axborot berish) xususiyatiga ega. Referat hujjatning qaysi bilim sohasiga yoki fan tarmog‘iga oidligiga ko‘ra ijtimoiy, gumanitar, tabiiy-ilmiy, texnik adabiyotlar haqidagi referatlarga ajratiladi. Hujjatning mazmuni haqida qaysi usulda berilishiga ko‘ra: umumi yoki referat-qaydlar; umuman, hujjat mazmunini izohlab berishiga ko‘ra ixtisoslashgan yoki muammoli referatlar, referat manbalarining soniga ko‘ra monografik, referat-fragmentlar, sharhli yoki guruhli; yoritib berish shakliga ko‘ra matnli, illustratsiyali, aralash; hajmi va izchilligiga ko‘ra (qoidaga ko‘ra 850 belgidan oshmagan) qisqa, kengaytirilgan (hujjat hajmining 10 – 15 % ini tashkil etadi), muallifiga ko‘ra (mualliflik-avtoreferat, referentlar yoki axborot-bibliografik xizmat ishchilari tomonidan tuzilgan) referatlarga ajratiladi.

Yo‘naltirish (ssilka) hujjat qismini bibliografik yozuv, bo‘lim, predmet rubrikasi bilan bog‘laydigan element. U „qarang“, „shuningdek, qarang“ (ñi., ñi. Tàèæå) kabi 2 xil ko‘rinishda beriladi. Bu vazifani bibliograf yoki axborot-kutubxona markazi xodimi amalga oshiradi. Buning uchun bibliografiyalash texnologiyasini bilish shart.

Bibliografik faoliyat — iste’molchilarning bibliografik axborotga bo‘lgan talabini va ehtiyojini qondirish bo‘yicha faoliyat sohasi bo‘lib, uning mazmuni bibliografik axborotni tayyorlash va uni iste’molchiga talabi va qiziqishiga ko‘ra yetkazib berish jarayonidan iborat. Bibliografik axborotni tayyorlash bibliografik aniqlash, bibliografik qidirish, bibliografik qayta ishlov berish, bibliografik tanlash, bibliografik guruhlashtirish jarayonlaridan iborat bo‘lib, bibliografiyalash deb ataladi. Bibliografik axborotni iste’molchiga ma’lum bir vositalar va usullar yordamida yetkazib berish jarayoni bibliografik xizmat deyiladi. Bunda ma’lumotbibliografiya apparatini tashkil etish, ma’lumot-bibliografiya xizmati ko‘rsatish, bibliografik axborotlashtirish va axborot ta’limi nazarda tutiladi. Bibliografik faoliyatning hamma jarayonlari o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi. Hozirgi davrda ularning hammasi axborotga birlamchi ishlov berish, olingan natijalardan samarali va ko‘p marta va ko‘p maqsadli foydalanish, avtomatlashgan texnologiyani qo‘llashda muhim ahamiyatga ega. Bibliografiyalashning obyekti bo‘lib hujjat yoki uning qismi xizmat qiladi. Bibliografik axborotni ishlab chiqish jarayoni bir qancha o‘ziga xos xususiyatga va o‘ziga mos vositalar, usullar, yakuniy xulosalarga ega jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, u analitik-sintetik ishlovga asoslangan yagona texnologik va ijodiy jarayondir. Bir vaqtning o‘zida bu jarayonda zarur axborot to‘planadi va unga baho beriladi, olingan ma’lumotlar umumlashtiriladi, tegishli maqsadga qaratilgan yo‘nalishda va shaklda axborot uzatiladi.

Bibliografik aniqlash—belgilangan mezonlarga ko‘ra hujjatlarni bibliografiyalash obyekti sifatida aniqlash jarayonidir. Bibliografik tanlash — tanlangan materiallar orasidan keyingi bibliografik ishlovga mos holda hujjatlarni ajratib olish. Bunda hujjatning ilmiy ahamiyati, axborotga to‘laligi, obyektivligi, bibliografik axborotga mosligi hisobga olinadi. Bibliografik qidirish — bibliografik ma’lumotlarga asoslangan axborot qidirushi. Bu manzilli, mavzuli, aniqlovchi, faktik va boshqa xil bo‘lib, zamonaviy axborot resurslarini, bibliografik qo‘llanmalarni, ma’lumotlar bazasi va ma’lumotlar bankini bilishga asoslanadi hamda ilmiy asoslangan dastur asosida olib boriladi. Bibliografik qidiruvning umumiy dasturi o‘ziga xos mantiqiy zanjirni hosil qiladi va maqsadga hamda ilmiy natijalarga erishishga

qaratilgan bo‘ladi. Bibliografik ishlov — bibliografik yozuvni kutubxonaning an’anaviy katalogida, kartotekalar, bibliografik ko‘rsatkichlar, qo‘llanmalar va zamonaviy elektron katalogda aks ettirish uchun bajariladigan jarayonlar yig‘indisi. Bibliografik ishlov bibliografik tavsifni tuzish, bibliografik yozuv elementlarini aniqlash, tavsif boshini shakllantirish, indekslash, annotatsiyalash yoki referat tuzish va boshqa elementlarni berish bo‘lib, uning maqsadi hujjatni tanlash, o‘rganish, o‘qish, ko‘rib chiqish, qo‘shimcha materiallar bilan tanishish, asar haqidagi ma’lumotlardan foydalanish, tanqidiy maqolalarni ko‘rib chiqish jarayonida u haqda to‘liq axborot tayyorlash va uni iste’molchiga yetkazish maqsadida chiqish ma’lumotlarini tayyorlashdan iborat. Asarni indekslashga asarni mazmuniga ko‘ra bilim sohalari yoki fan tarmoqlari bo‘yicha sistemalashtirish va predmetlashtirish kiradi. Sistemalashtirish — belgilangan axborot-qidiruv tili qoidasiga ko‘ra indekslar qo‘yib chiqish va shu asosda tartiblashtirishdan iborat. Predmetlashtirish — predmet rubrikalari tili yordamida predmetli indekslash. Bibliografik guruhlashdirish — bibliografik yozuvni hujjatlarning xususiyatlariga ko‘ra ajratish. Maqsad — samarali axborot berish uchun bibliografik yozuvni tartibga solish, bir tizimda yetkazib berish. Bibliografik faoliyatda bibliografik tavsifni tuzish muhim va mas’uliyatli jarayon hisoblanadi. Bibliografik tavsifni tuzishga oid bir qator standartlar qabul qilingan. Lekin hali shu kunga qadar O‘zbekiston kutubxonalari uchun alohida GOST qabul qilinmagan, barcha respublikalar kabi bizda ham GOST 7.1.-84, GOST 7.12-93, GOST 7.1-2003, GOST 7.40-82, GOST 7.702003 lardan foydalaniladi. Bibliografik tavsif bir qancha elementlardan iborat. Tavsif elementlari majburiy va fakultativ elementlardan tashkil topadi va quyidagi tavsif sohalarini aks ettiradi:

Tavsif boshi. Sarlavhalar va javobgarlik haqidagi soha. — Nashr sohasi. — Chiqish ma’lumotlari sohasi. — Sonli xarakteristika sohasi. — Seriyalar sohasi. — Eslatmalar sohasi. Xalqaro standart kitob raqami, bahosi va adadi sohasi.

Har bir soha boshqasidan nuqta va chiziqcha bilan ajratiladi. Har bir element ma’lum bir ma’noga ega bo‘lgan bibliografik belgi bilan ajratiladi va ular matnni tushunishga, bibliografik axborotni tayyorlashni avtomatlashgan holda olib borishga yordam beradi. Sohalar va elementlar uchun quyidagi belgilar qo‘llaniladi:

(.-) nuqta va chiziqcha; (.) nuqta; (,) vergul; (:) ikki nuqta; (;) nuqtali vergul; (/) qiyshiq chiziq; (//) ikkita qiyshiq chiziq; (()) dumaloq qavs; ([]) kvadrat qavs; (+) qo‘shuv; (=) barobar.

Bibliografik ma’lumotlar nashrda qanday berilgan bo‘lsa, shundayligicha olinadi. Qo‘shimcha ma’lumotlar kutubxona kataloglaridan, ma’lumotnomalaridan, nashrlardan, bibliografik ko‘rsatkichlardan olinadi. Bibliografik ma’lumotlar uchun muqova, sarvaraq, avantitul, titul varag‘i orqasi, asar matni xizmat qiladi.

Monografik bibliografik tavsif namunasi quyidagicha (majburiy elementlar qora rangda berilgan).

Tavsif boshi.

Sarlavhalar va javobgarlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar sohasi:

Asosiy sarlavha;

(=) parallel sarlavha; (:) sarlavhaga taalluqli ma’lumot;

Javobgarlik haqidagi ma’lumotlar;

(/) dastlabki ma’lumotlar; (;) keyingi boshqa ma’lumotlar

Nashr sohasi:

Nashr haqidagi ma’lumot;

Shu nashrga taalluqli javobgarlik haqidagi ma’lumotlar;

(/) dastlabki ma’lumot; (;) keyingi ma’lumot; (,) nashr haqidagi qo‘shimcha ma’lumot.

Chiqish ma’lumotlari sohasi:

Nashr joyi;

Birinchi nashr joyi;

(;) keyingi nashr joyi; (:) nashriyot yoki nashr etuvchi tashkilot; (,) nashr yili; () nashr joyi;

Birinchi nashr joyi;

(,) keyingi nashr joyi; (:) bosmaxona; (,) nashr yili.

Sonli xarakteristika sohasi:

Hajmi; (:) illustratsiyasi; (;) o'chovi; (+) ilovali hujjat.

Seriylar sohasi:

(-) serianing asosiy sarlavhasi; (=) serianing parallel sarlavhasi; (:) seriya sarlavhasiga taalluqli ma'lumot;

Seriyaga taalluqli javobgarlik haqidagi ma'lumotlar;

(/) dastlabki ma'lumotlar; (;) keyingi ma'lumotlar;

Serianing xalqaro standart raqami, ISSN;

(;) serianing chiqish nomeri; (.) seriya osti asosiy sarlavhasi;

(=) seriya osti parallel sarlavhasi;

Seriya osti sarlavhasiga taalluqli ma'lumotlar;

Seriya osti seriyasiga taalluqli javobgarlik haqidagi ma'lumotlar;

(/) dastlabki ma'lumotlar;

Keyingi ma'lumotlar;

(-) seriya osti ISSN i; (;) [seriya osti chiqish nomeri](#); Eslatmalar sohasi:

Xalqaro standart kitob nomeri ISBN, bahosi, adadi.

ISBN

(-) bahosi; (,) adadi.

Monografik bibliografik tavsif uchun namuna:

Begmatov X. Devona Mashrab: Roman.—T.: „Sharq“ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2005.

— 272 b.

Analitik tavsifni tuzish

Analitik bibliografik tavsif tuzishda belgilangan tavsif qoidasiga va tegishli belgilarga amal qilinadi: nashr manbasidan avval ikkita qiyshiq chiziq, eslatmalar sohasidan avval nuqta va chiziq qo'yiladi.

Analitik bibliografik tavsif uchun qism yoki bobga berilgan titul varag'idagi ma'lumotlar, mundarija, matnning so'ngi sarvarag'ida berilgan mualliflar, javobgar shaxslar, tashkilot va muassasalar, chiqish ma'lumotlari haqidagi ma'lumotlar olinadi.

Eslatmalar sohasida mustaqil sarlavhaga ega bo'lmagan bob, qism haqidagi, hujjatning muallifi, sarlavhasi, bibliografiyasi haqidagi ma'lumotlar beriladi.

Analitik bibliografik tavsif ko'rinishi:

Hujjat qismi haqida // Manba haqidagi ma'lumot. — Eslatmalar.

Analitik bibliografik tavsif uchun namunalar:

Hasanova Sh. Qiz bola hayosi bilan go'zal // Oila vajamiyat.—2006. 6—12- iyul. ¹ 27.- 5-b.

Vohidov E. O'zbekim: (qasida) // Vohidov E. O'zbekim: She'rlar.—Toshkent, 2005. 41—44-b. O'smirlar kutubxonasi.

Gazetadan olingan hujjatga analitik tavsif berishda nashr manbasi, nashr yili, sanasi ko'rsatiladi, jurnaldan yoki davomli nashrdan olingan hujjat uchun tavsifda nashr manbasi, nashr yili, chiqish tartib raqami va qaysi sahifalarda bosilgani aks ettiriladi. Ularning hammasi nuqta va chiziq bilan ajratiladi. Agar hujjat bir qancha sonlarda e'lon qilingan bo'lsa, manbaning nashr yili va tartib raqami nuqta va vergul (;) bilan ajratiladi. To'la asarlar to'plamlari yoki tanlangan asarlardan olingan hujjatlarni tavsiflashda muallif bitta bo'lsa, ikkinchi qismda manbadan oldin muallif ko'rsatilmaydi. Aks holda ko'rsatiladi. Taqrizlar va referatlar berilgan hujjatlarni tavsiflashda asosiy nashr haqidagi ma'lumotdan keyin yangi qatordan „Taqriz“ yoki „Ref.“ deb ko'rsatiladi va unga analitik tavsif beriladi. Agar taqriz yoki referat sarlavhasiz bo'lsa, uning sarlavhasi bibliograf tomonidan qo'yiladi va kvadrat qavsga olinadi.

Annotatsiyalash. Annotatsiyadagi elementlar to'plami bibliografik tavsifning to'laligiga, bibliografik axborotning qay darajada tayyorlanganligiga va annotatsyaning turiga bog'liq. Ma'lumotnomasi annotatsiyasida tavsifdan tushib qolgan sarlavhani aniqlovchi elementlar, faktik yoki qo'shimcha, hujjatning ahamiyati va mazmuni, shakli va janri, tuzilishi va boshqa xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Tavsiya annotatsiyasida elementlarning har biriga

vazifasiga ko‘ra tushuntirish beriladi. Muallif haqidagi ma’lumotda hayoti va ijodining asosiy sanalari, u yashagan davrga qisqa ta’rif, kasbi, mashhur asarlari, yozilish tarixi, joyi, sabablari, uning nashr etilishi, manbalari haqida ma’lumot beriladi. Asarning ilmiy va badiiy qimmatiga ta’rif berayotganda uning ijtimoiy ahamiyati, unga bag‘ishlangan taqriz va referatlarga yo‘llanma, fan va madaniyat arboblarining unga bergen bahosi eslatiladi. Annotatsiyaning asosiy elementi uning mazmuni haqidagi ma’lumotdir. Annotatsiyada muallif e’tiboridagi sarlavha, mavzu, asosiy masalalar yoritiladi, aks ettirilgan asosiy voqeа va masalalarga o‘rin beriladi, asarning asosiy ahamiyatli xususiyatlari, shu mavzudagi boshqa asarlardan farqi haqida aytildi. O‘quv, ma’lumotnama, ilmiy-ommabop nashrlar annotatsiyasida bo‘limlar mazmunini to‘la bermasdan, shunchaki nomlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Materialni berishda uning qay darajada izohlanganini, qisqa yoki to‘la, ommabop yoki ilmiy tilda, jonli, qiziqarli yoki, aksincha, quruq berilganini ko‘rsatish lozim, shuningdek, badiiy uslubi ham ko‘rsatiladi. Kitobxonlik guruhiga ko‘ra maqsadini ko‘rsatishda asarning ilmiy, o‘quv, ishlab-chiqarish faoliyatidagi va mustaqil bilim olishdagi o‘rni ko‘rsatiladi. Badiiy-poligrafik va tahririy-nashriy bezatilishi haqidagi ma’lumot illustratsiyalar soni, ularning mazmuni, ahamiyati, chizmalar, badiiy bezaklardan iborat. Bundan tashqari, annotatsiyada ma’lumot-qidiruv apparati, kitob ichi bibliografiyalari haqida ham axborot berish lozim.

Annotatsiyalash mas’uliyatli jarayon bo‘lib, quyidagicha bosqichma-bosqich olib boriladi:

1. Asar matnini tahlil qilish;
2. Qo‘srimcha manbalarni o‘rganish;
3. Asar mohiyatini ta’riflovchi ma’lumotlarni to‘plash;
4. Annotatsiyani badiiy tahrir qilish va rasmiylashtirish.

Asar matnini tahlil qilish. Asar turi (alohida, to‘plam, ko‘p jildli nashrning bir qismi, ruknli nashrning qismi) aniqlanadi. qaysi masala, muammo, mavzu yoki bilim sohasiga bag‘ishlanganligi ko‘rsatiladi. Nashr tuzilishi va materialning guruhanishiga e’tibor qaratiladi. Materialning qay usulda berilishini yoki izohlanishini aniqlash kitobxonlar guruhini aniqlashga yordam beradi. Tahlilda so‘zboshi, kirish so‘zi, eslatmalardan, qo‘srimcha tanqidiy materiallardan foydalaniladi.

Qo‘srimcha manbalarni o‘rganish. Mavzuga oid asarlar, taqrizlar, tanqidiy maqolalar, biografik materiallar, fan va madaniyat tarixiga oid asarlar tegishli ma’lumotnama-nashrlar va bibliografik qo‘llanmalar yordamida topiladi va o‘rganiladi.

Ma’lumotlarni to‘plash. Asarlarga annotatsiya berishda muallif haqida avtobiografik ma’lumotlar, asarning hozirgi davr uchun ilmiy va badiiy qimmati haqida ma’lumot beriladi. Zamonaviy asarlarga annotatsiya berishda, unga haqqoniy va obyektiv baho beriladi, muallifining shaxsiy tasavvuri yoki taassurotiga suyanib qolish kerak emas. Ba’zida muallif fikri, ba’zi annotatsiyalarda tanqidchi fikri, voqeа yoki hodisa ishtiroychisi, mualliflar xotirasini keltiriladi.

Adabiy tahrir yoki annotatsiyani rasmiylashtirishda eng asosiy ma’lumotni ajratib olish zarur. Kitobxon e’tiborini jalb etish uchun, tavsija annotatsiyasida eng qiziq faktlar haqida axborot berish kerak. „Kitob juda qiziq...“ yoki „Kitob qiziqarli hikoya qiladi...“ kabi fikrlardan qochish, bibliografik tavsifdagi ma’lumotlarni takrorlashdan tiyilish lozim.

Referatlash birinchi darajali hujjatdagi axborotni analitiksintetik tahlil qilishdir. Hujjatdagi eng zarur faktlarni —asosiy holat, faktik ma’lumotlar, natija va xulosalarni ajratib olish kerak bo‘ladi. Referat matni o‘zining aniqligi, to‘g‘riligi, mantiqiyligi bilan ajralib turadi, unda ikkinchi darajali axborot — tanqid, isbot, dalil, misollar bo‘lishi mumkin emas. Referatning tuzilishi. Unda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

Agar sarlavha aniq berilmagan bo‘lsa, mavzusi, ishningmaqsadi ko‘rsatiladi.
Ishni o‘tkazishning usuli va metodologiyasi.
Ishning natijasi (aniq va axborotlashgan ma’lumot beriladi, yangi natijalar, uning ahamiyati, muhim kashfiyotlar va ixtirolar beriladi).
Natjalardan foydalanish sohasi.

Xulosalar.

Qo'shimcha axborot (tashkilot nomi, birinchidara jali hujjatmuallifi, muallif haqida ma'lumotlar, avval nashr qilingan asarlariga yo'llanma) beriladi.

Referatlash quyidagi bosqichlardan iborat:

Tanishish uchun o'qib chiqish, hujjatning dastlabki tahlili.

Diqqat bilan o'qish, chuqur tahlil.

Referat turini aniqlash.

Referat tuzilishini aniqlash.

Axborotni sintez qilish.

Referatni belgilangan qoidaga ko'ra rasmiylashtirish.

Referatlash metodikasi o'ziga xos, unda markerlar — hujjat mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi so'zlar, so'z birikmalari, indikatorlar — hujjatda muallif fikrining rivojlanishini, ketmasetligini ko'rsatuvchi keng qo'llaniladigan so'z birikmalari, hujjatni bosqichma-bosqich tahlil qilishning reja-maketi, har qanday bilim sohasiga oid adabiyotlarni referatlash uchun zarur universal va hujjatning ixtisoslashgan xususiyatiga asoslangan referatlash va hujjat mazmunini sharhlashning o'ziga xos usulidan foydalaniladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir axborot-kutubxonasi resursi haqida iste'molchilarga, talabgorlarga axborot berish vazifasini bajarayotgan bibliograf har bir bibliografik elementlarni mukammal bilishi, uni o'z o'rnida ishlata olishi zarur.

Nazorat savollari.

1. Referat tuzilishini aniqlash deganda nimani tushunasiz?
2. Axborot deganda nimani tushunasiz?
3. Bibliografik faoliyat deganda nimani tushunasiz?
4. Bibliografik hujjatlar deganda nimani tushunasiz?

17-mavzu:Bibliografiyaning obyektlari.

Reja:

1. Bibliografik faoliyatning natijasi sifatida hujjatlar haqida bibliografik axborot berishning mohiyati.
2. Bibliografik hujjatlar va ularning turlari,
3. Davomli va vaqtli matbuot nashrlari.
4. Mamlakatimizdagi yirik nashriyotlar haqida axborot berish.

Tayanch iboralar:

Bibliografik faoliyatning natijasi sifatida hujjatlar haqida bibliografik axborot berishning mohiyati. Bibliografik hujjatlar va ularning turlari, Davomli va vaqtli matbuot nashrlari. Mamlakatimizdagi yirik nashriyotlar haqida axborot berish.

Bibliografik faoliyatning natijasi — hujjatlar haqidagi ma'lumotlar yig'indisi — bibliografik axborot deyiladi. Bibliografiyaning asosiy obyekti hujjatdir. Hujjatlardagi asosiy xususiyat unda berilayotgan axborotning ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligida, bu uning yaratilayotgan tarixiy davr, shart-sharoit bilan uzviy bog'liqligida ko'rindi. 1964- yil „hujjat“ so'zi axborotning moddiy tashuvchisi sifatida belgilab berildi. Hozirgi paytda „hujjat“ deganda axborot bilan bog'liq, kishilar tomonidan ularni toplash, foydalanish, uzatish, saqlash va hisobga olish bilan bog'liq moddiy obyekt tushuniladi. „Hujjat“ so'zi ahamiyatiga ko'ra keng tushuncha. Hujjatlarda real hayot voqeiplari, faktlari va barcha ma'lumotlar o'z aksini topadi, hujjatda u yaratilayotgan davrning ma'lum bir qirrasi haqidagi axborot to'planadi. „Hujjat“ termini qog'oz, kinolenta, turli xil ko'rinishdagi tasmalar, elektron disklar ko'rinishidagi axborot tashuvchi materialni anglatadi. Davr o'tishi bilan, taraqqiyot natijasida yangi-yangi axborot eltuvchilar qo'shilib boraveradi. Har bir axborot eltuvchi yoki axborot resurslari o'ziga xos xarakterga va 27 xususiyatga ega va u axborotni tayyorlashda hisobga olinadi. Shunga ko'ra belgilari, ahamiyati, mazmuni va shakliga ko'ra turlanadi. Axborot iste'molchisi — inson. Uning maqsadi mustaqil bilim olish, o'quv

malakasini oshirish, ilmiy bilim olish va ilmiy salohiyatini oshirish, ishlab chiqarish malakasini oshirish va boshqalar. Yuqori darajada axborot-kutubxonasi va bibliografik xizmat ko'rsatish uchun kitobxonlar ilmiy asoslangan holda klassifikatsiya qilinishi lozim. Klassifikatsiya asosiga insonning professional ishlab chiqarish faoliyati, egallab turgan lavozimi, ma'lumot darajasi, yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, o'qish madaniyati darajasi, bibliografik qo'llanmalardan foydalana olish qobiliyati, ruhiy va boshqa xususiyatlari olinadi. Chunki inson — kitobxon ham bibliografiyaning obyektidir. Hujjat va axborot iste'molchisi mazmun mohiyatiga ko'ra matbuot asari (kitob, nashr) va kitobxon (bibliografik axborot iste'molchisi) tushunchalaridan farqlanadi. Ilmiy axborot faoliyati faqatgina matbuot asari bilan emas, balki barcha ko'rinishdagi axborot resurslari (elektron resurslar) bilan bog'liq. Bibliografiya esa, matbuot asari (kitob, gazeta, jurnal) bilan ishlaydi. Kitob, gazeta va jurnallar tarixan insoniyat bilimining manbayi, uning bilimlarini aks ettiruvchi, to'plovchi va saqlovchi vosita hamda inson bilimini oshirish va ruhiy ta'sir vositasi bo'lib kelgan. Kitobning o'mini hech narsa bosa olmaydi. Ammo keyingi paytda boshqa axborot tashuvchi resurslar ham bibliografik faoliyat doirasiga singib bormoqda. Demak, kitob-kitobxon tizimi ham bibliografiyaning obyektidir. Bu keyingi paytda hujjat-axborot iste'molchisi tizimi bilan boyidi. Bosma mahsulotlarni klassifikatsiya qilish Nashrlar qurilishiga ko'ra kitob, jurnal, gazeta, varaqaga, belgisiga ko'ra matnli, notali, kartografik va izonashrga bo'linadi. Eng muhim belgisi nashrning davomiyligi yoki chiqishining xarakteridir. Bunga ko'ra nodavriy (bir martalik), vaqtli va davomli nashrga bo'linadi. Bir marta nashr etilgan asar nodavriy deyiladi, zarur bo'lgan holda qayta nashr etilishi mumkin, bunda, albatta, qayta nashr etilgani haqidagi ma'lumot ko'rsatiladi. Qayta nashrda u muallif tomonidan to'Idirilishi, qisqartirilishi, tuzatilishi, o'zgartirishlar kiritilishi mumkin va bu, albatta, ko'rsatiladi. Bunga kitob, risola, varaqalar kiradi. Kitob — 48 sahifadan ortiq 28 bo'lgan matnli nashr. Risola esa 48 sahifagacha bo'lgan matnli nashr. Varaqalar 1 sahifadan 4 sahifagacha hajmda bo'ladi. Vaqtli bo'lmagan nashr bir jildlik yoki bir necha jildlik bo'ladi. Ko'p jildlik nashr bir maqsadga, bir mavzuga yoki bir yo'nalishga, bir xil poligrafik bezatilishga ega bo'lgan bir necha kitobdan iborat bo'ladi. Vaqtli nashrlar — gazeta, jurnal, to'plam va bulletenlar bo'lib, ularning xususiyati nashrdan chiqishda ma'lum bir tartibda ketma-ketlikka egaligidir. „Periodika“ — vaqtli so'zi grekchadan olingan bo'lib, yana boshlangan, qaytayotgan degan ma'noni anglatadi. Davomli nashrlar — to'plangan materialning hajmiga ko'ra muntazam bo'lmagan tartib raqamiga ega bo'ladi. Unda biror- bir tashkilot yoki muassasaning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga oid ma'ruzalar, xabarlar, maqola va boshqa materiallar beriladi. Davomli nashrlar, asosan, „Ilmiy ishlar“, „Ishlar“, „Ilmiy xabarlar“, „Xabarlar“ kabi umumiy nomlar bilan chiqariladi. Har biri alohida tartib raqamiga ega bo'ladi. Masalan, Madaniyat instituti ilmiy ishlar to'plami har yili nashr etiladi va ular soni 30 taga yetdi. Davriy nashrlar ma'lum bir davrda chiqish raqami bilan chiqariladi. Ana shunday nashrlardan biri — „Qizil kitob“ yo'qolib borayotgan yoki yo'qolish xavfida bo'lgan noyob o'simlik va hayvon turlarini qayd etib boruvchi va ular haqida ma'lumot beruvchi ma'lumotnomasi xarakteridagi davlat hujjati. Unda avval o'simlik yoki hayvon haqida ma'lumot beriladi, yo'qolib borishiga sabab va omillar haqida, yo'qolishining oldini olish uchun tavsiyalar beriladi. 1948- yil tashkil topgan Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi kamyob va yo'qolib ketish xavfida bo'lgan o'simlik va hayvon turlarining ro'yxatini tuzish g'oyasini bajarishga kirishdi. Turlarni saqlab qolish bo'yicha maxsus komissiya tuzilib, 1966- yildan tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda Xalqaro qizil kitobning dunyo va alohida mintaqalar florasiga bag'ishlangan nashrlari bosila boshlandi. O'zbekistonning noyob o'simlik va hayvonlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar 1974- yil ta'sis etilgan qizil kitobda berila boshlandi. O'zbekistonning „Qizil kitob“i 1978- yili ta'sis etildi. Birinchi marta O'zbekiston „Qizil kitob“ining faunaga bag'ishlangan qismi 1983-yil nashrdan chiqdi. Unga umurtqali hayvonlar — baliqlar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilarining 63 ta turi kiritilgan. 1984- yili ilk marta o'simliklar olamining kamyob, yo'qolib ketayotgan 163 turi haqida 29 mukammal ma'lumotlar berildi. Kitobga kiritiladigan o'simlik va hayvon turlari Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi taklif etgan tasnifga ko'ra 4 ta guruhga ajratiladi: 1. Yo'qolgan yoki yo'qolish arafasida turgan jiddiy muhofaza talab etuvchi turlar; 2. Yo'qolib yoki

kun sayin soni kamayib borayotgan, maxsus muhofazaga muhtoj turlar; 3. Kamyob, bevosita yo‘qolish xavfi bo‘lmasa-da, kichik maydonlarda kamdan-kam uchraydigan muhofazaga muhtoj turlar; 4. Muayyan vaqt davomida soni va tarqalgan maydonlari tabiiy sababga ko‘ra yoki inson ta’sirida qisqarib borayotganini nazorat qilib turishni talab qiladigan turlar. 1998- yilda O‘zbekiston florasining yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan 301 ta turining hozirgi holatini tavsiflaydigan nashri qayta bosmadan chiqqan. 2003- yildan keyin O‘zbekiston faunasi turlari maqomini baholashga imkon beruvchi ma’lumotlar to‘planib, yangi soni nashrdan chiqarildi. So‘nggi nashrda sut emizuvchilarning 24, qushlarning 51, sudralib yuruvchilarning 16, baliqlarning 18, halqali chuvalchanglarning 3, moluskalarning 15, bo‘g‘imoyoqlilarning 62 turi va kenja turi kiritilgan. O‘zbekiston faunasi va florasining ba’zi turlari Xalqaro qizil kitobga ham kiritilgan. Unda ajratilgan alohida sahifalarda ularning o‘zbekcha, ruscha, lotincha ilmiy nomlari, ularning sistematik o‘rni, qisqacha morfologik tavsifi, tarqalishi, yashash muhiti, tabiatdagi soni, ko‘payishi, sonining o‘zgarish sabablari, muhofaza qilish choralar va boshqalar bayon etilgan. O‘simplik yoki hayvon turini qizil kitobga kiritishni tavsija etish huquqiga muassasalar, davlat va jamoat tashkilotlari, ayrim olimlar ega. Agar muhofaza qilish natijasida yo‘qolib ketish xavfining oldi olingen bo‘lsa va qayta bunday muammo sodir bo‘lmasa, ular qizil kitobdan chiqariladi. Unga kiritilgan turlar davlat qonuni bilan himoya qilinadi va uni buzgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Nashrlarning yana bir turi ruknli nashrlar bo‘lib, ular umumiy mazmunga, yo‘nalishga, kitobxonlar guruhiga, maqsadga ega va umumiy rukn nomi bilan chiqariladi. Ammo har biri alohida muallif, alohida nom, chiqish ma’lumotlariga ega bo‘ladi. Masalan, „XX asr o‘zbek romani“ rukni ostida A. Qodiriyning „O’tkan kunlar“, „Mehrobdan chayon“, A. Qahhorning „Sarob“, „Qo‘shchinor chiroqlari“, Sh. Rashidovning 30 „G‘oliblar“, Cho‘lponning „Kecha va kunduz“, Oybekning „Navoiy“ va boshqa romanlar nashr etildi. Har bir nashr o‘z kitobxoniga, maqsadiga ega bo‘ladi, aniq masala yoki muammoni hal etishga yordam beradi, ilmiy tadqiqotlar natijasi haqida, davrning ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayoti, ishlab chiqarish masalalari, kashfiyotlar, ixtiolar, yangiliklar to‘g‘risida axborot beradi. Maqsadiga ko‘ra nashr hajmi, xarakteri, tuzilishi, nashrning bezatilishi belgilanadi. Nodavriy nashrlarning turlanishi Bu nashrlar maqsadiga, unda berilayotgan axborotning xarakteriga ko‘ra rasmiy, ilmiy, ilmiy-ommabop, o‘quv, kasbiy ishlab chiqarish va ma’lumotnomaga nashrlariga ajratiladi. Memuar va kundalik nashrlari alohida guruhga kiritiladi. Rasmiy nashrlar — davlat organlari, hukumat tashkilotlari nomidan chiqadigan qonuniy, me’yoriy va direktiv hujjatlar. Ularning mazmuni davlat organi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi axborotlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotlari kabi nom bilan chiqadi. Ilmiy nashrlar — fan, texnika, madaniyatning turli sohalaridagi ilmiy-tadqiqot ishlari natijasini aks ettiruvchi materiallardir. Bunday nashrlar ilmiy-texnik taraqqiyot ko‘rsatkichlari haqidagi, mutaxassislar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot ishlari haqidagi axborot materiallardan iborat, tarkibiga, mazmuni, xarakteri, ahamiyatiga ko‘ra quyidagi turdagি ilmiy nashrlar chiqariladi: fan arboblari asarlari; ko‘p jildda nashr etiladigan fan tarixiga oid asarlar; dolzarb mavzulardagi ilmiy asarlar to‘plamlari; monografiyalar; ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, kongresslar materiallari va boshqalar. Ilmiy-ommabop nashrlar — fan, texnika, madaniyat sohalaridagi yutuqlarni, yangiliklarni mutaxassislardan boshqa keng kitobxonlar ommasi tushunadigan tilda va uslubda bayon etgan asarlardan iborat. Ular juda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bu adabiyotlar tufayli kitobxonlar o‘zlarining bilim saviyasini oshirib boradilar, hozirgi zamon fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo‘ladilar, mustaqil bilim olish ko‘nikmasini egallaydilar. Hozirgi paytda tibbiyotga, tabiiy-ilmiy bilimlarga, mamlakatimiz tarixiga, siyosiy muammolarga, ma’naviyatga oid ilmiy-ommabop adabiyotlar, biografik materiallar nashr etish kengaygan. O‘quv nashrlari fanning, amaliy faoliyat sohasining ma’lum bir tizimda aks etgan axborotini o‘z ichiga 31 oladi. O‘quv nashrlariga o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ko‘rgazmali materiallar kiradi. O‘quv nashrlari mazmuniga ko‘ra sohali yoki ixtisoslashgan adabiyotdir. Ular maktab, kollejlitsey, oliy o‘quv yurtlarining o‘quvchilari va talabalariga, malaka oshirish kurslarining tinglovchilariga va o‘qituvchilarga mo‘ljallanadi. Kasbga va ishlab chiqarishga oid adabiyotlar

— xalq xo‘jaligining turli sohasidagi ishlab chiqarish texnologiyasi, texnikasi va uni tashkil etishga bag‘ishlangan adabiyotlardir. Kitobxonlari oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli ishlab chiqarish mutaxassislari — muhandislar, agronomlar, texniklar. Ular uchun mo‘ljallangan adabiyotlar ilmiy ishlab chiqarish adabiyotlari deyiladi. Ishlab chiqarishdan tashqari o‘qituvchilar, tibbiyat xodimlari, iqtisodchilar, yuristlar, kutubxonachi-bibliograflar uchun kasbiy adabiyotlar — amaliy qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar, xatlar, turli mavzularga oid tavsiya adabiyotlari nashr etiladi. Ommaviy ishlab chiqarishga oid adabiyotlar turli kasbdagi ishchilar, mutaxassislar, ustalar, ishlab chiqarish firmalari va fermer rahbarlari uchun mo‘ljallanadi. Ma’lumotnomada nashrlar — zarur axborotni topish uchun qulay bo‘lgan tartibda joylashtirilgan ilmiy va amaliy xarakterdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumotnomada nashrlar, qomusnomalar, qomusiy lug‘atlar, lug‘atlar, spravochniklar, taqvim (kalendar)lar, yo‘l ko‘rsatkichlar va boshqa nashrlarni ko‘rsatish mumkin. Qomusnomalar (ensiklopediyalar) bir yoki bir necha jiddlik bo‘lib, bir yoki bir necha bilim sohasiga oid universal xarakterdagi nazariy va amaliy bilimlarning umumlashgan ko‘rinishidagi qisqa maqolalardan tashkil topadi. Antik davrda u erkin san‘at ma’nosida, grammatika, ritorika, dialektika, mantiq, geometriya, arifmetika, musiqa va astronomiya fanlarini anglatgan. XVI asrda G‘arbiy Yevropada turli bilimlar to‘plami ma’nosida ishlatilgan va bilimlar tasnifi ma’nosini ham anglatgan. Hozir bu so‘z fanning barcha sohalariga oid muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan nashrni anglatadi. Qadimgi Misrda qomusiy lug‘atlar miloddan avvalgi ikki minginchi yillarning ikkinchi choragidan tuzila boshlangan. Yunonistonda Aristotel, Demokrit asarlari ensiklopedik xarakterda bo‘lgan. O‘rta Osiyoda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino asarlari ham ensiklopedik mazmunga ega edi. Forobiyning „Fanlar tasnifi“, Beruniyning „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“, Ibn Sinoning „Donishnomasi“, Yusuf Xos Hojibning „Qutadg‘u 32 bilik“, Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘atit turk“, Navoiyning „Majolis un-nafois“, Boburning „Boburnoma“si ham ensiklopedik xarakterdagi asarlardir. XVII asr oxiri XVIII asr boshlaridagi V. Beylning tarixiy va tanqidiy lug‘ati katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1704- yili J. Jaris „Texnik leksikon yoki umumiylar ingliz san‘ati va fan lug‘ati“ning birinchi nashrini chop ettiradi. 1751 — 1780- yillarda Fransiya tarixida katta ijtimoiy-siyosiy voqeа sifatida e’tirof etilgan 35 jilddan iborat „Fan, san‘at, kasb va hunarlarning izohli lug‘ati“ nomli ensiklopediya nashr etiladi. Uni nashrga tayyorlashda D. Didro, nashr etishda Sh. L. Monteske, Valter, J. J. Russo, J. D. Alamberlar ishtirot etishdi. Uning asosiy nashri 17 jiddan iborat matn va 11 jiddan iborat gravner materiallaridan tashkil topgan. 1776 — 1777-yillarda 5 ta jildi Didro va Alambersiz nashrdan chiqqan. Nashr feodalizm, absolutizm va klarikalizmga qarshi g‘oyaviy kurashda muhim rol o‘ynagan. Unda texnika masalalariga, ilmiy ixtiro va kashfiyotlarning sanoatda qo‘llanilishiga, ta’lim va tarbiyaga e’tibor berilgan. Dastlab nashr 30 ming nusxada nashr etilgan va tarqatilgan. U bir qancha xorijiy tillarga ham tarjima qilinib, nashr etiladi va kelgusida ko‘plab universal va soha ensiklopediyalarining yaratilishiga zamin hozirladi. 1768 — 1771- yillarda shotland matbaachisi U. Smelli 3 jiddlik Britaniya ensiklopediyasini nashrdan chiqardi. Bir necha marta qayta-qayta nashr etilgan bu asar Angliyaning eng yirik milliy ensiklopediyasi bo‘lib qoldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Angliya, Fransiya, AQSH, Germaniya, Italiya, Ispaniyada ham universal ensiklopediyalar chiqarildi. XX asr boshlarida Rossiyada turli fan sohalariga oid ensiklopediyalar nashr etiladi. 1950- yillarga kelib sobiq ittifoqdosh respublikalarda ham bu ish boshlandi. 1965-yil O‘zbekiston hukumati O‘zFAning „O‘zbek sovet ensiklopediyasi“ni chiqarish tashabbusini ma’qullab, 28-aprelda qaror qabul qildi va Bosh tahrir hay‘ati tasdiqlandi. 1968- yil yanvarda hukumat fan sohalariga oid ensiklopediyalar chiqarish vazifasini yukladi. 1968- yil 15- fevralda Respublika FA Bosh tahririyati ta’sis etilib, unga ilmiytadqiqot instituti maqomi berildi. Bosh tahririyat zimmasiga 14 jiddlik ensiklopediyani tayyorlash va nashr etish uchun 14 ta akademik, 13 ta FAning muxbir a’zosi, 88 ta fan doktori va professor, 539 ta fan nomzodi va boshqalar jalb etildi. Bu nashrga 40 mingdan oshiq atama va maqolalar, 10 ming surat va 800 ta 33 xarita ilova qilindi. 1981- yildan boshlab o‘zbek qomuschilari 2 jiddlik ensiklopedik lug‘at, tibbiyat, pazandachilik, uy-ro‘zg‘or, salomatlik, mehnat huquqi, 2 jiddlik qomusiy lug‘at, 2 jiddlik ruscha-o‘zbekcha lug‘at, o‘zbekcha-ruscha

lug‘at, rus tilida „O‘zbekiston Respublikasi. Paxtachilik“, 2005- yilda 2 jildlik „Odam anatomiyasi“ qomusnomalari nashr etildi. 1996- yil 4- sentabrda Vazirlar Mahkamasи O‘zbekiston Respublikasining ko‘p jildlik Milliy ensiklopediyasini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qildi. 1997- yil 20- martda Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra „O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi“ nomi bilan 12 jilddan iborat nashr, unda ismlar va predmet ko‘rsatkichi berish, ismlar ko‘rsatkichida nomlari uchragan shaxslar haqida, mualliflar haqida qisqa biografik ma’lumotlar, ayrim terminlarga izohlar berish belgilab olindi. Bu qomusning terminologik tarkibini kengaytirdi va axborot qismini boyitdi. Unda qariyb 69 ming maqola berildi, 12 mingdan ortiq surat va bezaklar, 1000 ga yaqin xarita, 150 rangli xarita berildi. 800 dan ziyod mualliflar, taqrizchilar qatnashgan. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti tomonidan chiqarilgan „O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi“ ham universal, ham o‘lkashunoslik xarakterida, „Odam anatomiyasi“ nomli 2 jildlik qomusnomma faqat bilimning bir sohasiga va, albatta, uning tor bir yo‘nalishiga bag‘ishlangan. Materiallar alifbo tartibida joylashtirilgan. Mazmuniga ko‘ra qomusnomalar universal, mavzuli, tarmoq va shaxsga oid bo‘ladi. Lotin yozuvida nashr etilgan bir jildlik „Bolalar ensiklopediyasi“ ham universal xarakterdagi nashr hisoblanadi. Tarmoq qomusnomalari mazmuni va kitobxonlik guruhiga ko‘ra universal xarakterdagi qomusnomalardan farq qilib, fanning bir tarmog‘iga va aniq kitobxonlar guruhiga ega. „Odam anatomiyasi“ qomusnomasi tibbiyotga oid va tibbiyot xodimlariga, talabalarga mo‘ljallangan. O‘lkashunoslik xarakterdagi qomusnomalar ham katta ahamiyatga ega. Ular o‘lkaning tarixi, madaniyati, san’ati, iqtisodi va boshqa sohalarni qamrab oladi, yirik shaharlari, viloyatlari, buyuk va taniqli kishilari haqidagi ma’lumotlarni ham to‘playdi. Milliy ensiklopediya ham universal, ham o‘lkashunoslik xarakterdagi nashrdir. Bundan avval nashr etilgan „O‘zbek sovet ensiklopediyasi“, „Sibir ensiklopediyasi“, „Ural ensiklopediyasi“ kabilarni bunga misol keltirish mumkin. Shaxsga oid ensiklopediyalardan Moskvada nashr etilgan „Lermontov ensiklopediyasi“ni misol 34 qilish mumkin. Bunda Lermontov qalamiga oid va u haqdagi materiallar joy olgan. Uning nomi bilan atalgan joylar haqida ham ma’lumotlar bor. Kutubxona xodimlari, bibliograflar uchun professional bilimlar „Kutubxonachi ma’lumotnomasi“da berilgan. Birinchi marta „Kutubxonachi ma’lumotnomasi“ 1930- yilda nashr etilgan. 1985- yilda Moskvada nashr etilgan „Kutubxonachi ma’lumotnomasi“ birinchi mukammal qo‘llanma bo‘lib, unda katta mutaxassislar jamoasi tomonidan tayyorlangan axborot va tavsiyalar mavjud. Ma’lumotnomma o‘z oldiga kutubxona ishini tashkil etish haqidagi sistemalashtirilgan ma’lumotlar tizimini berishni maqsad qilib qo‘yan. Ma’lumotnomma 15 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, ma’lumotlar mavzular bo‘yicha ichki alifbo tartibida joylashgan. Bo‘limlar so‘ngida tavsiya qilingan adabiyotlar ro‘yxati berilgan. „Kitob savdosi xizmatchilari lug‘atma’lumotnomasi“ Moskvada 1981- yili nashr etilgan. U bibliografik ma’lumotlarga boy bo‘lib, kitob savdosi, bibliografik faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarga mo‘ljallangan. Masalan: 1964-yilgi „O‘zbekistonning yirik kutubxonalari“, 1970- yilgi „O‘zbekistonning texnika kutubxonalari“, 1982- yilgi „Toshkent shahar kutubxonalari“, 2006- yilgi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi ilmiy-uslubiy bo‘limining „O‘zbekiston Respublikasi Oliy o‘quv yurtlari kutubxonalari“ ko‘rsatkichlarida har bir kutubxona haqida axborot, uning tuzilishi, asosiy vazifalari, manzili ko‘rsatilgan. 1958- yili birinchi marta E. I. Shamurinning „Kitobshunoslik atamalari lug‘ati“ nashr etilib, unda 4500 ta kutubxonachilik, kitobshunoslik, bibliografiya ishi, adabiyotshunoslik, poligrafiya, nashriyot ishiga oid tushunchalar izohi berilgan. 1968- yil K. R. Simonning „Bibliografiya: Asosiy tushuncha va atamalar“ izohli lug‘ati, 1976- yil kutubxonachilik ishi sohasidagi terminologik — „Kutubxonachilik terminlari lug‘ati“ nashr etildi. Ushbu lug‘at kutubxona xodimlari, kutubxonashunoslari, oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlarining talaba va o‘quvchilariga mo‘ljallangan. Lug‘atda 500 dan ortiq tushunchalar berilgan: kutubxona, kutubxona ishi, kutubxonashunoslik, kutubxona ishini tashkil etish, kutubxona jamg‘armalari va kataloglari, kitobxonlar bilan ishlash, xizmat ko‘rsatish, kutubxona ishiga rahbarlik qilish, boshqarish kabi masalalar qamrab olingan. Tushunchalar alifbo tartibida joylashtirilgan. Tushunchalar tizimini aks ettirish va 35 lug‘atdan foydalanishni yengillashtirish maqsadida lug‘at uyasini (gnezdo) qidirib topish tizimi qo‘llanilgan. Lug‘at

mavzuli ro‘yxat bilan ta’minlangan. 10 yildan so‘ng lug‘atning to‘ldirilgan, qayta ishlangan 2-nashri „Kutubxona ishi. Terminologik lug‘at“ nomi bilan chiqdi. Bunda leksikografiyaning va terminologiya fanining zamonaviy yutuqlaridan foydalanilgan. Nashrga 200 ta yangi terminlar qo‘shilgan. Lug‘at bibliografik, ilmiy-axborot, nashriyot faoliyatiga oid tushunchalar kiritilishi natijasida kengaygan. Tushunchalarga aniq sharhlar berilgan, so‘zlarning sinonimlari ham keltirilgan. Qidirish tizimi kengaytirilgan, 400 ta nomdan iborat adabiyotlar ro‘yxati berilgan. O‘zbekistonda ham bu sohada ayrim ishlar amalga oshirilgan. 1970- yili A. Qosimova, Y. Qodirovalarning „Kutubxona ishi va bibliografiya bo‘yicha qisqacha izohli terminlar lug‘ati“ nomli kichik hajmda bo‘lsa-da, birinchi ishi nashrdan chiqdi. Unda 400 ga yaqin so‘zlar izohli berilgan. 1983- yili TDMI jamoatchiligi H. Abdurahmonov, N. Mahmudov, R. Shukurovlar muallifligida „Madaniyat xodimlari uchun qisqa izohli lug‘at“, 1990- yil N. Mahmudov, B. Karimov, I. Yo‘ldoshev, N. Abdug‘affarov tuzuvchiligidagi „Madaniy-ma’naviy ishlar“ nomi bilan lug‘at nashr etildi. Bu lug‘atlarda kutubxonachilik va bibliografik atamalar uncha ko‘p berilmagan, madaniyat, ma’rifat sohasidagi atamalarga ko‘proq o‘rin berilgan. Aynan mana shu ishlar keyinchalik shu sohada yirik ilmiy-tadqiqot ishining yuzaga chiqishiga sabab bo‘ldi. 1987-yili I. Yo‘ldoshev „O‘zbek tilining kutubxonachilikbibliografik atamashunosligi“ mavzusida nomzodlik, 2004- yili „O‘zbek kitobatchiligi terminologiyasining shakllanishi“ mavzusida doktorlik ilmiy ishini himoya qildi. Respublikamizda kutubxonachilik ishi va bibliografiya sohasida davlat standartlari ishlab chiqilmagan. Shu munosabat bilan TDMI o‘qituvchilar Z. Ne’matova, Sh. Shamsiyev, E. Islomovlar tomonidan 2000- yilda „Kutubxonachilik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati“ nashr etildi. Uni yaratishda rus tilida avval mavjud bo‘lgan lug‘atlar tanqidiy o‘rganib chiqilgan va foydalanilgan. Ba’zi tushunchalar xalqaro so‘z bo‘lganligi va shu sohada keng qo‘llanilayotgani uchun o‘z holicha qoldirilgan. Masalan, katalog, kartoteka, indeks kabi. Ko‘pgina so‘zlar imkon qadar o‘zbekchalashtirilgan. Masalan, „Psixologiya“ so‘zi „Kitobxon ruhiyati“ shaklida berilgan. Ayrim o‘rinlarda atamaning o‘zbekcha nomidan so‘ng qavs ichida ruscha atamasi ham keltirilgan. 36 Kutubxona nafosati (estetikasi), Kutubxona peshqog‘ozi (plakati) kabi. Shaxs biobibliografik ma’lumotnomma xarakteridagi A. Kormilitsinning „ÁèáëèiTâêîâåäü è áèáëèiäpàôû ÓçáâèènTâíà. Î÷åpêè è áïññiéläiéý“ nomli asari 2005-yili Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan nashr etildi. Bu aynan shu sohada yaratilgan birinchi ish sifatida juda katta ahamiyatga ega. Respublikamizda ko‘zga ko‘ringan kitobshunos hamda kutubxonashunos olim Aleksandr Ivanovich Kormilitsinning bu ishida XX asrda va XXI asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan O‘zbekistonning yirik kutubxonashunos va bibliograf olimlari hayoti va ijodi haqida to‘liq axborot beriladi. Ayrim hamkasblarimiz to‘g‘risida matbuotda deyarli ma’lumotlar berilmagan edi. Ish esa ana shunday ma’lumotlarni umumlashtirgan, yangilagan. Dastlab olim kutubxonachilik kasbi, uning tarixi, shakllanishi, bibliograflik kasbi haqida, Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi faoliyati haqida ma’lumotlar bergen. Jami 40 ta kutubxonashunos va bibliograflar haqidagi ma’lumotlar ular ishlagan kutubxonalar bo‘yicha sistemalashtirilgan. Qomusiy lug‘atlar universal va tarmoq xarakterida bo‘ladi. „Falsafa“ qomusiy lug‘ati, „Tarixiy atamalarning izohli lug‘ati“, 2001- yil Moskvada nashr etilgan „Íoçûéäüüé ñeñâäpü“ nomli qomusiy lug‘at tarmoq lug‘atidir. Lug‘atlar — biror-bir tilga oid so‘zlar, so‘z birikmalari, tushunchalar, izohlar, belgilarning ma’lum bir tartibga keltirilgan ko‘rinishi. Ular so‘zlarning izohidan yoki tarjimalardan iborat bo‘ladi. Shunga ko‘ra ular ikki yoki uch tillik lug‘atlar, izohli lug‘atlar, lingvistik, biografik, taxalluslar lug‘atlari deb ajratiladi. Tarjima (ikki yoki uch tillik) lug‘atlari kitobxonlarni til o‘rganishga, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatsa, izohli lug‘atlar tanlangan yo‘nalishda terminlarni, tushunchalarni o‘rgatadi, ularning mazmunini, tarixiy etimologiyasini ochib berishga yordam beradi. 2000- yil nashr etilgan „Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati“ (tuzuvchilar Z. Nigmatova, Sh. M. Shamsiyev, E. G. Islomov) ham aynan mutaxassisligimizga oid so‘zlarning alifbo tartibidagi izohlaridan iborat. „Sotsiologiya“ lug‘ati ham faqat sotsiologiya fani sohasida qo‘llaniladigan tushunchalarning izohini bergen. „Ruscha-o‘zbekcha“, „Inglizcha-ruscha-o‘zbekcha“, „Ruscha-nemischa“, „O‘zbekcha- 37 tojikcha lug‘at“ kabilar so‘zlarni to‘g‘ri

talaffuz qilish va til o'rganish maqsadiga xizmat qiladi. Ma'lumotnomalar — (spravochniklar) turli xil ma'lumotlarni aks ettiradi va mazmuniga, maqsadiga va kitobxonlik guruhi ko'ra ajratiladi. Bilim sohasining turlari bo'yicha ko'plab muammo va masalalarga oid ma'lumotnomalar nashr etiladi. Biografik xarakterda ham spravochniklar mavjud. Turli ishchi mutaxassisliklari bo'yicha ishlab chiqarish masalalariga oid, fan tarmoqlariga oid ma'lumotnomalar ma'lum bir tizimda joylashtirilgan holda nashr etiladi. Kutubxonachi xodimlar uchun nashr etilgan „Kutubxona-bibliografik jadval“ ham (avval ommaviy, bolalar, ilmiy kutubxona xodimlari uchun alohida rus tilida nashr etilgan edi) maxsus ma'lumotnomasi nashr hisoblanadi. Keng kitobxonlar ommasi uchun universal mazmunda yoki amaliy xarakterda ham ma'lumotnomalar nashr etilgan. A. Kormilitsinning „O'zbekistonning mashhur kutubxonashunos va bibliograflari“ nomli biobibliografik xarakterdagi ma'lumotnomasi kutubxona xodimlari, talabalar, professor-o'qituvchilar uchun tayyorlangan. 1996-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tomonidan M. Abdusamatovning „O'zbekiston sharqshunoslari“ nomli biografik ocherklari to'plami nashrdan chiqdi. U respublikamiz sharqshunosligi haqidagi katta ilmiy ishdir. Dastlab Sharqshunoslik instituti tarixi haqida ma'lumot berilgan. Kitobning asosiy qismini tashkil etuvchi biobibliografik ma'lumotlar 4 ta qismdan iborat. 1- qismida sharq fakultetini bitirib, hozirgi kunda O'zFA qoshidagi va qardosh respublikalar akademiyalarida faoliyat yuritayotgan muxbir a'zolar, akademiklar, respublikada xizmat ko'rsatgan fan arboblari ilmiy darajasini olganlar; 2- qismida respublika davlat va jamoat arboblari hamda diplomatik xodimlar; 3- qismida fan doktorlari va professorlar, 4- qismida fan nomzodlari va dotsentlar haqida ma'lumotlar jamlangan. Maqolalar alifbo tartibida berilgan. Maqolada olimning hayoti va faoliyati, ilmiy darajasi, ilmiy unvonlari, xalqaro anjumanlardagi ishtiropi, davlat mukofotlari, davlat va jamoat ishlaridagi xizmatlari, oxirgi ish joyi, lavozimi haqida ma'lumot berilgan. „Olim haqida“ rukni bilan uning hayoti va faoliyati haqida hujjatlar keltirilgan. Bunday biobibliografik ma'lumotnomasi nashrlar o'zbek tilida juda kam. Taqvimlar kitobxonlarni shu yilda yoki yaqin vaqt oralig'ida 38 nishonlanadigan eng muhim voqealar, sanalar, ular tarixi, mazmuni, ahamiyati bilan tanishtiradi. Bunday taqvimlar, asosan, yirik markaziy tashkilotlar tomonidan nashr etiladi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi respublika kutubxonalari uchun har yili keyingi yilda nishonlanishi mo'ljallangan voqealar, sanalar, bayramlar, turli xil tadbirdarning taqvimini tuzadi. Unda tadbirdarning qisqacha tarixi sanalar bo'yicha to'g'ri xronologik tartibda beriladi, ularning mazmuni, shu kun uchun ahamiyati haqida axborot olish mumkin. Yo'l ko'rsatkichlari (ioTââiäèTâëè) muzeylar, ko'rgazma zallari, yirik shaharlar, mashhur kishilar hayoti va ijodi bilan bog'liq tarixiy joylarga mo'ljallangan bo'ladi. Bular mazmunmohiyatiga ko'ra o'quv adabiyotlariga qo'shimcha adabiyot sifatida ahamiyatga ega. Ular ham matnli va ham illustratsiyali bo'lib, kitobxonaga o'sha joy yoki tashkilot haqida to'la ma'lumot berishda qimmatli manba. Nashrlarni matn tarkibi va tuzilishiga ko'ra ham turlarga ajratib o'rganiladi. Ular kichik nashrlar (iîiçäàíèå), to'plamlar, tanlangan asarlar, asarlar to'plamlari. Kichik nashrlar tugallangan yaxlit bir asar bo'lib, eng ko'p tarqalgan va ommaviy nashrdir. To'plamlar bir yo'nalishdagi, bir tizimdagi, bir muallif yoki bir necha muallif ijodiga mansub asarlarning yig'indisi bo'lib, ular rasmiy, ilmiy-axborot nashrlari ham bo'lishi mumkin. To'plamlarni tayyorlashda uning maqsadi, mavzusi, kitobxonlik guruhi, janr, tarixiy-xronologik, geografik, milliy xususiyatlar hisobga olinadi. Ba'zida bir to'plamni tayyorlash uchun bir yo'la bir necha belgiga asoslanish mumkin. Ayniqsa, badiiy asarlarga oid to'plamlarda uchratish mumkin. Masalan, „O'zbek she'riyati antologiyasi“ janr xususiyatiga ko'ra, „Istiqlol umidlari“ mualliflarning yoshi va ijod saviyasiga ko'ra, O'. Hoshimovning „Daftar hoshiyasidagi bitiklar“ ham bir muallif ijodiga oid bo'lib, faqat hikmatli so'zlardan iborat. Tanlangan asarlar bir yoki bir necha jildlik bo'lishi mumkin. Asosan, bir muallif ijodiga oid bo'ladi. Bu to'plam mazmunini bir yoki bir necha yo'nalishdagi eng muhim asarlar tashkil etadi. Masalan, A. Qahhorning 3 jildlik „Tanlangan asarlari“, T. Malikning 3 jildlik „Tanlangan asarlari“, M. Qoriyevning 3 jildlik „Tanlangan asarlari“, Oybekning „Tanlangan asarlari“ va hokazo. 39 Ularda muallifning turli yillarda ma'lum bir yo'nalishda yaratgan asarlari yoki eng sara asarlari jamlanadi. Asarlar to'plami muallifning jami ijodini yoki uning bir qismini

jamlashtiradi. Shunga ko'ra to'la asarlar to'plami, asarlar to'plami, asarlar deb turlanadi va bir yoki bir necha jilddan iborat bo'ladi. To'la asarlar to'plami qoidaga ko'ra muallifining butun ijodini yoki adabiy merosini qamrab oladi. Unda tugallangan asarlari, maqolalari, xatlari, tarjimalari, nashrga tayyorlagan materiallari, qo'lyozmalar, konspektlari, eslatmalari ham beriladi. Bu kitobxonga va tadqiqotchilarga muallif ijodini mukammal o'rganishga, to'la tanishishga yordam beradi. Nodavriy nashrlarning asosiy qismi yordamchi ilmiy-ma'lumot apparati bilan ta'minlanadi. U qanchalik ko'p bo'lsa, foydalanish shunchalik oson bo'ladi. Ilmiy-ma'lumot apparatlari kitobxonga nashr tuzilishi, tarkibi, mazmuni bilan chuqurroq tanishish imkonini beradi. Bular kirish so'zi, so'zboshi, mundarija, so'nggi so'z, izohlar, eslatmalar, sharhlardan iborat. Ilmiy-yordamchi apparatga yordamchi ko'rsatkichlar kiradi. Bular ismlar, xronologik, predmet, geografik ko'rsatkichlardir. Ular ma'lumotlarni tez topishga, qidirishga, mazmunni olib berishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Bibliografik faoliyatning natijasi sifatida hujjatlar haqida bibliografik axborot berishning mohiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Bibliografik hujjatlar va ularning turlari deganda nimani tushunasiz?
3. Davomli va vaqtli matbuot nashrlari deganda nimani tushunasiz?
4. Mamlakatimizdag'i yirik nashriyotlar haqida axborot berish deganda nimani tushunasiz?

18-mavzu: Vaqtli matbuot nashrlarining klassifikatsiyasi.

Reja:

1. Vaqtli matbuot nashrlarining turlari.
2. Hujjat, axborot iste'molchisi, bosma mahsulot, vaqtli matbuot nashri, davomli nashr, rasmiy nashr, ilmiy-ommabop nashr, o'quv nashri, ma'lumotnoma nashrlari.

Tayanch iboralar.

Vaqtli matbuot nashrlarining turlari-hujjat, axborot iste'molchisi, bosma mahsulot, vaqtli matbuot nashri, davomli nashr, rasmiy nashr, ilmiy-ommabop nashr, o'quv nashri, ma'lumotnoma nashrlari.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari ishiga alohida e'tibor bilan qaraladi, chunki ayni shu to'rtinchchi hokimiyat deb yuritiluvchi vositalar ommani dunyo miqyosidagi va mamlakatimiz ichidagi siyosiy ahvol, madaniy-ma'rifiy yangiliklar, voqealar, fan, texnika taraqqiyoti, kashfiyot va ixtiolar bilan tanishtiradi, kishilarni ularda faol ishtirop etishga jalg qiladi, badiiy, estetik didining shakllanishiga yordam beradi. Vaqtli matbuot nashrlari ommaviy axborot vositalari va, umuman, axborot resurslari orasida alohida o'rinn tutadi. Mamlakatimizda 120 dan ortiq nomda o'zbek, qozoq, tojik, rus tillarida gazeta va jurnallar turli yoshdag'i iste'molchilarga mo'ljallanib nashr etiladi. Nashrning har bir chiqishida uning nomi, qachondan boshlab chiqqa boshlagani, sanasi, tartib raqami, ta'sischi tashkilot nomi, muharrir ism-sharifi, bosishga ruxsat etilgan sana, har bir chiqish soni uchun javobgar shaxs, nashrning indeks raqami, 40 tahririyat va bosmaxona nomi, manzili, telefon va faks raqami, bahosi ko'rsatiladi. Gazetalarning chiqish sonlari va vaqt turlicha: haftalik, kunlik, bir haftada bir necha marta chiqadigan gazetalar. Masalan, „Afandi“, „Oila va jamiyat“, „Ma'rifat“, „TàøêáiTñêàý íåääëý“, „Vatanparvar“, „O'zbekiston Adabiyoti va san'ati“, „Darakchi“ gazetalari haftalik, „Toshkent oqshomi“, „Âå÷åpíüé TàøêáiT“, „Xalq so'zi“, „Íäpíäíâ ñëíâî“ gazetalari kunlik. Gazetalar hududiy qamrab olish darajasiga ko'ra respublika, viloyat, shahar yoki tuman gazetalariga, mazmuniga ko'ra universal va ixtisoslashtirilgan gazetalarga ajratiladi. „Ma'rifat“ va „Ó÷èTåëü ÓçáâéèñTaíà“ gazetalari o'qituvchilar uchun mo'ljallangan va ixtisoslashgan. Gazetalar kundalik voqealar, sanalar, muhim yangiliklar haqida axborot beradi, shuning uchun undagi ma'lumotlar tez eskiradi va tezkor tarqatishni talab qiladi. „O'zbekiston ovozi“ gazetasi O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasining ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Haftada 3 marta nashrdan chiqadi, uning rus

tilidagi nashri — „Âfëñ ÓçáâèñTàíà“ haftada bir marta chiqariladi. Gazetaning dastlabki soni 1918- yil 21- iyunda „Ishtirokiyun“ („ÊïïóièñT“) nomi bilan nashrdan chiqqan. 1920- yildan „Qizil bayroq“, 1922- yildan „Turkiston“, 1924- yildan „Qizil O‘zbekiston“, 1964- yildan „Sovet O‘zbekistoni“, 1991- yildan „O‘zbekiston ovozi“ nomi bilan nashr etilmoxda. A. Avloniy, A. Qodiriy, H. Olimjon, G. G‘ulom, A. Qahhor, Oybek, M. Shayxzoda, Zulfiyalar gazeta tahririyatida ishlaganlar. Gazeta hayotimizning barcha sohasiga oid, ichki va tashqi siyosatga oid materiallarni chop etadi. „O‘zbekiston adabiyoti va san’ati“ — O‘zbekiston madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi haftalik ijtimoiy-siyosiy gazeta. U 1956- yil 4- yanvardan „O‘zbekiston madaniyat“ nomi bilan haftada 2 marta chiqqa boshlagan. 1981- yildan 8 sahifada chop etiladi. Sahifalarida adabiyot va san’at masalalari, shunga bog‘liq hayotimizning barcha jabhasi, ma’naviy merosimizga oid tadqiqotlar, adabiy tanqid va adabiyotshunoslik, kitob va kitobshunoslik, nashriyotchilik ishiga oid, ma’naviy ehtiyojga, iymon-e’tiqodga oid, kino san’ati, musiqa, dizaynga oid materiallar ham berib boriladi. „Kitob dunyosi“ — O‘zbekiston respublikasi matbuot va axborot agentligi, Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi 41 tomonidan oyda 1 marta chiqadigan axborot-ma’lumot gazetasi. U 2001- yil 8- dekabrdan nashr etiladi. Jurnallar — universal va ixtisoslashgan mazmunga ega bo‘ladi. Jurnallar kitobxonlar guruhi, maqsadi va boshqa belgilariga ko‘ra turlanadi. Ular ilmiy, kasbiy, ishlab-chiqarish, ilmiy-ommabop, adabiy-badiiy deb ham ajratiladi. Ilmiy jurnallar turli bilim sohasidagi ilmiy ishlari, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari haqidagi asosiy axborot beruvchi manba bo‘lib, mutaxassislar va olimlarga, ilmiy xodimlarga bag‘ishlanadi. „Tafakkur“, „Ijtimoiy fikr“, „Fan va turmush“ jurnali ilmiy jurnallardir. „Fan va turmush“ O‘zFANing ilmiyma’rifiy, ommabop jurnali bo‘lib, turli davrlar vazifasidan kelib chiqqan holda turlicha nomlangan. 1933 — 1935- yillar „Sotsialistik ilm va texnika“, 1939 — 1941- yillarda „Sotsialistik Fan va turmush“ deb nashr etilgan. 1941- yil iyulidan 1957- yil fevraligacha ma’lum bir sabablarga ko‘ra nashr etilmagan. 1957- yildan „Fan va turmush“ deb nashr etiladi. Jurnalga dastlab ko‘zga ko‘ringan olimlar, ijodkorlar, birinchi jurnalistlar, ya’ni Otajon Hoshim, Q. Niyoziy, I. Islomov, I. Mo‘- minov, M. O‘rozboyev, Y. To‘raqulovlar muharrirlik qilganlar. Jurnal rangli illustratsiyalangan holda nashr etiladi. „Ibn Sino“ (Avitsenna) — Ibn Sino Xalqaro jamg‘armasining ilmiy-amaliy jurnali 2000- yildan boshlab Toshkentda bir yilda 4 marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi. Jurnalning vazifikasi — Ibn Sino shaxsiga oid, uning mashaqqatli hayot yo‘li, ilmiyijtimoiy faoliyati, sermazmun va ko‘pqirrali ijodi, sinoshunoslik sohasidagi ishlari, izlanishlar, ilmiy-tadqiqot ishlaring natijalari bilan jurnalxonlarni tanishtirib borish. Jurnal 1000 nusxada nashr etiladi. „O‘zbekiston tarixi“ O‘zbekiston FA Tarix institutining ilmiy-tarixiy jurnali bo‘lib, 1998- yili asos solingan. Uning 1- soni 1999- yil yanvarda chiqdi. Har uch oyda 1 marta rus va o‘zbek tilidagi materiallar nashr etiladi. Jurnal tarixchi mutaxassislar, oly o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, talabalari va O‘zbekiston tarixi bilan qiziquvchi kitobxonlarga mo‘ljallangan. „O‘zbekiston davlatchiligi tarixidan“, „Tarixiy shaxslar“, „Tarixiy atamalar“, „Tarixshunoslik“ kabi ruknlarda ilmiy maqolalar berib boriladi. Kasbiy ishlab chiqarishga oid jurnallar mutaxassis amaliyotchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, shu kasb doirasidagi materiallar haqida axborot beradi. „O‘zbekiston matbuoti“, „Kitob 42 dunyosi“, „Ibn Sino“, „Biblioteka“, „ÄèáèèñTåéñâäääèå“, „Bibliografiya“, „Klub“, „KPR“ kabi jurnallar maxsus jurnallardir. „Inson va qonun“ — O‘zbekiston respublikasining huquqiy, ijtimoiy ommabop jurnali Adliya vazirligi tomonidan 1996- yil yanvardan boshlab nashr etiladi. Avval oyda bir marta, 1998- yil yanvaridan mustaqil haftalik gazeta sifatida nashr etilgan. Asosiy vazifikasi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, aholini O‘zbekiston va jahon qonunchiligidagi o‘zgarishlar bilan tanishtirib, tushuntirib, sharhlab borish, jinoyatchilik ildizlarini ochish va bu ishga keng jamoatchilikni jalb etishdan iborat. „O‘zbekiston matbuoti“ — O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O‘zbekiston teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi ta’sis etgan 2 oyda bir marta chiqadigan ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-siyosiy jurnal. Dastlab „Turkiston matbaachisi“ („TópéññTåéñèé ïå÷àTíèé“, 1918 — 24- y.) nomi bilan o‘zbek va rus tillarida yaxlit holda oyda 2 marta, 1928 — 38-yillarda uning o‘rniga o‘zbek tilida „Muxbirlar

yo‘ldoshi“, 1939 — 1941- yillarda „Bolshevistik matbuot“, 1924 — 25- yillarda rus tilida „Íàø pàáéip“, 1927-28- yillarda „Tpèáoíà pàáéipà“, 1952 — 1964- yillarda o‘zbek va rus tillarida „Mahalliy matbuot xodimlariga yordam“ („À iiiiüü pàáTíèéàì iàñTííé ïå÷àTè“), 1965 — 68- yillarda „O‘zbekiston matbuoti“ („Íå÷àTü ÓçáâèëñTàíá“), 1969 — 1990- yillarda „Muxbir“ („ÈippâññääíT“), 1991- yildan boshlab yana „O‘zbekiston matbuoti“ nomi bilan chiqa boshladi. Jurnalda respublika ommaviy axborot vositalari, axborot agentliklari, nashriyotlar, bosmaxonalar, kitob savdosi, ijodiy uyushmalar faoliyati haqida materiallar beriladi. „O‘zbekiston tibbiyat jurnalı“ — O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar bo‘limlari, Toshkent shahar Sog‘liqni saqlash Bosh boshqarmasi bir yilda 6 marta o‘zbek va rus tillarida nashr qiladigan ilmiy-amaliy jurnal. 1922- yildan „Turkiston tibbiyat jurnalı“, „O‘rta Osiyo tibbiyat jurnalı“, 1926- yildan „O‘zbekiston tibbiyat jurnalı“ nomi bilan chiqqan. 1941 — 53- yillarda vaqtinchha nashr etilmagan. Jurnalning vazifasi O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni, ilmiy-amaliy yutuqlarni targ‘ib qilish, epidemiologiya, sanitariya, ekologiya, dorishunoslik 43 masalalari va sog‘lom turmush tarzini yoritib, targ‘ib qilish „O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi“ning 1- soni 1922- yil „Yangi qishloq“ nomi bilan Turkiston Maorif xalq komissarligining organi sifatida nashr etilgan. 1925 — 71- yillarda „Dehqon“, „Qishloq xo‘jaligi turmushi“, „Paxta uchun kurash“, „O‘zbekiston sotsialistik qishloq xo‘jaligi“, „O‘zbekiston kolxoz-sovxozi ishlab chiqarishi“ nomi bilan o‘zbek va rus tillarida nashr etilgan. 1971- yildan hozirgi nomda nashr etiladi. Unda qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlari, fermer xo‘jaliklari faoliyati, qishloq xo‘jaligini zamonaviy texnologiyalar bilan takomillashtirish, qishloq turmush tarziga oid materiallar berib boriladi. 1991- yildan O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligining agrar-iqtisodiy, ilmiy-ommabop jurnalni hisoblanadi. „O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar“ („ÍàùåñTâáiíüå ïåóéè à ÓçáâèëñTàíá“) — O‘zFAning ijtimoiy-gumanitar fanlar masalalarini yorituvchi ilmiy jurnalı. Bir yilda 6 marta o‘zbek va rus tillarida yaxlit holda nashr etiladi. 1957 — 60- yillar „O‘zbekiston FA axboroti. Ijtimoiy fanlar seriyasi“, 1960- yil oktabridan hozirgi nomda nashr etiladi. Unda iqtisodiyot, falsafa, huquq, sharqshunoslik va tarix fanlari bo‘yicha materiallar e’lon qilinadi. „Ilmiy axborot“, „Fan yangiliklari“, „Tarix sahifalari“, „Tarixnavislik“, „Manbashunoslik“ rukni ostida ilmiy maqolalar berib boradi. Yilning eng oxirgi sonida yil davomida nashr etilgan maqolalarning mavzular va sohalar bo‘yicha ro‘yxati beriladi. Adabiy-badiiy, adabiy-ijtimoiy jurnallar turli-tuman mavzularga oid materiallardan tashkil topadi va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallanadi. Ular kitobxonlarni mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlar mualliflarining eng yangi asarlari, tarjima asarlari bilan tanishtiradi. „Sharq yulduzi“, „Guliston“, „Teatr“, „Sanam“, „Saodat“, „Jahon adabiyoti“ kabi jurnallar shular jumlasidandir. „Muloqot“ jurnalı — O‘zXDP Markaziy kengashiga qarashli milliy, ijtimoiy-siyosiy va tarixiy-badiiy jurnal. 1991- yil yanvardan nashr etiladi. Jurnal sahifalarida ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-madaniy, iqtisodiy-ma’naviy-ma’rifiy hayot yoritiladi. „Sharq yulduzi“ — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy-badiiy va ijtimoiy jurnalı. 1932- yil iyun-iyul oyida „O‘zbekiston sho‘ro adabiyoti“, 1935- yil yanvardan „Sovet adabiyoti“, „O‘zbekiston adabiyoti va san’ati“ nomi bilan 44 chiqqan. Ikkinci jahon urushi yillarda moddiy imkoniyat bo‘lmajanligi sababli nashr etish to‘xtatilgan. 1946- yildan boshlab „Sharq yulduzi“ nomi bilan chiqa boshlagan. Unda o‘zbek, qardosh xalqlar, xorijiy adabiyot namunalari, adabiyotshunoslikka oid materiallar nashr etiladi. Jurnalga Oybek, A. Qahhor, Uyg‘un, A. Muxtor, H. G‘ulom, Mirmuhsin, O. Hoshimov, O. Muxtorlar muharrirlik qilganlar. 2005- yildan Minhojiddin Mirzo muharrirlik qilmoqda.

Nazorat savollari.

1. Hujjat deganda nimani tushunasiz?
2. Axborot iste’molchisi kim?
3. Matbuot asari va uning xususiyatlari nimadan iborat?
4. Bosma mahsuloti va uning turlarini aytинг.
5. Nodavriy nashrlar va ularning turlari haqida to‘xtaling.
6. To‘plamlar, asarlar to‘plami, asarlar, tanlangan asarlarga misol keltiring, ularning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

7. Vaqtli matbuot nashrlari, ularning xususiyatlari va turlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Ma'lumotnomalar nashrlar qanday nashrlar?
9. Qomusnomalar, ularning turlari, ahamiyatini tushuntiring.
10. O'zbekistondagi dastlabki davlat nashriyotlari haqida gapirib bering.

19-mavzu: Bosma mahsulotlarni nashr etish. Nashriyotlar.

Reja:

1. 1918- yili Turkiston Respublikasi Maorif ijroiya qo'mitasining huzurida matbuot byurosining tuzilish va matbaa sanoatiga rahbarlik qilish.
2. Turkiston davlat nashriyoti negizida 1925- yil fevral oyida O'zbekiston davlat nashriyoti-O'zdavnashrni tashkil etilishi.
3. O'zbekistonda 2 ta ko'p sohali — O'zdavnashr va Qoraqalpoqdavnashr, 9 ta ixtisoslashgan nashriyot faoliyati.
4. Mustaqillik yillarda bosma mahsulotlarni nashr etish, nashriyot ishini yanada takomillashtirish, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash.

Tayanch iboralar

1918- yili Turkiston Respublikasi Maorif ijroiya qo'mitasining huzurida matbuot byurosining tuzilish va matbaa sanoatiga rahbarlik qilish. Turkiston davlat nashriyoti negizida 1925- yil fevral oyida O'zbekiston davlat nashriyoti-O'zdavnashrni tashkil etilishi. O'zbekistonda 2 ta ko'p sohali — O'zdavnashr va Qoraqalpoqdavnashr, 9 ta ixtisoslashgan nashriyot faoliyati. Mustaqillik yillarda bosma mahsulotlarni nashr etish, nashriyot ishini yanada takomillashtirish, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash.

Bosma mahsulotlarni nashr etish. Nashriyotlar 1917- yilgi inqilobdan so'ng hukumat hamma tushunadigan tilda, usulda adabiyotlar nashr qilish, ayniqsa, savodni chiqarish uchun zarur manbalarni nashr etish vazifasini ilgari surdi. Bu esa ana shunday kitoblarni nashr etadigan nashriyotlar zarurligini taqozo qildi. 1918- yili Turkiston Respublikasi Maorif ijroiya qo'mitasining huzurida matbuot byurosi tuziladi va uning zimmasiga matbaa sanoatiga rahbarlik qilish vazifasi topshiriladi. 1919- yil oktabrida davlat nashriyotini ta'sis etish haqida qaror qabul qilindi. 1920- yil mart oyida u rasman tasdiqlandi. 1920 — 21- yillarda 1100 nomda 5373 ta kitob nashr etiladi. Turkiston davlat nashriyoti negizida 1925- yil fevral oyida O'zbekiston davlat nashriyoti — O'zdavnashr tashkil etildi. 1925- yil 3- fevralda sobiq O'zbekiston inqilobiy qo'miasi O'zdavnashr Nizomini tasdiqladi va u qonuniy kuchga kirdi. Nashriyot poytaxt — Samarcandda joylashgan edi. 1935- yildan ixtisoslashtirilgan nashriyotlar ajralib chiqqa boshladи. 1936-yil iyunda O'zdavnashrning o'quv adabiyotlari tahriri yaratilgan negizida O'quvpeddavnashr, qishloq xo'jaligi tahriri yaratilgan negizida Qishloq xo'jaligi adabiyotlari davlat nashriyoti, 1938- yilga kelib, Meditsina, Bolalar va o'smirlar adabiyoti nashriyotlari, 1939- yilda yana 3 ta nashriyot hamda badiiy adabiyot nashriyotlari tashkil etiladi. 1939- yilga kelib, O'zbekistonda 2 ta ko'p sohali — O'zdavnashr va Qoraqalpoqdavnashr, 9 ta ixtisoslashgan nashriyot faoliyat olib boradi. Nizomga ko'ra „O'zdavnashr“ga 45 kishidan iborat Pravleniye rahbarlik qildi. Pravleniying raisi sifatida iste'dodli va yetuk bilimli ma'rifatparvar Saidahmad Nazirov ish olib borgan. Undan keyin Ilyos G'iyosxo'jayev rahbarlik qiladi. O'sha davrda respublikamizda aniq fanlarga oid original asarlar yo'qligi sababli tarjima asarlarni nashr etishga ko'proq e'tibor beriladi. 1926-yili 45 Ishchi dehqon taqvimini nashr etishga qaror qilindi, O'rtta Osiyoning o'quv xaritasini chop etish kun tartibiga qo'yildi, 1931- yilgi nashriyot kengashida bolalar adabiyoti, texnikaga oid adabiyotlar, o'sha payt uchun zarur bo'lgan savodsizlikni tugatishga yordam beruvchi adabiyotlar nashrini kengaytirish, atamalarni tartibga keltirish va nashr etish, ularning sifatini yaxshilash maqsadida taqriz berish ishini yo'lga qo'yish masalasi ko'rib chiqildi va mahalliy aholi vakillari ko'proq jalb etila boshlandi. Natijada o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman tillarida arab, adabiyotlar nashr etish boshlandi. Bosma nashrlar avval, 1927- yildan lotin, 1939- yildan yana kirill alifbosida nashr etildi. Davlat rahbarlarining nutqlari, maqolalari, turli ijtimoiy-siyosiy

kompaniyalarga bag‘ishlangan rasmiy materiallar, Fitrat, Cho‘lpon, Xurshid, A. Qodiriy, Oltoy, Botu asarlari, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, ayniqsa, paxtachilikka oid adabiyotlar nashr etishga keng o‘rin ajratildi. Qishloq hayoti, undagi o‘zgarishlar, yangiliklar, qishloq aholisi madaniy saviyasining o‘sishi, turmush tarziga oid adabiyotlar, qishloq xo‘jalik xodimlari, ayniqsa, dehqonlar uchun maslahatlar nashr etila boshlandi. O‘zbekiston xalqlari tarixi, milliy davlatchilik, milliy va madaniy meros, filologiya, tilshunoslik masalalariga oid kitob va risolalar chiqarildi. „Matematika va fizikaga oid atamalar“, „Ximiya va botanika atamalari“, „Geografiya atamalari“ kabi aniq fanlarga oid ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar, qishloq xo‘jaligiga oid ruscha-o‘zbekcha lug‘at, onalarga maslahatlar, sog‘liqni saqlash yacheyskalari, „Qizaloq“ nomli turkum nashrlar, Sharq astronomiyasi tarixi, O‘rta Osiyo tarixi, Fan mo‘jizalari singari nashrlar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1925- yili birinchi o‘zbek romanlari —„O‘tkan kunlar“, 1929- yili „Mehrobdan chayon“ romani nashr etildi. 1925 — 40- yillarda badiiy tarjima asarlarining nashriga alohida e’tibor berildi. V. Shekspirning „Xamlet“, „Otello“, M. Gorkiy, Pushkin asarlari nashrdan chiqdi. Urush arafasi yillarida ixtisoslashtirilgan nashriyotlar tugatilib, 3 ta nashriyotga birlashtirildi: O‘zdavnashr, Qoraqalpoqdavnashr va O‘zbekiston FA nashriyoti. Urush boshlanishi bilan asosiy e’tibor mamlakatda siyosiy birlikni mustahkamlash, ommani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ko‘maklashadigan, jangchilarni yuksak g‘oyaviylik, siyosiy hushyorlikka chaqiradigan hajmi kichik va bichimi qulay asarlarga, omma uchun adabiyotlarga, mudofaa mavzusidagi adabiyotlarga qaratildi. 46 G‘. G‘ulom, H. Olimjon, Oybek, Mirtemir, K.Yashin, Zulfiya, M. Shayxzoda asarlari dastlab shu yillarda nashr etildi. H.Olimjonning „Qo‘lingga qurol ol!“, „Ishonch“ she’riy to‘plamlari, „Muqanna“ nomli tarixiy dramasi, G‘. G‘ulomning „Sen yetim emassan“, Zulfiyaning „Hijron kunlarida“, „Uni Farhod der edilar“, Uyg‘unning „G‘azab va muhabbat“, Shayxzodaning „Ko‘ngil deydiki“, H. G‘ulomning „Haykal“ she’riy to‘plamlari nashrdan chiqdi. O‘zbek tiliga tarjima qilingan A. Gaydarning „Temur va uning komandas“, A. Pervensevning „Volodka — partizan o‘g‘li“ kabi asarlari nashrdan chiqarildi. Urushdan keyin xalqning madaniy darajasini oshirishga mo‘ljallangan bilimning barcha sohalariga oid ommabop adabiyotlar nashr etish kuchaytirildi. 1950- yillarga kelib mamlakatda 7 ta nashriyot faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1960- yilda ular soni 10 taga yetdi. „O‘zdavnashr“ zimmasiga endi, asosan, ijtimoiysiyoziy, qisman ishlab-chiqarish, texnika, qishloq xo‘jaligi masalalariga oid adabiyotlar nashr etish topshirildi. 1947- yilda 71 nomda ijtimoiyi-siyosiy adabiyot nashr etilgan bo‘lsa, 1958- yilda ular 130 taga yetdi. O‘zbekistonni industrialshtirish, elektralshtirish, respublika tarixi, madaniyati, xalqlar do‘stligi qardoshligiga oid ko‘plab ilmiy-ommabop nashrlar yuzaga keldi. 1950- yillarga kelib mamlakatda texnikaning taraqqiy etishi uchun olib borilgan kurashlar, ixtiolar, kashfiyotlar, yangi texnik ilg‘or ish tajribalarini korxonalarda joriy etish, tarix, falsafa, adabiyotshunoslik masalalariga oid nashrlar ham bosmadan chiqarildi. 1946 — 1958- yillarda qishloq xo‘jaligi masalalariga oid umumiyligi adadi 10 mln nusxa bo‘lgan 900 dan ortiq kitob va risolalar chiqarildi. „O‘zdavnashr“ning o‘quv-pedagogik adabiyotlari tahririyati negizida O‘quvpeddavnashr tashkil etilgandan so‘ng o‘quv adabiyotlari nashriga e’tibor kuchaydi. 1960- yil u „O‘rta va oliv maktab“, 1964- yili „O‘qituvchi“ deb ataldi. 1957- yili O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958- yili Meditsina nashriyoti, 1960- yili „Yosh gvardiya“ nashriyoti tashkil etildi. 1964- yili O‘zbekiston Davlat Matbuot qo‘mitasining 6- iyundagi buyrug‘iga ko‘ra O‘zdavnashr „O‘zbekiston“ nashriyoti deb nomlandi. 1970- yilga kelib, undan yana „Mehnat“ va „Kamalak“ nashriyotlari ajralib chiqdi. Bu yillarga kelib, nashriyotlarda vazifalarni oydinlashtirish, tahririyatlarni ixtisoslashtirish jarayoni nihoyasiga yetdi. Nashriyotlar faoliyatiga kitoblarning 47 mazmuni va badiiy jihatdan sifatini oshirish maqsadida, zarur adabiyotlarni nashr etishni tezlashtirish maqsadida olimlar, jamoat arboblari, san’at arboblari, o‘sha paytdagi hukumat rahbarlari ham jalb etildi. Ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlar tahririyati Tarix instituti, Iqtisodiyot instituti, ToshDU, TDPIning, Xalq xo‘jaligi institutining „Falsafa“, „Tarix“, „Siyosiy iqtisod“ kafedralari bilan uzviy bog‘liqlikda ish olib borishdi. Paxtachilik, qishloq xo‘jaligi adabiyotlari tahririyati Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti, O‘rta Osiyo ipakchilik ilmiy-tekshirish instituti va boshqa ilmiy hamda o‘quv muassasalari bilan

hamkorlik qildi. Ilmiy-ommabop adabiyotlar tahririyati „Bilim“ jamiyatni, FAning tarmoq institutlari bilan hamkorlik qildi. „Targ‘ibotchi kutubxonasi“, „Ilg‘orlar minbari“, „Fan — qishloq mehnatkashlariga“, „Ilg‘or tajriba — ommaga!“ „Vatanga ko‘proq paxta beraylik“ kabi ruknlar nashri etila boshlandi, ma’lumotnomalar nashri kengaydi. Payvandchilar uchun, haydovchilar uchun, chorvachilikni mechanizatsiyalash bo‘yicha, qishloq xo‘jaligida zaharli ximikatlarni qo‘llash bo‘yicha ma’lumotnomalar chiqdi. 1980- yillarda siyosiy mavzudagi adabiyotlar nashri yana kengaydi, mamlakatda yuz bergan qayta qurish, uning mazmuni, mohiyati, tamoyillari, sabablari, uning ta’siri, demokratiya, oshkoraliq kabi kunning muhim, dolzarb masalalariga oid ko‘plab adabiyotlar ham nashr etildi. 1986- yil nashriyotning rejasidagi qayta ko‘rib chiqildi. „Ijtimoiy adolat uchun“, „Xo‘jalik hisobi o‘z amrini o‘tkazmoqda“, „Yangilanish“, „Dastlabki odimlar“ kabi matbuot to‘plamlari chiqdi. 1990- yil Partiya tarixi institutining tarjima bo‘limi butun shtati bilan „O‘zbekiston“ nashriyotiga o‘tkazildi. 1991-yildan nashriyot zimmasiga oliy va o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlari uchun darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini chiqarish vazifasi yuklatildi. Mustaqillik yillarida nashriyot yanada takomillashdi, o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta’minalashga o‘tildi. Tahririyatlar qisqartirildi, tarixiy va madaniy merosni chuqur o‘rganishga oid adabiyotlar chiqa boshladи. O‘zbekiston Respublikasining qonuniy xujjatlar to‘plami, Konstitutsiya bir necha marta, I.A. Karimovning asarlari, ichki va tashqi siyosat, mamlakatimizning boshqa xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligiga oid adabiyotlar, „O‘zbekiston respublikasi“ nomli ma’lumotnomma o‘zbek va rus tillarida chiqarildi. „Madaniy qadriyatlar“, „Ijodiy meros 48 masalasi“, „O‘zbek xalq dostonlari“ kutubxonasi tashkil etildi. Unda „Algomish“ dostonining 2 ta to‘liq nashri, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, chet tillarni o‘rganishga oid qo‘llanmalar, masalan, arab tili, fransuz tili, ingliz tili darsliklari, o‘zbek adabiyoti tarixi, O‘rtalik Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi, hayot falsafasi, til va madaniyat masalalariga oid adabiyotlar nashr etildi. Nashriyot yangi zamnaviy texnologiya bilan, harf terish mashinasi bilan ta’minaldi. Nashriyotning o‘zida harf terish korxonasi ish boshladи. Chet el korxonalari bilan hamkorlik kuchaydi. Turkiyaning „Remaksa-LTD“ shirkati bilan hamkorlikda „O‘zbek-Remaksa“ qo‘shma korxonasi ochildi, uning maqsadi o‘zbek va turk xalqlarini bir-birining madaniy merosi bilan tanishtirish, xorijiy zamnaviy texnologiyalarni kiritish, jahon talablariga mos keladigan adabiyotlarni nashr etishdan iborat. Shunday hamkorlik natijasida Xiva va Qashqadaryo fotoalbomlari Istanbulda nashr etildi. Turkiyadan matbaa bo‘yoqlari, Finlandiyadan esa a’lo sifatli qog‘ozlar keltirildi. Kitoblarni tarqatish bo‘yicha „Noshir“ jamiyatni, „O‘zbek-Remaksa“ qo‘shma korxonasi, „Rautar“ kichik korxonasi, „Mersedes“ qo‘shma korxonasi yordam beradi. Nashriyot oldi-sotdi shartnomalari asosida va naqd pulga kitob tarqatish bilan shug‘ullanadi. Yana zamnaviy usul — mavoza (barter) qo‘llaniladi. „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997- yil 20- martdagisi qarori bilan O‘zbekiston respublikasi Matbuot va axborot agentligi tizimida O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, soha ensiklopediyalari, izohli va ko‘p tillik lug‘atlar, ma’lumotnomalarni tayyorlash va nashr etish maqsadida tashkil etildi. Bundan tashqari nashriyot xalqimizning tarixiga, milliy qadriyatlariga, madaniyati va san’atiga, tibbiyot, sog‘lom avlod, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalariga oid ijtimoiyiyosiy, badiiy va o‘quv adabiyotlarini ham nashr etadi. Vazirlar Mahkamasining 2004- yil 11- iyundagi qaroriga ko‘ra A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti va Abu Ali ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti qo‘sildi. Nashriyotda 11 ta ilmiy tahririyat va bo‘lim, shuningdek, o‘quv adabiyotlari va tezkor nashrlar tahririyati, sport va turizm tahririyati, ishlabchiqarish, dizayn, kompyuter va boshqa xizmat bo‘limlari mavjud. Nashriyotga jamoatchilik asosida ishlaydigan Bosh 49 tahririyat ilmiy-metodik rahbarlik qiladi. Uning vazifasi O‘zMEning g‘oyaviy, ilmiy, tahririy va badiiy darajasini oshirishda, maqolalar mezonini belgilashda, so‘zliklarni tasdiqlash, murakkab va munozaraga sabab masalalarini hal etishda qatnashish, har bir jild materiallarini ko‘rib chiqib, nashrga tavsiya etishdan iborat. Har bir ilmiy tahririyat qoshida fan sohalari bo‘yicha ilmiy-maslahat kengashlari tashkil etilgan. O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligiga qarashli Ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti 1959- yil O‘zbekiston davlat Tibbiyot nashriyoti sifatida tashkil topgan. 1964- yildan

„Meditrina“ nashriyoti deb nomlangan. 1990- yildan Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari, tibbiyotga oid ilmiy asarlar, shifokorlar uchun amaliy qo‘llanmalar, sanitariya maorifi bo‘yicha ommabop tibbiy adabiyot, lug‘at, ma’lumotnomalar, plakatlar va boshqa turdagи adabiyotlar nashr etadi. 2004- yildan O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti tarkibiga qo‘sildi. Adabiyot va san’at nashriyoti 1957- yilda O‘zbekiston davlat nashriyoti adabiy-badiiy bo‘limlari negizida O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti degan nom bilan tashkil etilgan. 1964- yilda „Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti“ nomi berilgan. 1966- yil G‘afur G‘ulom nomi berildi. 1970- yildan o‘zbek adabiyoti va folklor, adabiyotshunoslik masalalariga oid adabiyotlar nashr etadi. O‘zbekistonda badiiy asarlar nashr etishda muhim o‘rin tutadi. Hozirda mumtoz adabiyotimiz namunalarini, xorijiy mumtoz asarlarning o‘zbek tiliga tarjimalarini nashr etishga alohida o‘rin ajratgan. 2010 yildan nashriyot va bosmaxona birlashtirilib, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi deb atalmoqda. Keyingi yillarda maktab o‘quvchilari, o‘rta-maxsus kasb-hunar kollej va litseylari, oliy o‘quv yurtlari uchun adabiyotlar nashr etmoqda. „Fan“ — O‘zFA ilmiy nashriyoti 1934- yilda O‘zbekiston Fan qo‘mitasi huzurida bo‘lim sifatida tashkil etildi. 1943 — 63- yillar FA nashriyoti, 1964 — 66- yillar „Íàóéà“ nashriyoti, 1966- yildan „Fan“ nashriyoti deb ataldi. 1940- yil maxsus bosmaxonasi ishga tushirilgan. Nashriyot O‘zFA tizimidagi institatlarning ilmiytadqiqot ishlari natijalari, to‘plamlar, monografiyalar, ilmiyomma bop risolalar, mukammal va tanlangan asarlar hamda jo‘r maqolalari tarzida ilmiy jamoatchilikka va ommaga yetkazib beradi. 50 Mumtoz va zamonaviy adabiyot namoyondalarining mukammal asarlari, akademik nashrlari, bilimning hamma sohasi bo‘yicha yirik ilmiy nashrlarni chiqaradi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarining mukammal 20 jiddigi, oldingi 15 jiddlik va rus tilidagi 10 jiddlik asarlar to‘plami, Oybek asarlari to‘plamini eslatib o‘tish mumkin. Shuningdek, u „Fan va turmush“, „Geliotexnika“, „O‘zbekiston tarixi“, „O‘zbekiston fizikasi“, „Mexanika muammolari“, „Informatika va energetika muammolari“, „O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar“, „O‘zbekiston biologiya jurnali“, „O‘zbekiston Kimyo jurnali“, „O‘zbekiston FA ma’ruzalar“, „O‘zbek tili va adabiyoti“, „Farmatsevtika“ jurnallarini nashr etadi. 1986- yil 1- oktabrdan boshlab G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotining bolalar va o‘smirlar adabiyoti bo‘limi bolalar va o‘smirlar uchun adabiyotlar nashr qiluvchi nashriyot sifatida „Yulduzcha“ nomi bilan ajralib chiqdi. O‘rta Osiyo respublikalarida birinchi bo‘lib 50 jiddlik, har bir jildi 25 — 30 bosma taboqqa mo‘ljallangan „Jahon bolalari adabiyoti“ rukni tashkil etildi. Pushkin, Lermontov ijodidan, Algomish dostonlari, Rustamxon asarlari nashr etildi. 1992- yil unga „Cho‘lpon“ nomi berildi va 2004- yil nashriyot va bosmaxona birlashtirilib, nashriyot-matbaa ijodiy uyi deb ataldi, „Ming bir sarguzasht“, 30 jilddan iborat „Jahon xalq ertaklari“ ruknida arab xalq ertaklari, rus xalq ertaklari, hind xalq ertaklari va boshqa adabiyotlar nashr qildi. 1991- yildan o‘zbek adabiyoti, hamdo‘stlik davlatlari xalqlari adabiyoti, tarix va huquqshunoslik, tibbiyot, adabiy tanqid va adabiyotshunoslik, estetika, qishloq xo‘jaligiga oid, ma’lumotnomalar adabiyotlari, o‘quv adabiyotlari, „Spitamen“, „Ibn Sino“ kabi tarixiy romanlar, bolalar uchun adabiyotlar, bog‘cha va boshlang‘ich sinflar uchun „Ertaklar dunyosi“, „Qiziq kitobcha“, „Bog‘chagado‘mboqchaga“, „Farzandlar baxti taronasi“, „Ma’naviyat va qadriyat“ ruknidagi kitoblar, „Bolalar adabiyoti do‘stligi“, „Inson axloq-odobi“ ruknidagi adabiyotlar nashr etildi. „Sharq“ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi — gazetajurnallar, bosma nashrlar chop etadigan kompleks. Respublika miqyosidagi rangli jurnallar, yumshoq va qattiq muqovali kitoblar, risolalar, yorliqlar, fotoalbomlar, tasviriy san’at mahsulotlarini nashr qiladi. 1921- yilda bosmaxona sifatida tashkil topgan va 1924- yilda „Ñpääçéèä“ nashriyotiga va „Qizil O‘zbekiston“ gazetasining bosh idorasiga aylantirildi. 1947- yilda bosmaxona 51 bilan birlashtirilib „Qizil O‘zbekiston“, „Ípäääà ÄîñTièà“ va „O‘zbekistoni Surh“ gazetalari birlashgan nashriyoti deb qayta tashkil topadi. 1991- yildan O‘zbekiston respublikasi Prezidenti devonining Ishlar boshqarmasi huzuridagi „Sharq“ nashriyotmatbaa konserniga aylantirildi. 2002- yil oktabr oyidan boshlab „Sharq“ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi deb nomlandi. Kompaniyada 1991- yil 9- sentabrda Bosh tahririyat tashkil etiladi. Kompaniyaning tarkibiga „Andijon“ nashriyot-matbaa, „Ishlab chiqarish tijorat markazi“ tarmoq aksiyadorlik jamiyati

hamda „Ovqatlanish va savdo kombinati“ kiradi. O‘zbekiston respublikasi Matbuot va axborot agentligi tizimidagi „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi 1936- yili „O‘quvpeddavnashr“ nomi bilan tashkil etilgan. 1950 — 59 yillarda yana shu nom bilan, 1941 — 49- yillarda O‘zbekiston davlat birlashgan nashriyoti tarkibida faoliyat yuritgan. 1960- yildan „O‘rta va oliy mакtab“, 1964- yildan „O‘qituvchi“ nomi bilan, 2004- yildan „O‘qituvchi“ nashriyoti va Toshkent kitob-jurnal fabrikasi negizida „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi tashkil etildi. U barcha turdag'i umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari o‘quvchi va o‘qituvchilariga, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari talabalariga, maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlariga, ota-onalarga mo‘ljallab darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy qo‘llanmalari, turli xil lug‘at va ma’lumotnomalar, bolalar uchun adabiyotlar va boshqa turdag'i xilma-xil adabiyotlarni nashr etadi. Savol va topshiriqlar

Nazorat savollari.

1. Hujjat deganda nimani tushunasiz?
2. Axborot iste'molchisi kim?
3. Matbuot asari va uning xususiyatlari nimadan iborat?
4. Bosma mahsuloti va uning turlarini aytинг.
5. Nodavriy nashrlar va ularning turlari haqida to‘xtaling.
6. To‘plamlar, asarlar to‘plami, asarlar, tanlangan asarlarga misol keltiring, ularning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Vaqtli matbuot nashrlari, ularning xususiyatlari va turlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Ma’lumotnomalar nashrlar qanday nashrlar?
9. Qomusnomalar, ularning turlari, ahamiyatini tushuntiring.
10. O‘zbekistondagi dastlabki davlat nashriyotlari haqida gapirib bering.

20-mavzu: Axborot — bibliografiya resurslari.

Reja:

1. Hozirgi zamon talablari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda axborot-bibliografiya resurslari.
2. Axborot-bibliografiya resurslarining xususiyatlari, ahamiyati, ularni iste'molchilarga yetkazib berish usuli bilan talabalarni tanishtirish.
3. Axborot resurslari, kutubxona-bibliografiya resurslari, bibliografik mahsulotlar, bibliografik ko‘rsatkichlar, bibliografik ro‘yxatlar, bibliografik obzor (sharh)lar, ma’lumotlar bazasi, ma’lumotlar banki.

Tayanch iboralar

Hozirgi zamon talablari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda axborot-bibliografiya resurslari. Axborot-bibliografiya resurslarining xususiyatlari, ahamiyati, ularni iste'molchilarga yetkazib berish usuli bilan talabalarni tanishtirish. Axborot resurslari, kutubxona-bibliografiya resurslari, bibliografik mahsulotlar, bibliografik ko‘rsatkichlar, bibliografik ro‘yxatlar, bibliografik obzor (sharh)lar, ma’lumotlar bazasi, ma’lumotlar banki. Axborot-bibliografiya resurslari haqida umumiyl tushuncha.

Axborot resurslari maqsadga mos axborotni olish uchun tashkil etilgan ma’lumotlar yig‘indisidir. Kutubxonabibliografiya resurslari — kutubxonalar oldida turgan vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborot, moddiy-texnik va xodimlar bazasi. Axborot-bibliografiya resurslari jamiyatning va axborot iste'molchilarining talablarini qondirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar, faktlar va boshqalar haqidagi turli xil manbalar bo‘lib, kutubxonalarda va axborot markazlarida saqlanayotgan an‘anaviy va mashinada o‘qiladigan axborot tashuvchilar (har xil kataloglar va kartotekalar, ma’lumotlar banki va bazasi hamda axborotga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi intellektual va moddiy kuchlardan iborat. Bu resurslarning eng muhim axborot mahsuloti axborot tizimlarining harakati natijasida yuzaga kelgan hujjatlar,

axborot massivi, ma'lumotlar bazasi va axborot xizmatidir. Bibliografik mahsulot — axborot mahsulotining bibliografik axborot, ya'ni bibliografik yozuvlar bilan ta'minlangan turi. Bibliografik mahsulotlar Rasmiy hujjatli bibliografik axborot bo'lib, bir vaqtning o'zida uni tayyorlash jarayonining natijasi va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish vositasidir. Bibliografik mahsulot tushunchasi negizida minglab bibliografik yozuvlarni aks ettiruvchi bibliografik qo'llanmalar yotadi. Bibliografik mahsulotlar tizimini yaratish va bibliografik so'roqlarni bajarish kutubxonalar faoliyatining an'anaviy yo'nalishlaridan biri. Bibliografik qo'llanmalarning turlari bibliografik ko'rsatkichlar, bibliografik ro'yxatlar va bibliografik sharhlardir. Bibliografik xizmat ko'rsatish kundalik va retrospektiv ko'rsatkichlar, referativ jurnallar, bibliografik va axborot ma'lumotlar bazasi, monografiya va dissertatsiyalarga tuzilayotgan adabiyotlar ro'yxatlariga asoslanadi. Bibliografik ko'rsatkichlar — murakkab tuzilishga va ma'lumot-qidiruv apparatiga ega bo'lgan bibliografik qo'llanmalardir. U tor, aniq mavzuni, masalani yoki keng, atroflicha muammoni, bilim sohasiga bag'ishlangan hujjatlarni, boshqa materiallar haqidagi ma'lumotni aks ettiradi. Ko'rsatkichlar bir qancha bo'limlardan iborat bo'ladi. Bo'limlardagi bibliografik yozuvlar ma'lumi bir tartibda joylashtiriladi. Ko'rsatkichlar o'ziga xos ma'lumot-qidiruv apparatiga ega: kirish so'zi, so'zboshi, mundarija va yordamchi apparatlar. Bibliografik ko'rsatkichlarning shakllari bosma kataloglar, nashriyotlarning yillik mavzuli rejalar, nashriyot kataloglari, bibliografik bulletenlar, Kitob palatasining yilnomalari, biobibliografik ko'rsatkichlar. Ular uchun 3 ta tarkibiy element xarakterlidir: biografik ma'lumot, muallif asarlarining va asarlari nashrlarining tafsiflari, hayoti va ijodiga oid adabiyotlar ro'yxati. Ko'rsatkichning yana bir turi jurnallar va badiiy asarlar sarlavhalarining ko'rsatkichlari. Bibliografik ro'yxat — oddiy tuzilishga ega bo'lgan bibliografik qo'llanma. U qoidaga ko'ra tor mavzu yoki muammoga oid, hajmiga ko'ra uncha katta bo'lmagan, tuzilishiga ko'ra soddaroq materiallarning bibliografik yozuvlariga, ya'ni ma'lumot-qidiruv apparatiga ega bo'lmagan qo'llanma. Ulardan ko'p qo'llaniladigani kitobxonlarga eslatmalar, kitob ichi, jurnal ichi, maqolaga berilgan, gazeta ichida berilgan ro'yxatlar. Kitob ichi bibliografik ro'yxatlar bir mavzuga oid ilova qilingan mustaqil ro'yxat. Masalan, ilmiy asarlarda muallifning asarları ro'yxati, o'quv va ishlab chiqarishga oid adabiyotlarda shu mavzuga oid boshqa mualliflarning asarları ro'yxati, kitoblarda mavzuga oid foydalanilgan, fikrlar olingan, esga olingan adabiyotlar ro'yxati beriladi. Matn ichida adabiyotlarga yo'llanma (ssilka) ham beriladi, bular sahifaning pastida asosiy matndan so'ng yoki bo'lim va boblar oxirida ham beriladi. Jurnal ichi bibliografik ro'yxatlar mustaqil material sifatida jurnalda nashr etiladi. Ko'pgina jurnallarda alohida maxsus sahifalarda yangi adabiyotlar, taqrizlar, yil davomida jurnal sahifalarida nashr qilingan maqolalar ro'yxati nashr etiladi. Masalan, „Sharq yulduzi“, „Tafakkur“, „O'zbek tili va adabiyoti“, „O'zbekiston matbuoti“ jurnallari oxirgi sonida yil davomida nashr qilingan maqolalar yo'nalishiga ko'ra yoki xronologik tartibda beriladi. „Adabiy meros“ to'plami esa 10 yil davomida to'plamda nashr qilingan maqolalarning muammo yoki masalalarga sistemalashtirgan holda ro'yxatini berib boradi. „Biblioteka“, „Áèáëëítåéâåäáièå“, „Jèp áèáëëíäpàöè“ jurnallarida ham maxsus sohaga oid yangi adabiyotlar ro'yxati berib boriladi. Ilmiy va ilmiyommabop jurnallarda, ilmiy to'plamlarda nashr etilgan maqolalar so'ngida mavzu bo'yicha foydalanilgan, eslatib o'tilgan yoki bosmadan chiqqan yangi nashrlar haqida ro'yxat ilova qilinadi. Bular maqolaga berilgan ro'yxatlar deb yuritiladi. Gazeta ichi ro'yxatlar gazetadagi mustaqil adabiyotlar ro'yxatidir. Respublika, viloyat gazetalarida „Yangi kitoblar“, „Kitoblar orasida“, „Kitoblar olamida“, „Kitob tokchasi yonida“ kabi sarlavhalar ostida adabiyotlar ro'yxati berib boriladi. Bibliografik sharhlari — hujjatlar haqidagi hikoyadan iborat. Sharhda axborot beriladigan adabiyotlar soni va uning tartibi maqsadiga, kitobxonlar guruhi, mavzuning mazmuni va boshqa xususiyatlarga ko'ra tanlanadi. Bibliografik sharhning elementi: kirish qismi, tahvil qismi va xulosa. Bibliografik sharhlarning maqsadi — kitobxonlar guruhidagi mavzuga qiziqish uyg'otish, mavzuga oid eng yaxshi adabiyotlarni tanlashga yordam berish va ularni targ'ib qilish. Kitobxon yoki iste'molchi oddiydan murakkabga, aniq masaladan umumiy masalaga o'tib borish bilan aniq bir bilimlar hajmiga ega bo'ladi. Sharhda tanlangan izchillikda joylashgan har bir adabiyotga to'la bibliografik tafsif va undan keyin hikoya beriladi. Buning

uchun oldindan bibliografik sharh matni tayyorlab olinadi. U hujjat sifatida saqlanadi, boshqa talabgorlarga yoki kutubxonalarga tarqatish uchun qo'llaniladi, tadbirning yaxshi va samarali o'tishiga yordam beradi. Bibliografik tavsifda, umuman, sharh o'qib berilmaydi. Sharhlarni ommaviy axborot vositalari sahifalarida, radio va televideniya orqali, internet veb sahifalarida joylashtirish mumkin. „Turon“ nomli Toshkent viloyat ilmiy-universal kutubxonasi tayyorlagan va internetga qo'ygan „Turon durdonalari“ veb sahifasida Samarqand, Xiva, Buxoro va Toshkent viloyatlari kutubxonalari fondida saqlanayotgan nodir qo'lyozma kitoblar haqida hikoya qilinadi. Bibliografik qo'llanmalar ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra boshqa mahsulotlardan ajralib turadi va ularga nisbatan keng qamrovli va katta hajmga ega. Shunga ko'ra maxsus va davlat bibliografiyasining turlari tayyorlanadi. Davlat bibliografik ko'rsatkichlari davlat hisobini olib boradi. Maxsus bibliografik qo'llanmalar ilmiyyordamchi, kasbiy-ishlab chiqarishga oid, tavsya xarakterida bo'ladi. Nashriyotchilik va kitob savdosi bibliografik qo'llanmalar nashrdan chiqadigan yangi adabiyotlar yoki nashr etilgan asarlar va kitob savdosi tizimlarida mavjud adabiyotlar haqidagi axborotdan iborat bo'ladi. Berilayotgan materiallarning mazmuniga ko'ra bibliografik qo'llanmalar quyidagi turlarga ajratiladi: universal, ko'p tarmoqli, mavzuli, shaxsga oid, mamlakatshunoslik, o'lkashunoslik. Universal qo'llanmalar bilimning va amaliy faoliyatning hamma sohalariga va fan tarmoqlariga oid, ko'p tarmoqlilari esa bir necha bilim sohasiga ega bo'ladi. Tarmoq qo'llanmalar bilimning bir sohasiga, mavzuli qo'llanmalar aniq bir mavzuga, oid materiallarni o'z ichiga oladi. Shaxsga oid qo'llanmalar bir shaxsning hayoti va ijodiga oid barcha adabiyotlarni, mamlakatshunoslikka oid qo'llanmalar esa bir yoki bir necha mamlakat haqidagi materiallarni, o'lkashunoslik xarakteridagi qo'llanmalar esa mamlakat haqidagi adabiyotlarni aks ettiradi. Qo'llanmalar turiga, maqsadiga ko'ra ayrim xususiyatlarga ega bo'ladi. Birinchi xususiyati xronologik aniq chegaraga ega. Qo'llanmaning maqsadidan kelib chiqqan holda aniq yillar davomida nashrdan chiqqan adabiyotlar va boshqa materiallar tanlab olinadi. Ikkinci xususiyati — agar ko'rsatkich hisobga olish maqsadida tuzilsa, har tomonlama to'la bo'lishi shart. Masalan, davlat bibliografik ko'rsatkichlarini tayyorlashda tanlangan davrda nashr etilgan, tanlangan usulda qaysidir mezonga amal qilingan holda barcha turdag'i adabiyotlar va boshqa materiallar hisobga olinadi, ya'ni ijtimoiy yoki ilmiy ahamiyati, nashrlarning turi yoki biror-bir belgisiga ko'ra tanlanadi. Har bir bibliografik qo'llanma ko'plab bibliografik yozuvlarning tartibga solingan ko'rinishidir. Bu esa tanlangan tartibdagi (alifbo, sistemali, xronologik va boshqa) usulni qo'llash bilan uzoq va mas'uliyatli mehnat natijasida yuzaga keladi. Bibliografik elementlarning qo'llanilish me'yori ham qo'llanmaning turiga va maqsadiga ko'ra belgilanadi. Axborot xarakteridagi ko'rsatkichlarda bibliografik tavsif bilan chegaralansa, tavsya ko'rsatkichlarida, albatta, annotatsiya beriladi, referativ ko'rsatkichlar esa referat bilan ta'minlanadi. Ayrim bibliografik qo'llanmalarda turli xil elementlar aralash keladi. Masalan, kutubxona xodimlari uchun mo'ljallangan, avval uslubiy-bibliografik to'plamlar deb yuritilgan uslubiy tavsyanomalar. Ular bibliografik ro'yxatlar, bibliografik sharhlar matni, tanlangan mavzu bo'yicha ommaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish uchun namunalar bilan boyitiladi. Bibliografik qo'llanmalar mustaqil nashr sifatida ham, boshqa nashrlar ichida (kitob, gazeta, jurnal, to'plam) ham yoki ilova shaklida ham bosilishi mumkin. Bibliografik qo'llanmalar nodavriy, davriy bo'ladi. Nodavriy ko'rsatkichlar, asosan, kitob, risola, varqa, buklet, bir yoki bir necha jildlik, ruknli shaklda bo'ladi. Masalan, shaxslarga oid bibliografik ko'rsatkichlar mustaqil yoki bir ruknda alohida-alohida kitob va risola holida nashr etiladi. Davriy qo'llanmalar haftalik, oylik, kvartallik, yillik, yarim yillik bo'ladi. Kartochka ko'rinishidagi bibliografik nashrlar Kitob palatalari yoki nashriyotlar tomonidan tayyorlab nashr qilinadi. Bular kitobga, gazeta va jurnal maqolasiga, taqrizga bosma kartochkalar shaklida tuziladi. Annotatsiyali bosma kartochkalar nashr etish sohasida Rossiya Davlat kutubxonasi tajribasini misol qilish mumkin. Ular „Ìèp áèáëëîäpàòè“ jurnalining 1998- yil 1- sonidan boshlab har bir sonida 200 — 250 ta adabiyotga annotatsiyali kartochka (nashriyotlar manzili, telefon raqamlari bilan birgalikda) berib bormoqda. Mutaxassislar so'rog'iga to'la javob berish maqsadida kutubxona va axborot organlari xodimlari bibliografik qidirish jarayonida mavzuli ro'yxatlar, kartotekalar tuzadilar, bibliografik ma'lumotlar bazasini yaratadilar. Keyinchalik ular negizida mavzuli to'plamlar,

daydjestlar, faktografik ma'lumotlar, tahliliy sharhlar yaratadilar va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish jarayonida foydalanadilar. Jamiyatda to'laqonli axborot resurslarini yaratishga mo'ljallangan adabiyotlarni aniqlash imkoniyati iste'molchilarga elektron shaklda bibliografik qidirishni taqdim etish bilan yaratiladi. Bu esa hujjatlar mazmunini tasvirlashning ko'p qirralilagini ta'minlaydi: to'ldirish, iste'molchilar so'rog'i bo'yicha shakllanadigan individual ma'lumotlar bazasini faollashtirish, axborotni ish yoki yashash joyiga yetkazish. Texnologik tarmoqlardan foydalanishda hududiy jihatdan imkon bo'lman va uzoq hududlarda istiqomat qiladigan kitobxonlarga elektron pochta orqali yoki chat texnologiya orqali xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Maxsus dasturiy ta'minotga asoslangan chat xizmat ko'rsatish iste'molchi-bibliograf ikkiyoqlama ta'sirga yo'naltirilgan bibliografik punktda iste'molchilarga xizmat ko'rsatishga o'xshaydi. Kitobxon-bibliograf muloqoti bo'lman paytda mustaqil avtomatlashgan qidiruvni olib borish uchun so'roqlarning ma'lumotlar bazasini kitobxonlarga tavsiya etish ham yo'lga qo'yilmoqda. Elektron ma'lumot xizmati ko'rsatish boshlanishida so'roqlar epizodik yoki tartibsiz bajarilgan bo'lsa, hozirgi paytda hamma xorijiy kutubxonalarning veb saytlarida „...dan so'ra“ nomi bilan sahifa ochilgan. Uchinchi bir tendensiyaga bibliografik xizmat ko'rsatishning murakkablashuv jarayonida axborot faoliyatini ma'naviylashtirish kiradi. Bu tendensiya kunlik va kelgusi xizmat ko'rsatish jarayonida turlicha shaklda namoyon bo'ladi. Bir martalik bibliografik ma'lumotlarni bajarishda hujjatlarni kompleks, muammoli aks ettirish, uni sifatli tanlash, xabarlar matnining mazmunini ochib berish va qaysidir muammoning holati haqida tasavvur beruvchi umumlashma ma'lumotni taqdim etishga qaratiladi. Adabiyotlarning retrospektiv ko'rsatkichlari yoki ma'lumotlar bazasini yaratish imkoniyati tadqiqotlar va kashfiyotlarning yangi yo'nalishlari yuzaga kelganda bo'ladi. Muammoli mahsulotlarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyati axborotni to'plashning chegarasini belgilashda, turli-tuman manbalarning keng doirasini jalb etishda, materiallar guruhini qayta ishlab chiqishda va obyekt (voqe, hodisa) haqida ma'lumotlarni berishda ko'rindi. Masalan, „Bozor iqtisodiyotida innovatsiya“ nomli bibliografik qo'llanma ishlab chiqarishni yangilash, takomillashtirish, investitsiyalarni va yangi zamona viy texnologiyani jalb qilish bilan band keng mutaxassislar guruhiga mo'ljallangan. Turli axborot manbalarini ko'rib chiqish bilan quyidagicha bo'limchalar ochish mumkin: innovatik yangiliklar va o'zgarishlar haqidagi fan sifatida; innovatsiyaning mohiyati va turlari; innovatsion jarayonlarning asosiy bosqichlari; ilmiy va innovatsion sohaning o'zaro ta'siri; innovatsion faoliyatni investitsiyalash; innovatsion faoliyat uchun investitsiyalar ajratish, innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish; o'zgarishlar menejmenti, tashkilotlarni ana shu yo'lga o'tkazish; yangi narsaning mohiyatini qabul qilishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari; innovatsion to'qnashuvlarning oldini olish mohiyati, uslubiyati va sabablari; innovatsion kommunikatsiyalar, innovatsion faoliyat infratuzilmasi; turli sohadagi innovatsion faoliyat tajribasi. 58 Internet ma'lumotlaridan foydalanish kitobxonlarga bibliografik xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi va uni bir vaqtning o'zida ham bibliografik, ham faktografik xizmatga aylantiradi. Hujjatlarni tanlashda axborotni bilish, uning imkoniyatlarini, ayrim matnli materiallarning imkoniyatlarini aniqlashga asoslanadi. Bundan tashqari, hujjatlarni tanlashda mamlakatning, tashkilotning ilmiy-texnik potensiali, muammoni ishlab chiquvchi mualliflarning, an'anaviy va elektron hujjatlarning turlichaligi va alohidaligi ham hisobga olinadi. To'plangan hujjatlar mazmuni ularda va ma'lumotlar bazasida mavjud tayyor referatlar va annotatsiyalar yoki ularni mustaqil tuzish yordamida ochib beriladi. Masmun aniq va to'la ochib berilsa, u iste'molchilar uchun foydali va keyingi ilmiy-tadqiqot ishlari uchun zarur bo'ladi. Axborot resurslarining elektron shakllari Oxirgi paytda kutubxonalar, muzeylar, arxivlar, axborot markazlari fondiga turli xil ko'rinishlarda, CD-ROM va disketlarda, boshqa axborot tashuvchi materiallarda elektron baza, ma'lumotlar banki olina boshlandi. Ma'lumotlar bazasi — axborotni avtomatlashgan ko'rinishda olishga, qayta ishslashga mo'ljallangan mashinada o'qish uchun moslashtirilgan va qo'yilgan maqsadga xizmat qiluvchi ma'lumotlar yig'indisi. Ma'lumotlar banki — axborotni qidirish, saqlash, qayta ishslashga mo'ljallangan bir necha ma'lumotlar bazasidan iborat avtomatlashgan axborot tizimi. Amaliyotda turli xil ma'lumotlar bazasi qo'llaniladi, ular: hujjatlari — bunda

bibliografik yozuvlar, axborot matni beriladi; bibliografik — faqat bibliografik tavsif yozuvlaridan iborat; referativ — bunda axborot bibliografik ma'lumotlar, referat va annotatsiya ko'rinishida beriladi; to'la matnli — axborot hujjatning to'la matnini yoki ma'lum bir qismini yoritish bilan beriladi; tabiiy matnli — axborot jonli tabiiy tilda boshqa yozuvlar, parchalar bilan bog'liq holda beriladi; birinchi darajali hujjatlar bazasi yoki faktografik — olingan sohaga oid axborotlarning ma'lumotlar bazasi. Ma'lumotlar bazasida eng muhim narsa maqsadli dasturiy ta'minot va doimiy yangilab borishdan iborat. Kitob palatalari davlat bibliografiyasining to'la ma'lumotlar banki yaratilmoqda. Unda adabiyotlar haqida to'la bibliografik axborot belgilangan qoidaga ko'ra to'plab borilmoqda. Respublikamizda ham nashr etilayotgan adabiyotlarning hamma turlari, shakllari an'anaviy solnomalar elektron ko'rinishda tayyorlab 59 borilmoqda. Ko'pgina kutubxonalar esa adabiyotlarning to'la matnini yig'ib, saqlash ishlarini boshladи, unda Davlat qonunlari, me'yoriy hujjatlar, badiiy asarlar, maxsus adabiyotlar, oliv o'quv yurti kutubxonalarida professor-o'qituvchilarning ma'ruza matnlari, darsliklari, o'quv qo'llanmalarining matnlari, ilmiy maqolalari, ilmiy to'plam materiallari, avtoreferatlar, talabalarning bitiruv-malakaviy ishlari, predmetlar yuzasidan dasturlarning matnlarini to'plash ishlari olib borilmoqda.

Nazorat savollari.

1. Bibliografik mahsulot nima?
2. Bibliografik ro'yxatlar va ularning turlarini aytib bering.
3. Kitob ichi ro'yxatlarining ahamiyati nimada?
4. Kitob, gazeta va jurnallarda beriladigan mustaqil axborot ro'yxatlarining xususiyatlari haqida to'xtaling.
5. Bibliografik sharhlar va ularning turlarini aytинг.
6. Bibliografik ko'rsatkichlarning ahamiyatini gapiring.
7. Bibliografik qo'llanmalar va ularning turlarini sharhlang.
8. Shaxsga oid ko'rsatkichlar, ularning xususiyatlarini aytib bering.
9. Axborot resurslari nima?
10. Ma'lumotlar bazasi va ma'lumotlar bankining farqi nima?
11. Ma'lumotlar bazasining turlarini aytинг.

21-mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Turkistonda bibliografiya ishi.

Reja:

1. O'zbekiston madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan „Turkiston to'plami“ haqida ma'lumot.
2. V.I. Mejov tomonidan „Turkiston to'plami“ning yaratilishi. „Turkiston to'plami“ga V.I. Mejov tuzgan yordamchi ko'rsatkichlar.
3. N.V. Dmitrovskiy rahbarligida „Turkiston to'plami“ning tuzilishi.
4. A.A. Semyonov boshchiligidagi „Turkiston to'plami“ning tuzilishi.

Tayanch iboralar.

O'zbekiston madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan „Turkiston to'plami“ haqida ma'lumot. V.I. Mejov tomonidan „Turkiston to'plami“ning yaratilishi. „Turkiston to'plami“ga V.I. Mejov tuzgan yordamchi ko'rsatkichlar. N.V. Dmitrovskiy rahbarligida „Turkiston to'plami“ning tuzilishi. A.A. Semyonov boshchiligidagi „Turkiston to'plami“ning tuzilishi.

Yevropaning O'rta Osiyoni o'rganishga va uni bosib olishga bo'lgan qiziqishi XVII asrning birinchi yarmidayoq boshlangan edi. Bu borada Angliya va Rossiya o'rtasida raqobat kuchli bo'lgan. XVII asrda angliyalik sayohatchi olimlarning Pomir va Amudaryoning yuqori sohillarini o'rganishga oid ishlari nashr etilgan. 1717-yilda rus podshosi Pyotr I topshirig'i bilan knyaz Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi O'rta Osiyoga harbiy ekspeditsiya yuborilgan. Uning

a'zolari Xiva atrofida butunlay qirib tashlangan (ekspeditsiya natijalari arxiv hujjatlari asosida XIX asrning oxirida I. T. Beschin tomonidan „Bibliografik monografiya“ nomi bilan nashr qilinadi). Shu davrdan boshlab rus olimlari va sayohatchilarida ham O'rta Osiyon O'rta Osiyoniga bo'lgan qiziqish oshib bordi. N. Muravyov, N. A. Seversov, A. P. Fedchenko, I. V. Mushketov, P. P. Semyonovlar boshchiligidagi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida bir necha bor O'rta Osiyoga ekspeditsiya yuboriladi. Bu ekspeditsiyalar natijasida Rossiya O'rta Osiyoning katta qismini bosib olish uchun imkoniyat yaratildi. 1867-yili rus qo'shinlarining Toshkentni bosib olishlari bilan Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi. Rus bibliograflari tomonidan O'rta Osiyo haqidagi rus va chet tillardagi adabiyotlarning bibliografiyasini tuzila boshlandi. Bu davrda O'rta Osiyoda bibliografiyaning paydo bo'lish sababini XIX asrning yirik rus bibliografi, birinchi bo'lib O'rta Osiyo haqidagi adabiyotlarni to'plagan V. I. Mejov „O'rta Osiyon“ har tomonlama chuqur o'rghanishga sof savdo va ilmiy maqsad sabab bo'ldi“, deb ko'rsatadi. Albatta, bu fikr ma'lum darajada to'g'ri, lekin ilmiy maqsad emas, balki sof harbiy maqsad ko'zda tutilib, O'rta Osiyo chuqur o'rghanilgan, desak mantiqqa to'g'ri keladi. Buni rus qo'shinlarining qo'mondoni, Turkiston general-gubernatori N. P. Kaufmanning V. I. Mejovdan O'rta Osiyo haqidagi adabiyotlarning bibliografiyasini tuzib berishni so'ragani isbot qilib turibdi. V. I. Mejov bunga rozi bo'lib, Turkiston haqida bibliografik ko'rsatkich emas, balki Turkiston haqidagi adabiyotlar to'plamini tuzib berishni taklif qiladi. O'rta Osiyo tarixini o'rghanishda XIX asr yirik rus bibliografi V. I. Mejovning Alisher Navoiy nomli O'zbekiston milliy kutubxonasining nodir kitoblar bo'limida saqlanayotgan, hozirga qadar o'zining ilmiy-amaliy ahamiyatini saqlab kelayotgan „Turkiston to'plami“ muhim ahamiyatga ega. Uning vujudga kelishi hamda ahamiyatiga oid V. I. Mejov zamondoshlari, hozirgi davr mutaxassislari Logofet, Y. K. Betger, N. M. Benediktova, O. G'. Qosimova, O. V. Maslova, Z. L. Fratkina va boshqalarning qator ilmiy tanqidiy maqolalari mavjud. Lekin bu maqolalarda „Turkiston to'plami“ning yaratilishi tarixi, ahamiyati, unga tuzilgan yordamchi ko'rsatkichlar yetarlicha yoritilmagan. V. I. Mejov tomonidan „Turkiston to'plami“ning yaratilishi Bu noyob kolleksiyaning yaratilish tarixi O'rta Osiyoda eng yirik kutubxonaning (hozirgi Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi)ning tashkil etilishi bilan bog'liq. 1868-yil oxirida „To'plam“ning dastlabki 2 jildi tayyorlandi. Bu o'sha davrdagi qator olim-bibliograflarning keyingi 50 yillik samarali mehnatining boshlanishi edi. Olimlarga bu ishda kitob ilmining katta bilmadoni, birinchi rus professional bibliografi, ko'p qo'llanmalarning muallifi, juda katta tashkilotchilik xususiyatiga ega V. I. Mejov boshchilik qildi. XIX asrning 60-yillari oxirlarigacha Turkiston o'lkasi Yevropa uchun ilm-fan nuqtayi nazaridan hali o'rghanilmagan katta bir soha edi. Turkiston Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin iqtisodiy va savdo-sotiq ishlari o'lkan tez va mukammal tahlil qilishni talab qildi. XIX asrning 60 — 70-yillarida Rossiya imperiyasi vaqtli matbuotida tez-tez O'rta Osiyo haqidagi maqolalar bosila boshlandi. Rus va xorijiy gazetalar sahifalarida O'rta Osiyoga oid siyosiyiqtisodiy va madaniy masalalar haqida bahs olib borilardi. Turkiston o'lkasi haqidagi axborotlar toshqiniga bardosh berish, ba'zan esa qarama-qarshi, bir-biriga zid fikrli axborotlarni to'g'ri tushunish qiyin edi. O'sha davr Peterburg va Moskva gazetalarida yangi o'lka haqidagi baholar yanada avjga chiqqa boshladidi. Lekin rus tilida gazetasi bo'lmagan Toshkentda tinchlik va osoyishtalik hukmronlik qilar edi. Pochta esa bu „qoloq“ o'lka hisoblangan „uzoq yurt“ga uch oylik kechikish bilan kelar edi. Temiryo'ning yo'qligi ham markaziy Rossiyani Turkistondan ajratib turardi. Shunday paytda ayrim fan fidoyilarida bu o'lka haqidagi materiallarni yig'ish va ularni joyida tadqiq qilish fikri tug'ildi. Shuning uchun kutubxonalarga talab nihoyatda oshdi. 1867-yilda o'lka generalgubernatori K. P. Kaufman yangi tashkil topayotgan kutubxonaga har xil ilmiy kitoblarni hadya etish iltimosi bilan barcha ilmiymadaniy tashkilotlarga murojaat qilishga majbur bo'ldi. Birinchi bo'lib bu iltimosni Rossiya Fanlar akademiyasi, Peterburg xalq kutubxonasi va Rus geografiya jamiyatni bajarishga kirishdi, ulardan olingan bir necha yuz kitob Turkiston xalq kutubxonasi fondiga asos soldi. O'sha davrning o'zidayoq V. I. Mejovga O'rta Osiyo haqidagi adabiyotlar bibliografiyasini tuzish taklif etildi. Bundan tashqari, V. I. Mejov O'rta Osiyo haqidagi bor adabiyotlarni ko'rsatish bilan cheklanib qolmasdan, to'plamni ham tuzishni o'z zimmasiga oldi. V. I. Mejov

Turkistonning poytaxtdan uzoqligini hisobga olib, bu o'lka haqidagi mavjud adabiyotlarning nomlarini sanab o'tishning o'ziga amaliy ahamiyat kasb etmaydi, deb hisoblardi. „Turkiston to'plami“ 1- jildining kirish qismida u shunday deb yozgan edi: „Ba'zi bir joy yoki ba'zi narsalar haqidagi maqolalarning maxsus bibliografik ko'rsatkichlari, shubhasiz, katta foyda keltiradi, lekin ular katta kutubxona yo'q joylarda bibliografik ko'rsatkichlarda berilgan adabiyotlarni to'la bajarmay va iyerografik yoki kabbalistik belgilar bilan kitoblarga aylanib qoladi“. V. I. Mejov 1868- yilda ishlarning nomini emas, balki to'plamlarga birlashtirilgan kitoblar matnlarini, jurnal va gazeta maqolalarini mujassamlashtirgan o'ziga xos kutubxona tashkil etishga kirishdi. Uning sa'y-harakati va ilmiy jonkuyarligi tufayli bizga 400 000 bibliografik yozuv kiritilgan 50 dan ortiq meros qoldi. Peterburgda istiqomat qilgan, nashrdan chiqayotgan kitoblar va vaqtli matbuot nashrlari bilan tanishish imkoniga ega bo'lgan Mejov Turkiston general-gubernatori tomonidan to'plam tuzish uchun ajratilgan mablag'lardan foydalaniib, O'rta Osiyo va unga yondosh mamlakatlarga oid hamma materiallarni yig'ib bordi. Turkistonga oid gazeta maqolalari va ba'zi kitoblardagi materiallar saralanib, varaqli qog'oz ramkaga yelim bilan yopishtirildi. Hamma yopishtirilgan materiallar yig'ilgach, jiddlarga ajratilib, muqovalandi. Jiddlar bir xil muqovalangan va bosmaxonada bositgan, titul varag'i bilan ta'minlangan. V. I. Mejobning yutug'i shuki, u jurnal, gazeta maqolalarini nashrdan chiqishi bilan yig'ardi, shuning uchun xronologik izchillik saqlangan. 1968-yil 1-jildga yozilgan so'zboshida to'plam tuzuvchisi shunday yozadi: „Doimo adabiyot bilan tanishib yurgan kishi O'rta Osiyo ichkarisida joylashgan mamlakatlar haqidagi materiallar qanchalik qashshoqligini biladi. Bir yilda nashr etilgan 2 — 3 ta asargina bizni kundan kunga yanada ko'proq qiziqtirayotgan yangi mamlakatlar haqidagi bilimlarimizga qo'shilgan hissadir. Men bu yerda kitobni nazarda tutaman, zamonaviy nashrlardagi maqolalarga kelganda birgina ularning ko'pligi jamiyatimiz O'rta Osivoda qo'lga kiritgan narsalarga qay darajada qiziqishidan dalolat beradi. Shuning uchun men oz bo'lsa-da, bu asarlarim bilan qo'lga kiritilgan yangi o'lkaga nafim tegishini ko'zlab, kutubxonaga qo'shaloq qilib ushbu maqolalar to'plamini hadya etishga jazm etdim“. 1868- yili „To'plam“ning 1867- yil materiallarini o'zida mujassamlashtirgan 4 ta jildi tayyorlandi. Keyingi yillarda esa, izchil ravishda, 1887- yilga qadar „To'plam“ning jiddlari 77 tayyorlanib, Turkiston xalq kutubxonasiga yuborib turildi. 1888- yilga kelib, 5000 ga qadar materialni o'z ichiga olgan 416 jildi tayyor bo'ldi. To'plamning mukammalligi haqida V. I. Mejov: „Bu o'ziga xos katta bir qomus, — deydi, — ammo hali u men xohlagan darajada to'la emas. Ba'zi maqola va kitoblar mening to'plamimda juda kam, adabiyotning o'ndan bir qismigina, xolos“. 20 yil (1867 — 1887- yy.) mobaynida Rossiya va xorijda O'rta Osiyo haqida chiqqan jami 4713 nomdagi gazeta, jurnal maqolalari, kitoblar, badiiy asarlar, hattoki illustrativ materiallar to'plamning 416 ta jildiga kiritilgan. Bu to'plamning yaratilish tarixi haqida bahsli tomonlar ham bor, ya'ni ba'zi mualliflarning fikricha, ushbu ishga birinchi bo'lib bibliograf S. A. Idarov qo'l urgan. „Turkiston to'plami“ni tuzish g'oyasini, — deb yozadi o'zbek bibliografiyasi tashkilotchilaridan biri N. A. Burov, — K. P. Kaufman emas, balki V. I. Mejov yoki S. A. Idarov ilgari surgan“. N. A. Burov O'rta Osiyo haqida yozilgan, O'zbekiston milliy kutubxonasining nodir kitoblar fondida saqlanayotgan, XX asrning 50 — 60- yillarida nashr qilingan Rus geografiya jamiyatining „Âiâiíûé ñâîpiéê“ nashridan olingen 2 ta shunga o'xshash maqolalar to'plamini asos qilib olgan bo'lishi mumkin. Bu to'plamlar Turkiston general-gubernatori idorasining birinchi boshqaruvchisi, O'rta Osiyo o'lkasi bilimdoni N. K. Gyesning kutubxonasidan topilgan. Bu kutubxona Gyesdan 1869- yili Toshkent xalq kutubxonasi tashkil etilayotganda sotib olingen edi. To'plamning har ikkisi ham S. A. Idarov tomonidan tuzilgan, hozirga qadar kutubxonaning nodir kitoblar fondida saqlanayotgan 1849 — 67- yillarda nashr etilgan O'rta Osiyoga oid geografik va etnografik xarakterdagи maqolalar kiritilgan yana 6 jildi saqlanmoqda. „Turkiston to'plami“ga V. I. Mejov tuzgan yordamchi ko'rsatkichlar „Turkiston to'plami“ning V. I. Mejov tomonidan tuzilgan va 1878 — 84- yillar nashr etilgan 3 jildlik „Rus va xorijiy tillardagi asarlar va maqolalarning alifbosi va sistemali ko'rsatkichi“ ko'rsatkichi katta ahamiyatga ega. 78 Ko'rsatkichda materiallar quyidagicha guruhlashtirilgan: 1. Umuman O'rta Osiyo o'lkasi. 2. Xususan Turkiston o'lkasi. 3. Rossiyaga bo'ysunmagan O'rta Osiyo o'lkalari. Dastlabki

bo‘limda materiallar sistemali joylashtirilgan. 2- bo‘limga geografiya va statistika, gidrografiya, aloqa yo‘llari, kartografiya, tarix, etnografiya, O‘rta Osiyoda bo‘lib o‘tgan urushlar tarixi, siyosiy-iqtisodiy va huquqiy fanlar, qishloq xo‘jaligi, paxta yetishtirish, vino ishlari, tog‘ ishlarining rivojlanishi, geologiya ishlari tarixiga oid, meteorologiya, tabiat tarixi, astronomiya va geodeziya, meditsina, tilshunoslik va lug‘at bo‘yicha adabiyotlar keltirilgan. Ushbu soha masalalariga oid adabiyot bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda sistemalashtirilgan. Materialni joylashtirish sxemasi Mejov tomonidan hamisha takomillashtirilib, muayyan fan sohalari bo‘yicha yangi rubrikalar ajratib borilgan. 3- bo‘limda Buxoro, Xiva, Turkmaniston, Mo‘g‘iliston, Sharqiy Turkiston, Kashmir, Angliyaning Hindistonni bosib olgan joylari va ularning O‘rta Osiyoga munosabati, Afg‘oniston, Hirot va boshqa o‘lkalarga oid adabiyotlar joylashtirilgan. Ko‘rsatkichga juda qulay yordamchi „kalitlar“ tuzilgan: 1. Bibliografiyada uchraydigan muallif, tarjimon va boshqa shaxslar nomlarining alifboli ko‘rsatkichi. 2. Xorijiy bibliografiyada uchraydigan muallif va predmetlarning alifboli ko‘rsatkichi. 3. Joy va predmetlarning alifboli ko‘rsatkichi. Alifboli ko‘rsatkichlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, muallifning familiyasi, joylari yoki predmetlarning nomidan keyin asarlar nomi keltirilgan va ko‘rsatkichning sistemali qismida uni ro‘yxatga olish tartib raqami ko‘rsatilgan, mualliflar va asarlarining to‘plamga berilgan kalitida 3 marta takrorlanish prinsipi „To‘plam“dan foydalanish uchun juda qulay imkoniyat yaratadi. Ko‘rsatkichda har bir yangi maqola yoki kitobni tavsiflashdan oldin sarlavha, muallifning familiyasi, so‘ngra qavs ichida nashr manbasi (jurnal, gazeta va boshqalar) haqida ma’lumot va oxirida esa yangi satrdan shu kitob yoki maqola kiritilgan „Turkiston to‘plami“ jildining raqami berilgan. Bu prinsip „Turkiston to‘plami“ bo‘lmagan holda yordamchi „Kalitlar“ni mustaqil bibliografik manba sifatida qo‘llash imkonini beradi. Shu munosabat bilan Mejov 1-jildning so‘zboshisida shunday yozadi: „Men o‘z 79 ko‘rsatkichimni faqat „Turkiston to‘plami“dan foydalanish imkoniga ega bo‘lgan shaxslar uchun ham yaroqli qilib tuzganman. Shu maqsadda men to‘plamda joylashgan har bir maqolaning sarlavhasi oldida bu manba qaysi vaqtli nashrdan olinganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotni havola qiluvchi izohlar berdim“. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, ushu yaxshi niyat hamisha ham to‘g‘ri amalga oshavermagan. Binobarin, ko‘rsatkichning ba’zi joylarida manba ko‘rsatilgan bo‘lsa, uning nashr yili, chiqish soni va boshqalar ko‘rsatilmagan. Bundan tashqari, bibliografik tavsifdagi ayrim har xilliklarning sababi — „To‘plam“ joylashgan yerdagi (Toshkent) mahalliy kutubxonachi tomonidan yozilganligi va qolganlarinigina „to‘plam“ni tuzish vaqtida Mejovning o‘zi tayyorlaganligidir. „Turkiston to‘plami“dagi Toshkent qismining tavsifini Kaufman topshirig‘i bilan Turkiston xalq kutubxonasi kutubxonachisining yordamchisi V. Chuyko bajargan. Buni uning Kaufmanga yozgan ma’lumotnomasi isbotlaydi: „Hazrat oliylari buyrug‘iga muvofiq janob Mejov bergen yozma ko‘rsatma asosida u kishi tomonidan tuzilayotgan Turkiston o‘lkasi va O‘rta Osiyoga tegishli mamlakatlar haqidagi asarlar to‘plami“ uchun tayyorlangan ko‘rsatkich materiallarini Sizga taqdim etishga ijozat bergaysiz“. Qizig‘i shundaki, V. Chuyko „Turkiston to‘plami“dan foydalanish uchun vaqtinchalik ko‘rsatkich tuzgan edi. O‘scha ma’lumotnomada shunday deyilgan: „Esga olingan ko‘rsatkichni tuzish, nashr etish va yuborish 8 oyga yaqin vaqtini olishini taxmin qilib, men to‘plam bilan tanishuvchilarining foydasini ko‘zlab, vaqtinchalik ko‘rsatkich ham tuzdim, uni ham Siz hazrati oliylariga yubordim“. Kaufman Chuyko fikrini qo‘llab, vaqtinchalik ko‘rsatkich uchun tashakkur bildiradi. Afsuski, respublika kutubxonasi fondida ushuvaqtinchalik ko‘rsatkich saqlab qolinmagan va „Turkiston to‘plami“ning qaysi jildi uchun tuzilganligini bilish qiyin. Qator xatolari, materialni sistemalashtirishdagi juz‘iy kamchiliklariga qaramay, ko‘rsatkich nihoyatda noyob bibliografik qo‘llanmadir. Ko‘rsatkich V. I. Mejov zamondoshlari tomonidan juda yuqori baholangan. Taniqli sharqshunos olim D. I. Logofet shunday yozgan edi: „V. I. Mejovning bunday yirik ishi unga nafaqat mashhurlik, balki ishiga manbalar kerak bo‘lgan barcha odamlarning tashakkurini keltirdi va har bir shaxs o‘z ishida O‘rta Osiyoga oid masalalarni hal qilishda „Turkiston to‘plami“ga tuzilgan ko‘rsatkich bilan uchrashgan“, deb yozadi. V. I. Mushketov „Turkiston to‘plami“ni shunday ta‘riflaydi: „Kaufman kutubxonani tashkil etdi, uning eng noyob narsalaridan biri bibliograf V. I. Mejov tayyorlagan 416 jilddan iborat bo‘lgan „O‘rta Osiyo va

Turkiston o'lkalariga oid asarlar va maqolalarning Turkiston to'plamidir. Shuni aytish kerakki, to'plamga V. I. Mejov o'zi topolmagan yoki bevosita ko'rmagan ko'pgina materiallarni kiritmagan. Bu haqda „To'plamga“ tuzgan ko'rsatkichning 1- jildiga yozgan kirish so'zida shunday deydi: „Men kitobning nashrdan chiqqanidan xabar topib, pul yuborardim. Lekin kitobni ololmasdim, hattoki pullar ham qaytarilmasdi“, deb yozadi. „To'plam“ning mukammal emasligini zamondoshlari, O'rta Osiyo o'lkasi tadqiqotchilari P. V. Dmitrovskiy va N. N. Ostroumovlar ham ta'kidlashgan. 1884- yilda ular generel-gubernator I. O. Rozenbaxga „Xalq kutubxonasini tiklash“ (Turkiston xalq kutubxonasi 1883- yil 1- yanvarida K. G. Kaufman vafotidan keyin uning o'rniga bo'lган general-gubernator M. Chernyyayev tomonidan yopilgan edi) va „Turkiston to'plami“ni tuzish masalalari bilan shug'ullanuvchi komissiya a'zolari nomidan xat yo'lladilar. Bu xat Mejov to'plamining to'xtab qolishiga asosiy sabab bo'lган. „Turkiston to'plami“ni tuzish va jildlarni tayyorlash ishlari izchil ravishda 1887- yilgacha davom etdi. Chunonchi har yili o'rta hisobda 20 tadan jild tayyorlangan. Agar ruslarning Turkiston o'lkasini o'rganish va tadqiq etish bo'yicha dastlabki 20 yil mobaynida ko'p sonli ekspeditsiyalar va ilmiy tadqiqotlar o'tkazgani natijasida o'lka haqida yirik hajmli fundamental ishlar vujudga kelgan bo'lsa, keyingi o'n yillikda bu ishlar ancha susayib ketganligini ko'rish mumkin. „Turkiston to'plami“dan tashqari, V. I. Mejov „Xiva to'plami“ni ham tuzgan edi, lekin uning taqdidi hozirgacha noma'lum. 1865-76 yillarda chiqqan „Rus tarixiy bibliografiyasi“da V. I. Mejov shunday yozgandi: „K. P. Kaufman topshirig'i bilan men uning uchun bir nusxada „Turkiston to'plami“ga o'xshash 6 yoki 7 jilddan iborat bo'lган Xiva yurishi haqida to'plam tuzdim. U hozirgi vaqtida qayerda ekanligi menga noma'lum“. General-gubernatorning o'sha 1887- yilgi buyrug'idan so'ng, keyingi 20 yil mobaynida Turkiston o'lkasi haqida yozilgan kitob va gazeta materiallari hech kim tomonidan to'planmadidi. N.V. Dmitrovskiy rahbarligida „Turkiston to'plami“ning tuzilishi „To'plam“ni tiklash haqidagi masala o'n yildan keyin 1898-yili ko'tarildi. 1907- yilga kelib, Turkiston general-gubernatori N. I. Gardskov buyrug'i bilan ish Toshkentda davom ettirila boshlandi. 1907-yili na Moskva, na Peterburgda bunday muhim ahamiyatga ega ishni olib boruvchi fidoyilar bor edi, ammo Toshkentda O'rta Osiyoga bag'ishlangan adabiyotlar bilimdoni N. V. Dmitrovskiy (1841 — 1910) kabi bibliograflar va Rus geografiya jamiyatining Toshkent bo'limi atrofida jipslashgan bir qator taniqli o'lkashunoslar bor edi. Bu davrga kelib xalq kutubxonasing fondi ham boyib bordi va mustahkamlandi. Shunday qilib, „Turkiston to'plami“ tarixida „Peterburg“ davri o'rniga „Toshkent“ davri keldi. „To'plam“ni tuzish bo'yicha ishlarning barchasi, asosan, Turkiston xalq kutubxonasi qoshida yetisha boshlagan mahalliy jonkuyarlar ishtirokida olib borildi. O'lkashunos bibliograf N. V. Dmitrovskiy boshchiligidagi „Turkiston to'plami“ni tuzish uchun Turkiston xalq kutubxonasi nazorat qo'mitasi a'zolaridan byuro tashkil etildi. Byuroning birinchi majlisida uning har bir a'zosiga vazifalar berildi. N. V. Dmitrovskiy byuroga rais etib saylandi va jurnallarni ko'rib chiqishni o'z zimmasiga oldi. Turkmanistonda rus tilida chiqqan hamma gazetalarni I. I. Geyer, A.A. Divayev va I.A. Timeyevlar ko'rib chiqishlari kerak edi. O'sha majlisdayoq gazetasini materiallarini, O'rta Osiyo haqidagi ba'zi asarlar (kitob, to'plam)ni to'plamga kiritmaslikka kelishdilar, chunki ularning to'liq nusxalari kutubxonada saqlanadi. Bundan tashqari, N. V. Dmitrovskiy gazetaga yillik yordamchi ko'rsatkich tayyorlash vazifasini ham bajardi. Ma'lum vaqt o'tgach, byuroga I. A. Valiyevich, A. D. Kammikov, A. A. Zvarkinalar, 1910- yildan A. A. Semyonov kirdi. Turkiston ilmiy jamiyatlarining a'zolari S.V. Bartold, Bonch- 82 Bruyevich, P.P. Semyonov-Tyanshanskiy va boshqalar byuro a'zolariga imkon boricha yordam berib turdilar. Mejovdan keyingi davrdagi „Turkiston to'plami“ jildlarining nomi o'zgargan. Mejov bergen „1906- yil“ 492 jildgacha ko'rsatiladi. 494- jildga ham shu yil yozilgan, lekin 493, 495-jildlarida negadir „1907- yil“ yozilgan, 496- jilddan to'xirigacha chiqqan yillari ko'rsatilmagan. Bu jildlarning tuzuvchilari imperiya markazidan uzoq hisoblangan O'rta Osiyoda, rus madaniyati markazlaridan uzoqda bo'lsa-da, gazeta qirqimlari byurosi xizmatidan foydalandilar va qirqim materiallari bilan to'plamning keyingi jildlarini to'ldirib bordilar. Turkiston matbuotidan ham juda ko'p materiallar olindi. Shuning uchun ham 127 jilddan 81 tasi, ko'proq 1907 va shunga yaqin yillarda chiqqan gazetalardan olingen maqolalar bo'lib, 423, 446, 452 va 467- jildlarga

o‘zbek va rus tilidagi materiallar kiritilgan. Eng muhim materiallar jurnal maqolalari, risolalar, kitoblar bo‘lib, 46 ta jildga kiritilgan, ulardan 5 tasi gazetadan olingan. Bu jildlarning hammasi Mejov to‘plamlariga nisbatan ilmiy jihatdan ancha bo‘sh ishlangan. N. V. Dmitrovskiy tuzgan „Turkiston to‘plami“ning taqdiri og‘ir bo‘ldi, ularning qanchaligi va qayerdaligi haqida aniq ma‘lumotlar yo‘q. Hozir Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy kutubxonasida N. V. Dmitrovskiy tuzgan 5 ta to‘plam saqlanmoqda, bu 1871 — 78- yillarda chiqqan „TópéâñTáíñéèå áåäíññTè“ gazetasidan olingan o‘lkashunoslik mazmunidagi maqolalarni o‘z ichiga oluvchi, hajm jihatidan kichik bo‘lgan to‘plamdir. Ko‘chirmalar bir xil hajmdagi risolalar shaklida jiddlangan. To‘plamlar bosmaxona usuli bilan ishlangan sarvaraqqqa ega: „TópéâñTáíñéèé ñáípiéê. Tii I (äëy áåóð éiéä)“ va 83 „TópéâñTáíñéèé ñáípiéê. Tii II (äëy áåóð éiéä)“ ramkasida 1872- yil ko‘rsatilgan to‘plamlarda mundarijalar yo‘q edi, keyinchalik ular Y. K. Betger tomonidan qo‘l bilan yozilgan. Kutubxonada saqlanayotgan N. Dmitrovskiyning boshqa, ko‘lamni jihatidan har xil bo‘lgan, 17 jiddli to‘plamiga ham gazetalardan qirqib olingan xabarlar kiritilgan. Ular, asosan, nashr qilingan vaqtiga muvofiq, xronologik tartibda joylashtirilgan, ba’zi bir vaqtli matbuot nashrlarining nomlari yo‘q, ular tasodifan qirqilib ketgan bo‘lishi ham mumkin. Lekin tuzuvchi u ma‘lumotlarni qo‘lda yozib qo‘yishni ep ko‘rmagan. To‘plamlarning tashqi ko‘rinishi Mejov to‘plamlaridan sodda ishlanganligi bilan ajralib turadi. Qirqib olingan materiallar qog‘ozga yelim bilan yopishtirilmay, muqovalangan. Faqat 4 ta jild „TópéâñTáíñéèé ñáípiéê“ sarlavhali sarvaraqqqa ega. Yozuvlar hamma jildlarning tikilgan joyida bosilgan, undan tashqari, 6 ta jildning muqovalarida raqami ham bosilgan, birortasining mundarijasi yo‘q. To‘plam Y. K. Betger tomonidan raqamlagan, hamma jiddlarni bezatib, maqolalarning „TópéâñTáíñéèé ñáípiéê Í. È. ÄìèTpíâñéïä“ nomli alifbo kartotekasini tuzdi. E. K. Betger „Ííâûå iàTâpèàëü TópéâñTáíñéïä ñáípiéê“ maqolasida „N. V. Dmitrovskiyning 17 jiddli to‘plami 1840 — 1890- yillarda nashr etilgan 186 maqolani o‘z ichiga oladi. Materiallarning 72%i V. I. Mejov to‘plamiga kirmagan, shuning uchun ham N. V. Dmitrovskiy to‘plamlari O‘rta Osiyo o‘lkasini har tomonlama o‘rganuvchi tadqiqotchilar uchun qiziqarli ma‘lumotlar bera oldi“, deb yozgan edi. A. A. Semyonov boshchiligidagi „Turkiston to‘plami“ning tuzilishi 1910- yildan „Turkiston to‘plami“ni tuzishni bibliograf A. A. Semyonov 1916- yil oxirigacha davom ettirdi. A. A. Semyonov 1888- yildan keyin chiqqan to‘plamlarning oldin tushirib qoldirgan muhim materiallarni yig‘ish bilan shug‘ullandi. „Turkiston to‘plami“ning Toshkent davridagi mazmuni keskin o‘zgardi, 544 jilddan butunlay boshqa rejada tuzila boshlandi. „Turkiston to‘plami“ning bu davri, — deb yozadi O‘zbekistonning taniqli kitobshunos-bibliografi E. K. Betger, — haqli ravishda „Semyonov davri“ deb ataladi“. 1906- yil iyul oyidan boshlab Turkiston xalq kutubxonasi 84 nazorat qo‘mitasining a’zosi bo‘lib kelgan A. A. Semyonov bu kutubxonanining ilmiy ishida faol qatnashdi. „A. A. Semyonovga „Turkiston to‘plami“ni tuzishga boshchilik qilishning topshirilishi, — deb yozadi Y. K. Betger, — eng oliyjanob ishdir, chunki Toshkentda undan boshqa hech bir kishi bu ishga Semyonovchalik tayyor emas edi“. XX asr boshlariga kelib, ijtimoiy-siyosiy ahvol o‘zgardi: gazetalar soni ko‘paydi, ayrim gazetalar o‘zining ilgarigi mavqeini yo‘qotdi („TópéâñTáíñéèå áåäíññTè“ gazetasasi 1910- yil.). Eng asosiy va ayrim nashrlarda O‘rta Osiyoga bag‘ishlangan ko‘plab yangi jiddiy ilmiy ishlar paydo bo‘la boshladi. Shuning uchun Mejovdan keyin dastlabki 127 jildni, gazetadan qirqib olingan materiallar bilan to‘ldirib tashlashga A. A. Semyonov chek qo‘ydi, u uzoq yillar davomida yig‘ilgan materiallarni to‘plab, o‘rganib, saraladi, 544 — 545- jildni esa 1914- yilda nashr ettirdi. Shunga qaramay, 545- jildga gazetadan qirqib olingan 30 ga yaqin eng muhim materiallarni kiritdi. Shu jildga iqtisodchi olim V. V. Dininning Zarafshon daryosi yuqori qismida yashayotgan tog‘li aholining iqtisodiy hayotiga bag‘ishlangan tadqiqotini ham qo‘shadi. „Turkiston to‘plami“ni isloh qilish bilan uning har bir jildini muayyan mavzu bo‘yicha bir tizimga keltirdi. Agar bu holat Mejov ishlarida oz-oz sezilgan bo‘lsa, Semyonov davridagi to‘plamda avvalgi bibliograflarning xatolari hisobga olingan edi. Maxsus „ÈçâåñTèÿ Póññéïä Áåíäpàöè÷åñéïä íáùåñTââ“ga mansub hamma jurnallarning Turkiston o‘lkasiga doir maqo-lalari bir izchillikda yig‘ilganligi bunga misol bo‘ladi. Uning rahbarligida tuzilgan jiddlar materiallarini sistemalashtirish g‘oyasi o‘zidan oldingilarning an’anasiga qo‘shilgan yangilik va o‘ziga xos prinsip bo‘lib qoldi. U O‘rta Osiyo

haqidagi barcha ma'lumotlarni yig'ish qiyinligini tushunib, „To‘plam“ jiddlarida o‘scha vaqt Turkistondagi eng muhim narsa va hodisalar axborotini berishga intildi. Shu nuqtayi nazardan, A. A. Divayev ishlariga bag‘ishlangan 566 — 569- jiddlar diqqatga sazovor, olimning etnografiyaga tegishli 59 asari kiritilgan. 556, 557 va 587- jiddlarda o‘scha davr O‘rta Osiyo lingvistikasi bo‘yicha olimning filologiyaga oid 15 ta ishi kiritilgan. Shuni ta‘kidlash kerakki, material yig‘ish vaqtida A. A. Semyonov to‘plamga mualliflar o‘z imzosi bilan unga taqdim qilgan asarlarni ham kiritib, kitob mualliflarining taxalluslariga baho va eng yaxshi asarlarga izoh bergen. Bevosita o‘zi tuzgan jiddlar uchun mundarija bergen, faqat oxirgi 85 112- jilda Toshkentdan ketib qolishi tufayli bu ish bajarilmay, „Turkiston to‘plami“ ustidagi ish to‘xtatildi. „Turkiston to‘plami“ning davom ettirilishi 1916- yil „Turkiston to‘plami“ni tuzish to‘xtatildi, lekin Y. K. Betger 20- yillarda „To‘plam“ning yana 3 jildini tuzib chiqdi. Betger ishtiroki va yordami bilan O. V. Maslova Mejovdan keyin tuzilgan 417 — 591- jildlarga sistemali ko‘rsatkich tuzadi. Unda faqat Turkistonga oid material saralab olinib, yangi klassifikatsiya jadvali asosida 10 ta bo‘limda materiallarni xronologik tartibda joylashtirgan. Mualliflarning alifbo ko‘rsatkichi va geografik nomlar ko‘rsatkichidan tashkil topgan yordamchi apparat ham mavjud. V. I. Mejovning yordamchi ko‘rsatkichlардан farqli o‘larоq, O. V. Maslova tuzgan yordamchi ko‘rsatkichlarda bibliografiya bo‘limi yo‘q, bu esa bibliografiyaga oid materiallarni topishni qiyinlashtiradi. Bu ko‘rsatkichdan foydalanishning yana bir qiyin tomoni shundaki, u yozuv mashinkasida ko‘chirilgan. „Turkiston to‘plami“ni yakunlash maqsadida Y. K. Betger 1948- yilga kelib „ÓêàçàTâëü ê.T.T. „TópêåñTâíñéïä ñáîpiéèä“ iññéä Á. È. İåæïåñéïä iäpååïää iñ äïïpïñäi, iñTíñýüëöñy ñTpái, ññipäååéäiñüð ñ TópêåñTâíñéèi“ nomli ko‘rsatkichni tuzdi. Materiallar mamlakatlar bo‘yicha xronologik tartibda joylashtirilgan. Ko‘rsatkich 2368 ta annotatsiya va xabarlardan iborat bo‘lib, 278 sahifali. „Turkiston to‘plami“ning 29 ta jildi Rossiya davlat kutubxonasida saqlanmoqda. Y. K. Betger o‘zining maqolasida ana shu 29 (1 — 2, 4 — 30) jild haqida yozadi. To‘plamga Mejovning „Turkiston to‘plami“ hajmiga teng qog‘ozga yopishtirilgan gazeta xabarlaridan iborat jiddlar kiritilgan. Y. K. Betger tomonidan topilgan to‘plamning har bir jildi bosmaxonada bosilgan titul varag‘iga ega. Unda „TópêèñTâi. Ñáîpiéè ñTâTâé, çàìåTîé è êíppâññiääíöèé iñ Ñpåäiåé Áçèè, iàïå÷àTâíñüð â ñTiéè÷íüð è iñiâèíöèäëüíñüð åàçåTâò TâøéäíTâ“ degan yozuv bor. Tuzuvchining ism-sharifi, to‘plam tuzilgan davr hech qayerda ko‘rsatilmagan, kirish so‘zi berilmagan. Uslub jihatdan Mejovning „Turkiston to‘plami“ga nisbatan bo‘sh ishlangan: maqolalar manbalari ko‘rsatilmagan; mundarija yo‘q; materiallarni joylashtirishda xronologik izchillikka rioya 86 qilinmagan (har bir to‘plamda turli yillarga oid gazeta maqolalari uchraydi); materiallarni guruhlashtirish tartibini aniqlash qiyin. To‘plamning hajmi kattaligi uchun qimmatli materiallardan foydalanish qiyin, lekin bu masalani hal qilish ishi bilan Y.K. Betger shug‘ullandi va „ÓêàçàTâëü ê ñáîpiéèäi „TópêèñTâi“, õpâiýøèöñy â ÂññoäapñTâåññé áéáçèñTâéå PÑÔÑP“ nomli yordamchi ko‘rsatkichni tuzdi. Unda 29 ta jildning mazmuni predmet va shaxs ismlari ko‘rsatkichi bilan yoritildi. Hozirga qadar bu jiddlar kim tomonidan tuzilganligi aniqlanmagan. Y. K. Betgerning fikricha, V. I. Mejov tomonidan tuzilgan dastlabki 9 jildi Peterburgda, keyinchalik N. Dmitrovskiyning iltimosiga ko‘ra, Toshkentga yuborilgan va to‘plamlarga yangi titul varag‘i qilingan. Qolgan 20 jildi Y. K. Betgerning yozishicha, Dmitrovskiy tomonidan tuzilgan. „Turkiston to‘plami“ning yana bir qimmatli tomoni shundaki, bunda sho‘rolar davrigacha bo‘lgan O‘rta Osiyo bibliografiysi, metodikasiga oid 10 dan ortiq maqola, rus, xorijiy tillarda yozilgan Turkiston o‘lkasiga oid 30 ga yaqin bibliografik ko‘rsatkichlar kiritilgan. V. I. Mejov an‘analarining davom ettirilishi V. I. Mejov an‘analar 1970 yillarigacha davom ettirildi. Ko‘p yillar mobaynida Toshkent davlat pedagogika instituti „Bibliografiya“ kafedrasi mudiri, 1974- yildan Toshkent davlat madaniyat instituti, „O‘zbekiston tarixi“ kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori, professor G. N. Chabrov 1940- yildan boshlab „O‘zbekiston madaniy hayotining solnomasi“ mavzusida gazeta maqolalari to‘plamini tuzib bordi. 1940- yoldayoq tasviriy san’at masalalari bo‘yicha gazeta maqolalarini to‘plash ishlarini boshlagandi. Frontdan qaytgach, ya’ni 1940 — 1951- yillar uchun maqolalarni yig‘adi. Mavzular ko‘lami ham sal kengayadi. O‘zFA va respublika muzeylariga oid maqolalar yig‘iladi. 1960- yilgi to‘plamning tuzilishi murakkablashib, asta-sekin to‘ldirib, boyitib borildi.

1940 — 1972- yillarni o‘z ichiga olgan 56 ta jild tarkibida O‘zFA, Sharqshunoslik instituti va uning 40 yilligi, Geografiya jamiyati, Arxeologiya, O‘rta Osiyo tarixi, O‘zbekiston rassomlari uyushmasi, San’at, Arxitektura, Me’morhilik, Amaliy san’at, Havaskorlik san’ati, Kolleksiya, Kutubxonalar va Arxivlar, Bibliografiya, Personaliya, turli masalalar, Nekro- 87 loglar kabi bo‘limlar mavjud bo‘lib, 11748 maqola va xabarlar, 6823 muallif haqida ma’lumot berildi. Hayotining oxirigacha professor G. N. Chabrov to‘plamning 77 jildini tuzadi. U to‘plamga, asosan, respublikamizda chiqayotgan „İpââà ÄîñTiêà“, „TàøéâíTñéâý ipââà“, „Èîññîñéâö ÓçáâèèñTâià“, „Âå÷åpíéé TàøéâíT“ gazetalar materiallarini kiritgan. Har bir jild 2 ta yordamchi ko‘rsatkich, maqola va xabarlar mualliflari hamda sistemali ko‘rsatkichga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, G.N. Chabrov tayyorlagan to‘plam uning fikricha, V. I. Mejovning „Turkiston to‘plami“ga qaraganda ancha past darajada turadi. To‘plamda O‘zbekiston madaniyatiga oid ayrim masalalar yoritilgan, xolos. Chunki chiqayotgan adabiyotlarning soni shu qadar ko‘p ediki, ularni bitta to‘plamga joylashtirishning hech qanday iloji bo‘lmagan. „Turkiston to‘plami“ning noyob o‘lkashunoslik materiallari hozirgi paytdagi turli ilmiy-tadqiqot ishlarida, o‘lkashunoslik va mavzuli ko‘rsatkichlar tuzishda juda katta ahamiyat kasb etadi. 1908- yildayoq Sharqshunoslik jamiyati O‘rta Osiyo bo‘limining a’zolari V. F. Geys, B. P. Kareyev va S. D. Maslovskiy „Turkiston to‘plami“dan foydalanib, „Äèáèèñpàöèý ÄôâàíèñTâià“ („Afg‘oniston bibliografiysi“) ko‘rsatkichini tuzadi. Unga „Turkiston to‘plami“ning 416 jildidan joy olgan Afg‘oniston haqidagi 350 maqola va kitoblar kirgan. 1946- yili „Turkiston to‘plami“ning materiallari asosida Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy kutubxonasi xodimlari N. M. Bendektova va Y. K. Betgerlar „Èèpâèçèý ià ñTpâiéöàö „TópeâñTâíñéïä ñâipíèèà“ („Qirg‘iziston „Turkiston to‘plami“ sahifalarida“). 1958- yilda Qozog‘iston FA Tarix instituti ilmiy xodimi A. Xo‘jayev „ÝTíñpàöèý ÈàçàõñTâià“ („Qozog‘iston etnografiyası“) nomli annotatsiyalangan ko‘rsatkich tuzdi. Qozog‘istonning ikkita — Sirdaryo va Yettisuv viloyatlariiga oid kitob va maqolalarni o‘z ichiga olgan „Turkiston to‘plami“ respublikaning 1917- yilgacha bo‘lgan hayoti bilan qiziquvchi tarixchi, etnograf, folklorshunos tadqiqotchilar hamda bibliograflar uchun nodir, qiziqarli materiallar beradi, ammo dashtli o‘lkaga (Uralsk, To‘rg‘ay, Okmulinsk, Semipalatinsk) bevosita aloqador materiallar berilmagan, lekin „To‘plam“ning tuzuvchilarini unga qozoqlar haqida yozilgan kitob va maqolalarni kiritganlar, millatning qaysi hududda yashaganligi ko‘rsatilmagan. 88 „Turkiston to‘plami“ dagi materiallardan barcha tadqiqotchilar ham o‘z ishida foydalanish imkoniyatiga ega emas edi. Shuning uchun uning mazmunini targ‘ib qilish maqsadida Qozog‘iston FA kutubxonasi Qozog‘istonga oid materiallarni to‘plamdan tanlab olib, annotatsiyalash bo‘yicha juda katta ish olib bordi. „ÈàçàõñTâi ià ñTpâiéöàö „TópeâñTâíñéïä ñâipíèèà“ („Qozog‘iston „Turkiston to‘plami“ sahifalarida“) deb nomlangan annotatsiyalangan kartoteka tuzildi va unga 2000 dan ortiq kitob, gazeta, jurnal maqolalari, turli xil xabarlar, geografik xaritalar, rasm hamda portretlar kiritildi. Yig‘ilgan materiallarning asosiy qismini Qozog‘istonning sho‘rolar hokimiyatigacha bo‘lgan tarixi, etnografiyası, arxeologiyasi, huquqi, statistikasiga oid adabiyotlar, Qozog‘istonning turli tarixiy davrlardagi ma’muriy tuzilishi, Yettisuv shahrining tarixi kabi ma’lumotlar tashkil etadi. Ko‘chmanchi qozoq urug‘larining ko‘chish joylari, ularning tarqalish chegaralari, o‘zaro munosabatlariiga oid ishlar tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otdi. „To‘plam“ ga qozoq olimi Cho‘qon Valixonov asarlari tarjimalari, qozoq ma’rifatchisi Abay Qo‘nonboyev, Oltinsarinlarning asarlari va ular haqida yozilgan asarlar kiritilgan. „To‘plami“ga dasht va Turkiston o‘lkalaridagi xorijlik sayyohlarning ishlari ham kiritilgan. 1959- yil Navoiy nomidagi davlat kutubxonasi ma’lumot-bibliografiya bo‘limining xodimi E.A. Vaytexovskiy „TàøéâíT, åâî ipiøëiâ è iàñTìÿùeâ“ nomli adabiyotlar ko‘rsatkichini tuzdi. Undan, eski Toshkentning sanoati, savdo-sotiq ishlari, obodonlashtirish masalalariga oid qiziqarli maqolalar „Turkiston to‘plami“dan joy olgan edi. „To‘plam“ O‘rta Osiyoga oid qimmatli materiallar manbayi sifatida hali uzoq vaqt o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo bibliografiyasining rivojlanish tarixi rus o‘lkashunos bibliografi N. V. Dmitrovskiy nomi bilan ham bog‘liq. U nafaqat O‘rta Osiyoning bibliografi, balki Turkistonda kutubxonachilik-bibliografiya ishining tashkilotchisidir. N. V. Dmitrovskiy 1841- yil 6- dekabrda Nijniy Novgorod shahrida tug‘iladi. Shu yerda o‘qiydi va

mehnat faoliyatini boshlaydi. 1867- yil u Toshkentga keladi va Turkiston generalgubernatorining devonxonasida ish boshqaruvchi, Toshkent xalq kutubxonasining kutubxonachisi bo‘lib ishlaydi. 1910- yilda vafot etadi. Uning kutubxonachilik va bibliografik faoliyatining boshlanishi 1870-yili Toshkent xalq kutubxonasining, keyinchalik Turkiston 89 xalq kutubxonasining ochilishi bilan bog‘liq. Kutubxonani tashkil qilishda faol ishtirok etgan va kutubxona direktori etib tayinlangan. N. V. Dmitrovskiy kutubxonaning rus kitoblar fondi katalogini tuzdi, hozir u O‘zbekiston milliy kutubxonasi fondida saqlanmoqda. Katalogni tuzishda u o‘lkashunoslik manbalariga katta ahamiyat beradi. O‘rta Osiyoga oid kitoblar maxsus bo‘limlarda joylashtirilgan, ko‘p jildliklarning mazmuni to‘liq oolib berilgan. Toshkentda tuzilayotgan barcha o‘lkashunoslik to‘plamlarining mazmuni to‘la yoritilgan. Masalan: „San’at“ bo‘limida kam nusxada nashr qilingan, muhim va nodir hisoblangan „TópéâñTáíñéèé àëüáîî“ning hamma varaqlari sanalib tavsif qilingan. N. V. Dmitrovskiy tuzgan katalog fondning o‘lkashunoslik xarakteridagi qismi mazmunini to‘la oolib bergen. U o‘zining O‘rta Osiyo haqidagi 1871 — 1872- yil uchun kitob va maqolalarning kundalik bibliografiyasini tuzib, „TópéâñTáíñéèå åääñññTè“ (1871- yil ¹¹ 33, 36, 39, 43, 44, 1872- yil ¹¹ 7, 16) gazetasida nashr qildiradi. 1874-yilda esa muhim ko‘rsatkich — „Àéáéèïäpàôè÷åñéèé óéàçàTåëü“ ñî÷éíaièé î Ñpääíáé Àçèè, iàiä÷àTáííûö â Pñññéè ià póññéè ýçûéå ñ 1692 ï 1870 ã.ä“ni nashr qiladi. O‘rta Osiyo haqidagi adabiyotlarni yig‘ish uchun u Moskva va Peterburgda chiqadigan jurnallarni, rus fanlar akademiyasi, universitetlar va ilmiy jamiyatlarning nashrlarini, ko‘plab gazetalarni ko‘rib chiqdi. Ko‘rsatkichdagi 788 nomdagi manbalar 11 ta bo‘limga joylashtirilib, O‘rta Osiyo va uning ayrim hududlari tarixi, geografiysi, arxeologiyasi qishloq xo‘jaligi, sanoati, aholisiga oid adabiyotlardan iborat. So‘zboshida yaqin kunlarda ko‘rsatkichning davomi ham chiqishi haqida yozilgan, lekin u chiqmagan. N. V. Dmitrovskiyda doimo V. I. Mejovning „Turkiston to‘plami“ni to‘ldirish istagi bo‘lgan. Shuning uchun ham „V. I. Mejovning „Turkiston to‘plami“ga kirmay qolgan O‘rta Osiyo haqidagi maqolalarning 1867 — 1887- yillar, shuningdek, 1887 — 1907- yillar“ ko‘rsatkichida, asosan, „Âiáííûé ñáípíèé“, „Póññéèé éíâæéèä“, „Pàçâåä÷éé“, „Äpääíÿ è Íiâäý Pññèÿ“ kabi 13 ta jurnaldan 1670 ta maqola olingan. Materiallar jurnallarning alifbosi bo‘yicha, bo‘lim ichida esa yillar bo‘yicha berilgan. Ko‘rsatkich qo‘lyozma kitoblar fondida saqlanmoqda. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo haqidagi adabiyotlarni hisobga oluvchi bibliografik ko‘rsatkichlar nashr qilindi. 1902 — 1903- yillarda Peterburg botanika bog‘ining bosh 90 botanigi V. I. Linskoy Turkiston o‘simliklar dunyosi va botanikka oid ilmiy ishlarni ichiga olgan „ÈèTåpàTópà ôéípû Ñpääíáé Àçèè“ nomli 2 qismli ko‘rsatkichni tuzib nashr qildirdi. Uning 1- qismiga Turkistonning va qo‘sni mamlakatlarning o‘simliklar dunyosiga oid Peterburg va Moskvaning yirik kutubxonalarida saqlanayotgan 1876 — 1902- yillarda nashr qilingan kitob va maqolalar va to‘liq ma’lumot beruvchi annotatsiya berilgan. Nodir nashrlarga annotatsiya, referat keng berilganki, unda manbaga murojaat qilmay turib ham uning mazmuni bilan qisqa tanishsa bo‘ladi. Ko‘rsatkichning 2- qismi O‘rta Osiyo botanika tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan, adabiyotlarning tavsifi, annotatsiyalash, uni joylashtirish uslubi 1- qismiga monand. Materiallarni hisobga olishning kengligi, bibliografik tavsifning to‘liq va bir xilligi, annotatsiyaning kengligiga ko‘ra V. I. Linskoyning bu qo‘llanmasini inqilobdan oldin tuzilgan eng yaxshi ko‘rsatkichlar qatoriga qo‘ysa bo‘ladi. Lekin materialning alifbo tartibida joylashtirilishi, ayniqsa, yordamchi ko‘rsatkich yo‘qligi undan foydalanishni ancha qiyinlashtiradi. O‘rta Osiyo haqidagi rus va chet tillardagi adabiyotlarni S. P. Semyonov-Tyanshanskiyning, „Rossiya“ ko‘p jildli seriyasining XVIII va XIX jildlarida nashr qilingan „ÓéàçàTåëü ãëàâíáéøèð èñTipè÷íèéâ è ìññâéè“ ko‘rsatkichdan topish mumkin. Ko‘rsatkich XVII asrning o‘rtalaridan to 1913- yilgacha bo‘lgan O‘rta Osiyo tarixi, arxeologiyasi, geografiysi, madaniyati va boshqa sohalarga oid adabiyotni o‘z ichiga olib, o‘n bitta bo‘limda joylashtirilgan. O‘rta Osiyo haqidagi muhim ko‘rsatkichlardan biri o‘lkashunos-bibliograf V. R. Gorodetskiy va M. P. Gorodetskayalarning „Àéáéèïäpàôèý TópéâñTáíà“ ko‘rsatkichdir. Unda rus va chet tillarda nashr qilingan kitob va maqolalar 10 ta asosiy bo‘limda fan sohalari bo‘yicha joylashtirilgan (tarix, geografiya, mineralogiya, botanika, zoologiya, astronomiya, qishloq xo‘jaligi va boshqalar). 10- bo‘lim yig‘ma bo‘lib, boshqa bo‘limlarga

kirmay qolgan adabiyotlar va ba'zi vaqtli matbuot muharririyatining manzillari berilgan. Uning kamchiliqi turli yillardagi adabiyotlarni bir tekisda bermaganligi, bir muallifning bir necha asarini tasvirlashda muallif familiyasini birinchi asarda ko'rsatib, qolganlarida bermaganligi, annotatsiya va yordamchi ko'rsatkichning yo'qligidadir. Shunga qaramasdan, ko'rsatkichdan O'rta Osiyo haqida muhim ma'lumotlar yig'ishda foydalanish mumkin. XX asr boshlaridan to hozirgi kungacha 91 ilmiy qimmatini yo'qotmagan qator bibliografik ko'rsatkichlar Rus geografiya jamiyati Turkiston bo'limining „ÈçääñTèý“ to'plamida nashr qilingan. Masalan, 1914 — 1917- yillarda to'plamning X — XII jildlarida bosilgan A. V. Ponkovning va Y. K. Betger tuzgan 2 qismli „Turkistonshunoslikka oid kitob va maqolalarning bibliografiyasi“ hamda sayohatchi I. Minayevning „Amudaryoning yuqori qismidagi davlatlar haqida 1878- yilgacha ma'lumot“ nomli kitobida berilgan „Bibliografik ko'rsatkichlar“ chop etildi. Ularda O'rta Osiyo haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Yuqoridagi ko'rsatkichlardan kelgusida respublikamiz va O'rta Osiyoning inqilobgacha bo'lgan davri uchun umumiy retrospektiv bibliografik qo'llanmalar tuzishda manba sifatida foydalanishimiz mumkin. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlari tillaridagi adabiyotlarni ham bibliografiyalash masalasiga e'tibor berildi. Birinchi marta Turkistonlik mualliflar asarlari XIX asr o'rtalarida Peterburg va Qozon shaharlarida Sharq xalqlari tillarida nashr qilingan bibliografik qo'llanmalarda, keyinchalik esa sharqshunoslik yo'nalishidagi markaziy va mahalliy vaqtli matbuotda hisobga olina boshlandi. Osiyo muzeyi va Imperator xalq kutubxonasida birinchi marta Rossiyada musulmon matbuotining 2 ta bibliografik ko'rsatkichi tuzildi. 1852- yilda nashr qilingan birinchi bibliografik obzorda sharq (shu jumladan, Turkiston) qo'lyozma asarlari berilgan. Bu sharq qo'lyozmalariga tuzilgan birinchi katta bibliografik tajriba edi. 2- ko'rsatkich 1867- yilda nashr qilinib, unda 900 ga yaqin sharq tillarida nashr qilingan adabiyotlar berilgan. Adabiyotlar haqidagi ma'lumotlar arab tilida berilgan. Material xronologik tartibda va alifbo bo'yicha joylashtirilgan. Bu musulmon matbuotining rivojlanishini, uning mazmunini va yo'nalishini ochib beradi. Bundan ko'rindiki, hisobga olingan ko'pchilik kitoblar arab, fors va turkiy tillaridagi musulmon diniy kitoblaridir. Bu „Qur'oni Karim“ning, „Haftiyak“ning bir necha nashri va boshqa diniy kitoblar, XIX asr o'rtalarida nashr etilgan badiiy adabiyotlar va ba'zi musulmon olimlarining 30 dan oshiq asarlari B. A. Dornning ko'rsatkichida hisobga olingan. Unda, Qozon shahrida XIX asr sharq adabiyotiga to'la ma'lumot berilgan. Ko'rsatkichning kamchiliklari: B. A. Dorn asarlarning bibliografik tavsifini juda qisqa bergan, unda son xarakteristikasi, nashriyotlar haqida ma'lumot yo'q, ko'rsatkich to'liq emas, 92 buni B. A. Dorn o'zi ham tan olib, ko'rsatkichni tuzishda ko'plab musulmon kitoblari Osiyo muzeyida yo'q edi, ularni hali topish kerak, deb yozgan. Lekin bu ko'rsatkichning qimmatiga ta'sir qilmaydi. Chunki bibliografik qo'llanma qadim O'rta Osiyo olimlari va yozuvchilarining asarlari haqida ma'lumot beruvchi yagona manbadir. Afsuski, B. A. Dorndan keyin Rossiyada sharq xalqlari tillaridagi adabiyotlarning bibliografiyasi bilan 15 yil (1867 — 1884) davomida hech kim shug'ullanmadidi. 1886 — 1917- yillarga kelib, rus sharqshunosligining matbuot organi hisoblangan „Çäjëñèè ÄññTì÷íñâ ïTäæäíèý èïüäpàTipñêïäî pónñêïäî àpðâïëïä÷åñêïäî íáøäñTââ“ (ÇÄJËÑÄ) nomli davomli nashr chiqishi bilan yana boshlandi. To'plamda sharq tillarida Turkistonda chiqqan adabiyotlar ro'yxati, ularga yozilgan taqrizlar haqida ma'lumot berib borildi. O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti, tarixi, arxeologiyasi haqida adabiyotlarning sharqshunos-turkistonshunoslardan tomonidan tuzilgan qator ro'yxatlari bosilib turdi. To'plamning 1886 — 1893- yillarga oid 3, 5, 8- ijdlarida yirik sharqshunos olim V. F. Smirnovning „Rossiyada nashr qilingan musulmon matbuoti“ nomli ko'rsatkich bosilib chiqadi. Unga 1885 — 1893- yillarda chiqqan adabiyotlar kiritilgan bo'lib, bevosita B. A. Dorn ko'rsatkichining davomi hisoblanadi. Bunda jami bo'lib 684 kitob hisobga olingan, bibliografik tavsifi, kitob haqida bibliografik ma'lumotlar kam. Hisobga olingan kitoblarning asosiy qismi Qozon shahrida nashr qilingan bo'lib, faqat 1889 — 1893- yillarda Toshkentda nashr qilingan 28 ta kitob kiritilgan. Ko'rsatkich Turkistonda sharq tillarida nashr qilingan kitoblarning to'liq hisobini bermaydi. 1889- yili Toshkentda Turkiston bibliografiyasi tarixida muhim voqeа bo'lgan E. F. Kalning „ÈàTäëïä åññTì÷íûõ poéññâé TópêäñTäíñêé ïoáëë÷íé áæáëëñTâëé“ qo'llanmasi nashr qilindi. Bu

Rossiyaning birinchi marta mamlakatning chekka o'lkasida saqlanayotgan sharq qo'lyozma asarlarini ilmiy tasvirlashga bo'lgan urinishi edi. Kal katalogni tuzishni Toshkentda boshlab, Peterburgda nihoyasiga yetkazdi. Buning uchun u Turkiston xalq kutubxonasida tasvirlab ulgurmagan 39 ta qo'lyozmani Turkiston general-gubernatori I. O. Rozenbaxning ruxsati bilan Peterburgga olib ketdi. 93 Katalogga 87 qo'lyozma arab tilida 7 ta, turkiy tillarida 11, fors tilida 67 ta kiritilgan bo'lib, ular fan sohalari bo'yicha joylashtirilgan, qo'lyozma tasvirida uning hajmi, bichimi, qisqa mazmuni yoritib berilgan. Bundan tashqari, qo'lyozmaning muallifi, yozilgan vaqt, kim tomonidan ko'chirilgan va boshqa muhim ma'lumotlarni beradi. Kal tuzgan bu katalog ilmiy va maqsadga muvofiqdir. Kaldan keyin 1912- yili O'rta Osiyo ilmiy bibliografiyasiga katta hissa qo'shgan sharqshunos olim A. A. Semyonov sharq adabiyotining 2 ta katalogini tuzadi. Bular „Turkiston xalq kutubxonasi dagi sharq qo'lyozmalarining katalogi“, „Turkiston xalq kutubxonasi dagi litografik nashrlar katalogi“. Lekin bu har ikkala katalog ham nashrdan chiqmagan, O'zFAning Sharqshunoslik institutida saqlanadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sharqshunoslikka oid adabiyotlarning ko'plab nashr qilinishi sharqshunoslarda bu kitoblar haqida to'liq axborot berishga ehtiyoj tug'dirdi. Shuning uchun 1912- yili sharqshunoslik jamiyatining „İlep Èñëàìà“ jurnalni muharririyyati tomonidan musulmon xalqlari tillaridagi adabiyotlarni hisobga oluvchi „Musulmon kitob solnomasi“ nashr qilina boshlandi. Buning asosiy vazifasi V. V. Bartoldning fikricha, musulmon xalqlarining o'tmishi va hozirgi hayotini o'rganishga imkon berish edi. U haftada bir marta chiqarilib, 1912 — 1913- yillarda 51 soni bosmadan chiqariladi. Solnomada hamma musulmon xalqlari tillaridagi adabiyotlar hisobga olinib, material esa tillar bo'yicha joylashtirildi. Masalan, arab va dargin tilidagi kitoblar, arab va fors tilidagi kitoblar, arab va tatar tilidagi kitoblar, sart (o'zbek — MT) tilidagi kitoblar va hokazo. „Musulmon kitob solnomasi“ mustaqil ravishda nashr qilinmasdan faqat rus tilidagi „Èíèæíàÿ èåTiiëñü“ („Kitob solnomasi“) materiallari bilan cheklanganligi sababli unga ayrim sharq tillaridagi, jumladan, Turkistonda nashr etilgan kitoblar kirmay qolgan. Solnomada hisobga olingan materiallar 2- darajali axborot bo'lgani uchun deyarli ilmiy ahamiyatga ega emas. Shu sababli keyinchalik uni nashr qilish to'xtatildi. Lekin solnoma Rossiya sharoq tillaridagi adabiyotlarni hisobga oluvchi birinchi kundalik bibliografik qo'llanma edi. XX asr boshlarida sharq tillaridagi mahalliy nashrlarning kundalik hisobini olish ishiga Turkistonning o'zida ham urinib ko'rildi. 1911- yil Turkiston xalq kutubxonasi kuzatish komissiyasining a'zosi L. A. Zimin Toshkentda nashr qilinadigan „Ñpääíÿy Àçèÿ“ jurnalida Turkistonda 94 nashr qilinuvchi matbuot asarlarining oylik bibliografik ro'yxatini berib bordi. L. A. Ziminning fikricha, bu ko'rsatkichda Turkiston haqida hamda Turkistonning o'zida nashr qilinayotgan rus va sharq tillaridagi adabiyotlarni hisobga olish mo'ljallangan. Ko'rsatkich 1917- yildan oldindi birinchi o'lkashunoslik bibliografik ko'rsatkichlardan edi. Uning faqat 5 ta soni nashr qilingan. Shunday qilib, XX asr boshlarida sharq xalqlari tillaridagi Turkiston nashrlari bibliografiyasini tuzishga bo'lgan urinishlar oxirigacha yetkazilmadi. Sababi mahalliy nashrlarning bir joyga to'planmaganligi. Hozirgi kunga qadar O'rta Osiyo matbuotining to'liq bibliografiyasini tuzish ishi hal qilinmagan. Shuning uchun O'rta Osiyo kutubxonalari mutaxassislari oldida turgan muhim vazifa — O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish tarixini hisobga olgan holda eng qadimiy qo'lyozma manbalardan tortib to XX asr boshlariga (1917-yilga) qadar davr adabiyotining umumiyl retrospektiv bibliografiyasini tuzishdan iboratdir. Bu vazifani hal qilish O'rta Osiyo xalqlarining o'tmishdagi unutilgan boy merosini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Nazorat savollari.

1. „Turkiston to'plami“ nima va u haqda qanday ma'lumotga egasiz?
2. V. I. Mejov „Turkiston to'plami“ni tashkil etishda qanday faoliyat ko'rsatdi?
3. N. Dmitrovskiyning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
4. A. A. Semyonov va „Turkiston to'plami“ haqida to'xtaling.
5. V. G. Chabrovning faoliyatini gapirib bering.
6. „Turkiston to'plami“ning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
7. XX asr boshlarida yaratilgan bibliografik ko'rsatkichlardan qaysilarini bilasiz?

22-mavzu: O‘zbekistonda milliy va davlat bibliografiyasi

Reja:

1. Milliy va davlat bibliografiyasi haqida tushuncha.
 2. O‘zbekistonda Milliy va davlat bibliografiyasining rivoji, uning markazlari haqida ma’lumot berish.

Tayanch iboralar

Milliy bibliografiya, davlat bibliografiyasi, kitob palatasi, kitob solnomasi, taqrizlar solnomasi. Milliy va davlat bibliografiyasi haqida tushuncha, uning taraqqiyoti Ijtimoiy tashkilotlar hujjatlar va iste'molchilar o'rtasidagi vosita sifatida avvaldan faoliyat ko'rsatadi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng kitob ishi, nashriyotchilik ishi tubdan qayta tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Telegraf Agentligi O‘zbekiston Respublikasining Milliy agentligiga, Davlat kitob palatasi 1994- yili Milliy kitob palatasiga aylantirildi. Ularning nomi bilan birga vazifalari ham o‘zgardi. Chunki „Milliy“ va „Davlat“ tushunchalari bir-biridan farq qiladi. 1991- yil bibliograf olim G. A. Levin „Íaöéñiaëüiäy áèáëëiäpàöèy â iíñiäöeñiäüiäiñöäapñTåå“ nomli maqolasida milliy bibliografiya tushunchasiga alohida to‘xtaladi va qat’iy talablar qo‘yadi. Milliy bibliografiyaga quyidagi nashrlarni kiritish lozim deydi. 1. Aynan olingen mamlakat hududida nashr etilgan asarlar. 2. Nashr joyidan qat’i nazar, shu mamlakat haqidagi adabiyotlar. 3. Nashr joyidan qat’i nazar, shu davlat tilida nashr etilgan asarlar. 4. Yashash joyidan qat’i nazar, shu davlat fuqarolari tomonidan nashr etilgan asarlar. 5. Tug‘ilgan va yashash joyidan qat’i nazar, shu davlat tub aholisi vakillarining asarları. 6. Shu davlat hududidan tashqarida aynan shu davlat uchun nashr etilgan asarlar. Universal bibliografik hisobga olish joriy etilgandan so‘ng davlat bibliografiyasida 1- guruh nashrlarini hisobga ola boshladi. Ammo bu doim ham keng imkoniyat bera olmaydi, shuning uchun 2- guruh nashrlari ham hisobga olinadi. Levinning fikricha, bibliografiyalash obyekti bo‘lib elektron nashrlar, videomahsulotlar, fotomateriallar kabilar ham xizmat qila oladi, demak, bosma mahsulotlar bilan birga bu hujjatlarni ham hisobga olish zarur. Davlat bibliografiyasi uchun nashrlarni tanlayotganda quyidagi belgilarga asoslaniladi: 1. Hududiy belgisiga ko‘ra: shu davlat egallagan hududda nashr etilgan yoki uning fuqarolari tomonidan, qayerda yashashi- 96 dan qat’i nazar, nashr etilgan asarlar; (hozir qayerda yashashidan qat’i nazar) shu hududda tug‘ilgan va yashayotgan mualliflarning asarları; boshqa hududda shu mamlakat uchun nashr etilgan hujjatlar; 2. Til belgisiga ko‘ra: qayerda nashr etilishidan qat’i nazar, shu xalq tilida nashr etilgan hujjatlar; qayerda yashashidan qat’i nazar, shu xalq vakillari — mualliflar yaratgan adabiyotlar; 3. Etnik belgisiga ko‘ra: qayerda tug‘ilgani va yashashidan qat’i nazar, shu xalq vakillari nashr etgan asarlar; qayerda tug‘ilgani va yashashidan qat’i nazar, shu xalqqa mansub mualliflar; 4. Xalqchillik belgisiga ko‘ra: qayerda nashr etilganidan qat’i nazar, shu xalq haqidagi hujjatlar; qaysi xalq vakili yozishidan qat’i nazar, xalq haqida yaratilgan asarlar. Demak, milliy bibliografiyaga tanlangan, xalqqa mansub mualliflar va asarlar olinadi. Davlat bibliografiyasi uchun davlat haqidagi emas, balki aynan shu davlat hududida nashr etilgan asarlar olinadi, chunki ba’zi xalqlar o‘z davlatiga ega emas. Davlat bibliografik axboroti boshqa turdagiligi faoliyat rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Axborot olamida axborotlashtirish muhim belgi bo‘lib qoldi. Bu ilmiy-texnik taraqqiyotning yutuqlari bilan belgilanadi va jamiyatning axborot bibliografiya tuzilmasida bibliografiyaning o‘rnini va rolining yangicha tushunchasiga sabab bo‘ladi. Bu axborotlashgan faoliyatga asoslangan dunyo axborot bozorida axborot mahsulotlarining ko‘payishiga olib kelmoqda. Bu esa ijtimoiy va axborotlashgan tizimda davlat bibliografiyasining o‘rnini belgilashni talab etadi. Davlat bibliografiyasi axborot faoliyatining bir qismidir. Jamiyat axborot qimmatini ko‘tardi, axborot mahsulotlari esa kengayib bormoqda. Bu, ayniqsa, bosma mahsulotlardan elektron ko‘rinishdagi mahsulotlarga o‘tib borishda ko‘rinadi. Axborotlashuvning asosiy vositasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalaridir. Buning natijasida davlat bibliografiyasi ham kompyuterlashib, axborot sanoatining bir qismiga aylandi. Uning qay-

darajada ekanligi mamlakatda axborotlashuvning qay darajada tashkil etilganiga bog‘liq. Bunda davlat bibliografiyasiga davlatning qo‘llabquvvatlashi zarur ekanligini nazarda tutish lozim. Butun dunyo va davlatlar o‘rtasida davlat bibliografiyasining rivojlanishi uzviy bog‘liqlikda amalga oshadi. Bu Universal bibliografik hisobga olish dasturida va „Yevropa iqtisodiy hamkorligini“ tashkil etishda ham 97 nazarda tutilgan. Turli mamlakatlar davlat bibliografiyasining avtomatlashgan tizimini dasturiy ta‘minlash nashriyotlarga va kitob savdosi tashkilotlariga topshirilgan. Bu bibliografiya, nashriyot va kitob savdosi ishining birikib ketishiga olib keladi. Xalqaro miqyosda olib borilsa, dunyo axborot bozoriga chiqishni osonlashtiradi. Davlat bibliografiyasini tizimida iste’molchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi: 1. Davlat bibliografiyasini taraqqiyotini aniqlashda iste’molchilar talablari asosiy omil bo‘ladi. 2. Iste’molchilar qarorlarni hal etishda ishtirok etadilar. 3. Davlat bibliografiyasini markazi muntazam iste’molchilarning axborotga bo‘lgan talablarini o‘rganadi va undan tijorat xizmatini tashkil etishda foydalanadi. 4. Kutubxonalar davlat bibliografiyasini mahsulotlarining asosiy iste’molchilari bo‘lib qolaveradi, buning uchun axborot olamidagi yangi axborot manbalaridan, tijorat ma’lumotlari bankidan, ma’lumotlar bazasidan, axborot tarmoqlaridan foydalanish kerak. Davlat bibliografiyasini markazi davlat bibliografik axborotining to‘g‘riligi va to‘laligi uchun javob beradi. Uning standart sifatida tasdiqlanishiga erishadi. Davlat bibliografik axborotni ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazish va uslubiy hujjatlarni tayyorlash yo‘li bilan unifikatsiya qilishni ta‘minlaydi. Respublika Milliy kitob palatasi faoliyati Hujjatlar madaniyati va dunyo bibliografiyasining yuzaga kelishida kitob palatasi asosiy o‘rin tutadi. U matbuot asarlarining majburiy nusxalarini yig‘di, barcha turdagи elektron kitoblar va hujjatlarning ham majburiy nusxalari shu joyda yig‘ildi va hisobga olindi, uni saqlab, arxivini tashkil etdi, bibliografik va axborot xizmatini ko‘rsatish uchun manbalarni tayyorladi va hokazo. 1920- yilda O‘zbekistonda nashriyotchilik ishi va kitob ishi rivojlanib borishi bilan davlat bibliografiyasining markazini tashkil etish ehtiyoji paydo bo‘lgan edi. Shu yili kuzda Toshkentdagи Turkiston davlat nashriyotida birinchi Turkiston kitob palatasi tashkil etildi. Ammo o‘scha paytdagi shart-sharoitlarning murakkabligi tufayli chiqayotgan nashrlarning hammasini hisobga olib borish, ularning ro‘yxatini tuzish va nashr etish, Rossiya markaziy kitob palatasiga kelib tushayotgan va mahalliy kutubxonalarga kelayotgan nashrlarni to‘la qamrab olish imkon bo‘lmadi. 98 1922 — 1924- yillarda Turkiston matbaa asarlarining davlat hisobini olib borish va Rossiya kitob palatasining „Kitob yilnomasi“da aks ettirishga urinishlar bo‘lgan. 1922- yil 17- iyulda qabul qilingan respublikalar hududida nashr etilayotgan matbuot asarlarini majburiy hisobga olish haqidagi qarordan so‘ng yana Turkiston kitob palatasini tashkil etishga urinish boshlandi. Chunki 1922- yilgacha hech qayerda Turkiston matbuoti hisobga olinmadi, respublikada nashriyotchilik va kitob ishining tez sur’atlar bilan o‘sib borishi tezkorlik bilan ular haqida axborot berib borishni talab etar edi, respublikada nashr etilayotgan asarlarning majburiy nusxalarini to‘plash masalasi hali hal etilmagan edi. 1922- yil sentabr oyi boshlarida Respublika davlat ilmiy kengashida kitob palatasi masalasi ko‘rildi. Palatani tashkil etish loyihasini tayyorlashning maxsus komissiya yig‘ilishiida Turkiston davlat kutubxonasining xodimi N. A. Burov ishtirok etdi. Oktabr oyi o‘rtalarida Turkiston davlat kutubxonasi direktori Y. K. Betger Davlat ilmiy kengashi topshirig‘i bilan Turkiston kitob palatasini ta’sis etish bo‘yicha Xalq komissarlar sovetining qaror va Xalq maorifi komissarligining respublikada matbuot asarlarining majburiy nusxasini hisobga olib borish haqidagi yo‘riqnomasi loyihasini topshiradi. 1923- yil 15-yanvarda Davlat ilmiy kengashi qoshida ikkinchi Turkiston kitob palatasi tashkil etiladi, ammo shu yilning may oyidayoq uning faoliyati to‘xtatiladi. 1923- yil yanvarining o‘rtalaridan boshlab Turkiston Avtonom Respublikasida matbuot asarlarini hisobga olib borish boshlandi va Turkiston kitob yilnomasi ko‘rinishiда ro‘yxat tayyorlanadi, unga asos matbuot asarlarining majburiy nusxalari va Turkiston davlat kutubxonasi fondiga kelib tushayotgan adabiyotlar. Dastlab palata 1917 — 1922- yillarda nashr etilgan matbuot asarlarini yig‘adi. Yilnomani nashr etish 1921- yilda boshlandi va 1923- yildan boshlab Rossiya markaziy kitob palatasidan Turkistonga oid adabiyotlarning majburiy nusxalari kelib tusha boshlaydi. Turkiston davlat kutubxonasi fondining tez o‘sib borishiga ta’sir etdi. Dastlab bibliografik tasvirlar kirill yozuvida

olib borildi, bu qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Chunki sharq tillaridagi va yozuvidagi adabiyotlarda rus kirill yozuvidagi na tarjimasi, na izohlari deyarli uchramas edi. Y. K. Betger Turkiston nashrlarini asl tilida hisobga olish, zarur bo‘lgan holda Rossiya kitob palatasining kirill yozuvida bo‘lmagan asarlarni ro‘yxatga kiritmagandan ko‘ra, rus tilidagi tarjimasini yoki qisqacha 99 izohini berish kerak, deb talab qildi. U titul varag‘ining orqa tomonida zarur bibliografik elementlarni rus tilida berish va bu bilan Rossiya kitob palatasining hisobga olish ishlarini yengillatish. O‘zbekiston hukumatining 1926- yil 3- yanvardagi 1930- yilgacha O‘zbekistonning poytaxti bo‘lgan Samarqandda davlat kitob palatasini tashkil etish haqida qarori e’lon qilindi. Shu kundan boshlab rejali, malakali holda davlat bibliografiyasini tuzish boshlandi. Kitob palatasi O‘zbekiston Xalq komissariati tarkibiga kiruvchi muassasalarning Akademik markaziga qarashli edi. Qarorda kitob palatasi O‘zbekiston hududida nashr etilayotgan barcha turdagи matbuot asarlarini bir necha nusxada saqlaydi va hisobga olib boradi, deb ko‘rsatildi. O‘sha paytda palataning shtati 2 kishidan iborat bo‘lib, bittasi I. Rahmatullayev direktor, ikkinchisi D. P. Kvasnitskiy bibliograf edi. 1927- yildan boshlab kitob palatasida majburiy nusxa ola boshlanadi va alifbo hamda sistemali katalog yuritiladi. Shu kunga qadar faoliyat yuritib kelayotgan kitob palatasi davlat bibliografiyasining, matbuot asarlarining statistik, markazlashgan kataloglashtirish, ma’lumotnoma-bibliografiya, nashriyotchilik, poligrafik sanoat va kitob savdosi sohasi hamda ilmiy-texnik axborot va targ‘ibotning tarmoq markaziga aylandi. 1980- yellarga qadar kitob palatasida matbuot asarlarini qabul qilish va nazorat qilish; davlat kundalik bibliografiysi; ma’lumotnoma-bibliografiya bo‘limi; matbuot asarlarini hisobga olish bo‘limlari ish olib bordi. Palataga kelgan har bir hujjat avval matbuot asarlarini qabul qilish va nazorat qilish bo‘limiga tushadi. Bu bo‘limda kitoblar bilan birga kelgan ilovali hujjatlar bosmaxona yoki nashriyotlarning nomlari bo‘yicha alohida joylashtiriladi. Kitoblar turli xil belgilariqa qarab alohida guruhlashtiriladi, har biriga inventar raqami qo‘yiladi. Gazeta va jurnallarning nomlari bo‘yicha har biriga alohida pasport yoziladi va tikib boriladi, keyinchalik muqovalanadi. Bu yerda nazoratdan o‘tgan kitoblar statistika sho‘basida bibliografik tavsif bilan boyitiladi. Bu bo‘limdan so‘ng adabiyotlar bibliografiya bo‘limida alohida bibliografik hisobdan o‘tadi va „O‘zbekiston matbuoti solnomasi“ uchun ma’lumotlar to‘plash jarayonida ishtirok etadi. Ma’lumot va bibliografiya bo‘limi esa katalog va kartotekalar uchun kartochkalarni tayyorlaydi va ularni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirib boradi. Palataning asosiy vazifasi — O‘zbekistonda nashr etilayotgan matbuot asarlarini hisobga olib borish, uning raqamli hisobini 100 yuritish, gazeta va jurnallarga bosma va elektron mahsulotlar haqida axborot berib turish. Kitob palatasining yuragi, matbuot asarlarining arxivni 1927- yili tashkil etilgan. Har yili arxiviga 46 ming dona matbuot asari kelib tushgan. O‘sha yillardanoq 7 ta ko‘rsatkichdan iborat „O‘zbekiston matbuotining yilnomasi“ nashr etila boshlandi: 1928- yildan „O‘zbekiston kitob solnomasi“, 1931- yildan rus va 1938- yildan o‘zbek tilida „Jurnal maqolalari solnomasi“, 1968- yildan „Taqrizlar solnomasi“ va „Tasviriy san’at asarlarining bosma nashrlari solnomasi“, 1969- yildan „Gazeta maqolalari solnomasi“, 1976- yildan boshlab kitob palatasi „Åæåñäiéè éíèà ÓçÑNP“ va 1982- yildan „O‘zbekistonning bibliografik qo‘llanmalar“ nomli yillik ko‘rsatkich nashr etdi. 1958- yil O‘zbekistonda respublika darajasida davlat bibliografiysi tizimidagi qo‘llanmalar kartochka shaklida nashr etila boshlandi. Bu ishda 1974 — 75- yillarda yangi nashr etilayotgan adabiyotlarning annotatsiya kartochkalari nashr etildi. Kitob palatasida o‘zbek tilidagi kitoblarning, 1915- yildan qoraqalpoq va rus tilidagi kitoblarning alifbo katalogi, 1917- yildan rus va o‘zbek tilidagi kitoblarning sistemali katalogi, o‘zbek va rus tilidagi jurnal maqolalari katalogi, izografika katalogi, rus tilida avtoreferatlar katalogi, mualliflarning familiyalari tartibida badiiy, o‘smyrlar va bolalar adabiyoti, ilmiy ishlar, to‘plamlarga kiritilgan mualliflar, taqrizlar, tarjimonlar kartotekalari tuzilgan. Kitob palatasining ma’lumot-bibliografiya apparati 800 ming bibliografik yozuvdan tashkil topgan 20 dan oshiq turli katalog va kartotekalardan iborat. 1994- yildan kitob palatasi Milliy bibliografiya markaziga aylantirildi. Yangi status olganiga qaramay, palataning vazifalari ancha qisqargan. 2002- yildan shu kungacha to‘plangan bibliografik yozuvlar elektron ko‘rinishda, bosma holda nashr etilmadi va tarqatilmadi. Hozirgi kunda mazkur markaz Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy

kutubxonasi tarkibida faoliyat ko'rsatmoqda.

Nazorat savollari.

1. Milliy bibliografiya nima?
2. Davlat bibliografiyasi va uning o'ziga xos tomonlarini aytib bering.
3. Respublika kitob palatasi qanday faoliyat olib boradi?
4. Milliy va Davlat bibliografiyasining markazlari haqida gapiring.

23-mavzu: Respublika Milliy kitob palatasi faoliyati

Reja:

1. O'zbekiston respublikasi milliy kitob palatasi tarixi.
2. O'zbekiston respublikasi milliy kitob palatasining asosiy vazifasi

Tayanch iboralar

Milliy bibliografiya, davlat bibliografiyasi, kitob palatasi, kitob solnomasi, taqrizlar solnomasi. O'zbekiston respublikasi milliy kitob palatasi tarixi. O'zbekiston respublikasi milliy kitob palatasining asosiy vazifasi

O'zbekiston respublikasi milliy kitob palatasi — O'zbekistondagi bibliografiya va matbaa statistikasi soxasidagi markaz. 1926 yil 3 yanvarda Samarqandda tashkil etilgan. 1934 yildan Toshkentda. O'zbekiston Respublikasi milliy kitob palatasi (MKP) matbuot statistikasi materiallarini tayyorlaydi, respublikada nashriyotchilikning rivojlanishini baholaydi, uni rejalashtirishga yordam beradi. Respublikadagi barcha nashriyot va nashriyot huquqiga ega bo'lgan tashkilotlar mahsulotini qabul qiladi, ularning statistikasi bilan shug'ullanadi, barcha kitoblar, shuningdek, jur. lar, to'plam va gazetalardagi asosiy materiallar bibliografiyasini tayyorlaydi, matbaa nashrlarining xalqaro standart belgilarini joriy etish va milliy matbaa arxivini tashkil etish bilan shug'ullanadi.

MKP tarkibida nazorat nusxasini qabul qilish va matbuot statistikasi, kundalik bibliografiya, bibliografik ma'lumotnomalar, kataloglar, matbaa arxivi kabi tarmoqlar mavjud. 1927 yildan respublikadagi matbuot nashrlarining majburiy nusxasini olib, ular asosida ilmiy bibliografiya, matbuot statistikasini amalga oshiradi. MKP 1969 yildan o'zbek tilida, 1971 yildan rus tilida alifbo va sistematik kataloglar yordamida turli bibliografik ma'lumotnomalar tayyorlaydi. 1928 yildan "O'zbekiston matbuoti solnomasi" va uning tarkibida 3 oyda 1 marta "Tanqidiy maqolalar solnomasi", "Tasviri san'at asarlari solnomasi", "Vaqtli nashrlar solnomasi" va boshqalar nashr etiladi.

MKP 1976 yildan O'zbekistonda (1920 yillardan) chop etilgan kitoblar bibliografiyasini tayyorlab, kitob holida nashr qilishga kirishib, 30 jiddli kitoblar solnomasini tayyorladi. Shu bilan birga, turli sohalarga oid o'nlab maxsus nashrlar ham o'quvchilarga taqdim etildi. Jur. materiallari, gaz. maqolalari solnomalari ham oymaoy nashr etib boriladi. Milliy matbaa bibliografiyasi elektron shaklda ham tayyorlanmoqda. MKPning arxiv fondida qariyb 80 yil davomida O'zbekistonda chop etilgan 3 mln. 230 ming saqlov birligidan iborat bosma nashrlar mujassam. MKP bibliografiya nazariyasi va metodikasi bo'yicha ilmiy metodik ishlari olib boradi. Har yili arxiv fondiga O'zbekistondagi nashriyotlar chop etayotgan mingdan ortiq kitob, shuningdek, 110 nomdagisi jur. va byulletenlarning, 510 dan ortiq nomdagisi gaz.ning har bir soni qo'shib boriladi. MKP 2002 yilga qadar O'zbekiston Davlat matbuot qo'mitasi huzurida ish yuritgan, keyin esa O'zbekiston milliy kutubxonasi tarkibiga o'tkazilgan.

Palataga kelgan har bir hujjat avval matbuot asarlarini qabul qilish va nazorat qilish bo'limiga tushadi. Bu bo'limda kitoblar bilan birga kelgan ilovali hujjatlar bosmaxona yoki nashriyotlarning nomlari bo'yicha alohida joylashtiriladi. Kitoblar turli xil belgilariga qarab alohida guruhlashtiriladi, har biriga inventar raqami qo'yiladi. Gazeta va jurnallarning nomlari bo'yicha har biriga alohida pasport yoziladi va tikib boriladi, keyinchalik muqovalanadi. Bu yerda nazoratdan o'tgan kitoblar statistika sho'basida bibliografik tavsif bilan boyitiladi. Bu bo'limdan so'ng adabiyotlar bibliografiya bo'limida alohida bibliografik hisobdan o'tadi va

«O‘zbekiston matbuoti solnomasi» uchun ma’lumotlar to‘plash jarayonida ishtirok etadi. Ma’lumot va bibliografiya bo‘limi esa katalog va kartotekalar uchun kartochkalarni tayyorlaydi va ularni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirib boradi.

Palataning asosiy vazifasi — O‘zbekistonda nashr etilayotgan matbuot asarlarini hisobga olib borish, uning [raqamli hisobini yuritish](#), gazeta va jurnallarga bosma va elektron mahsulotlar haqida axborot berib turish. Kitob palatasining yuragi, matbuot asarlarining arxiv 1927- yili tashkil etilgan. Har yili arxivga 46 ming dona matbuot asari kelib tushgan. O‘sha yillardanoq 7 ta ko‘rsatkichdan iborat «O‘zbekiston matbuotining yilnomasi» nashr etila boshlandi: 1928-yildan «O‘zbekiston kitob solnomasi», 1931- yildan rus va 1938- yildan o‘zbek tilida «Jurnal maqolalari solnomasi», 1968- yildan «Taqrizlar solnomasi» va «Tasviriy san’at asarlarining bosma nashrlari solnomasi», 1969- yildan «Gazeta maqolalari solnomasi», 1976-yildan boshlab kitob palatasi «Аæаәїәїә ёїеәә ОҶННР» va 1982- yildan «O‘zbekistonning bibliografik qo‘llanmalari» nomli yillik ko‘rsatkich nashr etdi.

1958-yil O‘zbekistonda respublika darajasida davlat bibliografiyasi tizimidagi qo‘llanmalar kartochka shaklida nashr etila boshlandi. Bu ishda 1974 — 75- yillarda yangi nashr etilayotgan adabiyotlarning annotatsiya kartochkalari nashr etildi. Kitob palatasida o‘zbek tilidagi kitoblarning, 1915-yildan qoraqalpoq va rus tilidagi kitoblarning alifbo katalogi, 1917- yildan rus va o‘zbek tilidagi kitoblarning sistemali katalogi, o‘zbek va rus tilidagi [jurnal maqolalari katalogi](#), izografika katalogi, rus tilida avtoreferatlar katalogi, mualliflarning familiyalari tartibida badiiy, o‘smirlar va bolalar adabiyoti, [ilmiy ishlar](#), to‘plamlarga kiritilgan mualliflar, taqrizlar, tarjimonlar kartotekalari tuzilgan. Kitob palatasining ma’lumot-bibliografiya apparati 800 ming bibliografik yozuvdan tashkil topgan 20 dan oshiq turli katalog va kartotekalardan iborat.

1994- yildan kitob palatasi Milliy bibliografiya markaziga aylantirildi. Yangi status olganiga qaramay, palataning vazifalari ancha qisqargan. 2002-yildan shu kungacha to‘plangan bibliografik yozuvlar elektron ko‘rinishda, bosma holda nashr etilmadi va tarqatilmadi. Hozirgi kunda mazkur markaz Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi tarkibida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Nazorat savollari.

1. O‘zbekiston respublikasi milliy kitob palatasi xaqida nimalarni bilasiz?
2. O‘zbekiston respublikasi milliy kitob palatasining asosiy vazifasi xaqida nimalarni bilasiz?
3. Kitob palatasining ma’lumot-bibliografiya apparati qancha bibliografik yozuvdan tashkil topgan?

24-mavzu: Retrospektiv bibliografik qo‘llanmalar.

Reja:

- 1.O‘zbekistonda retrospektiv bibliografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti
- 2.O‘zbekistondagi yirik kutubxonalarning retrospektiv bibliografiya sohasidagi faoliyati

Tayanch iboralar.

Respublikamizda retrospektiv bibliografiyaning tashkil etish bo‘yicha hujjatlar, uning shakllanishi, taraqqiyoti, yirik bibliografik ko‘rsatkichlar, ularning xususiyatlari, ahamiyati haqida ma’lumot berish. Nizom, retrospektiv.

O‘zbekistonda retrospektiv bibliografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti 1960- yillarda milliy matbuotni hisobga olish masalasi qizg‘in muhokama qilindi. Sho‘rolar davrigacha, undan keyin ham nashr etilgan adabiyotlar uchun alohida repertuarlar tuzish haqida fikrlar paydo bo‘ldi. 1965- yil bo‘lib o‘tgan Butunittifoq seminarida qabul qilingan Nizomda bu ishni tashkil etish masalasi rasmiylashtirildi. Bu Nizom „Ittifoqchi va avtonom respublikalarda inqilobgacha nashr etilgan umumiy retrospektiv bibliografiya to‘g‘risida Nizom“ deb ataldi, o‘sha davr matbuotining repertuarini yaratish vazifasi belgilab berildi. Retrospektiv bibliografiya uchun

quyidagi xususiyatlarga ko‘ra matbuot asarlari tanlab olindi: a) respublikalar hududida tilidan qat’i nazar, nashr qilingan matnlar; b) inqilobdan ilgari Rossiya hududida respublikalar tillarida nashr qilingan asarlar; d) inqilobgacha Rossiyadan tashqari respublikalarda yashovchi xalq vakillari tomonidan yaratilgan va shu xalq madaniy merosi yoki uning ijtimoiy va milliy ozodlik kurashiga bag‘ishlangan matbuot asarlari obyekt sifatida olindi. Inqilobdan ilgarigi milliy matbuot nashrlarini bibliografiyalash masalalari, uning tarixi, shakllanish jarayonlari turkmanistonlik kitobshunos olim, professor Almas Yazberdiyevning 1974- yilda nashr etilgan „XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida O‘rta Osiyo xalqlarining matbuot asarlarini bibliografiyalash tarixidan“ nomli asarida bat afsil yoritib berilgan. Jumladan, u O‘rta Osiyo respublikalari milliy matbuotining umumiyy retrospektiv bibliografiyasida asosiy belgilar sifatida nashrning tili, muallifning hududiy mansubligini hisobga olish bilan birga u yoki bu belgi bilan bog‘liq ayrim murakkab masalalarni o‘rganish zarur, deb 102 ko‘rsatadi. Ya’ni, olimning fikricha, kitoblarning bibliografiyasini yaratish uchun tiliga ko‘ra milliy madaniyatga mansubligi asos qilib olingan differensiyalash (tabaqalash) zarur. Bu O‘rta Osiyo xalqlari tillarining bir-biridan farqlanmaganligiga bog‘liq masala edi. Shuning uchun O‘rta Osiyo xalqlarining hududiy tarqoq joylashganligi tufayli mualliflik belgisi ham, hududiy belgisi ham hisobga olinishi zarur bo‘lib qoldi. Inqilobgacha O‘rta Osiyo xalqlari matbuotini hisobga olishning bunday prinsiplari muhim ahamiyat kasb etgan va bugungi kunga qadar milliy matbuot to‘la hisobga olinmaganligi uchun ham bu dolzorb masaladir. Lekin shunga qaramasdan, inqilobgacha nashr etilgan adabiyotlarni hisobga olib boruvchi ayrim bibliografik nashrlar mavjud. Ularning hammasida milliy matbuot nashrlari to‘la aks etmagan. A. Yazberdiyev o‘zining monografiyasida matbuot asarlarini qamrab olish chegarasi va mazmuniga ko‘ra ularni uch asosiy guruhgaga ajratish mumkin, deb ko‘rsatadi: 1. Rossiya va musulmon davlatlarida sharq tillarida nashr etilgan adabiyotlar ko‘rsatkichi. 2. Rossiyada bosmadan chiqqan sharq tillaridagi nashrlar ko‘rsatkichi. 3. O‘rta Osiyo hududida nashr etilgan asarlar ko‘rsatkichi. Inqilobgacha bo‘lgan davrda nashr etilgan adabiyotlarni aks ettirgan ko‘rsatkichlar son jihatidan kam bo‘lsada, ular O‘rta Osiyo milliy adabiyotini to‘la bibliografiyalagan, bular B.A. Dorn va V. D. Smirnovlarning „Musulmon kitob solnomasi“ ko‘rsatkichi, N. V. Dmitrovskiyning katalogi, N. A. Burovning „Turkistonning inqilobgacha matbuoti. 1868 — 1879- yy.“ ko‘rsatkichi va boshqalar. So‘nggi ko‘rsatkich muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda nashrlarning bibliografik ro‘yxati bilan birga maqolalar ro‘yxati ham berilgan. Ko‘rsatkich 1950- yilda tuzilgan va 1964-yilda nashr etilgan. Unda 178 ta alohida nashr va 56 maqola ro‘yxatga olingan. N. A. Burov sermazmun va kichkina so‘zboshida shunday yozadi: „Bibliograflar, o‘lkashunoslarga va tadqiqotchilarga yordam berish maqsadida ilgarigi Tukriston general-gubernatorligi (1916-yilgacha) va Xiva hamda Buxoro xonliklari hududlari hisoblangan Turkistonda chiqqan nashrlarni aniqlash va tavsiflash bo‘yicha ishni boshladik“. Qo‘llanmada Turkistonda kitob bosish kashf qilingan davrdan XX asrning birinchi o‘n yilligigacha nashriyotchilik ishining to‘liq tavsifi keltiriladi. Tuzuvchi o‘lkada nashr etilgan birinchi bosma 103 asarlarni aniqlash borasida katta va puxta ish qilgan. Nashrlarning tavsifi to‘la berilgan, bunda, ko‘pincha, turli adabiy, arxiv, qo‘lyozma manbalar asosida muallifi, nashr joyi va yili aniqlangan, ism-sharifiga izoh va tushunchalar berilgan. Bular annotatsiya tarzida ham keltirilgan yoki asosiy tavsifda berilgan. To‘la ma’lumotga ega bo‘lmagan nashrlar tavsifi qisqa berilgan. Burovning bu ko‘rsatkich uchun ko‘p yillar material yig‘ganini ba’zi hollarda „Tuzuvchining yon daftaridagi qaydlar asosida tavsiflandi“ deb bergen eslatmasi tasdiqlaydi. Qo‘llanma yordamchi manbalar ro‘yxati, xronologik va tillar ko‘rsatkichi bilan ta’minlangan. Ko‘rsatkichdagi kamchiliklar haqida Burov so‘zboshisida shunday deydi: „Mahalliy nashrlarni imkoniboricha to‘la berishga harakat qilishimizga qaramay, ko‘rsatkichda eski, nodir hisoblangan va ayrim qismlari yo‘qolgan bo‘lishi taxmin qilingan nashrlar bilan ishlashda yetishmovchiliklar bo‘ldi“. Maqolalar kitoblar tavsifi kabi muallifi va sarlavhasi to‘la ko‘rsatilgan holda berilgan, ammo ular juda qisqa, sodda, nashr mazmunini to‘la ochib bermagan. Maqolani kitobdan ajratish uchun „НТаTÜ“ so‘zidan „ñ“ harfi olinib, belgi qo‘ylgan. Ko‘rsatkichni tuzishda, avvalo, hududiy belgi asos qilib olingan, ya’ni Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro va Xiva xonliklari hududida nashr

qilingan matbuot nashrlari hisobga olingan. Ko'rsatkichni tuzishda O'rta Osiyo va Qozog'iston hududiga oid nashrlarni tiliga ko'ra ham tabaqlashtirgan holda kiritish zarurligini e'tiborga olgan. N. A. Burov o'zbek tilida chiqqan kam nusxadagi (ularning soni 6 ta) kitoblarni tili bo'yicha ajratmasdan rus tilidagi tavsifni berib, umumiy alifbo tartibida joylashtirgan, yordamchi ko'rsatkichdagina alohida ko'rsatgan. Bu bilan inqilobgacha mavjud nashrlarni retrospektiv hisobga olishning shakli — yig'ma kataloglar vujudga keldi. Inqilobgacha bo'lgan bosma mahsulotlarni aks ettiruvchi yig'ma kataloglar „Milliy bibliografik repertuar tuzishning uzoq muddatli dasturi“ doirasida olib borilgan. Respublika kutubxonalarida saqlanayotgan milliy tildagi matbuot asarlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiradi. „Turkistonning inqilobdan oldingi matbuoti“ ko'rsatkichi so'zboshisida Turkistondagi inqilobgacha bo'lgan davrdagi nashrlarni u yoki bu darajada aks ettirgan bibliografik qo'llanmalar tahlili berilgan. Unda bibliografik tavsiflarning o'ziga xosligi, o'sha paytda mavjud „Matbuot asarlarini tavsiflash bo'yicha yagona qoidalar“ dan farqli tomonlari ochib berilgan. N.A. Burov bibliografik tavsiflarning yanada aniq 104 bo'lishini maqsad qilib olgan holda ko'rsatkich uchun alohida qoidalar ishlab chiqishga to'g'ri kelganini yozadi. Birinchi bibliografik nashr hisoblangan ko'rsatkich 1960 — 70- yillarni o'z ichiga olgan, ko'rsatkichning davomi uchun materiallar yig'ilgan, ammo muallifning betobligi tufayli oxiriga yetkazilmagan va nashr qilinmagan, kartoteka ko'rinishida Navoiy nomli Milliy kutubxona fondiga topshirilgan. Bu inqilobgacha davrdagi matbuot repertuari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sharqshunos olim va bibliograf A. A. Semyonov inqilobgacha sharq tillarida nashr etilgan kitoblar haqidagi ma'lumotlarni „O'rta Osiyo universiteti Asosiy kutubxonasining sharq toshbosma asarlarining tasviri“ nomi bilan to'playdi, ammo bu qo'llanmalar ham nashr etilmay qolgan. Qo'llanmadan O'rta Osiyo, Hindiston, Eron, Turkiya litografiyalarida bosingan 565 kitob (undan 113 tasi O'rta Osiyo litografiyalar mahsulotlari) haqidagi ma'lumotlar joy olgan. Ko'rsatkich inqilobga qadar toshbosma kitoblar haqida to'la ma'lumot berolmasa-da, ammo O'rta Osiyo xalqlari tillarida chiqqan alohida nashrlar haqida ma'lumot beruvchi birinchi manba sifatida ahamiyatga ega. Turkiston o'lkasida 1870- yildan 1917- yilgacha rus tilida nashr qilingan vaqtli matbuot nashrlarini hisobga olish va tasvirlash maqsadida 1960- yil M. P. Avsharova „Turkistonda rus vaqtli matbuot nashrlari“ („Póññéàÿ iápèiàè-åñéàÿ iá-àTü à TópéåñTáíå. (1870 — 1917 ä.ä.“) ko'rsatkichini tuzadi. Unga mahalliy tildagi „Turkiston mahalliy gazetasi“ kiritilmagan. M. P. Avsharova ko'rsatkichni tuzishda O'zbekiston davlat kutubxonasi fondidan, M. E. Saltikov-Shedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasi materiallaridan, N. M. Lisovskiyning „Póññéàÿ iápèiàè-åñéàÿ iá-àTü 1703 — 1900 ä.ä.“ ko'rsatkichidan foydalanganini ta'kidlaydi. Unga gazetalar, jurnallar, almanaxlar, bulletenlar, axborotlar, adres-kalendalarlar, turli mazmundagi ma'lumotnomalar, sharhlar, yilnomalar kiritilgan. Materiallar 3 ta asosiy qismda joylashtirilgan: 1. Gazetalar. 2. Jurnallar, asarlar, yilnomalar, almanaxlar. 3. Gazeta, jurnallar, ilmiy asarlar kabi chiqishi tasdiqlanmagan, ammo matbuotda chiqishi mo'ljallangan vaqtli matbuot nashrlari. Nashrlar tavsifida sarlavha, sarlavhaga taalluqli ma'lumotlar, davriyligi, nashr joyi, chiqqan vaqt, muharrirlar va nashriyotchilarining ism-sharifi berilgan. Agar nashr biror rasmiy tashkilot tomonidan chiqarilgan bo'lsa, tashkilot nomi ham berilgan. Ayrim yashirin 105 nashrlar uchun tavsifda uning alohida soni va nashr nusxasi ko'rsatilgan. Tavsifdan keyin gazetalar ketma-ketligi, izchilligi ko'rsatilgan. Muallif vaqtli matbuot nashrlarini aniqlagan, har bir jurnal, to'plam yoki gazeta nashrining umumiy yo'nalishi, dasturi, xodimlarning asosiy tarkibiga ta'rif beradi, nashrlarga batafsil, to'liq annotatsiya beradi, man etilgan sonlarining ro'yxati va nashrga to'siq bo'lgan senzura yoki jazo choralar haqidagi ma'lumotlarni kiritgan. Senzura tufayli tez-tez nomini o'zgartirishga majbur bo'lgan vaqtli matbuot nashrlarining izchilligi haqidagi ma'lumotlar katta ahamiyatga ega. Muharrir yoki nashriyotchilar haqida ma'lumot bermasa-da ularning ism-sharifini ko'rsatgan. Bevosita ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmaganda foydalananilgan manbalar ro'yxati berilgan. 1905 — 1907- yillarda yashirin nashr etilgan Turkiston nashrlari haqida ham ma'lumotlar olgan. Qo'llanmadan foydalananishni osonlashtirish maqsadida topografik, xronologik hamda muharrir va nashriyotchilar ko'rsatkichlari berilgan. Muharrirlar va nashriyot xodimlarining ko'rsatkichi ular faoliyatini kuzatib borish, o'rganish, u yoki bu

vaqtli matbuot nashrining yo'nalishini aniqlash imkonini bergen. Topografik ko'rsatkich Turkiston o'lkasining turli shaharlarida chiqqan vaqtli matbuot nashrlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi. Xronologik ko'rsatkich vaqtli nashrlarning turli yillardagi rivojlanish tarixini o'rganishga yordam beradi. Ko'rsatkichning bir tomoni borki, har bir yil ichida vaqtli nashrlar yangilanadi, bu esa ortiqcha joy oladi va ko'rsatkichni qaytadan ortiqcha to'ldirib boradi. Masalan, „TópéâñTâíñêà áåäíiñTè“ gazetasi bir qator ruknlarda qayta-qayta takrorlanadi. M. P. Avsharovaning „Turkistonda rus vaqtli matbuot nashrlari“ (1870 — 1917-y.) ko'rsatkichida 85 ta gazeta, 82 ta jurnal, 4 ta almanax va boshqa vaqtli xususiyatga ega bo'lgan nashrlar kiritilgan. Muallifning katta mehnatiga qaramay, ayrim vaqtli nashrlari retrospektiv ko'rsatkichining qimmatini va ahamiyatini yo'qotmaydi, balki O'zbekiston tarixini va O'zbekiston bibliografiyasi tarixini o'rganishda ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarga yaqindan yordam beradi. Mavjud manbalar inqilobdan avvalgi davrdagi vaqtli matbuot nashrlari retrospektiv ko'rsatkichining qimmatini va ahamiyatini yo'qotmaydi, balki O'zbekiston tarixini va O'zbekiston bibliografiyasi tarixini o'rganishda ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarga yaqindan yordam beradi. Mavjud manbalar inqilobgacha bo'lgan Turkiston vaqtli matbuot nashrlari tarixini o'rganishda yetarli emas, shuning uchun hozirgi kun bibliografiyasi oldida inqilobgacha, hatto 106 keyingi davrdagi vaqtli nashrlarning repertuarini yaratish va o'rganish muammosi turibdi. Bunday repertuarni O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qирг'изистон, Tojikiston mutaxassislari hamkorlikda amalga oshirishlari lozim. O'zbekistonning yirik kutubxonalarning retrospektiv bibliografiya sohasidagi faoliyati 1946- yilda O'zbekistonning umumiyl retrospektiv bibliografiyasini tuzish masalasi yana ko'tariladi. 1946- yil 3- maydag'i 578- sonli maxsus qaror bilan O'zFA huzurida bibliografiya byurosi tashkil etiladi. Unga „O'rta Osiyo va O'zbekistonning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan xalq xo'jaligi va madaniyatining hamma sohalari bo'yicha o'zbek, rus va boshqa xalqlar tillarida, shu jumladan, chet tillarda nashr qilingan hamma turdag'i bosma materiallarni qamrab oluvchi ko'rsatkichni tuzish va nashrga tayyorlash vazifasi yuklatiladi. Bibliografiya byurosi tarkibiga Y. K. Betger, L. V. Bomshteyn, N. A. Burov, A. I. Ageyev, Ali-Asqar Usmonov (Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat kutubxonasi direktori) kiritildi. Bu vazifani bajarish uchun byuro mustaqil tashkilot sifatida Toshkent va boshqa shaharlardagi kutubxonalar va ilmiy muassasalardan eng yaxshi bibliograflarni ishga jalb etdi. Materiallarni aniqlash va tavsiflash ishi 1947- yili boshlandi. M. S. Viridarskiy bibliografik tavsif berishga oid yo'riqnomasi ishlab chiqdi. Natijada 1917 — 1952- yillarda nashr qilingan adabiyotlarning 50 ming annotatsiyalangan kartochkasi to'plandi. Afsuski, ish oxiriga yetkazilmagan va nashr qilinmagan, ammo keyinchalik to'plangan materiallar asosida bir qancha tarmoq retrospektiv bibliografik ko'rsatkichlar nashrdan chiqarilgan. Ko'rsatkichning rus tilidagi qismida rus va chet tillardagi kitoblar ro'yxatga olingan. Chet tillardagi kitoblar nashr tilini ko'rsatish bilan rus tilida tasvirlangan. Matni ham o'zbek, ham rus tilidagi kitoblar ko'rsatkichining o'zbek tilidagi adabiyotlar qismida joylashtirilgan. Ko'rsatkichga yordamchi apparatlardan ismlar ko'rsatkichi, o'zbek va rus tilida alohida sarlavhalar, tillari bo'yicha ko'rsatkichlar ilova qilingan. O'zbekistonning vaqtli matbuot nashrlari 1987- yil Kitob palatasi tomonidan nashr etilgan „O'zbekiston gazetalari“ (1917 — 1967- y.), 1988- yilgi „O'zbekiston jurnallari (1917 — 107 1980 - y.), 1989- yilgi „O'zbekiston ilmiy ishlari to'plami“ (1917 — 1980- y.) kabi 3 ta asosiy ko'rsatkichda berilgan. 1-ko'rsatkichda 1917- yildan boshlab nashr qilingan respublika, viloyat, shahar, tuman gazetalarini to'g'risida ma'lumot beradi, unga kichik yoki vaqtinchalik gazetalar kiritilmagan va jami 203 nomdagi gazetalarni hisobga olgan. Gazetalar tavsifi oxirgi nusxasiga asoslangan. Gazetalar nomi o'zgargan bo'lsa, eslatmada „Nomi“ rukni ostida ko'rsatilgan, „Sarlavha ostida“ ruknida gazetaning kitobxonlik doirasidagi o'zgarishlar, uni nashr etgan tashkilot nomi, tarkibi berilgan. „Chiqish joyi“ ruknida uning o'zgarganligi haqidagi ma'lumotlar berilgan. Gazetaga muharrirlik qilgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar „Red“ ruknida ko'rsatilgan. Kitob palatasi arxividagi ayrim gazetalarning saqlanmaganligi tufayli, ko'pgina muharrirlar haqidagi ma'lumotlar yetishmaydi. „O'zbekiston gazetalari“ ko'rsatkichi juda sodda va qulay tuzilgan, ularda gazetalar ma'muriy-hududiy prinsip asosida joylashtirilgan. Avval respublika, keyin viloyat gazetalarini viloyatlar nomlari alifbosi tartibida berilgan. Bo'limlar ichida avval o'zbek tilida, keyin rus tilida va boshqa xalqlar tillaridagi gazetalar haqida ma'lumotlar alifbo tartibida berilgan. So'zboshida

tanlash prinsipi yetarli darajada olib berilmagan. Bibliografik tavsifdagi qisqartmalar o'sha paytda amalda bo'lgan „ÂINT“ talablariga javob bermaydi. Boshqa tillardagi nashrlarning tavsifi rus tilida berilgan, ayrimlariga yulduzcha belgisi qo'yilgan. So'zboshida bibliografik tavsiflarning o'ziga xos uslubda berilishi haqida hech narsa deyilmagan. „O'zbekiston jurnallari“ (1917 — 1980- yillarda) bibliografik ko'rsatkichi hamma jurnal va bulletenlarni aks ettirgan. Bunda jurnallar tavsifi eng so'nggi nomiga ko'ra har bir bo'limda avval o'zbek, rus, keyin boshqa tillarda alifbo tartibida joylashtirilgan. Arab va lotin yozuvidagi jurnallar „Arab grafikasi“, „Lotin grafikasi“ izohi bilan berilgan. O'zbek va boshqa tillardagi nashrlarning tavsifi oxirida sarlavhaning rus tiliga tarjimasi berilgan. Yulduzcha belgisi ostida o'zbek va rus tillarida chiqqan nashrlarning sarlavhasi tarjimasiz ko'rsatilgan. Ko'rsatkichda qaysi tilda yoki yozuvda chiqishidan qat'i nazar, hozirgi o'zbek (kirill) yozuvida tavsif berilgan. 1917 — 1930- yillardilar arab, 1931 — 1940- yillarda esa lotin yozuvida berilgan. Nashrning chiqa boshlagan yili nashrlarda berilgan ma'- lumotlar, muharririyyatlar, O'zbekiston kitob palatasini matbuot 108 arxivi ma'lumotlari asosida belgilangan. Uni tuzishda O'zbekiston kitob palatasi bosma fondi asosiy manba bo'lib xizmat qilgan, nashrlarni to'liqroq aks ettirish uchun O'zbekiston Respublikasi davlat kutubxonasi kataloglaridan, „Vaqtli nashrlar solnomasidan“ foydalanilgan. Ko'rsatkichda 496 nomdagi jurnal va bulletenlar haqida ma'lumotlar aks ettirilgan. Materiallar bo'limlar ichida nashr turlari bo'yicha quyidagicha guruhshtirilgan: 1. Jurnallar. 2. Bulletenlar va axborot nashrlari. Har bir bibliografik yozuv quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: 1. Nashr nomi. 2. Sarlavha osti ma'lumoti. 3. Nashrning chiqa boshlagan yili. 4. Davriyligi. 5. Nashr joyi. 6. Nashriyoti. 7. Sarlavha usti ma'lumoti. 8. Muharriri. 9. Miqdor xarakteristikasi. 10. Izohlar. Qo'llanmaga yordamchi tillar ro'yxati, jurnallar alifbo ko'rsatkichi, muharrirlar ismlari ko'rsatkichi ilova qilingan. Ismlar va sarlavhalar ko'rsatkichlari sifatlari darajada tuzilmagan. Manbalarning ro'yxati tartib raqamiga to'g'ri kelmaydi, tillar ko'rsatkichi va sarlavhalar ko'rsatkichi e'tiborsizlik bilan tuzilgan, tahlil qilinayotgan qo'llanmaning nomiga mazmuni to'g'ri kelmaydi, chunki unda bulletenlar ham kiritilgan. 1989- yil O'zbekiston kitob palatasi 1917 — 1980- yillarni o'z ichiga olgan vaqtli va davomli nashrlar hisobini beruvchi retrospektiv bibliografik ko'rsatkichni nashrdan chiqardi. Bu „O'zbekiston ilmiy ishlari to'plamlari“ deb ataldi. Unga shu yillarda o'zbek va rus tillarida nashrdan chiqqan ilmiy ishlari to'plamlari va ilmiy axborotlar kiritilgan. Tuzuvchilar manbalarni aks ettirishda vaqtli matbuot nashrlari va ilmiy ishlari to'plamlarini ba'zi hollarda almashtirib berishgan. Ko'rsatkichda 4153 nomdagi material ro'yxatga olingan. Uni tuzishda Kitob palatasining fondi asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, nashrlarni to'la qamrab olish uchun Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat kutubxonasining fondidan ham foydalanishgan. Biroq ko'rsatkichda nashrlar to'la ro'yxatga olinmagan. O'zbekiston davlat kutubxonasi 30- yillardayooq ilmiy asarlar to'plamlarini chiqara boshladi, jumladan, kutubxona asarlarining 1935- yilda nashr qilingan 1-jildi ko'rsatkichda berilmagan. 109 Bo'limlarda yozuvlar alifbo tartibida joylashtirilgan. Bo'lim boshida o'zbek, so'ngra rus tilidagi adabiyotlar ko'rsatilgan. To'plamlar sarlavhalarining rus tiliga tarjimasi hamma vaqt ham berilmagan. Qo'llanmaning yordamchi apparati ismlar va sarlavhalar ko'rsatkichidan iborat. O'zbekiston bastakorlar uyushmasi bilan hamkorlikda 1890 — 1983- yillarni o'z ichiga oluvchi „O'zbekiston kompozitorlari asarları“ ko'rsatkichini, keyinchalik 1926 — 1985- yillar nashr etilgan tasviriy san'at asarlarini aks ettiruvchi „O'zbekistonning tavsiriy san'at asarları“ ko'rsatkichini nashr etdi. 1980- yillarga kelib O'zbekistonda umumiyy retrospektiv bibliografiya tizimi respublikashunoslikka oid bibliografik ko'rsatkichlar bilan ham to'ldirildi. 1986- yili Alisher Navoiy nomli MK xodimi E. N. Kitkovich „ÓçáåèëñTáí íà ñTpàíèöàö çäpóåæííé íå÷àTe“ („O'zbekiston chet el matbuotida“) ko'rsatkichini nashrdan chiqardi. Ko'rsatkich ilmiy xodimlarga mo'ljallangan bo'lib, unga respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hayotiga oid xronologik jihatdan katta davrda — XVII asrдан to 1983- yilgacha nashr qilingan chet el ensiklopediyalari, ma'lumotnomalari, turli markazlar tuzgan milliy bibliografik qo'llanmalar, kitob, maqolalar ichidagi bibliografik ro'yxatlar asos bo'lgan. Ko'rsatkichda lotin alifbosida bosilgan G'arbiy Yevropa mamlakatlari tillaridagi adabiyotlar ham berilgan. Manbalar, asosan, respublikamiz hayotining barcha sohalarini hisobga

olgan 10 ta bo‘limga ajratilgan bo‘lib, bo‘limlar ichida teskari xronologik tartibda joylashtirilgan. Bibliografik tavsifda hujjatlarning nashr qilingan tillari haqida ma’lumot berish bilan birga rus tilidagi tarjimasi ham berilgan. Qo‘llanmada ismlar ko‘rsatkichi, qisqartmalar hamda ko‘rib chiqilgan vaqtli matbuot nashrlarining ro‘yxati berilgan. O‘zbekiston kitob palatasi Qoraqalpog‘iston Avtonom Respublikasi hududida chiqqan bosma matbuotning hisobini olgan „Qoraqalpog‘iston matbuoti“ nomli 2 qismidan iborat umumiyoq retrospektiv bibliografik ko‘rsatkichni nashr etdi. Uning 1- qismiga 1917 — 1975- yillardagi Qoraqalpog‘istonda nashr etilgan kitob va kichik risololar hamda vaqtli matbuot nashrlari kiritilgan. Materiallar „Kitob nashri uchun adabiyotlar klassifikatsiyasining yagona jadvali“ bo‘yicha sistemali tarzda, ruknlar ichida alifbo tartibida tillari bo‘yicha joylashtirilgan. Qoraqalpoq tilida nashr qilingan asarlar mualliflari, sarlavhalarning rus tilidagi tarjimasi 110 berilgan. Tarjimasiz berilgan kitoblar yulduzcha bilan belgilangan. Ko‘rsatkichda adabiyotlar fanning hamma tarmoqlari va adabiyotlarning turlari bo‘yicha joylashtirilgan: ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnika, qishloq xo‘jaligi, badiiy asarlar, ma’lumotnomalar, darsliklar. Ko‘rsatgichda hisobga olingan davr katta bo‘lganligi sababli qator nashrlar tasvirida qoraqalpoq so‘zлari turlicha uchraydi. Qo‘llanmada materiallar nashr turiga qarab oldin kitob va kichik risololar, so‘ngra jurnal va gazetalar tarzida berilgan. Jurnallar umumiyoq alifbo tartibida: gazetalar ahamiyatiga ko‘ra, avval respublika gazetalari, keyin shahar, tuman, quyi organlar gazetalari berilgan. Qo‘llanma ayrim kamchiliklardan xoli emas. Ko‘rsatkichning 1987- yilda chiqqan xronologik davomi ham shu nomda bo‘lib, u 1976 — 1986- yillarda Qoraqalpog‘istonda bosib chiqarilgan kitob va kichik risololar, vaqtli matbuot nashrlarini o‘zida jamlagan. Qo‘llanmaning tuzilishi 1- qismdagidek bo‘lib, farqi shundaki, bu qismiga Qoraqalpog‘istonda nashr etilgan o‘zbek tilidagi kitob va kichik risololar ham kiritilgan. Qo‘llanmada kitob va risolalarga ismlar va sarlavhalar ko‘rsatkichi, vaqtli nashrlarga jurnal va gazeta nomlarining alifbo ko‘rsatkichi berilgan. Ko‘rsatkich ilmiy muassasalar, nashriyotlar va kutubxona xodimlari, bibliograflar va keng kitobxonalar ommasi uchun axborot va ma’lumotnoma qo‘llanmasi sifatida xizmat qiladi. O‘zbekiston tabiati va ishlab chiqarish kuchlarini, uning ijtimoiy, siyosiy hayoti, tarixi va iqtisodiyoti, madaniyati va san‘atini tadqiq qilishga bag‘ishlangan bosma nashrlar bilan bir qatorda ko‘p sonli dissertatsiyalar va avtoreferatlar ilmiy ish uchun katta qiziqish uyg‘otadi. 1954- yilda O‘rtta Osiyo davlat universiteti asosiy kutubxonasi va Alisher Navoiy nomli Respublika kutubxonasi tomonidan „O‘zbekistonda 1936 — 51- yillarda himoya qilingan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarining ko‘rsatkichi“ (ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar, matematika) nashr qilingandi. Buni bajarishda Respublika ilmiy va o‘quv muassasalarini tadqiq qilgan katta mutaxassis-bibliograflar jamoasi N. M. Manin, V. A. Shenrok, A. V. Korshun, A. L. Kapustinlar jalb qilindi. Tuzuvchilarining ta’kidlashlaricha, ko‘rsatkich ma’lumotlarni to‘la bermaydi. Unga saqlash joyida bo‘lmagan bir qism ishlar, ilmiy va amaliy ahamiyatini yo‘qotgan ishlar kiritilmagan. Ko‘rsatkich ijtimoiy va tabiiy fanlar bo‘yicha 595 ta doktorlik va fan nomzodligi 111 dissertatsiyasi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Ko‘rsatkichning qishloq xo‘jaligi, texnika, tabobat bo‘yicha dissertatsiyalarini hisobga olgan 2- qismi nashr etilmagan. Ishlarning (muallifning familiyasi, ish nomi, tugatilgan yili, ish hajmi, chizmalar, rasmlar, ilovalar va boshqalarni ko‘rsatish bilan miqdor xarakteristikasini o‘z ichiga oluvchi) bibliografik tasvirdan tashqari, qo‘lyozmalar, grafa qismi va bo‘limlari sanalgan shaklda ishlarning mazmuni ohib beriladi. Dissertatsiyalar ularga qanday ilmiy daraja berilishidan qat‘i nazar fan sohalari bo‘yicha taqsimlangan. Bo‘limlarda O‘zbekistonda fanning rivojlana borishini kuzatish imkonini beradigan xronologik guruylashtirish qo‘llanilgan. Ko‘rsatkichga „kalit“ sifatida mualliflarning alifboli ko‘rsatkichi ilova qilingan. Ko‘rsatkichning ilmiy bibliografik muharrirligi O‘rtta Osiyo davlat universiteti asosiy kutubxonasi bibliografiya bo‘limining mudiri, tarix fanlari nomzodi O. V. Maslova va Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston davlat kutubxonasining bosh bibliografi M. F. Avsharova tuzganligi ishning yuqori darajasini ta’minlaydi. O‘zbekistonda tadqiqot ishi bilan shug‘ullanuvchi olimlar uchun 1967 va 1986-yillarda O‘zFA asosiy kutubxonasi xodimlari A. I. Ageyev va A. A. Viktorovalar tuzgan „O‘zbekiston to‘g‘risida dissertatsiyalar bibliografiyasi“ ko‘rsatkichi qiziqarli qo‘llanma

hisoblanadi. Unga Moskva, Leningrad, Kiyev, Boku, Toshkent va boshqa shaharlarda himoya qilingan ishlar kiritilgan. Material tanlashda tuzuvchilar Respublika muammolarini o‘rganish vazifasiga bevosita xizmat qiladigan ishlarni hisobga olishga harakat qilganlar. Respublika amaliy hayoti talablari bilan bog‘liq bo‘lgan paxtachilikka oid ishlardan tashqari ishlar ko‘rsatkichga kirmagan. Ko‘rsatkichda 1936 — 1968- yillardagi 4000 dan ortiq doktorlik va fan nomzodligi dissertatsiyalari olingen. Ko‘rsatkich tuzuvchilarining fikricha, 1936- yilga qadar ularni qiziqtirgan mavzu bo‘yicha material topilmagan. Ko‘rsatkichda materiallar fan sohalari bo‘yicha guruhlashtirilgan. Bo‘limlar ichida doktorlik va fan nomzodligi dissertatsiyalariga ajratilgan, ular alifbo tartibida joylashtirilgan. Tavsif asarning nashr tilida berilgan, qolgan ma’lumotlar rus tilida keltirilgan. Oxirida ismlar ko‘rsatkichi berilgan. Qo‘llanmalarini tuzishda O‘zFA asosiy kutubxonasi, Rossiya davlat kutubxonasi, Leningrad, Moskva, Toshkent va boshqa universitetlar kutubxonalari fondlari, kataloglari, qator bibliografik qo‘llanmalar ko‘rib chiqilgan. 112 Sobiq Ittifoq respublikalarida tuzilgan bibliografik qo‘llanmalarini maxsus hisobga olish respublikalar bibliografik madaniyatining yuksak darajasidan, muntazam va har tomonlama bibliografik repertuarni shakllantirishga intilishdan darak beradi. Ittifoqchi respublikalar bibliografiyasining bibliografiyasi 2 yo‘nalishda: respublika bibliografik mahsulotini hisobga olish (afsuski, hozirgacha O‘zbekistonda tuzilgan bibliografik qo‘llanmalar repertuari to‘la emas) va respublika haqidagi bibliografik qo‘llanmalarning ro‘yxatini olib borish rivojlandi. O‘zbekiston haqidagi bibliografik qo‘llanmalar M. M. Turopovning ishida keng tahlil qilingan bo‘lib, bunday qo‘llanmalar 30- yillarda A. G. Bisnek va K. Shafranovskiylarning „Áéáëëíäpàöéý áéáëëíäpàöè Ñpääíåé Áçèé“ qo‘llanmasida hisobga olingen. A. Viktorovaning 1936 — 1965- yillardagi bibliografik materialarni hisobga oluvchi „ÓéàçàTåëü áéáëëíäpàöè-åñêèõ iññiáèé íá ÓçáåéèñTàíå“ ko‘rsatkichi yuqoridagi qo‘llanmaning xronologik davomi hisoblanadi. Ko‘rsatkichda O‘zbekiston yoki O‘rta Osiyo to‘g‘risidagi alohida nashr qilingan bibliografik ishlar, sobiq Ittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlarning bo‘limlari, O‘zbekiston tabiat, iqtisodi, tarixi, fani va madaniyatining turli masalalari bo‘yicha kitob ichi va maqola ichi adabiyotlar 1446 nomdagi ro‘yxatlari kiritilgan. material hisobga olingen. Alohida nashr qilingan ko‘rsatkichlar annotatsiyalangan. Qo‘llanmada adabiyotlar o‘lkashunoslik mavzusidagi ko‘rsatkichlarda qabul qilingan tartib asosida joylashtirilgan. Bo‘limlar 34 ta asosiy mavzuli kompleksda guruhlashtirilgan: 1. Tabiat va tabiiy boyliklari. 2. Ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixi, fan va madaniyati. 3. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san’at. Universal mazmundagi bibliografik ko‘rsatkichlar qo‘llanma boshida keltiriladi. Ish yaxshi uslubiy darajada bajarilgan, 34 ta yordamchi „kalitlar“ — ismlar, geografik, sarlavhalar ko‘rsatkichi bilan ta’minlangan. O‘zbekistonda retrospektiv bibliografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti, respublikamizda retrospektiv bibliografiyani tashkil etish bo‘yicha hujjatlar, uning shakllanishi, taraqqiyoti, yirik bibliografik ko‘rsatkichlar, ularning xususiyatlari, ahamiyati haqida ma’lumot berish. O‘zbekistondagi yirik kutubxonalarining retrospektiv bibliografiya sohasidagi faoliyati.

Nazorat savollari.

1. Respublikamizda retrospektiv bibliografiyanı tashkil etish bo‘yicha hujjatlar, uning shakllanishi, taraqqiyoti xaqida nimalarni bilasiz?
2. Yirik bibliografik ko‘rsatkichlar xaqida nimalarni bilasiz?
3. Yirik bibliografik ko‘rsatkichlarning xususiyatlari, ahamiyati haqida ma’lumot bering?
4. Nizom xaqida nimalarni bilasiz?

25-mavzu: Maxsus bibliografik qo‘llanmalar.

Reja:

1. Bibliografiyaning keng tarqalgan turlari.
2. Maxsus bibliografik ko‘rsatkichlar va qo‘llanmalar, ularning xususiyatlari, ahamiyati. Ilmiy-yordamchi bibliografik qo‘llanmalar.
3. Bibliografik qo‘llanmalar nashr etish.

Tayanch iboralar.

Bibliografiyaning keng tarqalgan turlari, maxsus bibliografik ko'rsatkichlar va qo'llanmalar, ularning xususiyatlari, ahamiyati, boshqa turlardan farqi, xillari haqida ma'lumot berish. Ilmiy-yordamchi bibliografik qo'llanmalar.

Bibliografiyaning keng tarqalgan turlaridan quyidagilar farqlanadi:

-ijtimoiy vazifasiga ko'ra, davlat bibliografiyasi, ilmiy yordamchi bibliografiya va tavsiya bibliografiyasiga;

- mazmuniga ko'ra, umumiy, soha va mavzuli bibliografiyaga bo'linadi.

Bibliografiyaning alohida turini bibliografiya bibliografiyasi, biobibliografiya (shaxs bibliografiyasi) va o'lkashunoslik bibliografiyasi tashkil etadi.

Bu bo'linish nisbiydir. Nashr shakliga ko'ra, bibliografik qo'llannalar, bibliografik jurnallar, byulleten, gazeta, kitob va maqolalar ko'rsatkichlari va adabiyotlar ro'yxati kabilar farqlanadi.

Ilmiy-yordamchi bibliografik qo'llanmalar Ilmiy-yordamchi bibliografik qo'llanmalar ilmiy tadqiqot ishida yordam berish maqsadida tayyorlanadi va olimlarga, oliv o'quv yurtlari o'qituvchilariga, ilmiy tashkilot va muassasalarning rahbarlariga, shu soha mutaxassislari va talabalarga mo'ljallanadi. Ilmiy-yordamchi bibliografiyalarga mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan asarlar olinadi. Unga kitoblar, gazeta-jurnal, to'plamlardagi maqolalar, standartlar, nizomlar, patentlar, dissertatsiyalar, hisobot va boshqa materiallar kiritiladi. Materiallarni qamrab olishning to'laligi turlicha: ayrim bibliografiyalarda axborot iloji boricha to'la keltiriladi, boshqalarida esa tanlangan holda olinadi. Buning uchun bir-birini to'ldirib boruvchi, o'zida mustaqil bibliografik nashrlar (bibliografik ko'rsatkichlar, ma'lumotnomalar, sharhlar)dan tashqari nodavriy, davriy va davomli ilmiy nashrlarni ham birlashtiruvchi retrospektiv qo'llanmalar yig'indisidan tashkil topgan ilmiyyordamchi bibliografiyalar kerak bo'ladi. Kundalik ilmiy-yordamchi bibliografik qo'llanmalar. Bu qo'llanmalardan yangi hujjatlar haqida tezkor va muntazam 114 axborot berishda foydalilanadi. Ular ilmiy tashkilotlarga, ilmiytadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarga fanning, ilmning rivojlanishini muntazam kuzatib borish, o'rganib borish imkonini beradi. Axborotning tezkorligi va to'liqligi faqatgina u yoki bu sohada fanning rivojlanishigagina bog'liq emas, balki yutuqlarning amaliyatga joriy etilayotganiga ham bog'liq. Bularni to'la yoritib borish biringa bibliografik nashrda amalga oshib qolmaydi. Buning uchun hujjatlar mazmunini turlicha yo'nalishda, shaklda ochib berish lozim. Hozirgi paytda keng tarqalgan axborot beruvchi kundalik ilmiy-yordamchi qo'llanmalar — bibliografik axborot, referativ axborot va sharhli axborotlardir. Ular, asosan, oylik, kvartallik yoki yarim yillik davomli nashrlar ko'rinishida bo'ladi. Bibliografik axborot — hujjatlar haqidagi tezkor xabar (signal), u hujjatlarning bibliografik tavsifi yoki asosiy ma'lumotlar bilangina cheklangan bibliografik ko'rsatkichdir. Uning vazifasi tezkorlik, katta hajmdagi adabiyotlar haqida to'la axborot berishdan iborat. Axborot mavzusi muammolar, bilim sohalari, hujjatlarning turlari bo'yicha ham tartibga solinadi. Referativ axborot — referativ jurnal, ilmiy-axborot to'plamlari, ekspress-axborotlar kabi nashr turlarini birlashtiradi. Unda axborot-hujjatlar haqidagi ma'lumotlar referatlar shaklida beriladi, hajmi va berilayotgan ma'lumotlar soni bilan boshqa turlardan farq qiladi. Referativ jurnal — bu hujjatlar haqida axborot beruvchi jurnal ko'rinishidagi vaqtli nashr. U materiallarni to'la beradi, birinchi galda ilmiy xodimlarga zarur nashrlarni, sohaga oid xorijiy adabiyotlarni tanlashda yordam beradi. Referativ to'plam — aniq bir sohadagi ilmiy-texnik yutuqlarni aks ettiruvchi materiallarni yig'uvchi vaqtli yoki davomli referativ nashr. Unda nashr etilmagan asarlar haqidagi axborot ham beriladi. Ekspressaxborot — vaqtli referativ nashr bo'lib, u xorijda va mamlakatimizda nashr etilgan va etilmagan hujjatlarni aks ettiruvchi haftalik yoki oylik nashr. U materiallar haqida tanlangan asosda ma'lumot beradi, mazmun keng yoritiladi, maqsadi iste'molchilarga tezkorlik bilan ma'lumot berish. Sharhli axborot — bir yoki bir necha bibliografik sharhni o'zida jamlagan, qaysidir fan sohasi, texnika yoki madaniyat sohasidagi yutuqlar, rivojlanish va an'analarni aks ettirgan manbalarni tahlil qilish va umumlashtirishga oid bo'ladi.

Sharhli axborot referativ jurnallar, referativ to‘plamlar va boshqa axborot nashrlari asosida tayyorlanadi. Ilmiy tadqiqotlar mazmunini, 115 metodikasini, natijalarini chuqur tahlil qilish ko‘p vaqt, malaka va kuch talab qiladi. Shuning uchun hozirgi paytda bunday sharhlar pullik xizmat ko‘rsatish turiga kiritilgan. Retrospektiv ilmiy-yordamchi bibliografik qo‘llanmalar. Ularning maqsadi turli xil hujjatlarda aks etgan fan, texnika, madaniyat yutuqlaridan, ma’naviy boylikdan kompleks foydalanishga yordam berishdan iborat. Umumlashtiruvchi, yakunlovchi vazifani bajarish bilan bunday qo‘llanmalar jiddiy tadqiqot ishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Unga ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar — oddiy asardan to memuar asargacha, kundaliklar, ilmiy tadqiqotlarni olib borish metodikasiga oid asarlar tanlab olinadi. Retrospektiv bibliografiyaning rivojlanishi kundalik bibliografiyalarning rivojiga, avtomatlashgan tizimdan qay darajada foydalanilayotganiga bog‘liq. Bu yo‘nalishda tarmoqlararo, tarmoq, mavzuli va muammoli-mavzuli ko‘rsatkichlar, ilmiy muassasalarining, ayrim olimlarning asarlari ko‘rsatkichi, biobibliografik ko‘rsatkichlar, lug‘atlar, mamlakatshunoslik va o‘lkashunoslik xarakteridagi ko‘rsatkichlar, nashrlarning ayrim turlariga oid ko‘rsatkichlar (dissertatsiyalar, qo‘lyozmalar va h. k.) tuziladi. Professional ishlab chiqarishga oid bibliografik qo‘llanmalar Turli sohadagi amaliyotchilarga mo‘ljallangan maxsus bibliografik qo‘llanmalar ishlab chiqarish va kasbiy faoliyat davomida uchraydigan har xil muammolarni hal etishda, bibliografik axborotga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishda yordam beradi. Professional ishlab chiqarishga oid bibliografik qo‘llanmalarning talabgorlari oliy va o‘rtा maxsus ma’lumotli ishlab chiqarish va boshqa sohadagi mutaxassislardir. Bu ko‘rsatkichlar xarakteriga ko‘ra ham ilmiy-yordamchi, ham tavsiya ko‘rsatkichlariga o‘xshab ketadi, ya’ni ular oraliq o‘rinda turadi. Ishlab chiqarishga va kasbiy malakaga oid adabiyotlarning ko‘plab nashr etilishi mutaxassislar uchun ko‘plab turda bibliografik qo‘llanmalar tayyorlashni taqozo qiladi. Ular doimo amaliy ahamiyatga, mutaxassisiga zarur bo‘lgan sohada tanlangan axborotni olish imkoniyatini beruvchi tavsiyaga ega bo‘ladi. Bunday qo‘llanmalarning talabgorlari — sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasidagi mutaxassislar, fermer xo‘jaligidagi rahbarlar, loyihibachilar, konstruktordar, zootexnik, veterinarlar va boshqalar, shuningdek, ishlab chiqarish sohasidan 116 tashqarida maorif, madaniyat va san‘at, tibbiyot xodimlari ham shu soha adabiyotlariga murojaat qiladilar. Keyingi yillarda savdo, biznes, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan bibliografik qo‘llanmalar xarakteri va yo‘nalishida o‘zgarish ham yuz berdi. Endilikda ular uchun alohida ko‘rsatkichlar tuzish talab etilmoqda. Viloyat kutubxonalari qoshida tashkil etilgan „Huquqiy axborot markazlari“ (tadbirkorlar, savdo xodimlari uchun) bibliografiyaning turli xil kichik shakllarida axborot varaqalari, bulletenlari, sharhlar tayyorlab tarqatadi. Bibliografik qo‘llanmalarning tipi mavzusi kabi mutaxassisning ishlab chiqarish va amaliy faoliyati xususiyatiga mos keladi. Bular bibliografik sharhlar va ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular ilmiy-amaliy jurnallar sahifalarida beriladi va asarlarning sarlavhalari va mavzusi ko‘rstikchilardan iborat. Mutaxassislar uchun tuzilgan bibliografik qo‘llanmalarning o‘ziga xos metodik xususiyati: maqsadga qaratilgan bibliografik tanlash; ma’lumot-bibliografiya apparatiga egaligi. Tanlangan hujjatlar amaliy xarakterga ega bo‘ladi, so‘nggi yillarda nashr etilgan zamонавиу texnika va texnologiya, asboblarni modernizatsiya qilish, ishni tashkil etishning zamонавиу shakllariga oid bo‘ladi. Maorif va ma’naviyatga oid bibliografik qo‘llanmalar muhim, ular professor va o‘qituvchilarga hamda kutubxona xodimlariga mo‘ljallanadi. Adabiyotlar ma’ruzalarga, mashg‘ulotlarga, suhbatga tayyorlanishda yordam beradi. Bu yo‘nalishda muhim va unutilmas voqeа va sanalar taqvimi, bibliografik sharhlar, ma’lumotnomalar, metodik tavsiyalar keng tarqalgan. Tavsiya bibliografik qo‘llanmalar Tavsiya bibliografik qo‘llanmalar aniq kitobxonlar guruhiga mo‘ljallangan bo‘lib, tanlangan mavzu va sifat mezoniga ko‘ra ajratilgan hujjatlarni aks ettiradi. Tavsiya qo‘llanmalari turli xil kitobxonlarning ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Ularning maqsadi bir-biri bilan bog‘liq axborot berish, ma’naviy va tarbiyaviy bilim berishdan iborat. Davrning xususiyatiga ko‘ra ular dan biri birinchi o‘ringa chiqadi. Tavsiya ko‘rsatkichi o‘qishga rahbarlik qilish vositali sifatida qo‘llanilgan paytda birinchi o‘ringa tarbiyaviy vazifasi chiqqan edi. 1990- yillarda ularning axborot berish, bilim berish, ma’rifiy va tarbiyaviy vazifasi birlashib keldi, shuning uchun ular faqat keng kitobxonlar ommasiga 117 emas, talabalarga, maktab o‘quvchilariga ham

mo‘ljallana boshlangan. Tarbiyaviy ahamiyati shunda ko‘rinadiki, ular kitobxonada o‘qish madaniyatini tarbiyalash va takomillashtirishga ta’sir etadi, keng ma’noda olib qarasak, kitobxonning ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, badiiy va jismoniy, madaniy dunyoqarashini kengaytiradi. Axborot olami kengaygan va iste’molchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyoji o‘sigan hozirgi paytda uning axborot berish vazifasi birinchi o‘ringa chiqadi, bunga jamiyatning tobora axborotlashib borishi, ommaviy axborot vositalarining kengayib, ko‘proq o‘rin egallashi, iste’molchilar bo‘sh vaqtining qisqarib borishi ham ta’sir etadi. Keyingi yillardagi tavsiya ko‘rsatkichlari o‘zining sermazmunligi va yangilikka boyligi bilan ajralib turadi. Endilikda tuzuvchilar titul varag‘i orqasida emas, muqovada muallif o‘rnida berila boshlandi. Bu tuzuvchilar mas’uliyatini oshiradi. XX asrda uzoq yillar davomida tavsiya bibliografiyasining nazariyasi va metodikasi ishlab chiqildi, amaliyotga keng tatbiq etildi. Tavsiya bibliografik qo‘llanmalarda hujjatlarning bibliografik tavsifi bilan birga annotatsiya ham beriladi. Bibliografik yozuvlar monografik yoki analitik bo‘ladi. E’tibor hujjat mazmunini qisqa, lo‘nda va tushunarli uslubda yoritishga qaratiladi. Mazmuniga ko‘ra quyidagi turlarda tavsiya qo‘llanmalari tayyorlanadi va tarqatiladi: — ko‘ptarmoqli; — tarmoqli; — mavzuli; — shaxsga oid; — mamlakatshunoslik; — o‘lkashunoslik va h. k. Hozirgi kunda bu bibliografik qo‘llanmalarning mashinada o‘qiladigan shakllarini yaratish muammosi hal etilmoqda. Milliy kitob palatasi matbuot solnomasining elektron shaklini tayyorlab, bosma shakli bilan birgalikda tarqatmoqda.

Nazorat savollari.

1. Maxsus bibliografik qo‘llanmalarning xususiyatlarini aytib bering.
2. Ilmiy yordamchi qo‘llanmalar tizimining xarakterini tushuntiring.
3. Kundalik ilmiy yordamchi qo‘llanmalarning turlariga ta’rif bering.
4. Retrospektiv ilmiy yordamchi qo‘llanmalar va ularning turlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Ishlab chiqarishga oid bibliografik qo‘llanmalarni ta’riflang.
6. Tavsiya bibliografik qo‘llanmalarining qanday vazifalari mavjud?
7. Tavsiya bibliografik qo‘llanmalarning mazmuniga ko‘ra turlarini aytинг.

26-mavzu: Nashriyot va kitob savdosida bibliografik qo‘llanmalar.

Reja:

1. Bosma nashrlarni targ‘ib qilish, reklama qilish, sotish maqsadida tashkil etiladigan bibliografik qo‘llanmalar bilan tanishtirish.
2. Nashriyot va kitob savdosida bibliografik qo‘llanmalar.

Tayanch iboralar.

Bosma nashrlarni targ‘ib qilish, reklama qilish, sotish maqsadida tashkil etiladigan bibliografik qo‘llanmalar bilan tanishtirish. Nashriyot bibliografik qo‘llanmalari, kitob savdosida bibliografik qo‘llanmalari. Nashriyot bibliografik qo‘llanmalari — bir nashriyot tomonidan chiqarilgan yoki kelgusida chiqariladigan bosma nashrlarning ro‘yxatidan iborat bibliografik qo‘llanmalar.

Kitob savdosida bibliografik qo‘llanmalari — bosma mahsulotlarni tarqatishga ta’sir etish maqsadida tuzilgan qo‘llanmalar. Nashriyot va kitob savdosida bibliografik qo‘llanmalari nashriyotlar va kitob savdosida tashkilotlari tomonidan mavjud yoki kelgusida nashr etiladigan bosma mahsulotlar marketingini va savdosini tashkil etish maqsadida tuziladi. Bu bibliografik qo‘llanmalar qog‘oz va elektron shaklda tayyorlanadi. Nashriyot va kitob savdosida bibliografik qo‘llanmalari nashriyot, kitob do‘konlari, kutubxonalar, tashkilot va muassasalar, mamlakatimiz kitob sanoati bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallanadi. Bosma mahsulotlar haqida axborot berilayotganiga ko‘ra ular quyidagicha turlanadi: perspektiv, kundalik, retrospektiv, nashriyot va kitob savdosida bibliografik qo‘llanmalar. Ular bir-biridan vazifasi, mazmuni va

boshqa xususiyatlariga ko‘ra ajratiladi va, albatta, kirish so‘zi yoki so‘zboshi, asosiy qism va mundarija kabi majburiy elementlarga ega bo‘ladi. Ba‘zilarida qo‘shimcha elementlar — axborot manbalarining ro‘yxati, qisqartmalar ro‘yxati, yordamchi ko‘rsatkichlar beriladi. So‘zboshi asosiy qismning mazmuni bilan bog‘liq holda, ko‘rsatkichning maqsadi, vazifasi, undan foydalanish yo‘llari haqida tavsiya beradi. Asosiy qism nashrlarning bibliografik yozuvidan (ba‘zida qisqacha annotatsiyasi bilan) va o‘nli klassifikatsiya jadvali asosida shifr indeksidan iborat bo‘ladi. Yordamchi sarlavhalarga yoki muallifga oid ma’lumotlar beriladi. Bibliografik yozuvlar bo‘limlar, ichki bo‘limchalarda mavzular bo‘yicha 119 alifbo yoki boshqa tanlangan prinsip asosida joylashtiriladi. Bunday qo‘llanmalar kutubxonalar faoliyatida kutubxona fondini maqsadli to‘ldirishda, bibliografik axborotlarni tayyorlashda, talablarni bajarishda, kitobxonlarning axborot madaniyatini tarbiyalashda yordam beradi. Shu yo‘nalishdagi bibliografik qo‘llanmalar qo‘shni mamlakatlarda keng qo‘llanilmoqda. Masalan, kitob savdosi va nashriyotchilik ishini muvofiqlashtirish va takomillashtirish maqsadida Rossiyada „Mavjud va bosmaxonadagi kitoblar“ („Êíèäè à íàëè÷è è íå÷àTé“) milliy axborot tizimi yaratilgan. Ular: — Rossiyada kitob bozorining ahvoli haqida muntazam va tezkorlik bilan axborot berib borish; — noshir va kitob tarqatuvchilar orqali kitobga tushayotgan talab va ehtiyojni o‘rganish va qondirishni nazorat qilib borish; — ko‘p so‘ralayotgan kitoblarni nashr qilish texnologiyasini muntazam qo‘llash maqsadida savdo va noshirlar orasidagi o‘zaro munosabatni yo‘lga qo‘yib borish; — kutubxonalar, nashriyotlar, kitob savdosi, kitob tarqatuvchilarning belgilangan klassifikatsiya, tipologiya va formatlardan bir xilda foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish; — kitob savdosi tashkilotlari va kutubxonalarning yangi nashr etilayotgan adabiyotlar, kitob bozorining ahvoli haqida oldindan va o‘z vaqtida bibliografik axborot olishlari uchun bosmaxonada yuzaga chiqish oldida turgan nashrlar haqida, nashrdan chiqishi rejalashtirilayotgan adabiyotlar haqida axborot katalogida o‘z vaqtida va to‘la ma’lumot berib borish vazifalarini bajaradi. Yil davomida katalog tizimida Rossiyadagi va boshqa qo‘shni mamlakatlardagi (Ukraina, Belorussiya, Qozog‘iston va boshqa) 2000 dan ortiq nashriyot mahsulotlari haqida axborot berib turiladi. Ma’lumotlar nashriyotlardan shu yilning 31-dekabrigacha olinadi va, albatta, elektron disklarda, yagona nomdagagi avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazasi ko‘rinishida amalga oshiriladi va muntazam nashriyotlar va kitob savdosi tashkilotlari tomonidan yangilanib, to‘ldirib turiladi. Katalog bir yilda 2 marta bosma ko‘rinishda nashr etiladi, agar shoshilinch kerak bo‘lsa, bir yilda 6 marta elektron shaklda — disketlarda yoki elektron pochta orqali olishlari mumkin. Katalog bir necha bo‘limlardan iborat va har biriga yordamchi ma’lumot apparati berilgan. Mavjud bo‘lgan va bosmaxonadagi kitoblar bo‘limida savdoda mavjud 120 adabiyotlar, ularning bahosi, kitob tarqatuvchi tashkilot haqida ma’lumotlar, chiqarish uchun tayyorlanayotgan kitoblar haqida ma’lumotlar berilib, unga ismlar, nashr turlari, nashriyotlar ko‘rsatkichi ilova qilingan. Nashrga tayyorlanayotgan kitoblar bo‘limida qaysidir aniq bir yilda nashr qilish rejalashtirilayotgan kitoblar haqida ma’lumotlar beriladi, mualliflar, nashr tiplari, nashriyotlar ko‘rsatkichi ilova qilinadi. Nashriyotlar va kitob savdosi tashkilotlari bo‘limida alifbo tartibida ular haqida ma’lumotlar: manzili, telefon faks raqamlari, elektron pochta manzili berilgan. Bibliografik yozuvda muallifi, sarlavha, nashriyot, nashr yili, hajmi, muqovasi, adadi, kitob tarqatuvchi tashkilot, qisqa annotatsiya, kitobning xalqaro standart raqami beriladi. Mayjud va bosmaxonadagi xorijiy adabiyotlar bo‘limida aniq bir nashriyotning bosma, elektron hujjatlari haqida ma’lumot berilgan, mavzuli bo‘limlar ajratilgan, nashr turlari ko‘rsatilgan. Perspektiv bibliografik qo‘llanmalar Perspektiv bibliografik axborot beruvchi materiallarga quyidagilar kiritiladi: nashriyotlarning yillik annotatsiyalangan rejalar; axborot agentliklarining bosma kataloglari; yirik axborot markazlari va yirik kutubxonalarning nashr rejasi va prospektlari; prays varaqalar. Perspektiv bibliografik qo‘llanmalarda aks etadigan bibliografik yozuvdagi nashrdan chiqish vaqtি rim raqamida dumaloq qavsda berilgan, son xarakteristikasi sohasida nashrning hajmi bosmaxona hisobidagi bosma taboq, nashrning bichimi ham dumaloq qavs ichida rim raqamida berilgan. Badiiy-adabiy asardan boshqa barcha turdagи nashrlarga beriladigan annotatsiyada nashrning maqsadi; nashr turi, janri yoki materialni berish shakli; mavzuning qisqacha bayoni, mazmun xususiyati,

umumiylar yoki fikr; shu xildagi boshqa nashrlardan yoki shu muallifning boshqa asarlaridan farqi, yangiligi, dolzarbligi; kitobxonlar guruhi; asar muallifi haqida ma'lumot, tarjima asar bo'lsa, mamlakat nomi ko'rsatiladi. Qayta nashr etilgan asar bo'lsa, oldingi nashrining nashr yili, asar nomi (asar nomi o'zgargan bo'lsa) ko'rsatiladi. Agar 1- marta nashr etilayotgan yoki o'zgarishlar bilan qayta nashr etilayotgan darslik bo'lsa, unga ham annotatsiya beriladi. UDK bo'yicha shifr indeksi bibliografik yozuvning oxirida beriladi. Hozir 121 nashriyotlar kitob savdosi tashkilotlari, firmalar tayyorlayotgan prays-varaqalar keng tarqaldi. Ularda alifbo tartibida nashr nomlari, ularning muddati, bahosi ko'rsatiladi. Prays-varaqalar bir varaq qog'oz ko'rinishida, risola, kitob ko'rinishida ham tayyorlanadi. Keyingi yillarda perspektiv bibliografik qo'llanmalarda yangi adabiyotlar haqida axborot bilan birga kitob omborlarida saqlanayotgan oshiqcha nussxadagi adabiyotlar haqida retrospektiv bibliografik axborot ham berib boriladi. Kundalik bibliografik axborot Kitob bilan bog'liq bo'lgan kitobxonlar, kutubxonalar, tashkilot va muassasalarga ham bibliografik axborot berib boruvchi birinchi marta o'zbek tilida nashr etilayotgan „Kitob dunyosi“ gazetasi 2002- yil ta'sis etilgan bo'lib, respublikamiz nashriyotlarida nashrdan chiqqan yangi adabiyotlar haqida annotatsiya yoki referat bilan birgalikda kutubxonachilik ishi, zamonaviy axborot texnologiyalari, kitobatchilik ishi, nashriyotchilik ishi masalalariga oid suhbatlar, maqolalar, fikr va mulohazalar beriladi. Ammo ba'zida yangi adabiyotlar haqida berilayotgan ma'lumotlar asar sotuvdaligida yoki ancha vaqt o'tgandan so'ng beriladi. Gazeta sahifasida eng muhim, qimmatli adabiyotlar haqidagina ma'lumot berilmoqda, boshqa nashrdan chiqqan asarlar esa e'tibordan chetda qoladi. Shuni nazarda tutib, gazeta keyingi paytda annotatsiya yoki referat berilmayotgan adabiyotlarning bibliografik ma'-lumotlarini mavzuli tartibda berib bormoqda. Reklama axboroti muhim ahamiyatga ega. Bular kitob muqovalari, sahifalari, jurnal muqovalari, plakatlar, afisha va bukletlar ko'rinishida berib boriladi. Bu materiallar kitob do'konlari peshtaxtalarida, aholiga ko'rish va o'qish uchun qulay bo'lgan joylarda o'rnatiladi. Boltiqbo'y়i respublikalari, Rossiya axborot organlari yo'lovchi tashuvchi transport vositalaridan ham unumli foydalanadilar. Maxsus bibliobuslar kitob reklamasi ko'rinalishlari bilan bezatilgan bo'ladi. Mamlakatimizda boshqa turdag'i mahsulotlarning reklamasi kabi kitob, kutubxona, bosma va axborot mahsulotlari reklamasini ham keng yo'lga qo'yish lozim. Retrospektiv bibliografik axborot Retrospektiv bibliografik axborot ko'pgina vazifalarini bajaradi. Bular — kitob do'konlari, kitob omborlari, nashriyot bazalarida 122 mavjud adabiyotlar, ayrim olingen nashriyot mahsulotlari, biror ruknda chiqqan nashrlar haqida axborot berish. Ayrimlari faqat xizmatda foydalanish uchun mo'ljallanadi. Masalan, bukinist katalogi-preyskuranti, ulgurji kitob do'konlarda mavjud adabiyotlarning katalogi va boshqalar, masalan, „İpääëäàäþT iäëàñTíüâ éíèäñTípäè ÓçääëèñTäià“, „Nièññé èíTåpåñíûð ääTñèëö èíèä, èìåþùèöñý â iàäàçèíàö TåøâäçéíèäñTípäà“. Kutubxonalarda ma'lumot-bibliografiya xizmati ko'rsatishda kitobxonlar talabini qondirish uchun vaqtli matbuot nashrlari sahifalarida berilayotgan maqolalar ro'yxati hamda ilgari nashr etilgan adabiyotlarning mavzuli to'plamlari yoki ro'yotaning elektron shaklini tayyorlash va foydalanish mumkin. Kitob palatasi tomonidan tuzilayotgan „Gazeta maqolalari solnomasi“ va „Jurnal maqolalari solnomasi“ ning elektron disklarini olib, muomalaga kiritish ham katta ahamiyatga ega. Ayrim tajribali kutubxonalar ruknli nashrlarning katalogini tayyorlaganlar. Masalan, „ÁèäëèñTåêà âñâièpíé èëTåpàTópû“ (Rossiya kutubxonalarida), „Æèçíü çàìå÷àTäëüíûð ñþääé“ (Ajoyib kishilar hayotidan), „Ýápèëà“ kabi ruknlardagi adabiyotlarning elektron kartotekasi.

Nazorat savollari.

1. Kitob savdosi va nashriyotchilik bibliografik qo'llanmalarining maqsadi va vazifalarini aytинг. 2. Perspektiv bibliografik qo'llanmalarda beriladigan annotatsiyalarning vazifasi nimadan iborat?
3. Kundalik bibliografik axborot nima?
4. Retrospektiv bibliografik axborot haqida gapirib bering.

27-mavzu: O'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalar.

Reja:

1. O'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalar.
2. O'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalar tizimi haqida umumiy tushuncha

Tayanch iboralar

O'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalar. O'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalar tizimi haqida umumiy tushuncha.

O'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalar tizimi haqida umumiy tushuncha O'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalar — mamlakatning bir hududiga oid adabiyotlarni aks ettiruvchi ko'rsatkichlardir. Hozirgi paytda o'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalar tizimining nazariyasi, metodologiyasi ishlab chiqilgan. Bu sohada pedagogika fanlari nomzodi H. Mamatraimova maxsus ilmiy-tadqiqot ishi olib borgan. Bu qo'llanmalar kitobxonlarning u yoki bu o'lkaga oid ilmiy, o'quv, ishlab-chiqarishga oid, ilmiy-ommabop axborotga bo'lgan talablarini qondirishga mo'ljallangan. Qo'llanmalarning kitobxonlari ilmiy xodimlar, talabalar, professoro'qituvchilar, maktab o'qituvchilar, o'quvchilar, rahbar xodimlar, madaniyat va san'at xodimlari, tashkilot va muassasalarning rahbarlari va boshqalar bo'lib, ularning o'z sohalarida yutuqlarga erishishlari uchun, bilim malakalarini oshirib borishlari, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishlari uchun yordam beradi. Maqsadi — kitobxonlarni o'lkaga, Vataniga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, tarixiy-o'lkashunoslik bilimlarini takomillashtirib borish. O'lkashunoslik o'tmishdan kelajakka yo'l ochib beradi. O'lkashunoslik kutubxona-bibliografik manbalarining bosh bo'g'ini va kitobxonlarning hujjat va axborotlarga bo'lgan talablarini qondirishning asosi — o'lkashunoslik fondidir. Unda kitob, risola, boshqa turdag'i matbuot asarlari, hatto qo'lyozma manbalar ham to'planadi. Bu hujjatlar mahalliy hokimiyat organlarining ish faoliyatini yoritadi, o'lkada hayotning u yoki bu tomonini yaxshilashga, rivojlantirishga yordam beradi, bundan tashqari, o'z kutubxonasiiga ega bo'lмаган kichik va o'rta biznes korxonalari, ishlab chiqarish idora-tashkilotlari uchun zarur axborot manbayi ham hisoblanadi. O'lkashunoslik fondi muntazam va retrospektiv tarzda to'ldirib boriladi. Kundalik to'ldirishda kutubxona fondiga kelib tushayotgan adabiyotlar va hujjatlar orasidan o'lkaga oid adabiyotlar ajratib olinadi. Retrospektiv to'ldirishda turli manbalardan foydalanish mumkin. O'lkashunoslik bibliografik manbalarning keyingi tarkibiy qismi MBA o'lkashunoslik fondi tarkibi va mazmuni yoritib boriladi, iste'molchilarga o'lkashunoslik kutubxona-bibliografiya xizmati ko'rsatiladi, tashkilot va muassasalar o'inka haqidagi bibliografik axborot bilan ta'minlanadi. MBA o'lkashunoslik katalog va kartotekalaridan, ma'lumotnomalar nashrlaridan, o'lkaga bag'ishlangan turli bibliografik ko'rsatkichlardan, bajarilgan ma'- 124 lumotnomalar fondidan iborat bo'ladi. Uning eng asosiysi o'lkashunoslik kartotekasidir. Unda o'lkaga oid barcha hujjatlar to'planadi: kitoblar, risolalar, ularning bo'limlari, boblari, qismlari, maqolalar, fotoalbomlar, xaritalar, kino-fotohujjatlar, tasviriy san'at asarlari, musiqa-nota asarlari, elektron veb sahifalar, internet materiallari, multimedialar, kompakt disklar va boshqalar. Ma'lumotnomalar nashrlari fondi ensiklopediyalar, spravochniklar, lug'atlar, fotoalbomlar, yo'l ko'rsatkichlari, xaritalar va boshqalardan tashkil topadi. O'zbekistonda viloyat, shahar, tumanlarga oid „Toshkent“ ensiklopediyasidan boshqa birorta ensiklopediya yo'q. Spravochniklar ko'proq nashr etilgan. XX asrning 70 — 80- yillarida respublikamizning deyarli barcha viloyatlari, shaharlariga oid ma'lumotnomalar nashrlar chop etilgan. Masalan: Andijon, Samarqand, Namangan, Buxoro, Bekobod, Angren, Chirchiq va hokazo. Yo'l ko'rsatkichlaridan „Ióçæ TàøéåíTà“, „Óèöü TàøéåíTà“, „Toshkent teatrлari“, „Samarqand“, „Toshkent darvozalari“ va boshqalar, fotoalbomlardan „Qashqadaryo“, „Surxondaryo“, „Termiz“, „Xiva“, „Buxoro — ochiq osmon ostidagi muzey“, „Xiva — ming gumbaz shahri“ va boshqalar, xaritalar, to'plamlar, telefon-spravochniklar, manzillarni ko'rsatuvchi kitoblar va boshqalar o'lkashunoslik fondini tashkil etadi. O'lkashunoslik qo'llanmalari mazmuni, ahamiyati, o'inka haqidagi adabiyotlarning nashr joyi belgilariiga ko'ra shakllanadi. O'lkaga oid bibliografik qo'llanmalar tuzilmasi o'inka haqidagi adabiyotlarni aks ettiruvchi qo'llanmalar va mahalliy matbuot ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

1983- yil Toshkentning 2000 yilligi munosabati bilan „Toshkent“, „Toshkent — o‘tmishda, bugun va kelajakda“ (o‘zbek va rus tillarida), 1970- yil rus tilida nashr etilgan „ÈñTipèÿ Ñàìàpêàíäà è Ñàìàpêàíäñéié ïáëàñTè“, 1974- yilda „×Tî ÷èTàTü i Õèââ“, 1969- yilda „×Tî ÷èTàTü i Ñàìàpêàíä“ ko‘rsatkichlarini misol keltirish mumkin. O‘lkaga oid adabiyotlarning bibliografik qo‘llanmalari: 1. Ilmiy-yordamchi qo‘llanmalar: o‘lkaga oid adabiyotlarning universal mazmundagi kundalik ko‘rsatkichlari; universal mazmundagi retrospektiv ko‘rsatkichlar va o‘lkaga oid adabiyotlarning yig‘ma bosma katalogi; tarmoq va mavzuli ko‘rsatkichlar; biobibliografik ko‘rsatkichlar (lug‘atlar), o‘lkashunoslik bibliografik qo‘llanmalarning ko‘rsatkichlari. 125 2. Tavsiya qo‘llanmalar: mahalliy muhim va unutilmas voqealar taqvimi; o‘lka haqidagi universal va kompleks ko‘rsatkichlar; kutubxonaning o‘lkaga oid jamg‘armasi yadrosi, o‘lkaning turli sohalariga va bir tomoniga bag‘ishlangan tarmoq va mavzuli ko‘rsatkichlar; o‘lkaning mashhur kishilari haqidagi ko‘rsatkichlar. 3. Mahalliy matbuot ko‘rsatkichlari: vaqtli va davomli nashrlarning ko‘rsatkichlari; kitob va nodavriy nashrlarning ko‘rsatkichlari. Ilmiy yordamchi o‘lkashunoslik bibliografik qo‘llanmalar O‘lkaga oid adabiyotlarning universal kundalik ko‘rsatkichlari aniq, to‘la tuzilishga egaligi bilan ajralib turadi. Bibliografik yozuvlarda amaldagi tavsif qoidalariga rioya qilinishi shart, qisqa, ammo to‘la mazmunli annotatsiyalar beriladi, ma’lumot-bibliografiya apparatlaridan so‘zboshi, mundarija, yordamchi ko‘rsatkichlardan ismlar, geografik nomlar, kalitli so‘zlar, predmet rubrikalari asosida predmet va bibliografik qo‘llanmaning xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa ko‘rsatkichlardan foydalanish zarur. Bu qo‘llanmalar haftalik, choraklik, doimiy bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonning respublika haqidagi ilmiy yordamchi bibliografiyalari 1945- yildan keyin rivojlandi. Umumiyligi va tarmoqqa oid kundalik, universal, tarmoqli, mavzuli, shaxsga oid, kitob ichi va maqola ichi bibliografiyalari nashr etila boshlandi. Navoiy nomidagi Respublika davlat kutubxonasi 1958- yildan rus tilida „ÓçáåéèñTáí“ nomi bilan yilnomasi nashr etadi. 1961- yildan esa bir vaqting o‘zida o‘zbek tilida ham chiqa boshladi. Unda respublika haqidagi Vatanimizda va boshqa mamlakatlarda chiqayotgan barcha turdagisi hujjatlar sobiq Butunittofqitob palatasi jadvali asosida tartibga solindi, alohida bo‘limlar va bo‘limchalar respublikanining tabiiy sharoiti, ijtimoiy, tarixiy, iqtisodiy hayoti hisobga olingan. Unda ma’lumot apparati berilgan, 1968- yildan Kitob palatasi solnomalarida respublika haqidagi hujjatlar berilayotganligi sababli ko‘rsatkichning chiqishi to‘xtatildi. 1953- yildan respublika ilmiy qishloq xo‘jalik kutubxonasi „Sug‘oriladigan yerlarda paxtachilik“ nomi bilan kundalik ilmiy-yordamchi tarmoq ko‘rsatkichini chiqaradi. U bir yilda 2 marta chiqarildi va har yili 2500 — 3000 adabiyot haqida ma’lumot berib bordi. 126 Ko‘rsatkichga ilmiy kitoblar, jurnallar va to‘plamlardagi maqolalar, ilmiy ishlari haqidagi xabarlar kiritilgan. Unda paxtachilik va unga bog‘liq hidrologiya, meteorologiya, iqlim, injenerlik geologiyasi, tuproqshunoslikka oid adabiyotlar ham kiritildi. Universal retrospektiv ko‘rsatkichlar va o‘lkaga oid kitoblarning yig‘ma bosma katalogi Bu ko‘rsatkichlar, o‘lka haqidagi katta bir davrga oid adabiyotlarni aks ettiradi. Tarmoq va mavzuli ilmiy-yordamchi qo‘llanmalarni tuzishda quyidagi xususiyatlarga e’tibor beriladi: tanlanayotgan adabiyotlarning o‘lkaning shu kundagi rivojida ahamiyatga ega ekanligi; kitobxon uchun ma’lum bo‘lmagan hujjatlarni kiritish; uslubiy qarorlarni qabul qilishda izchillikka erishish. B. V. Lunin tuzgan va „O‘zFA xabarları“ jurnalida nashr etib kelingan „O‘zbekistonning arxeologiyasi, tarixi, etnografiyası, falsafası va huquqiga oid adabiyotlar“ ko‘rsatkichi, „O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar“ jurnalida 11 ming nomda hujjatlar, ayniqsa, kartinalar haqida berilgan ma’lumotlar. Tavsiya ko‘rsatkichlari Tavsiya ko‘rsatkichlari universal mazmundagi va kompleks xarakterdagi ko‘rsatkichlardan tashkil topadi. Universal mazmundagi tavsiya ko‘rsatkichlari mahalliy muhim va unutilmas sanalar taqvimi ko‘rinishida bo‘ladi. Buni respublika miqyosida Respublika Milliy kutubxonasi, viloyatlarda viloyatlarning ilmiyuniversal kutubxonalari tayyorlaydi: o‘lkaga oid adabiyotlarning universal va kompleks xarakterdagi ko‘rsatkichlari; mavzuli bibliografik qo‘llanmalar, ko‘rsatkchilar, adabiyotlarning ro‘yxatlari (masalan, „O‘lka haqida nima o‘qish kerak?“ tipidagi). Muhim va unutilmas voqealar taqvimi Navoiy nomidagi Respublika davlat kutubxonasi tomonidan 1957- yildan nashr etiladi. Unda avval kitobxonga ma’lum bo‘lmagan voqealar, yirik yubileyalar, sanalar, bayramlarning yilliklariga oid adabiyotlar ma’lum

tartibda joylashtiriladi. Avval voqeа yoki sana ko'rsatiladi, unga oid adabiyotlarning bibliografik ma'lumotlari keltiriladi, shaxslarga oid sanalarda ular haqida qisqa ma'lumot beriladi. Bunday taqvimlarni tuzishda bibliograflarga o'lkashunos, tarixchi olimlar, mahalliy muzey va arxiv xodimlari yordam beradilar. Bu taqvimlarning kitobxonlari — o'lkanning kechagi kuni, buguni va kelajagi 127 bilan qiziquvchi kitobxonlar, kutubxona xodimlari va iste'- molchilarga turli xil yo'nalishda axborot berish vazifasini bajaruvchilar. Taqvimlar kutubxonalarda yillik ish rejalarini tuzishda, tadbirlar rejasini belgilashda yordam beradi. Unga kirish so'zi, so'zboshi, mundarija, ismlar, geografik, matnlarning mualliflari haqida ma'lumotlar, chiqish sonlariga oid yig'ma ko'rsatkichlar beriladi. „O'lka haqida nimalarni o'qish kerak?“ tipidagi ko'rsatkichlarni viloyat, tuman, shahar miqyosida ham tayyorlash mumkin. Ular shu yo'nalishga oid kutubxonada mavjud adabiyotlar ko'لامи haqida xulosa qilishga olib keladi va kutubxonachilik-bibliografik xizmat ko'rsatish uchun asos bo'ladi, iste'molchilar uchun o'lkashunoslik xarakteridagi yakka va ommaviy ishlarni o'tkazishga imkon yaratadi, kishilarda Vatanga, o'z o'lkasiga mehr-muhabbat, e'tibor hissini tarbiyalaydi, o'lka haqida bilimga ega bo'lishga yordam beradi, uning tarixini, madaniyati va san'atini, o'ziga xos qadriyatlarini asrab-avaylashga chaqiradi. Unda kitoblar, maqolalar, kompakt disklar, elektron sahifalar, internet materiallari ham aks etishi mumkin. Hujjatlar mazmuni, ilmiy qimmati, xarakteriga ko'ra tartibga solinadi. Mahalliy arboblar haqidagi bibliografik ko'rsatkich, qo'llanma, lug'at O'lkanning mashhur kishilari haqidagi bibliografik qo'llanmalar shaxs hayoti va ijodini o'rganish uchun muhim manbadir. Bunday qo'llanmalarni respublikadagi yirik institutlar, FA Asosiy kutubxonasi, O'zbekiston Milliy kutubxonasi hamda boshqa yirik kutubxonalar, viloyat kutubxonalari tayyorlaydi. Ular, asosan, 2 bo'limdan iborat: muallifning asarlari va u haqdagi asarlar. Bir-biridan unchalik farq qilmagan holda asarlarining nashrlari bo'limi alohida va vaqtli matbuot hamda to'plamlarda nashr etilgan asarlaridan iborat bo'ladi. Bo'limlar ichida yana mavzusiga, asarlarining janriga, yo'nalishiga ko'ra mayda bo'limchalar tashkil etiladi. Bibliografik yozuvlar alifbo yoki xronologik tartibda joylashtiriladi. Boshqa tillardagi asarlari tillar bo'yicha alohida joylashtiriladi. U haqdagi asarlar bo'limidagi materiallar ham avval alohida keyin maqolalari joylashtiriladi. Agar muallif olim bo'lsa, uning rahbarligida himoya qilingan nomzodlik va doktorlik hamda opponentlik ishlarning ro'yxati, tarjima ishlari, muharrirlik va taqriz yozgan ishlari 128 ro'yxati, hamkorlikdagi faoliyatiga oid ishlari ro'yxati beriladi. Yordamchi ismlar, alifbo, geografik nomlar ko'rsatkichi, so'zboshi yoki kirish so'zi, tuzuvchidan, so'nggi so'z, eslatmalar, izohlar, hayoti va ijodining asosiy sanalari beriladi. 1990- yili Navoiy nomidagi Respublika davlat kutubxonasi „Hamza Hakimzoda Niyoziy“ nomli adabiyotlar ko'rsatkichini nashr etdi. Tuzuvchilar A. Turopova, S. Shermuhamedova, M. Ismoilovalar tayyorlagan ushu qo'llanma keng qamrovli bo'lib, asosan, 2 ta bo'limdan va bo'limlar ichida juda ko'p bo'limchalardan iborat. Alohida nashrlari tiplar bo'yicha ajratilgan, vaqtli matbuot va to'plamlardagi nashrlari janrlari bo'yicha guruholashtirilgan, boshqa tillardagi nashrlari ichki alifbo tartibida joylashtirilgan. Hamza haqidagi adabiyotlar bo'limida ham shunday tartib qo'llanilgan. Maqolalar esa Hamza ijodi qirralari bo'yicha mavzularga ajratilib berilgan. Masalan, „Hamzaning falsafiy qarashlari“, „Publitsist-ma'rifatchi“, „Pedagogik estetik qarashlari“ kabi. Shu bo'lim ichida „Hamza ijodi haqida tanqidiy materiallar“ bo'limchasi ham mavjud. Bunda materiallar Hamza ijodining janrlari bo'yicha ajratilgan, masalan, „Hamza prozasi haqida“, „Hamza dramaturgiysi haqida“, „Hamza va folklor“ kabi. „Hamza ijodi haqidagi asarlar boshqa xalqlar tillarida“ nomli bo'limda hujjatlar tillar bo'yicha alohida joylashtirilgan. Hamza nomi bilan atalgan joylar, muzeylar, Hamza nomidagi mukofotlarni berish, Hamza asarlarini maktabda o'rganish, Hamza haqidagi ko'rsatkich va adabiyotlar ro'yxati ham berilgan. Ko'rsatkichga ismlar ko'rsatkichi, tuzuvchidan, mundarija kabi yordamchi ma'lumotlar berilgan. O'zFA tarix instituti 1999- yil „Sharq“ nashriyotida A. Sharafiddinov, Z. Fayziyeva, N. Kraves tuzuvchiligidagi „Professor H. Ziyoyevning ilmiy va pedagogik faoliyati“ nomli qo'llanmani nashr etdi. Qo'llanmadagi hujjatlar o'zbek va rus tillarida alohida joylashtirilgan. Olimning ijodiy faoliyati haqidagi material olim ijodining qirralari bo'yicha alohida ta'riflangan. Masalan, „O'rta asrlar davri tarixi“ bo'limida olimning

shu sohadagi ishlariga ta’rif beriladi. „XVI — XIX asrlarda Turkiston va Rossiya aloqalari tarixi“ nomli bo‘limda ham aynan shu masalaga oid ijodiga baho beriladi. Shu tarzda olimning shu kungacha davom etgan ijodi keyingi bo‘limlarda ochib berilgan. „Sobiq Sho‘rolar davrida nashr etilgan kitob, risola va maqolalar (1952 — 1991- yillar boshlari)“ bo‘limida asarlarining nashrlari to‘g‘ri xronologik tartibda 129 joylashtirilgan. „Mustaqillik va ozodlik yillarda nashr etilgan kitob, risola va maqolalar (1991 — 1999- yy.)“ bo‘limidagi asarlari ham to‘g‘ri xronologik tartibda berilgan. Keyin olimning muharrirlik faoliyati, hay’at a’zoligi sifatidagi ishlarining ro‘yxati, uning rahbarligida himoya qilingan nomzodlik va doktorlik ishlarining ro‘yxati berilgan. H. Ziyoyev haqida ma’lumotlar bo‘limlarda ham hujjatlar shu bo‘limlarga mos guruhlashdirilgan. Undan keyin olimlarning asarlari nashr etilgan jurnallar va gazetalar ro‘yxati berilgan. Qo‘llanma olim hayoti va ijodi haqida fotosuratlar bilan ta’minlangan. Qo‘llanmaning 2- qismi rus tilida bo‘lib, o‘zbek tilidagi qismi kabi adabiyotlar guruhlashdirilgan. Respublikamizda yozuvchi va shoirlar ijodiga oid biobibliografiyalar juda ko‘p tayyorlangan va nashr etilgan. Ulardan Alisher Navoiy, Oybek, G‘. G‘ulom, A. Qahhor, Zulfiya, A. P. Qayumov, H. H. Niyoziy kabilarni misol keltirish mumkin. 1989- yili Madaniyat institutidan Z. Sh. Berdiyeva tuzuvchiligidagi „Abdulla Qahhor“ biobibliografik ko‘rsatkichi nashr etildi. Bu asar tuzilishi yuqorida keltirilgan „Hamza“ ko‘rsatkichiga o‘xshab ketadi. Aslida shaxslarga oid ko‘rsatkichlarning tuzilishi deyarli bir xil, ammo muallif ijodining xususiyatlariga ko‘ra ayrim bo‘limlar va bo‘limchalarining berilishida farq bo‘ladi. Qo‘llanmadagi A. Qahhorning yubileyлari, tarjima asarlari, uning xotirasiga bag‘ishlangan asarlar kabi bo‘limlar „Hamza“ ko‘rsatkichida yo‘q. Qo‘llanmaga ismlar ko‘rsatkichi, asarlarining alifbo ko‘rsatkichi, boshqa tillarda nashr qilingan asarlarining alifbo ko‘rsatkichi, foydalangan adabiyotlar ro‘yxati ilova qilingan. Shunga o‘xhash biobibliografik ko‘rsatkich Z. Berdiyeva va H. Mamatraimova tuzuvchiligidagi Oybek tavalludining 100 yilligi munosabati bilan „Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek“ nomli biobibliografik ko‘rsatkich nashr etildi. Ko‘rsatkichning hajmi katta, unda jami 1522 ta nomdagagi bibliografik yozuv mavjud. Boshqa biobibliografik ko‘rsatkichlarning tuzilishiga o‘xhashi bilan birga, farqli ravishda „Oybek — navoiyshunos“, „Oybek ijodiga oid dissertatsiyalar“, „Oybekni mukofotlash to‘g‘risida“ nomli bo‘limchalar mavjud. Xullas, biobibliografik ko‘rsatkichlar iste‘molchini juda katta axborot olamiga olib kiradi. Avvalo, bir shaxsga oid barcha turdagи hujjatlarni bir joyga to‘playdi, uni qidirish, topish, to‘plash va tahlil qilish ishini osonlashtiradi, kitobxon muallif haqida istaganidan ko‘ra ko‘proq ma’lumot oladi. 130 O‘zbekistonning turkum ko‘rsatkichlari 1950- yillar oxirlariga kelib, O‘zbekistonda yirik kutubxonalar faoliyatini koordinatsiya qilib borish maqsadida koordinatsiya kengashi tuziladi. Bu vazifa Alisher Navoiy nomli Respublika davlat kutubxonasi (hozirgi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi) zimmasiga tushadi. Kengashning 1964- yilgi yig‘ilishida „O‘zbekiston kutubxonalarining ilmiy-axborot-bibliografiya, ma’lumotnomabibliografiya“ ishini koordinatsiyalash bo‘yicha namunaviy Nizom“ qabul qilinadi. Unga ko‘ra har bir yirik kutubxonaga ma’lum fan sohasiga oid bibliografik qo‘llanma tuzish vazifasi beriladi. Navoiy nomidagi Respublika davlat kutubxonasi xalq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi (paxtachilikdan tashqari), sanoat, O‘zbekiston tarixi, madaniyatiga oid; O‘zFAning Asosiy kutubxonasi va Toshkent davlat universiteti ilmiy kutubxonasi O‘zbekistonning tabiatni va tabiiy boyliklariga oid adabiyotlar bibliografiyasini; Respublika ilmiy meditsina kutubxonasi O‘rta Osiyo, shuningdek, O‘zbekiston tabobati va sog‘liqni saqlash masalalariga oid adabiyotlar bibliografiyasini tuzish topshirildi. Boshqa kutubxonalarga ham o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha vazifalar belgilandi. „Turkum“ so‘zi lotincha qator degan ma’noni anglatadi. Mazmunan, mavzusiga ko‘ra, maqsadi va kitobxonlik guruhiga ko‘ra bir-biriga yaqin yoki bir tizimni tashkil etadigan, bir xil yo‘nalishda bezatiladigan, umumiy nomda rasmiylashtiriladigan nashrlar ana shunday qatorni tashkil etadi. Bibliografik turkum bir xil maqsad va kitobxonlik doirasiga ega bo‘lgan, bir xil yo‘nalishda rasmiylashtiriladigan bibliografik qo‘llannalar to‘plamidir. Bibliografik turkumlar biror mavzuning turli masalalariga oid alohida nashr etilishi ham mumkin. Bunday qo‘llanmalarni sobiq Ittifoq kutubxonalari tajribasida, ayniqsa, Moskva, Leningrad (Sankt-Peterburg) kutubxonalari faoliyatida ko‘rish mumkin. 1966- yildan O‘zFA

Asosiy kutubxonasi „O‘zbekistonning tabiatи va tabiiy resurslari“ nomli turkumda bibliografik ko‘rsatkichlar tayyorladi va nashr eta boshladi. Turkumning birinchi nashri A. Devyatkina tuzuvchiligidagi nashr etilgan „O‘zbekiston geografiyasi“ ko‘rsatkichidir. U retrospektiv xarakterga ega bo‘lib, mutaxassislarga ma’lumot berish maqsadida tuzilgan hamda 1917 — 1960- yillarda O‘zbekistonda geografiyaga, uning tarixiga, tabiiy sharoitiga oid ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar jamlangan. Unga nafaqat O‘zbekiston, balki sobiq Ittifoq hududida nashr etilgan 131 kitoblar, gazeta-jurnal, to‘plamlar maqolalari ham kiritilgan. Materiallar 5 ta yirik bo‘limda joylashtirilgan: O‘zbekistonda geografik tadqiqot tarixi; fizik geografiya, gromorfologiya; gidrologiya; meteorologiya, iqlim, tuproq qatlami. Har bir bo‘limda adabiyotlar alifbo tartibida joylashgan, ularning ayrimlariga annotatsiya berilgan. Unda 2000 dan ortiq adabiyotning bibliografik yozuvi berilgan, ammo ikkinchi marta boshqa bo‘limda qaytarilgan yozuvga tartib raqami berilmagan. Ko‘rsatkich yordamchi apparatlardan ismlar, geografik nomlar ko‘rsatkichi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan ta’minlangan. „O‘zbekistonning o‘simplik va hayvonot dunyosi“ ko‘rsatkichini ham A. V. Devyatkina tuzgan. Unda 1917 — 1952- yillarda nashr etilgan biologiya, qishloq xo‘jaligi, geografiya, geologiya, ximianing murakkab masalalariga oid rus tilidagi ilmiy ma’ruzalar, axborotlar, bulletenlar, vaqtli nashrlar, to‘plamlar, kitoblar asosida adabiyotlar to‘plangan. Deyarli hamma manbalar ko‘rsatkichning to‘liq bo‘lishini nazarda tutgan holda birma-bir ko‘rib chiqilgan. Adabiyotlar 6 ta — flora va o‘simplikshunoslik, hidrobiologiya, mikrobiologiya, parazitologiya, hayvonot dunyosi, tabiatni qo‘riqlash kabi bo‘limlarda guruhlashtirilgan. Paxtachilikka oid adabiyotlar juda katta miqdorda bo‘lganligi sababli ko‘rsatkichga kiritilmagan. Ko‘rsatkich ichki murakkab tuzilishga ega va mutaxassislarga mo‘ljallangan. Ko‘rsatkichning xronologik davomi sifatida „O‘zbekistonning suv havzalari hidrobiologiyasi“ ko‘rsatkichi nashr etildi. Unda 1953 — 1962- yillarda botanikaning umumiyligi masalalari, zoologiya, parazitologiya, hidroximiyaga oid, 20 yil ichida suv xo‘jaligiga oid, Orol dengizidan tortib, O‘zbekiston hududida mavjud ko‘llar, hovuzlar, buloqlar, daryolarga oid nashrdan chiqqan adabiyotlar kiritilgan. Ko‘rsatkich mavzusiga ko‘ra avvalgi ko‘rsatkichdan farq qiladi va ichki murakkab tuzilishga ega. Adabiyotlar alifbo tartibida quyidagi bo‘limlarda joylashgan: O‘zbekistonda hidrobiologiya sohasidagi izlanishlar; hidrobiologiyalar personaliyasi ti pidagi suv havzalari hidrobiologiyasi; suv muhitlari sharoiti ekologiyasi va boshqalar. Materiallarning asosiy qismi annotatsiya bilan ta’minlangan, ismlar va geografik nomlar ko‘rsatkichi ilova qilingan. 1966- yilda nashr etilgan va yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichning xronologik davomi sifatida o‘simplik va hayvonot dunyosi uchun alohida-alohida ko‘rsatkichlar ham nashr etilgan. Ular 132 A. V. Devyatkina tuzgan va 1986- yil nashrdan chiqqan „O‘zbekistonning hayvonot dunyosi“ 1953 — 1968- yillardagi adabiyotlarni o‘z ichiga oladi. Unga O‘rtta Osiyo bo‘yicha bajarilgan ishlari, O‘rtta Osiyo uchun xarakterli bo‘lgan umumiyligi mazmundagi muammoli materiallar kiritilgan. 1953- yildan O‘zbekiston hududiga qo‘shilgan Qozog‘istonning Bo‘stonliq tumaniga oid materiallar ham kiritilgan. Ko‘rsatkichda jami 3069 ta adabiyot haqidagi bibliografik yozuv berilgan bo‘lib, sobiq Ittifoq hududida nashrdan chiqqanlari ham quyidagi bo‘limlarda joy olgan: parazitologiya, umurtqasizlar va ularning zoologiyasi, umurtqalilar va ularning zoologiyasi, zoologlar, paleozoologiya, bibliografiya. 4 va 5- bo‘limlardan tashqari bo‘limlardagi materiallar murakkab ichki tuzilishga ega. Materiallar zoologiya fanining oldindan qabul qilingan tizimli kategoriysi bo‘yicha joylashtirilgan. Masalan, bo‘lim, sinfi, guruhi, oilasi, turi. Adabiyotlarning asosiy qismiga annotatsiya berilgan, ular turli geografik hududlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar haqida ma’lumot beradi. Unda hayvonlarning nomi lotin yozuvida keltirilgan, sarlavhalar rus tilida berilgan. Yordamchi apparatlardan ismlar, geografik nomlar ko‘rsatkichi, hayvonlarning lotincha nomlari ko‘rsatkichi, vaqtli va davomli nashrlarning alifbo ko‘rsatkichi, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ilova qilingan. „O‘zbekiston florasi va o‘simplikshunosligi“ 1992- yilda nashr etilgan va dastlabki ko‘rsatkichning xronologik davomi hisoblanadi. Unda 1953 — 1984- yillarda nashr qilingan adabiyotlar aks ettirilgan. O‘zbekistonning tabiatи va tabiiy resurslari“ turkumidan ko‘p jildlik „O‘rtta Osiyo geologiyasi“ FA Asosiy kutubxonasi va ToshDU ilmiy kutubxonasi tayyorlangan va nashr etgan. Ko‘rsatkichda 1917 — 1960- yillarda nashr etilgan

adabiyotlar jamlangan. 1- jildida O'rta Osiyoning geologik qidirish ishlari tarixiga oid umumiy ishlar, umumiy geologik sharhlar haqida adabiyotlar berilgan va 3 ta yirik bo'limda joylashtirilgan: O'rta Osiyon geologik o'rganish tarixi; umumiy geologik sharhlar; geologik xaritalar. Shaxslar haqidagi bo'limda o'rganilayotgan hududga taalluqli geologlararo ishlar haqida materiallar joylashtirilgan. Umumiy geologik sharhlar qismida materiallar respublikalar bo'yicha alohida guruylashtirilgan. Qo'llanmaga ismlar va geografik nomlar ko'rsatkichi ilova qilingan. 2- jildiga geologiya, geoximiya, mineralogiya, petrografiya masalalariga oid adabiyotlar kiritilgan. „Yer haqidagi fanlar“ 133 bo'limida ilmiy kutubxonalarga tuzilgan KBK jadvali bo'yicha tartibga solingen. Ba'zan ular yanada mayda ruknlarda berilgan. Masalan, „Geoximiya“ bo'limida bioximiya, petroximiya, kon, qazilmalar geoximiyasi, cho'kindilar va metomorfiklar, qidirishning va razvedkaning geoximik usullari, neft, ko'mir va suvlarning geoximiyasi kabi bo'limchalar ochilgan. Cho'kindilar va jinslar genetik prinsipga oid tartibga solingen. Ruknlar orasida materiallar alifbo tartibida berilgan va annotatsiyalanmagan, ba'zida tumanning geografik joylashishini aniqlash maqsadida qisqa tushuntirish berilgan. Qo'llanmada 3000 ga yaqin adabiyot jamlangan. Ismlar va geografik nomlar ko'rsatkichi ilova qilingan. Ko'rsatkichning 3- jildi geologiyaning tektonika, gemorfologiya masalalariga oid 4000 dan ortiq materialni o'z ichiga oladi. Ba'zi adabiyotlarga annotatsiya berilgan, ayrimlarida tadqiqot predmeti va geografik hududlar haqida qisqa ma'lumot berilgan. Geomorfologiya bo'limida adabiyotlar KBK jadvali asosida joylashtirilgan. Bunda ham ismlar va geografik nomlar ko'rsatkichi berilgan. 4- jildida yer qatlaming geologik tarixi, stratigrafiya, paleografiya masalalariga oid ilmiy asarlar, maqolalar berilgan. Bilim sohasining bo'limchalar bo'yicha adabiyotlar guruylashtirilgan va alifbo tartibida joylashtirilgan, annotatsiya berilmagan, ayrim hollarda qisqa tushuntirishlar berib ketilgan. 5- jildida foydali qazilmalarga oid 5000 dan ko'p adabiyot to'plangan. Bunda adabiyotlar yuqoridagi tartib bo'yicha joylashtirilgan va ismlar hamda geografik nomlar ko'rsatkichi bilan ta'minlangan. 6- jildiga gidrologiya, tuproqshunoslik va muhandislik geologiyasiga oid adabiyotlar kiritilgan. Bunga O'rta Osiyo va Qozog'iston hududida shu sohada olib borilgan qator ilmiy izlanishlar, tadqiqotlarga oid adabiyotlar kiritilgan. Ular Toshkent shahridagi barcha yirik kutubxonalar fondidan, FA kutubxonasidan, SanktPeterburgdag'i Butunittifoq geologiya kutubxonasidan, Moskvadagi davlat kutubxonasi fondidan olindi. 2000 dan ortiq adabiyot alifbo tartibida joylashtirilgan. Ko'rsatkichlar mutaxassislarga ma'lumot olishda, tegishli masalalar tarixini o'rganishda, nashriyotchilik va kitobatchilik ishi tarixini o'rganishda yordam beradi. Respublikamiz kutubxonalarida mashhur kishilar hayoti va ijodini o'rganish, targ'ib qilish, uning jamiyat, fan, madaniyat, ilmiy faoliyat va texnika taraqqiyotida tutgan o'mini ko'rsatish maqsadida biobibliografiyalar ham tuzib boriladi. Ular alohida 134 nashr sifatida va turkumlar nomi bilan chiqarilgan. 1962- yildan boshlab „O'zbekiston olimlari biobibliografiyasiga doir materiallar“, „O'zbekistonning fan va madaniyat arboblari“ nomli bibliografik turkumlar nashr etilgan. Ularni tayyorlashda va nashr etishda FA asosiy kutubxonasi, ToshDU ilmiy kutubxonasi, FA tizimidagi institutlar kutubxonalari, oly o'quv yurtlari kutubxonalari ishtiroy etgan. Ularning tuzilishi deyarli bir xil. Ayrim bo'limchlardagi farqlar olim ijodining xususiyatiga bog'liq holda o'zgarib kelgan. 1. Olim hayoti va faoliyatining asosiy sanalari. 2. Ilmiy va jamoatchilik faoliyatiga oid qisqacha ocherk. 3. Ilmiy ishlaring (alifbo yoki xronologik) ro'yxati. 4. Nashriyotchilik ishiga oid guvohnomalari. 5. Ilmiy-ommabop va publisistik ishlari. 6. Muharrirlik faoliyati. 7. To'plamlarda, vaqtli matbuot nashrlarida bosilgan ishlari. 8. Uning rahbarligida himoya qilingan nomzodlik va doktorlik ishlari ro'yxati. 9. Opponentlik qilgan dissertatsiyalar ro'yxati. 10. Hayoti va faoliyatiga oid adabiyotlar ro'yxati. Bunday tuzilish barcha biobibliografiyalarga xos. Ammo ayrim ko'rsatkichlarda ma'lum bir o'zgarishlar uchraydi. Masalan, E. N. Korovinga tuzilgan ko'rsatkichda uning nomi bilan ataluvchi o'simliklar ro'yxati berilgan bo'lsa, ximik olim S. Y. Yunusovga tuzilgan biobibliografiyada „Оёлғиң іпептәіүөң ғілдағы ақыны“ журналида chop etirgan maqolalari alohida bo'- limchada joylashtirilgan. Turkumning 1- ko'rsatkichi mashhur sayohatchi olim, tadqiqotchi N. L. Korjenevskiyga bag'ishlab 1962- yili O. V. Maslova, A. I. Kormilitsin, K. F. Nechayevalar tuzuvchiligidagi nashrdan chiqqan. Ko'rsatkich shu turkumdag'i

dastlabki ish bo‘lgani uchun birmuncha sodda tuzilishga ega, mundarija va yordamchi apparat bilan ta’milanmagan. Ayrim bibliografik tavsiflarda hamma elementlar ham berilmagan, muharrirlik faoliyati haqidagi adabiyotlar alohida ajratib berilmagan. Olimning hayoti va ijodi haqida qisqacha ocherk, xronologik tartibda asarlarining ro‘yxati, olimning hayoti va ijodi haqidagi adabiyotlar ro‘yxati berilgan. 1969- yili M. G‘ulomova tomonidan ximik olim S. Y. Yunusovning hayoti va ijodiga oid biobibliografiya nashr qilindi. Bu avvalgi ko‘rsatkichdan ancha farq qiladi. Olimning hayoti va 135 faoliyatining asosiy sanalari, ilmiy, pedagogik, ilmiytashkilotchilik va jamoatchilik faoliyati haqida qisqacha ocherk, publisistik va ilmiy-ommabop ishlariga mualliflik guvohnomalari, hayoti va faoliyati haqida materiallar kabi bo‘limlarda adabiyotlar tartib bilan joylashtirilgan. Yana bir ijobiy tomoni shundaki, adabiyotlar annotatsiyalangan. Olimning 1979- yil nishonlangan 70 yillik yubileyi munosabati bilan F. A. Blyaxarskaya biobibliografiyanı keyingi yillardagi adabiyotlar bilan boyitib, ayrim o‘zgartirishlar bilan qayta nashr ettirdi. Shuni aytib o‘tish kerakki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgunga qadar bu turkumdagı biobibliografiyalar, asosan, rus tilida nashr etilgan. 1992- yildan turkum biobibliografiyalar o‘zbek tilida ham nashr etila boshlandi. 1992- yilda professor, fizik va matematik F. B. Abutaliyev, professor O. Sodiqovga tuzilgan bibliografiyalar o‘zbek tilida nashr etildi. „O‘rta Osiyo o‘lka patalogiyasi“ turkumidagi 3 ta ko‘rsatkichni Respublika ilmiy-tibbiyot kutubxonasi nashrdan chiqardi. 1- nashri „O‘rta Osiyoda bezgak“ 1878 — 1961- yillarda chiqqan adabiyotlar olingan. Ular O‘rta Osiyoda kasallikning tarqalishi masalalariga oid o‘rta osiyolik tibbiyot xodimlarining alohida asarlari va maqolalaridan iborat. Uni tuzishda barcha yirik kutubxonalar fondi, 1771 — 1735- yillardagi adabiyotlarni o‘z ichiga olgan „Áæéèñäpäöèý ìæëýpèý“ ko‘rsatkichidan foydalanilgan. Ko‘rsatkich 9 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, 1405 nomdagi materiallar meditsinaning sohalari bo‘yicha alifbo tartibida joylashtirilgan. U ismlar va geografik nomlar ko‘rsatkichi, manbalar nomlarining qisqartmalar ro‘yxati bilan ta’milangan. 2- ko‘rsatkichi „Äæéøiáieíçü. ÄæüüieíTicü (1871 — 1962 ãä)“ yuqumli kasallikkarga oid 3 ta mustaqil ko‘rsatkichdan iborat. Unda 2067 nomdagi materiallar alifbo tartibida joylashtirilgan, mualliflar, geografik nomlar ko‘rsatkichi, manbalar va ularning qisqartmalar ro‘yxati berilgan. Turkumning 3- nashri „Çàáîéååíéå èèõípäääé. ÁîçapäTíüé Tèô. ÄæéèñTpííüé Tiéñeíç. ÝíöåéüôåæéT (1900 — 1963 ãä.)“ ko‘rsatkichi 6 ta mustaqil ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Ular rus tilidagi 1736 nomda adabiyotlar alifbo tartibida joylashtirilgan. Uchalasi uchun umumiy ismlar ko‘rsatkichi, geografik nomlar ko‘rsatkichi berilgan. Respublika Ilmiy tibbiyot kutubxonasi „O‘zbekistonda tibbiyot“ turkumida retrospektiv ko‘rsatkichni nashrdan chiqardi. Ko‘rsatkich O‘zbekistonda sog‘lijni saqlash va tabobat masalalariga 136 oid deyarli 100 yillik (1868 — 1968- yillar) davrdagi adabiyotlarni qamrab olgan, kurortologiya, venerologiya, dermatologiyaga oid adabiyotlar berilmagan. Bu yo‘nalishda ko‘rsatkich tuzish vazifasi Semashko nomidagi kurortologiya va fizioterapiya, terivennereologiya institutiga topshirilgan. Ko‘rsatkichga tabobatning 42 ta yo‘nalishidagi masalalarga oid adabiyotlar kiritilgan. Turkumning 1- ko‘rsatkichi „O‘zbekistonda sog‘lijni saqlash, tabobat tarixi. O‘zbekistonda sog‘lijni saqlash ishining tashkil qilinishi. O‘zbekistonda tabobat, sanitariya, gigiyena“ nomi bilan chiqqan. Materiallar 3 ta yirik bo‘limda, bo‘limchalar ichida alifbo tartibida joylashtirilgan. 2- ko‘rsatkich xirurgiya, ortopediya, travmotologiya masalalariga oid. Bunda ismlar ko‘rsatkichi ilova qilingan. 3- ko‘rsatkich „Ichki kasalliklar“ yuqoridagi ko‘rsatkichlar kabi xususiyatlarga ega. „Tilshunos olimlar“, „TDMI olimlari“ kabi bir qator turkum bibliografiyalar nashr etilgan. Bular o‘z yo‘nalishida mutaxassislarga, talabalarga, ishchi va xizmatchilarga, shu masalalarga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan, ularning mehnat faoliyatida, bilim saviyalarini oshirishda katta yordam beradi.

Nazorat savollari.

1. O‘lkashunoslik bibliografik qo‘llanmalarning turlarini aytib bering.
2. Ilmiy-yordamchi qo‘llanmalarning xususiyatlarini aytинг.
3. Mahalliy muhim va unutilmas voqealar taqvimiga ta’rif bering.
4. O‘lkamizning turkum ko‘rsatkichlari haqida so‘zlab bering.

5. Mashhur bibliograflardan kimlarni bilasiz?

28-mavzu: O'zbekistonning mashhur bibliograflari

Reja:

1. Yevgeniy Karlovich Betger — O'zbekistonda kutubxonachilik ishining eng keksa avlodni, vakili. Sharqshunos va kitobshunos olim Aleksandr Aleksandrovich Semyonov.
2. Olga Vasilyevna Maslovaning o'zbek bibliografiyasi tarixida o'ziga xos o'rni.
3. Dastlabki mahalliy bibliograf olimlar Muso Mamatovich Turopov, Matluba Yahyoyevna Nosirova, Shuhrat Murodovich Shamsiyev, Hamroxon Mamatraimovalar faoliyati.

Tayanch iboralar.

O'zbekistonning mashhur bibliograflari. Yevgeniy Karlovich Betger — O'zbekistonda kutubxonachilik ishining eng keksa avlodni, vakili. Sharqshunos va kitobshunos olim Aleksandr Aleksandrovich Semyonov. Olga Vasilyevna Maslovaning o'zbek bibliografiyasi tarixida o'ziga xos o'rni. Dastlabki mahalliy bibliograf olimlar Muso Mamatovich Turopov, Matluba Yahyoyevna Nosirova, Shuhrat Murodovich Shamsiyev, Hamroxon Mamatraimovalar faoliyati.

O'zbek bibliografiyasi uning taraqqiyoti va takomillashib borishida, nazariyasi va amaliyotining metodologiyasini ishlab chiqishda XX asrda yashab ijod etgan ko'plab sharqshunos, bibliograf va kitobshunos olimlarning xizmati katta. Yevgeniy Karlovich Betger — O'zbekistonda kutubxonachilik ishining eng keksa avlodni, vakili sharqshunos, kitobshunos, tarixchi va o'lakashunos olim edi. U umrini ma'naviyat, madaniyat rivojiga bag'ishladi. Y. K. Betger 1887- yil 30- iyunda Toshkentda malakali dorixona xodimi oilasida tug'ildi. 1905- yili Toshkent erkaklar gimnaziyasini tugatadi. Moskva, Gendelberg, 1914- yili Kiyev universitetini 1- darajali diplom bilan tugatdi. 1920 — 1924- yillarda O'rta Osiyo davlat universitetining sharq fakultetida to'liq kursini tinglash bilan birga sharq tillarini mukammal o'rgandi. 1914- yil kuzidan Toshkent erkaklar gimnaziyasida rus tili va adabiyotidan dars bera boshladi. 1915- yil Betger kutubxonachilik sohasida ish boshladi, dastlab Rus Geografiya jamiyatining (keyinchalik Geografik jamiyatning O'zbekiston bo'limi) Turkiston bo'limida kutubxonachi bo'lib ishлади и va bir vaqtning o'zida jamiyat a'zosi sifatida, xazinachi vazifalarini bajardi. Uning xizmati bilan 137 kutubxona ishi jonlandi, kitoblarni joylashtirish, ularga kartochkalar yozish, predmet katalogini tuzish ishlarini boshladi. Kutubxona fondini olimlar yordamida 10 mingdan oshirdi. Ayniqsa, uning fondi geografiya va tabiiy fanlarga oid o'lakashunoslilik xarakteridagi adabiyotlar bilan boyidi, bu jihatdan Turkiston o'lkasidagi boshqa kutubxonalar u bilan bellasha olmas edi. U kitoblarni har bir kitobxonga yetkazish, targ'ib qilish sohasida ish olib bordi, bibliografik xizmat ko'rsatish va bibliografiya ishini olib borishga harakat qildi. A.V. Pankov bilan birgalikda „1912- yil 1- oktabrdan 1914- yil 1- yanvargacha turkistonshunoslilikka oid kitoblar va maqolalarning bibliografik ko'rsatkichi“ni, 1917- yili „1914 — 1915- yillarda Jamiyatning „Xabarlar“ida nashr qilingan maqolalar ko'rsatkichi“ni tuzishdi. 1917- yil Y. K. Betger Turkiston Xalq kutubxonasining kuzatuv qo'mitasi tarkibiga kiritildi, u kitob fondini saqlash va uni targ'ib qilish masalalari bo'yicha faol ish olib bordi. Kasbiy malakasi yuqoriligi va tashkilotchilik qobiliyatini hisobga olib, Turkiston Xalq kutubxonasini qayta tashkil etish bo'yicha hay'at tarkibiga kiritildi. Kutubxonachilik sohasini qayta tashkil etish bilan bog'liq holda Xalq maorifi komissarligidagi kutubxona bo'limini boshqardi, uning tashabbusi bilan Toshkentda kutubxonachilik kurslari hamda respublikada bolalar, maxsus va milliy kutubxonalar tashkil etildi. Toshkentdag'i ilmiy va akademik kutubxonalar O'rta Osiyo birlashmasini, Markaziy bibliografiya hay'atini boshqardi, kataloglashtirish bo'yicha mas'uliyatli xodim, indiksator va o'nli jadval bo'yicha mutaxassis sifatida o'lka doirasidagi kutubxonachilik ishi rahbariyati tarkibiga kirdi, kutubxona xodimlariga tegishli masalalar bo'yicha maslahatlar bera boshladi. Y. Betger 1922- yildan 1931- yilga qadar Turkiston Xalq kutubxonasi direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rribosari, 1974- yilgacha ilmiy kotib, bo'lim mudiri bo'lib ishлади. 1943- yil A. I. Butakov „Kundaliklari“ materiallari asosida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Y. K. Betger kutubxona fondini tashkil etish, ma'lumot-bibliografiya apparatini, katalog va

kartotekalarni tashkil etishga e'tibor berdi, kutubxonalarini qayta tashkil etishda qatnashdi, fondni saqlash, adabiyotlarga texnik va o'nli jadval bo'yicha ilmiy ishlov berishning yangi usullarini ishlab chiqdi. 1918- yil Turkistonda birinchi marta L. K. Davidov, A. A. Metelnikov bilan „O'nli bibliografiya jadvali“ni nashr etdi. Bu jadvalga talab oshgani sababli 1922- yili uni qaytadan ko'rib 138 chiqdi va nashr ettirdi. Unga so'zboshi, uslubiy qo'llanma ilova qilindi, undan foydalanish qoidalari berildi. 1922- yilgi kutubxonachilik jamiyatni muhokama etib, o'zbek tilida nashr etishga tavsiya qiladi. Betger bibliografiya, ayniqsa, o'lkashunoslik ishiga katta e'tibor bilan qaradi. 1916 — 1917-yillarda geografik jamiyatda ishlab yurgan paytidanoq o'lkashunoslik bilan shug'ullana boshlagan edi. 1926 — 1951- yillarda u shu yo'nalihsda ko'rsatkichlar tuzadi („TópéâñTáíñéèå âåäïïñTè“ gazetasi sahifalarida nashr etilgan Tojikistongacha bo'lgan viloyatlarga oid maqola va xabarlar ro'yxati“, „TópéâñTáíñéèå âåäïïñTè“ gazetasida O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasiga oid maqolalar va xabarlar tavsifi“ va boshqalar). Ammo uning ko'pgina ko'rsatkichlari nashr etilmay qolib ketgan. Masalan, O. V. Maslova bilan birgalikda Turkiston to'plamining 175 jildiga tuzgan ko'rsatkichi. Betger bibliografik ko'rsatkichlar tuzish bilangina cheklanib qolmadidi, balki ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib bordi. Nomzodlik unvonini olish uchun himoya qilgan ilmiy ishida Orol dengizining birinchi tadqiqotchisi A.I. Butakovning 1849 — 1852- yillarga oid kundaliklarini to'la o'rganib chiqadi va qimmatli ma'lumotlarni beradi. A.I. Butakovning hayoti va faoliyati haqida to'liq ma'lumotni havola etadi. 1924- yili Betger X asrning mashhur geografi Abulqosim ibn Xaqqalning „Yo'llar va mamlakatlar“ nomli asarini chuqur o'rgandi, 1954 — 1955- yillarda Yegor Meyendorfning „1820- yilda cho'llar, Orol dengizidan to qadimgi Yoqsartgacha bo'lgan hududda yuz bergen Orenburgdan Buxorogacha sayohat“ asarini fransuz tilidan tarjima qiladi. 1951- yili „O'zbekistonda kitobatchilik ishi tarixidan“, 1952- yili „1873- yilda Xivaga yo'l olgan samarqandlik savdogar Danila Rukavkin va uning karvoni“, „1953- yili „Turkiston to'plami va A. A. Semyonovning unda ishtiroki“ asarlari jamoatchilikka ma'lum. Bir necha yillar davomida Turkiston xalq kutubxonasining faoliyati haqida ocherklar, „Toshkentning ilmiy kutubxonalar“i, „O'rta Osiyo bibliografiyasining eng muhim vazifalari“, „O'rta Osiyoning 1928- yildagi bibliografik hayoti“ kabi asarlarini nashr etdi. Betgerning qator bibliografik asarlarini va bibliografiya masalalariga oid maqolalari hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. 1953- yili unga „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan kutubxonachi“ unvoni berilgan. Mamlakatimiz ma'naviy hayotida sharqshunos va kitobshunos olim Aleksandr Aleksandrovich Semyonov o'chmas iz qoldirgan. 139 1873- yili Tambov viloyatida tavallud topgan A. A. Semyonov Yekaterina institutini bitirgandan so'ng, Lazarev sharq tillari institutiga o'qishga kiradi va uni 1900- yili 1- darajali diplom bilan tamomlab, arab, fors va turk tillari bo'yicha oriyentalist ixtisosligini egallaydi. U bibliografik faoliyatini 1906- yili Toshkentga kelgandan so'ng boshladidi. Shu yili Xalq kutubxonasining kuzatuv qo'mitasiga a'zo bo'ldi va kutubxona fondini to'ldirish hamda O'rta Osiyo haqida adabiyotlarning bibliografiyasi va katalogini tuzishda ishtirok etdi. V. I. Mejobning mashhur „Turkiston to'plami“ni tuzish ishini 1910- yili o'lkashunos bibliograf N. V. Dimitrov vafotidan so'ng davom ettirdi. 1916- yilgacha uning rahbarligida to'plamning yana 98 ta jildi tayyorlandi. Oldingilardan farq qilib, u to'plamning mazmunini sistemalashtirdi, har bir jildga bir fan sohasiga oid adabiyotlar kiritildi. Masalan, 546 — 548, 570, 588 — 589- jiddlarga tarix va arxeologiyaga oid, 555 — 559, 584 — 589- jiddlarga filologiyaga oid adabiyotlar kiritildi. Adabiyotlarni tanlashda uning ilmiy va dolzarblik xususiyatlari e'tiborga olindi. Betger A. A. Semyonov rahbarlik qilgan davrni „Semyonov davri“ deb atadi. 1912- yili Semyonov Turkiston Xalq kutubxonasi fondida saqlanayotgan 231 ta sharq qo'lyozmalari va 569 ta litografik kitoblarning katalogini tuzadi, ammo u nashr etilmay qoladi, hozirgi paytda O'zFAning Sharqshunoslik instituti kutubxonasi fondida saqlanadi. Turkistonda qo'lyozma kitoblarni bibliografiyalash ishi bilan birinchi bo'lib sharqshunos olim E. F. Kal shug'ullangan edi va 1889- yili „Turkiston xalq kutubxonasi dagi sharq qo'lyozma asarlarining katalogi“ni tuzgan. 1912- yilda Semyonov rus sharqshunoslaridan birinchi bo'lib Turkistondagi litografik nashrlarni o'rganadi va kutubxona fondida saqlanayotgan qo'lyozma kitoblar katalogini tuzadi. Unda arab shriftida yozilgan 569 ta kitobning tavsifi berilgan. K. A.

Inostransev va Y. I. Smirnovning 1906- yil tuzgan „Musulmon arxeologiyasi bibliografiyası uchun materiallar“, 1908- yilda yaratilgan A. A. Bogolyubovning „O‘rta Osiyo gilamdo‘zligi“ ko‘rsatkichlari bilan tanishib, tadqiqot ishlari olib bordi. 1911- yili „ÝTíîäpàöè÷åñêîâ iáïçpáièâ“ jurnalida „Rus Turkistoni gilamlari“ nomli taqriz bilan chiqdi. Bu uning O‘rta Osiyo gilamdo‘zligi haqidagi bibliografik nashrlar sohasidagi dastlabki ilmiy ishidir. U 2 marta nashr etilgan. 1925- yil nashr etilgan „O‘rta Osiyo gilamdo‘zligi bo‘yicha adabiyotlarning bibliografik ko‘rsatkichi“da 199 ta rus va chet el nashrlari hisobga olingan. Ularga annotatsiya berilgan. Semyonov 140 O‘zbekistonda bibliografiya ishini tashkil etishda alohida o‘rin tutadi. Betger va Burovlar bilan birgalikda O‘rta Osiyo adabiyotlarning universal ilmiy bibliografiyasini tuzish ishini tashkil etishda faol qatnashdi. 1924- yili Betger boshchiligidagi bibliografik byuroga a’zo bo‘ldi. 1925 — 1926- yillarda byuro tomonidan yaratilgan 3 ta bibliografik ko‘rsatkich Semyonov tashabbusi va muharrirligida nashrdan chiqdi. „O‘rta Osiyo gilamdo‘zlik materiallariga oid adabiyotlarning bibliografiyası“, „Buxoro shahar markaziy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozmalarning katalogi“, „O‘rta Osivoda o‘zbeklar tarixiga oid vaqtli matbuot ko‘rsatkichi“ nashr etildi. 20 — 30- yillarda u qo‘lyozma asarlar bilan ishladi. Ilmiy jamoatchilikka axborot berish maqsadida bir qancha kataloglar tuzadi. 1935- yili tuzgan „O‘rta Osiyo davlat universiteti kutubxonasidagi qo‘lyozmalar ro‘yxati“. Bu ko‘rsatkich 1884 — 1917- yillarda mahalliy litografiyalar nashr etgan 204 ta asar haqida ma’lumot beradi. Ko‘rsatkichdagi materiallar tili bo‘yicha joylashtirilgan, har bir bo‘lim ichida fan sohalariga ajratilgan. Bibliografik tafsif to‘liq berilgan, annotatsiyada qo‘lyozma tarixi, muallifi, xattot, bezaklari, qog‘ozning sifati haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. 1956- yili uzoq davom etgan mehnat natijasida ko‘rsatkichning 2- soni „O‘rta Osiyo Davlat universiteti asosiy kutubxonasida saqlanayotgan fors, tojik, arab va turk qo‘lyozmalarini tafsifi“ chiqdi. Unda tarix, huquqshunoslik, falsafa, adabiyotshunoslik va boshqa sohalarga oid 1999 ta qo‘lyozma haqida ma’lumot berilgan. Har bir asar tafsifida muallif ism-sharifi, xattotning ism-sharifi, yozilish joyi va sanasi, qo‘lyozmaga ega bo‘lish yo‘llari haqida ma’lumotlar berilgan. Ko‘rsatkichga ismlar ko‘rsatkichi, asarlar ro‘yxati ilova qilingan. 1940- yildan boshlab A. A. Semyonov O‘rta Osivoning yirik fan arboblari, adabiyot va san’at vakillarining ijodiga bag‘ishlab kartoteka tuza boshladidi. 1945- yilgacha 500 dan ortiq shaxslar (olimlar, san’atkorlar, yozuvchi va shoirlar) haqida ma’lumot to‘plagan edi. Uning maqsadi yirik biobibliografiya tuzish edi. Ammo bu ish amalga oshmay qolgan va u hozirda A. A. Semyonov arxivida saqlanadi. Bu qo‘llanma keyinchalik FA qo‘lyozmalarini o‘rganish va O‘rta Osivoning XIX asr ijodkorlarining biobibliografik lug‘atini tuzishda asos bo‘ldi. A. A. Semyonov Beruniy, Ibn Sino, Navoiy ijodiga oid o‘ta mazmunli to‘liq biobibliografik ocherklarni nashr ettirdi. 141 Navoiyning 500 yillik yubileyi munosabati bilan A. A. Semyonov Navoiy davrini aks ettiruvchi qator adabiy, tarixiy va bibliografik ishlarni bajardi. Ularning ko‘pchiligi O‘zbekiston xalq kutubxonasida saqlanayotgan Navoiy qo‘lyozma asarlarining ro‘yxatidan iborat. Bu ko‘rsatkich Navoiy asarlari matni bilan ishlovchilarga yordam tariqasida tuzilgan. Navoiy ijodiga bag‘ishlangan muhim ko‘rsatkich — „Alisher Navoiyning nashr qilingan asarlari va u haqdagi adabiyotlarning bibliografiyasiga oid materiallar“ qo‘llanmasidir. Unga Navoiyning Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg kutubxonalarida, chet el yirik kutubxonalarida saqlanayotgan asarlari va u haqdagi adabiyotlar kiritilgan. Kirish qismida muallif ko‘rsatkichning shoshilinch tuzilganligi uchun uning to‘laligiga da‘vo qilmasligini ta’kidlaydi. Unda Navoiy asarlaridan 91 tasining tafsifini beradi, yana o‘scha vaqtagi 20 dan ortiq xattotlar nomini eslatib o‘tadi, ularning xatlarining yutuqli tomonlarini ko‘rsatadi. Qo‘lyozmaning qaysi hududga oidligi, ularning betini o‘qish xususiyatlari, ishlatilgan bezak turlari, ustalarning qaysi maktabga mansubligi, qog‘oz va uning tarixi haqida ham ma’lumotlar berilgan. Ko‘rsatkich 1968- yili „Alisher Navoiy“ nomli biobibliografiya chiqqungacha katta ahamiyatga ega bo‘lib qoldi. A. A. Semyonovning 10 jildlik O‘zFAdagi sharq qo‘lyozmalar katalogini tuzishda A. E. Shmidt, A. I. Kononov, D. R. Voronovskiy, M. A. Salelar ishtirot etadilar. Qo‘lyozmalar fan sohalari bo‘yicha joylashtirilib, har bir jildiga uning mazmunini ochib beruvchi kirish so‘zi berilgan. 1- jildiga kirish so‘zida Semyonov sharq qo‘lyozmalar katalogini tuzish tarixiga bat afsil to‘xtaladi. Sharqshunoslik instituti jamoasi bilan

11 jilddan iborat „O‘zFA sharq qo‘lyozmalari to‘plami“ni nashrga tayyorladi, 6880 dan ortiq qo‘lyozmalar haqida ma’lumotlar bergen. Shundan 7 ta jildi 1952 — 1963- yillari bevosita Semyonov ishtirokida amalga oshgan, Tojikiston FA sharq qo‘lyozmalari katalogi ham tayyorlangan. O‘zbekistonning ko‘zga ko‘ringan kutubxonashunos va bibliografi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan kutubxonachi, tarix fanlari nomzodi, Milliy universitet Asosiy kutubxonasi bibliografiya bo‘limi boshlig‘i Olga Vasilyevna Maslova o‘zbek bibliografiyasi tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Mehnat faoliyatini 1917- yili gimnaziya o‘qituvchisi sifatida boshlagan. 1923 — 1929- yili Respublika statistika boshqarmasi kutubxonasini boshqaradi, keyin 1930- yilgacha O‘rta Osiyo davlat universiteti kutubxonasida 142 ishlaydi. 1930 — 1939- yillari Navoiy nomli Milliy kutubxonada kutubxonachi-bibliograf bo‘lib, 1930- yildan bibliografiya sohasida faoliyat ko‘rsatdi. 1938- yili M. T. Avsharova, S. M. Kurkovskaya bilan birgalikda 1893 — 1903- yillarni o‘z ichiga olgan „TópêänTaïñéèå ââäîñTè“ gazetasidagi maqolalarga annotatsiya tuzadi. Mejov „Turkiston to‘plami“ning 417 — 591- jildlariga sistemali ko‘rsatkich tuzadi, Y. K. Betger rahbarligidagi „Tojikiston tarixi va etnografiyasiga oid bibliografik ko‘rsatkichga materillar“ uchun annotatsiyalar to‘plashda ishtirok etadi, „O‘rta Osiyo xalq xo‘jaligi“ jurnali uchun ko‘rsatkich tuzadi. 1920 — 24- yillari sharqshunoslik bilimlarini va mahalliy tilni mukammal o‘rganish maqsadida Turkiston sharqshunoslik institutining Eron bo‘limida o‘qiydi. 1946 — 47- yillari „Ustyurt va Mang‘ishqishloq bibliografiyasiga materiallar“ bibliografik ko‘rsatkichiga muharrirlik qiladi, 1947- yili „XVI — XX asrlarda O‘zbekiston tarixiga oid asosiy bibliografik ko‘rsatkichlar“ e’lon qilinadi. „1922 — 1950- yillarda nashr etilgan O‘rta Osiyo Davlat universiteti nashrlarining sistemali katalogi“ni, 1932 — 38- yillarda himoya qilingan nomzodlik va doktorlik ishlarining ko‘rsatkichi“ni nashr ettiradi. 1947- yili „XVIII — XIX asrlarda O‘rta Osiyodagi rus sayohatchilari va ekspeditsiyalari ishlariga obzor“ mavzusida nomzodlik ishini himoya qiladi. Bu 379 bosma taboqdan iborat katta ish edi. „Sharh“da juda katta adabiyotlar ko‘لامи haqida ma’lumot berilgan. Universitet kutubxonasida o‘lkashunoslik kartotekasini tuzishda, tabiiy va gumanitar fanlarga oid yuz ming kartochkadan iborat gazeta-jurnal maqolalarining umumiy kartotekasini tuzishda ishtirok etdi. Y.K. Betger bilan „O‘rta Osiyoning xalq xo‘jaligi“ jurnaliga 25 sahifadan iborat bibliografik ko‘rsatkichini tuzadi. 1954- yili O‘zbekiston Davlat kutubxonasi bilan hamkorlikda „1936 — 1951- yillarda O‘zbekistonda himoya qilingan nomzodlik va doktorlik ishlari“, O‘rta Osiyo muzliklarining tarixini ochib beruvchi „Ëåäîèèå Ñpääíåé Åçèè“ („O‘rta Osiyoning muzliklari“) ko‘rsatkichlarini tuzadi. Unga annotatsiya berilgan, materiallar xronologik tartibda joylashtirilgan. 1945- yil „O‘rta Osiyoni iqlim, gidrologik va gidrogeologik jihatdan o‘rganish tarixi“ ko‘rsatkichini tayyorlaydi. Uning birinchi bo‘limiga ekspeditsiyalarga oid Oktabr inqilobigacha bo‘lgan materiallar kiritiladi, masalan, 1740- yilda Orol dengizini o‘rganishga oid Gladishev va Muravin ekspeditsiyalari haqidagi materiallar 143 kirgan, 2- bo‘limiga Rossiyaning O‘rta Osiyoni bosib olgandan keyingi davr adabiyotlari kiritilgan. Bu ish O‘zFA Arxeologiya instituti iltimosiga ko‘ra bajarildi va unga 7 ta bo‘limdan iborat yordamchi bibliografik apparat tuzilgan. 1917- yil fevralidan 1917- yil oktabr inqilobigacha O‘zbekistonda nashr etilgan gazetalar ro‘yxati ham berilgan. Ilmiy jamoatchilik talabiga ko‘ra „Ustyurt, Amudaryo o‘zani va Qoraqum, Kaspiyning sharqiy qirg‘og‘i, Qoraqalpog‘istonning geografiyasi, geomorfologiyasi, geologiyasiga oid annotatsiyali ko‘rsatkich“ tuzadi. Unga XVIII asrdan 1952- yilgacha nashrdan chiqqan Turkmaniston, Qoraqalpog‘iston, Xorazm viloyati geografiyasi, geologiyasi, geomorfologiyasiga oid, tadqiqotlar tarixiga oid adabiyotlar — kitoblar va maqolalar kiritilgan. Geografiya va geologiyaga oid bo‘limda adabiyotlar tabiiy-geografik hududlar bo‘yicha joylashtirilgan, har bir bo‘limda ichki xronologik tartib qo‘llanilgan. 1950- yil „ToshDUNing 1922 — 1950- yillardagi nashrlarining sistemali katalogi“ni nashr etdi. Unda katta ilmiy va xronikal yirik ishlar, universitet nashriyoti tomonidan nashr qilingan 100 dan oshiq bulleten, 256 ta sondan iborat „ToshDUNing ilmiy ishlari“ to‘plami, 3 ta ilmiy ma’ruzalarning tezislari, 13 ta ruknda 84 ta chiqish sonidan iborat ilmiy ishlar to‘plami aks etgan. A. I. Kormilitsin V. A. Vyatkina bilan birgalikda „1902 — 1956- yillardagi ToshDU nashrlarining sistemali katalogini nashr ettiradi. Bunga oldingi ko‘rsatkichdagi hamma materiallar kiritilgan va 3 ta ilmiy-ommabop rukn, 7 ta

„Bibliografiyaga materiallar“ va alohida nashrlar kiritilgan. Ko‘rsatkichda universitet nashriyoti faoliyati haqida ham materiallar bor. Maslova rahbarligida kutubxona xodimlari 2501 nomdagi O‘rta Osiyoga oid 1917 — 1960- yillarda nashr etilgan materialarni aniqladilar. Nikolay Appolonovich Burov — 1885- yil Peterburg shahrida tug‘ilgan. Peterburg universitetini tamomlagan va kitobsevarligi bilan mashhur bo‘lgan. 1918 — 1926- yillari Turkiston ommaviy kutubxonasida ishlaydi, o‘lkashunoslik bo‘limiga, umumiyligiga bo‘limga boshchilik qiladi. 1927- yildan Samarqand Davlat universiteti asosiy kutubxonasining kitobga ishlov berish va bibliografiya bo‘limini boshqaradi. U kutubxonachilik ishini va kutubxonalarini qaytadan tashkil etish bo‘yicha qator komissiyalarning a’zosi bo‘lgan. 1930- yildan Toshkentdagisi ilmiy va akademik kutubxonalarini Respublika Markaziy kengashining raisi bo‘lib ishlagan. Kengash yig‘ilishining qaroriga ko‘ra „Alifbo katalogi kartochkasi namunalari majmuasini 144 tuzish“ dasturi ishlab chiqiladi. Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekiston haqidagi adabiyotlarning retrospektiv ko‘rsatkichini tuzish vazifasi qo‘yiladi. 1946- yili O‘zFA huzurida bibliografik byuro tuziladi, uning vazifasi — „O‘zbekiston va O‘rta Osiyo xalq xo‘jaligi va madaniyatining qadimgi davridan bugungi kunigacha bo‘lgan nashrlariga oid ko‘rsatkichlar“ini o‘zbek, rus va xorijiy tillarda chop etishga tayyorlash edi. 1919- yil 23- martda Burov o‘lka kutubxonachilik bo‘limiga xat yozib, kutubxona to‘g‘risidagi Nizomni ilova qiladi, mahalliy nashrlarning kutubxonaga haddan tashqari tartibsiz ravishda keltirilayotganini, bu narsa hamma vaqt transport va aloqa bo‘limlarining aybi bilan emasligini ta’kidlaydi. Nizomning 4- qismiga ko‘ra Xalq Maorifi Komissarligi (XMK) tomonidan tasdiqlanishi va unga ko‘ra majburiy nusxa o‘z vaqtida yetkazib berilishini ta’minalash zarur edi. 1922- yil Turkiston Kitob palatasini ikkinchi bor qayta tashkil etish masalasi ko‘tarilgandan so‘ng Burov davlat ilmiy kengashining iltimosiga ko‘ra Turkiston Kitob palatasini tuzish haqidagi qonun loyihasini tayyorladi. 1923- yil 4- fevraldagisi XMKning 15- sonli buyrug‘iga ko‘ra Palata tashkil etildi va unga Burov direktor etib tayinlandi. Qiyinchiliklarga qaramasdan, Turkiston davlat kutubxonasida mavjud adabiyotlar asosida Turkiston Kitob solnomasini tuzish boshlandi. Burov 1923- yil yanvar va fevral oyalarida „Turkiston kitob solnomasi“ni tuzishga erishdi va aprel oyida nashrga topshirdi. Palataning keyingi vazifasi 1917 — 1922- yillarda nashrdan chiqqan asarlarni bibliografiyalashdan iborat edi. Bunday retrospektiv bibliografiyaning tuzish uchun hamma imkoniyatdan foydalandilar. 1924- yili Burovning „1917 — 1922- yillarda Turkistondagi aniq fanlar“, „Tabiat va matematikaga oid adabiyotlar ko‘rsatkichi“ qo‘llanmalari nashrdan chiqdi. Kirish qismida aniq fanlar haqidagi adabiyotlarni bibliografiyalash tarixi, „Ilmiy adabiyotlar xalqaro katalogi“ kabi nashriyot faoliyatining to‘xtash sabablarini ko‘rsatgan, ko‘rsatkichning maqsadini yoritgan. 1930- yil Burov „O‘rta Osiyo universitetining nashrlari“ (1922 — 1929- yy.) nomli ko‘rsatkichini tuzdi. Keyinchalik 1930 — 1933- yillardagi ilmiy ishlarni o‘z ichiga oluvchi 2- qismi tuzildi. Burov 1964- yilda nashr qilgan „Turkistonning inqilobgacha bo‘lgan davr matbuoti“ (1868 — 1871- yy.) nomli ko‘rsatkichi mahalliy tillarda nashr qilingan nashrlar haqidagi eng yirik qo‘llanmadir. Materiallar to‘la olingan va aniq tafsif berilgan. 178 145 kitob va 56 ta maqola berilgan bu qo‘llanma Turkistonda inqilobgacha nashr etilgan nashrlarni hisobga oluvchi birinchi yirik bibliografiya edi. U „1868 — 1879- yillarda Turkistonda chop etilgan kitoblar ro‘yxati va undagi yig‘ilgan maqolalar“ deb ham nomlangan. Ko‘rsatkich nashr joyi (topografik), nashr yili (xronologik) va til kaliti kabi yordamchi apparat bilan ta’minlangan. A. Yazberdiyev „O‘rta Osiyo xalqlari milliy matbuotini bibliografiyalash tarixidan“ nomli asarida bu ishga alohida e’tibor bergan. Burov Toshkent kutubxonalarini fondida mavjud xorijiy nashrlarning yig‘ma katalogini tuzishga harakat qildi. 1926- yildan O‘zbekiston kutubxonachilarini jamiyatni markaziy Prezidiumi Toshkent shahri ilmiy va akademik kutubxonalarini oldiga 1914 — 1925- yillarda chiqqan xorijiy nashrlar yig‘ma katalogini tuzish vazifasini qo‘ydi. Buning uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya davriy nashrlar fondini tafsiflash ishini boshladi, bu uzoqqa bormadi. 1931- yil O‘zbekiston Davlat ommaviy kutubxonasi tashabbusi bilan qaytadan komissiya tuzildi. Vazifani bajarish uchun uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi, material yig‘ish bo‘yicha yo‘riqnomasi tayyorlandi, yig‘ma katalogning geografik, tilshunoslik, shakl va mazmuniy tuzilmasini tayyorladi. „1924 — 1936- yillardagi xorijiy nashrlarning yig‘ma

katalogi“ga yozgan so‘zboshisida bunga nashrlarning hamma turlari — davriy va turkumli nashrlar, xorijiy mamlakatlardagi barcha nashrlar kiritilishi va yig‘ma katalogning joriy etilish yili 1924- yil deb hisoblanishi komissiya tomonidan e’tirof etilgan. 1932- yil oxiriga kelib Davlat xalq kutubxonasi bibliografik-ma’lumot to‘plash bo‘limida kartoteka tuzilib, unga 48 kutubxonadan ma’lumot yig‘ish boshlanishi kerak edi. Komissiyadagi „uchlik“ — Y. Betger, N. A. Burov, L. V. Bomshteynlar ishni davom ettirishdi va katalogning 2- qismi tayyorlandi. Ishning vazifasi, ish miqdori va xarakteri aniqlandi va uzoq muddat mavjud ma’lumotlarning to‘g‘riligini aniqlash bo‘yicha tekshirish ishi o‘tkazildi. Ishtirok etgan kutubxonalar soni 78 ga yetdi, nashrlar soni 2513 ni tashkil etdi. Materiallar alifbo tartibida joylashtirildi va mukammallahashdi. Yig‘ma katalog 1937- yili tugatildi. Uning 1924- yildan teskari xronologik tartibdagi va 1936- yildan to‘g‘ri xronologik tartibdagi shaklini O‘rta Osiyo davlat universiteti davom ettirdi. 1953- yilgacha unga Burov rahbarlik qildi. 1959- yilga kelib u butunlay tugatildi, keyingi davrni Navoiy kutubxonasi bibliograflari davom ettirdilar. 146 Matluba Yahyoyevna Nosirova — kutubxonachi-bibliograf sifatida tanilgan ustozlardan biri. U Toshkent shahrida 1924- yili tavallud topadi, juda erta ota-onasidan ajrab, bolalar uyida tarbiyalanadi. 1942- yili o‘rta maktabni tugatib, o‘sha paytdagi komsomol kotiblari kursida o‘qiydi va tashkilotlarda ishlaydi. 1949- yil Farg‘ona viloyat kutubxonasi kutubxonachi 1951- yildan Alisher Navoiy nomidagi Respublika kutubxonasida faoliyatini davom ettiradi va o‘z malakasini, bilimini oshirish maqsadida Moskva davlat madaniyat institutiga boradi, 1957- yili uni tugatib, 1972- yilga qadar shu kutubxonada ishini davom ettiradi, oddiy bibliograf lavozimidan to bo‘lim mudiri vazifasigacha bo‘lgan jarayonni bosib o‘tadi. 1972- yili Toshkent madaniyat texnikumiga direktorlik lavozimi 1974- yili Toshkent davlat madaniyat instituti tashkil etilgandan so‘ng „Bibliografiya“ kafedrasida katta o‘qituvchi lavozimida nafaqaga chiqqunga qadar talabalarga ustozlik qiladi. Kutubxonada ishlab yurgan vaqtlarida juda ko‘p mavzularda turli xil bibliografik ko‘rsatkichlarni mustaqil va hamkorlikda tayyorladi va nashr ettiradi. Yirik 9 ta bibliografik ko‘rsatkich va qo‘llanmalarga muharrirlik qiladi, bir qator muammoli maqolalar bilan O‘zbekiston va Rossiya jurnallarida qatnashadi. Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat kutubxonasining 100 yilligi munosabati bilan nashr etilgan monografiyaning yirik — „1917- yildan so‘nggi davrda kutubxonaning ilmiy-bibliografik faoliyati“ bo‘limini yozgan. Unda muallif bibliografiya ishining taraqqiyotini batafsil yoritib bergen. Muso Mamatovich Turopov — dastlabki mahalliy bibliograf olimlardan, uzoq yillar bibliografiya predmetlaridan o‘qituvchilik faoliyatini olib bordi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. 1940- yil Samarqand viloyatida tavallud topgan, 1958- yili o‘rta maktabni tugatib, mehnat faoliyatini boshlaydi. 1966- yili Toshkent davlat pedagogika isntitutining kutubxonachilik fakultetini bitirdi va bibliografiya kafedrasida o‘qituvchilik lavozimiga qoldirildi. 1974- yildan to shu kungacha Madaniyat institutining kutubxonachilik, keyinchalik „Kutubxona-axborot faoliyatini boshqaruv“ fakultetida ishlab kelmoqda. 1974- yil Leningrad davlat madaniyat instituti qoshidagi ilmiy kengashda „O‘zbekiston haqida bibliografiya 1952 — 1970 yy.“ nomi bilan pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun ilmiy-tadqiqot ishining natijasini himoya qiladi. 1982- yildan kafedra dosenti. 70 dan ortiq bibliografiya masalalariga oid o‘quv qo‘llanmalari, monografiya va maqolalari nashr etilgan. 147 „O‘zbekistonda bibliografiya. 1870 — 1980- yy.“, „O‘zbekistonning kundalik ilmiy-yordamchi bibliografiyasi“, „O‘zbekistonning umumiy bibliografiyasi“ kabi o‘quv qo‘llanmalari, o‘zbekistonlik yirik bibliograflarning hayoti va ijodiga oid maqolalari talabalar uchun bibliografiya kurslarini o‘rganishda muhim qo‘llanma bo‘lib qoldi. Shuhrat Murodovich Shamsiyev — taniqli bibliograf olim, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Ko‘p yillar Toshkent davlat madaniyat instituti rektori o‘ribbosari, bibliografiya kafedrasи mudiri lavozimlarida ishlagan. 1940- yili Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tavallud topdi. 1960- yili o‘rta maktabni tugatib, kutubxonachilik fakultetiga o‘qishga kirdi. 1964- yili institutni tugatib kutubxonashunoslik-bibliografiya kafedrasiga mudir etib tayinlandi. 1965- yildan o‘qituvchilikka o‘tkazildi. 1970- yili Moskva davlat madaniyat instituti aspiranturasi kunduzgi bo‘limiga o‘qishga kirib, mashhur bibliograf va kutubxonashunoslardan A. N. Verevkina, akademik O. P. Korshunovlardan ta’lim oladi. 1973- yili aspiranturani tugatib,

Toshkentga qaytadi. 1974- yili madaniyat instituti ochilishi bilan institut sirtqi va kechki bo‘limiga rektor o‘rribosari etib tayinlanadi. Birinchi bo‘lib ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar bibliografiyası kursini yozadi. 1977- yili Moskva davlat madaniyat institutida „Rossiyaning inqilobga qadar vaqtli matbuotining manbashunoslik va funksional tahlili (1702 — 1917- yy.)“ mavzusida nomzodlik ihmisi himoya qiladi. 1984- yilda kafedra dotsenti 1995 — 2001- yillarda fakultet dekani lavozimida faoliyat yuritdi. „Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar bibliografiyası“, hammulliflikda „O‘zbekistonning kundalik davlat bibliografiyası“, „Inqilobgacha Turkiston vaqtli matbuotining retrospektiv bibliografiyasining ayrim masalalari“, „Inqilobgacha Turkiston vaqtli matbuotini o‘rganishning muammolari“, I. Dolgopolova bilan „O‘rtalarda bibliografiya tarixi (kitob bosish ixtiro qilingunga qadar)“ nomli o‘quv qo‘llanmasini nashr ettirdi. Hamroxon Mamatraimova — respublikamizning bibliografiya ishi nazariyasi va amaliyoti sohasida ish olib borayotgan bibliograf olimlardan biri. 1952- yil Andijon viloyati Xo‘jaobod tumanida tavallud topgan. Shu yerning Yangichek mahallasida yashab o‘rtal muktabni tugatgan. Avval Namangan madaniyat texnikumida kutubxonachilik bo‘limini keyin 1977- yil, Toshkent davlat madaniyat instituti kutubxonachilik fakultetini imtiyoziy diplom bilan tugatgan. Ilmga chanqoq Hamroxon Moskva davlat madaniyat 148 institutining kunduzgi aspiranturasini tugatib, 1987- yili shu institutda kutubxonachilik ishi sohasida o‘zbek ayollaridan ikkinchi bo‘lib „O‘lkashunoslik ma’lumotnoma-bibliografiya apparati mahalliy bibliografik resurslarning tarkibiy qismi sifatida. Ko‘p tillik sharoitda uning tuzilishi va foydalanish muammolari“ mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi va pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini oladi. Tadqiqot respublikamizning viloyat kutubxonalarini negizida bajarildi va unda o‘lkashunoslik bibliografiyasida ma’lumotnoma-bibliografiya apparating o‘rni, kutubxonachilik-bibliografik resurslarning ahamiyati, o‘lkashunoslik katalogini tashkil etishdagi o‘rni, Rossiya kutubxonalarining shu sohadagi tajribasi o‘rganilgan. 1977- yildan „Bibliografiya“ kafedrasida bibliografiyaga oid barcha fanlardan dars berib keldi. Bir qator o‘quv qo‘llanmalari, dasturlari, uslubiy qo‘llanmalari nashrdan chiqqan. Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasida nashrdan chiqayotgan ko‘plab dolzarb mavzudagi uslubiy-bibliografik qo‘llanmalar muallifi, tuzuvchisi va muharriri. O‘zbekiston ommaviy kutubxonalarida o‘lkashunoslik ihmini tashkil etish masalasiga oid uslubiy-o‘quv qo‘llanmalarini nashr etgan. Ko‘plab xalqaro, respublika va institut ilmiy to‘plamlarida bibliografik kadrlar tayyorlash, bibliografiya ishi nazariyasi, tarixi va metodikasiga oid ilmiy maqolalar bilan ishtiroy etgan. Apipa Hoshimovna Turopova — taniqli bibliografi 1941- yili 23- martda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. 1959- yili 75-sonli o‘rtal muktabni tugatib, 1962- yili Toshkent davlat pedagogika isntitutining kutubxonachilik fakultetiga o‘qishga kiradi. 1966- yili shu institut kutubxonasiga ishga qoldiriladi. 1967 — 1981- yillar O‘zbekiston Kitob palatasida katta bibliograf, bosh bibliograf, ma’lumot-bibliografiya bo‘limi mudiri vazifalarida faoliyat ko‘rsatadi. Shu yillarda barcha turdag‘i kundalik davlat bibliografiyalarini tuzishda va nashr etishda, katalog va kartotekalar tizimini tashkil etish va to‘ldirib borishda ishtiroy etgan. „Kitob solnomasi“, „Jurnal maqolalari solnomalari“, „Notalar solnomasi“ kabi o‘sha davr talabi bilan nashr etilgan retrospektiv bibliografik ko‘rsatkichlarni tayyorlashda va nashr etishda qatnashgan. 1968— 1969- yillarda Moskva shahrida Butunittofq kitob palatasining ilmiy seminarlarida ma’ruzalar bilan ishtiroy etgan. 1981- yil mart oyidan Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat kutubxonasining milliy bibliografiya bo‘limida katta bibliograf, sho‘ba mudiri lavozimlarida ishladi. „O‘zbekiston“ kartotekasining 149 adabiyot, tarix, falsafa, qishloq xo‘jaligi bo‘limlari uchun muntazam ravishda bibliografik yozuvlarni yig‘ib bordi. „O‘zbekiston Respublikasining muhim va unutilmas sanalar taqvimi“, „O‘zbek adabiyoti“ (1959 — 1970- yy.) ko‘rsatkichi, „Adabiyotshunoslik va o‘zbek xalq ijodi, folklor“ (1959 — 1970- yy.) ko‘rsatkichlarini nashrga tayyorladi, afsuski ayrim sabablarga ko‘ra ular nashr etilmay, yozuv mashinasidan chiqqan holida saqlanmoqda. M. Muhammadjonova, S. Shermuhamedova bilan „Al-Xorazmiy“, Z. Berdiyeva bilan „Alisher Navoiy“, S. Shermuhamedova, S.A. Teplova bilan „Sharof Rashidov“ kabi ko‘rsatkichlarni tuzgan va chiqargan. Mariya Petrovna Avsharova — keksa bibliograf va o‘lkashunoslardan. 1896- yili Toshkentda tavallud topadi. 1913- yili xotinqizlar gimnaziyasining 7- sinfini bitiradi, 1915- yili

Moskvadagi Oliy xotin-qizlar kursining tarix-filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. 3 yildan so'ng oilaviy sharoiti tufayli o'qishni oxiriga yetkazmay qaytib keladi. Madaniyat va maorif sohasida faoliyat ko'rsatadi, 1938- yildan Navoiy nomidagi Davlat xalq kutubxonasida ma'lumot-bibliografiya bo'limida kutubxonachi-kartochkachi, so'ngra bibliograf bo'lib ishlay boshlaydi. 1934- yili kutubxonada ma'lumot-bibliografiya bo'limi tashkil etilgandan keyin O'rta Osiyo kitob va jurnallari, „TópéâñTâíñêà áâäüññTè“ gazetasini sahifalaridagi maqolalarning bibliografik kartotekasi“ni tuzadi. Urush yillari Betger rahbarligidagi 2 ming tavsifdan iborat 2 jildlik „Tojikiston haqida tarixiy-etnografik adabiyot“ nomli bibliografik ko'rsatkichini tuzishda ishtirok etadi. „1918 — 1935- yillarda O'rta Osiyoda rus tilida nashr qilingan gazetalar ro'yxati“ni tayyorlaydi. Unda 126 nomidagi gazetaga aniq faktlar yordamida ta'rif beradi. 1940 — 50- yillarda Avsharova, asosan, tavsiya ko'rsatkichlarini tuzish bilan band bo'ladi. O'lkashunoslik bibliografiyasiga qo'shgan hissasi 1958- yili „O'zbek xotin-qizlari kecha va bugun“ nomli ko'rsatkichi sifatida yuzaga chiqdi. Unga 1919 — 1956- yillarda nashr etilgan hujjatlar kiritilib, annotatsiya bilan ta'minlangan. M.P. Avsharova, Y. D. Svidina bilan birgalikda „O'zbek adabiyoti“ ko'rsatkichini nashr ettirdi, unda 1917- yilgacha va undan keyin yashab ijod etgan adabiyot namoyandalari asarlari va ular haqidgi asarlar kiritilgan. Har bir muallif haqida avval biografik material va ularning asarlarining ro'yxati berilgan. M.P. Avsharovaning 1960- yilda nashr etilgan „Turkistonning rus vaqtli matbuoti. 1870 — 1917- yy.“ nomli ishi muhim ahamiyatga ega. Unda 150 Turkiston o'lkasiga va ayrim viloyatlarga oid ma'lumotlarni beruvchi 189 nomidagi gazeta va jurnallar, almanaxlar, ma'lumotnomalar, sharhlar, yilnomalar, taqvimlar aks etgan. Yirik ilmiy ish sifatida ham o'lkamiz tarixini, boshqa xalqlar madaniyati tarixining ta'sirini o'rganishga yordam beradi. Avsharovaning keyingi faoliyati „O'zbekiston“ yilnomasini tuzish bilan bog'liq holda o'tgan. Bu yilnomasi 1917- yildan o'lkamiz haqidagi kitoblarni, gazeta, jurnal, to'plamlardagi maqolalarni va boshqa nashrlarni yig'ib beruvchi bibliografik qo'llanmadir. Muallif faqat O'zbekistonda nashr etilgan asarlarni emas, balki undan tashqaridagi asarlarni ham kiritadi. „O'zbekiston“ yilnomasining 1- soni 1903 — 1955 va 1956- yillarga oid bo'lib, 1958 va 1960- yillari nashrdan chiqdi. Ko'rsatkichning qadimgi davrlardan to 1917- yilgacha davrni o'z ichiga olgan „O'zbekiston tarixi“ qismi tuzuvchining vafotidan so'ng nashr etildi. Ko'p yillar davomida Mariya Petrovna „O'rta Osiyo“ kartotekasini tuzib boradi. 1953- yilda „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan kutubxonachi“ unvoniga sazovor bo'lgan. Aleksandr Ivanovich Kormilitsin — mashhur kutubxonashunos, bibliograf, kitobshunos va o'lkashunos olimlardan biri. A. I. Kormilitsin 1915- yili 21- dekabrda Moskva viloyatida dehqon oilasida tavallud topgan. Oilaviy sharoitga ko'ra mehnat faoliyatini juda vaqtli boshlagan. 7 yillik mukammal o'zlashtirib olgandan so'ng, Moskva pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. 1936 — 1937- yillarda boshlang'ich maktabda geografiyadan dars beradi va institutga o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'radi. 1941- yil Moskva tarix-arxiv institutini tarixchi-arxivchi mutaxassisligi bo'yicha imtiyozli diplom bilan tugatadi. 1947- yildan Kemerova shahar musiqa bilim yurtida tarixdan dars beradi. 1953- yil oilaviy sharoitiga ko'ra Toshkentga ko'chib keladi. 19 yil Toshkent davlat universiteti kutubxonasida bibliograf, katta bibliograf, bo'lim mudiri vazifasida ishladi. U ToshDU faoliyati haqida dastlabki materiallarni to'plash borasida ko'pgina ishlari qildi va „ToshDU tarixiga oid materiallar“ nomli annotatsiyalangan ko'rsatkich tuzadi, kutubxonaning ma'lumot-bibliografiya apparatini tuzishda ishtirok etadi. U „Gazetajurnal maqolalarining umumiy kartotekasini“, „O'rta Osiyo va Qozog'iston“ hududiy o'lkashunoslik kartotekasini, taqrizlar, avtoreferatlar, universitet olimlari ishlaringin kartotekasini tuzadi. 1968- yil ishlab chiqarishdan uzilmagan holda „Inqilobgacha Turkistonda kutubxonachilik ishi tarixi“ mavzusida nomzodlik 151 ishini tayyorladi va 1970- yili himoya qiladi. Kutubxonada „1936 — 1951- yillarda O'zbekistonda himoya qilingan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining ko'rsatkichi“ni tayyorlab, 1954- yil nashr ettirdi. Unga 592 ta dissertatsiyaning bibliografik ma'lumotlari kiritilgan, 1956- yili „O'rta Osiyo davlat universitetining nashrlari ko'rsatkichi“ning 1922 — 1956- yillarda nashr etilgan materiallarni aks ettirgan 2- sonini tayyorlashda ishtirok etadi. Ilmiy faoliyatdagi yangilik „Biologiya-tuproqshunoslik fakulteti antropologiya kafedrasining 1923 — 1959- yillardagi

ekspeditsiyalari“ obzor ko‘rinishidagi ishini 1964- yil nashr ettirdi va unda 29 ta antropologiyaga oid ekspeditsiyalar haqida ma’lumot beradi. 1968- yil nashr etilgan „Inson va hayvonlar fiziologiyasi kafedrasining 1925 — 1966- yillardagi ekspeditsiyalari“ nomli ishida 28 ta fiziologiyaga oid ekspeditsiyalar va ularning Markaziy Osiyo va O‘zbekiston bo‘ylab safarlar haqida ma’lumot keltirilgan. Kormilitsin 1970- yil nashr etilgan „ToshDU tarixi va faoliyatiga oid materiallar“ nomli ishning tashabbuskori va ishtirokchisi edi. Unda universitet faoliyatiga oid 1918 — 1966- yillarni o‘z ichiga olgan 2000 dan ortiq bosma va qo‘lyozma asarlar haqida ma’lumot berilgan. Materiallar fakultetlar, kafedralar, ilmiy-tadqiqot isntitutlariga ko‘ra tartibga solingan. Kormilitsin olimlarning bibliografik ko‘rsatkichlarini tuzishda ham faol ishtirok etdi. Hamkorlikda „Nikolay Leopoldovich“, „Obid Sodiqovich Sodiqov“ (rus tilida), „Aleksandr Sergeyevich Uklonskiy“, „Toshmuhammad Aliyevich Sarimsoqov“, „Ilariya Alekseyevna Raykova“, „Vladimir Ivanovich Popov“ kabi biobibliografiyalarning nashrdan chiqishida muhim rol o‘ynadi. Bibliografiya amaliyotida birinchi marta olim rahbarligida yoqlangan dissertatsiyalar haqida, opponentlik qilgan ishlari haqida ma’lumotlar beradi. 1974- yil Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan „Abu Rayhon Beruniy“ bibliografiyasini nashr etadi. Unda olim hayoti va faoliyatining asosiy sanalari, asarlarining ro‘yxati, u haqdagi ko‘plab asarlar ro‘yxati berilgan. Ustoz 20 yildan oshiq vaqt Madaniyat institutining kutubxonachilik fakultetida dars berdi. Kutubxonachilik ishi, kitob ishi, qo‘lyozma kitoblar tarixi, O‘zbekistonning madaniyati tarixiga oid ko‘plab maqolalar e’lon qildi. So‘nggi ish biri „Âèäiüâ áæáëëîTâéïâäü è áæáëëïäpâöü ÓçáâëëñTaíà“ nomli ma’lumotnomada respublikamiz madaniyatida o‘ziga xos o‘rin tutgan, kutubxonashunos va bibliograflar haqida to‘la ma’lumotlar berilgan. 152 Zuhra Shukurovna Berdiyeva — kutubxonashunos, bibliograf. U 1956- yil Sirdaryo viloyati Guliston tumanida tug‘ilgan. 1974 — 78- yillar Madaniyat instituti kutubxonachilik fakultetini imtiyozli diplom bilan bitirgach, „Kutubxonashunoslik“ kafedrasida o‘qituvchi lavozimida qoldiriladi. 1992 — 2000- yillar Madaniyat vazirligida bosh mutaxassis, 2006- yildan O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Respublika axborot-kutubxona markazida bosh kutubxonachi lavozimlarida ishladi. Kutubxonachilik, kitob ishi, bibliografiya sohasiga oid qator muammolar bo‘yicha 70 dan ortiq maqolalari, ilmiy-uslubiy qo‘llanmalari, yirik bibliografik ko‘rsatkichlari („Abdulla Qahhor“, „Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek“, „Alisher Navoiy“) nashr qilingan, madaniyat kollejlari uchun 3 jiddlik „Kutubxonashunoslik“, „Bibliografiya“ darsligi 2013- yilda nashr etildi. Oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari talabalari va o‘quvchilariga, malaka oshiruvchi axborot-kutubxona muassasalari xodimlariga kutubxonashunoslik va bibliografiya turkumidagi fanlardan saboq berib kelmoqda, 2011 yildan buyon O‘zbekiston Fanlar akademiyasi asosiy kutubxonasi direktori lavozimida faoliyat yuritib keladi, „Turon“ Fanlar akademiyasining akademigi. Institut talabalariga kutubxonashunoslik, bibliografiya, kitobshunoslik fanlaridan saboq berib keladi. Soyibnazar Xo‘janiyozovich Davlatov — 1959- yil Qashqadaryo viloyatida tavallud topgan. O‘rta maktabni tugatib, 1976 — 80- yillarda TDMIning „Kutubxonachilik“ fakultetida ta’lim oladi. 1983 — 89- yillar Respublika Kitob palatasida bibliograf, katta muharrir lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1989- yildan A. Qodiriy nomli TDMI da o‘qituvchi, kafedra mudiri, dekan muovini, 2003- yildan Kutubxona-axborot faoliyatini boshqaruv fakulteti dekani lavozimida ishladi. 1996- yilda „Qashqadaryo vohasi o‘zbek to‘ymarosimlari folklori“ mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi. Kitob palatasida „O‘zbekiston matbuoti solnomasi“ni tuzishda, katalog va kartotekalarni tashkil etishda ishtirok etdi. Malika Isayevna Matmurodova — 1961- yil Toshhovuz viloyatining Toshhovuz tumanida tavallud topgan. 1978- yilda o‘rta maktabni tugatib, mehnat faoliyatini qishloq kutubxonasida boshlagan. 1988 — 1992- yillar A. Qodiriy nomli TDMI „Kutubxonachilik“ fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatib, Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida uslubiyotchi, sho‘ba mudiri bo‘lib faoliyat yuritdi. 1999- yildan Madaniyat instituti „Bibliografiya“ kafedrasida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, 153 2001- yildan fakultet dekani o‘rinbosari lavozimlarida ishladi. „O‘zbekistonda badiiy adabiyotlar va adabiyotshunosligi bibliografiyasi“ kursidan mashg‘ulotlar olib bordi. 2001- yil institut aspiranturasini tamomladi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasida uslubiyotchi sifatida 40 dan ortiq milliy ijodkorlarimiz, yozuvchi, shoirlarimiz, san’atkorlar,

milliy qadriyatlarimiz, muhim sanalar, voqealar munosabati bilan „Millatni uyg‘otgan adib“, „Asli dunyo mehrdan yaralgan“, „Sharqning ulug‘ musavviri“, „G‘afur G‘ulom“, „Ubaydullo Solih o‘g‘li Zavqiy“, „Ma’rifatparvar shoir“, „Ozodlik va istiqlol kuychisi“ kabi uslubiybibliografik qo‘llanmalar muallifi. Grant asosida amalga oshirilgan tадqiqot ishi natijasida nashr etilgan „Mafkura va yoshlar“ uslubiy qo‘llanmasining mualliflaridan biri. 1999-yildan Respublika ko‘zi ojizlar kutubxonasining ilmiy-uslubiy ishlariga yordam bermoqda.

Nazorat savollari.

1. O‘lkashunoslik bibliografik qo‘llanmalarning turlarini aytib bering.
2. Ilmiy-yordamchi qo‘llanmalarning xususiyatlarini aytинг.
3. Mahalliy muhim va unutilmas voqealar taqvimiiga ta’rif bering.
4. O‘lkamizning turkum ko‘rsatkichlari haqida so‘zlab bering.
5. Mashhur bibliograflardan kimlarni bilasiz?

29-mavzu: Kutubxonalarning bibliografik faoliyati .

Reja:

1. Kutubxonalar faoliyatining asosini tashkil etuvchi bibliografiya ishi, uning maqsad va vazifalari, mazmuni, milliy bibliografiya markazlari haqida bilim berish.
2. Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va bibliografiya markazi sifatida. Oliy o‘quv yurtlari kutubxonalarining bibliografik faoliyati.
3. Asosiy tushunchalar bibliografik ish, infratuzilma, axborot markazi, bibliografik markaz.

Tayanch iboralar

Kutubxonalar faoliyatining asosini tashkil etuvchi bibliografiya ishi, uning maqsad va vazifalari, mazmuni, milliy bibliografiya markazlari haqida bilim berish. Bibliografik ish, infratuzilma, axborot markazi, bibliografik markaz.

Kutubxonalar faoliyatining katta qismini bibliografiya ishi tashkil etadi. Ishning hajmi, ko‘lami, uning tashkil etilishi, bibliografik xizmat shakllariga ko‘ra ular bir-biridan farq qiladi. Bu kutubxonalarda kitob fondi mazmunini ochib berish, undan kitobxonlarning faol foydalanishini ta’minalash uchun turli xil bibliografik vositalar yordamida ma’lumot bibliografiya xizmatini tashkil etishdan iborat. Bu ma’lumot-bibliografiya apparatini tashkil etish va ma’lumot-bibliografiya xizmatini uyushtirish bilan amalga 154 oshiriladi. Ma’lumot-bibliografiya xizmati — har xil kitobxonlik so‘roqlarini bajarish, ularga imkon qadar keng ma’lumotlar berish. Bibliografik axborot berish — kitobxonlarning doimiy so‘roqlari va kundalik talablarini bajarish uchun muntazam ish olib borish, tavsiyaviy-bibliografik xizmat ko‘rsatish, axborot va kompyuter madaniyatini tarbiyalash, bibliografik bilimlarni targ‘ib qilishdan iborat. Bibliografik ishni tashkil etishning asosi kutubxona fondi va ma’lumot-bibliografiya apparatidir. Bibliografiya ishi vazifalari — kitobxonlarning mustaqil o‘qishiga ta’sir etish. Bu vazifani amalga oshirishda kartotekalar, bibliografik qo‘llanmalar, tavsiya xarakteridagi ko‘rsatkichlar yordamida kitobxonlar o‘qishini boshqarish, tashkil etish bilan amalga oshiriladi, kitobxonlarni axborot olamiga olib kiradi, mustaqil ravishda undan foydalanish ko‘nikmasini tarbiyalaydi, eng yaxshi va zarur hujjatlarni tanlab olishga yordam beradi, undagi bilimni to‘g‘ri va aniq qabul qilishga yo‘llaydi, kitobxonda axborot madaniyatini tarbiyalaydi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi (har doim jamiyat fan va texnikaning rivoji tufayli taraqqiy topgan, bu esa ana shu fan va texnikani boshqaruvchi, ishlab chiquvchi mutaxassis kadrlarning bilimini oshirishga bog‘liq, bunda bibliografiya yordamga keladi). Bibliografiya yordamida mutaxassis zarur adabiyotlarni qidirib topadi, tanlaydi, u bilan ishlaydi, eng asosiyisi, adabiyot tanlashda murakkabliklarga uchramaydi. Bibliografiya ishini tashkil etish Bibliografiya tushunchasi axborotlar infratuzilmasini, ya’ni iste’molchilarining axborot resurslariga kirib borishlarini ta’minalaydigan axborot markazlari, ma’lumotlar bazasi, banki, aloqa tizimi tushunchasi bilan bog‘liq. Buni anglash uchun quyidagi tushunchalarni alohida ko‘rib chiqamiz: Axborot markazi — axborotni yig‘ish, analitik-sintetik tahlil qilish, qayta ishslash va tarqatish vazifasini bajaruvchi tashkilot. Axborotni tahlil qilish

markazi — aniq bir bilim sohasi bo'yicha axborotni to'plash, yig'ish, saqlash, baholash, tahlil qilish maqsadida tashkil etilgan tashkilot yoki bo'lim. Axborot almashuv markazi — tijorat asosida boshqa markazlar uchun zarur axborotni tarqatish bilan shug'ullanuvchi axborot markazi. 155 Bibliografik markaz — bibliografik axborotni ishlab chiqish, to'plash, qayta ishslash va tarqatish bilan shug'ullanuvchi axborot markazi. Bundan tashqari, axborot agentliklari mavjud, ular u yoki bu yo'nalishda axborotni qidirish, to'plash, tanlash va tarqatish bo'yicha tijorat asosida ish olib boruvchi tashkilot yoki shaxslar. Jamiatning axborotlashib borishi bilan kutubxonalar ham axborot-resurs markazlari va axborot-kutubxona markazlari sifatida mas'uliyatini oshirib bormoqdalar. Chunki asosiy axborot manbalari — turli xil hujjatlarning aynan kutubxonalar fondida yig'ilishi sir emas. Axborotlashtirish — axborot resurslariga tezkorlik bilan kirib borishni ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlar kompleksidir. Kutubxonalar tajribasida bu butun kutubxonachilik va bibliografik ish jarayonlarini avtomatlashtirish va yangi zamonaviy texnologiyalar asosida axborot markazlarini tuzishdan iborat. Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va bibliografiya markazi sifatida Mamlakatimizda uzoq tarixga ega bo'lgan kutubxona Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasıdır. 1867- yili 16- avgustda Turkiston general-gubernatori K. P. Kaufman Xalq maorifi vazirligiga Turkistonda kutubxona tashkil etish va kitob omorlaridan dublet nusxali kitoblarni ajratish hamda shu asosda kutubxona tashkil etishga yordam so'rab murojaat qiladi. 1870- yil mayida 200 nomidagi 2200 adabiyot to'planib, Toshkent ommaviy kutubxonasi yadroси tashkil etiladi va kutubxona ochiladi. O'lkashunos olim, kuchli bibliofil va kutubxonashunos N. V. Dmitrovskiy shu kutubxonaning birinchi direktori etib tayinlanadi. Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat kutubxonasi 2002- yil 20- fevralda e'lon qilingan Respublikamiz Prezidentining „Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to'g'risida“gi Farmoniga ko'ra Respublika ilmiy-teknika kutubxonasi bilan birlashtirishga qo'shilish, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi“ deb qayta tashkil etildi. Shu yil 4- iyulda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Milliy kitob palatasi ham Milliy kutubxona tarkibiga o'tkazildi. Milliy kutubxona respublikamizning davlat kutubxonasi, axborot va madaniy- 156 ma'rifiy muassasasi bo'lib, kutubxonachilik, bibliografik, ilmiytadqiqot, ilmiy-uslubiy va axborot faoliyatini olib boradi. Kutubxonaning asosiy maqsadi — butun insoniyat bilimini aks ettirgan, O'zbekistonga va uning milliy manfaatlariga taalluqli barcha turdagи hujjatlarning universal fondini yig'ish, saqlash hamda jamiyat foydalanishi uchun taqdim etishdir. Hozirgi kunda kutubxona jahonning 75 tilidagi deyarli 10 mln nusxa hujjatga ega, undan 3 mln dan ortig'i o'zbek milliy matbuotini tashkil etadi. Har yili kutubxonaga 15 — 20 ming nusxa hujjat olinadi. Kutubxona 1956- yildan Xalqaro kitob almashuv tizimida ish olib boradi va jahonning 24 davlatidan 30 dan ortiq tashkilot bilan hamkorlik qiladi. Kutubxonada 20 dan ortiq bo'lim mavjud bo'lib, kitobxonlarga kutubxonachilik, bibliografik va axborot xizmati yo'lga qo'yilgan. 250 mingdan ortiq nashrha ega bo'lgan „Noyob va nodir adabiyotlar bo'limi“, 7 mln dan ortiq hujjatni saqlovchi „Asosiy fondni saqlash bo'limi“, 260 ming hujjatni saqlovchi „Fondlarni depozitlar saqlash bo'limi“, 35 mingdan ortiq fondga ega bo'lgan „Bibliografik ma'lumot nashrlar fondi“, 80 mingdan ortiq o'zbek mumtoz va jahon musiqasi ovozli yozuvlari, musiqanota nashrlari, 150 mingdan ortiq tavsiriy va amaliy san'at asarlari to'plangan „Madaniyat va san'at bo'yicha ilmiy-axborot bo'limi“, „Kutubxonachilik ilmiy-marketing tadqiqotlari markazi“, „Avtomatlashtirish yangi axborot texnologiyalar bo'limi“, „Ilmiyuslubiy bo'lim“, „Milliy bibliografiya bo'limi“, „Axborotma'lumot xizmati bo'limi“ kabilar mavjud. Kutubxona Respublikamiz kutubxonalarini uchun ancha yillardan beri kutubxonashunoslik, o'lkashunoslik ishi va bibliografiya ishi bo'yicha asosiy uslubiy markaz va rahbar vazifasini bajarib kelgan. Kutubxonaning birinchi direktori N. V. Dmitrovskiy rus kitoblari fondining katalogini, keyingi direktori S. A. Lidskiy esa alifbo katalogini tuzganlar. Shuningdek, boshqa mamlakatlar kutubxonalarining bibliografik nashrlari, respublikada tuzilayotgan barcha turdagи bibliografik nashrlar, ma'lumotnomalar nashrlari ham to'plab borilgan. 1980- yildan Milliy bibliografiya bo'limi, ma'lumot-bibliografiya bo'limi, axborot-bibliografiya bo'limlari alohida tashkil etildi. Bo'limlar tashkil etilganidan beri nashr qilingan barcha bibliografik mahsulotlar, har yili nashr

etiladigan kutubxonachilik va bibliografiya ishi, kitob ishiga oid barcha rasmiy hujjatlar, davlat hujjatlari, vaqtli matbuot nashrlari, shuningdek, 157 Dmitrovskiy, Dorn, Maslova, Avsharova, Semyonovlar tomonidan tuzilgan va bizga meros bo‘lib qolgan barcha ko‘rinishdagi ko‘rsatkichlar nodir manba sifatida saqlanadi. Hozirgi paytda quyidagi kataloglar yuritiladi: alifbo, sistemali, guruhli ishslash materiallarining sistemali katalogi, avtoreferatlar sistemali katalogi, notalarning alifbo katalogi, geografik kartalar katalogi, chet el adabiyotlarining alifbo va sistemali katalogi, jurnal va gazetalarning alifbo katalogi, noyob nashrlarning alifbo, predmet, mavzuli katalogi, elektron katalog, mamlakatning yig‘ma elektron katalogi. Kutubxona turli yo‘nalishlarda bibliografik mahsulotlar tayyorlaydi va nashr etadi: Ilmiy-yordamchi bibliografik ko‘rsatkichlar — 1927- yil Y.K. Betger boshchiligidagi tuzilgan „Pîñièñü ñTàTüyì â ààçåTå „TópêåñTàíñèå âåäiiñTè“ çà âpâiÿ åå ñóùåñTâiâàièÿ (ñ 28 àïpâëÿ 1870 ã iï 15 âåéàáþÿ 1917 ã) ko‘rsatkichi, Y. K. Betger tuzgan „OéàçåTåëü ñTàTåé è çàìàTìé iï ápôáiëiäè è èñTîpèè Npääíäé Àçèè“ va shu kabi sohalarga oid ko‘rsatkichlar, O. V. Maslova bilan tuzgan „OéàçåTåëü ê æópiäéó „Íäpäiñâ õiçyéñTâi Npääíäé Àçèè: 1924 — 1930 åä“, V. S. Aleksandrova boshchiligidagi „JàTåpèäëü äëý óéàçåTåëý NpääíäàçèàTñéèö iápérëè-åñéèö èçäàíèè ià pónñéññ ýçûêå 1917 — 1934 åä“, A. A. Aseyev va M. Latipovalar tuzgan „O‘zbekiston vaqtli matbuoti. 1917 — 1939- yy“, A. A. Semyonov tuzgan „JàTåpèäëü ê áèáëëíäpàòè-åñéññ öéàçåTåëþ iä-àTüñö iþièçäääáíèè Åèèøäpà Íàâiè è eëTåpåTópü i íai“, Y. K. Betger tuzgan „Ñûpüäåññ pâñópñû ÓçáâèèñTåiá“ va „TópêåñTàíñèàÿ ñTpáià“ kabi va keyingi yillarda tuzilgan qator ko‘rsatkichlarni ko‘rsatish mumkin. Kundalik ilmiy-yordamchi ko‘rsatkichlardan „O‘zbekiston“, „O‘zbekiston jahon matbuotida“, „ÊóëüTópå è èñéóññTâi ÓçáâèèñTåiá“ axborot bulleteni, 1977- yil tashkil etilgan „Madaniyat va san’at ilmiy-axborot bo‘limi“ „O‘zbekiston madaniyati va san’ati“ qo‘llanmasi o‘rniga oylik „O‘zbekiston madaniyati va san’ati haqidagi yangi adabiyotlar“ qo‘llanmasi chiqqan. Retrospektiv ilmiy-yordamchi ko‘rsatkichlardan N. A. Burov boshchiligidagi „Turkistonning inqilobgacha bo‘lgan matbuoti. 1868 — 1878- yil“, M. P. Avsharova tuzgan „Turkistonda rus vaqtli matbuot nashrlari. 1870 — 1917- yy“, „O‘zbekiston tarixi“, „O‘zbek adabiyoti“, 1968- yil Navoiyning 525 yilligi munosabati bilan nashr etilgan rus va o‘zbek tillaridagi „Alisher Navoiy“ 158 ko‘rsatkichlari, 1991- yil 550 yillik yubiley munosabati bilan uning davomi sifatida Z. Berdiyeva va A. Turopovalar tuzgan rus va o‘zbek tillaridagi nashri (o‘zbek tilidagisi nashr etilgan va rus tilidagisi nashr etilmay mashinka yozuvda qolib ketgan), boshqa ko‘pgina mashhur kishilarga oid bibliografiyalar nashr etilgan. Tavsiya bibliografik ko‘rsatkichlardan turli yillarda O‘zbekiston tashkil topganining yirik sanalari munosabati bilan ko‘rsatkichlar, „O‘zbekiston shaharlari“, „O‘zbek xotin-qizlarining o‘tmishi va hozirgi kuni“, M.P. Avsharovaning „Siz O‘zbekistonni bilasizmi?“, 1965- yildan nashr etiladigan „O‘zbekistonning muhim va unutilmas voqealar kalendari“, 1991- yilgacha „ÄåýTåëè ÓçáâèèñTåiá — ÈäópåàTû ÄññöääpñTåäññüö iþièè“ keyingi 10 yilda davring dolzarb mavzulari, milliy qadriyatlarimiz, buyuk kishilarimizga oid ko‘plab uslubiy-bibliografik tavsiyanomalarini tuzishda va ularga muharrirlik qilishda H. Mamatraimova, M. Matmurodova, T. S. Yegorova, F. Ro‘ziyeva, O. Qilichboyevlar katta xizmat qilmoqdalar. O‘zbekiston bibliografiyasi tarixi, ularning tahlili M. M. Turopovning 1983- yil rus tilida nashrdan chiqqan „O‘zbekistonda bibliografiya ishining rivojlanishi“ monografiyasida to‘la berilgan. Undan keyingi davr rivoji haqida hali yaxlit tahliliy ish yo‘q, ammo 2001- yil M. M. Turopov rahbarligida TDMIning bitiruvchisi M. Ahmedovaning „Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat kutubxonasing bibliografik faoliyati“ nomli bitiruv malakaviy ishida ancha keng yoritilgan. Oliy o‘quv yurtlari kutubxonalarining bibliografik faoliyati Oliy o‘quv yurti kutubxonalari bilimlarning asosiy manbasi va saqlovchi xazinasi bo‘lib kelgan. Ular „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“ va „Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonunda belgilab berilgan bilimli, malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Davlatimiz rahbarlarining va yuqori tashkilotlarning barcha hujjatlari, milliy istiqlol g‘oyasiga oid adabiyotlar shu kutubxona orqali targ‘ib qilinadi va o‘rgatiladi. Davlatimizning ichki va tashqi siyosatiga oid barcha materiallar yuzasidan tavsiya ro‘yxatlari, bibliografik sharhlar, kartotekalar shu kutubxonalarda tuziladi. Dunyo axborot olamiga kirib borish uchun shart-sharoitlar, internetdan va elektron

pochtadan foydalanish imkoniyati ham shu kutubxonalarda yaratilgan. Toshkent shahridagi ko‘plab oliv o‘quv yurti kutubxonalarida 159 IRBIS tizimida elektron kataloglar yaratilmoqda. Elektron kutubxonalar, virtual kutubxonalar yaratish bosqichiga o‘tila boshlandi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti, Toshkent davlat madaniyat instituti, Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti kutubxonalari bu jihatdan ancha oldinda. Elektron katalog yordamida kitobxonlarning mavzuli va faktik so‘roqlari juda tez muddatda bajariladi. Yangi kiritilgan adabiyotlarning bibliografik yozuvlari asosida axborot bulletenlari tayyorlanmoqda. Toshkent davlat pediatriya instituti Asosiy kutubxonasida „OITS — tarix va muammolar“, „Virusli gepatit. Klinika va davolash“, Toshkent agrar universiteti kutubxonasida „Qishloq xo‘jaligiga oid bibliografik ko‘rsatkich“ (1990 — 1998- yy.)“ nomli retrospektiv ko‘rsatkich tuzilgan. Bu kutubxonalarda bibliografik bilimlarni targ‘ib qilish, yoshlarga axborot olamiga kira olish, o‘ziga zarur adabiyotlarni qidirish, tahlil qilish, undan unumli foydalanish yo‘llarini o‘rgatish, bibliografik axborot manbalaridan unumli foydalanishni o‘rgatishni tashkil etish muhim vazifalardan biri. Chunki talaba ilmiy-tadqiqot ishlari boshida turgan bo‘lajak ilmiy xodim, aspirant, fan nomzodi yoki professordir. Demak, shu yillardanoq bunday bilimlarni egallash va malakaga ega bo‘lish fan va texnika taraqqiyotini belgilab beruvchi omillardan. O‘zbekiston Milliy universiteti kutubxonasi tomonidan 1- bosqich talabalariga kutubxonashunoslik-bibliografik bilimlarni targ‘ib qilish maqsadida 36 soatdan 45 soatgacha darslar o‘tiladi. Darsda an’anaviy bilimlar bilan birgalikda elektron katalogdan, elektron kutubxonadan, internet tizimidan va elektron pochtadan foydalanish yo‘llari haqida ham mashg‘ulotlar o‘tiladi. Bunday mashg‘ulotlar Toshkent irrigatsiya instituti, Toshkent agrar universiteti, Toshkent texnika universiteti kutubxonalari tomonidan ham tashkil etilgan. Chunki yoshlarimizning ko‘pchiligidagi axborot va kitobxonlik madaniyati shakllanmagan. Uni shakllantirish va tarbiyalash oliv o‘quv yurti kutubxonalari zimmasiga oshiqcha bo‘lsa-da, mas‘uliyat yuklaydi. TDIU kutubxonasida bibliografik faoliyat ancha yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, bo‘limning maqsadi kitobxonlarning bibliografik axborotga bo‘lgan talablarini bajarish, ularga bibliografik ma’lumotlarni vaqtida yetkazib berish, kutubxona-bibliografik bilimlarni targ‘ib qilish, universitet olimlarining va iqtisodiyot sohasiga oid adabiyotlarning bibliografiyasini tuzishdan iborat. Bu 160 ishni ma’lumot-bibliografiya bo‘limi bilan axborot markazi bajaradi. Bundan tashqari, o‘quv jarayonini bibliografik ko‘rsatkichlar, adabiyotlarning tavsiya ro‘yxatlari bilan ta’minlash, mavzuli, manzilli va boshqa bibliografik so‘roqlarni bajarish, sharhlar, kitob ko‘rgazmalari tashkil etish, kutubxonachilik darslarini o‘tishda ishtirok etadi. „Kafedra kunlari“, „Mutaxassis kunlari“, „Axborot kunlari“ni o‘tkazadi va muntazam SBAni to‘ldirib boradi. Unga ma’lumotnomalar nashrlar va bibliografik qo‘llanmalar fondi, katalog va kartotekalar tizimi, bajarilgan mavzuli ma’lumotlar arxivleri kiradi. Umumiy fond uchun bosh katalog, bo‘limlar uchun alohida katalog, „Vaqtli matbuot kartotekasi“, alifbo va sistemali katalog va elektron katalog tashkil etilgan. Kartotekalar orasida 1949- yildan olib borilayotgan universitet o‘qituvchilarini ilmiy ishlari kartotekasi muhim ahamiyatga ega. Kartoteka doimiy ravishda to‘ldirib boriladi. Hujjatlar mualliflarning familiyasi alifbosi tartibida, kartochkalar teskari xronologik tartibda joylashtirilgan. Yangi kelgan adabiyotlar kartotekasi ham tashkil etilgan. Ma’lumotlar UDK — Umumiy o‘nlik klassifikatsiyaga ko‘ra joylashtirilgan. „TDIU tomonidan 1992 — 1996- yillarda nashr qilingan o‘quv adabiyotlari bibliografiyasi“ tuzilgan va davom etmoqda. Turli dolzarb mavzularga oid kartotekalar ham tashkil etilgan. „Kitob va vaqtli matbuot yig‘ma katalogi“da o‘zbek va rus tillaridagi kitoblar, vaqtli matbuot bilan birga chet ellardan olingan barcha hujjatlar aks etgan bo‘lib, ish 1953- yili boshlangan. Hozirgacha uning 5 qismi nashrdan chiqqan. Katalogning 4- qismiga Yevropa mamlakatlari tomonidan sovg‘a qilingan iqtisodiyotga oid adabiyotlar kiritilgan bo‘lsa, 5- qismida Amerikaning SABRE fondi va O‘zbekistondagi Fransiya vakolatxonasi 1991 — 1995- yillarda sovg‘a qilgan adabiyotlar kiritilgan. „Yig‘ma katalog“ 30 — 40 nusxada nashr qilinadi. Rahbar xodimlarga axborotni tanlab tarqatish tizimida xizmat ko‘rsatiladi. 1990 — 1993- yillar respublikamizdagisi ko‘pgina institutlar universitetlarga aylantirilgandan so‘ng, ulardagisi kutubxonalar faoliyati jonlandi. Ularning Nizomiga ko‘ra, kutubxonalarda bibliografiya bo‘limlari tashkil etildi va dastlabki vazifasi ma’lumotnomalar

bibliografiya apparatini tashkil etishdan iborat bo‘ldi. Ma’lumot-bibliografiya apparati fondi oldindan mavjud bo‘lgan ensiklopediyalar, lug‘atlar, spravochniklar, bibliografik qo‘llanma va ko‘rsatkichlar bilan birgalikda institut kutubxonasi tayyorlayotgan bibliografik ma’lumotlar bilan ham boyitib boriladi. Masalan, 161 Toshkent davlat madaniyat instituti tashkil topganiga 30 yil to‘lishi munosabati bilan institut professor-o‘qituvchilari asarlari ro‘yxati kafedralar bo‘yicha alohida-alohida ko‘rsatkich ko‘rinishida tayyorlangan O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan chiqarilayotgan barcha turdagи bibliografik ro‘yxatlar, ko‘rsatkichlar, uslubiy-bibliografik qo‘llanmalar ham 2 nusxdan, xorijda va respublikamizda nashr etiladigan sohaga oid „Biblioteka“, „Bibliografiya“, „ÄæáëèïTæéïäääíèå“, „Äæáëèïäpaôïäääíèå“, „Ièp äæáëèïäpaôëè“, „Kitob dunyosi“ va boshqa vaqtli matbuot nashrlari ham to‘plangan edi. 2- asosiy yo‘nalish — axborot-bibliografik xizmat ko‘rsatish. Kutubxonalar IRBIS tizimidan, an’anaviy katalog va kartotekalardan, SBAdan foydalangan holda ishni tashkil etdilar. Kafedralar yo‘nalishiga ko‘ra axborot va mutaxassis kunlari, bibliografik sharhlar o‘tkaziladi. Sharhlarni institut, fakultetlar ilmiy kengashlarida ham o‘tkazib borilsa, yaxshi samara beradi. Barcha kutubxonalar hozirgi kunda barkamol avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutganligi tufayli ham faoliyatining barcha tomonlarini o‘z vaqtida va tezkorlik bilan turli xil axborotlar olamidan har bir iste’molchi uchun zarurini topib berish maqsadida axborotbibliografiya ishini mukammal tashkil etishlari lozim.

Nazorat savollari.

1. Kutubxonalarda bibliografiyaning vazifalari nimalardan iborat?
2. Axborot markazi nima?
3. Axborotni tahlil qilish markazi haqida to‘xtaling.
4. Axborot-almashuv markazi nima?
5. Bibliografiya markazi faoliyati nimalardan iborat?
6. Navoiy nomli kutubxonanining MBA ni gapirib bering.
7. Navoiy kutubxonasi tomonidan nashr etilgan ilmiy-yordamchi ko‘rsatkichlar haqida gapiring.
8. Kutubxonaning boshqa bibliografik faoliyati turlarini aytинг.
9. Oliy o‘quv yurtlari kutubxonalarining bibliografik faoliyati nimalardan iborat?

30-mavzu: Kutubxonalarning ma’lumot — bibliografiya apparati (MBA)

Reja:

1. MBA haqida umumiyl tushuncha. bibliografik axborot uchun zarur manbalar haqida.
2. Ma’lumot-bibliografiya apparati, uning tarkibi, tashkil etish qoidalari haqida ma’lumot berish.
3. Asosiy tushunchalar-ma’lumot-bibliogarfiya apparati, kutubxona kataloglari tizimi, kartotekalar tizimi, ma’lumot bibliografiya fondi.

Tayanch iboralar.

Bibliografik axborot uchun zarur manbalar haqida, ma’lumot-bibliografiya apparati, uning tarkibi, tashkil etish qoidalari haqida ma’lumot berish. Ma’lumot-bibliogarfiya apparati, kutubxona kataloglari tizimi, kartotekalar tizimi, ma’lumotbibliografiya fondi. MBA haqida umumiyl tushuncha.

MBA kutubxona hujjatlari fondini har tomonlama ochib berish, aks ettirishga mo‘ljallangan, o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq yoki bir-birini to‘ldirib boruvchi, kitobxonlarni zarur axborot bilan ta’minalashga qaratilgan va kasbiy kutubxona-bibliografik faoliyatni tashkil etishni o‘z ichiga oluvchi kompleksdir. MBAning sifati kutubxonachilik ishining, ayniqsa, bibliografiya ishining qanday tashkil etilganiga bog‘liq. Hozircha hamma kutubxonalar (ayniqsa, tuman va qishloq kutubxonalar) zamonaviy axborot texnologiyalari bilan to‘liq ta’milanmagan. Demak, hali ancha vaqt zamonaviy MBA bilan bir qatorda an’anaviy MBA tashkil etish va undan foydalanish davom etadi. MBAning tarkibi, xususiyatlari, tuzilishi kutubxona xususiyatidan va maqomidan, kutubxona fondi, kitobxonlar so‘roqlarining mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Universal kutubxonalarda MBA hamma bilim sohasi bo‘yicha tashkil etiladi va turli

kitobxonlarga ular haqida axborot beradi. An'anaviy MBA quyidagi 3 qismdan iborat: — aynan shu kutubxona uchun mos va zarur kutubxona kataloglari tizimi; — kartotekalar tizimi; — ma'lumot-bibliografiya fondi (MBF). Kitobxonlar tomonidan berilayotgan turli xil so'rovlarni bajaruvchi kutubxonalarda mohiyatiga ko'ra nashr etilmagan bibliografik ma'lumotnomalardan iborat bajarilgan talablar fondi tashkil etiladi va yuritiladi. Kataloglar tizimi alifbo, sistemali va predmet katalogidan tashkil topadi. Yana yirik va markaziy kutubxonalarda o'lkashunoslik katalogi ham yuritiladi. Kutubxona fondi mazmunidan va xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa turdag'i kataloglar ham tashkil etiladi. Masalan, notali nashrlar katalogi, me'yoriy-texnik hujjatlar katalogi, musiqali audiomateriallar katalogi, CD-ROMlar katalogi va boshqalar. Bu kataloglar turli yo'nalişda kutubxona fondini yoritib berish, uni targ'ib etish, tavsiya etish va axborot berish vazifasini bajaradi. MBA tarkibida kartotekalar muhim ahamiyatga ega. Unda kutubxona fondidan tashqarida ham mavjud bo'lgan juda katta 163 mazmunda axborot to'planadi. Kartoteka turlari ham kutubxona xususiyatidan, kitobxonlar guruhlarining tarkibidan kelib chiqib tanlanadi. Ko'proq quyidagi kartotekalar tashkil etiladi: — umumi yoki universal bibliografik kartotekalar: maqlolarning sistemali katalogi yoki Bosh ma'lumot kartotekasi (BMK) yoki Bosh axborot kartotekasi (BAK); — mavzuli kartotekalar; — o'lkashunoslik kartotekasi; — maxsus kartotekalar (badiiy asarlar sarlavhalarining kartotekasi, taqrizlar, shaxslarga oid, tasviri san'at asarlari kartotekasi va boshqalar). Kichik kutubxonalarda, asosan, alifbo va sistemali katalog, mavzuli kartotekalar tashkil qilingan. Viloyat axborot-kutubxona markazlarida alifbo, sistemali, o'lkashunoslik kartotekasi, badiiy asarlar sarlavhalari kartotekasi va mavzuli kartotekalar mavjud. Oliy o'quv yurti kutubxonalarida ham, asosan, alifbo va sistemali, predmet kataloglari va mavzuli kartotekalar tashkil etiladi. Musiqa bo'limlari mavjud kutubxonalarda qo'shiqlar kartotekasi, izonashrlar kartotekasi, nashr etilmagan asarlar kartotekalari, xorijiy tillarda nashr qilingan asarlar yoki o'zbek mualliflari asarlari kartotekasi, madaniyat va san'at masalalari bo'yicha kartotekalar tashkil etilgan. Kartotekalar tizimi gazeta, jurnal va to'plamlar, davomli va davriy nashrlar, ayrim nodavriy nashrlar mazmunini ochib berishga, ayrim mavzular va muammolar, o'lka hayoti, asarlarning alohida janrlari va turlari haqida ma'lumot berishga qaratiladi. Dunyo miqyosida to'la axborot to'plash va saqlash uchun kutubxonalarda tashkil etilayotgan katalog va kartotekalar muntazam to'ldirib borilishi, bir-birini to'ldirishi, o'zaro bog'liq bo'lishi talab etiladi. Bu yagona yo'naltirish tizimi yoki alifbolipredmet ko'rsatkichi yordamida amalga oshiriladi. Alifbo-predmet ko'rsatkich (APK) muntazam ravishda yangi tushunchalar, shaxsga oid rubrikalar bilan to'ldirib boriladi. Bu uning sifatini oshiradi, axborotni qidirish, to'la ma'lumotga ega bo'lish, katalog va kartotekalar tizimidan unumli foydalanishning samarasini oshiradi. An'anaviy katalog va kartotekalar tizimi kutubxona MBAning bir qismi bo'lib, o'zida rejali tashkil etilgan, o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi kartochkali katalog va kartotekalarni aks ettiradi. Katalog va kartotekalarning bir-biridan farqi shundaki, 164 katalog aynan olingan kutubxona fondini to'la aks ettiradi. Kartoteka shu fonddan olingan maqsadga qaratilgan, tuzilayotgan kartotekaning yo'nalişiga mos bo'lgan qisminigina aks ettiradi. Bundan tashqari, kartotekalar kutubxonada mavjud bo'lmagan, ammo olingan mavzu bo'yicha boshqa manbalarda ham mavjud bo'lgan materiallarni (avval fonddan chiqarilganlarni ham) aks ettiradi. Kartotekalar kataloglarni to'ldiradi, kitobxonlarga alohida nashr etilmagan materiallar haqida ma'lumot beradi. Kartotekalar tizimiga quyidagilar kiradi: — umumi bibliografik kartoteka; — o'lkashunoslik, agar shunday katalog mavjud bo'lmasa; — mavzuli; — uslubiy va bibliografik hujjatlar kartotekasi; — badiiy asarlar sarlavhalarining kartotekasi. Bunday kartotekalar bolalar va o'smirlar kutubxonalarida, maxsus kutubxonalarda tashkil etiladi. Shuningdek, ko'pgina kutubxonalar yangi adabiyotlar kartotekasi va boshqa mazmundagi kartoteklarni ham tashkil etadi. Sistemali katalog bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Zamonaviy MBA an'anaviy va elektron shakldagi ma'lumotlar bazasi va bankidan iborat tizim. Elektron shakldagi MBA kutubxonadan tashqariga, butun mamlakat va xorijiy mamlakatlar apparatiga axborot talabi bilan kirish imkonini beradi. Zamonaviy MBAga quyidagilar kiradi: — kutubxona kataloglari tizimi: an'anaviy va elektron katalog; — bibliografik kartotekalar tizimi: ma'lumotlar bazasi va banki; — bibliografik va

axborot nashrlari; — bajarilgan so‘roqlar fondi; — ma’lumotnomalar nashrlar fondi; — faktografik qidiruv tizimi; — yagona alifbo-predmet ko‘rsatkichi va MBA. Elektron katalog bilan bir qatorda an’anaviy kataloglar tuzish davom etmoqda, chunki ularning har biri o‘z vazifasiga ega. An’anaviy katalog kutubxona tashkil etilgandan beri tashkil etilayotgan bo‘lsa va shu davr ichidagi fondni aks ettirsa, elektron kataloglar deyarli barcha kutubxonalarda 1994- yildan beri yoki elektron katalog uchun dastur olingan yildan boshlab tashkil etilmoqda. U kutubxonalararo va xalqaro miqyosda axborot almashuv imkonini beradi. 165 Kartotekalar tizimida ham elektron ma’lumotlar bazasi paydo bo‘la boshladi. Undagi bibliografik yozuvlar ma’lum bir yildan boshlab tanlangan vaqtli matbuot nashrlari va to‘plamlardan olingan hujjatlarga beriladi. Rossiya kutubxonalarini hududiy doirada bir necha kutubxonalar birgalikda „O‘lka“ nomi bilan yig‘ma kartoteka ham tashkil etmoqda. Unda viloyat, shahar, tuman haqidagi hujjatlar aks etgan, bu keyinchalik bosma ko‘rinishdagi o‘lkashunoslik qo‘llanmasini nashrdan chiqarishga olib keladi. Ba’zi kutubxonalar birgalikda umumiylar kartotekani korporativ asosda tashkil etganlar. Ular o‘zlari obuna bo‘lgan yoki ishlayotgan vaqtli matbuot nashrlarini qamrab oladi. Kitobxonlar ko‘p murojaat qiladigan mavzular va masalalarga oid kartotekalar ma’lumotlar bazasiga kiritiladi. Masalan, „Tabiatni asrang: o‘lkaning ekologik muammolari“, „Tadbirkorga yordam“, „Ta’lim muammolari“, „Madaniyat va san’atning muhim masalalari“ va hokazo. Keyingi paytda respublikamizda 27 dan ortiq huquqiy axborot markazlari tashkil etilgan. Shu kutubxonalar hududlar xususiyatidan kelib chiqib birgalikda „Inson va qonun“, „Qonunni o‘rganamiz“, „O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi“, „Demokratik jamiyat sari“ kabi ma’lumotlar bazasini yaratishlari va almashishlari mumkin. „Obuna“ nomli ma’lumotlar bazasida kutubxona obuna bo‘lgan vaqtli va davomli nashrlar haqidagi ma’lumotlar to‘planadi. MBA ni tashkil etish, o‘rganish Kutubxonalar uchun MBA ni to‘ldirish, o‘rganish va joylashtirish muammosi doimo muhim masalaga aylanib kelgan. Katalog va kartotekalarni tashkil etishda bosma kartochkalar muhim ahamiyatga ega. Keyingi 15 — 16 yil davomida bunday kartochkalar nashr etilmay qo‘ydi. Shuning uchun har bir kutubxona o‘z bilganicha kartochkalarda bibliografik yozuvlarni olib bormoqda. Bu esa kutubxonachilik va bibliografik ishlardagi qonun-qoidalarning buzilishiga, ayniqsa, sistemali katalog uchun ma’lumotlarni berishda xatoliklarga sabab bo‘lmoqda. Shifr indeksi bir nomdagi kitobga turli kutubxonalarda turlicha beriladi, bu bibliografik so‘roqlarni bajarishda ham murakkabliklarga olib keladi. MBF ni ma’lumotnomalar bilan to‘ldirishda, kitobxonlar so‘rog‘idagi, o‘zgarishlar e’tiborga olinadi. Bu o‘zgarishlar ishga oid faktografik so‘roqlar ko‘- rinishida bo‘lishi mumkin. Bu kutubxonalarga savdo-sanoat 166 kataloglarini, biznes-ma’lumotnomalarini, prays-varaqalar, reklama-bukletlari va ko‘rgazmalarining va turli yo‘nalishdagi yoymalar kataloglarining tezda muomaladan chiqib qolishiga qaramasdan o‘z fondlarini to‘ldirib borishni taqozo qiladi. Ikkinchidan, keyingi yillarda turli xil mazmundagi va yo‘nalishdagi CD-ROMlar ko‘payib bormoqda, bular — mamlakatimiz hayotiga oid va o‘zimizda, qo‘shti mamlakatlarda va xorijda tayyorlangan hujjatlar. Bibliografik qo‘llanmalar keyingi yillarda mamlakatimizda deyarli nashr etilmayapti, nashr etilsa ham 200 — 300 nusxada, buning ustiga juda qimmat. Demak, tijorat asosida kutubxonalarning bibliografik faoliyatini kengaytirish zarurati tug‘iladi. MBA ni o‘rganish uning har bir qismi va unga kiruvchi har bir elementning ta’sirini, samarasini, ahamiyatini tahlil qilib borish uchun kerak. Bu narsa ular fondga kelib tushishi bilanoq amalga oshadi, o‘z navbatida ular doimo yangilanib, yaroqsiz holga, mazmunan eskirgan paytda fonddan chiqarishga moslarini aniqlashda kerak. MBA ni joylashtirish muhim masala. Uni kitobxonga qulay bo‘lgan joyga, xonaga joylashtirish zarur. Imkonibor kutubxonalarda bu apparat yaxlit holda alohida xonada joylashtiriladi va alohida bo‘lim sifatida tashkil etiladi. Boshqa bir hollarda axborot zali sifatida katalog va kartotekalar alohida xonada joylashtiriladi, bunda kitobxon va kutubxonachi, bibliograf uchun ishlash qulay bo‘ladi. Katalog va kartotekalarning, ma’lumotlar bazasi yoki bankining ma’lumotlari alohida olib qaraganda majburiy hujjat-pasportda aks etadi. Bu shu hujjatlar soni oshib borgan sayin ularni almashtirish, sotish, internetga joylashtirish, zarur ma’lumotlarni qidirib topishda qiyinchilik tug‘ilgan hollarda yordam beradi. Pasportda katalog yoki kartotekanining nomi, mavzusi, tashkil etilgan yili, komplektlash manbasi, xronologik

chegarasi, hajmi, yillik o'sishi, muntazamliligi, yangi ma'lumotlar bilan to'ldirib borish muddati, hujjatlarning turlari, bibliografik yozuvlarning tarkibi, tuzilishi yoki sxemasi, yordamchi apparatlari, javobgar shaxsnинг ismi, nasabi ko'rsatiladi. Zamonaviy MBA muntazamlilik, ishonchlilik, iqtisodiy tejamkorlik kabi sifatlarga ega bo'lishi va rejali, ijodiy, muntazam tashkil etib borilishi zarur. MBA ishini tashkil etishda ishtirok etuvchi maxsus bo'limning bibliograflari yoki xodimlari axborotni to'la yig'ishga va saqlashga mas'uldir. Shundagina iste'molchilarga xizmat ko'rsatish jarayonida tashqi axborot resurslaridan o'z vaqtida va maksimal darajada 167 foydalanish imkoniy paydo bo'ladi. Har bir bo'lim o'zining axborot vazifasini bajaradi va bir-birini takrorlashga yo'l qo'ymasligi kerak. Yangi texnologiya bilan ishslash jarayonida, dasturlarni qo'llashda har bir kutubxona axborotlarning to'la bo'lishiga, ulardan unumli va samarali foydalanishga, ayniqsa, dasturlarni qo'llashga mas'uliyat bilan yondashishlari talab etiladi. Ma'lumot-bibliografiya fondi (MBF) Kutubxonaning MBF an'anaviy ma'lumot-bibliografiya apparatining bir qismi bo'lib, o'zida kutubxona-bibliografik faoliyatining hamma jarayonlarini olib borish uchun zarur bo'lgan va turlituman axborotni o'zida to'plagan nashrlar va materiallardan iborat. MBFga kutubxona fondidan quyidagi materiallar ajratib olinadi: — rasmiy va nodavriy nashrlar — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion Sudining materiallari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Axborotnomasi, kutubxonachilik ishiga oid Davlat va hukumatimiz qarorlari, Prezident Farmonlari, buyruqlari aks etgan to'plamlar; — kitob ichi va kitobdagи bibliografiyalarga ega bo'lgan ayrim ilmiy nashrlar; — ijtimoiy sohaga oid o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari; — biror bilim sohasiga oid yangi axborotga ega bo'lgan ilmiyommabop nashrlar, masala yoki muammoga oid qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati; — ma'lumotnomalar nashrlar — qomusnomalar (ensiklopediya), qomusiy lug'atlar, ma'lumotnomalar (spravochnik), lug'atlar, yo'l ko'rsatkichlar; — hududdagi yirik axborot markazlarining axborot va bibliografik nashrlari, ilmiy-yordamchi, kasbiy-ishlab chiqarishga oid, nashriyot va kitob savdosi, o'lkashunoslik, tavsiyaviy va ommabop ko'rsatkichlar; — kutubxonachilik va bibliografik xizmat ko'rsatishni tashkil etish haqidagi va boshqa maxsus masalalarga oid amaliy va uslubiy nashrlar; — kutubxonachilik ishi, bibliografiya ishi va kitob ishiga, axborot xizmati ko'rsatishga oid gazeta va jurnallar (masalan, 168 „Biblioteka“, „Bibliografiya“, „Lèp áèáëëäpàôèè“, „O'zbekiston matbuoti“, „Kitob dunyosi“, „Íàó÷íûå è Tâõíè÷âñêèå áèáëëiTâèè“, „ÈíôîpiàTèèà è ïápàçïâàíèå“ va boshqalar), ularda axborot bilan birgalikda qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati ham berib boriladi; — bajarilgan ma'lumotlar fondi ham MBAning bir qismi va o'zida bir qancha mavzulara oid bajarilgan yozma bibliografik so'roqlarni aks ettiradi. Unda so'ralgan murakkab mazmundagi, alohida bibliografik qidirish va tahlilini talab qilgan savolga yoki masalaga oid bajarilgan javobning nusxasi saqlanadi, bundan tashqari, dolzarb hamda muntazam so'ralishi mumkin bo'lgan siyosiy va ilmiy mazmundagi so'roqlarning javobi ham to'planadi. Bu materiallar nafaqat shu kutubxona, balki boshqa kutubxonalarining kitobxonlari uchun ham zarur bo'lib qolishi mumkin. Bajarilgan ma'lumotlar arxivini yoki fondi xizmat xarakteriga ega, u turli kutubxonalarda turlicha tashkil etiladi. Ba'zi kutubxonalar bilim sohalari yoki mavzular bo'yicha katalog yashiklarida saqlasa, ayrim kutubxonalar alohida hujjatlar saqlanuvchi jiddalarda (papka) yoki konvertlarda saqlaydi. Bu fonddan foydalanishni osonlashtirish uchun kartochkalar ko'rinishida alifbo-predmet ko'rsatkichi tuziladi, unda mavzusi, so'roqning maqsadi, predmet rubrikasi, so'roqning tartib raqami, uning bajarilgan vaqtini ko'rsatiladi. Kitobxonning talabiga ko'ra axborotlashgan kutubxona kataloglarini, bibliografik qo'llanma va ko'rsatkichlarning elektron shakllarini ham to'plab borish hozirgi kun talabi bo'lib qoldi. MBF kutubxona fondining bir qismi bo'lib, o'ziga xos xususiyatga va ahamiyatga egaligi uchun alohida bo'lim sifatida tashkil etilgan xonada yoki axborot bibliografiya bo'limida joylashtiriladi.

Nazorat savollari.

1. An'anaviy MBAning xususiyatlari nimada?
2. MBAning tarkibiy qismlarini ayting.
3. MBA va uning xususiyatlari haqida to'xtaling.

4. Katalog va kartotekalar tizimi haqida nimalarni bilasiz?
5. Avtomatlashgan MBAning xususiyatlarini gapiring.
6. Bajarilgan ma'lumotlar fondining vazifasi va ahamiyatini ayting.
7. MBAga qanday talablar qo'yiladi?

31-mavzu: Kutubxonalarda bibliografiya ishini tashkil etish.

Reja:

1. Bibliografik qo'llanmalarni tuzishning umumiy metodikasi.
2. Bosma nashrlarni va bibliografik qo'llanmalarni o'rganish metodikasi.
3. Bibliografik kartotekalarni tuzish.
4. Kutubxonalarda, axborot-kutubxona markazlarida bibliografik qo'llanmalar bilan ishslash, ularni tuzish, ularning turlari va xususiyatlarini o'rgatish.

Tayanch iboralar.

Kutubxonalarda, axborot-kutubxona markazlarida bibliografik qo'llanmalar bilan ishslash, ularni tuzish, ularning turlari va xususiyatlarini o'rgatish. Metodika, o'lkashunoslik kartotekasi, qo'llanmani tuzish dasturi. Bibliografik qo'llanmalarni tuzishning umumiy metodikasi.

Yirik axborot-kutubxona markazlari tomonidan bibliografik qo'llanmalar nashr etishning va tarqatishning keskin darajada kamayib ketganligi, aniq kitobxonlar guruhiga mo'ljallangan qo'llanmalarining kamligi, tor mavzuga oid maxsus bibliografik qo'llanmalarining tuzilmay qo'yilganligi va boshqa moddiy-iqtisodiy qiyinchiliklar sababli ko'pgina kutubxonalar tayyor bibliografik qo'llanmalardan foydalanish bilan birga o'zlarini ham bibliografik qo'llanmalar va ko'rsatkichlar tuzadilar. Kichik kutubxonalar, asosan, tavsiyaviy bibliografik qo'llanmalar va ko'rsatkichlarni tuzadi hamda tarqatadi. Ularning maqsadi kitobxonlarga mustaqil bilim olishda yordam berish, axborotga bo'lgan talabini qondirish, kitobxonlarga professional bilim olishda, uni oshirib borishda, qayta malaka oshirishda yordam berishdan iborat. Bu ishni amalga oshirish uchun ular bibliografiyalash qoidalari va texnologiyasini bilishlari zarur. Bibliografik qo'llanmalarni tuzish dasturini ishlab chiqish bosqichining maqsadi — kitobxonlik guruhini aniqlashdan iborat. Bunda quyidagi vazifalar bajariladi: mavzuni tanlash va o'rganish; shunga oid adabiyotlarning fonda mavjudligini aniqlash; bibliografik tanlashning mezonlarini aniqlash (nashr turlari, ularning to'liqligi, mavzuli va xronologik chegarasi); bibliografik qo'llanmaning turi va janrini belgilash. Qo'llanmaning mavzusi turli xil aspektlarda o'rganiladi: uning dolzarbli, yangiligi, unga kitobxonlar qiziqishi va munosabati, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, kutubxona imkoniyatiga muvofiqligi. Tuzuvchilar masalaning mohiyatini to'la anglab olishlari uchun kitoblarga, jurnal va gazetalarga, mavzuga oid turli xil to'plamlarga murojaat qildilar. Muntazam ravishda shu sohaga oid olimlarning, mutaxassislarning asarlarini o'rganib 170 borishlari zarur. Bu esa mavzuni to'g'ri va to'la ochib berishga, har qanday hujjatni to'g'ri tavsiya qilishga olib keladi. Mavzu o'rganib chiqilgandan so'ng qo'llanmaning rejasi ishlab chiqiladi. Bunda tayyorlash jarayoni, bo'limlari, har bir bo'limda material berishning tartibi, hujjatlarni joylashtirish prinsiplari, yordamchi apparatlar, ularning tartibi, foydalanish uchun manbalar ko'rsatiladi. Matbuot asarlarini aniqlash va bibliografik qidirish bosqichining vazifasi — tanlangan mavzuga oid adabiyotlarning (agar u vaqtincha mavjud bo'lmasa, bibliografik yozuvlarning) kutubxonada mavjudligini aniqlashdan iborat. Agar mavjud bo'lmasa uning sababi o'rganiladi. Tuzuvchi mavzuga oid ma'lumot beruvchi hamma manbalarni ko'rib chiqadi: kataloglar, kartotekalar, bibliografik ro'yxatlar, boshqa bibliografik nashrlar, ko'rsatkichlar, sharhlar, mutaxassislikka oid jurnallardagi ro'yxatlar va boshqalar. Ulardan kutubxonada mavjud hujjatlarning bibliografik ma'lumotlari tanlab olinadi va mahalliy nashrlar haqidagi ma'lumotlar qo'shiladi. Ba'zan yangi adabiyotlardagi, o'quv qo'llanmalaridagi, ko'p tarmoqli, tarmoqli, mavzuli bibliografik ko'rsatkichlardagi,

„Kitob dunyosi“ gazetasidagi ro‘yxatlar ham ko‘rib chiqiladi va mavzu uchun moslari tanlab qo‘shiladi. Bosma nashrlarni va bibliografik qo‘llanmalarni o‘rganish metodikasi Tajriba shuni ko‘rsatadiki, matbuot asarini mukammal bilmasdan turib, kitobxonlar o‘qishiga rahbarlik qilish, yakka va ommaviy ishlarni olib borish, bunda yordam beradigan bibliografik mahsulotlarni tayyorlash juda qiyin. Bizning kutubxona xodimlarida matbuot asarini tushunish, bilish, tahlil qilish, mustaqil baho berish, bibliografik qo‘llanmalardan mustaqil foydalanish ko‘nikmasi yetarli emas. Shuning uchun, avvalo, kutubxona xodimining o‘qish doirasini kengaytirish muhim vazifa hisoblanadi. N. A. Rubakin o‘zi va begonalar o‘qishi uchun kitob tanlash ham san’atdir, deb ta‘kidlagan edi. Demak, har bir kutubxona xodimi bu san’atni egallagan, adabiyotni yaxshi biladigan, kitobxon bilan ishslash jarayonida nafaqat bibliografik qo‘llanmadagi, balki mavjud kitobni, uning ichidagi bobni, tavsiya eta oladigan darajada bilimga ega bo‘lishi talab etiladi. Bu esa kundalik ish jarayonida amalga oshadi. Kutubxonachi qo‘liga 171 kelgan yangi adabiyotni ko‘rib chiqishi, so‘zboshi, mundarijasi, bibliografik ma’lumotlar, qo‘llanmalar va ma’lumotnomalar, shu nashr haqidagi taqrizlar yordamida kitob haqidagi bilimini oshirib borishi zarur. Zamonaviy kutubxona xodimining o‘qish doirasiga ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar, barcha bilim sohalariga oid ilmiy-ommabop adabiyotlar, kasbiga oid yangi adabiyotlar, badiiy asarlar kirishi kerak. Muntazam ravishda kundalik vaqtli matbuot nashrlarini ham ko‘zdan kechirib borishi zarur. Ish jarayonida kitobxonlar uchun tavsiya qilish mumkin bo‘lgan asarlarni tanlab boradi, u haqda biror-bir tadbir o‘tkazishga, tavsiya ro‘yxatlariga kiritishga, ko‘rsatkichlarini tuzishga tayyorgarlik ko‘radi. Adabiyotlarni ko‘rib chiqish nashrlarning keng doirasini bilan tanishish imkonini beradi. Tezlik bilan kitobning qiymatini aniqlash, uning kitobxonlar qiziqishi va so‘rog‘iga mosligini belgilab olish muhim ahamiyatga ega, shu maqsadda nashrning sarvaraqlari, uning orqa tomoni, ularda berilgan ma’lumotlar o‘rganib chiqiladi. Keyin nashriyot tomonidan berilgan annotatsiya o‘rganiladi, asar matni tezda ko‘zdan kechiriladi, qaysi kitobxonlar guruhiga va qay uslubda yozilgani aniqlanadi. Ilmiy ma’lumot apparatida kitob haqidagi zarur ma’lumotlar beriladi. Mundarija faqatgina asar mavzusi haqida ma’lumot beribgina qolmaydi, balki asar tuzilishi haqida ham ma’lumot beradi, zarur boblarni, mavzularni, bo‘limlarni, paragraflarni qaysi sahifadan topish kerakligini ko‘rsatadi. Yordamchi ko‘rsatkichlar kitobxonni qiziqtirgan masalani qidirishda yordam beradi. So‘zboshi kitobxonni asarda yoritilgan masalalar, muammolar bilan tanishtiradi, asarning yaratilish tarixi, manbalari, boshqa asarlardan farqi, qayta nashr bo‘lsa, avvalgi nashridan farqi, yangiligi haqida ma’lumot beradi. Kirish qismi esa muallifning hayoti, ijod yo‘li haqida ma’lumot beradi, mazmunni tushunishga yordam beradi. So‘nggi so‘z muallif tomonidan yoki muallifni yaqindan bilgan, uning hayoti va ijodini chuqur o‘rgangan tanqidchi, mutaxassis tomonidan yoziladi va asar g‘oyasiga yaqin yoki uning asosiga olingan voqeа va hodisalar, asar qahramonlarining prototiplari, ularning keyingi taqdiri haqida ma’lumot beriladi. Ba’zan nashrlarda izohlar ham beriladi. Ular kitobxonga asar mazmunining murakkab bo‘lgan qismini to‘la tushunishga yordam beradi, yana asarning yaratilish tarixi, asar haqida zamondoshlarning fikrlari, asarda yoritilgan voqeа va hodisalar haqida 172 ma’lumot beriladi. Eslatmalar asarning ayrim joylariga taalluqli aniqlovchi va to‘ldiruvchi, tuzatuvchi ma’lumotlardan iborat. Ular ko‘proq nashriyot tomonidan tuzilib, kitob oxirida yoki sahifaning pastida beriladi. Nashriyot eslatmalari chet el so‘zlarining tarjimasi, fikrlar, asarda nomi keltirilgan shaxs haqida qisqa ma’lumot, muallif hayotiga oid qo‘sishma ma’lumotlardan iborat bo‘ladi. Asar mazmunini yoritishda unda berilgan illustrativ materiallar muhim. Ular turli-tuman bo‘lib, asar g‘oyasiga mazmunan mos, asar g‘oyasini, maqsadini kengroq tushunib olishga yordam beradi, kitobxonning estetik didini tarbiyalaydi, asar reklamasini kuchaytiradi, kitobxonni jalg qiladi, iste’molchida qiziqish uyg‘otadi, asarning qiymatini oshiradi. Kutubxonachi o‘rganib chiqqan asari haqida alohida daftarda yoki kartochkada mulohazalarini yozib borsa, kelgusi ishida yordam beradi. Kutubxona xodimi bibliografik qo‘llanmalar bilan muntazam ishslash zarur. Bu unga shu yo‘nalishda kengroq ma’lumotga, bilimga ega bo‘lishga yordam beradi, bibliografik qo‘llanmalarni

tuzish qoidasi bilan tanishtiradi va o‘rgatadi, kitobxonga adabiyotni to‘g‘ri tavsiya qilishga yordam beradi, kutubxonachilik-bibliografik xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi. Shuning uchun kitobni o‘rganishdan bibliografik qo‘llanmani o‘rganish ancha farq qiladi. Bibliografik qo‘llanmani o‘rganish sarvaraq va so‘zboshi bilan tanishuvdan boshlanadi. Sarvarag‘ida asar nomi, unga taalluqli va to‘ldiruvchi boshqa ma’lumotlar, tashkilot nomi, uni nashr etuvchi ayrim shaxs, tuzuvchi yoki jamoa nomi, chiqish ma’lumotlari beriladi. Ko‘pincha, bibliografik ko‘rsatkich nomi uning mavzusini ochib beradi, sarlavhasi yoki sarlavhaga taalluqli ma’lumotlar maqsadini va tipini yoritib beradi. Ilmiy-yordamchi ko‘rsatkichlarning sarvarag‘ida unda aks etgan adabiyotlarning xronologik chegarasi ko‘rsatiladi. So‘zboshida qo‘llanmaning dasturi yoritiladi. Bunda mavzu asoslanadi, matbuot mahsulotining turi, xarakteri, kitobxonlik guruhi, maqsadi, asosiy bo‘limlari va yordamchi ma’lumotlar beriladi. Kitobxonlik guruhi haqida berilgan ma’lumot muhim. Ba’zida qo‘llanmada kitobxonlik guruhi aniq ko‘rsatilmaydi. Bunda kutubxonachi o‘zi qo‘llanma bilan tanishib, qaysi kitobxonga tavsiya etish kerakligini aniqlab oladi. So‘zboshida yana materiallarni yig‘ish qay davrda tugaganligi haqida ma’lumot beradi. Bu yangi adabiyotlarni tavsiya etish uchun zarur. Mundarija qo‘llanmaning tuzilishi haqida ma’lumot beradi. Asosan, qo‘llanmalar ikki 173 qismidan iborat bo‘ladi: asosiy va yordamchi. Asosiy qismi matbuot asarlarining bibliografik yozuvlaridan tashkil topadi. Ularning joylashtirilishi qo‘llanmaning xarakteriga, maqsadiga, tanlangan adabiyotlarning yo‘nalishiga, kitobxonlar guruhi va mavzuning xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Mavzuli ko‘rsatkichlarda adabiyotlar bir-biriga bog‘liq masalalar bo‘yicha guruhshtiriladi. Shaxslarga oid ko‘rsatkichlarda shaxslar familiyasining alifbosi tartibida yoki hayoti va ijodining xronologiyasi tartibida joylashtiriladi. Mamlakatshunoslik masalalariga oid ko‘rsatkichlarda adabiyotlar mamlakatlar, shahar va tumanlar bo‘yicha joylashtiriladi. Tavsiya ko‘rsatkichlarida bibliografik yozuvlarning mantiqan joylashishini e’tiborga olish kerak. Bibliografik nashrning yordamchi qismi so‘zboshidan, kutubxonachi yoki kitobxonga murojaat qismidan va yordamchi ko‘rsatkichlardan iborat bo‘ladi. Qo‘llanmaning maqsadi va matbuot asarlarining mazmuniga ko‘ra mualliflar, ismlar, geografik, mavzuli, predmet yoki xronologik va badiiy asarlar nomlarining alifboli yordamchi ko‘rsatkichlari beriladi. Ular o‘ziga yarasha yo‘l ko‘rsatkichi bo‘lib, qo‘llanmaning biror qismiga yo‘naltiradi. Masalan, agar qo‘llanmadagi yozuvlar sistemali tartibda joylashtirilgan bo‘lsa, predmet ko‘rsatkichi beriladi. Mamlakatshunoslik va o‘lkashunoslik xarakteridagi qo‘llanmalarda geografik nomlar ko‘rsatkichi beriladi. Ayrim shaxslarga bag‘ishlangan yoki mavzuli qo‘llanmalarda ismlar, mavzuli asarlar nomlarining alifboli yordamchi ko‘rsatkichi beriladi. Qo‘llanmalar mazmunini o‘rganish bibliografik yozuvlarni, bo‘limlarga berilgan kirish va tushuntirish matnlari, bo‘limlar va bo‘limchalarni ko‘rib chiqish jarayoni bilan tugaydi. Qo‘llanmada adabiyotlarga berilgan annotatsiyalarni ham diqqat bilan ko‘rib chiqish, ularning qay darajada asar mazmunini yoritib bergeniga e’tiborni qaratish kerak. Qo‘llanmaning mazmuniga ko‘ra shu sohaga oid mutaxassislarining fikrini bilish ham muhim ahamiyatga ega. Bibliografik guruhshtirish vazifasi qo‘llanmaning tuzilishini tanlash, asosiy bo‘lim va bo‘limchalarni aniqlash, ularning ketmaketligini belgilashdan iborat. Bu kitobxonga bibliografik axborotni mantiqan asoslangan holda yetkazishga olib keladi. Matbuot asarlarini o‘rganish jarayonida asosiy mavzuni, masalani ajratib olish, mazmuniga ko‘ra kitoblarni va maqolalarni guruhshtirish, har bir bo‘lim va bo‘limchani nomlash, mantiqan ketma-ketlikni 174 aniqlash uchun zamin yaratilgan bo‘ladi. Bibliografik qayta ishslash yoki bibliografik ta‘rif berishda har bir matbuot asari haqida uni o‘rganish jarayonida olingan mulohazalar birlashtiriladi. Har biriga bibliografik yozuv tayyorlanadi, annotatsiya yoziladi. So‘zboshi va boshqa yordamchi elementlarni tayyorlashning asosiy vazifasi kitobxonlarga tuzuvchining fikrini yetkazish, mustaqil ravishda qo‘llanmadan foydalanishga yo‘llashdir. Buning uchun mavzuning dolzarbliji, ahamiyati, qo‘llanmaning o‘ziga xos tomonlarini ochib berish lozim. Tahlil qilish va bibliografik qo‘llanmani rasmiylashtirish, yakunlovchi bosqichda barcha matn qaytadan ko‘rib, ilmiy, adabiy va bibliografik tahlil qilib chiqiladi. Yo‘l qo‘yilgan xatolar tuzatiladi,

kamchiliklar to‘ldiriladi, qo‘sishmchalar kiritish, sarvarag‘ini bezash, boshqa yordamchi elementlarni kiritish, muqova ko‘rinishini tayyorlash, so‘zboshi, kirish so‘zi, xulosa kabi elementlarni joylashtirish, illustratsiyalar joyini belgilash mumkin. Bibliografik kartotekalarni tuzish Kartotekalar MBAning tarkibiy qismi bo‘lib, aniq bir tizimga ega holda tashkil etiladi. Umumiyligi (universal) bibliografik kartotekalar maqolalarning sistemali kartotekasi bo‘lib, vaqtli matbuot nashrlari, davomli nashrlar va to‘plamlardan olingan materiallarni, hujjatlarni bibliografiyalashning tanlangan qoidasiga amal qilgan holda aks ettirilgan bibliografik kartotekadir. Bu kartotekalar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti, iqtisodi, madaniyati va san’ati, kashfiyotlar, ixtiolar, buyuk olimlari va mashhur kishilarini, davlat va jamoat arboblari va kitobxonlarni qiziqtiruvchi mavzularga oid tashkil etiladi. Ularda badiiy asarlar haqidagi tanqidiy materiallar va taqrizlar ham bo‘ladi, agar ularda nishonlanadigan bayramlar, sanalar, unutilmas voqealar haqidagi materiallar, turli xil tadbirlarni tayyorlash, kinofilmlar va telepostanovkalar, teatr tomoshalari haqidagi materiallar berib borilsa, yana ham unumli bo‘ladi. Kartoteka bir necha yillik davrni o‘z ichiga oladi. Yozuvlar sistemali va ichki alifbo tartibida beriladi. Kartoteka bilan muntazam va rejali ish olib boriladi. Uni tahrir qilib borish zarur. Buni bosh bibliograf bajaradi. Yangi bo‘limchalar kiritish, o‘zgarishlar berish, mavzular nomini o‘zgartirish, nokeraklarini olib tashlash mumkin. Ammo bu haqda eslatma yoki pasport yozib boriladi. Bu rubrikator deb ataladi. Ayrim kutubxonalarda 175 umumiyligi kartoteka vazifasini Bosh axborot kartotekasi bajaradi. U kitobxonlar asosiy guruhlarining axborotga bo‘lgan talablari asosida tashkil etiladi. U predmet-mavzuli kartoteka bo‘lib, bo‘limlar alifbo tartibida joylashtiriladi. Bu kartoteka muntazam tahlil qilib boriladi va keyingi 10 yil davomidagi materiallar kiritiladi. Avval rasmiy hujjatlar, to‘plamlardagi materiallar, vaqtli matbuot nashrlaridan olingan maqolalar teskari xronologik tartibda joylashtiriladi. O‘lkashunoslik kartotekalari Bu mazmunan aniq olingan bir hudud (viloyat, tuman, shahar va b.)ga oid bo‘lgan materiallarning bibliografik kartotekasidir. Unga shu joyning iqtisodi, ekologiyasi, madaniyati, san’ati, adabiyoti, tarixi, tabiiy boyliklari, milliy qadriyatları, adabiy hayoti va boshqa masalalarga oid materiallar kiritiladi. Buning uchun barcha manbalar o‘rganiladi va hujjatlar yig‘iladi. Kartoteka tashkil etishning muhim jarayoni uning sxemasini ishlab chiqishdir (rubrikator). Bunda asosiy bo‘limlar quyidagicha tashkil etilishi mumkin: umuman, o‘lka haqida, o‘lka tarixi, tabiat, tabiiy boyliklari, iqtisodi, ekologiyasi, sog‘liqi saqlash, tibbiyot, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniy va ilmiy hayoti, maorif va boshqalar. Har bir bo‘lim umumiyyadan xususiyga qarab joylashtiriladi. Bibliografik yozuvlar annotatsiyalar, qisqa sharhlar bilan to‘ldiriladi. Kichik tuman va shahar kutubxonalarida „O‘lkamiz hayotidan“, „Chirchiqlik ijodkorlar“, „Bizning qahramonlarimiz“, „Shahrimiz shoirlari“ kabi mavzularda kartoteka tashkil etadilar. Kartotekalarning boshqa turlari Yangi kitoblar kartotekasi — kutubxonalar faoliyatiga zamонавиъ axborot texnologiyasining kirib kelishi bilan elektron kataloglar tashkil etila boshlandi. Bu yangi adabiyotlar kartotekasini tashkil etib borishga chek qo‘ydi. Hali an’anaviy xizmat ko‘rsatish bilan band kutubxonalarda, elektron katalog tuzish imkoniyati bo‘lмаган kutubxonalarda bu kartotekani tashkil etish davom etmoqda. Maqsadi barcha bilim sohasi bo‘yicha kutubxona fondiga kelib tushgan yangi adabiyotlar haqida ma’lumot berishdan iborat. Uni turli xil ko‘rinishda va joyda tashkil etish mumkin. Sistemali katalogning bir qismi sifatida tashkil etilsa, alohida nom bilan ajratiladi. Ma’lum bir vaqtidan 176 so‘ng kartochkalar olib asosiy katalogning tegishli bo‘limiga joylashtiriladi, o‘rniga yangi adabiyotlar haqidagi kartochkalar qo‘yib boriladi. Alovida „Yangi kitoblar“ nomi bilan kartoteka tashkil etish mumkin. Bu alohida katalog qutisiga joylashtiriladi va kitobxon uchun qulay joyga qo‘yiladi. Yangi badiiy asarlar kartotekasi ham mustaqil yoki sistemali katalogning bir qismi sifatida tashkil etiladi. Maqsadi kitobxonlarni tezkorlik bilan mamlakatimizda, qo‘sni davlatlarda va xorijda nashr etilayotgan, o‘zbek tiliga tarjima qilingan yangi badiiy asarlar bilan tanishtirib borish. Kartochkalar xronologik yoki alifbo tartibida joylashtirilishi mumkin. Bibliografik qo’llanmalar kartotekasi, asosan, xizmat

kartotekasi va kutubxona xodimlariga bibliografik xizmat ko'rsatish jarayonida yordam beradi. Bunda alohida bibliografik qo'llanmalar bilan birgalikda jurnal ichi, kitob ichi ro'yxatlari, gazetalarda berilayotgan ro'yxatlar ham yig'ib boriladi. Qoidaga ko'ra undagi kartochkalar 5 yilgacha saqlanadi. Materiallar bilim sohalari bo'yicha, ichki xronologik yoki alifbo tartibida joylashtiriladi. Notali nashrlar kartotekasi musiqa bo'limi mavjud yoki musiqa kutubxonalarida tashkil etiladi. Bunda kutubxona fondida mavjud notali nashrlarning bibliografik yozuvlari yig'ib boriladi. Bu maxsus kartotekalar turiga kiradi. Taqrizlar kartotekasida vaqtli matbuot va davomli nashrlarda adabiy, badiiy va boshqa bilim sohalari ga oid asarlarga berilgan taqrizlar aks etadi. Bu mustaqil yoki sistemali katalogning bir qismi sifatida tashkil etiladi. Kartochkadagi bibliografik yozuv 2 qismdan iborat bo'ladi: taqriz berilayotgan asarning tavsifi va taqriz uchun tavsif. Taqriz berilayotgan asarlar mualliflari alifbo tartibida joylashtiriladi. Masalan, A. Qodiriyning „O'tkan kunlar“ romaniga berilgan taqrizlar „Qodiri A.“ familiyasida joylashtiriladi. Shu asar haqida materiallar juda ko'p bo'lsa, u alohida ajratkich orqasida ichki alifbo tartibida joylashtiriladi, ba'zan xronologik tartib ham qo'llaniladi. Shaxs kartotekasi alohida mashhur kishilar, tarixiy shaxslar, siyosat va jamoat arboblari, olimlar, rassomlar, bastakorlar, yozuvchi va shoirlar uchun tashkil etiladi. Bu asosiy katalog va kartotekani takrorlamaydi, balki ularda bo'limgan shu shaxsga oid hujjatlarni topishda yordam beradi. Bunga barcha manbalardagi shu shaxs hayoti va ijodiga, faoliyatiga oid hujjatlar olinadi.

Nazorat savollari.

1. Bibliografik qo'llanmalarni tuzish qoidasini ayting.
2. Matbuot asarini o'rghanishdan maqsad nima?
3. Matbuot asarining elementlarini aytib bering.
4. Bibliografik qo'llanmaning tuzilishi qanday bo'ladi?
5. Bibliografik qo'llanmani tayyorlash jarayonlari nimalardan iborat?
6. O'lakashunoslik kartotekalari haqida ma'lumot bering.
7. Kartotekalarning yana qanday turlarini bilasiz?
8. Umumiylar Bosh axborot kartotekasi haqida gapiring.

32-mavzu: Tavsiya ko'rsatkichlarining kichik shakllarini tuzish.

Reja:

1. Tavsiya ro'yxatlari.
2. Kutubxonalar faoliyatida eng ko'p qo'llaniladigan tavsiya bibliografik ko'rsatkichlarini tuzish va ularning xususiyatlarini tushuntirish.
3. Ro'yxatlar, o'qish rejalar, esdaliklar, bulletenlar.

Tayanch iboralar.

Kutubxonalar faoliyatida eng ko'p qo'llaniladigan tavsiya bibliografik ko'rsatkichlarini tuzish qoidasini o'rgatish, ularning xususiyatlarini tushuntirish. Ro'yxatlar, o'qish rejalar, esdaliklar, bulletenlar. Tavsiya ro'yxatları.

Tavsiya xarakteridagi bibliografik qo'llanmalar barcha tipdagi kutubxonalar faoliyatida va barcha kitobxonlar guruhlariga mo'ljalab tashkil etiladi. Bular bibliografiyaning kichik shakllari bo'lib, mazmunan tez eskiradi, qisqa vaqt ichida tayyorlanadi. Bunday bibliografik ko'rsatkichlardan biri tavsiya ro'yxatlaridir. Bu ro'yxatlarini har qanday kutubxona sharoitida tayyorlash mumkin. Ular, ko'pincha, „Yana nimalarni o'qish kerak?“ „Nimadan boshlash kerak?“ kabi nomlarda tayyorlanadi. Yana esdaliklar, individual o'qish rejalarini ham tayyorlanadi. Ularni tuzishga bo'lgan asosiy talab kitobxonlar qiziqishini va tayyorgarlik darajasini hisobga olish, mustaqil bilim olishiga, kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim olish maqsadida o'qishiga mos kelishi zarur, mavzuning dolzarbligi, o'lka hayoti bilan bog'liqligi ham hisobga olinadi. Tavsiya ro'yxatlar zamoning eng muhim mavzulari, Vatan tarixi, milliy qadriyatlar, boshqa bilim sohalarining muhim masalalari, mashhur kishilar hayoti va ijodiga oid masalalar bo'yicha

tuziladi. Mavzuga va kitobxonlar guruhi xususiyatiga ko‘ra kitoblar, risolalar, maqolalar tanlanadi. Adabiyotlarning soni ham shunga bog‘liq bo‘ladi. Tavsiya ro‘yxatlari uchun eng yangi adabiyotlar olinadi. Bibliografik tavsif, albatta, annotatsiya 178 bilan birga beriladi. Adabiyotlar mazmuniga ko‘ra mantiqiy joylashtiriladi, ichki alifbo tartibi qo‘llaniladi. Avvalo, davlat va hukumat qarorlari, rasmiy hujjatlar beriladi. Qo‘llanmaga so‘zboshi yoki kirish so‘zi, har bir bo‘lim uchun tushuntirish matni beriladi. Kitobxon mustaqil bilim olish, biror masala yoki muammoni o‘rganish arafasida bo‘lsa, unga „Nimadan boshlash kerak?“ tipidagi tavsiya ro‘yxati beriladi. Bunday ro‘yxatlar o‘zining hozirjavobligi va dolzarbligi, axborotning qisqaligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Bu tavsiya ro‘yxatlari alohida bir kitobxonga mo‘ljallangan bo‘ladi va ular „Xatcho‘p-ro‘yxat“ ham deyiladi. Unda 10 ta nomgacha adabiyot tavsiya etiladi. Ba’zan kitobxonlarda bir asarga, undagi qahramon yoki voqeaga chuqurroq kirib borish istagi tug‘iladi. Bunda shu asar atrofida uning mazmunini yanada kengroq ohib beradigan asarlar tanlanadi. O‘qish rejalar Kitobxon mustaqil bilim olish, o‘zining umummadaniy bilim saviyasini oshirish, kasb malakasini takomillashtirish maqsadida kutubxonaga kelganda unga ma’lum izchillikda, ketma-ketlikda rejali o‘qishni tashkil etish uchun o‘qish rejalarini tuzib beriladi. Avvalo, kitobxon bilan yakkama-yakka suhbat davomida uning maqsadi, qiziqishi, nimalar o‘qigani bilib olinadi, ma’lum bir davrga adabiyotlar ro‘yxati tuziladi. Shaxsga oid esdaliklar Bunday esdaliklar kitobxonni ayrim olingan shaxsning hayoti va ijodi bilan tanishtirish, uni o‘rganishga yordam berish maqsadida tuziladi. Esdalik uchun uning kutubxona fondida mavjud eng mashhur va muhim asarlari tanlab olinadi. Hayoti va ijodiga oid hujjatli, avtobiografik asarlar, xotiralar, turli janrdagi asarlari tanlab olinadi. Esdalikning tuzilishi bir-birini davom ettiruvchi quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi: so‘zboshi (kirish qismi); muhim asarlarining sharhi; asosiy asarlari va maqolalari sharhi (agar bir nomdagi asari bir necha marta nashr qilingan bo‘lsa, eng so‘nggisi va qimmatrog‘i olinadi); hayoti va ijodi haqidagi adabiyotlar ro‘yxati. Kutubxonalarda „O‘z o‘lkangni bilasanmi?“ nomi ana shunday ro‘yxatlar tuziladi. Bu adabiy viktorinalarda foydalaniladi. 179 Adabiyotlar ro‘yxatlari (bulletenlar) Kutubxonalarda adabiyotlar ro‘yxatlari (bulletenlar)ni tayyorlanadi. Ular ma’lum bir muddatda kutubxona fondiga kelib tushgan yangi adabiyotlar haqida axborot beradi. Adabiyotlarning bibliografik tavsifi va unga qisqacha annotatsiya beriladi. Ular bilim sohalari bo‘yicha guruhlashtiriladi va joylashtiriladi. Har bir adabiyotning shifr indeksi va kutubxonaning qaysi bo‘limida joylashganligi ko‘rsatiladi. Bunday bulletenlar 2 oyda bir marta yoki 3 oyda bir marta tuziladi va tarqatiladi.

Nazorat savollari.

1. Tavsiya ko‘rsatkichlarini tayyorlashdan maqsad nima?
2. Tavsiya ko‘rsatkichlari kimlarga mo‘ljallanadi?
3. Tavsiya ro‘yxatlarini tuzish qoidasi haqida gapiring.
4. O‘qish rejalarining vazifasi nimalardan iborat?
5. Shaxslarga oid esdaliklarning ahamiyati nimada?
6. Axborot bulletenining xususiyatlari haqida to‘xtaling.

33-mavzu: Og‘zaki bibliografik obzorlarni tayyorlash va o‘tkazish

Reja:

1. Bibliografik xizmat ko‘rsatish.
2. Bibliografik sharhlar, ularning turlari, tayyorlash va o‘tkazish haqida ma’lumot berish.
3. Sharhlar, press reliz.
4. Bibliografik obzorlarning maqsadi, ahamiyati, uni tayyorlash qoidasi.

Tayanch iboralar

Bibliografik xizmat ko‘rsatish va bibliografik axborot berishning bir shakli — bibliografik sharhlar, ularning turlari, tayyorlash va o‘tkazish haqida ma’lumot berish. Sharhlar, press reliz. Bibliografik obzorlarning maqsadi, ahamiyati, uni tayyorlash qoidasi.

Adabiyotlar haqida axborot berish va ularni targ‘ib qilishning eng tezkor, ko‘p qo‘llaniladigan usuli og‘zaki bibliografik sharhlardir. Og‘zaki bibliografik sharh hujjatlar va ularning turlari, matbuot asarları haqidagi hikoyadan, bibliografik axborotdan iborat. Boshqa tadbirlarga ko‘ra og‘zaki bibliografik sharhlar o‘zining tezkorligi, dolzarbliji, hozirjavobligi, kitobxon ongiga tez yetib borishi va ta’sir etishi bilan farq qiladi. Bibliografik sharhlar maqsadiga va kitobxonlar guruhiga ko‘ra tavsiyaviy va axborot, mazmuniga ko‘ra universal, tarmoq, mavzuli, shaxslarga oid turlarga ajratiladi. Sharhda hikoya qilinayotgan 180 matbuot asarlarining turiga ko‘ra kitoblar sharhi, jurnallar sharhi, ruknli nashrlar sharhiga bo‘linadi. Yangi adabiyotlar sharhida kitobxonlar yangi kitoblar, jurnallar va axborot materiallari bilan tanishishlari mumkin. Har qanday bibliografik sharh yagona reja asosida tayyorlanadi: mavzuni o‘rganish, adabiyotlarni aniqlash va tanlash, matbuot asarlarini guruhlashtirish va ta’rif berish, sharh uchun matn yozish, matnni adabiy tahlil qilish. Mavzuni o‘rganish unga oid barcha manbalarni o‘rganishdan boshlanadi. Matbuot asarlarini aniqlashda katalog va kartotekalar, fondning shu mavzuga taalluqli qismi, bibliografik hujjatlar, kasbga oid jurnallar va gazetalarda berilayotgan ro‘yxatlar ko‘zdan kechiriladi, mavzuni yoritib beruvchi adabiyotlar tanlab olinadi. Har birining mazmuni, ahamiyati ko‘rib chiqish jarayonida o‘rganiladi, buning uchun yozilgan annotatsiyalar, so‘zboshi, kirish so‘zi, so‘nggi so‘z, asarga berilgan tanqidiy materiallar o‘rganib chiqiladi. Sharh uchun ajratilgan adabiyotlarning soni mavzuning mohiyatidan, kitobxonlar guruhining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Agar sharh tavsiya xarakterida bo‘lsa, 3 tadan 10 tagacha, axborot xarakterida bo‘lsa, 12 — 15 ta adabiyot olinadi. Asarlarni guruhlashtirish, mavzuga oid umumiy mazmundagi adabiyotlar, keyin esa shu mavzuga oid maxsus adabiyotlar joylashtiriladi. Bu kitobxonga berilayotgan hikoyani to‘g‘ri va to‘la tushunishiga yordam beradi, axborotni aniq qabul qilishiga olib keladi. Ba’zida adabiyotlar janrlariga ko‘ra, ilmiy ahamiyatiga ko‘ra, bilim sohalariga ko‘ra joylashtiriladi. Tarixiy mavzuda bo‘lsa, adabiyotlar to‘g‘ri xronologik tartibda ham joylashtirilishi mumkin. Bibliograf 3 qismdan iborat sharhning matnni tayyorlab oladi: kirish (bunda mavzu asoslab beriladi, uning xususiyatlari, dolzarbliji, tanlangan kitobxonlar uchun ahamiyati aytildi), asosiy qism (asarlarga ta’rif — hikoya qismi), xulosa (mavzuga oid yana qanday qo‘sishimcha adabiyotlar mavjudligini, ularning qaysi manbalardan olib o‘qish mumkinligini, ularga berilgan tanqidiy materiallar va taqrizlar eslatib o‘tiladi). Sharhning har bir qismi umumiy maqsadga bo‘ysunishi lozim. Asarlarga ta’rif berish. Bunda, bibliograf har bir asardagi eng muhim jihatni, ichki mantiqni bera olishi zarur. Shu mavzuga oid boshqa asarlar bilan muqoyosa qila olish mahoratiga ega bo‘lishi talab etiladi. Avval asarning bibliografik elementlari — muallifi, sarlavhasi, chiqish ma’lumotlari, agar maqola bo‘lsa, 181 manbasi aytib o‘tiladi, lekin o‘qib berilmaydi. Keyin asardagi asosiy jihatlar ochib beriladi. Sharhda bog‘lovchi matnlar majburiy element hisoblanadi, bu sharhni bibliograf mehnatining natijasi — mustaqil asar sifatida ko‘rsata olish uchun zarur. Unda muallifning mashhurlik darajasi, asarning badiiy qimmati, ilmiy ahamiyati haqida gapiriladi. Bog‘lovchi matn sifatida hikoyaning o‘zi ham xizmat qilishi mumkin. Axborotning turli-tumanligini ta’minalash uchun ba’zan asar qahramonlarining taqdiri, unga bog‘liq hayotiy faktlar, voqealar, asarning yozilish tarixi, nashr haqida ma’lumotlar keltiriladi. Sharh matniga adabiy ishlov berish sharhni tayyorlashning yakuniy qismi bo‘lib, kamchiliklar to‘ldiriladi, xatolar tuzatiladi. Og‘zaki bibliografik obzorni o‘tkazishda quyidagi talablarga e’tiborni qaratish lozim: matn o‘qib berilmaydi, asardan o‘qib beriladigan fikrlar, parchalar avvaldan xatcho‘plar yordamida belgilab qo‘yiladi, bibliografik ma’lumotlar aniq va tushunarli aytib beriladi, kutubxonachining o‘ziga notanish, tushunarsiz so‘zlar ishlatilmaydi, hikoya ravon, tushunarli, nutq madaniyati qoidalariga amal qilgan holda, to‘g‘ri talaffuz va ohang bilan so‘zlab beriladi. Sharhni olib borayotgan shaxs auditoriyaning o‘ziga munosabatini, hikoyaning ularga ta’sirini kuzatib borishi kerak. Bibliografik obzorlarning turlari Yangi adabiyotlar obzori. Kutubxona fondiga kelib tushgan yangi kitoblar kitobxonlarda qiziqish uyg‘otadi. Bunday sharhlar mazmuniga ko‘ra universal, ahamiyatiga ko‘ra axborot xarakterida bo‘ladi. Bunday sharhga hamma bilim sohasiga oid kitoblar, jurnallar va boshqa hujjatlar olinadi. Ular hozirjavoblik bilan, tezda, muntazam olib borilishi zarur. Bunday sharhlarda kirish qismi va xulosa jqisqa bo‘ladi. Asosiy qismda hikoya

qilinadigan adabiyotlar bilim sohalari bo'yicha ketma-ketlikda joylashtiriladi. Yangi adabiyotlar sharhining maqsadi kitobxonlarga yangiliklar haqida ma'lumot berish, ular bilan yaqindan tanishtirish. Agar faqat jurnallar olinsa, uning maqsadi kutubxona fondiga kelib tushgan jurnallarning mazmuni haqida axborot berish. Kirish qismida jurnal, uning tashkil etilgan vaqt, kimlarga mo'ljallangani, qanday tuzilishga egaligi, ahamiyati haqida gapiriladi. Asosiy qismida aniq maqolalarga sharh beriladi. Adabiy-badiiy jurnallar sharhi axborot yoki tavsiya xarakterida bo'ladi. Buning uchun bitta jurnalning so'nggi 2 — 3 ta soni yoki bir necha 182 nomdagi jurnalning so'nggi sonlari olinadi. Ulardan eng qiziqarli badiiy asarlar tanlab olinadi. Xulosa qismida adabiy-tanqidiy qismi haqida, shunga yaqin boshqa jurnallarda nashr etilgan materiallar haqida ma'lumot beriladi. Bu kitobxonda axborot olish madaniyatini va bibliografik bilimni tarbiyalaydi. Mavzuli obzorlar mustaqil bilim olishga yordam, yo'llanma berish va kitobxonlarning bilim doirasini kengaytirish, tavsiya etilayotgan adabiyotlarga qiziqish uyg'otish maqsadida o'tkaziladi. Ular ko'proq u yoki bu bilim sohasiga oid ilmiy-ommabop adabiyotlar asosida tayyorlanadi. Agar sharh mazmuni faqat badiiy asarlarga bog'liq bo'lsa, har bir asarning faqatgina mazmuni haqida emas, balki har bir muallif — yozuvchi va shoirning o'ziga xos tomonlari, ijodiy xususiyatlari, bir asarning boshqa asarlardan farqi haqida ma'lumot beriladi. Sharhning har bir elementi, mazmuni va qurilishiga alohida ahamiyat beriladi. Kirish qismida mavzuning ahamiyati, tanlab olingan mualliflar haqida ma'lumot, asarlarga umumiyligi ta'rif beriladi. Asosiy qismida har bir asar alohida olinib, uning mazmuni yoritiladi, ahamiyati, badiiy qimmati haqida ma'lumot beriladi. Shundan kelib chiqib ularning ketma-ketligi aniqlanadi. Adabiyotlar umumiyyadan xususiyaga qarab joylashtirilishi mumkin yoki badiiy asarlar janriga ko'ra alohida guruhlarga ajratiladi va ketma-ketligi belgilanadi. Yoki avval shu mavzu bo'yicha yaratilgan asarlar, ularning mualliflari haqida umumiyligi ma'noda ma'lumot, keyin ularning ayrimlariga alohida to'xtalish mumkin. Xulosada sharhga yakun yasaladi, tanqidiy materiallar eslatiladi va tavsiya etiladi, shu mavzuga oid qanday adabiyotlar mavjudligi, ularni topish yo'llari, manbalari beriladi. Shaxslarga oid sharhlar. Bunday sharhlar yozuvchi yoki shoirlarning, san'atkorlarning, mashhur jamoat va siyosiy arboblarning, olimlarning yubileyлari munosabti bilan tashkil etiladi. Faqat shu muallif asarlariga sharh beriladigan tadbirda kitobxonlarga ma'lum va mashhur bo'lgan asarlar bilan birga hali nashr etilmagan, kitobxonlar uchun noma'lum bo'lgan asarlar, shaxsning hayoti va ijodi haqidagi hujjatlar olinadi. Ruknli nashrlar sharhi. Buning o'ziga xosligi shundaki, avvalo kitobxonlar uchun rukn haqida to'la ma'lumot beriladi, uning tarixi, tashkil etilgan vaqt va sabablari, shu ruknda nashr etilgan mashhur asarlar haqida axborot berib o'tiladi. Keyin tanlangan asarlarga sharh beriladi. Xulosada shu ruknda nashr etilgan yana 183 qanday asarlar mavjudligi, ularning manbasi eslatiladi. „XX asr o'zbek romani“, „Istiqlol qahramonlari“, „Mashhur kishilar hayotidan“, „Maktab kutubxonasi“ kabi ruknli nashrlarni ajratib olish mumkin. Bibliografik qo'llanmalar sharhi. Bu kutubxona xodimlari uchun o'tkaziladi. Tavsiyaviy qo'llanmalar, shaxslarga oid qo'llanmalar haqida kitobxonlar uchun ham o'tkazish mumkin. Bu, avvalo, kitobxonning bibliografik bilimini oshiradi, axborot madaniyatini tarbiyalaydi. Kitobxon sharhni tanlash davomida qo'llanmalar, ularning xususiyatlari, ulardan foydalanish yo'llari haqida ma'lumot oladi. Sharhlarning ta'siri, samarasi uni o'tkazgandan so'ng shu mavzu bo'yicha adabiyotlarning o'qilish darajasidagi o'zgarishidan bilinadi. Ommaviv axborot vositalari (OAV) uchun obzor tayyorlash. Press reliz Radio, televideniya va vaqtli matbuot sahifalarida muntazam ravishda yangi adabiyotlar sharhi berib boriladi. Ko'pincha, bunday sharhlarni tahririyatning o'zi tayyorlaydi. Sharhning samarali va sifatli o'tishi uchun, albatta, axborot-resurs markazlari bilan hamkorlikda tayyorlash lozim. Bunda sharhning mavzusi aniqlanadi, mavzu uchun axborot-resurs markazida mavjud hujjatlar tanlanadi. Ular sharhni tayyorlash qoidasiga ko'ra tayyorlanadi. Tayyor matn OAV tizimiga uzatiladi. Ba'zi hollarda televideniya orqali berilayotgan sharhlarda ketma-ketlik noto'g'ri tanlanadi, muntazamlilikka e'tibor berilmaydi yoki hozirjavoblik yo'qoladi. Press reliz OAV uchun yirik tadbirlarni reklama qilish maqsadida tayyorlanadigan axborot qog'oz'i bo'lib, firmalar, korporatsiyalar, tashkilotlarning maxsus bo'limlari, xizmatchilari, PR byurolari, PR agentligi vositasida bepul tarqatiladigan qisqa axborot. Bu, asosan, yarim, yoki bir sahifaga

mo‘ljallanadi va buning uchun quyidagi talablarga javob berishi lozim: mazmun va jumlalar tushunarli va oddiy tilda berilishi; fikrlarning qisqa va yig‘ma holda berilishi; asosiy fikrlarning belgi yoki qora chiziq bilan ajratilishi; asosiy fikrni 15 — 20 ta so‘zda bera olish; bosh abzasdagagi g‘oyaning keyingi abzaslarda davom ettirilishi. Bosh abzasning vazifasi iste’molchini birinchi fikrdanoq qiziqtirishdan iborat. Keyingi vazifasi tashrif qog‘ozni o‘rnini egallahadir. Bosh abzas jurnalistikada tashrif qog‘ozni deb ham yuritiladi. Bosh abzasda birorta oshiqcha so‘z bo‘lishi mumkin emas, uslub sodda 184 bo‘lishi shart. Press relizning xususiyatlari: shu kunning muhim yangilagini aks ettirishi; o‘z vaqtida berilishi, hozirjavobligi. Kutubxona tomonidan o‘tkaziladigan yirik tadbirlar — yubileylar, kitobxon benefisi, kitobxon marofoni, turli uchrashuv kechalari, ilmiy-amaliy anjumanlar, kitobxonlar konferensiyasi munosabati bilan uni keng jamoatchilikka ma’lum qilish, reklama qilish, targ‘ib qilish maqsadida ilg‘or kutubxonalar OAV bilan hamkorlik o‘rnatganlar. Press reliz uch qismidan iborat bo‘ladi: 1- qism bosh abzas bo‘lib, murojaat qismi, unda rahbariyatga Press relizni jo‘natish maqsadi, asosiy g‘oya, uning ahamiyati tushuntiriladi. 2- qismida aniq va ravon, qisqa matnda qachon, qayerda, nima maqsadda, kimlar uchun tadbir o‘tkazilayotgani, undan kutilayotgan natija ko‘rsatiladi. 3-qismda tadbirni o‘tkazish joyi, vaqt, yordami uchun avvaldan minnatdorchilik bildiriladi. Press reliz, albatta, korxonaning rasmiy qog‘oziga yozilishi, tashkilotning birinchi rahbari imzo qo‘yishi shart.

Nazorat savollari.

1. Bibliografik sharh va uning xususiyatlari haqida to‘xtaling.
2. Bibliografik sharhlarning turlarini aytинг.
3. Yangi adabiyotlar sharhi va uni tayyorlash qoidasini tushuntiring.
4. Mavzuli adabiyotlar sharhi qanday tayyorlanadi?
5. Shaxslarga oid sharhlarning xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Qo‘llanmalar sharhining xususiyatlari haqida gapiring.
7. Press reliz kimlar uchun tayyorlanadi va uning maqsadi nima?

34-mavzu: Iste’molchilarga ma’lumot-bibliografiya xizmati (MBX) ko‘rsatish Reja:

1. Ma’lumot-bibliografiya xizmati, uni tashkil etish, turli bilim sohalari va yo‘nalishlar bo‘yicha ma’lumotbibliografiya xizmati ko‘rsatish qoidalari haqida ma’lumot berish.
2. Ma’lumot-bibliografiya xizmati, bibliografik so‘roqlar, faktografik so‘roqlar.
3. MBX haqida umumiyl tushuncha

Tayanch iboralar.

Ma’lumot-bibliografiya xizmati, uni tashkil etish, turli bilim sohalari va yo‘nalishlar bo‘yicha ma’lumotbibliografiya xizmati ko‘rsatish qoidalari haqida ma’lumot berish. Ma’lumot-bibliografiya xizmati, bibliografik so‘roqlar, faktografik so‘roqlar. MBX haqida umumiyl tushuncha.

Kishilarda axborot olamiga, turli sohaga, masala va muammolarga oid ortib borayotgan qiziqishga va intilishga atrof-muhit, mamlakat ichida va tashqarisida yuz berayotgan voqeа va hodisalar, 185 mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy ahvoli, vazifalari va maqsadi, oilaviy muhit, mehnat faoliyati, yangi ixtiolar va kashfiyotlar, OAV orqali tarqalayotgan xabarlar ta’sir etadi. Ma’lumotbibliografiya xizmati talabgorlarning turli so‘roqlariga mos bibliografik xizmat ko‘rsatishdir. Ma’lumotlar so‘roqlarning turiga qarab turlanadi, ularning xarakteriga mos bo‘ladi, axborot xarakteriga ko‘ra bibliografik, faktografik, shakliga ko‘ra og‘zaki (telefon orqali, yuzmayuz) va yozma (murakkab so‘roqqa javob bo‘lib, maxsus qidirishni, ro‘yxat tuzib berishni talab qiladi) bo‘ladi. Bibliografik ma’lumot turli so‘roqqa beriladigan bibliografik axborotdir, u turlichay bo‘ladi: adresli (nashrning fonddagи o‘rnini ko‘rsatish uchun berilgan ma’lumot), aniqlovchi (bibliografik tavsifidan noaniqlik yoki qo‘srimcha ma’lumotni talab etgan holda

berilgan), mavzuli (biror-bir mavzu, masala, muammoga oid). MBXning mazmunini kitobxon talabi yoki so‘rog‘i, axborotni qidirish, bibliografning javobi tashkil etadi. Bibliografik qidirish bibliografik faoliyatning negizini tashkil etadi. So‘roqlarni bajarish tezligi va sifati bibliografning kasbiy bilimi darajasiga, kitobxon bilan munosabatda bo‘la olish qobiliyatiga, MBXning sifatiga, bibliografning zamonaviy axborot texnologiyalari bilan erkin ishlay olishiga bog‘liq. Bularning hammasi o‘ziga xos dasturni (algoritmni) tashkil etadi. Bu dastur quyidagi bosqichlardan iborat:

- axborotni qidirishga tayyorlarlik ko‘rish — so‘roqni qabul qilish, hisobga olish, tahlil qilish, mavzuni va maqsadini aniq shakllantirish, kitobxонни qiziqtirgan masala bo‘yicha xabardorligini o‘rganish, shu paytgacha mavzu bo‘yicha bilgan ma’lumotlari, so‘roqning dolzarbligini aniqlash;
- qidiruv manbasini modellashtirish — so‘roq mazmuniga mos manbalarni aniqlash (o‘quv adabiyotlari, ommaviy nashrlar, ma’lumotnomma nashrlar va b.);
- qidirishning mukammal yo‘lini tanlash — manbalar orasidan eng zarurini va so‘roqqa mosini ajratib olish;
- qidirish dasturini amalga oshirish — so‘roqqa javob beruvchi axborotni olish, agar ma’lumot yozma ravishda talab etiladigan bo‘lsa, uni tayyorlash.

Murakkab mavzudagi ma’lumotlar nusxasi saqlab qolinadi. Kitobxonlarning bibliografik va axborot madaniyatini takomillashtirish uchun ish so‘ngida, albatta, axborot manbalarini ko‘rsatish lozim. 186 Turli xil so‘roqlarni bajarish xususiyatlari Mavzuli so‘roqlarni bajarish — „mavzu“ tushunchasi juda keng, u ma’lum bir masalani, savolni, muammoni, biror kishining hayoti va ijodini, o‘lka va mamlakat haqidagi ma’lumotni anglatishi mumkin. Mavzuli so‘roqlar, asosan, sistemali katalog, kartotekalar va ma’lumotlar bazasi va banki, bibliografik qo‘llanmalar yordamida bajariladi. Bularga qo‘srimcha ravishda kitob ichi va jurnal ichi ro‘yxatlari, nashrning o‘zi — kitob, gazeta, jurnal, davomli nashrlar, to‘plamlar va boshqa hujjatlar ham ko‘rib chiqiladi. Masalaning hal etilgani shunda ko‘rinadiki, ro‘yxatlardan, albatta, 2 — 3 ta hujjat tavsiya etilishi kerak. Masalan, maktab o‘qituvchisiga Oybek ijodi haqida ma’lumot kerak bo‘lsa, notanish bo‘lgan yangi ilmiy maqolalar tavsiya etiladi, o‘quvchiga yozma ish yozish uchun esa uning yoshiga moslab yozuvchi ijodiga oid ommabop nashrlar, talabaning ilmiy referat bajarishi uchun esa ilmiy xarakterdagi asarlar tavsiya etiladi. Bu so‘roqlarni bajarishda alifbo katalogidan tashqari sistemali va elektron katalogdan foydalanish zarur, ularda kalitli so‘zlar yordamida turli mavzular bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxatini olish mumkin. Mavzuli so‘roqni bajarishda so‘roq bilan bajariladigan ma’lumotning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini belgilab olish kerak. Agar kitobxon so‘rog‘i juda keng qamrovli bo‘lsa, uni suhbat davomida aniqlashtirib, ixchamlashtirib olish mumkin. O‘lkashunoslikka oid so‘roqlarni bajarishda, albatta, o‘lkashunoslik kartotekasidan, o‘lkaga oid qo‘llanmalardan, nashrlarning o‘zidan foydalanish zarur. Aniqlovchi bibliografik ma’lumotlarni bajarishning metodikasi va yutug‘i kitobxonning tayyorlarlik darajasiga, bibliografik tavsifning qay darajada kitobxonga tushunarli va tanish ekanligiga bog‘liq. Bunday so‘roqlar ko‘proq kitobxon tomonidan asar muallifining ism-sharifi, asar nomi, muallif asarining boshqa muallif nomi bilan atalgandagi holatida, muharrir, tarjimon yoki tuzuvchining muallif o‘rnida berilishida, asar nomining noto‘g‘ri aytishida, hali nashr qilinmagan asarni so‘raganda, jurnal yoki gazeta maqolasini alohida nashr sifatida so‘raganda yuz beradi. Bunday so‘roqlarni bajarish uchun, avvalo, so‘roqning mazmuni, maqsadi aniqlanadi, bibliografik elementlari to‘ldiriladi. Keyin axborotni qidirish dasturi ishlab chiqiladi, katalog va kartotekadan to qo‘llanmagacha bo‘lgan axborot manbalari tanlanadi, vaqtli matbuot va ma’lumotnomma nashrlar tanlanadi. Agar qidirilayotgan hujjat kitoblar orasida bo‘lmasa, uni jurnallar 187 orasidan, so‘nggi sonida chiqadigan adabiyotlar ro‘yxatidan qidirish kerak. Manzilli bibliografik so‘roqni bajarish juda tez va murakkab qidirishsiz amalga oshadi. Hujjat haqidagi to‘la va aniq bibliografik ma’lumotga ega bo‘lgan bibliograf katalog va kartotekalarga, elektron katalogga murojaat qiladi yoki kitobxonning o‘zini qidirish jarayoniga jalb qiladi. Elektron katalog orqali buni qidirish juda tez va oson amalga oshadi. Tegishli hujjatni muallif familiyasi, sarlavhasi, nashr yili, nashriyot nomi, kalitli so‘z yordamida qidirish va kutubxonaning qaysi bo‘limida joylashganligini bilish mumkin. Faktografik so‘roqni bajarishda, albatta, ma’lumotnomma nashrlardan foydalaniladi. Buning uchun kutubxona xodimi ma’lumotnomma nashrning xususiyatlarini, mazmunini, ahamiyatini, yordamchi apparatlarini

yaxshi bilishi zarur. Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikka oid MBX Badiiy adabiyot ko‘pchilikni qiziqtirgani uchun ham unga oid so‘roqlar ko‘p uchraydi. Bibliografik qidirish tajribasidan ma’lumki, bunday so‘roqlar juda xilma-xil va ularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin: yozuvchilar va ularning asarlari; sarlavhasi bilan kitobxonga ma’lum bo‘lgan badiiy asar; aniq bir mavzuga oid badiiy asar; aniq bir janrga oid badiiy asar; aniq milliy adabiyot namunasi; adabiyot nazariyasi va tarixi bilan bog‘liq adabiyotshunoslikka oid asar; o‘lkashunoslik xarakteridagi adabiy so‘roq; faktografik so‘roq. Ularning har birini bajarishda so‘roq maqsadini, axborot talabgorining tayyorgarlik darajasini, qidirish manbasini, xususiyatini bilish, ulardan foydalanish malakasini egallagan bo‘lishi shart. Qidirishning asosiy manbasi kataloglar, jurnal va to‘plamlardagi maqolalar yoki umumiyl kartotekadagi tegishli bo‘limdir. Bibliografik qidirish jarayonida kitobxonlarning o‘zlariga ma’lum bo‘lgan asarlarni sarlavhasi bilan so‘rash hollari ko‘p uchraydi. Bunday paytda badiiy asarlarning sarlavhalar kartotekasidan foydalaniladi. Aniq bir mavzuga oid yozuvchilarning asarlarini qidirishda mavzuli bibliografik so‘roq bajariladi. Bunda bibliografik so‘roqning xronologik va milliy chegarasi, ko‘pincha, qiyinchilik tug‘diradi. Aniq janrga oid so‘roq bilan kitobxon murojaat qilsa, bu ham mavzuli bibliografik so‘roq kabi bajariladi. Qidirish manbasi sifatida umumiyl katalog, boshqa turdag 188 bibliografik kartotekalar, ma’lumotlar bazasi, badiiy asarlar kartotekasi, tavsiya va boshqa bibliografik qo‘llanmalar tavsiya qilinadi. Milliy adabiyot namunalari so‘ralganda yana umumiyl katalogga murojaat qilinadi yoki elektron katalogdan foydalaniladi. KBK jadvali asosida milliy adabiyotlar guruhlashtiriladi, hamda boshqa xalqlar adabiyoti, masalan, qozoq, qirg‘iz, tojik, nemis, ingliz adabiyoti tegishli bo‘limlarda joylashtiriladi. Shuning uchun kutubxonalarda mavjud an‘anaviy va elektron katalog yordamida kitobxon so‘rog‘i bajariladi. Shu kabi boshqa so‘roq turlari ham tegishli manbalar yordamida ijro etiladi. Ijtimoiy-siyosiy kompleksga oid MBX Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi so‘roqlar qat’iy mas’uliyat bilan bajariladi. Ma’lumotlar axborotga berilgan so‘roq xarakteriga mos guruhlashtiriladi. Eng ko‘p tarqalgan so‘roqlar quyidagilardan iborat: aniqlovchi bibliografik ma’lumotlar; faktografik ma’lumotlar; mavzuli bibliografik ma’lumotlar; manzilli bibliografik ma’lumotlar. Aniqlovchi bibliografik so‘roqlarni bajarishda Davlat va hukumat organlari tomonidan qabul qilingan hujjatlarning bibliografik ma’lumotlari aniqlanadi. Bunday so‘roqlarni umumiyl bibliografik kartoteka, ma’lumotlar bazasi, huquqiy axborot bo‘yicha ma’lumotlar banki, rasmiy nashrlar va boshqa turdag axborot resurslari bajaradi. So‘roqlarni berishda yo‘l qo‘yiladigan xatolardan eng ko‘p uchraydigani OAVlari orqali berilayotgan axborotni noto‘g‘ri tushunish oqibatida yuz beradi. Bunday holda, albatta, kitobxon bilan suhbat davomida uni to‘g‘ri tushunishga yordam berish zarur. Faktografik so‘roqlarni bajarishda, asosan, u yoki bu tarixiy voqeani, siyosiy hodisalarni, siyosiy va jamoat arboblari shaxsiga oid ma’lumotlarni, olimlar va ularning faoliyatiga oid savollar, mamlakatlar nomlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq so‘roqlar, davlat ramzlariga oid so‘roqlar uchraydi. Ularni bajarishda ma’lumotnomalashrlar, qomusnomalar, katalog va kartotekalar yordam beradi. Mavzuli bibliografik so‘roqlar biror-bir ijtimoiy fanlar, tarixiy shaxslar, davlat arboblari, siyosiy arboblar, mamlakat tarixi, iqtisodi, siyosatiga oid mavzularni tashkil etadi. Bunday so‘roqlarni bajarishda mavzuning mazmuni, maqsadi, kitobxonning siyosiy bilim darajasi, tayyorgarlik darajasi, axborot manbalarining to‘- liqlik va ilmiylik darajasi, dolzarbli hisobga olinadi. Bunday ham 189 katalog va kartotekalar tizimidan, bibliografik qo‘llanmalardan foydalaniladi. Ayniqsa, tarixiy mavzudagi so‘roqlarni bajarishda uning hozirgi kun uchun ahamiyati alohida o‘rganiladi. MBXni tashkil etish va hisobga olish MBX bilan shug‘ullanuvchi barcha bo‘limlar yagona shakldagi hujjatlarda ma’lumotlarni bajaradi va hisobga olib boradi. Turli so‘roqlar bajarilishini hisobga olib borishda ularning soni ko‘rsatiladi va quyidagicha belgilanadi: so‘ralgan mavzular; aniqlash uchun so‘ralgan bibliografik yozuvlar soni; kutubxona fondida bo‘lishini so‘ragan nashrlar soni; aniqlash uchun so‘ralgan faktlar. So‘roqlar alohida daftarda yoki jurnalda qayd etib boriladi, ayrim kutubxonalarda talab qog‘ozlarida yoki boshqa xil hujjatlarda aks etadi. Hisobga olishda og‘zaki va yozma bajarilgan so‘roqlar, mavzulari va boshqa xillari bo‘yicha bajarilgan so‘roqlar alohida hisob qilinadi. Maxsus daftarda ularni hisobga olib borish uchun quyidagi tartib raqami, so‘roqning berilgan vaqtini, kimdan tushganligi,

mazmuni va maqsadi, so‘roqning turi (mavzuli, aniqlovchi, faktografik), bilim sohasi, so‘roqni bajarish manbasi, bajaruvchi, rad javob sababi, tashqi axborot resurslari, eslatmalar. Ayrim kutubxonalar bu chiziqlarni yanada ixchamlashtiradi, ayrimlari esa o‘z xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa bo‘limchalarni kiritadi. MBXni takomillashtirish, samarasini oshirish uchun muntazam ravishda son va sifat jihatidan tahlil qilib borish lozim. Uning maqsadi mavzular va kitobxonlar qiziqishini o‘rganish, axborot manbalarini takomillashtirishdir. Tahlil natijalari fond tarkibini, axborot resurslarini kengaytirishni, axborot xizmati tizimini yaxshilashni, bibliograflarning malakaviy bilim saviyasini oshirishni qay darajada davom ettirish va takomillashtirish haqida xulosalar beradi. Bundan tashqari, tahlil natijalari bibliografik axborot ishlarining qay darajada tashkil etilganligini ham ko‘rsatadi.

Nazorat savollari.

1. MBX nima va unga qanday talablar qo‘yiladi?
2. Kitobxonlar so‘roqlari bo‘yicha qanday ma’lumotlar bajariladi?
3. Turli so‘roqlarni bajarish dasturi nimadan iborat?
4. Aniqlovchi va faktografik ma’lumotlar qanday bajariladi?
5. Ayrim sohalarga oid bibliografik so‘roqlar qanday bajariladi?
6. Badiiy adabiyotlarga bo‘lgan so‘roqlarning turlarini aytib bering.
7. Axborot manbalarini sanab bering.
8. Ijtimoiy-siyosiy mazmundagi so‘roqlarning turlarini aytинг.

35-mavzu: Kutubxonani bibliografik axborotlashtirish

Reja:

1. Kitobxonlarni bibliografik axborot bilan ta’minalashning ommaviy, yakka, guruhli turlari bilan, ularni tashkil etish va olib borish yo‘llari bilan tanishtirish.
2. Bibliografik axborotlashtirish, yig‘ma kartotekalar.
3. Bibliografik axborotlashtirish haqida tushuncha

Tayanch iboralar.

Kitobxonlarni bibliografik axborot bilan ta’minalashning ommaviy, yakka, guruhli turlari bilan, ularni tashkil etish va olib borish yo‘llari bilan tanishtirish. Bibliografik axborotlashtirish, yig‘ma kartotekalar. Bibliografik axborotlashtirish haqida tushuncha.

Bibliografik axborotlashtirish iste’molchilarni bibliografik axborot bilan muntazam va ba’zan epizodik holda ta’minalash va axborot talabgorlarining doimiy axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishdir. Uning maqsadi — ma’lum bir vaqt mobaynida yoki muntazam ravishda kitobxonlarni qiziqtirgan mavzular, masalalar, muammolar bo‘yicha nashr etilayotgan eng yangi adabiyotlar, kutubxona fondiga kelib tushayotgan adabiyotlar, shuningdek, aynan shu kutubxonada yoki axborot-resurs markazlarida mavjud yangi hujjatlar bilan tanishtirib borish. Bu ish turli kutubxonalarda turlicha olib boriladi. Ayrimlarida, asosan, ommaviy ishlar olib borilsa, ayrimlarida guruhli axborotlashtirishga asosiy o‘rin beriladi. Bu shu kutubxona imkoniyatlardan, xodimlarning malakasidan, kitobxonlar xususiyatlardan kelib chiqib belgilanadi. Quyida bibliografik axborotlashtirishning turlari bilan yaqindan tanishamiz. Ommaviy bibliografik axborotlashtirish Ommaviy bibliografik axborotlashtirish axborot talabgorlarining keng qatlamini ijtimoiy muhim mavzularga oid ma’lumotlar bilan xabardor qilishdir. Uning maqsadi — umumiylilik bilim olishga va mustaqil bilim olishga ta’sir etish. Ommaviy bibliografik axborotlashtirish mazmuniga ko‘ra universal xarakterga va umumta’lim yo‘nalishiga ega. U kutubxona tashabbusi bilan mustaqil yoki boshqa tashkilotlar bilan birlgilikda o’tkaziladi. Masalan, axborotresurs markazlari, ommaviy axborot vositalari, maktablar, turli tashkilot va muassasalar bilan hamkorlikda. Uning shakllari: yangiliklar kartotekasi; yangi adabiyotlar bulleteni; yangi kitoblar, vaqtli matbuot nashrlari va boshqa hujjatlar ko‘rgazmasi; yangi 191 adabiyotlarning ko‘riklari va yangi kitob kunlari; yangi adabiyotlarning og‘zaki bibliografik sharhlari; yangi kitoblarga bag‘ishlangan plakatlar va xatcho‘plar; axborot kunlari va boshqalar. Bunday tadbirlar an’anaviy bo‘lishi bilan birga

avtomatlashgan usulda ham olib boriladi. Bunda, albatta, elektron kataloglar va ma'lumotlar bazasi muhim o'rinni tutadi. Axborot-resurs markazlarida, kitob savdosi tashkilotlarida iste'molchilarni muntazam yangi hujjatlar bilan tanishtirib borish maqsadida yangi adabiyotlar ko'rgazmalari va ochiq ko'riklari o'tkazib turiladi. Ko'rikko'rgazmalar doimiy bo'lishi bilan birga, undagi hujjatlar muntazam yangilanib turiladi. Og'zaki bibliografik sharhlar ham mustaqil yoki boshqa tadbirdarga, masalan, yangi adabiyotlar ko'rgazmasiga qo'shimcha tadbir sifatida qo'llaniladi. Sharhda qiziqarli yangi hujjatlar haqida keng axborot beriladi. Axborot kunlari bibliografik axborotlashtirishning kompleks usuli bo'lib, kitobxonlar guruhining bir xil toifasiga mo'ljallangan. Axborot kunlarida ma'lum bir vaqt mobaynida kutubxona fondiga kelib tushgan barcha yangi adabiyotlar, vaqtli matbuot nashrlari, elektron hujjatlar namoyish etiladi. Bu tadbir ichida ko'rikko'rgazmalar, og'zaki bibliografik sharh, suhbat va maslahatlar, axborot bulletenlari qo'llaniladi. Guruhli bibliografik axborotlashtirish Guruhli bibliografik axborotlashtirish — axborotga bo'lgan ehtiyoja ko'ra bir guruhni tashkil etadigan kitobxonlarni bibliografik axborot bilan muntazam ta'minlab borish. Ommaviy kutubxonalarda tadbirkorlar, ijtimoiy soha vakillari, tashkilot va muassasa rahbarlari, tabiatshunoslar, ekologlar va boshqa guruhlar. Guruhli bibliografik axborotlashtirish vaqtiga ko'ra doimiy yoki vaqtinchalik bo'ladi, mazmuniga ko'ra tarmoqlararo, mavzuli, muammoli-mavzuli bo'ladi. U kundalik yoki retrospektiv xarakterga ega. Anketa o'tkazish, suhbatlar olib borish, talablar yig'ish orqali muntazam ravishda aniq kitobxonlar guruhining axborotga bo'lgan ehtiyoji yig'ilib, tahlil qilib, o'rganib boriladi. So'ng uni o'tkazish vaqtini, axborot bilan ta'minlash tartibi belgilanadi: ketma-ketligi, kuni, vaqtini va boshqalar. Guruhli bibliografik axborotlashtirishning turli shakllari mavjud: yangi hujjatlarning tarmoq va mavzuli ro'yxatlari, mavzuli yoki kompleks ko'rgazmalar, mavzuli bibliografik sharhlar, axborot stendlari, mavzuli papkalar, mutaxassis kunlari, axborot xizmati yoymalari va boshqalar. 192 Mavzuli ko'rgazmalar yoki ko'riklar retrospektiv xarakterga ega bo'ladi. Ko'chma ko'rgazmalar qaysi tashkilotda tashkil etilsa, o'sha joy rahbariyati bilan tuzilgan shartnomasi asosida amalga oshadi. Og'zaki bibliografik sharhlar ham alohida olingen kitobxonlar guruh uchun o'tkaziladi va muhim ahamiyatga ega. Uni ko'rik-ko'rgazmalar vaqtida o'tkazish yaxshi samara beradi, uning matnnini saqlab qolib, boshqa kutubxonalarga foydalanish uchun berish ham mumkin. Boshqa kutubxonalar fondidan, internet orqali yoki elektron ma'lumotlar bazasidan olingen axborot hujjatlari asosida mavzuli papkalar, axborot-bibliografik to'plamlar, o'lkashunoslik mavzusidagi to'plamlar tashkil etiladi. Mavzuli axborot kunlari ham guruhli axborot berishda katta ahamiyatga ega va qiziqarli tadbir hisoblanadi. Uning maqsadi — mavzuga oid keng qamrovli adabiyotlarni namoyish etish, ular haqida ma'lumot berish va targ'ib qilish. Mutaxassis kunlari avvaldan tayyorlangan reja asosida olib boriladi. Asosiy vazifa mutaxassislar eng yangi zamонавиу axborot va kutubxonachilikbibliografik resurslar bilan tanishtirishdir. Mutaxassis kunlari dasturida tadbir haqida qisqacha so'z, mutaxassis ma'ruzasi, maxsus adabiyotlar sharhi, yangi ilg'or tajribalar haqida fikr almashish, tajriba almashish, ko'rgazma, maqolalar muhokamasi, axborot qidiruv haqida maslahat va boshqa tadbirlar aks etadi. Zamon talabidan kelib chiqqan holda axborot resurs markazlari, kutubxonalar mahalliy o'zini o'zi boshqarish tashkilotlariga, mahalla qo'mitalariga, xotin-qizlar bo'limlariga, sog'lom avlod, oila jamiyatlariga ularning ish faoliyatida zarur tadbirlar uchun axborot xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadilar. Yakka tartibda bibliografik axborot berish Yakka tartibda bibliografik axborot berish aniq bir kitobxon, axborot talabgorining doimiy qiziqishiga ko'ra bibliografik axborot bilan ta'minlashdir. Ayniqsa, mahalliy o'zini o'zi boshqarish rahbarlari, tashkilot va muassasalarning rahbarlari, madaniyat va san'at xodimlari, sog'liqni saqlash va maorif xodimlari, tadbirkorlar uchun alohida yakka tartibda bibliografik axborot xizmati tashkil etiladi. Bu axborot xizmati qat'iy va muntazam tor, aniq mavzular asosida olib boriladi. Yakka tartibda bibliografik axborotlashtirishning shakllari: og'zaki xabar berish (yuzmayuz yoki telefon orqali), to'plam yoki papka tayyorlash, faks yoki elektron pochta orqali ma'lumot jo'natish. 193 Yakka tartibda axborot berish obyektlari ko'p bo'lmaydi. Ular tanlab olinadi. Ularni bibliografik xizmat ko'rsatish bo'limi xodimlari suhbat davomida, anketa o'tkazish yo'li bilan, bir, yarim yil mobaynida ishlash jarayonida aniqlab, ajratib oladilar. Axborot tezkorlik, dolzarblik va

hozirjavoblik xususiyatiga ega bo‘lishi shart. Ba’zida axborot maxsus qog‘ozlarda yoki kartochkalarda jo‘natiladi. Unda hujjatning bibliografik tavsifi, qisqacha annotatsiya yoki sharh beriladi. Bular to‘planib, maxsus kartoteka shakllanadi. Muntazam ravishda abonentdan xizmatning darajasi haqida fikr yig‘ib borish lozim. Yakka tartibda axborot xizmati ko‘rsatishning ta’sirli shakli axborotni tanlab tarqatish (ATT) va rahbarlarga differential xizmat ko‘rsatishdan iborat. Bu, asosan, rahbar xodimlar uchun qo‘llaniladi, uni an‘anaviy shaklda ham, avtomatlashgan shaklda ham amalga oshirish mumkin. Bibliografik axborotlashtirish sohasida olib boriladigan ishlar ham boshqa faoliyat turlari kabi kutubxonaning ish rejasida ko‘rsatiladi. Kutubxonada, albatta, bibliografik axborotlashtirishga yordam beruvchi ma‘lumot apparati — abonentlar kartotekasi va yig‘ma yoki xizmat kartotekasi tuziladi. Abonentlar kartotekasida quyidagi bo‘limlar bo‘lishi kerak: — yakka bibliografik axborotlashtirish abonentlari — familiyalar alifbo tartibida joylashtiriladi; — guruhi bibliografik axborotlashtirish abonentlari — tashkilot va muassasalarning nomlari alifbo tartibida, ichida abonentlarning familiyasi alifbo tartibida joylashtiriladi; — yakka bibliografik axborot uchun mavzular alifbo tartibida; — guruhi bibliografik axborot uchun mavzular alifbo tartibida. Bibliograf olib boradigan yig‘ma kartotekada quyidagi bo‘limlar tashkil etiladi: abonentlar (yakka, guruhi va ommaviy axborot abonentlari alohida ko‘rsatiladi); mavzular (doimiy mavzularning alifbo tartibida). Bibliograf kartotekada doimiy so‘roqlarni alohida belgilab boradi, boshqa tashkilotlar, OAV bilan hamkorlikda faoliyat yuritishda zarur manba hisoblanadi. Ish hisobi maxsus daftarda olib boriladi. Uning ko‘rinishi, bo‘limlari kutubxonada belgilangan tartibda yuritiladi.

Nazorat savollari.

1. Bibliografik axborotlashtirishning MBXdan farqi nimada?
2. Bibliografik axborot uchun guruhi qaysi jihatlariga ko‘ra ajratiladi?
3. Axborot kunlari bilan mutaxassis kunlarining farqini ayting.
4. Ko‘rik-ko‘rgazmalarini tashkil etishning qanday qoidasi mavjud?
5. Ommaviy bibliografik axborotning qanday shakllarini bilasiz?
6. Guruhi bibliografik axborot berish shakllari haqida to‘xtaling.
7. Yakka tartibda axborot berishning qanday shakllari mayjud?
8. Axborotni tanlab tarqatish va rahbar xodimlarga differential xizmat ko‘rsatishning xususiyatlari.

36-mavzu: Xalqaro bibliografik formatlar

Reja:

1. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun zarur bilimlarni egallahsha yordam berish, xalqaro bibliografik formatlar, ularning tarixi, shakllanish jarayonlari, turlari, ahamiyati haqida bilim berish.
2. MARC, format, UKMARC, USMARC, milliy formatlar, kodlar.
3. MARC formatlarining tarixi, shakllanishi, ahamiyati

Tayanch iboralar.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun zarur bilimlarni egallahsha yordam berish, xalqaro bibliografik formatlar, ularning tarixi, shakllanish jarayonlari, turlari, ahamiyati haqida bilim berish. MARC, format, UKMARC, USMARC, milliy formatlar, kodlar. MARC formatlarining tarixi, shakllanishi, ahamiyati.

Mustaqillik yo‘lidan sobitqadamlik bilan ilgari borayotgan mamlakatimizda ijtimoiy-siyosi, madaniy-ma‘rifiy va iqtisodiy sohalarda ham jahon talablari darajasida rivojlanishda ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, kelajagimizni belgilab beruvchi, mamlakatimiz istiqbolini yaratuvchi yoshlarning ta’lim va tarbiyaviy tizimidagi islohotlar muhim ahamiyatga ega. „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“ va „Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonunda, madaniyat va ma‘naviyat sohasidagi qator hujjatlarda belgilab berilganidek, ta’lim tizimida sifat bosqichi amalga oshirilmoqda. Turli yo‘nalishlarda o‘quv adabiyotlari yaratish yo‘lga qo‘yildi. Zamon

talablaridan kelib chiqqan holda kutubxonachi-bibliograflarni tayyorlash sohasida ham zarur adabiyotlar yaratilmoqda. Kutubxonalarda kutubxona-axborot tizimini yaratish va bunda jahon tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu esa kutubxonalar ish jarayonining kengayishiga, globalashuviga, ish sifatining oshishiga, olib keldi. Mamlakatimizda 25 dan oshiq yirik kutubxonalar xalqaro formatlar asosida ish olib bormoqda, elektron katalog yaratish jarayoni amalga oshirilyapti. Kitob berilishi, kutubxona fondini butlash, kitobxonlar hisobi avtomatlashtirilgan shaklga o'tdi. Zamонавиу axborotlar texnologiyasi tizimida MARC formatlarning o'rni katta. MARC formatlar bibliografik ma'lumotlarni 195 mashinada o'qishga asoslangan standartlardir. Kutubxonalar axborot tizimida MARC formatlar kutubxonada mavjud an'anaviy kataloglardagi bibliografik yozuvlarni, ayniqsa, ana shu kataloglar kartochkasiga sig'may qolgan kengroq ma'lumotlarni mashinada o'qiy olish imkonini beradi. Yana bir xususiyati shundaki, bunday formatlar vositasida ko'plab mamlakatlar orasida bibliografik ma'lumotlarni almashish, bir mamlakat ichida va xalqaro miqyosda axborot almashuv tizimini va yig'ma kataloglarni yaratish imkonini beradi. Eng asosiysi, xalqaro MARC formatlar kommunikativ aloqa vositasi hamdir. Uni qo'llashning maqsadi va vazifalari ana shu xususiyatlaridan kelib chiqadi. Demak, u mashinada o'qiladigan katalog bo'lib, Machine-Readable Catalogue yoki CatalogingMARC deb yuritiladi. Uning asosiy maqsadi kutubxona fondida mavjud adabiyotlar haqidagi bibliografik ma'lumotlarni kompyuterdag'i maxsus dastur asosida mashinada o'qishga asoslangan shaklini yaratishdan iborat. 1960- yildan boshlab mashinada o'qiladigan yozuvlarni yaratish imkonini beruvchi kompyuterlarga ega bo'lgan AQSHning Kongress kutubxonasi bibliografik ma'lumotlarning mashinada o'qiladigan shaklini yaratish g'oyasini ilgari suradi. Bevosita kataloglardagi kartochka yozuvlarini kompyuterarga ko'chirish iloji yo'q edi. Buning uchun kompyuterda shu ma'- lumotlarni kiritishning maxsus tizimi yaritilish zarur bo'lib qoldi. Bunday murakkab vazifani hal etish uchun Kongress kutubxonasi 1965 — 66- yillarda loyiha ishlab chiqadi va uni MARC 1 deb ataydi. Uning maqsadi bibliografik tavsifni mashinada o'qiladigan shaklga keltirish. Loyihaning ishtirokchilari AQSH, Kanadaning 16 ta yirik kutubxonalari va Britaniya muzeyi kutubxonasi edi. Tadqiqot va tajriba ishlari Buyuk Britaniyada amalga oshirildi. Bu ish bilan parallel holda Britaniya milliy bibliografiyasi Kengashi BNB MARC nomi bilan loyiha yaratdilar. Uning vazifasi mashinada o'qiladigan ma'lumotlarni Britaniya milliy bibliografiyasi nashrlarini tayyorlash va nashr etish jarayonida qo'llashdan iborat edi. Bir vaqtning o'zida yaratilgan bu ikki loyiha bundan keyin MARC II formatini yaratishda Amerika va Angliya hamkorligining poydevori bo'lib qoldi. Bu format MARC formatidan kommunikativ aloqa vositasi sifatida foydalanishga qaratildi. MARC II formatiga yuklatilgan mas'uliyat ko'p yillar davomida o'zida qoldirildi va u hujjatlarning hamma turlari haqidagi bibliografik ma'lumotlarni berishga, turli xil kutubxona-axborot vazifalarini bajarishga, kataloglashtirishga va 196 undan turli avtomatlashtirilgan tizimlarda foydalanish imkonini yaratishga qaratilgan. Mashinada o'qiladigan kataloglarni yaratish bo'yicha mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikka qaramay, MARC formatlarning ko'plab variantlari paydo bo'ldi. Buyuk Britaniyada UKMARC, AQSHda USMARC, fransuz tilida so'zlashuvchilar — Fransiya, Belgiya va Shvetsiyaning fransuz tilida gaplashuvchi qismi uchun INTERMARC yaratildi. 1970- yillarga kelib, MARC formatlarning soni 70 dan oshdi. Ular orasida Kanadada CANMARC, Finlandiyada FINMARC, OCLC — Onlayn kompyuter kutubxonachilik markazi va boshqalar yaratildi. Ular uchun USMARC asosiy negiz — baza bo'lib xizmat qiladi. Milliy formatlarning ko'plab yaratilganiga sabab milliy qoidalar va tafovutlardir. Natijada turli xil formatlarda va turli xil tizimda axborot almashayotgan ish murakkablashdi. Formatlar o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish uchun IFLA darajasida xalqaro vositachi format yaratishga qaror qilindi, bu format UNIMARC nomi bilan 1977- yilda maxsus ishchi guruhi tomonidan yaratildi va u „universal MARC“ deb ham yuritiladi. Ishchi guruhi tarkibiga AQSH Kongressi Kutubxonasi vakillari va boshqa davlatlardan mutaxassislar kiritildi. MARC formatlarning turlari, milliy formatlar 1970- yillardan Rossiyada MARC formatlar yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari 3 bosqichda boshlandi. 1- bosqichda bibliografik yozuvlarning yagona formatini yaratish avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimlarining

texnologik asosi sifatidagi imkoniyatlari o'rganilgan. 2- bosqichda tadqiqot natijalari Davlat ilmiy-ommabop texnika kutubxonasi va boshqa kutubxonalarida tajriba tariqasida sinab ko'rildi. 3- bosqichda kutubxona mutaxassislari kommunikativ format uchun davlat standartlari va MDH doirasida xalqaro formatlar ishlab chiqishga jalg qilingan. 1970 — 1972- yillarda Davlat ilmiy-ommabop texnika kutubxonasida tuzilgan 30 dan ortiq kutubxona va informatsion tashkilotlar mutaxassislarni birlashtirgan ishchi guruhi tomonidan „Magnit lentasida bibliografik yozuvlarning kommunikativ formati“ va formatni to'ldirishga mo'ljallangan „Bibliografik yozuvlarning mashina oldi formati“ tuzilishi uchun Davlat standartlari loyihalari tayyorlandi. Kommunikativ formatdagi yozuv tuzilishi tasviri 2709 xalqaro standartga mos edi. Mashina oldi formatini to'ldirish ma'lumotlar elementlarini 197 aniqlash va ularni uch belgili kodlashtirish darajasiga keltirildi. Kommunikativ format to'ldiruvchisini ishlab chiqishda chet el tajribalari, xususan, MARC formatlar oilasiga kiruvchi USMARC formati o'rganildi. 1990- yildan boshlab Rossiya bozorida avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimlari AIBS „MARC-NPO Informsistema va Moskva Davlat universitetining mahsuloti „Biblioteka“ning paydo bo'lishi bilan USMARC formati Rossiyada tatbiq qilina boshlandi. Formatlarni o'rganish va tatbiq qilish ilgari ham bo'lgan, ammo ularni real tatbiq qilish yuqorida keltirilgan avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimlarining yaratilishi bilan bog'liq. Ishlab chiqilayotgan formatlar Xalqaro standartlar va Rossiyadagi standartlar hamda qoidalarga mos kelishi zarur. Bunday talablarning bajarilishiga USMARC va UNIMARC formatlari javob beradi. Tahlillar natijasida UNIMARC formati Rossiya milliy formatini yaratish uchun asos qilib olindi. Uch bosqichda Rossiya milliy formati ustida ish olib borildi. 1- bosqichda avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimining texnologik asosi sifatida bibliografik yozuvlarning yagona formatini tashkil etish imkoniyatlari o'rganildi. 2- bosqichda Rossiya Davlat xalq ilmiy-texnika kutubxonasi va boshqa kutubxonalar uchun o'tkazilgan tadqiqot ishlarining natijasi va uning qo'llanishi darajasi o'rganildi. 3- bosqich kommunikativ formatning davlat standartlarini ishlab chiqish va belgilangan dastur doirasida xalqaro formatni ishlab chiqishda ishtirok etishdan iborat bo'ldi. Kommunikativ format yozuvlari va ularning tuzilishi ISO 2709 sonli Xalqaro standartga mos keltirildi. 1990- yil boshlarida UNIMARC va USMARC xalqaro formatlarini amaliyotga kiritish jadallahdi. Shu munosabat bilan Rossiya kutubxonalarining kutubxonachilik kooperatsiyasi va bibliografik axborot almashuvning xalqaro tizimiga kirib borishini tezlatish maqsadida UNIMARC bo'yicha asosiy materiallarni rus tiliga o'girish sohasida ish olib borildi. 1995- yil oktabrida Rossiya milliy formatini yaratish to'g'risida qaror qabul qilindi va u RUSMARC deb nomlandi, bu format 1994- yilgi UNIMARC asosida tahrir qilindi. Bu format IFLAning xalqaro qo'mitasi tomonidan milliy format sifatida rasman tan olingan va ro'yxatga olingan. Rossiya Federatsiyasi Madaniyat vazirligining 1998- yil 27.01 45- sonli buyrug'i bilan kutubxonalarda axborot almashinuvni uchun majburiy qo'llanuvchi format sifatida kiritildi. 2000- yil 198 29- fevraldagagi 139- sonli buyruqda bu formatni Rossiya Federatsiyasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi kutubxonalar uchun avtomatlashgan kutubxona-axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash uchun majburiy deb ko'rsatildi. Rossiya Milliy kutubxonasi ana shu format asosida kataloglashtirish ishlarini olib boradi. „Libnet“ nomi bilan yuritiluvchi milliy axborotbibliografiya Markazi RF Madaniyat vazirligining qo'llab quvvatlashi bilan ikkala milliy kutubxona tomonidan ta'sis etilgan va u mamlakatda davr talabi darajasida korporativ kataloglashtirishni olib boradi. Markazning ishi ham RUSMARC formatida olib boriladi. Rossiyaning turli hududlarida RUSMARCni qo'lllovchi, axborot almashuv formati hamda kataloglashtirish formati sifatida boshqa formatlar ham yaratildi. Bular ORAC-GLOBAL (DIT-M, Moskva), RUSLAN (SpbGU, Sankt-Peterburg) va boshqalar. Bundan tashqari, jahonning ko'pgina yirik va rivojlangan mamlakatlari ham o'zlarining formatlarini yaratishga harakat qildilar va yaratdilar. Shulardan biri Kanada davlatidir. Kanadada xalqaro formatlarni o'rganish maqsadida tashkil topgan ishchi guruhi o'zlaridan avval tuzilgan bir qancha formatlarni o'rganib, tahlil qilib, USMARC asosida unga qo'shimcha maydon va maydonosti chiziqlarini kiritgan holda CANMARCni yaratdilar. Kanada 2 ta davlat tiliga (ingliz va fransuz) ega bo'lganligi sababli formatda yo'naltirish berish uchun qo'shimcha belgilar (metka)lar, markerda yozuv

statusini beruvchi to‘liq yoki qisqa kodlar kiritildi. Bu format 1979- yili nashr etildi. Avstralaliyaning milliy kutubxonasi 1973- yil o‘zining AUSMARCni yaratdi. Uning 2- nashri 1975- yili chiqdi. Avstraliya formati UKMARCga asoslangan, ammo o‘zining milliy xususiyatiga ko‘ra o‘zgarishlar kiritgan. 1988- yili ular USMARC asosida avtoritet ma’lumotlar uchun format ishlab chiqdilar. Hozirgi paytda bunday formatlarning soni 50 dan oshib ketdi va ular har biri o‘z milliy xususiyatiga ega bo‘lish bilan birga xalqaro axborot almashuv tizimiga bo‘ysunadi. MARC formatda bibliografik yozuvlarni aks ettirish xususiyatlari 1970- yillarga kelib, formatlar soni 20 tadan oshdi. Bu formatlarning xilma-xilligi ular tarkibidagi ma’lumotlarning birbiridan farqi va ularni almashtirishdan oldin tahrir qilish zaruratini tug‘dirdi. Formatlar orasidagi bunday nomutanosiblikka barham 199 berish maqsadida xalqaro MARC (UNIMARC) format ishlab chiqishga kirishildi. Mazkur format yordamida ixtiyoriy formatdagি bibliografik yozuvni qabul qilish va uzatish imkoniyatini yaratishga harakat qilinadi. Biror-bir milliy formatda u mansub bo‘lgan mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi, shunga ko‘ra belgilarda, kodlarda, bibliografik yozuvning biror-bir maydon chizig‘ida aks etishida farq bo‘ladi. Formatda bibliografik yozuvlarni berish amalda qo‘llanilayotgan bibliografik ma’lumotlarni tavsiflashning qonun-qoidalariga amal qilinadi. Boshqa tomoni, an’anaviy katalogda berilayotgan ma’lumotlarga nisbatan elektron katalogda ma’lumotlar 4 — 5 baravar ko‘p beriladi. Har bir hujjat haqida eng ko‘pi bilan 800 tagacha element berilishi mumkin. Bu hujjatning o‘ziga xos xususiyatlari bog‘liq. Har bir element hujjat mazmunini, mohiyatini oshib berishga xizmat qiladi va shuning uchun ham muhim ahamiyatga ega. Yozuvlarni kiritishda yo‘l qo‘ylgan birgina xato avtomatik ravishda boshqa xatolarning kelib chiqishiga yo‘l qo‘yadi. Bibliografik yozuvlarni kiritish uchun ba’zi tushunchalarni bilib olishga to‘g‘ri keladi. Maydon (iiñëå) — formatning chap tomonida yozuvlarni kiritish uchun savol tariqasida berilgan jadval. Bibliograf-katalogizator ana shu savollarga javob berib boradi. Jadvalda maydon va maydonosti chiziqlari ko‘rsatiladi. Maydon ikki xil bo‘ladi: maydon va maydonosti maydoni yoki chizig‘i (iiäññëå). Maydon nomini har safar qaytarish ko‘p vaqt talab qilgani va so‘zlarni qaytaqayta yozib bormaslik uchun har bir maydonga 3 ta raqamdan iborat belgi (iåTêà) belgilangan. Ma’lumotlar turi va mazmunan bir-biriga yaqinligiga ko‘ra alohida bloklarda berish uchun guruhlashtirilgan. Masalan, „Nusxasi“ (äóáéåTííñT) blokida tasvir boshi, sarlavhasi, unga taalluqli ma’lumotlar, nashr yili, nashriyot nomi, nashr joyi, bahosi, adadi, hajmi, chiqish sonlari haqidagi ma’lumotlar beriladi. „Asosiy bibliografik tavsif“ (iññâåññå Áî)da boshqa mualliflar haqidagi ma’lumotlar, muharrirlar, tuzuvchilar va nashrni bajarishda ishtirok etgan boshqa shaxslar haqidagi ma’lumotlar, qayta nashr etilganligi haqidagi ma’lumotlar, hammualliflar haqidagi ma’lumotlar va shu tarzda yana boshqa bloklarda bibliografik ma’lumotlarni kiritish davom etadi. „Mazmuni“ (Ñiäåpæäiéå) blokida kalitli so‘zlar, annotatsiya beriladi. Bu esa har qanday so‘z yordamida iste’molchilar so‘rog‘iga javob topish va ro‘yxat tuzib berishda qo‘l keladi va juda tez bajarish uchun zamin tayyorlaydi. Respublikamiz kutubxonalarida qo‘llanilayotgan bu tizim hozirgi paytda mukammal bo‘lmasa-da, to‘la darajada elektron katalogni yaratish imkonini beradi.

Nazorat savollari.

1. Xalqaro bibliografik formatlar haqida tushuncha bering.
2. MARC formatlarning tarixi va shakllanishi haqida gapiring.
3. MARC formatlarning qanday turlari mavjud?
4. MARC formatda bibliografik yozuvlarni aks ettirish xususiyatlari haqida to‘xtaling.
5. Xalqaro bibliografik formatlarning hozirgi paytda qanday ahamiyati bor?

37-mavzu: Kitobxonlarning axborot va kompyuter madaniyatini tarbiyalash, shakllantirishda kutubxonalar faoliyati

Reja:

1. Kutubxonalar faoliyatida barkamol avlodni voyaga yetkazishda zarur bo‘lgan ish yo‘nalishlaridan biri ularda hujjatlar vositasida ma’naviyat va madaniyat ko‘rinishlarini tarbiyalash masalalarini yoritib berish.

- Axborot madaniyati, kompyuter madaniyati. Kitobxonlarning axborot madaniyatini tarbiyalash shakllari

Tayanch iboralar.

Kutubxonalar faoliyatida barkamol avlodni voyaga yetkazishda zarur bo‘lgan ish yo‘nalishlaridan biri ularda hujjatlar vositasida ma’naviyat va madaniyat ko‘rinishlarini tarbiyalash masalalarini yoritib berish. Axborot madaniyati, kompyuter madaniyati. Kitobxonlarning axborot madaniyatini tarbiyalash shakllari.

Matbuotda axborot va kompyuter madaniyati haqida fikrlar ko‘plab uchraydi. Avvaldan kutubxonachilik ishida kitobxon madaniyati, o‘qish madaniyati tushunchalari ishlatilgan. Zamonaviy xususiyatlar ta’sirida axborot va kitobxon madaniyati tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqin ma’noda qo‘llanishi ko‘zga tashlanyapti. Bu tushunchalar shunisi bilan dolzarbki, zamon axborotlashib bormoqda, axborot olami kengayib ketdi. Endi har bir kishi vaqtidan unumli foydalangan holda o‘zi uchun zarur axborotni o‘z vaqtida olishga ulgurishi kerak. Axborot olamidan o‘zi uchun kerak axborotni tanlab olish, uni qayta ishlab chiqish dengiz tubidan gavhar qidirish bilan teng. Hozirgi kun ta’lim va tarbiya tizimida kishilarni, ayniqsa, bolalarni kelgusida axborotlashgan jamiyat hayotida faol yashashga tayyorlash 201 muammosi turibdi. Buning uchun maktab o‘qituvchilarini va kutubxonachilarini axborot madaniyatiga o‘qitish zaruriyati tug‘iladi. Axborot madaniyati — axborotni qidirish, axborot resurslari (matbuot nashrlarining barcha turlari) bilan ishlay olish, axborotni qidirish, topish, u bilan ishslash, analistik va sintetik tahlil qilish, shaxsiy hayotida va mehnat faoliyatida qo‘llay olish ko‘nikmasi darajasi. Har bir kishi buni bajarish jarayonida quyidagi savollarga javob bera olishi zarur: — Men nima qilishim kerak? — Axborotni topish uchun qayerga murojaat qilishim kerak? — Axborotni qanday yo‘l bilan olishim kerak? (Axborotni qidirish uchun aniq resurslarni tanlash) — Qaysi resurslardan foydalanishim zarur? — Resurslardan qanday foydalanishim kerak? (Taqidiy tahlil qila bilish) — Undan nimani yozib olishim kerak? (Axborotni saralash va tanlash) — Zarur axborotni ola bildimmi? (Tahlil, sintez, baho berish) — Uni qanday va qay yo‘l bilan taqdim etish kerak? (Natijaga baho berish) Axborot madaniyatini tarbiyalash mifik va bolalar kutubxonasi xodimlarining asosiy vazifasi. Chunki kitobxon kitobxonlik umrining asosiy vaqtini shu kutubxonalarda o‘tkazadi. Shuning uchun kutubxonachi-pedagog kasbini tayyorlash vazifasi muhim vazifalardan biri. Masalan, Rossiya maktablarida kutubxonachilar kichik sinf o‘qituvchilariga kitobxonlik va axborot madaniyatini shakllantirishda yordam berish bo‘yicha maxsus dasturlar yaratilgan. Axborot bilan ishslash ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida o‘rta sinflarda kutubxonachilik-bibliografik bilimlar targ‘ib qilinadi, o‘rgatiladi. Yuqori sinflarda esa axborot madaniyati asoslardan darslar o‘tiladi. Bizning xalqimiz avvaldan kitobxon xalq. Ammo kitobxonlik madaniyatini yuqori darajaga ko‘tarish lozim. O‘zbekcha mifik o‘quvchilariga o‘zbek adapiyoti va boshqa xalqlar adapiyoti haqida ko‘proq tasavvur va tushuncha hosil qildirishimiz kerak. Shuningdek, adapiyotni davrlar bo‘yicha, mamlakatlar bo‘yicha, janrlar bo‘yicha ham ajrata olishlari zarur. Bunday tushunchani, bilimni shakllantirish, avvalo, adapiyot fani o‘qituvchilarining ishi bo‘lsa, ikkinchidan, kutubxonachining ham vazifasidir. 202 Kutubxonachilar axborot madaniyatini tarbiyalashda quyidagilarga e’tiborni qaratishlari kerak: — tarixiy va huquqiy madaniyatni rivojlantirish — davlat qonunlarini, rasmiy hujjatlarni bilishga yo‘llash; — estetik va kitob madaniyati, shuningdek, o‘qish madaniyati ko‘nikmalarini tarbiyalash; — bibliografik madaniyat; — zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini va madaniyatini tarbiyalash; — muloqot madaniyatini shakllantirish. Bu xususiyatlar hamma uchun zarur. Iste’molchilar bilan ish olib borishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi: rejalilik; ketma-ketlik; bosqichma-bosqich olib borish; alohida-alohida ish olib borish (kitobxonning yoki iste’molching bilim saviyasi, darajasini hisobga olgan holda yondashish). Buning uchun axborot ko‘rgazmalari, stendlar, turli bibliografik, uslubiy plakatlar, kompyuter dasturlari bo‘yicha bilim berishga oid turli xil qo‘llanmalar, varaqlar, bukletlar, mustaqil ma’lumot yig‘ish va qidirishga oid maslahatlar, savol-javob o‘yinlari, turli videonamoyishlardan foydalaniladi. Kitobxonlar madaniyatini shakllantirish Huquqiy

madaniyatni shakllantirib, tarbiyalab borish har bir tarbiya va ta'lim tizimidagi xodimning vazifasi. Ko'pgina axborot-kutubxona markazlarida huquqiy axborot markazlari tashkil etilgan. Bu markazlar viloyat hududidagi barcha fuqarolar, tashkilot va muassasalar, bilim maskanlari bilan ish olib borish bilan birga boshqa tizimdagи kutubxonalarga shu yo'naliшda uslubiy yordam beradilar. Huquqiy madaniyat — bu o'zining Konstitutsiyada belgilangan haq-huquqlarini, burchi va vazifalarini anglab yetish, to'lato'kis amalga oshirish, amaliy faoliyatida va shaxsiy hayotida ana shu me'yorlardan unumli va to'g'ri foydalana bilish qobiliyati, san'ati va bilimining yig'indisi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya maskanlari, jumladan, axborot-kutubxona markazlari, axborotresurs markazlari faoliyati asosiy yo'naliшlaridan biri huquqiy madaniyatni tarbiyalash, tarixiy bilimlarni bera olishdan iborat. Buning uchun huquqiy mazmundagi adabiyotlar va bilimlarni targ'ib qilishning og'zaki, ko'rgazmali va kompleks usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan: „Siz o'z 203 huquqingizni bilasizmi?“ mavzusida kitob ko'rgazmasi, mavzuli kartoteka, bibliografik sharh, savol-javob o'yinlari, suhbatlar, munozara-bahs, huquqshunoslar bilan uchrashuv kechalari o'tkazish, shu yo'naliшdagи eng qimmatli asarlar taqdimoti, kitob kechalari va ular tarkibida psixodramatik sahnalar namoyishi turli kitobxonlar guruhining o'ziga xos xususiyatlarga qarab tashkil etiladi. Kitob o'qish madaniyati, axborotni qidirish, toplash, tahlil qilish, tanlash, undan to'g'ri foydalana olish qoidalarini ko'pchilik kitobxonlar tushunib yetmaydilar. Estetik madaniyat ko'nikmasi har bir fuqaroga zarur. Chunki estetik tarbiya olgan kishigina yaxshilikka intiladi, ezgulik ko'rsata oladi, yaxshilikdan, go'zallikdan bahra olishni va boshqalar bilan uni baham ko'rishni biladi. Go'zallikni tushuna olmagan, his qila olmagan kishidan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Shuning uchun barcha adabiyot va san'at asarlaridan, ular asosida yaratilgan audio va video hamda elektron manbalardan unumli foydalanish burchimizdir. O'qish madaniyati — bu o'qish, mutolaa uchun hujjatni to'g'ri tanlay bilish, eng zarurini ajrata olish, undan o'z vaqtida to'g'ri foydalana olish, amaliyotda unumli foydalanish ko'nikmasi. O'qish madaniyati, asosan, yosh kitobxonlar bilan ishlovchi maktab, kollej va litsey qoshida tashkil etilgan axborot-resurs markazlarining vazifasi. Uni tarbiyalashda o'qituvchilar, ota-onalar va kutubxona xodimlarining hamkorligi zarur. Bibliografik madaniyat. Ko'p hollarda kutubxona kataloglari, shuningdek, elektron kataloglar, adabiyotlar ro'yxati, tavsiya qo'llanmalari, bibliografik ko'rsatkichlar, sharhlar, yirik bibliografik manbalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Har qanday ilmiy izlanishlar, tadqiqot ishlari ularning yordamisiz amalga oshmaydi. Ayniqsa, faqatgina bir kutubxonada yaratilgan elektron katalogdan emas, balki boshqa mamlakat kutubxonalarining elektron katalogidan foydalanishda bibliografik elementlarni bilish bilolografik yozuvlarning qaysi tilda bo'lishidan qat'i nazar katta ahamiyatga ega. Bibliografik manbalardagi yordamchi apparatlar — ismlar, predmet, alifbo ko'rsatkichi, mundarija, kirish so'zi va boshqa turli ma'lumotlardan unumli foydalanish ko'nikmasi kitobxon uchun zarur. Bunday ko'nikmani shakllantirib borish ham kutubxona xodimining vazifasidir. 204 Axborot texnologiyalari asrida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi va madaniyatiga ehtiyoj katta. Har bir kutubxona, axborot markazi, o'quv xonalari, sinfonalar va auditoriyalar kompyuterlashtirilmoqda. Ana shunday sharoitda kompyuterdan foydalanishning texnik va gigiyenik qoidalarini anglab yetish, texnika xavfsizligiga amal qilish, kompyuterni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, undan unumli foydalanish talab etiladi. AKM va ARMIlarda tashkil etilgan axborot texnologiyalari bo'limlarining asosiy vazifasi ana shu ko'nikmani va madaniyatni tarbiyalashdan iborat. Buning uchun har bir foydalanuvchi bilan ishslash, turli ko'rgazmali qurollardan foydalanish, ommaviy tadbirlarning, yakka tartibda olib boriladigan ishlarning sifatini oshirish, maxsus o'quv kurslari tashkil etishni nazorat qilib borish, maslahatlar uyushtirish kutubxonalar tajribasiga kirib keldi. Muloqot madaniyatini shakllantirish. Alisher Navoiy: „So'z aytish va so'z tinglash odobiga alohida e'tiborni qaratish, uni ota-ona tarbiyasining nishonasidur“, deydi. Muloqot — ikki va undan ortiq kishi o'rtasidagi suhbat. Suhbatlashish, muloqotga kirishish odobi har bir inson uchun zarur. Muloqot davomida o'zaro fikr almashinadi, bir-biridan o'rganiladi, tarbiyaviy jarayon amalga oshadi, bilim olish, ma'lumot olish, o'zida mavjud fikr va mulohazadagi xatoni to'g'rilash, kamchilikni to'ldirish, boyitib

borish mumkin bo‘ladi. Shuning uchun o‘zaro muloqotda odobni saqlash, o‘zaro hurmat, e’tibor, diqqat talab etiladi. Ammo uni kitob vositasida, kutubxonada o‘tkaziladigan tadbirlar ta’sirida amalga oshirish ko‘proq samara beradi. Hatto kitobxon oilada olmagan bilimini kutubxonadan topadi, oilada berilmagan yaxshi fazilatni boshqalar ta’sirida o‘ziga singdiradi. Bunda kutubxona xodimidan, har bir tarbiya va ta’lim maskani xodimidan shaxsiy namuna talab etiladi.

Nazorat savollari.

1. Axborot madaniyati nima?
2. Kompyuter madaniyati deganda nimani tushunasiz?
3. O‘qish madaniyati va bibliografik madaniyatning ahamiyatini aytинг.
4. Muloqot madaniyati haqida tushuncha bering.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“MADANIYATSHUNOSLIK”
KAFEDRASI**

**“BIBLIOGRAFIYASHUNOSLIK”
fani bo`yicha**

**SEMINAR VA AMALIY MASHG’ULOTLAR
ISHLANMASI**

Namangan – 2021

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“BIBLIOGRAFIYASHUNOSLIK”
fanidan seminar va amaliy mashg’ulotlar ishlanmasi**

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rtalik maxsus ta`lim vazirligi oliy o`quv yurtlarining muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan ijtimoiy madaniy faoliyat ta`lim yo`nalishi talabalariga uchun “Bibliografiyashunoslik” fanidan seminar va amaliy mashg’ulotlar ishlanmasi NamDU Madaniyatshunoslik kafedrasining 2021 yil _____ dagi ____-sonli yig`ilishi qaroriga ko`ra NamDU o`quv uslubiy kengashi tomonidan bakalavr larning tayorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablar bo`yicha qo`llanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi: **t.f.n., dots. O.Topildiyev**

Taqrizchi: **t.f.n., dots. Z. Xaydarov**

Kirish

“Biblografiyashunoslik” fanini o‘qitish bilan zamon talablariga javob berish, hozirgi bosqichda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari oldida turgan vazifalarni talabaga etkaza olish, bibliografiya fanining shakllanish va rivojlanish, amaliyatga tatbiq etish yo‘llarini ochib berish bilan talabada: bibliografik faoliyatning ilg‘or tajribasini tez ilg‘ay olish va targ‘ib qilish; fikrlash qobiliyatini faollashtirish, mustaqil rivojlantirib borish; bibliografik bilimlarni va ko‘nikmalarni kengroq, ongli va mustahkam egallash; maxsus bibliografik atamalar, tushunchalar, qoidalar bilan tanishib borish; mustaqil bajarilgan ishlarini - sharhlar, esdaliklar, o‘qish rejalar, ro‘yhatlar, kartotekalar, elektron bibliografik qo‘llanmalarini darsda namoyish qilish. Barcha soha bo‘limlaridagi xujjatlarni, bibliografiyaning nazariy va tashkiliy asoslarini o‘rganish; axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarida bibliografik ishlarini uslubi va tashkil qilinishini bilish; sohada axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha amaliy malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, barcha bilim sohalariga oid bibliografiyaning tur va xillarini bilish ko‘nikmasini tarbiyalashdan iborat.

Semestrlar bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatning taqsimoti

Semestr	Yuklama	Yuklamani auditoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha taqsimlanishi				Mustaqil ta’lim
		Jami	Ma’ruza	Seminar mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot	
1-semestr	120	60	16	8	36	60
2-semestr	120	60	16	8	36	60
3-semestr	120	60	16	8	36	60
4-semestr	120	60	16	8	36	60
5-semestr	180	90	20	24	46	90
6-semestr	60	30	6	4	20	30
Jami	720	360	90	60	210	360

“Biblografiyashunoslik” fanidan seminar va amaliy mashg‘ulotlarning mavzulari va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi: **Seminar mashg‘ulotlari taqsimoti.**

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni		Soati
		1-semestr		
1	Biblografiyashuno slik faniga kirish. Biblografiyashuno slik fanning predmeti, maqsadi va vazifalari	“Biblografiyashunoslik” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Bibliografiyaning tayanch belgilari. Bibliografiyaning asosiy turlari. Bibliografiyaning tashkil etish maqsadi. Bibliografik mahsulotlar haqida tushuncha va ularning ahamiyati. Bibliografiyaning jamiyat hayotida tutgan o‘rnii va ahamiyati.		2
2	Bibliografiyaning tarixi: bibliografiya tushunchasi, kelib chiqishi, zamonaviy talqini. Bibliografiya nazariyasi.	Bibliografiya tushunchasi, uning kelib chiqishi va shakllanish tarixi, hozirgi davrdagi mazmuni va ahamiyati. Bibliografiyashunoslik tushunchasi, ilmiy konsepsiysi va tushunchalar tizimi. Bibliografiyaning ahamiyati, hozirgi kundagi ijtimoiy mohiyati. Bibliografik lug‘atlar, o‘rta asrlar bibliografiyasining rivojlanishii. Bibliografiyaning boshqa turlarini paydo bo‘lishi. Kitob savdosи va bibliografiyaning paydo bo‘lishi. Bibliografik faoliyat.		2

		Asosiy bibliografik tushunchalar: bibliografik qo'llanma, bibliografik ro'yxat, bibliografik ko'satkich, bibliografik obzor, Bibliografik tasnif.	
3	Eng qadimgi sivilizatsiya davlatlarida bibliografiyashuno slik va kutubxonalar faoliyati. Antik davrda bibliografiyashuno slik.	Eng qadimgi sivilizatsiya davlatlarida bibliografiyashunoslik. Misr va Mesopotamiyada bibliograf va kaligraflar faoliyati. Shumer bibliografik matnlarini o'rganish. Eramizdan oldingi III-ming yilligida Shumerlar sopol taxtachalarda yozuvni ixtiro qilinishi, yozuvdan Akkad, Ossuriya, Finikiya, Urartu mamlakatlarida foydalanilishi. Shumerlar davridagi Lagash, Larsa, Ur, Umma, Shuruppak, Nippur shahar xarobalaridan topilgan boy arxivlar. Bibliografiya asoschisi Kallimax tomonidan Iskandariya kutubxonasi (miloddan avvalgi 250 y.) fondlari asosida yaratilgan: Ossuriya qiroli Ashurbanipal kutubxonasi ro'yxati (miloddan avvalgi VII asr). Antik davr madaniyat – bu jahon sivilizatsiyasi tarixdagi noyob hodisa. Krit oroli sivilizatsiyasi. Yunoniston Yevropa madaniyatining beshigi. Yunonistonda bibliografiyashunoslikning paydo bo'lishi. Antik davr Rim madaniyatini kutubxonalarini haqidagi ma'lumotlar. Qadimgi Rimda bibliografiyashunoslikning paydo bo'lishi.	2
4	Sharq davlatlarida bibliografiyashuno slik. O'rta Osiyoda bibliografiyaning paydo bo'lishi.	Xitoyda feodalizmning shakllanishi buddizmning tarqalishi, budda cherkovlari va monostrlarida kutubxonalaridan keng foydalanilishi. Monastr kutubxonalarining asosini budda diniga oid adabiyotlarni tashkil etilishi va bibliografiya faoliyati. Kutubxonalaridagi kitoblarining bambuk daraxtidan qilingan o'ramlarda yozilishi va mazkur o'ramlarda muallif nomi, tarjimon haqida ma'lumotlar keltirilganligi. Xitoy qadimiylarini yig'ishda Suy va Tan imperatorlarining o'rni. Hindistonda bibliografiya, kitob va kutubxonalar faoliyati. Hindistonda bibliografiyashunoslikni rivojlanishi. Bibliograflar faoliyati. Hind adabiyotining 3 ming yildan ko`proq an`anasi vedalar – sanskrit tilidagi diniy gimnlar. Miloddan avvalgi 10-4-asrlarda xalq og`zaki ijodida yirik epik dostonlar – "Mahabharata" va "Ramayana". O'rta Osiyo bibliografiyasi o'rta asrlar davrida paydo bo'ldi. Beruniy va bibliografiya. O'rta asr Sharqida arab xalifaligiga birlashgan xalqlar madaniyati va fani rivojida bibliografiyaning o'rni. Qo'lyozma kitoblar uzoq va mashaqqatli mehnat mahsuli. Arab yozuvidagi adabiyotlarni yig'ish va uning takomillashib borishi bevosita yozuvning taraqqiyoti va ayrim asarlar nusxalarining ko'payishi. Xorazm, Buxoro, Samarqanddagi saroylar, masjid va madrasalarda juda boy kutubxonalar faoliyati, bibliografik faoliyat rivoji.	2
Jami			8
2-semestr			

5	Amir Temur va Temuriylar davrida bibliografiyashuno slik.	Amir Temur va temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda bibliografiya va qo'lyozmalar saqlanadigon kutubxonalarning ko'p asrlik tarixi. Ko'p miqdorda qo'lyozma fondlarining shakllanishi bilimning turli tarmoqlariga doir asarlari mavjud bo'lgan yangi kutubxonalar tashkil etilishi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshlarida Movarounnahrda bibliogarfiyaning keng rivojlanishi. Temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda bibliografiya rivoji.	2
6	XVI-XIX asrlarda Buxoro xonligi (amirligi), Xiva, Qo'qon xonliklarida madaniy hayat va bibliografiyashuno slik.	XVI-XIX asrlarda Buxoro xonligi (amirligi), Xiva, Qo'qon xonliklarida madaniy hayat va bibliografiyashunoslik. Buxoro xonligi (amirligi), Xiva va Qo'qon xonliklarida qo'lyozma kitoblar, dunyoviy bilim beradigan kitoblar chiqarishni sezilarli ravishda kamayib ketishi. Xonliklardagi qo'lyozma fondlariga ega bo'lgan saroy kutubxonalarini va xususiy kutubxonalar faoliyati va bibliografiyashunoslik. Bibliografiyashunoslik bilan shug`ullangan kutubxonachilar faoliyati. Kutubxonalarda hikmatli va nodir qo'lyozmalar bibliografiyasi. O'zbek xonliklarida kitob savdosi.	2
7	O'rta asrlarda Yevropada bibliografiyashuno slikning rivojlanissi. Germaniyada bibliografik faoliyat.	XV asrda boshlangan gumanistik harakatlar Germaniyada katolik cherkovi tomonidan olib borilgan g'oyaviy feodal yondashuv. Gumanistlar Rudolf Agrikol, Konrad Seltislar nemis universitetlari qoshida krujoklar tashkil etib antik davr mualliflarining professori Martin Lyuter islohotlariga boshchilik qiladi.	2
8	Fransiyada bibliografiyashuno slik va bibliografik faoliyat. Angliyada bibliografiyashuno slik va bibliografik faoliyat.	Fransiyada madaniy yuksalish XVI asrga to'g'ri keladi. Yuksalish davrining markazlaridan biri Parij va Lion shaharlari hisoblanadi. Fransiyadagi birinchi ommamiy kutubxona 1634 yilda kardinal Julio Mazarani tomonidan tashkil etilgan. Fransiyada va Italiyadan farqli o'laroq Angliyada yuksalish davrida monastr kutubxonalarini yetakchi o'rnlarni egallagan edi. Angliyada islohotlar o'tkazgan Genrix VIII Oksford va Kembirj universitetlari kutubxonalarining fondlaridagi dunyoviy ilmlarga asoslangan adabiyotlarni fonddan chiqarib katolik cherkovi roxiblari rahbarligida yoqib yuboriladi.	2
	Jami		8
	3-semestr		
9	Amerika qo'shma shtatlarida bibliografiyashuno slik va bibliografik faoliyat.	1776-yilning iyul oyida AQSH mustaqillik dekloratsiyasini qabul qilinishi. AQSHda birinchi kutubxona Janubiy Korolinada 1697-yilda Tomas Brey tomonidan tashkil etilishi. AQSHdagi ommaviy kutubxonalar faoliyati.	2
10	Rossiyada bibliografiyashuno slik va bibliografik	"Kutubxona" so'zining o'zi Qadimgi Rusda deyarli ishlatilmagan. Birinchi marta u XV asrning oxirida (1499) Novgorodda tarjima qilingan va qayta yozilgan	2

	faoliyat.	mashhur “Gennadievskaya Injil” da uchraydi. Ushbu atama rus xalqi uchun g’ayrioddiy edi, shuning uchun uning qarshisida tarjimon “kitob uyi” deb izoh berdi. Bu atama ikkinchi marotaba XVII asrning boshlarida (1602) Solovetskiy xronikasida topilgan bo’lib, unda shunday deyilgan:“Kutubxonaga mo’ljallangan tosh kamera ayvonda sobor cherkovi yonida qurilgan”. Kutubxonalarning birinchi annalistik ko’rsatmasiga kelsak, bu 1037-yilga tegishli bo’lib, Yaroslav Dono Yunon tilini tarjima qilish uchun yozuvchilar to’plagan va mavjud slavyan kitoblarining yozishmalarini Kievdagagi Aziz Sofiya soborida saqlashni buyurgan. Rossiyada shu tarzda yaratilgan birinchi kutubxona keyingi yillarda o’sib, kitob xazinalari bilan boyitildi.	
11	Bibliografik axborotning asosiy shakllari, axborotni yig‘ish va uzatish.	Bibliografik axborotning mohiyati, xususiyatlari, tarixi, uni uzatish va tarqatish usullari, bibliografik yozuv va uning xususiyatlari, bibliografiyalash texnologiyasi. Asosiy tushunchalar - bibliografik kirish, bibliografik axborot, bibliografik xabar, bibliografik yozuv, bibliografik yozuvning tavsif boshi, bibliografik tavsif, annotatsiya, referat, indekslash, yo’naltirish, bibliografik faoliyat, bibliografiyalash, bibliografik xizmat.	2
12	Bibliografiyaning ijtimoiy munosabatlardagi o’rnini belgilash masalalari. Bibliografiyaning obyektlari.	Bibliografiyaning ijtimoiy munosabatlardagi o’rni. Bibliografik axborot tushunchasi va mazmuni. Bibliografik axborot – hujjatlar va foydalanuvchilar o’tasida vosita sifatida. Bibliografik axborotga ehtiyojlar, ularning shakllanishi. Bibliografik faoliyatning natijasi sifatida hujjatlar haqida bibliografik axborot berishning mohiyati, hujjatlar va ularning turlari, davomli va vaqtli matbuot nashrlari, mamlakatimizdagi yirik nashriyotlar haqida axborot berish.	2
Jami		8	
4-semestr			
13	Vaqtli matbuot nashrlarining klassifikatsiyasi.	Asosiy tushunchalar — hujjat, axborot iste’molchisi, bosma mahsulot, vaqtli matbuot nashri, davomli nashr, rasmiy nashr, ilmiy-ommabop nashr, o‘quv nashri, ma’lumotnomalar nashrlari. 1918- yili Turkiston Respublikasi Maorif ijroiya qo’mitasining huzurida matbuot byurosining tuzilish va matbaa sanoatiga rahbarlik qilish.	2
14	Bosma mahsulotlarni nashr etish. Nashriyotlar.	Turkiston davlat nashriyoti negizida 1925- yil fevral oyida O‘zbekiston davlat nashriyoti-O‘zdavnashrni tashkil etilishi. O‘zbekistonda 2 ta ko‘p sohali — O‘zdavnashr va Qoraqalpoqdavnashr, 9 ta ixtisoslashgan nashriyot faoliyati. Mustaqillik yillarda bosma mahsulotlarni nashr etish, nashriyot ishini yanada takomillashtirish, o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minlash.	2
15	Axborot - bibliografiya	Hozirgi zamon talablari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda axborot-bibliografiya resurslari, ularning	2

	resurslari.	xususiyatlari, ahamiyati, ularni iste'molchilarga yetkazib berish usuli bilan talabalarni tanishtirish. Asosiy tushunchalar-axborot resurslari, kutubxona-bibliografiya resurslari, bibliografik mahsulotlar, bibliografik ko'rsatkichlar, bibliografik ro'yxtatlar, bibliografik obzor (sharh)lar, ma'lumotlar bazasi, ma'lumotlar banki.	
16	O'zbekistonda milliy va davlat bibliografiyasi Respublika Milliy kitob palatasini faoliyati	Milliy va davlat bibliografiyasi haqida tushuncha berish, O'zbekistonda Milliy va davlat bibliografiyasining rivoji, uning markazlari haqida ma'lumot berish. Asosiy tushunchalar milliy bibliografiya, davlat bibliografiyasi, kitob palatasi, kitob solnomasi, taqrizlar solnomasi.	2
Jami			8
5-SEMESTR			
17	O'zbekistonning mashhur bibliograflari	Yevgeniy Karlovich Betger — O'zbekistonda kutubxonachilik ishining eng keksa avlodи, vakili. Sharqshunos va kitobshunos olim Aleksandr Aleksandrovich Semyonov. Olga Vasilyevna Maslovaning o'zbek bibliografiyasi tarixida o'ziga xos o'rni. Dastlabki mahalliy bibliograf olimlar Muso Mamatovich Turopov, Matluba Yahyoyevna Nosirova, Shuhrat Murodovich Shamsiyev, Hamroxon Mamatraimovalar faoliyati.	4
18	Kutubxonalarning bibliografik faoliyati	Kutubxonalar faoliyatining asosini tashkil etuvchi bibliografiya ishi, uning maqsad va vazifalari, mazmuni, milliy bibliografiya markazlari haqida bilim berish. Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va bibliografiya markazi sifatida. Oliy o'quv yurtlari kutubxonalarining bibliografik faoliyati. Asosiy tushunchalar bibliografik ish, infratuzilma, axborot markazi, bibliografik markaz.	2
19	Kutubxonalarning ma'lumot — bibliografiya apparati (mba)	MBA haqida umumiyligi tushuncha. bibliografik axborot uchun zarur manbalar haqida, ma'lumot-bibliografiya apparati, uning tarkibi, tashkil etish qoidalari haqida ma'lumot berish. Asosiy tushunchalar-ma'lumot-bibliografiya apparati, kutubxona kataloglari tizimi, kartotekalar tizimi, ma'lumot bibliografiya fondi.	2
20	Kutubxonalarda bibliografiya ishini tashkil etish.	Bibliografik qo'llanmalarni tuzishning umumiyligi metodikasi. Bosma nashrlarni va bibliografik qo'llanmalarni o'rganish metodikasi. Bibliografik kartotekalarni tuzish. Kutubxonalarda, axborot-kutubxona markazlarida bibliografik qo'llanmalar bilan ishslash, ularni tuzish, ularning turlari va xususiyatlarini o'rgatish.	4
21	Tavsiya ko'rsatkichlarinin g'arbiy shakllarini tuzish.	Tavsiya ro'yxtatlar, kutubxonalar faoliyatida eng ko'p qo'llaniladigan tavsiya bibliografik ko'rsatkichlarini tuzish va ularning xususiyatlarini tushuntirish. Asosiy tushunchalar — ro'yxtatlar, o'qish rejali, esdaliklar, bulletenlar.	2
22	Og'zaki bibliografik	Bibliografik xizmat ko'rsatish va bibliografik axborot berishning bir shakli — bibliografik sharhlar, ularning	4

	obzorlarni tayyorlash va o'tkazish	turlari, tayyorlash va o'tkazish haqida ma'lumot berish. Asosiy tushunchalar — sharhlar, press reliz. Bibliografik obzorlarning maqsadi, ahamiyati, uni tayyorlash qoidasi.	
23	Iste'molchilarga ma'lumot-bibliografiya xizmati (mbx) ko'rsatish	Ma'lumot-bibliografiya xizmati, uni tashkil etish, turli bilim sohalari va yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotbibliografiya xizmati ko'rsatish qoidalari haqida ma'lumot berish. Asosiy tushunchalar — ma'lumot-bibliografiya xizmati, bibliografik so'roqlar, faktografik so'roqlar. MBX haqida umumiy tushuncha.	2
24	Kutubxonani bibliografik axborotlashtirish.	Kitobxonlarni bibliografik axborot bilan ta'minlashning ommaviy, yakka, guruhli turlari bilan, ularni tashkil etish va olib borish yo'llari bilan tanishtirish. Asosiy tushunchalar — bibliografik axborotlashtirish, yig'ma kartotekalar. Bibliografik axborotlashtirish haqida tushuncha	4
Jami		24	
6-semestr			
25	Xalqaro bibliografik formatlar	Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun zarur bilimlarni egallashda yordam berish, xalqaro bibliografik formatlar, ularning tarixi, shakllanish jarayonlari, turlari, ahamiyati haqida bilim berish. Asosiy tushunchalar — MARC, format, UKMARC, USMARC, milliy formatlar, kodlar. MARC formatlarining tarixi, shakllanishi, ahamiyati	2
26	Kitobxonlarning axborot va kompyuter madaniyatini tarbiyalash, shakllantirishda kutubxonalar faoliyati	Kutubxonalar faoliyatida barkamol avlodni voyaga yetkazishda zarur bo'lgan ish yo'nalishlaridan biri ularda hujjatlar vositasida ma'naviyat va madaniyat ko'rinishlarini tarbiyalash masalalarini yoritib berish. Asosiy tushunchalar — axborot madaniyati, kompyuter madaniyati. Kitobxonlarning axborot madaniyatini tarbiyalash shakllari	2
Jami		4	
Umumiy jami		60	

Amaliy mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar taqsimoti.

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni	Soati
			1-semestr
1	Biblografiyashuno slik faniga kirish. Biblografiyashuno slik fanning predmeti, maqsadi va vazifalari	"Biblografiyashunoslik" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Bibliografiyaning tayanch belgilari. Bibliografiyaning asosiy turlari. Bibliografiyani tashkil etish maqsadi. Bibliografik mahsulotlar haqida tushuncha va ularning ahamiyati. Bibliografiyaning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati.	6
2	Biblografiyaning tarixi: bibliografiya tushunchasi, kelib chiqishi, zamonaviy talqini.	Biblografiya tushunchasi, uning kelib chiqishi va shakllanish tarixi, hozirgi davrdagi mazmuni va ahamiyati. Biblografiyashunoslik tushunchasi, ilmiy konsepsiysi va tushunchalar tizimi. Biblografiyaning ahamiyati, hozirgi kundagi ijtimoiy mohiyati.	4
3	Biblografiya	Biblografik lug'atlar, o'rta asrlar bibliografiyasining	6

	nazariyasi.	rivojlanishii. Bibliografiyaning boshqa turlarini paydo bo'lishi. Kitob savdosi va bibliografiyaning paydo bo'lishi. Bibliografik faoliyat. Asosiy bibliografik tushunchalar: bibliografik qo'llanma, bibliografik ro'yxat, bibliografik ko'satkich, bibliografik obzor, Bibliografik tasnif.	
4	Eng qadimgi sivilizatsiya davlatlarida bibliografiyashuno slik va kutubxonalar faoliyati.	Eng qadimgi sivilizatsiya davlatlarida bibliografiyashunoslik. Misr va Mesopotamiyada bibliograf va kaligraflar faoliyati. Shumer bibliografik matnlarini o'rganish. Eramizdan oldingi III-ming yilligida Shumerlar sopol taxtachalarda yozuvni ixtiro qilinishi, yozuvdan Akkad, Ossuriya, Finikiya, Urartu mamlakatlarida foydalanilishi. Shumerlar davridagi Lagash, Larsa, Ur, Umma, Shuruppak, Nippur shahar xarobalaridan topilgan boy arxivlar. Bibliografiya asoschisi Kallimax tomonidan Iskandariya kutubxonasi (miloddan avvalgi 250 y.) fondlari asosida yaratilgan: Ossuriya qiroli Ashurbanipal kutubxonasi ro'yxati (miloddan avvalgi VII asr).	6
5	Antik davrda bibliografiyashuno slik.	Antik davr madaniyat – bu jahon sivilizatsiyasi tarixdagi noyob hodisa. Krit oroli sivilizatsiyasi. Yunoniston Yevropa madaniyatining beshigi. Yunonistonda bibliografiyashunoslikning paydo bo'lishi. Antik davr Rim madaniyati kutubxonalari haqidagi ma'lumotlar. Qadimgi Rimda bibliografiyashunoslikning paydo bo'lishi.	4
6	Sharq davlatlarida bibliografiyashuno slik.	Xitoyda feodalizmning shakllanishi buddizmning tarqalishi, budda cherkovlari va monostrlarida kutubxonalardan keng foydalanilishi. Monastr kutubxonalarining asosini budda diniga oid adabiyotlarni tashkil etilishi va bibliografiya faoliyati. Kutubxonalardagi kitoblarining bambuk daraxtidan qilingan o'rmlarda yozilishi va mazkur o'rmlarda muallif nomi, tarjimon haqida ma'lumotlar keltirilganligi. Xitoy qadimiy manbalarini yig'ishda Suy va Tan imperatorlarining o`rni. Hindistonda bibliografiya, kitob va kutubxonalar faoliyati. Hindistonda bibliografiyashunoslikni rivojlanishi. Bibliograflar faoliyati. Hind adabiyotining 3 ming yildan ko`proq an`anasi vedalar – sanskrit tilidagi diniy gimnlar. Miloddan avvalgi 10-4-asrlarda xalq og`zaki ijodida yirik epik dostonlar – "Mahabharata" va "Ramayana".	6
7	O'rta Osiyoda bibliografiyaning paydo bo'lishi.	O'rta Osiyo bibliografiyasi o'rta asrlar davrida paydo bo'ldi. Beruniy va bibliografiya. O'rta asr Sharqida arab xalifaligiga birlashgan xalqlar madaniyati va fani rivojida bibliografiyaning o`rni. Qo'lyozma kitoblar uzoq va mashaqqatli mehnat mahsuli. Arab yozuvidagi adabiyotlarni yig'ish va uning takomillashib borishi bevosita yozuvning taraqqiyoti va ayrim asarlar nusxalarining ko'payishi. Xorazm, Buxoro,	4

		Samarqanddagi saroylar, masjid va madrasalarda juda boy kutubxonalar faoliyati, bibliografik faoliyat rivoji.	
	Jami		36
2-semestr			
8	Amir Temur va Temuriylar davrida bibliografiyashuno slik.	Amir Temur va temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda bibliografiya va qo'lyozmalar saqlanadigon kutubxonalarning ko'p asrlik tarixi. Ko'p miqdorda qo'lyozma fondlarining shakllanishi bilimning turli tarmoqlariga doir asarlari mavjud bo'lgan yangi kutubxonalar tashkil etilishi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshlarida Movarounnahrda bibliogarfiyaning keng rivojlanishi. Temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda bibliografiya rivoji.	6
9	XVI-XIX asrlarda Buxoro xonligi (amirligi), Xiva, Qo'qon xonliklarida madaniy hayat va bibliografiyashuno slik.	XVI-XIX asrlarda Buxoro xonligi (amirligi), Xiva, Qo'qon xonliklarida madaniy hayat va bibliografiyashunoslik. Buxoro xonligi (amirligi), Xiva va Qo'qon xonliklarida qo'lyozma kitoblar, dunyoviy bilim beradigan kitoblar chiqarishni sezilarli ravishda kamayib ketishi. Xonliklardagi qo'lyozma fondlariga ega bo'lgan saroy kutubxonalari va xususiy kutubxonalar faoliyati va bibliografiyashunoslik. Bibliografiyashunoslik bilan shug`ullangan kutubxonachilar faoliyati. Kutubxonalarda hikmatli va nodir qo'lyozmalar bibliografiyasi. O'zbek xonliklarida kitob savdosi.	6
10	O'rta asrlarda Yevropada bibliografiyashuno slikning rivojlanisshi.	O'rta asrlarda Yevropada bibliografiyashunoslikning rivojlanisshi. Uyg'onish davrida Yevropada bibliografiyashunoslikning rivojlanisshi.	6
11	Germaniyada bibliografik faoliyat.	XV asrda boshlangan gumanistik harakatlar Germaniyada katolik cherkovi tomonidan olib borilgan g'oyaviy feodal yondashuv. Gumanistlar Rudolf Agrikol, Konrad Seltislar nemis universitetlari qoshida krujoklar tashkil etib antik davr mualliflarining professori Martin Lyuter islohotlariga boshchilik qiladi.	6
12	Fransiyada bibliografiyashuno slik va bibliografik faoliyat.	Fransiyada madaniy yuksalish XVI asrga to'g'ri keladi. Yuksalish davrining markazlaridan biri Parij va Lion shaharlari hisoblanadi. Fransiyadagi birinchi ommamiy kutubxona 1634 yilda kardinal Julio Mazarani tomonidan tashkil etilgan.	6
13	Angliyada bibliografiyashuno slik va bibliografik faoliyat.	Fransiyada va Italiyadan farqli o'laroq Angliyada yuksalish davrida monastr kutubxonalari yetakchi o'rnlarni egallagan edi. Angliyada islohotlar o'tkazgan Genrix VIII Oksford va Kembirj universitetlari kutubxonalarining fondlaridagi dunyoviy ilmlarga asoslangan adabiyotlarni fonddan chiqarib katolik cherkovi roxiblari rahbarligida yoqib yuboriladi.	6
	Jami		36
	3-semestr		
14	Amerika qo'shma	1776-yilning iyul oyida AQSH mustaqillik	2

	shtatlarida bibliografiyashuno slik va bibliografik faoliyat	dekloratsiyasini qabul qilinishi. AQSHda birinchi kutubxona Janubiy Korolinada 1697-yilda Tomas Brey tomonidan tashkil etilishi. AQSHdagi ommaviy kutubxonalar faoliyati.	
15	Rossiyada bibliografiyashuno slik va bibliografik faoliyat	“Kutubxona” so’zining o’zi Qadimgi Rusda deyarli ishlatilmagan. Birinchi marta u XV asrning oxirida (1499) Novgorodda tarjima qilingan va qayta yozilgan mashhur “Gennadievskaya Injil” da uchraydi. Ushbu atama rus xalqi uchun g’ayrioddiy edi, shuning uchun uning qarshisida tarjimon “kitob uyi” deb izoh berdi. Bu atama ikkinchi marotaba XVII asrning boshlarida (1602) Solovetskiy xronikasida topilgan bo’lib, unda shunday deyilgan: “Kutubxonaga mo’ljallangan tosh kamera ayvonda sobor cherkovi yonida qurilgan”. Kutubxonalarning birinchi annalistik ko’rsatmasiga kelsak, bu 1037-yilga tegishli bo’lib, Yaroslav Dono Yunon tilini tarjima qilish uchun yozuvchilar to’plagan va mavjud slavyan kitoblarining yozishmalarini Kievdagagi Aziz Sofiya soborida saqlashni buyurgan. Rossiyada shu tarzda yaratilgan birinchi kutubxona keyingi yillarda o’sib, kitob xazinalari bilan boyitildi.	2
16	Osiyo davlatlarida bibliografiyashuno slik va bibliografik faoliyat	Osiyo davlatlarida bibliografiyashunoslik va bibliografik faoliyat. Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malaziya, saudiya Arabiston va BAAda bibliografiyashunoslik va bibliografik faoliyat.	4
17	Bibliografik axborotning asosiy shakllari, axborotni yig‘ish va uzatish.	Bibliografik axborotning mohiyati, xususiyatlari, tarixi, uni uzatish va tarqatish usullari, bibliografik yozuv va uning xususiyatlari, bibliografiyalash texnologiyasi. Asosiy tushunchalar - bibliografik kirish, bibliografik axborot, bibliografik xabar, bibliografik yozuv, bibliografik yozuvning tavsif boshi, bibliografik tavsif, annotatsiya, referat, indekslash, yo‘naltirish, bibliografik faoliyat, bibliografiyalash, bibliografik xizmat.	4
18	Bibliografiyaning ijtimoiy munosabatlardagi o’rnini belgilash masalalari.	Bibliografiyaning ijtimoiy munosabatlardagi o’rni. Bibliografik axborot tushunchasi va mazmuni. Bibliografik axborot – hujjatlar va foydalanuvchilar o’rtasida vosita sifatida. Bibliografik axborotga ehtiyojlar, ularning shakllanishi.	4
19	Bibliografiyaning obyektlari.	Bibliografik faoliyatning natijasi sifatida hujjatlar haqida bibliografik axborot berishning mohiyati, hujjatlar va ularning turlari, davomli va vaqtli matbuot nashrlari, mamlakatimizdagi yirik nashriyotlar haqida axborot berish.	4
20	Vaqtli matbuot nashrlarining klassifikatsiyasi.	Asosiy tushunchalar — hujjat, axborot iste’molchisi, bosma mahsulot, vaqtli matbuot nashri, davomli nashr, rasmiy nashr, ilmiyommabop nashr, o‘quv nashri, ma’lumotnomalar nashrlari.	4
21	Bosma mahsulotlarni nashr etish.	1918- yili Turkiston Respublikasi Maorif ijroiya qo‘mitasining huzurida matbuot byurosining tuzilish va matbaa sanoatiga rahbarlik qilish. Turkiston davlat	4

		nashriyoti negizida 1925- yil fevral oyida O'zbekiston davlat nashriyoti-O'zdavnashrni tashkil etilishi. O'zbekistonda 2 ta ko'p sohali — O'zdavnashr va Qoraqalpoqdavnashr, 9 ta ixtisoslashgan nashriyot faoliyati.	
22	Nashriyotlar. Nashriyotlar faoliyati	Mustaqillik yillarda bosma mahsulotlarni nashr etish, nashriyot ishini yanada takomillashtirish, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash.	4
23	XIX asrning ikkinci yarmi va XX asrning boshlari Turkistonda bibliografiya ishi.	O'zbekiston madaniyati tarixida muhim o'rinn tutgan „Turkiston to'plami“ haqida keng ma'lumot berish. V.I. Mejov tomonidan „Turkiston to'plami“ning yaratilishi. „Turkiston to'plami“ga V.I. Mejov tuzgan yordamchi ko'rsatkichlar. N.V. Dmitrovskiy rahbarligida „Turkiston to'plami“ning tuzilishi. A.A. Semyonov boshchiligidagi „Turkiston to'plami“ning tuzilishi.	4
Jami			36
4-semestr			
24	O'zbekistonda milliy va davlat bibliografiyasi	Milliy va davlat bibliografiyasi haqida tushuncha berish, O'zbekistonda Milliy va davlat bibliografiyasining rivoji, uning markazlari haqida ma'lumot berish.	4
25	Axborot - bibliografiya resurslari.	Hozirgi zamon talablari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda axborot-bibliografiya resurslari, ularning xususiyatlari, ahamiyati, ularni iste'molchilarga yetkazib berish usuli bilan talabalarni tanishtirish. Asosiy tushunchalar-axborot resurslari, kutubxona-bibliografiya resurslari, bibliografik mahsulotlar, bibliografik ko'rsatkichlar, bibliografik ro'yxatlar, bibliografik obzor (sharh)lar, ma'lumotlar bazasi, ma'lumotlar banki.	4
26	Respublika Milliy kitob palatasi faoliyati	Asosiy tushunchalar milliy bibliografiya, davlat bibliografiyasi, kitob palatasi, kitob solnomasi, taqrizlar solnomasi.	6
27	Retrospektiv bibliografik qo'llanmalar.	O'zbekistonda retrospektiv bibliografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti, respublikamizda retrospektiv bibliografiyan tashkil etish bo'yicha hujjatlar, uning shakllanishi, taraqqiyoti, yirik bibliografik ko'rsatkichlar, ularning xususiyatlari, ahamiyati haqida ma'lumot berish. O'zbekistondagi yirik kutubxonalarining retrospektiv bibliografiya sohasidagi faoliyati.	4
28	Maxsus bibliografik qo'llanmalar	Bibliografiyaning eng keng tarqalgan turlaridan maxsus bibliografik ko'rsatkichlar va qo'llanmalar, ularning xususiyatlari, ahamiyati, boshqa turlardan farqi, xillari haqida ma'lumot berish.	6
29	Nashriyot va kitob savdosida bibliografik qo'llanmalar.	Bosma nashrlarni targ'ib qilish, reklama qilish, sotish maqsadida tashkil etiladigan bibliografik qo'llanmalar bilan tanishtirish. Asosiy tushunchalar — nashriyot bibliografik qo'llanmalar, kitob savdosi bibliografik qo'llanmalar.	4
30	O'lakashunoslik bibliografik qo'llanmalar.	Har bir mamlakat madaniy hayoti taraqqiyotini alohida aks ettirib boruvchi, kitobxonga va iste'molchiga o'z o'liasi haqida har tomonlama to'la axborot berish bilan	8

		vatanparvarlik fazilatini singdirishga ta'sir etuvchi o'lkaga oid bibliografik faoliyat va uning usullari bilan tanishtirish.	
	Jami		36
	5-semestr		
31	O'zbekistonning mashhur bibliograflari	Yevgeniy Karlovich Betger — O'zbekistonda kutubxonachilik ishining eng keksa avlodni, vakili. Sharqshunos va kitobshunos olim Aleksandr Aleksandrovich Semyonov. Olga Vasilyevna Maslovaning o'zbek bibliografiyasi tarixida o'ziga xos o'rni. Dastlabki mahalliy bibliograf olimlar Muso Mamatovich Turopov, Matluba Yahyoyevna Nosirova, Shuhrat Murodovich Shamsiyev, Hamroxon Mamatraimovalar faoliyati.	6
32	Kutubxonalarning bibliografik faoliyati	Kutubxonalar faoliyatining asosini tashkil etuvchi bibliografiya ishi, uning maqsad va vazifalari, mazmuni, milliy bibliografiya markazlari haqida bilim berish. Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va bibliografiya markazi sifatida. Oliy o'quv yurtlari kutubxonalarining bibliografik faoliyati. Asosiy tushunchalar bibliografik ish, infratuzilma, axborot markazi, bibliografik markaz.	6
33	Kutubxonalarning ma'lumot — bibliografiya apparati (mba)	MBA haqida umumiy tushuncha. bibliografik axborot uchun zarur manbalar haqida, ma'lumot-bibliografiya apparati, uning tarkibi, tashkil etish qoidalari haqida ma'lumot berish. Asosiy tushunchalar-ma'lumot-bibliogarfiya apparati, kutubxona kataloglari tizimi, kartotekalar tizimi, ma'lumot bibliografiya fondi.	4
34	Kutubxonalarda bibliografiya ishini tashkil etish.	Bibliografik qo'llanmalarni tuzishning umumiy metodikasi. Bosma nashrlarni va bibliografik qo'llanmalarni o'rganish metodikasi. Bibliografik kartotekalarni tuzish. Kutubxonalarda, axborot-kutubxona markazlarida bibliografik qo'llanmalar bilan ishslash, ularni tuzish, ularning turlari va xususiyatlarini o'rgatish.	6
35	Tavsiya ko'rsatkichlarinin g kichik shakllarini tuzish.	Tavsiya ro'yxatlari, kutubxonalar faoliyatida eng ko'p qo'llaniladigan tavsiya bibliografik ko'rsatkichlarini tuzish va ularning xususiyatlarini tushuntirish. Asosiy tushunchalar — ro'yxatlar, o'qish rejalar, esdaliklar, bulletenlar.	6
36	Og'zaki bibliografik obzorlarni tayyorlash va o'tkazish	Bibliografik xizmat ko'rsatish va bibliografik axborot berishning bir shakli — bibliografik sharhlar, ularning turlari, tayyorlash va o'tkazish haqida ma'lumot berish. Asosiy tushunchalar — sharhlar, press reliz. Bibliografik obzorlarning maqsadi, ahamiyati, uni tayyorlash qoidasi.	6
37	Iste'molchilarga ma'lumot-bibliografiya xizmati (mbx) ko'rsatish	Ma'lumot-bibliografiya xizmati, uni tashkil etish, turli bilim sohalari va yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotbibliografiya xizmati ko'rsatish qoidalari haqida ma'lumot berish. Asosiy tushunchalar — ma'lumot-bibliografiya xizmati, bibliografik so'roqlar, faktografik	6

		so‘roqlar. MBX haqida umumiy tushuncha.	
38	Kutubxonani bibliografik axborotlashtirish.	Kitobxonlarni bibliografik axborot bilan ta’minalashning ommaviy, yakka, guruqli turlari bilan, ularni tashkil etish va olib borish yo’llari bilan tanishtirish. Asosiy tushunchalar — bibliografik axborotlashtirish, yig‘ma kartotekalar. Bibliografik axborotlashtirish haqida tushuncha	6
Jami		46	
6-semestr			
39	Xalqaro bibliografik formatlar	Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun zarur bilimlarni egallashda yordam berish, xalqaro bibliografik formatlar, ularning tarixi, shakllanish jarayonlari, turlari, ahamiyati haqida bilim berish. Asosiy tushunchalar — MARC, format, UKMARC, USMARC, milliy formatlar, kodlar. MARC formatlarining tarixi, shakllanishi, ahamiyati	10
40	Kitobxonlarning axborot va kompyuter madaniyatini tarbiyalash, shakllantirishda kutubxonalar faoliyati	Kutubxonalar faoliyatida barkamol avlodni voyaga yetkazishda zarur bo‘lgan ish yo‘nalishlaridan biri ularda hujjatlar vositasida ma’naviyat va madaniyat ko‘rinishlarini tarbiyalash masalalarini yoritib berish. Asosiy tushunchalar — axborot madaniyati, kompyuter madaniyati. Kitobxonlarning axborot madaniyatini tarbiyalash shakllari	10
Jami		20	
Umumiy jami		210	

Asosiy adabiyotlar:

1. Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: № O‘RQ - 280. 2011 y. 13 apr. // Xalq so‘zi. – 2011. – 14 apr.
2. “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minalashni tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining № 381 sonli Qarori. 2006 y.20 iyun // Xalq so‘zi. – 2006. – 21 iyun.
3. Qosimova O. va Yesimov T.Umumiy kutubxonashunoslik: ; O‘zR Oliy va o‘rtal maxsus ta’lim vazirligi.-T.: “O‘qituvchi”, 1994.350 b.
4. Axunjanov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarix:.-1-qism Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004.-106 b.
5. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.
6. 4Yesimov.T.B O‘zbekistonda kutubxonachilik ishining shakllanishi va rivojlanishi.-T.:1994.-74 b.
7. Kovalenko A.P., Umarov A.A., Rasulov M.M. Osnovi bibliotekovedeniya: Ucheb.posob.dlya studentov bibliotechnix fakultetov.-T.: Izd-vo NB. Uzbekistana im.A. Navoiy, 2008.- 130 s..
8. Kartashov N.S., Skvorsov V.V. Obshiy bibliotekovedeniye: Uchebnik 1 chast.-M.: Izd-vo MGUK, 1996-1997. CH.1.-88 s., CH.2.-256 s.
